Tashabbuskor loyiha qiymatining 51% miqdorida ko‘chmas mulkgarovi bilan qatnashsa shartnoma qiymatining 100% miqdorida Kompaniya mablag‘lari hisobiga to‘lov amalga oshiriladi.

QARZ

Qarz



Qarz - xizmatlar ipotekasi yordamining alohida turi bo'lib, belgilangan maqsadlar va muddatlarda foydalanish uchun nazarda tutilgan ko'chmas mulk, asbob uskuna, transport vositalari va aylanma mablag'larni to'ldirish uchun zarur bo'lgan mablag'larni yillik foiz ustamasi to'lash sharti bilan tadbirkorlarning talab qilib olinguncha hisobvarag'iga o'tkazib berishni nazarda tutuvchi moliyaviy yordam turi hisoblanadi.

Qarz yordami shartlari

Exclusive (imtiyozli resurslar hisobidan)

FOYDALANUVCHILAR

Faoliyatiga 1 yildan ortiq va yillik daromadi 6 mlrd so'mdan yuqori kichik va o'rta tadbirkorlar

MIQDORI

5 mlrd so'mdan
20 mlrd so'mgacha

CHEGARASI

70 foizgacha

QO'LLANILISHI

- Mol-mulk
- Uskuna
- Avto va maxsus texnika uchun 19 fozidan boshlab

DAVRI

84 oygacha

Yordam shartlari

Kichik 15 kishi - 5 mlrd
O'rta 15 kishi - 5 mlrd
O'rta 35 kishi -10 mlrd
O'rta 35 kishi va yillik daromdi 50 mlrd so'mdan yuqori 20 mlrd so'mgacha

QAYTARISH

18 foizdan

QO'SHIMCHA SHARTLAR

Ko'rsatilgan xizmatlar ipotekasi qiymatiga nisbatan bir marotabalik 1 foiz komission to'lov

Business (tijorat resurslar hisobidan)

FOYDALANUVCHILAR

Barcha tadbirkorlar

MIQDORI

Kichik 10 mlrd so'mgacha
O'rta hamda yirik 20 mlrd so'mgacha

MUDDATI VA FOIZI

84 oygacha 19 %
Avto va maxsus texnika uchun 20 %
Aylanma mablag'ga 18 oy yoki 36 oy har yili qoplash sharti

Ekspress qarz (tijorat resurslar hisobidan)

FOYDALANUVCHILAR

Barcha tadbirkorlarga yillik tushumini 50 foizigacha

MIQDORI

5 mlrd so'mgacha

MUDDATI VA FOIZI

36 oygacha 21 foiz

Ekspress qarz maqsadi aniq belgilanmagan yo'nalishlarga taqdim etiladi

Qarz garovi va foydalanish tartibi

Garov ta'minoti

Qarz miqdoriga nisbatan 125 %

Foydalanish tartibi

Barcha tadbirkorlar



"TRK INVEST" MCHJ

TADBIRKOR LOYIHASIDA KAPITALGA ULUSH KIRITISH ORQALI ISHTIROK ETISH

Kapitalga ulush kiritish yordami



Kapitalga ulush kiritish - ko‘chmas mulk obyektlari, uskunalar va boshqa ko‘rinishdagi aktivlar (bitim obyekti)ni sotib olish va uni loyiha tashabbuskoriga taqdim etish orqali uning ustav kapitalida ulushdor bo‘lib ishtirok etish hisoblanadi.



Kapitalga ulush kiritish yordami shartlari

MIQDORI

Kichik 15 kishi - 3 mlrd
O‘rta 15 kishi - 3 mlrd
O‘rta 35 kishi -5 mlrd

FOYDALANUVCHILAR

Faoliyatiga 1 yildan ortiq va yillik daromadi 6 mlrd so‘mdan yuqori kichik va o‘rta tadbirkorlar

USTAV KAPITALINING

50 foizgacha

LOYIHA QIYMATINING

70 foizgacha

YORDAM VALYUTASI

Milliy valyutada

TA’MINOT

Bitim qiymatining 100 foizi

DAVRI

84 oygacha

Qoraqalpog‘iston Respublikasi uchun

Faoliyatiga 1 yildan ortiq va kamida 10 kishini ish bilan ta‘minlagan, summasi yillik daromadining 50 foizigacha barcha tadbirkorlarga

Foydalanish tartibi

Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi

Kichik va O‘rta tadbirkorlar



“TRK INVEST” MCHJ

Alohida tamoyil

Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi



- Kiritiladigan ulush tadbirkor hisob raqamiga o‘tkaziladi.
- Kiritilgan ulushdan kelib chiqib dividend ko‘rinishda foyda olinadi.
- Kiritiladigan ulushga nisbatan 1 % komission tulov olinadi

E’TIBORINGIZ UCHUN
RAHMAT

Rivojlanish yo’lida birgamiz!

Toshkent 2026

THE EVALUATION OF INFLUENCE OF FOREIGN DIRECT INVESTMENT ON THE DEVELOPMENT OF SMALL AND MEDIUM-SIZED ENTERPRISES IN CIS COUNTRIES



Sidikov Dilmurod

PhD Researcher and Assistant Teacher, Accounting and Auditing Department, Economics Faculty


TIIAME National Research University, Tashkent, Uzbekistan

ORCID: 0009-0004-3159-1904

Tel: +998 91 178 86 58

The Potential of FDI

- Delivers capital inflows, technology transfer, managerial upgrading, and access to wider production networks.
- Serves to overcome structural constraints and raw material dependence.




Does FDI genuinely drive SME development, or do the benefits remain trapped within large, foreign-owned enterprises?


The Vulnerability of CIS SMEs

Institutional Scaffolding

- Central to inclusive growth and employment.
- Constrained by underfinancing, administrative barriers, and unstable business environments.



The Evolution of FDI Theory




Key Takeaway: Modern frameworks dictate that FDI cannot be viewed in a vacuum; the institutional setting is the decisive variable.

The CIS Divergence Matrix

	Russia	Kazakhstan	Armenia
Scale of FDI	Historically massive, driven by market size and resources, but severely reduced by geopolitical shocks.	The most resilient recipient in Central Asia.	Smaller volume, but highly diversified (manufacturing, ICT, renewables).
SME Landscape	90% of businesses, but structural constraints limit integration.	99.5% of businesses. Strong upward policy support.	98% of businesses, driven heavily by services and growing tech.
Economic Translation	Modest GDP contribution (20–25%) despite high numerical presence.	Strongest macroeconomic role, contributing 36.7% to GDP and 50% to employment.	High baseline GDP contribution (40–45%), capturing 50% of employment.

SME Contribution to GDP (2010–2025)



SME Classification: Kazakhstan, Russia, Armenia and Uzbekistan

Kazakhstan

Based on staff count and annual revenue (MCI)

Criterion	Micro	Small	Medium-sized
Staff	≤ 15	≤ 100	101–250
Annual Revenue (MCI)	≤ 30,000	≤ 300,000	≤ 3,000,000

Russia

Based on staff count and annual revenue (RUB)

Criterion	Micro	Small	Medium-sized
Staff	≤ 15	≤ 100	≤ 250
Annual Revenue (RUB)	Defined by law	≤ 800 million	≤ 2 billion

Armenia

Primarily employee-based and sector-sensitive

Criterion	Micro	Small	Medium-sized
Staff	< 10	< 50	< 250

Uzbekistan


Primarily revenue-based (Presidential Decree No. PF-21, 10 February 2023)

Criterion	Microfirm	Small enterprise	Medium business
Annual Revenue (UZS)	Up to UZS 1 billion	UZS 1–10 billion	UZS 10–100 billion

Current official approach emphasizes annual revenue rather than staff count.

Sources: Kazakhstan, Russia and Armenia based on the comparative tables provided; Uzbekistan based on Presidential Decree No. PF-21 (10 Feb 2023).

The Institutional Scaffolding: Rule of Law



Governance Quality Dictates Spillovers:


A predictable legal framework improves investor confidence and lowers barriers for domestic SMEs to cooperate with foreign entities.

The Variance Factor:

The data confirms why similar FDI volumes can yield different outcomes. Weak governance traps capital within large, established monopolies.

Source: World Bank Worldwide Governance Indicators


The Spillover Filter



FDI is merely the raw fuel; institutional quality is the engine that converts it into SME GDP.

Mixed-Methods Econometric Specification

$$\Delta SMEGDP_{it} = \alpha_{it} + \tau_t + \beta_1 \Delta FDI_{it-k} + \beta_2 \Delta Unemp_{it} + \beta_3 \Delta Infl_{it} + E_{it}$$



Methodology: OLS estimation paired with rigorous residual distribution analysis and Shapiro–Wilk normality testing.

Model Results: The Quantitative Proof

Correlation Matrix

Variable	Y	X1	X2	X3
Y	1.0000	0.7513	0.5256	0.1876
X1	0.7513	1.0000	0.8023	-0.0695
X2	0.5256	0.8023	1.0000	-0.0860
X3	0.1876	-0.0695	-0.0860	1.0000


Regression Summary

Variable	Coefficient	p-value
Intercept	1.8102	0.0003
FDI (X1)	0.7512	0.0358
Inflation (X2)	1.5256	0.4407
Unemployment (X3)	0.1876	0.9006

Model Fit: $R^2 = 0.7973$

FDI exhibits the strongest positive, statistically significant association with SME contribution to GDP. Inflation and Unemployment lack statistical significance.

Diagnostic Reality: Establishing Model Boundaries



Shapiro–Wilk Normality Test	
W statistic	0.83201
p-value	1.302e-05

The null hypothesis of normality is rejected at the 5% level.


The Academic Implication: The non-normal residuals confirm the presence of hidden variables. This proves that FDI's impact is not automatic—it is heavily skewed by the unquantified institutional factors (like Rule of Law) discussed earlier.

Synthesis: The Transmission Mechanism




The quality of the investment climate is precisely as important as the quantity of the investment received.

Cascading impacts of global governance system reshaping. Cascading model



Source: Adapted from Petricevic, O., & Teece, D. J.

Constructing the Catalyst: Practical Recommendations



1-SHO‘BA “INNOVATSION TADBIRKORLIK, KICHIK VA O‘RTA BIZNES RIVOJLANISHI”

KICHIK VA O‘RTA BIZNESNI RAQAMLI PLATFORMALAR ORQALI RIVOJLANTIRISH: XALQARO TAJRIBA VA O‘ZBEKISTON UCHUN XULOSALAR

Alimov Bahodir Batirovich
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi loyihalarni boshqarish kafedrasi professori.
ORCID: 0009-0001-7356-3192

Ne’matov Ilyos Sobir o‘g‘li
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi, 1-bosqich magistranti
ORCID: 0009-0008-6599-7514

Annotatsiya. Ushbu maqola savdo tashkilotlarining kichik va o‘rta biznes (KOB) eksportini raqamli platformalar orqali rag‘batlantirishdagi institutsional mexanizmlarini qiyosiy tahlil etadi. Tadqiqot uchta mamlakatning - Malayziya, Tailand va Polshaning - KOBni qo‘llab-quvvatlash tajribalarini o‘rganadi hamda ushbu mamlakatlar tomonidan qo‘llaniladigan raqamli eksport platformalari, institutsional mexanizmlar va samaradorlik ko‘rsatkichlarini tahlil qiladi. Sifatli va miqdoriy metodologiyadan foydalangan holda, tadqiqot har bir mamlakatda savdo targ‘ibot agentliklarining KOB eksportiga qo‘shgan hissasini o‘lchaydigan asosiy ko‘rsatkichlarni aniqlaydi. Qiyosiy tahlil natijalari asosida O‘zbekiston uchun amaliy va moslashtirilgan konseptual model taklif etiladi. Model O‘zbekistonning joriy institutsional landshaftini, raqamli infratuzilmasini va 2030 yilga qadar eksport ulushini 25 foizga oshirish strategik maqsadini hisobga oladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, raqamli platformalarni maqsadli institutsional qo‘llab-quvvatlash va KOBga yo‘naltirilgan siyosat choralariga integratsiya qilish eksport samaradorligini sezilarli darajada yaxshilaydi.

Kalit so‘zlar: kichik va o‘rta biznes; raqamli eksport platformalari; savdo targ‘ibot agentliklari; institutsional mexanizmlar; Malayziya; Tailand; Polsha; O‘zbekiston; eksport samaradorligi; raqamli iqtisodiyot

Kirish. Jahon savdosi landshafti so‘nggi o‘n yillikda tubdan o‘zgarib, kichik va o‘rta bizneslar (KOBlar) global savdo tizimining tobora muhim ishtirokchilariga aylandi. Jahon savdo tashkiloti (JST) ma’lumotlariga ko‘ra, KOBlar ko‘pgina mamlakatlarda eksportning 30-35 foizini tashkil etadi, biroq ular yirik korporatsiyalarga qaraganda ancha katta to‘siqlarga duch keladi [1]. Raqamli texnologiyalarning rivojlanishi va elektron tijorat platformalarining keng tarqalishi KOBlar uchun yangi imkoniyatlar yaratdi, ammo ushbu imkoniyatlardan foydalanish ko‘p jihatdan davlat tomonidan ko‘rsatiladigan institutsional qo‘llab-quvvatlashning sifati va samaradorligiga bog‘liq.

Savdo targ‘ibot agentliklari (STA) va boshqa institutsional mexanizmlar KOBlarni global bozorlarga chiqishda qo‘llab-quvvatlashda markaziy rol o‘ynaydi. Biroq ushbu mexanizmlarning raqamli platformalar bilan integratsiyasi va uning KOB eksportiga ta’siri yetarlicha o‘rganilmagan. Mavjud adabiyotlar ko‘pincha yirik korporatsiyalarga yoki alohida mamlakatlar tajribasiga e’tibor qaratadi, holbuki KOBga yo‘naltirilgan raqamli eksport qo‘llab-quvvatlashning qiyosiy tahlili kamdan-kam uchraydi.

Ushbu tadqiqot quyidagi asosiy savollarga javob berishga harakat qiladi. Birinchidan, Malayziya, Tailand va Polshada savdo tashkilotlari KOB eksportini raqamli platformalar orqali qo‘llab-quvvatlash uchun qanday institutsional mexanizmlardan foydalanadi? Ikkinchidan, ushbu mamlakatlar tajribasidan qanday saboqlar olish mumkin va ularning O‘zbekistonga tatbiq etilishi qanchalik maqsadga muvofiq? Uchinchidan, O‘zbekistonda savdo tashkilotlarining KOB eksportini rag‘batlantirishda samaradorligini oshirish uchun qanday konseptual model taklif etish mumkin?

Tadqiqotning dolzarbligi O‘zbekistonning 2030 yilga qadar eksport hajmini ikki baravar oshirish va iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish bo‘yicha strategik maqsadlari bilan belgilanadi [2]. Ushbu maqsadlarga erishishda KOBlarning roli va ularga ko‘rsatiladigan institutsional qo‘llab-quvvatlashning samaradorligi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. KOB eksportini qo‘llab-quvvatlash sohasidagi adabiyotlar so‘nggi yillarda sezilarli darajada kengaydi. Lederman va boshq. (2010) savdo targ‘ibot agentliklarining eksport ko‘rsatkichlariga ijobiy ta’sirini empirik jihatdan isbotlagan bo‘lsa, Volpe Martincus va Carballo (2010) ushbu ta’sirning KOBlar uchun nisbatan kuchliroq ekanligini ko‘rsatdi [3; 4]. Keyingi tadqiqotlar STA samaradorligining institutsional sifat, moliyaviy resurslar va qo‘llaniladigan vositalar to‘plamiga bog‘liq ekanligini ta'kidladi [5; 6].

Raqamli texnologiyalar savdo sohasiga integratsiya qilinishi bilan bir qatorda, adabiyotlarda raqamli eksport qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari muhokamasi ham kengaydi. Cirera va boshq. (2021) raqamli platformalarning KOBlarning eksport bozorlari haqida ma’lumot olishdagi xarajatlarini kamaytirishi va yangi savdo imkoniyatlarini ochishini ko‘rsatdi [7]. Choi va boshq. (2020) Osiyo mamlakatlarida elektron tijorat platformalarining KOBlar uchun eksport katalizatori vazifasini bajarishi mumkinligini aniqladi [8].

Rivojlanayotgan iqtisodiyotlar kontekstida Cariolle va boshq. (2019) raqamli infratuzilmaning KOB eksport samaradorligiga ta’siri mamlakatning umumiy institutsional sifatiga bog‘liqligini ko‘rsatdi [9]. Ushbu natija raqamli platformalar va institutsional mexanizmlar o‘rtasidagi komplementarlik munosabatini ta’kidlaydi.

Savdo targ‘ibot agentliklarining samaradorligini o‘lchash bo‘yicha adabiyotlarda bir qancha yondashuvlar mavjud. Trademap va ITC ma’lumotlariga asoslangan miqdoriy tadqiqotlar eksport yo‘nalishlari soni, eksport qiluvchi KOBlar ulushi va eksport intensivligi kabi ko‘rsatkichlardan foydalanadi [10]. Sifatli yondashuvlar esa STA xizmatlari bilan qoniqish darajasi, xizmatlardan foydalanish

darajasi va subyektiv samaradorlikni o‘lchaydi.

Bannister va Connolly (2015) “raqamli hukumat” konsepsiyasini savdo qo‘llab-quvvatlashi kontekstiga kengaytirib, raqamli platformalar orqali ko‘rsatiladigan STA xizmatlarining shaffoflik, foydalanish qulayligi va xarajat samaradorligi jihatidan an’anaviy yondashuvlarga nisbatan ustunliklarini ko‘rsatdi [11]. Kahiya va boshq. (2019) bir vaqtning o‘zida bir necha xizmatlarni taklif etuvchi “bir oyna” tamoyilidagi raqamli platformalarning KOBlar uchun ayniqsa foydali ekanligini aniqladi [12].

Janubi-Sharqiy Osiyo kontekstida Malayziya va Tailandning savdo targ‘ibot modellari ko‘plab tadqiqotlar mavzusiga aylandi. Nair va boshq. (2020) MATRADE (Malayziya Tashqi Savdo Korporatsiyasi) faoliyatini tahlil qilib, raqamli vositalarni joriy etish eksport ko‘rsatkichlarini yaxshilaganini, ammo KOBlar uchun texnik to‘siqlar saqlanib qolganini ko‘rsatdi [13]. Tharoeun va boshq. (2021) DITP (Tailand Xalqaro Savdo Targ‘ibot Departamenti) ning elektron tijoratga yo‘naltirilgan strategiyalarini o‘rganib, davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlikning hal qiluvchi roliga e’tibor qaratdi [14].

Polsha tajribasini tahlil etuvchi tadqiqotlar orasida Nowak-Far va boshq. (2019) Polsha Investitsiya va Savdo Agentligi (PAIH) ning raqamli transformatsiyasini o‘rganib, YeI bozoriga integratsiya va raqamli savdo platformalarining sinergik ta’sirini ko‘rsatdi [15]. Ko‘plab tadqiqotlar Polshaning KOB eksportini qo‘llab-quvvatlash sohasidagi muvaffaqiyatini nisbatan kuchli huquqiy-me’yoriy bazaga va YeI fondlaridan samarali foydalanishga bog‘laydi [16].

O‘zbekistondagi institutsional islohotlar va eksport strategiyasiga bag‘ishlangan adabiyotlar nisbatan chegaralangan. Meksner va boshq. (2021) O‘rta Osiyo mamlakatlari, jumladan O‘zbekistonda KOB qo‘llab-quvvatlash tizimidagi zaifliklarni - moliyaviy resurslar yetishmovchiligi, koordinatsiya muammolari va raqamli ko‘nikmalar tanqisligi - tahlil etdi [17]. EBRD (2022) O‘zbekistonda tadbirkorlik muhitini baholash hisobotida institutsional qo‘llab-quvvatlash infratuzilmasini yaxshilash zarurligi ta’kidlandi [18].

Tadqiqotlardagi bo‘shliqni tahlil qilib, quyidagilarni belgilash mumkin: birinchidan, O‘zbekistonda raqamli eksport platformalari va institutsional mexanizmlarning KOB eksportiga ta’sirini empirik baholovchi tadqiqotlar juda kam; ikkinchidan, Polsha, Malayziya va Tailand tajribalarini O‘zbekistonga nisbatan taqqoslaydigan va moslashtirilgan model taklif etuvchi tadqiqotlar deyarli mavjud emas. Ushbu tadqiqot aynan mazkur bo‘shliqni to‘ldirish maqsadida amalga oshirilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqot aralash metodologiyadan (mixed methods) foydalanadi va uch bosqichdan iborat. Birinchi bosqichda ikkilamchi ma’lumotlar tahlili amalga oshirildi: Jahon banki, JST, ITC, Yevropa Komissiyasi va milliy statistika organlaridan olingan miqdoriy ma’lumotlar yig‘ildi va tahlil qilindi. Ikkinchi bosqichda har bir mamlakatning savdo targ‘ibot tizimiga oid siyosat hujjatlari, hisobotlar va institutsional strategiyalarning sifatiy tahlili o‘tkazildi. Uchinchi bosqichda yuqoridagi natijalarga asoslanib, O‘zbekiston uchun konseptual model ishlab chiqildi.

Malayziya, Tailand va Polsha quyidagi mezonlar asosida tanlandi. Birinchidan, uchala mamlakat ham so‘nggi 15-20 yil ichida KOB eksportini rag‘batlantirishda sezilarli yutuqlarga erishdi. Ikkinchidan, uchala mamlakat ham raqamli eksport platformalarini institutsional tizimga muvaffaqiyatli integratsiya qildi. Uchinchidan, ular turli rivojlanish bosqichlarini - o‘rta daromadli (Tailand, Malayziya) va yuqori o‘rta daromadli (Polsha) - ifodalaydi. To‘rtinchidan, ular yetarli ma’lumot mavjudligi va ilmiy adabiyotlar bilan qamraganligi jihatidan afzallik kasb etadi.

Tadqiqotda quyidagi ma’lumot manbalaridan foydalanildi: Jahon banki Jahon taraqqiyot ko‘rsatkichlari bazasi (WDI), JST statistika ma’lumotlar bazasi, ITC Trademap va SME Trade Academy materiallari, OECD KOB va tadbirkorlik ko‘rinishi hisobotlari, UNCTAD Raqamli iqtisodiyot hisobotlari, Yevropa Komissiyasi KOB hisobotlari (Polsha uchun), MATRADE, DITP va PAIH yillik hisobotlari, O‘zbekiston Investitsiyalar va Tashqi Savdo Vazirligi ma’lumotlari hamda Statistika agentligi ma’lumotlari [1; 10; 19; 20].

Samaradorlikni baholash uchun quyidagi ko‘rsatkichlar guruhlari ishlab chiqildi. Birinchi guruh - eksport ko‘rsatkichlari: eksport hajmi dinamikasi, eksport qiluvchi KOBlar soni, eksport bozorlarining diversifikatsiyasi va KOB eksportining umumiy eksportdagi ulushi. Ikkinchi guruh - institutsional ko‘rsatkichlar: STA byudjeti va xodimlari soni, taklif etiladigan xizmatlar turi va soni hamda raqamli platformalar foydalanuvchilari soni. Uchinchi guruh - raqamli integratsiya ko‘rsatkichlari: onlayn xizmatlar ulushi, platforma foydalanuvchilik ko‘rsatkichlari va raqamli eksport qo‘llab-quvvatlash vositalarining soni.

Mamlakatlar bo‘yicha tahlil va natijalar

1. Malayziya tajribasi:

Malayziyada institutsional tizim KOB eksportini qo‘llab-quvvatlashning asosiy instituti - MATRADE (Malaysia External Trade Development Corporation) bo‘lib, u 1993 yilda tashkil etilgan va Xalqaro savdo va sanoat vazirligi (MITI) nazoratida faoliyat yuritadi. MATRADE 46 ta xorijiy vakolatxonaga ega va yiliga o‘rtacha RM 350 million (taxminan 78 million USD) byudjet bilan moliyalanadi [21].

2018-2022 yillarda MATRADE bir qancha muhim raqamli tashabbuslarni amalga oshirdi. MyExport portali KOB eksportchilariga bozor ma’lumotlari va hamkorlarni topish xizmatlarini taqdim etadi. eTRADE platformasi KOBlarni Alibaba, Amazon va boshqa xalqaro elektron tijorat platformalariga ulashga yordam beradi. Virtual savdo ko‘rgazmalari doirasida 2020-2021 yillarda 200 dan ortiq virtual tadbir o‘tkazildi va 15,000 dan ortiq KOB qatnashdi [21]. eCommerce Export Accelerator dasturi KOBlarga raqamli eksport ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun maxsus treninglar taqdim etadi.

2018-2022 yillar orasida Malayziyaning umumiy eksporti 14 foizga o‘sdi. KOB eksportining umumiy eksportdagi ulushi 2018 yildagi 17,9 foizdan 2022 yilda 20,3 foizga ko‘tarildi. Faol eksport qiluvchi KOBlar soni 45,000 dan 62,000 ga yetdi [22; 1]. MATRADE modelining kuchli tomonlari: kuchli davlat-xususiy sektor hamkorligi, yaxshi moliyalashtirilgan tizim, raqamli platformalarning

muvaffaqiyatli integratsiyasi. Cheklovlar: past texnologik ko‘nikmali KOBlar uchun raqamli xizmatlardan foydalanishdagi qiyinchiliklar va xizmatlarni yetkazishda geografik nomutanosiblik.

2. Tailand tajribasi:

Tailandda KOB eksportini qo‘llab-quvvatlash tizimi ko‘proq tarmoqli tuzilmaga ega. DITP (Department of International Trade Promotion) asosiy savdo targ‘ibot organi, OSMEP (Kichik va o‘rta korxonalar targ‘ib etish ofisi) umumiy qo‘llab-quvvatlashga mas'ul, DBD (Biznes rivojlanish departamenti) raqamli biznes ro‘yxatga olish va elektron tijoratga e’tibor qaratadi.

DITP 2020 yilda Virtual Trade Show platformasini ishga tushirdi - faqat 2021 yilda 3,000 dan ortiq KOBga 15,000 dan ortiq xorijiy xaridorlar bilan uchrashish imkonini berdi. DEmark raqamli platforma Tailand KOBlarining brend qiymatini targ‘ib etadi. ThaiTradeOnline.com B2B platformasi global xaridorlarni mahalliy yetkazib beruvchilar bilan ulaydi. OTOP Online mahalliy hunarmandchilik va kichik ishlab chiqaruvchilarga onlayn savdo imkonini beradi [23].

Tailandning umumiy eksporti 2018-2022 yillar orasida 8,5 foizga o‘sdi. KOB eksportining umumiy eksportdagi ulushi 28,4 foizdan 29,8 foizga ko‘tarildi. DITP Virtual Trade Show orqali 2021-2022 yillarda 800 million USD dan ortiq bitishuvlar amalga oshirildi [23; 10].

Kuchli tomonlar: davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi samarali hamkorlik, mahalliy xususiyatlarni hisobga olgan turli dasturlar. Cheklovlar: ko‘p sonli muassasalar o‘rtasidagi koordinatsiya muammolari va dasturlarning tarqoqligi.

3. Polsha tajribasi:

Polshada KOB eksportini qo‘llab-quvvatlash PAIH (Polish Investment and Trade Agency) tomonidan amalga oshiriladi, bu agentlik 2017 yilda ikki tashkilotni birlashtirish orqali tashkil etilgan. 70 dan ortiq mamlakatda vakolatxonalar tarmog‘i PAIH eksport qamrovi kengligini ta’minlaydi [24].

Polsha eksporti 2018-2022 yillar orasida 32 foizga o‘sdi. KOBlar Polsha eksportining taxminan 30 foizini tashkil qiladi. YeI fondlari yordamida KOBni qo‘llab-quvvatlash dasturlari 2014-2020 yillar davrida 3,5 mlrd Yevrodan ortiq mablag‘ni jalb qildi [25; 26].

Kuchli tomonlar: mustahkam huquqiy-me’yoriy baza, ko‘p kanalli moliyalashtirish modeli, yaxshi rivojlangan raqamli ko‘nikmalar bazasi bo‘lsa, cheklovlar YeI bozorlariga haddan tashqari bog‘liqlik va geosiyosiy xavflar.

Qiyosiy tahlil. Uch mamlakat o‘rtasidagi qiyosiy tahlil institutsional arxitektura jihatidan muhim farqlarni ko‘rsatadi. Malayziya nisbatan markazlashgan modelni qo‘llaydi, bu yerda MATRADE asosiy koordinatsiya roli o‘ynaydi. Tailand esa ko‘p agentlikli, tarmoqli modelga ega, bu model moslashuvchanlikni ta’minlaydi, biroq koordinatsiya muammolarini keltirib chiqaradi. Polsha ikkita tashkilotni birlashtirgan yagona agentlik modelini qo‘llaydi va YeI platformasidan keng foydalanadi.

1-jadval

Uch mamlakat savdo targ‘ibot tizimlarining qiyosiy ko‘rsatkichlari (2018-2022)[1]

Ko‘rsatkich	Malayziya	Tailand	Polsha
KOB eksporti o‘sishi (2018-2022)	+13,4%	+8,9%	+29,7%
KOB eksport ulushi	20,3%	29,8%	30%
Raqamli platformalar soni	6	8	5
Virtual tadbirlar (2020-2022)	200	150	120
STA byudjeti (mln USD)	78	55	120

Uch mamlakat tajribasidan kelib chiqadigan umumiy muvaffaqiyat omillari quyidagilardir. Birinchidan, siyosiy iroda va barqaror institutsional qo‘llab-quvvatlash - uchala mamlakat ham uzoq muddatli KOB eksport strategiyalariga ega. Ikkinchidan, raqamli va an’anaviy vositalarning muvozanatli kombinatsiyasi - raqamli platformalar an’anaviy xizmatlarni to‘ldiradi, almashtirmaydi. Uchinchidan, davlat va xususiy sektor hamkorligi qamrov va samaradorlikni oshiradi. To‘rtinchidan, KOBlarning raqamli imkoniyatlarini kuchaytirish - platforma yaratishning o‘zi yetarli emas, zarur ko‘nikmalar ham kerak. Beshinchidan, tizimli monitoring - uchala mamlakat ham KOB eksport ko‘rsatkichlarini muntazam o‘lchaydi va hisobot beradi.

O‘zbekiston uchun kontseptual model

1. O‘zbekistonning joriy holati tahlili

O‘zbekistonda KOB eksportini qo‘llab-quvvatlash tizimi so‘nggi yillarda sezilarli islohotlardan o‘tdi. 2019 yilda Investitsiyalar va Tashqi Savdo Vazirligi (ITSTV) ning tashkil etilishi, 2022 yilda “O‘zbekeksport” agentligining qayta tashkil etilishi ijobiy qadamlar hisoblanadi [2]. Shu bilan birga, bir qancha muammolar saqlanib qolmoqda: koordinatsiya mexanizmlari zaif, raqamli infratuzilma rivojlanish yo‘lidadir va KOBlarning raqamli ko‘nikma darajasi past.

O‘zbekistonda KOBlar umumiy eksportning atigi 15-17 foizini tashkil etadi [27], bu ko‘rsatkich qiyosiy mamlakatlardan sezilarli darajada past. O‘zbekiston Raqamli rivojlanish indeksida (2022) 108 o‘rinni egallab, raqamli eksport platformalarini joriy etish uchun infratuzilma cheklovlari mavjud.

2. “UzTrade Digital 2030”: konseptual model

Qiyosiy tahlil va O‘zbekistonning joriy sharoitini hisobga olgan holda, “UzTrade Digital 2030” konseptual modeli taklif etiladi. Bu model uch ustundan iborat.

Malayziya modelidan ilhomlangan holda, “O‘zbekeksport” agentligini funksional jihatdan mustahkamlash, viloyat savdo targ‘ibot markazlarini rivojlantirish va ko‘p agentlikli koordinatsiya mexanizmini joriy etish tavsiya

[1] Tadqiqotchilar tomonidan ishlab chiqilgan.

etiladi. Buning uchun ITSTV, Iqtisodiyot vazirligi, “O‘zbekeksport” va tadbirkorlar assotsiatsiyalari o‘rtasidagi koordinatsiya kengashini tashkil etish zarur.

Tailand modelidan ilhomlangan holda, bir-biri bilan ulangan raqamli platformalar ekotizimini yaratish tavsiya etiladi: UzTradeInfo.uz portali (bozor ma’lumotlari, bozorga kirish yo‘riqnomasi), UzMatch B2B platformasi (xaridorlar va eksportchilarni ulash), Virtual savdo ko‘rgazma platformasi, elektron tijorat integratsiya platformasi (Alibaba, Amazon, AliExpress kabilarga ulash), raqamli ta’lim platformasi.

Polsha modelidan ilhomlangan holda, KOBlarning raqamli ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun keng qamrovli dastur zarur: Export Academy doirasida raqamli eksport ta’limi, mentorlik va akseleratsiya dasturlari, raqamli sertifikatsiya tizimi hamda universitetlar bilan hamkorlikda ko‘nikmalar markazlarini tashkil etish.

3. Modelni amalga oshirish bosqichlari

Institutsional koordinatsiya mexanizmini yaratish; UzTradeInfo.uz portalini ishga tushirish; Pilot viloyatlarda (Toshkent, Samarqand, Namangan) raqamli eksport markazlarini ochish; 5,000 KOBni onlayn eksport treninglariga jalb etish.

UzMatch B2B platformasini ishga tushirish; Virtual savdo ko‘rgazmalar seriyasini boshlash; 20,000 KOBni raqamli eksport tizimiga jalb etish; Barcha viloyatlarda KOB raqamli eksport markazlarini ochish.

Platforma ekotizimini to‘liq integratsiya qilish; Sun’iy intellekt asosida KOBlarga moslashtirilgan bozor tavsiyalarini taqdim etish; KOB eksportining umumiy eksportdagi ulushini 25 foizga yetkazish.

4. Samaradorlikni o‘lchash tizimi (KPI)

Model samaradorligini baholash uchun miqdoriy ko‘rsatkichlar: KOB eksportining umumiy eksportdagi ulushi (maqsad: 25% gacha 2030 yilga qadar); raqamli platformadan faol foydalanuvchi KOBlar soni (maqsad: 50,000 gacha 2030 yilga qadar); virtual savdo ko‘rgazmalari orqali tuzilgan bitimlar hajmi; eksport bozorlarining geografik diversifikatsiya indeksi.

Sifatiy ko‘rsatkichlar: KOBlarning STA xizmatlaridan qoniqish darajasi (anketa asosida); platforma xizmatlaridan foydalanish qulayligi indeksi; raqamli eksport ko‘nikmalari baholash testi natijalari; eksport jarayonida vaqt va xarajat tejash.

Xulosa va takliflar. Ushbu tadqiqot savdo tashkilotlarining kichik va o‘rta biznes eksportini raqamli platformalar orqali rag‘batlantirishdagi institutsional mexanizmlarini Malayziya, Tailand va Polsha misolida qiyosiy tahlil etdi hamda O‘zbekiston uchun amaliy konseptual model taklif etdi.

Birinchidan, raqamli platformalar KOB eksportini rag‘batlantirishda samarali vosita hisoblanadi, biroq ularning muvaffaqiyati kuchli institutsional qo‘llab-quvvatlash va raqamli ko‘nikmalar rivojlanishi bilan birlashtirilganida ko‘proq namoyon bo‘ladi. Ikkinchidan, uch mamlakat modeli o‘rtasida - markazlashgan (Malayziya), tarmoqli (Tailand) va birlashtiruvchi (Polsha) - ular qo‘llaniladigan institutsional kontekstga qarab har biri o‘z afzalliklariga ega. Uchinchidan, O‘zbekiston uchun aralash model - Malayziyaning markazlashgan koordinatsiyasi, Tailandning mahalliy xususiyatlarga moslashgan yondashuvi va Polshaning raqamli

imkoniyatlarni kuchaytirish strategiyasini birlashtirgan - eng maqsadga muvofiq ko‘rinadi.

To‘rtinchidan, “UzTrade Digital 2030” konseptual modeli uchta ustun asosida qurilib, O‘zbekistonning 2030-yilga qadar KOB eksport ulushini 25 foizga oshirish maqsadiga erishishga yordam berishi mumkin. Kelajakdagi tadqiqotlar uchun modelning pilot loyihalarda sinovdan o‘tkazilishi, O‘rta Osiyo mintaqaviy hamkorligi va sun'iy intellektning KOB eksportini qo‘llab-quvvatlashdagi rolini o‘rganish yo‘nalishlari tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1.WTO. (2023). World Trade Statistical Review 2023. World Trade Organization.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli Farmoni “O‘zbekiston Respublikasini 2022-2026 yillarda rivojlantirishning yangi taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”. Toshkent: Prezident matbuot xizmati.

3. Lederman, D., Olarreaga, M., & Payton, L. (2010). Export promotion agencies: Do they work? Journal of Development Economics, 91(2), 257-265.

4. Volpe Martincus, C., & Carballo, J. (2010). Beyond the average effects: The distributional impacts of export promotion programs in developing countries. Journal of Development Economics, 92(2), 201-214.

5. Moons, S. J. V., & Van Bergeijk, P. A. G. (2017). Does economic diplomacy work? A meta-analysis of its impact on trade and investment. The World Economy, 40(2), 336-368.

6. Martincus, C. V., Carballo, J., & Gallo, A. (2018). Customs. Journal of International Economics, 96(1), 119-137.

7. Cirera, X., Comin, D., & Das, M. (2021). Bridging the Technological Divide: Technology Adoption by Firms in Developing Countries. World Bank Publications.

8. Choi, J., Kim, Y., & Park, T. (2020). E-commerce and SME export performance in East Asia. Journal of International Trade & Economic Development, 29(4), 431-456.

9. Cariolle, J., Le Goff, M., & Santoni, O. (2019). Digital connectivity and export diversification. World Development, 123, 104599.

10. ITC. (2022). SME Competitiveness Outlook 2022: Competing with Purpose. International Trade Centre.

11. Bannister, F., & Connolly, R. (2015). The great theory hunt: Does e-government really have a problem with theory? Government Information Quarterly, 32(1), 1-11.

12. Kahiya, E. T., Dean, D. L., & Bickerton, P. (2019). Internet and internet-based technologies in the export performance of SMEs. Journal of Business & Industrial Marketing, 34(3), 654-668.

13. Nair, S., Zainol, Z., & Abdullah, H. (2020). MATRADE and Malaysian SME export performance: The role of digital tools. Malaysian Journal of Business and Economics, 7(1), 1-18.

14. Tharoeun, T., Panpeng, J., & Sivarak, S. (2021). Digital trade promotion

for Thai SMEs: The DITP experience. Journal of Asian Business and Economic Studies, 28(2), 134-152.

15. Nowak-Far, A., Przybylska-Maszner, A., & Szymański, P. (2019). Polish trade promotion in the context of EU membership and digital transformation. Studia Europejskie, 3, 67-89.

16. Dyjach, A., Kapuściak, G., & Rzońca, A. (2021). Polish SME export support in the context of EU structural funds. Gospodarka Narodowa, 305(1), 33-58.

17. Meksner, T., Atabaev, N., & Gafurov, S. (2021). SME development in Central Asia: Institutional support and challenges. Central Asian Journal of Social Sciences and Humanities, 7(2), 45-67.

18. EBRD. (2022). Transition Report 2022-23: Business Unusual. European Bank for Reconstruction and Development.

19. OECD. (2022). SME and Entrepreneurship Outlook 2022. OECD Publishing.

20. UNCTAD. (2022). Digital Economy Report 2022. United Nations Conference on Trade and Development.

21. MATRADE. (2022). Annual Report 2022. Malaysia External Trade Development Corporation.

22. Malaysia SME Corporation. (2022). SME Annual Report 2021/2022. SME Corp Malaysia.

23. DITP. (2022). Annual Report 2022: Driving Thai Trade. Department of International Trade Promotion, Thailand.

24. PAIH. (2022). Annual Report 2022. Polish Investment and Trade Agency.

25. Eurostat. (2023). International Trade in Goods Statistics. European Statistical Office.

26. ITC. (2023). Trade Map Database. International Trade Centre. https://www.trademap.org

27. O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va Tashqi Savdo Vazirligi. (2022). O‘zbekiston tashqi savdo statistikasi 2022. ITSTV.

28. World Bank. (2023). World Development Indicators. Washington, D.C.: World Bank Group. https://databank.worldbank.o

O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA TEJAMKOR ISHLAB CHIQARISH KONSEPSIYASINI JORIY QILISHNING ASOSIY YO‘NALISHLARI

Salixov Saidamir Alisher o‘g‘li,
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Biznes va tadbirkorlik Oliy maktabi dotsenti, PhD
ORCID:0009-0002-6370-2934

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini diversifikatsiya qilish va modernizatsiyalashda tejamkor ishlab chiqarish (Lean production) metodlarini qo‘llash bo‘yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar berilgan. Bundan tashqari, tejamkor ishlab chiqarish konsepsiyasini joriy qilishda xorij tajribalari ham o`rganilgan.

Kalit so‘zlar: Tejamkor ishlab chiqarish, Lean production, iqtisodiy rivojlanish, iqtisodiy diversifikatsiya, modernizatsiya, sanoat samaradorligi, ishlab chiqarish samaradorligi, resurslardan samarali foydalanish, innovatsion texnologiyalar, ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish, xorijiy tajriba, sanoat boshqaruvi, raqamli transformatsiya.

Kirish. Hozirgi globallashuv va raqobat kuchayib borayotgan sharoitda milliy iqtisodiyotlarning barqaror rivojlanishini ta’minlash, ularning raqobatbardoshligini oshirish va resurslardan samarali foydalanish masalalari ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtayi nazardan, O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini diversifikatsiya qilish va modernizatsiyalash jarayonida ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga qaratilgan zamonaviy boshqaruv yondashuvlarini joriy etish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Xususan, tejamkor ishlab chiqarish (Lean production) konsepsiyasi ortiqcha xarajatlarni qisqartirish, qiymat yaratish zanjirini optimallashtirish hamda ishlab chiqarish jarayonlarida uzluksizlikni ta’minlash orqali yuqori iqtisodiy samaradorlikka erishish imkonini beradi.

Mamlakatimizda so‘nggi yillarda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish, sanoatni modernizatsiya qilish va innovatsion rivojlanishni jadallashtirishga qaratilgan bir qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinmoqda. Jumladan, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, korxonalar faoliyatida zamonaviy boshqaruv texnologiyalarini keng joriy etish va raqamli transformatsiyani rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Ushbu jarayonlarda tejamkor ishlab chiqarish konsepsiyasining ahamiyati ortib bormoqda, chunki u nafaqat ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish, balki mahsulot sifatini oshirish va korxonalar raqobatbardoshligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Xorijiy tajriba shuni ko‘rsatadiki, rivojlangan davlatlarda tejamkor ishlab chiqarish konsepsiyasini samarali joriy etish natijasida ishlab chiqarish samaradorligi sezilarli darajada oshgan, ishlab chiqarish sikllari qisqargan hamda

resurslardan foydalanish darajasi optimallashtirilgan. Ushbu tajribalarni milliy sharoitga moslashtirish va amaliyotga tatbiq etish O‘zbekiston iqtisodiyotining barqaror rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Ushbu mavzuga oid tadqiqotlar bir qator xorijiy olimlar tomonidan muvaffaqiyatli olib borilgan. Hususan, Francisco Gil-Vilda, José A. Yagüe-Fabra, Albert Sunyer {1} Tejamkor ishlab chiqarishning tarihidan boshlab, Tejamkor ishlab chiqarish 4.0 tizimiga bo`lgan davrni yoritib o`tishgan. Shuningdek, John Reyes, Josefa Mula va Manuel Diaz-Madroñero o`z tadqiqotlarida ta’minot zanjiri doirasida tejamkor ishlab chiqarish (lean manufacturing) va “Sanoat 4.0” texnologiyalarini tahlil qilishgan {2}. O`zbek olimlari orasida tejamkor ishlab chiqarish mavzusi to`liq o`rganilmagan bo`lib, bu mavzuning dolzarbligini yanada oshiradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur maqolada tizimli yondashuv asosida tejamkor ishlab chiqarish konsepsiyasining iqtisodiy samaradorlikka ta’siri o‘rganildi. Tadqiqot jarayonida tahlil va sintez, taqqoslash usuli, kontent-tahlil usullaridan foydalanildi. Shuningdek, xorijiy va milliy tajribalar solishtirilib, Lean ishlab chiqarishni joriy etishning samaradorligi baholandi. Tadqiqotning axborot bazasini normativ-huquqiy hujjatlar, statistika ma’lumotlari va xalqaro ilmiy manbalar tashkil etadi.

Tahlil va natijalar. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, tejamkor ishlab chiqarish (Lean production) konsepsiyasi ishlab chiqarish jarayonida ortiqcha yo‘qotishlarni kamaytirish orqali samaradorlikni oshirishga qaratilgan universal boshqaruv modeli hisoblanadi. Xorijiy tadqiqotlarda Lean konsepsiyasi ishlab chiqarish samaradorligini o‘rtacha 15–30% ga oshirishi, ishlab chiqarish siklini esa sezilarli darajada qisqartirishi aniqlangan. Lean yondashuvi klassik ishlab chiqarish tizimidan farqli ravishda qiymat yaratish zanjiriga (value chain) yo‘naltirilganligi bilan ajralib turadi. 5S, Kaizen, Kanban kabi instrumentlar ishlab chiqarish jarayonini optimallashtirishda muhim vosita sifatida e’tirof etilgan. Tadqiqotlar natijasiga ko‘ra ishlab chiqarishda ortiqcha zaxiralar 20–50% gacha kamayadi, ishlab chiqarish vaqti (lead time) 30% gacha qisqaradi hamda mahsulot sifati va barqarorligi sezilarli oshadi. Lean konsepsiyasining samaradorligi doimo uning bosqichma-bosqich va tizimli joriy etilishiga bevosita bog‘liq. {3}

Alohida ta`kidlash lozimki, so‘nggi ilmiy ishlarda Lean production konsepsiyasi Industry 4.0 texnologiyalari bilan integratsiyalashib, “Lean 4.0” modeliga o‘tayotgani kuzatilmoqda. Raqamli texnologiyalar (IoT, Big Data, AI) Lean jarayonlarini real vaqt rejimida boshqarish imkonini beradi. Bu integratsiya ishlab chiqarish samaradorligini yanada oshirish va qaror qabul qilishni avtomatlashtirishga xizmat qiladi. Tadqiqotlar Lean konsepsiyasi rivojlanayotgan davlatlar uchun ayniqsa dolzarb ekanligini ko‘rsatadi.Bunday davlatlarda resurslardan samarali foydalanish, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish va eksport salohiyatini oshirish Lean orqali ta’minlanadi. Shu bilan birga, institutsional muhit va boshqaruv madaniyati Lean joriy etish samaradorligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Xususan dunyoning rivojlangan davlatlarida sanoat mahsulotlarining isrofi iste`mol jarayoniga to`g`ri kelsa, O`zbekiston singari rivojlanayotgan

davlatlarda mahsulotlar isrofi ishlab chiqarish jarayoniga to`g`ri keladi. Shu nuqtayi nazardan, mamlakatda sanoatni modernizatsiya qilish va raqamli transformatsiyani rivojlantirishga qaratilgan davlat dasturlari Lean konsepsiyasini joriy etish uchun muhim asos yaratadi. Korxonalarda zamonaviy boshqaruv tizimlarini joriy etishni rag‘batlantiruvchi normativ-huquqiy mexanizmlarni kuchaytirish zarur.

O‘zbekiston sanoatida tejamkor ishlab chiqarish (Lean production) konsepsiyasini samarali joriy etish dastlab uni pilot korxonalarda sinovdan o‘tkazish va keyinchalik keng ko‘lamda tatbiq etish, mahalliy sanoat tarmoqlari (to‘qimachilik, oziq-ovqat, qurilish va boshqalar) xususiyatlariga moslashtirilgan Lean modellari ishlab chiqish hamda ta’lim tizimi orqali malakali Lean management kadrlarini tayyorlashni talab etadi; shu bilan birga, ushbu konsepsiyani raqamli transformatsiya jarayonlari bilan uyg‘unlashtirish, xususan, ERP tizimlari va raqamli platformalar bilan integratsiya qilish hamda real vaqt monitoringini joriy etish orqali ishlab chiqarish jarayonlari samaradorligini sezilarli darajada oshirish mumkin bo‘lib, natijada ishlab chiqarish xarajatlari qisqaradi, mahsulotlarning raqobatbardoshligi ortadi, eksport salohiyati kengayadi va korxonalarning moliyaviy barqarorligi mustahkamlanadi.

Xulosa va takliflar. Rasmiy ma’lumotlarga ko‘ra, 2025-yilda O‘zbekistonda sanoat mahsulotlari hajmi 1,1 kvadrillion so‘mga yetib, o‘tgan yilga nisbatan 6,8 foizga oshgan, sanoat korxonalari soni esa 59,8 mingtani tashkil etgan{4}. Shuningdek, asosiy kapitalga investitsiyalarning katta qismi markazlashmagan manbalar hisobidan shakllanayotgani xususiy sektor va korxonalar darajasida samaradorlikka yo‘naltirilgan boshqaruv mexanizmlarini kuchaytirish zarurligini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, O‘zbekiston iqtisodiyotida Lean production konsepsiyasini investitsion faollik, sanoat korxonalari sonining ortishi, raqamli modernizatsiya va ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish bilan uyg‘unlashtirish sanoat samaradorligini oshirish, xarajatlarni qisqartirish va milliy mahsulotlar raqobatbardoshligini kuchaytirishning muhim empirik omili sifatida namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yhati

1. Francisco Gil-Vilda, José A. Yagüe-Fabra, Albert Sunyer Advances in Sustainable and Digitalized Factories: Manufacturing, Measuring Technologies and Systems //https://www.mdpi.com/journal/applsci/ special_issues/ sustainable digitalized_factories 2023 y.

2. John Reyes, Josefa Mula, Manuel Diaz-Madroñero // Reviewing lean manufacturing and Industry 4.0 technologies in the supply chain // https://www.tandfonline.com/doi/epdf/true 2026 y.

3. Impact of Lean Manufacturing on Operational Performance // Shah, R., & Ward, P.T. (2003). Lean manufacturing: context, practice bundles, and performance. *Journal of Operations Management*, 21(2), 129–149.

4. www.stat.uz – O`zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo`mitasi rasmiy web sayti

REAL ISHLAB CHIQARISH KORXONALARIDA IQTISODIY XAVFSIZLIK DARAJASINI BAHOLASH USULI

Meliqo'ziyev Rustambek Shuxrat o'g'li
O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi
Biznes va tadbirkorlikoliy maktabi
"Marketing va raqamli iqtisodiyot" kafedrasi dotsent, PhD
ORCID: 0009-0004-4786-7928

Annotatsiya: Ushbu maqolada real ishlab chiqarish korxonalarida iqtisodiy xavfsizlik darajasini baholash usulining nazariy-uslubiy jihatlari tadqiq etilgan. Tadqiqotning asosiy maqsadi korxonalarning moliyaviy barqarorligi, resurslardan foydalanish samaradorligi, ishlab chiqarish uzluksizligi va tashqi hamda ichki xavflarga bardoshlilik darajasini kompleks ko'rsatkichlar asosida aniqlashdan iborat. Muallif tomonidan iqtisodiy xavfsizlikni baholashning bosqichma-bosqich usuli taklif etilib, unda moliyaviy, ishlab chiqarish, investitsion, innovatsion va axborot xavfsizligi omillari integratsiyalashgan holda aks ettirilgan. Baholash jarayonida iqtisodiy-matematik usullar, koeffitsiyentlar tahlili hamda integral indekslardan foydalanish yondashuvi ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari korxonalarda strategik boshqaruvni takomillashtirish, iqtisodiy xavflarni kamaytirish va boshqaruv qarorlarini qabul qilish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Ilmiy yangilik sifatida real ishlab chiqarish korxonalarida iqtisodiy xavfsizlik darajasini baholashning ko'p omilli usuli asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: iqtisodiy xavfsizlik, ishlab chiqarish korxonasi, baholash usuli, integral ko'rsatkich, moliyaviy barqarorlik, xavflarni boshqarish, resurs samaradorligi, innovatsion rivojlanish, investitsion salohiyat.

Kirish. Zamonaviy iqtisodiy taraqqiyot sharoitida ishlab chiqarish korxonalarining barqaror faoliyat yuritishi, ichki va tashqi bozorlarda raqobatbardosh mavqega ega bo'lishi hamda uzoq muddatli rivojlanishini ta'minlash ularning iqtisodiy salohiyatini to'g'ri baholash va undan samarali foydalanish darajasiga bevosita bog'liqdir. Ayniqsa, global iqtisodiy integratsiya jarayonlari kuchayib borayotgan hamda sanoat tarmoqlarida innovatsion yangilanishlar jadallashayotgan bir sharoitda korxonalarning iqtisodiy imkoniyatlarini ilmiy asosda tahlil qilish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, ishlab chiqarish korxonalarining iqtisodiy salohiyatini baholash algoritmini ishlab chiqish va takomillashtirish bugungi kunning muhim ilmiy-amaliy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Ishlab chiqarish korxonasi murakkab iqtisodiy tizim sifatida moddiy resurslar, moliyaviy mablag'lar, mehnat salohiyati, texnologik vositalar, boshqaruv mexanizmlari hamda axborot resurslari yig'indisidan tashkil topadi. Mazkur resurslardan oqilona va samarali foydalanish korxonaning iqtisodiy salohiyatini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Shu bois iqtisodiy salohiyat tushunchasi nafaqat korxona ixtiyoridagi resurslar hajmini, balki ulardan foydalanish

samaradorligi, innovatsion faollik darajasi, boshqaruv sifati hamda ishlab chiqarish natijadorligini ham o‘zida mujassam etadi.

Korxona iqtisodiy salohiyatini aniqlash jarayonida ishlab chiqarish quvvatlari, asosiy vositalar holati, aylanma mablag‘lar harakati, mehnat unumdorligi, rentabellik ko‘rsatkichlari, investitsion imkoniyatlar hamda innovatsion faoliyat darajasi alohida ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, bozor talabiga moslashuvchanlik, logistika tizimining samaradorligi, boshqaruv qarorlarining tezkorligi va mahsulot sifati ham korxonaning umumiy iqtisodiy salohiyatini tavsiflovchi muhim mezonlar sirasiga kiradi. Mazkur omillarni tizimli ravishda baholash korxonaning joriy holatini aniqlash, istiqboldagi rivojlanish imkoniyatlarini prognozlash hamda strategik qarorlar qabul qilishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Iqtisodiy adabiyotlarda “salohiyat”, “potensial”, “imkoniyat” kabi tushunchalar ko‘pincha o‘zaro yaqin mazmunda qo‘llaniladi. Biroq ilmiy nuqtai nazardan potensial mavjud resurslar va imkoniyatlarni anglatsa, iqtisodiy salohiyat ushbu resurslardan samarali foydalanish natijasida erishilishi mumkin bo‘lgan iqtisodiy samarani ifodalaydi. Shu sababli iqtisodiy salohiyatni baholashda resurslarning miqdoriy ko‘rsatkichlari bilan bir qatorda ularning sifat tavsifi, foydalanish darajasi va boshqaruv samaradorligini ham inobatga olish talab etiladi.

Mazkur maqolada ishlab chiqarish korxonalarining iqtisodiy salohiyatini baholash algoritmini shakllantirishga oid nazariy va uslubiy yondashuvlar tahlil qilinadi. Dastlab korxona iqtisodiy salohiyatining mazmun-mohiyati hamda uni shakllantiruvchi asosiy omillar o‘rganiladi. Keyingi bosqichda iqtisodiy salohiyatni baholashda qo‘llaniladigan statistik, iqtisodiy-matematik va integral baholash usullari tahlil qilinadi. Shuningdek, korxonalarning iqtisodiy imkoniyatlarini aniqlashga xizmat qiluvchi ko‘rsatkichlar tizimi asosida kompleks algoritm taklif etiladi. Ushbu yondashuv korxonalarda resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish, ichki imkoniyatlarni safarbar etish va boshqaruv qarorlarini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar sharhi. Real ishlab chiqarish korxonalarida iqtisodiy xavfsizlik darajasini baholash, iqtisodiy tahdidlarni aniqlash hamda korxonalarning barqaror faoliyatini ta’minlash masalalari jahondagi yetakchi ilmiy-tadqiqot markazlari va nufuzli oliy ta’lim muassasalari tomonidan keng ko‘lamda o‘rganilmoqda. Xususan, AQShdagi ilmiy markazlarda korxonalarning moliyaviy barqarorligi, risklarga bardoshliligi va iqtisodiy xavflarni boshqarish samaradorligini baholash bo‘yicha fundamental tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu izlanishlarda iqtisodiy xavfsizlik darajasini moliyaviy ko‘rsatkichlar, resurslardan foydalanish samaradorligi, ishlab chiqarish uzluksizligi hamda korxonaning tashqi va ichki tahdidlarga moslashuvchanligi orqali aniqlash yondashuvlari ishlab chiqilgan.

Yevropa mamlakatlarida, jumladan Buyuk Britaniya, Germaniya va Fransiya ilmiy maktablarida korxonalar iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash, innovatsion rivojlanish va ishlab chiqarish tizimlarini raqamlashtirish asosida xavfsizlik darajasini baholash metodologiyalari takomillashtirilmoqda. Xususan, ishlab chiqarish korxonalarida moliyaviy xavflarni kamaytirish, investitsion barqarorlikni

ta’minlash, raqamli texnologiyalar asosida axborot xavfsizligini kuchaytirish hamda ishlab chiqarish samaradorligini oshirish mexanizmlariga oid ilmiy xulosalar shakllantirilgan.

Shuningdek, real ishlab chiqarish korxonalarida iqtisodiy xavfsizlik darajasini baholashda iqtisodiy-matematik modellashtirish, ko‘p omilli regressiya tahlili, integral indekslar va reyting usullaridan foydalanish bo‘yicha qator ilmiy natijalarga erishilgan. Mazkur usullar korxonalarning moliyaviy barqarorligi, ishlab chiqarish uzluksizligi, resurslar bilan ta’minlanganlik darajasi hamda ichki va tashqi iqtisodiy tahdidlarga bardoshliligini kompleks baholash imkonini beradi. Ayniqsa, ishlab chiqarish korxonalarining iqtisodiy xavfsizlik holatini prognozlashda ekonometrik modellar va risklarni baholash tizimlari samarali vosita sifatida e’tirof etilmoqda.

Raqamli iqtisodiyot va korxonalarning raqobatbardoshligini oshirish masalalari zamonaviy iqtisodiyotning eng muhim ilmiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu sohada yetakchi tadqiqotchilardan biri E. Brynjolfsson bo‘lib, uning ilmiy ishlari raqamli texnologiyalarning mehnat unumdorligi, iqtisodiy o‘sish va korxona samaradorligiga ta’sirini baholashga qaratilgan. Brynjolfsson, Rock va Syverson (2019) tomonidan ishlab chiqilgan “The Productivity J-Curve” konsepsiyasiga ko‘ra, raqamli texnologiyalarning iqtisodiy samarasi darhol namoyon bo‘lmaydi. Korxonalar dastlab katta investitsiyalarni amalga oshiradi, keyinchalik esa nomoddiy aktivlar va tashkiliy o‘zgarishlar orqali yuqori samaradorlikka erishadi. Mualliflar raqamli transformatsiya jarayoni iqtisodiy samaradorlikning J-simon egri chiziq bo‘yicha rivojlanishini ilmiy asoslab berganlar[2].

Xizmat ko‘rsatish sohasidagi KO‘Blar esa asosan kadrlar tayyorlash va mijozlarning raqamli xizmatga ishonchi masalasida qiyinchilikka duch kelmoqda.

Raqamli iqtisodiyot sohasidagi ilg‘or mamlakatlar tajribasi KO‘Blar raqobatbardoshligini oshirishning turli modellarini namoyish etadi. Janubiy Koreya “Smart Factory” dasturi doirasida ishlab chiqarish KO‘Blarini raqamlashtirish uchun byudjet subsidiyalari va texnik yordam ko‘rsatdi. Natijada 2018-2022 yillar ichida 7,000 dan ortiq kichik zavod “Smart” texnologiyalarni joriy etdi va ish unumdorligi o‘rtacha 30 foizga oshdi [10].

Estoniya tajribasi esa raqamli infratuzilmani markazlashtirish modelini namoyish etadi. “e-Estonia” platformasi biznes ro‘yxatga olishdan tortib soliq hisobotiga qadar barcha jarayonlarni raqamlashtirish orqali KO‘Blarning ma’muriy xarajatlarini YAIMning 2,4 foiziga teng miqdorda kamaytirdi [11]. Polsha esa Yevropa Birligi fondlaridan foydalanib, 2014-2020 yillarda KO‘Blarni raqamlashtirishga 3,5 mlrd Yevrodan ortiq mablag‘ yo‘naltirdi, bu esa eksport ko‘rsatkichlarini 32 foizga oshirishga hissa qo‘shdi.

Ushbu tajribalarni taqqoslaganda, muvaffaqiyat omillari sifatida quyidagilar ajralib turadi: kuchli siyosiy iroda va uzluksiz institutsional qo‘llab-quvvatlash; subsidiyalash, kafolat mexanizmlari va soliq imtiyozlarini o‘z ichiga olgan ko‘p qirrali moliyalashtirish modeli; raqamli infratuzilmaga ustuvor investitsiyalar; va raqamli ta’limni umumiy ta’lim tizimiga integratsiya qilish.

Jahon banki ma’lumotlari asosida 45 mamlakat bo‘yicha o‘tkazilgan korrelyatsion tahlil natijasida Internet foydalanuvchilari ulushi (%), Raqamli infratuzilma sifati indeksi va KO‘B eksporti/umumiy eksport o‘rtasida statistik jihatdan muhim ijobiy korrelyatsiya mavjudligi aniqlandi ($r=0,72$, $p<0,001$). Bu natija raqamli infratuzilmani rivojlantirish KO‘Blarning eksport raqobatbardoshligini oshirishning zarur sharti ekanligini tasdiqlaydi.

Regressiya tahlili natijasiga ko‘ra, internet penetratsiyasining 10 foiz ortishi KO‘B eksport ulushini o‘rtacha 2,3 foiz oshirishi kuzatildi ($\beta=0.231$, $SE=0.048$, $p<0.001$). Ushbu munosabat ayniqsa xizmat ko‘rsatish sektoridagi KOBlar uchun kuchliroq namoyon bo‘ladi ($\beta=0.318$, $p<0.001$).

Xulosa va takliflar. Tadqiqot natijalari asosida quyidagi asosiy xulosalar va tavsiyalar shakllantirildi.

Birinchidan, O‘zbekistonda KO‘Blarning raqamli raqobatbardoshligi darajasi hali past bo‘lib, bu holat kompleks va tizimli yondashuvni taqozo etadi. Alohida raqamli vositalarni joriy etish emas, balki yaxlit raqamli ekotizim yaratish zarur.

Ikkinchidan, tahlil natijalari asosida “Raqamli KO‘B” strategik modeli taklif etiladi. Ushbu model to‘rt asosiy yo‘nalishni o‘z ichiga oladi:

1) Raqamli infratuzilmani mustahkamlash - keng polosali internet qamrovini 2027-yilga qadar barcha tuman markazlariga yetkazish;
2) Raqamli moliyalashtirish ekosistemasini yaratish – KO‘Blar uchun raqamli transformatsiya kreditlari, soliq imtiyozlari va grant dasturlari;
3) Raqamli ko‘nikmalar va ta’lim - universitetlar va texnopark hamkorligida raqamli akseleratsiya markazlarini barcha viloyatlarda ochish;
4) Raqamli bozor platformasi - milliy KO‘Blar uchun B2B va B2C elektron

tijorat platformasini ishga tushirish.

Uchinchidan, maqsadli ko‘rsatkichlar sifatida 2030 yilga qadar quyidagilar belgilanishi tavsiya etiladi: onlayn savdodan foydalanuvchi KO‘Blar ulushi - 60% (hozir 23%); ERP/CRM tizimlaridan foydalanuvchi KO‘Blar ulushi - 35% (hozir 9%); KO‘Blarning YAIMdagi ulushi - 60% (hozir 50%); raqamli kanallar orqali eksport qiluvchi KO‘Blar ulushi - 25% (hozir 7%).

To‘rtinchidan, institutsional jihatdan savdo targ‘ibot tashkilotlari va raqamli iqtisodiyot agentliklari o‘rtasidagi koordinatsiyani kuchaytirish, KO‘Blar uchun “bir oyna” tamoyilidagi raqamli xizmatlar markazlarini shakllantirish maqsadga muvofiq. Ushbu chora-tadbirlar O‘zbekiston KO‘Blarining raqamli iqtisodiyotda barqaror raqobatbardoshligini ta’minlash va 2030 yilga qadar eksport ko‘rsatkichlarini ikki baravarga oshirish strategik maqsadiga erishishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. World Economic Forum. (2023). Global Competitiveness Report 2023. Geneva: WEF.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli Farmoni “O‘zbekiston Respublikasini 2022-2026 yillarda rivojlantirishning yangi taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”. Toshkent: Prezident matbuot xizmati.

3. EBRD. (2022). Transition Report 2022-23: Business Unusual. London: European Bank for Reconstruction and Development.

4. Bharadwaj, A., El Sawy, O. A., Pavlou, P. A., & Venkatraman, N. (2013). Digital business strategy: Toward a next generation of insights. MIS Quarterly, 37(2), 471-482.

5. Teece, D. J. (2018). Business models and dynamic capabilities. Long Range Planning, 51(1), 40-49.

6. Zuboff, S. (2019). The Age of Surveillance Capitalism: The Fight for a Human Future at the New Frontier of Power. New York: PublicAffairs.

7. Alimov, R., Tursunov, B., & Xasanov, F. (2021). O‘zbekistonda kichik va o‘rta biznesning raqamli transformatsiyaga tayyorligi: Empirik tahlil. O‘zbekiston Iqtisodiy Axborotnomasi, 4(2), 45-62.

8. Toshmatov, O. (2022). Raqamli iqtisodiyot ko‘rsatkichlari va KOB eksporti o‘rtasidagi korrelyatsion tahlil. Biznes va Tadbirkorlik Jurnali, 3(1), 78-95.

9. ITC. (2022). SME Competitiveness Outlook 2022: Competing with Purpose. Geneva: International Trade Centre.

10. OECD. (2022). SME and Entrepreneurship Outlook 2022. Paris: OECD Publishing.

11. e-Estonia. (2023). Digital Society: How Estonia Built a Digital Nation. Tallinn: Enterprise Estonia.

12. World Bank. (2023). World Development Indicators. Washington, D.C.: World Bank Group. https://databank.worldbank.org

BARIT XOMASHYOSINI ISHLAB CHIQARISH VA EKSPORT QILISH BO‘YICHA INVESTITSION IMKONIYATLAR


Shafayziyev Xasan Xamidullayvich
Geologiya fanlari universiteti
“H.m. Abdullaev nomidagi geologiya va geofizika instituti” DM
Ilmiy xodimi
ORCID: 0009-0003-4818-4574
Ro‘ziyeva Dildora Maxmudjon qizi
Ilmiy xodim texnolog

Annotatsiya. Barit ($BaSO_4$) — sanoatda keng qo‘llaniladigan og‘ir mineral xomashyo bo‘lib, asosan neft va gaz sanoati, kimyo, shisha hamda keramika ishlab chiqarishda muhim ahamiyatga ega. O‘zbekiston hududida baritning sanoat ahamiyatiga ega zaxiralari, jumladan Qizilqum va Nurota tog‘lari hududlarida aniqlangan.. Baritni mahalliy ishlab chiqarishda keng qo‘llash importga bo‘lgan ehtiyojni kamaytiradi. Shuningdek, uning qayta ishlash sanoatini rivojlantirish eksport salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: Barit, bariy sulfati ($BaSO_4$), mineral xomashyo, neft sanoati, burg‘ilash eritmasi, bo‘yoq sanoati, plastmassa, rezina, shisha ishlab chiqarish, keramika, tibbiy diagnostika, kontrast modda, tog‘-kon sanoati, O‘zbekiston mineral resurslari, eksport salohiyati, qayta ishlash sanoati.


Barit ($BaSO_4$) — og‘ir sanoat mineral xomashyosi bo‘lib, uning asosiy xususiyatlari yuqori zichligi (4,3–4,5g/sm^3), kimyoviy inertligi va radiatsiyani yutish qobiliyatidan iborat. So‘nggi o‘n yil ichida global energiya talabining o‘sishi va neft-gaz sanoatining kengayishi baritga bo‘lgan talabni sezilarli darajada oshdi. 2025 yilda jahon bo‘yicha barit ishlab chiqarish hajmi 8,5 million tonnadan oshdi va bu ko‘rsatkich yillik 4,2% o‘sish suratida davom etmoqda (USGS, 2026).

Baritning sanoat ahamiyati uning qo‘llanilish sohalarining xilma-xilligi bilan belgilanadi. Jahon miqyosida ushbu mineralning 75–80 foizi neft va gaz quduqlarini burg‘ilash eritmalarini og‘irlashtirish uchun ishlatilsa, qolgan qismi bo‘yoq, plastmassa, shisha-keramika va tibbiyot sohalarida qo‘llaniladi. Quyidagi diagramma barit iste‘molining tarmoqlar bo‘yicha taqsimotini ko‘rsatadi:
Mazkur diagrammadan ko‘rinib turibdiki, neft-gaz sektori baritning asosiy iste‘molchisi bo‘lib qolmoqda. Shu bois neft narxlari va burg‘ilash faolligi barit bozoriga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir etadi. Xalqaro energetika agentligining 2025 yilgi ma’lumotlariga ko‘ra, dunyoda har yili 60–70 ming yangi quduq qaziladi va har bir quduq uchun o‘rtacha 200–400 tonna barit sarflanadi (1-rasm).



1-rasm. Jahon barit iste’moli tarkibi sohalari bo‘yicha (2025, %)

Jahon barit ishlab chiqaruvchi mamlakatlari tahlili. Jahon barit bozori aniq geopolitik konsentratsiyaga ega. Xitoy Xalq Respublikasi umumiy ishlab chiqarishning 42–45 foizini ta'minlab, yetakchi o'rinni egallab kelmoqda. Hindiston esa ikkinchi o'rinni egallagan holda, Rajasthan va Gujarat shtatlarida joylashgan yirik konlardan yiliga 1,5 million tonnadan ortiq barit qazib oladi. Marokash, Meksika va AQSh ham muhim eksportchilar sirasida. Quyidagi gistogramma asosiy ishlab chiqaruvchi mamlakatlarning 2025 yildagi ko'rsatkichlarini taqqoslaydi (2-rasm):



2-rasm. Asosiy barit ishlab chiqaruvchi mamlakatlar (ming tonna, 2025)

Tahlil shuni ko‘rsatadiki, MFD — Markaziy Osiyo hududida Qozog‘iston 220 ming tonna ishlab chiqarish bilan mintaqaviy yetakchi hisoblanadi. O‘zbekiston hozirda statistik ma’lumotlarda boshqalar guruhiga kiradi, ammo geologik zaxiralar salohiyati jihatidan mamlakatimiz Qozog‘istondan kamida 1,5–2 barobar ko‘proq resurslarga ega ekanligini ko‘rsatmoqda. Bu esa O‘zbekiston uchun mintaqaviy raqobatchilar bilan teng kurashish imkoniyatini beradi (1-jadval).


1-jadval

Davlat	Ishlab chiqarish (ming t)	Jahon ulushi (%)
Xitoy	3,600	42.4%
Hindiston	1,500	17.6%
Marokash	920	10.8%
Meksika	480	5.6%
AQSh	350	4.1%
Qozog'iston	220	2.6%
Boshqalar	430	5.1%
JAMI	**7,500**	**100%**

Barit narx dinamikasi va bozor tendensiyalari. Barit narxlari global energetika bozori, xomashyo ehtiyoji va logistika xarajatlari bilan chambarchas bog‘liq. 2018–2026 yillar davomida barit narxlari barqaror o‘sish tendensiyasini shuni ko‘rsatdi, ammo 2020 yilda COVID-19 pandemiyasi ta’sirida vaqtinchalik

pasayish kuzatildi. Hozirda eksport narxi FOB asosida 120–140 USD/tonna darajasida barqarorlashib, u 2019 yilga nisbatan 29–30% yuqori

(3-rasm).




3-rasm. Barit narx dinamikasi: eksport va mahalliy bozor (USD/tonna, 2018–2024)

Narx tendensiyalarini tahlil qilish asosida quyidagi omillar aniqlangan:

- Neft narxlari — barit narxini asosiy haydovchi omili. Brent nefti narxi 10 USD ga oshganda, barit narxi 3–5 USD ga o'yishi kuzatiladi.
- Xitoyning eksport siyosati — mamlakat barit eksportini soliqlar va kvotalar orqali tartibga soladi, bu global narxga ta’sir etadi.
- Logistika xarajatlari — dengiz frakti narxlari 2021–2022 yillarda 3–4 barobar oshdi, bu importchi mamlakatlar uchun qo‘shimcha xarajat yaratdi.
- Yangi kon ochilishlari — Marokash va Hindistondagi yangi loyihalar 2025–2026 yillarda taklif hajmini 8–10% oshirishi prognoz qilinmoqda.

O‘zbekiston uchun bu tendensiya ijobiy: mahalliy ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish orqali import o‘rnini bosish va eksport daromadini oshirish imkoni mavjud. Hisob-kitoblarga ko‘ra, 100 ming tonna yillik ishlab chiqarish quvvatiga erishilsa, mamlakat yiliga 12–14 million AQSh dollari qiymatida mahsulot eksport qilishi mumkin.

O‘zbekiston barit bozori: talab va taklif tahlili. O‘zbekistonda baritga bo‘lgan talab asosan neft-gaz sektori tomonidan shakllantiriladi. O‘zbekneftgaz MXK va xorijiy operatorlar burg‘ilash faoliyati uchun yiliga 50–60 ming tonna barit talab qiladi. Ushbu miqdorning 85–90 foizi hozirda import orqali ta’minlanmoqda — asosan Hindiston, Xitoy va Marokashdan (4-rasm).



4-rasm. O'zbekiston barit iste'moli dinamikasi: import va mahalliy ishlab chiqarish (ming tonna)

Diagrammadan ko‘rinib turibdiki, mahalliy ishlab chiqarish ulushi hali ham past, ammo 2024 yildan boshlab sezilarli o‘sish kuzatilmoqda. Ushbu o‘zgarishning asosiy sabablari:


- 2022–2023 yillarda davlat tomonidan qabul qilingan mineral xomashyo ishlab chiqarishni rag‘batlantirish dasturlari.
- Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish bo‘yicha qo‘shimcha imtiyozlar va soliq yukini kamaytirishga yo‘naltirilgan islohotlar.
- Nurota va Chatqol-Qurama tog‘larida yangi geologik-qidiruvchi ishlarning kengaytirilishi.
- Ishlab chiqarishni zamonaviy boyitish texnologiyalari bilan jihozlash bo‘yicha xalqaro hamkorlik shartnomalarining imzolanishi.

Maqsadli bozorlar va raqobatbardoshlik

2 jadval

Bozor	Talab hajmi	Narx (USD/t)	Yetkazib berish muddati
O'zbekiston (mahalliy)	50-60 ming t/yil	110-120	1-3 kun
Qozog'iston	20-30 ming t/yil	125-130	5-10 kun
Rossiya Federatsiyasi	30-40 ming t/yil	130-140	7-14 kun
Xitoy (eksport)	100+ ming t/yil	120-135	25-35 kun

Moliyaviy tahlil va investitsion prognoz. Barit xomashyosini qazib olish va qayta ishlash loyihasining moliyaviy samaradorligini baholash uchun besh yillik prognoz modeli tuzildi. Hisob-kitoblar mineral-xomashyo bozoridagi mavjud narxlar, ishlab chiqarish xarajatlari va O‘zbekistondagi soliq tizimi asosida amalga oshirildi. Loyiha quvvati: yiliga 100 ming tonna barit konsentrati.



5-rasm. Barit ishlab chiqarish loyihasining moliyaviy prognozi (mln USD, 5 yil)

Moliyaviy ko'rsatkichlar tahlili quyidagi xulosalarni beradi:

- Sof joriy qiymat (NPV) — 5 yil davomida 12–15 mln USD musbat qiymat, diskont stavkasi 12% da.
- Ichki daromad normasi (IRR) — 28–30%, bu ko‘rsatkich mintaqaviy o‘rtacha IRR (18–22%) dan sezilarli yuqori.
- Qaytarilish muddati — 2–2,5 yil, bu mineral-xomashyo loyihalari uchun qisqa muddat hisoblanadi.

- Birinchi yil zarar — boshlang‘ich investitsiya va ishga tushirish xarajatlari tufayli 0,7 mln USD zarar, ikkinchi yildan boshlab foyda.
- 5-yil yakunida yillik sof foyda 4,7 mln USD ga yetishi prognoz qilinadi.

Xulosa va takliflar. Ushbu tahlil shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonning barit xomashyosi sektori kuchli iqtisodiy salohiyatga ega. Mamlakatda sanoat ahamiyatiga molik barit zaxiralari mavjud, bozor talabi barqaror va o‘sib bormoqda, narx tendensiyalari esa qo‘shimcha investitsiyalar uchun qulay muhit yaratmoqda.

Quyidagi strategik chora-tadbirlar tavsiya etiladi:

- Nurota va Chatqol-Qurama hududlarida yangi barit konlarini jadal geologik o‘rganish va litsenziyalashni tezlashtirish
- Zamonaviy boyitish uskunalari bilan jihozlangan ishlov berish korxonalari qurish — xomashyo o‘rni yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulot eksport qilish
- Xorijiy investorlar uchun maxsus soliq imtiyozlari va kafolatlar — PPP modeli asosida hamkorlik
- Mintaqaviy eksport yo‘nalishlarini — Qozog‘iston, Rossiya va Xitoy bozorlarini — maqsadli rivojlantirish
- Barit mahsulotlarining xalqaro sifat standartlariga (API, ISO) muvofiqligini ta’minlash

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. USGS Mineral Commodity Summaries 2025. — Washington: U.S. Geological Survey, 2025.

2. World Mining Data Report 2025. — Vienna: International Organizing Committee for the World Mining Congress, 2025.

3. Levinson A.A. Mineral Economics. — Oxford: Elsevier, 2020.

4. International Energy Agency (IEA). World Energy Outlook 2025. — Paris: IEA, 2025.

5. Craig J.R., Vaughan D.J. Ore Microscopy and Ore Petrography. — New York: Wiley, 2020.

6. Harben P.W. Industrial Minerals Handbook. — London: Metal Bulletin, 2019.

7. O‘zbekiston Respublikasi Geologiya qo'mitasi. Mineral resurslar yilnomasi, 2025.

SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA BEMOR HOLATINI MONITORING QILISH TIZIMLARINI RIVOJLANTIRISH VA ULARNING RAQAMLI IQTISODIYOTDAGI AHAMIYATI

Jumaqulov Baxodir Sunatulla o'g'li
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
Doktorant
ORCID: 0009-0005-6973-0233

Annotatsiya. Ushbu maqolada sun'iy intellekt texnologiyalari asosida bemor holatini real vaqt rejimida monitoring qiluvchi tizimlarning arxitekturasi va raqamli iqtisodiyotdagi o'rni tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi Machine Learning va Deep Learning algoritmlari yordamida klinik ko'rsatkichlarni bashorat qilish samaradorligini asoslashdan iborat. Metodologiya sifatida IoT sensorlari orqali ma'lumot yig'ish va ularni LSTM, CNN kabi modellar yordamida qayta ishlash usullari qo'llanilgan.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, bemor monitoringi, machine learning, raqamli sog'liqni saqlash, IoT sensorlari, real vaqt tahlili, raqamli iqtisodiyot, klinik qaror qabul qilish tizimi.

Kirish. Jahon sog'liqni saqlash tizimi bugungi kunda ko'plab muammolarga duch kelmoqda: tibbiy xodimlar yetishmasligi, kasalxonalarda ortiqcha yuk, kechiktirilgan diagnozlar va bemor holatidagi kutilmagan o'zgarishlar. Raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi sharoitida sun'iy intellekt (AI) texnologiyalari bu muammolarni hal qilishda muhim rol o'ynamoqda [1].

Sun'iy intellekt asosidagi monitoring tizimlari (SIMT) bemorlarning hayotiy ko'rsatkichlarini – yurak urishi, qon bosimi, kislorod to'yinganligi, nafas tezligi va boshqalarni – uzluksiz kuzatish hamda tahlil qilish imkonini beradi. Bu tizimlar o'z vaqtida ogohlantirish berish orqali shifokorlar va tibbiy xodimlarning qaror qabul qilish jarayonini sezilarli tarzda qo'llab-quvvatlaydi.

Muammo va dolzarblik. O'zbekiston Respublikasida sog'liqni saqlash sohasini raqamlashtirish davlat strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. "Raqamli O'zbekiston – 2030" dasturi doirasida elektron tibbiyot va AI texnologiyalarini joriy etish bo'yicha aniq yo'l xaritasi belgilandi. Ammo hozirda bir qator muammolar mavjud:

- Kasalxonalardagi an'anaviy monitoring usullari real vaqtda to'liq tahlil imkonini bermaydi;
- Tibbiy ma'lumotlar hajmi katta, lekin ulardan samarali foydalanish darajasi past;
- Kritik holatlarni oldindan bashorat qila oladigan tizimlar yetarli rivojlanmagan;
- Raqamli sog'liqni saqlash infratuzilmasining shakllanishi sekinlashmoqda.

Ushbu tadqiqot yuqoridagi dolzarb muammolarga yechim sifatida AI asosidagi monitoring tizimlarini tahlil qilish va ularni joriy etishni asoslab berishga qaratilgan [2].

Metodologiya. Ushbu tadqiqotda bemorlarning fiziologik ko‘rsatkichlarini real vaqt rejimida kuzatish uchun IoT sensorlari va wearable qurilmalar qo‘llanildi. Mazkur qurilmalar yordamida yurak urishi, EKG signallari va boshqa muhim biometrik ma’lumotlar uzluksiz ravishda yig‘ildi. Yig‘ilgan ma’lumotlar dastlabki filtrlash va tozalash jarayonidan o‘tkazilib, shovqin (noise) va xatoliklar kamaytirildi.


Keyinchalik ushbu ma’lumotlar tarmoq orqali bulut infratuzilmasiga uzatilib, FHIR (Fast Healthcare Interoperability Resources) standarti asosida strukturaviy shaklda saqlandi. Bu esa turli tizimlar o‘rtasida moslashuvchanlik va ma’lumot almashinuvini samarali tashkil etishga imkon berdi [3].

Yig‘ilgan va tayyorlangan ma’lumotlar asosida turli xil mashinaviy o‘rganish modellari qo‘llanildi. Har bir model ma’lum turdagi vazifani bajarish uchun tanlandi va tizimning umumiy aniqligini oshirishga xizmat qiladi.

Xususan, LSTM (Long Short-Term Memory) modeli vaqt qatorlarini tahlil qilish va vaqtga bog‘liq o‘zgarishlarni aniqlash uchun ishlatildi. Ushbu model yurak urishi va boshqa dinamik parametrlarning vaqt davomida qanday o‘zgarishini samarali aniqlaydi.

CNN (Convolutional Neural Networks) modeli esa EKG signallarini chuqur o‘rganish orqali murakkab naqshlarni aniqlash uchun qo‘llanildi. Bu model signal ichidagi nozik patologik belgilarni aniqlashda yuqori samaradorlik ko‘rsatadi.

Yuqorida keltirilgan ma’lumotlarni yig‘ish va sun’iy intellekt modellaridan foydalanish jarayonlari yagona integratsiyalashgan tizim doirasida amalga oshiriladi. Ushbu jarayonlarning o‘zaro bog‘liqligi va samarali ishlashini ta’minlash uchun maxsus tizim arxitekturasi ishlab chiqildi.



1-rasm. IoT va sun’iy intellektga asoslangan sog‘liqni monitoring qilish tizimi arxitekturasi[27]

Taklif etilayotgan tizim uch qatlamli arxitekturaga asoslangan bo‘lib, u ma’lumotlarni yig‘ish, qayta ishlash va klinik qaror qabul qilish jarayonlarini yagona platformada birlashtiradi.

Birinchi qatlam - ma’lumotlarni yig‘ish qatlami bo‘lib, unda IoT sensorlari va wearable qurilmalar orqali bemorlarning fiziologik ko‘rsatkichlari real vaqt rejimida olinadi. Ushbu qatlam tizimning asosiy ma’lumot manbai hisoblanadi.

Ikkinchi qatlam - bulutli hisoblash va sun’iy intellekt qatlami bo‘lib, bu yerda barcha ma’lumotlar saqlanadi va tahlil qilinadi. Ma’lumotlar FHIR standarti asosida strukturaviy ko‘rinishda saqlanadi va mashinaviy o‘rganish modellari yordamida chuqur tahlil qilinadi. Ushbu qatlam tizimning “intellektual yadrosi” sifatida ishlaydi.

Uchinchi qatlam - klinik qaror qabul qilish qatlami bo‘lib, u shifokorlar uchun vizual interfeyslar, monitoring panellari va ogohlantirish tizimlarini taqdim etadi. Ushbu qatlam orqali tahlil natijalari foydalanuvchiga tushunarli va tezkor shaklda yetkaziladi, bu esa samarali tibbiy qarorlar qabul qilishga yordam beradi [4].

Qatlamlar o‘rtasidagi aloqa RESTful API orqali amalga oshiriladi, bu esa tizimning kengaytiriluvchanligi va modulliligi (modularity)ni ta’minlaydi.

Shunday qilib, ishlab chiqilgan metodologiya va arxitektura real vaqt monitoringi, sun’iy intellekt asosidagi tahlil va klinik qarorlarni qo‘llab-quvvatlashni yagona tizimga birlashtirib, zamonaviy raqamli sog‘liqni saqlash yechimini taklif etadi.

Natijalar. Tadqiqot doirasida o‘tkazilgan eksperimentlar va adabiyotlar tahlili asosida quyidagi natijalar olindi.

Modellarning aniqlik ko‘rsatkichlari:

- LSTM modeli (sepsis riski bashorati): Accuracy - 94,2%; Sensitivity - 91,8%; Specificity - 96,1%;
- Random Forest (umumiy risk klassifikatsiyasi): Accuracy - 89,7%; AUC-ROC – 0,93;
- CNN (EKG anomaliya aniqlash): F1-score - 0,96; Precision - 0,94.

Iqtisodiy ko‘rsatkichlar:

- Kasalxona xarajatlari o‘rtacha 22-35 foizga qisqaradi;
- Bemor yotoq muddati 15-20 foizga kamayadi;
- Kritik voqealar (reanimatsiya holatlari) 30 foizga kamayadi;
- Tibbiy xodimlarning mehnat unumdorligi 25 foizga oshadi.

Shu bilan birga, ishlab chiqilgan tizimni yanada takomillashtirish orqali real vaqt rejimida monitoring qilish, katta hajmdagi ma’lumotlarni chuqur tahlil qilish va individual davolash strategiyalarini ishlab chiqish imkoniyatlari kengayadi.

Tahlil. O‘tkazilgan eksperimentlar natijasida AI modellarining aniqlik ko‘rsatkichlari an’anaviy usullardan sezilarli darajada yuqori ekanligi isbotlandi. Quyidagi jadvalda qo‘llanilgan modellarning samaradorlik ko‘rsatkichlari keltirilgan:


[27] Muallif ishlanmasi.

1-jadval

AI modellarining aniqlik ko‘rsatkichlari tahlili[28]

Model	Qo‘llanilish sohasi	Accuracy (Aniqlik)	Qo‘shimcha ko‘rsatkich
LSTM	Sepsis riski bashorati	94,2%	Sensitivity - 91,8%
Random Forest	Umumiy risk klassifikatsiyasi	89,7%	AUC-ROC - 0,93
CNN	EKG anomaliyalarini aniqlash	-	F1-score - 0,96

Tizimning joriy etilishi nafaqat tibbiy, balki iqtisodiy samaradorlikka ham olib keladi [5]. Quyidagi diagrammada tizimni joriy etishdan keyingi kutilayotgan iqtisodiy o‘zgarishlar tasvirlangan:



1-rasm. SIMT tizimini joriy etishning iqtisodiy va klinik samaradorligi (%)[29]

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, raqamli iqtisodiyotda tibbiy ma’lumotlar (Big Data) asosiy kapital hisoblanib, ular dori vositalarini ishlab chiqish va sog‘liqni saqlash siyosatini shakllantirishda muhim resurs bo‘lib xizmat qiladi [6].

Xulosa va takliflar. Sun‘iy intellekt asosidagi bemor monitoringi tizimlari raqamli sog‘liqni saqlashning asosiy ustunlaridan biriga aylanmoqda. Tadqiqot natijalari quyidagi xulosalarga kelish imkonini beradi:

1. AI monitoring tizimlari tibbiy xatolarni kamaytirish va bemorlar hayotini saqlab qolishda yuqori samaradorlikni namoyish etdi [7];

2. Bunday tizimlarni joriy etish raqamli iqtisodiyotda sog‘liqni saqlash sohasining raqobatbardoshligini oshiradi;

3. O‘zbekistonda ushbu texnologiyalarni rivojlantirish uchun qonunchilik

[28] Muallif ishlanmasi.
[29] Muallif ishlanmasi.

bazasi va ma‘lumotlar standartlarini takomillashtirish zarur [8];

4. Tibbiy ma‘lumotlar xavfsizligi va bemorlar maxfiyligi masalasida maxsus tartibga soluvchi hujjatlar yaratish talab etiladi.

Tavsiyalar: Sog‘liqni saqlash vazirligi, IT kompaniyalari va universitetlar hamkorligida AI monitoring tizimlarini pilot loyihalar ko‘rinishida joriy etish tavsiya etiladi. Dastlab respublika kasalxonalari va shahar klinikalarida sinovdan o‘tkazib, so‘ngra mintaqaviy darajaga kengaytirish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Topol E.J. High-performance medicine: the convergence of human and artificial intelligence. Nature Medicine. – 2019. – Vol. 25(1). – P. 44–56.

2. Rajpurkar P., Chen E., Banerjee O., Topol E.J. AI in health and medicine. Nature Medicine. – 2022. – Vol. 28(1). – P. 31–38.

3. Obermeyer Z., Emanuel E.J. Predicting the future – big data, machine learning, and clinical medicine. NEJM. – 2016. – Vol. 375(13). – P. 1216–1219.

4. WHO. Global Strategy on Digital Health 2020–2025. World Health Organization. – Geneva, 2021. – 56 p.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. "Raqamli O‘zbekiston – 2030" strategiyasi to‘g‘risida. – Toshkent, 2023.

6. Sezavar S., Tafreshi A. Remote patient monitoring using IoT and machine learning. Journal of Medical Systems. – 2021. – Vol. 45(3). – P. 1–12.

7. Saria A., Rajani A.K., Gould J. et al. Integration of early physiological responses predicts later illness severity in preterm infants. Science Translational Medicine. – 2010. – 2(48).

8. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston: Rivojlanish strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2022. – 268 b.

KICHIK VA O‘RTA BIZNESNI RIVOJLANTIRISHDA HUKUMAT QO‘LLAB-QUVVATLASH TIZIMINING SAMARADORLIGI

Shavkatov Abdusalim Shavkat o‘g‘li
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi
Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi tayanch doktoranti
ORCID: 0009-0004-7185-9725

Annotatsiya. Ushbu tadqiqot O‘zbekistonda kichik va o‘rta biznesni rivojlantirishda hukumatning qo‘llab-quvvatlash tizimining samaradorligini o‘rganadi. 2018–2025-yillarga oid ma’lumotlar asosida, hukumat tomonidan ajratilgan imtiyozli kreditlar va kichik biznesning YAIMdagi ulushi o‘rtasidagi bog‘liqlik tahlil qilindi. Natijalar imtiyozli kreditlar bilan kichik biznesning YAIMdagi ulushi o‘rtasida o‘rtacha darajadagi ijobiy bog‘liqlik (r=0,4899) mavjudligini, biroq imtiyozli kreditlar hajmi qariyb uch barobar oshganiga qaramay kichik biznesning ulushi deyarli o‘zgarmay qolganini ko‘rsatdi. Bu inflyatsiya va regulyator to‘siqlar kabi omillar moliyaviy qo‘llab-quvvatlash samarasini cheklayotganini taxmin qilishga asos beradi.

Kalit so‘zlar: kichik biznes, o‘rta biznes, imtiyozli kreditlar, YAIMdagi ulush, iqtisodiy o‘sish.

Kirish. Kichik va o‘rta biznes (KOB) iqtisodiyotda muhim rol o‘ynaydi, chunki ular ish o‘rinlari yaratish, iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirish va innovatsiyalarni amalga oshirishda katta ahamiyatga ega. O‘zbekiston kabi rivojlanayotgan mamlakatlar kichik biznesning muvaffaqiyatli rivojlanishiga katta umidlar bog‘lamoqda. Biroq, kichik biznes o‘sishiga moliyaviy resurslarga kirish, soliq tizimining murakkabligi va regulyator to‘siqlar kabi muammolar to‘sqinlik qilmoqda. O‘zbekistonda kichik va o‘rta biznesni rivojlantirish uchun hukumat tomonidan moliyaviy yordam, soliq imtiyozlari va boshqa qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari taqdim etilmoqda. 2018-yildan 2025-yilgacha ajratilgan imtiyozli kreditlar hajmi 45,7 trillion so‘mdan 131,2 trillion so‘mgacha o‘sgan, kichik biznesning YAIMdagi ulushi esa 53,9% dan 53,8% gacha deyarli o‘zgarmay, barqaror saqlanib qolgan. Imtiyozli kreditlar hajmi qariyb uch barobar oshganiga qaramay, kichik biznesning YAIMdagi ulushining deyarli o‘zgarmasligi qo‘llab-quvvatlash siyosatining ta’sirini va unga ta’sir etuvchi boshqa omillarni chuqurroq tahlil qilishni taqozo etadi.

Biroq, kichik biznes sektori to‘liq rivojlanishi uchun yirik bozorlar, raqobatbardoshlik va regulyator tizimining soddalashtirilishi zarur. Mazkur tadqiqotning maqsadi hukumatning kichik va o‘rta biznesni rivojlantirishda qo‘llab-quvvatlash tizimining samaradorligini baholash va bu mexanizmlarning biznes o‘sishiga ta’sirini tahlil qilishdir.

Adabiyotlar sharhi. Kichik va o‘rta biznesni rivojlantirishda hukumat qo‘llab-quvvatlash tizimi katta ahamiyatga ega. Xorijiy tadqiqotlar kichik biznesni qo‘llab-quvvatlashning samaradorligini ko‘rsatadi. Beck, Demirgüç-Kunt, and Levine kichik biznesni moliyaviy qo‘llab-quvvatlashning ijobiy ta’sirini ta’kidlaydi.

Ularning tahlillariga ko‘ra, moliyaviy yordam biznesning raqobatbardoshlik qobiliyatini oshiradi, chunki kichik bizneslar yirik kompaniyalarga nisbatan ko‘proq to‘siqlarga duch keladilar. Beck va hamkasblari, kichik biznes uchun ajratilgan imtiyozli kreditlar va soliq imtiyozlari muvaffaqiyatli o‘sishning asosiy omillaridan biri ekanligini aniqlagan [1].

OECD o‘zining Financing SMEs and Entrepreneurs hisobotida kichik biznesni moliyaviy qo‘llab-quvvatlashning uzoq muddatli iqtisodiy o‘sishga qanday ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatgan. OECD, kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash uchun soliq tizimini soddalashtirish, moliyaviy resurslarga kirishni osonlashtirish va biznes muhitini yaxshilash zarurligini ta’kidlaydi [2].

Schumpeter kichik biznesni innovatsiyalash va iqtisodiy islohotlarni qo‘llab-quvvatlashning ahamiyatini ta’kidlaydi. Uning nazariyasiga ko‘ra, kichik va o‘rta biznesni rivojlantirishda innovatsion siyosat va iqtisodiy islohotlar kichik biznesning raqobatbardoshligini oshiradi. Schumpeter innovatsiyalarni rag‘batlantirishning ahamiyatini ko‘rsatadi, bu esa bozorlarga yangi imkoniyatlar yaratadi [3].

Acs and Mueller kichik biznesni innovatsion siyosatlar orqali qo‘llab-quvvatlashni tavsiya qiladi. Ularning fikricha, innovatsion faoliyatni rag‘batlantiruvchi dasturlar kichik biznesning samaradorligini oshiradi va ularni bozorda raqobatbardosh qiladi [4]. Belitski, M., Chowdhury, F. & Desai soliq siyosatining kichik biznesning samaradorligini oshirishdagi rolini o‘rganadi. Ularning tadqiqotiga ko‘ra, soliq imtiyozlari kichik bizneslarning o‘sishini tezlashtiradi, chunki bu ularga moliyaviy yengillik yaratadi va ishlab chiqarish imkoniyatlarini oshiradi [5].

Metodologiya. Tadqiqotda ekonometrik tahlil metodologiyasi qo‘llanadi. Kichik va o‘rta biznesni rivojlantirishda hukumat qo‘llab-quvvatlash tizimi va uning samaradorligini o‘lchash uchun korrelyatsiya tahlili ishlatiladi. Tahlilda ikkita o‘zgaruvchi qo‘llaniladi. Natijaviy (bog‘liq) o‘zgaruvchi — kichik biznesning yalpi ichki mahsulot (YAIM)dagi ulushi (foizda). Omil (erkli) o‘zgaruvchi — kichik va o‘rta biznesga ajratilgan imtiyozli kreditlar hajmi (trillion so‘mda). Ikkala o‘zgaruvchi ham 2018–2025-yillar uchun yillik ko‘rsatkichlar shaklida olingan (1-jadval). Korrelyatsiya tahlili o‘zgaruvchilar o‘rtasidagi bog‘liqlikning zichligi va yo‘nalishini o‘lchaydi, biroq sababiy bog‘liqlik yo‘nalishini belgilamaydi. Ma’lumotlar O‘zbekistonning 2018-2025 yillar orasidagi rasmiy statistikalariga asoslanadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi hukumat qo‘llab-quvvatlash tizimining kichik biznesga ta’sirini aniqlash va siyosatlarni takomillashtirishga qaratilgan tavsiyalar ishlab chiqishdir.

Natija va tahlil. O‘zbekistonda kichik va o‘rta biznesni rivojlantirish uchun ajratilgan imtiyozli kreditlar va kichik biznesning YAIMdagi ulushi o‘rtasida o‘rtacha darajadagi ijobiy bog‘liqlik mavjud. Imtiyozli kreditlar hajmi har yili o‘sib borgan bo‘lsa-da, kichik biznesning YAIMdagi ulushi shu davr mobaynida deyarli barqaror (53,8–56,0% oralig‘ida) qolgan.

1-jadval ma’lumotlariga ko‘ra 2018-yilda 45,7 trillion so‘m bo‘lgan imtiyozli kreditlar hajmi, 2025-yilda 131,2 trillion so‘mga yetgan, ya’ni qariyb 2,87 barobar

ko‘paygan. Bu o‘sish kichik biznesni moliyaviy qo‘llab-quvvatlashda hukumatning sa’y-harakatlari sezilarli darajada kuchayganini ko‘rsatadi. Kichik biznesning YAIMdagi ulushi 2018-yilda 53,9% bo‘lgan bo‘lsa, 2025-yilda bu ko‘rsatkich 53,8% ga kamaydi. Bu o‘zgarish kichik biznesning ulushi bilan bog‘liq bo‘lgan to‘siqlarga, masalan, regulyator islohotlarning murakkabligi, iqtisodiy beqarorlik va inflyatsiya kabi omillarga bog‘liq bo‘lishi mumkin. 2020-yil pandemiyasi davrida kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash uchun ajratilgan imtiyozli kreditlar hajmi sezilarli darajada oshgan.

1-jadval

Kichik va o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlash uchun ajratilgan imtiyozli kreditlar (SME lending), Kichik biznesning YAIMdagi ulushi (%), 2018-2025[30]

Yil	Imtiyozli kreditlar (SME lending)	Kichik biznesning YAIMdagi ulushi (%)
2018	45,7 trillion so‘m	53,9%
2019	60,5 trillion so‘m	54,0%
2020	78,2 trillion so‘m	53,9%
2021	90 trillion so‘m	54,3%
2022	100 trillion so‘m	55,0%
2023	119,8 trillion so‘m	54,3%
2024	130 trillion so‘m	56,0%
2025	131,2 trillion so‘m	53,8%

2021-2022 yillar davomida kichik biznesni rivojlantirishga qaratilgan siyosatlarning davomiyligi va imtiyozli kreditlar hajmi ortishi, kichik biznesning YAIMdagi ulushining oshishiga yordam berdi. 2023-yilda kredit hajmi 119,8 trillion so‘mga yetgan bo‘lsa-da, kichik biznesning ulushi 54,3%ni tashkil etdi, bu raqam 2024-yilda 56% ga yetgan.

Shunga qaramay, 2025-yilda kichik biznesning YAIMdagi ulushi 53,8% ga kamaydi. Bu, ehtimol, inflyatsiya, bozordagi raqobatning kuchayishi, yangi regulyator to‘siqlar yoki boshqa tashqi iqtisodiy omillarga bog‘liq bo‘lishi mumkin.

2-jadval

Korrelyatsiya natijalari[31]

O‘zgaruvchi	Imtiyozli Kreditlar (SME lending)	Kichik Biznesning YAIMdagi Ulushi (%)
Imtiyozli Kreditlar (SME lending)	1,0000	0,4899
Kichik Biznesning YAIMdagi Ulushi (%)	0,4899	1,0000

Kichik biznesning YAIMdagi ulushi va imtiyozli kreditlar o‘rtasida ijobiy korrelyatsiya mavjud. 0,4899 ko‘rsatkichi ikkala o‘zgaruvchi o‘rtasida o‘rtacha (mo’tadil) darajadagi ijobiy bog‘liqlik borligini bildiradi. Shuni ta’kidlash lozimki,

[30] https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/small-business-and-entrepreneurship, https://www.worldbank.org/ext/en/topic/competitiveness/small-and-medium-enterprises-smes-finance

[31] Muallif tomonida hisob-kitob qilingan.

namuna hajmi kichik bo‘lgani (n=8) sababli ushbu bog‘liqlik statistik jihatdan ahamiyatli emas (p≈0,22). Shu bois imtiyozli kreditlar hajmining oshishini kichik biznesning YAIMdagi ulushi oshishining bevosita sababi deb qat’iy xulosa qilib bo‘lmaydi; korrelyatsiya sababiy bog‘liqlikni anglatmaydi. Kichik biznesning YAIMdagi ulushiga inflyatsiya, regulyator to‘siqlar va boshqa makroiqtisodiy omillar ham ta’sir ko‘rsatadi.

Tadqiqot natijalaridan ko‘rinib turibdiki, imtiyozli kreditlar va kichik biznesning YAIMdagi ulushi o‘rtasida o‘rtacha darajadagi ijobiy korrelyatsiya mavjud. Hukumatning kichik biznesni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan siyosatlari, ayniqsa imtiyozli kreditlar, kichik biznes rivojlanishi uchun zarur shart-sharoit yaratmoqda, biroq ular yagona hal qiluvchi omil emas. Biroq, ba’zi yillarda kichik biznesning YAIMdagi ulushining kamayishi boshqa iqtisodiy omillar yoki bozordagi o‘zgarishlar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Shunday qilib, hukumat siyosatini yanada samarali qilish va kichik biznesni qo‘llab-quvvatlashni takomillashtirish zarur.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, kichik va o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlash uchun ajratilgan imtiyozli kreditlar va kichik biznesning YAIMdagi ulushi o‘rtasida o‘rtacha darajadagi ijobiy korrelyatsiya (r=0,4899) mavjud bo‘lib, u namuna hajmi kichikligi sababli statistik jihatdan ahamiyatli emas. 2018-yildan 2025-yilgacha imtiyozli kreditlar hajmi 45,7 trillion so‘mdan 131,2 trillion so‘mgacha oshgan, bu esa hukumatning kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha sa’y-harakatlari kuchayganini ko‘rsatadi. Biroq, imtiyozli kreditlar hajmi sezilarli darajada oshganiga qaramay, kichik biznesning YAIMdagi ulushi shu davrda deyarli o‘zgarmagan va 2025-yilda 53,8% ni tashkil etgan. 2025-yilda kichik biznesning YAIMdagi ulushining kamayishi, ehtimol, inflyatsiya, bozordagi raqobatning kuchayishi yoki yangi regulyator to‘siqlar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Bu holat moliyaviy qo‘llab-quvvatlash o‘z-o‘zicha yetarli emasligini, balki boshqa institutsional islohotlar bilan birga olib borilishi zarurligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash siyosatlarini yanada samarali qilish va to‘siqlarni bartaraf etish zarur. Iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash, soliq siyosatini soddalashtirish va innovatsiyalarni joriy etish kichik biznesning raqobatbardoshligini oshiradi va ularga o‘sish imkoniyatlarini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Beck, T., Demirgüç-Kunt, A., & Levine, R. (2005). SMEs, growth, and poverty: Cross-country evidence. Journal of Economic Growth, 10(3), 199-229.
2. OECD. (2022). Financing SMEs and Entrepreneurs 2022: An OECD Scoreboard. OECD Publishing. https://www.oecd.org/en/publications/financing-smes-and-entrepreneurs-2022_e9073a0f-en.html
3. Schumpeter, J. (1934). The Theory of Economic Development. Harvard University Press.
4. Acs, Z. J., & Mueller, P. (2008). Innovation and Small Business: The Role of Government Policy. Cambridge University Press.
5. Belitski, M., Chowdhury, F. & Desai, S. Taxes, corruption, and entry. Small Bus Econ 47, 201-216 (2016). https://doi.org/10.1007/s11187-016-9

БИЗНЕС ИНКУБАТОР ВА АКСЕЛЕРАТОРЛАРНИНГ СТАРТАП ЭКОТИЗИМИНИ РИВОЖЛАНИШИГА ТАЪСИРИ: РИВОЖЛАНГАН ДАВЛАТЛАР БЎЙИЧА ҚИЁСИЙ ТАҲЛИЛ

Усманов Гафуржон Шавкатович
Бизнес ва тадбиркорлик олий мактаби мустақил изланувчиси
ORCID: 0009-0009-1378-694X

Аннотация. Мазкур мақолада стартап экотизимининг муҳим иштирокчиси бўлган бизнес инкубаторлар фаолияти кичик бизнесни ривожлантириш, хусусан стартапларни қўллаб-қувватлашдаги аҳамияти атрофлича кўриб чиқилди. Мақоладан мақсад бизнес инкубаторларнинг тадбиркорликни қўллаб-қувватлаш инфратузилма институти сифатида стартапларни ривожлантириш борасида фаолияти, унинг иқтисодиётда тутган ўрни ҳамда инкубаторлар орқали инновацион тараққиётга эришишнинг истиқболлари таҳлил қилинади.

Мақолада хорижий тажрибага таянган ҳолда бизнес инкубаторларнинг ривожланиши қиёсий таҳлил асосида кўриб чиқилиб, стартапларни экотизимнинг бошқа иштирокчилари билан алоқалар ўрнатиш, стартапларни яшовчанлигини ошириш ҳамда инкубация босқичларини самарали ташкил этиш масалалари ўрганилди. Мақолада бизнес инкубаторлар, акселераторлар мазмун-моҳияти, инкубация босқичлари ҳамда инкубаторларни ўрганишда уларни тоифаларга ажратиб таҳлил қилиш масалалари ҳам ёритилди.

Калит сўзлар: бизнес инкубатор, акселератор, стартаплар, инновация, стартап экотизими, тадбиркорликни қўллаб-қувватлаш тизими, инкубация босқичлари, инновацион иқтисодиёт

Кириш. Глобал иқтисодий ўзгаришлар шароитида инновацион тараққиётга эришиш учун ахборот-коммуникациялари ва технологик билим ва кўникмаларга таянадиган стартаплар фаолияти янги технологияларни жорий этиш, инновацион товар ва хизматларни таклиф этиш орқали турли тармоқларни технологик жиҳатдан тубдан ўзгартириш ҳамда янги иш ўринларини яратишда муҳим ўрин тутади.

Аксарият инновацион тараққиёт йўлидаги давлатларда стартаплар янги турдаги тадбиркорлик субъектлари сифатида эътироф этилиб, юқори таваккалчиликка асосланиши, яратадиган товар/хизматлар бозорда мутлақо янгилиги ҳамда инновацион технологияларга таяниши билан ажралиб туради.

Стартапларни бизнес субъект сифатида бошқа тадбиркорлик субъектларидан фарқловчи муҳим жиҳати улар фаолиятини компания тузиш билан эмас, балки инновацион ғояни амалга ошириш учун олдин стартап жамоасини шакллантириш ҳамда стартап экотизими иштирокчилари билан тармоқ алоқаларига киришишга интилишади [1]. Бунда стартаплар учун инновацион ғояни амалга ошира олиш, таклиф этилаётган товар/хизматлар истеъмолчиларнинг бирор муаммосини ечишга қаратилганлиги ҳамда стартап

таклиф этадиган бизнес модель бозорда тез ўсувчанлиги ҳал қилувчи аҳамиятга эгадир.

Таъкидлаш жоизки, стартап лойиҳаларни амалга ошириш одатда стартап экотизим иштирокчилари билан кечадиган формал ва ноформал алоқаларнинг интенсивлигига боғлиқ бўлади. Стартаплар ўзининг илк ривожланиш даврида айнан бизнесни қўллаб-қувватлаш тизими саналган стартап экотизими иштирокчиларининг ёрдамига муҳтож бўлади. Стартаплар ўзининг институционал ва стратегик ривожланишида стартап экотизимининг муҳим элементи бўлган бизнес инкубаторларнинг турли хизматларидан фойдаланиш имконига эга бўлади. Бунда бизнес инкубаторлар "институционал ҳимоя" вазифасини бажарса, акселераторлар стартапларнинг жадал ўсиши ва глобал бозорга чиқишини таъминловчи драйвер ҳисобланади.

Стартапларни қўллаб-қувватлашда бизнес инкубаторлар одатда стартапларга офис жойларини ижарага бериш, туркум бизнес хизматлар кўрсатиш тасаввур қилинсада, бироқ стартаплар учун бизнес ҳамжамиятида тармоқ тизими орқали зарур инсонлар ва ташкилотлар билан алоқалар ўрнатиш орқали керакли бўлган билим ва кўникмаларга эга бўлишларига ёрдам беради.

Ривожланган давлатларда бизнес инкубаторлар стартапларни қўллаб-қувватлашнинг муҳим институтига айланган бўлсада, уларнинг самарадорлиги, ҳудудий тафовутлари ва стартапларнинг яшовчанлигига таъсири бўйича ёндашувлар турлича бўлиб қолмоқда.

Мазкур мақолада илғор стартап экотизимига эга давлатлар тажрибаси асосида бизнес инкубаторлар, акселераторлар фаолиятини қиёсий таҳлил қилиш ҳамда уларнинг стартапларнинг яшовчанлигига (survival rate) таъсири ўрганилди. Стартап экотизими илғор давлатлардаги бизнес инкубаторлар фаолиятини қўллаб-қувватлашнинг ўзига хос хусусиятлари кўриб чиқилади, уларнинг муҳим фаолият йўналишларига баҳо берилади, бизнес инкубаторларда стартапларни ривожлантиришда устувор ва муҳим функциялари аниқланади.

Тадқиқот давомида турли давлатлардаги бизнес инкубаторларни ривожлантириш борасидаги сиёсатнинг мазмун-моҳияти сифат жиҳатдан таҳлил қилиниб, бунда бизнес инкубаторлар учун муҳим саналган иқтисодий, маъмурий ва бошқа самарали дастаклар очиб берилади.

Мавзуга оид адабиётлар шарҳи. Илмий адабиётларда бизнес инкубаторлар фаолиятига оид кўплаб тадқиқотлар, таҳлилий материаллар ва мақолалар чоп этилган бўлиб, бизнес инкубаторларни кичик бизнесни қўллаб-қувватлаш борасидаги ўрни турли илмий назариялар ва ёндашувлар асосида ўрганилган.

Маълумки, илк бизнес инкубаторлар АҚШда XX асрнинг 50-йилларида юзага келган бўлиб, улар фаолияти дастлаб кичик бизнес субъектлари учун ижарага жой бериш ва кичик миқёсдаги ишлаб чиқаришни йўлга қўйишига кўмаклашишдан иборат бўлган.

Кейинчалик бизнес инкубаторлар фаолиятида янги ташкил этилган бизнес субъектлари, стартаплар учун яшовчанлик қобилиятини ошириш бўйича технологиялар, венчур капитал жалб этиш, тадбиркорлик тажрибаси ва профессионал бошқарув кўникмаларига эга бўлиш бўйича комплекс қўллаб-қувватлаш механизмини жорий этишга эътибор қаратилди [2].

Ҳозирда бизнес инкубаторлар стартаплар учун глобал миқёсда венчур инвесторлар, стартап соҳасида тажрибали тадбиркорлар жамияти, ташқи бозорларга чиқиш учун муҳим бизнес алоқалар ўрнатиш, менторлик ва консалтинг хизматларидан фойдаланиш бўйича кенг қамровли тармоқ алоқаларини ривожлантирмоқда.

Европа Иттифоқининг бизнес инкубаторларга берган таърифига кўра, улар инновацион фаолиятини яратиш ва ривожлантириш мақсадида давлат ва хусусий воситачи тузилмалар бўлиб, кичик ва ўрта бизнес корхоналарини комплекс ва интеграциялашган юқори даражада қўллаб-қувватлаш фаолияти ва хизматлар кўрсатишни назарда тутади.

Бизнес инкубаторлардан фарқли равишда акселераторларнинг мақсади стартаплар фаолиятини тезроқ бошлашига туртки бериш ва тадбиркорларни стартапларга йирик инвестиция маблағларини жалб этишга тайёрлашдан иборатдир [3]. Стартаплар давомийлиги 3-6 ой бўлган акселерация дастурида гуруҳлар ташкил этган ҳолда интенсив тренингларда иштирок этиб, асосан стартапларни ўсиш стратегиясини яратиш ва венчур инвестициялар жалб этишга тайёрланади. Муҳим жиҳати шундаки, акселераторлар стартапларга муайян миқдорда инвестиция киритиш ва компанияда улушга эгалик қилиш орқали уларнинг фаолиятида иштирок этади [4]. Бизнес инкубаторлар эса, аксинча, стартапларга кўрсатадиган хизматлари ҳисобига даромад олади.

Демак, акселератор - маълум муддатга мўлжалланган, танлаб олинган стартаплар гуруҳи учун менторлик ва таълим компонентларини қамраб олувчи ҳамда якунида тақдимот куни билан ниҳоясига етадиган интенсив дастурдир.

Таъкидлаш жоизки, 1990-2021 йилларда илмий адабиётларда бизнес инкубаторларга оид чоп этилган мақолалардан маълум бўладики, инкубаторлар стартапларни қўллаб-қувватлашда амалий жиҳатдан сезиларли таъсир кўрсатганлиги боис улар кичик бизнес соҳасини ривожлантиришда бошқа қўллаб-қувватлаш институтлари билан алмаштириб бўлмайдиган самарали механизм сифатида қаралади [5].

Бизнес инкубаторлар одатда стартапларни инкубация жараёнининг уч босқичида қўллаб-қувватлашни амалга оширади [4]:

-инкубациядан (pre-incubation) олдинги босқичи;

Бу босқичда стартап ғояларини ҳаётий бизнес лойиҳага айлантириш, бизнес модель ва бизнес-режалар ишлаб чиқиш ҳамда тадбиркорлик асослари ва индивидуал равишда бизнес кўникмаларини шакллантиришга кўмаклашилади.

-инкубация (main incubation) босқичи;

Бу босқичда стартапни яратишдан ўсиш даражасига олиб чиқишгача даврда қўллаб-қувватланади ва тармоқ алоқалари орқали бозор

иштирокчилари билан самарали ҳамкорликни йўлга қўйиш, венчур маблағлар жалб этиш, менторлик, бизнес консалтинг хизматлари ва чуқурлаштирилган тадбиркорлик тренинглари ташкил этилади.

-инкубациядан (post-incubation) кейинги босқич.

Бу босқичда инкубациядан муваффақиятли ўтган ва бозор шароитида яшовчанликка эришган стартапларга глобал алоқалар ўрнатиш, инновацияларни жорий этиш, ташқи бозорларга чиқиш ҳамда масштаблашувга эришишда ёрдам берилади.

Аксарият илмий тадқиқотларда бизнес инкубаторлар турларини уларнинг мақсади, таъсисчиси, соҳага мансублиги ва фаолият йўналишига қараб қуйидагича тавсифланади [6]:

-давлат бизнес инкубаторлари;

-университет бизнес инкубаторлари;

-хусусий бизнес инкубаторлар;

-корпоратив бизнес инкубаторлар.

Бунда давлат бизнес инкубаторлари асосан ривожланаётган давлатлар ва иқтисодиётни тартибга солишда ҳукумат фаол сиёсат юритадиган давлатларда кўпроқ ташкил этилган.

Университет бизнес инкубаторлари давлат бюджетидан молиялаштириладиган ва хусусий сектор ташкил этган университетларда фаолият юритади ва бундай инкубаторлар талабалар стартапларига кўпроқ эътибор қаратади.

Хусусий бизнес инкубаторлар кичик бизнес вакиллари, тадбиркорлар ёки уларнинг бир гуруҳи томонидан ўзларида мавжуд хусусий стартап лойиҳаларини ёки янги стартапларни қўллаб-қувватлаш ва ишга тушириш учун ташкил этилади ва бунда стартапларга кўрсатиладиган бизнес хизматлари даромад манбаи бўлади.

Корпоратив инкубаторлар йирик корпорацияларда инновацион йўналишларда юқори технологияли товар ва хизматларни ишлаб чиқариш орқали глобал бозорларда рақобатқодирликка эришиш, инновацион стартаплар билан ҳамкорлик қилиш ҳамда янги технологиялар, инновацион ишланмаларни фаол тижоратлаштириш ёрдамида янги товар ва хизматларга эга бўлишни назарда тутади. Бунда йирик корпорациялар диверсификациялаш стратегияси орқали “тубдан янгиловчи” инновацион товар/хизматларни ишлаб чиқаришни йўлга қўйиб, янги ишлаб чиқариш ёки бизнес йўналишларини пайдо бўлишига замин яратади.

Сўнгги йилларда соҳалар бўйича ихтисослашган бизнес инкубаторлар ва онлайн платформали бизнес инкубаторлар ҳам ташкил этилмоқда. Бунда ихтисослашган инкубаторлар бир соҳадаги (фармацевтика, биотехнологиялар, қишлоқ хўжалиги, робототехника) стартаплар фаолиятини қўллаб-қувватлашга йўналтирилади. Платформали инкубаторлар стартаплар фаолиятини онлайн дастурий илова орқали стартап экотизимининг турли иштирокчилари билан тармоқ тизимлари орқали қисқа муддатда алоқалар ўрнатишга кўмаклашади.

Тадқиқот методологияси. Мазкур мақолада бизнес инкубаторлар ва акселераторларнинг стартап экотизимини ривожлантиришда тутган ўрнини кўриб чиқишда уларнинг стартапларни қўллаб-қувватлаш самарадорлигини аниқлаш бўйича сифат ва қиёсий таҳлил усулларидан фойдаланилди.

Тадқиқот жараёнида Франция, Испания, Португалия, Италия ва Жанубий Африка Республикасидаги бизнес инкубаторлар фаолиятига оид илмий адабиётлар, халқаро ташкилотлар ҳисоботлари, давлат дастурлари, аналитик материаллар ва статистик маълумотлар таҳлил қилинди. Бунда бизнес инкубаторларнинг институционал хусусиятлари, стартапларни қўллаб-қувватлаш механизмлари, инкубация босқичлари ва стартап экотизими иштирокчилари билан ҳамкорлик алоқалари ўрганилди.

Тадқиқотда қиёсий таҳлил (comparative analysis) усули асосида хорижий давлатларда бизнес инкубаторларнинг фаолият йўналишлари, экотизим иштирокчилари билан алоқалари ҳамда стартапларни қўллаб-қувватлаш усуллари таққосланди. Мазкур ёндашув бизнес инкубаторлар фаолиятидаги умумий ва ўзига хос жиҳатларни аниқлаш имконини берди.

Шунингдек, тадқиқотда контент таҳлил (content analysis) усули қўлланилиб, бизнес инкубаторларга оид илмий мақолалар, халқаро ташкилотлар материаллари ҳамда инкубаторлар фаолиятини тартибга солувчи норматив ҳужжатлар мазмуни таҳлил қилинди. Контент таҳлил орқали бизнес инкубаторларнинг стартапларни ривожлантиришдаги асосий функциялари, муаммолари ва ривожланиш тенденциялари аниқланди.

Испания бизнес инкубаторлари мисолида амалга оширилган кластер таҳлил натижалари асосида инкубаторларнинг самарадорлигига таъсир этувчи омиллар баҳоланди. Бунда инкубаторларнинг ташкилий салоҳияти, тармоқ алоқалари, коммуникация даражаси, менторлик хизматлари, инкубация босқичларини ташкил этиш сифати ҳамда стартапларнинг яшовчанлик даражаси каби кўрсаткичлар асосий мезон сифатида қабул қилинди.

Тадқиқотнинг назарий асосини инновацион тадбиркорлик, стартап экотизими, тармоқ назарияси (network theory) ва бизнесни қўллаб-қувватлаш инфратузилмасига оид илмий ёндашувлар ташкил этади. Илмий адабиётларни таҳлил қилиш орқали бизнес инкубатор ва акселераторлар бўйича турли қарашлар, уларнинг бир-биридан фарқи ҳамда ушбу тушунчани таърифлашдаги илмий ёндошувлар кўриб чиқилди. Тадқиқотда бизнес инкубаторларнинг стартап экотизимидаги ўрнини турли илмий ёндашувлар орқали очиб берган ҳолда инкубация жараёнининг босқичлари, инкубаторларнинг турлари илмий адабиётларни синтез қилиш усули асосида ёритиб берилди.

Тадқиқот давомида олинган маълумотлар синтез қилиниб, бизнес инкубаторлар фаолиятини такомиллаштириш ва стартап экотизими иштирокчилари ўртасида самарали ҳамкорликни ривожлантириш бўйича илмий хулоса ва амалий таклифлар ишлаб чиқилди.

Таҳлил ва натижалар. Бизнес инкубаторлар инновацияларни жорий этиш, маҳаллий иқтисодиётнинг рақобатқодирлигини ошириш, илмий

Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев таъкидлаганидек: “Тадбиркорликни қўллаб-қувватлаш - биз учун стратегик йўлдир.” [1] Мазкур ёндашув мамлакатда кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликни ривожлантириш давлат сиёсатининг устувор йўналиши эканлигини кўрсатади.

Ўзбекистонда амалга оширилаётган иқтисодий ислоҳотлар доирасида кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликни ривожлантириш давлат сиёсатининг устувор йўналишларидан бирига айланган. Бу эса мазкур соҳанинг иқтисодий моҳиятини чуқур таҳлил қилиш, унинг функционал хусусиятларини илмий жиҳатдан асослаш ва ривожланиш тенденцияларини тадқиқ этишни тақозо этади.

Мавзунинг долзарблиги шундаки, ҳозирги шароитда кичик бизнес субъектларининг иқтисодий моҳиятини чуқур ўрганиш, уларнинг функционал вазифаларини илмий асослаш ва ривожлантириш механизмларини

такомиллаштириш муҳим аҳамият касб этмоқда.

Мавзуга оид адабиётлар шарҳи. Хорижий олимлардан М.Портер кичик бизнеснинг рақобатбардошликни оширишдаги аҳамиятини асослаб берган. Унинг фикрича, кичик бизнес кластер тизими орқали ҳудудий ривожланишга кучли таъсир кўрсатади. [2]

Ж.Шумпетер эса тадбиркорликни инновацион ривожланишнинг асосий ҳаракатлантирувчи кучи сифатида баҳолаган.[3]

Маҳаллий олимлардан А.Ваҳобов[4], Қ.Ҳақбердиев[5], Ш.Эргашевлар[6] томонидан кичик бизнеснинг миллий иқтисодиётдаги ўрни, бандликни таъминлашдаги аҳамияти ва давлат томонидан қўллаб-қувватлаш масалалари тадқиқ қилинган.

Бироқ ушбу ишлардан фарқли равишда мазкур мақолада кичик бизнес субъектларининг иқтисодий моҳияти ва функционал хусусиятлари тизимли равишда ўрганилиб, уларнинг замонавий иқтисодиёт шароитидаги роли комплекс таҳлил қилинган.

Тадқиқот методологияси. Тадқиқотда кичик бизнес субъектларининг иқтисодий моҳияти ва функционал хусусиятларини ёритишда тизимли ёндашув, қиёсий таҳлил ва иқтисодий-статистик усуллардан фойдаланилди. Тадқиқот жараёнида кичик бизнеснинг миллий иқтисодиётдаги ўрни, бандликни таъминлаш, рақобат муҳитини шакллантириш ҳамда инновацион ривожланишга таъсири таҳлил қилинди. Шунингдек, индукция ва дедукция усуллари асосида назарий қарашлар умумлаштирилиб, амалий таклифлар ишлаб чиқилди. Ахборот манбалари сифатида расмий статистик маълумотлар, норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар ва илмий адабиётлардан фойдаланилди.

Таҳлил ва натижалар. Олиб борилган тадқиқотда қўлланилган тизимли ёндашув ва иқтисодий-статистик таҳлил натижаларига кўра, кичик бизнес субъектлари миллий иқтисодиётда иқтисодий ўсишни таъминловчи муҳим омиллардан бири ҳисобланади. Улар ялпи ички маҳсулот ҳажмини ошириш, аҳоли бандлигини таъминлаш ва бозорда рақобат муҳитини шакллантиришда муҳим ўрин тутади. Қиёсий таҳлил натижалари шуни кўрсатадики, ривожланган давлатларда кичик бизнес инновацион фаоллик ва экспорт салоҳиятини оширишда асосий драйвер сифатида хизмат қилмоқда.

Ўзбекистонда ҳам лицензиялаш тартиб-таомилларининг соддалаштирилиши, солиқ имтиёзлари ва молиявий қўллаб-қувватлаш чоралари мазкур сектор ривожига ижобий таъсир кўрсатмоқда.

Таҳлиллар асосида ҳудудларда кичик бизнесни ривожлантириш учун рақамли молиявий хизматлардан фойдаланишни кенгайтириш, бизнес инфратузилмасини яхшилаш ва экспортга йўналтирилган корхоналарни рағбатлантириш мақсадга мувофиқлиги аниқланди.

1-жадвал

Ўзбекистон иқтисодиётида кичик бизнес субъектларининг асосий макроиқтисодий кўрсаткичлари (2020-2025 йй.) [35]

Йил	ЯИМдаги улуши, %	Бандликдаги улуши, %	Экспортдаги улуши, %	Фаол субъектлар сони, мингта
2020	53,9	74,5	20,5	411,2
2021	54,9	74,8	22,3	437,8
2022	55,6	75,1	24,7	462,4
2023	56,3	74,9	26,9	489,5
2024	57,1	75,3	28,4	515,7
2025	57,8	75,8	30,1	542,6

Жадвал маълумотларига кўра, 2020-2025 йиллар давомида кичик бизнес субъектларининг мамлакат иқтисодиётидаги ўрни барқарор ўсиш тенденциясига эга бўлган. Хусусан, уларнинг ЯИМдаги улуши 53,9 фоиздан 57,8 фоизгача ошган бўлиб, бу соҳанинг иқтисодий ўсишни таъминлашда муҳим драйверга айланганини кўрсатади. Бандликдаги улушнинг 75 фоиз атрофида сақланиши кичик бизнес аҳоли даромадларини шакллантириш ва ишсизликни камайтиришда асосий омил эканлигини тасдиқлайди.

Экспортдаги улушнинг 20,5 фоиздан 30,1 фоизгача ўсиши эса кичик бизнес субъектларининг ташқи бозорлардаги рақобатбардошлиги ортиб бораётганини англатади. Бу ҳолат давлат томонидан экспортчи корхоналарни қўллаб-қувватлаш сиёсати самарадорлигини кўрсатади.

2-жадвал

Кичик бизнес субъектларининг функционал таъсири бўйича баҳолаш кўрсаткичлари[36]

Кўрсаткичлар	2020	2025	Ўсиш суръати, %
Янги иш ўринлари, мингта	320	468	146,2
Янги ташкил этилган корхоналар, мингта	92	134	145,7
Инновацион лойихалар сони	1 240	2 115	170,5
Кредит олувчи субъектлар, мингта	58	96	165,5

Ушбу жадвал натижалари кичик бизнес субъектларининг иқтисодий ва ижтимоий функциялари кенгайиб бораётганини кўрсатади. Янги иш ўринлари сонининг 46,2 фоизга ўсиши соҳанинг ижтимоий барқарорликни таъминлашдаги аҳамиятини ифодалайди. Шунингдек, инновацион лойиҳалар сонининг кескин ортиши кичик бизнеснинг технологик янгиланиш жараёнларида фаол иштирок этаётганини англатади.

Таҳлиллар шуни кўрсатадики, кичик бизнес субъектлари Ўзбекистон иқтисодиётида макроиқтисодий ўсиш, бандлик, экспорт салоҳияти ва инновацион ривожланишнинг асосий ҳаракатлантирувчи кучларидан бири

[35] Ўзбекистон Республикаси Статистика агентлиги маълумотлари асосида муаллиф ишланмаси

[36] Иқтисодий таҳлиллар асосида муаллиф ишланмаси

ҳисобланади. Шу боис, мазкур соҳани қўллаб-қувватлаш механизмларини янада такомиллаштириш долзарб вазифа ҳисобланади.

Хулоса ва таклифлар. Мақола юзасидан олиб борилган тадқиқот натижалари шуни кўрсатадики, кичик бизнес субъектлари миллий иқтисодиётнинг барқарор ривожланишини таъминловчи, аҳоли бандлигини оширувчи ва рақобат муҳитини шакллантирувчи муҳим иқтисодий сектор ҳисобланади. Улар ялпи ички маҳсулот ҳажмини кўпайтириш, аҳоли даромадларини ошириш, экспорт салоҳиятини кенгайтириш ҳамда ҳудудлар иқтисодий фаоллигини кучайтиришда катта аҳамият касб этмоқда. Айниқса, сўнгги йилларда амалга оширилган институционал ислоҳотлар, тадбиркорлик муҳитини либераллаштириш ва молиявий қўллаб-қувватлаш чоралари кичик бизнес субъектлари фаолияти самарадорлигини оширишга хизмат қилди.

Жараёнда аниқланишича, кичик бизнес субъектларининг иқтисодий салоҳиятидан тўлиқ фойдаланиш учун ҳудудлар ўртасидаги инфратузилмавий фарқлар, молиявий ресурсларга кириш имкониятларининг чекланганлиги, инновацион технологияларни жорий этиш даражасининг пастлиги каби муаммоларни бартараф этиш зарур. Шундан келиб чиқиб, қуйидаги таклифлар ишлаб чиқилди:

1. Ҳудудлар кесимида кичик бизнес ривожланиш индексини жорий этиш ва унинг асосида манзилли давлат дастурларини шакллантириш.

2. Кичик бизнес субъектлари учун имтиёзли кредитлар, кафолат механизмлари ва микромолия хизматларини кенгайтириш.

3. Рақамли технологиялар ва электрон тижорат платформаларидан фойдаланиш имкониятларини ошириш.

4. Экспортга йўналтирилган кичик корхоналарни солиқ ва логистика жиҳатдан қўллаб-қувватлаш.

5. Бизнес-инкубаторлар, консалтинг марказлари ва инновацион кластерлар тармоғини кенгайтириш.

6. Тадбиркорлар учун замонавий бошқарув, маркетинг ва молиявий саводхонлик бўйича ўқув дастурларини кучайтириш.

Хулоса қилиб айтганда, кичик бизнес субъектларини ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш, уларнинг рақобатбардошлигини ошириш ва инновацион фаоллигини рағбатлантириш орқали мамлакат иқтисодиётининг сифат жиҳатдан янги босқичга чиқишига эришиш мумкин.

Фойдаланган адабиётлар рўйхати

1. Мирзиёев Ш.М. Тадбиркорлар билан учрашувдаги нутқ – Тошкент: Ўзбекистон Республикаси Президенти матбуот хизмати. 19.03.2026- https://president.uz/uz/lists/view/7962

2. Michael Porter. 1998. Clusters and the New Economics of Competition. Harvard Business Review, Vol.76(6), pp. 77–90.

3. The Theory of Economic Development / Joseph Schumpeter. 1934. Cambridge: Harvard University Press. pp. 65–110.

4. А. Вахабов. 2021. Ўзбекистон иқтисодиётида кичик бизнеснинг аҳамияти. Иқтисодиёт ва таълим журнали, №4, 45–52-бетлар.

5. Қ.Ҳақбердиев. 2020. Ҳудудларда кичик бизнесни ривожлантиришнинг иқтисодий омиллари. Бозор, пул ва кредит журнали, №6, 27–34-бетлар.

6. Ш. Эргашев. 2022. Тадбиркорлик субъектларини давлат томонидан қўллаб-қувватлаш механизмлари. Молия журнали, №3, 33–39-бетлар.

7. Ўзбекистон Республикаси Статистика агентлиги - https://stat.uz

8. Ўзбекистон Республикаси Президенти Матбуот хизмати. Иқтисодий ислоҳотларга оид материаллар, 2024–2025.

Ўзбекистон Республикаси Иқтисодиёт ва молия вазирлиги. Тадбиркорликни қўллаб-қувватлаш дастурлари, 2024.

СТАРТАП ЭКОТИЗИМИДА БИЗНЕС ИНКУБАТОРЛАРНИНГ ИНСТИТУЦИОНАЛ ЎРНИ ВА ФАОЛИЯТИ: ХОРИЖИЙ ТАЖРИБА ВА ЎЗБЕКИСТОН АМАЛИЁТИ

Усманов Гафуржон Шавкатович
Бизнес ва тадбиркорлик олий мактаби мустақил изланувчиси
ORCID: 0009-0009-1378-694X

Аннотация. Мазкур мақолада стартап экотизимининг муҳим институционал элементи саналган бизнес инкубаторлар фаолияти инновацион иқтисодиётни ривожлантириш нуқтаи назаридан ўрганилди ҳамда уларнинг стартапларни қўллаб-қувватлаш механизмлари ва кўрсатиладиган хизматлари таҳлил қилинди. Шунингдек, бизнес инкубаторларни тадқиқ этишга оид институционал ёндашув, ташқи омиллар таъсири, бизнесни қўллаб-қувватлаш хизматлари ва тармоқ алоқалари ёндашувлари қиёсий таҳлил қилинди.

Тадқиқотда Канада, Япония ва Туркиядаги етакчи бизнес инкубаторлар фаолияти кейс стади ва қиёсий таҳлил усуллари асосида ўрганилиб, стартапларни қўллаб-қувватлашнинг самарали механизмлари аниқланди. Таҳлил натижалари асосида Ўзбекистонда бизнес инкубаторлар фаолиятини такомиллаштириш, стартап экотизимини ривожлантириш ва инновацион тадбиркорликни қўллаб-қувватлаш бўйича таклиф ва тавсиялар ишлаб чиқилди.

Калит сўзлар: Стартап экотизими, инновацион тадбиркорлик, бизнес инкубатор, акселератор, стартаплар, институционал таҳлил, қиймат яратиш таҳлили, ташқи омиллар таҳлили, тадбиркорликни қўллаб-қувватлаш тизими

Кириш.Бугунги кунда стартап тадбиркорлик миллий иқтисодиётлар учун барқарор ўсишни таъминлаш ва инновацияларни жорий этишда ўзига хос локомотив вазифасини ўтаётган инновацион тадбиркорлик соҳасига айланмоқда. Аксарият давлатларда стартап экотизимини самарали фаолият юритиши учун унинг асосий элементлари бўлган университетлар, венчур компаниялар, инвесторлар, илмий-тадқиқот муассасалари, технопарклар, бизнес инкубаторлар, акселераторлар, бизнес уюшмалари, менторлар тармоғини ривожлантиришга катта эътибор қаратилмоқда.

Ушбу инфратузилма институтлари орасида албатта, бизнес инкубаторлар фаолияти стартап соҳасида тадбиркорлик ҳаракатини яратиш, стартап ташаббусларини қўллаб-қувватлаш, янги инновацион ғоя ва бизнес лойиҳаларни ҳаётга татбиқ этишда зарур ресурслар ва тадбиркорликни юритиш бўйича билим ва кўникмалар билан таъминлашда муҳим ўрин тутади.

Бизнес инкубаторлар иқтисодий реал воқеликка асосланган ҳолда стартапларни бизнес ҳамжамиятининг турли иштирокчилари (инвесторлар, истеъмолчилар, йирик компаниялар, менторлар, консалтинг компаниялари) билан ўзаро ҳамкорлик алоқаларини ўрнатишда самарали воситачи вазифасини ўтайди.

Ўзбекистонда стартап экотизимини ривожлантириш борасида 2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегиясидаги устувор мақсадларга мувофиқ ҳудудларда 200 та янги саноат зонларини барпо этиш билан бирга бизнес инкубаторлар тизимини ривожлантириш кўзда тутилган [1]. Бундан ташқари 2022-2026 йилларда Ўзбекистоннинг инновацион ривожланиш стратегиясида инновацион инфратузилма субъектлари тармоғини, шу жумладан бизнес инкубаторларни шакллантириш орқали стартап ташаббусларни қўллаб-қувватлаш белгиланган.

Республикамизда бизнес инкубатор ва акселераторларга эътибор ортаётган бўлсада, улар фаолиятини самарали ташкил этиш, бунда хорижий етакчи бизнес инкубаторларнинг стартапларни қўллаб-қувватлаш борасидаги ижобий тажрибаларини ўрганган ҳолда улардаги илғор дастаклар, ташкилий ва бошқарув ҳамда инновацияларни рағбатлантиришга қаратилган воситаларни жорий этиш долзарб вазифалардан саналади.

Мазкур мақолада хорижий давлатлардаги етакчи бизнес инкубаторларнинг фаолияти таҳлил қилинади, уларнинг эришган натижалари, асосий фаолият кўрсаткичлари кўриб чиқилади ҳамда инновацион стартапларни қўллаб-қувватлашдаги инкубация ва акселерация дастурлари, турли бизнес хизматларни кўрсатиш борасидаги ишлари ҳамда стартап ташаббускорлари учун яратиб берилган шарт-шароитлари таҳлил қилинади.

Шу билан бирга Ўзбекистонда фаолият кўрсатаётган етакчи бизнес инкубатор фаолияти ҳам очиқ манбааларга асосланган ҳолда ўрганиб чиқилади. Бунда республикамизда бизнес инкубаторлар фаолиятидаги устувор йўналишлар, улар томонидан инновацион стартапларни қўллаб-қувватлашдаги турли самарали дастак ва воситалар, инкубация жараёнидаги яратилган шарт-шароитлар ҳам атрофлича таҳлил қилинади.

Мазкур тадқиқотнинг мақсади хорижий давлатлар ва Ўзбекистондаги бизнес инкубаторлар фаолиятини қиёсий таҳлил қилиш, уларнинг стартап экотизимини ривожлантиришдаги ўрни ва самарадорлигини баҳолаш ҳамда миллий стартап инфратузилмасини такомиллаштириш бўйича таклифлар ишлаб чиқишдан иборат. Тадқиқотда институционал таҳлил, қиёсий таҳлил ва кейс-стади ёндашувларидан фойдаланилди.

Мавзуга оид адабиётлар шарҳи. Бизнес инкубаторларнинг стартапларни қўллаб-қувватлашдаги ўрнини кўриб чиқишда илмий адабиётларда кўпинча инкубаторлар инновацион инфратузилма институти сифатида ўрганилганлиги мазкур мақола учун аҳамиятли саналади.

Баъзи илмий адабиётларда айнан **институционал таҳлил** орқали стартапларни ривожланишига урғу берилган бўлиб, унда стартаплар сонининг ортиши тадбиркорликни қўллаб-қувватловчи мавжуд ташкилотлар фаолиятини яхшилашни назарда тутса, бошқа томонидан стартаплар учун янги қўллаб-қувватловчи институтларни барпо этиш муҳимлиги таъкидланади [2]. Бунда университетлар, илмий-тадқиқот муассасалари, технопарклар, венчур компаниялар бизнес инкубаторлар ва акселераторлар билан бир қаторда ташқи қўллаб-қувватловчи омил сифатида эътироф этилади.

Стартаплар учун ички омил сифатида тадбиркорлик маданияти, бизнес ҳамжамияти ўртасидаги норасмий алоқалар, бизнесга оид билим ва кўникмалардан фойдаланиш, технологик билимлар ва илм-фан тараққиётининг бизнесга таъсирини қамраб олади.

Мазкур ёндашувда инкубаторларни ташқи таъсир этувчи омил, хизмат кўрсатиш воситаси ёки тармоқ алоқаларини етказиб бериш жиҳатлари тўлиқ ёритилмаган.

Бу борада илмий адабиётларда стартап экотизимини маълум муҳит билан боғлиқлиги ҳамда махсус ҳудудда жорий этилишини эътиборга олиб, бизнес инкубатор ва акселераторларни **қўллаб-қувватловчи омил** сифатида баҳолаш ёндашуви мавжуддир [3]. Умуман олганда, бизнес инкубаторлар янги компанияларни ривожланиши ва ўсишига эътиборни қаратиб, инкубаторлар дастурлари орқали нафақат янги бизнес пайдо бўлади, балки янги корхонлар яшовчанлиги таъминланади [4].

Экотизим иштирокчилари одатда стартаплар учун қўллаб-қувватловчи омил саналади ва уларнинг стартаплар билан алоқаси, уларга таъсир даражаси ва кўрсатадиган ёрдам кўлами турлича бўлади. Бу борада айнан хизмат кўрсатиш воситаси сифатида экотизим иштирокчилари фаолиятини ҳам баҳолаш зарурати юзга келади.

Бизнес инкубаторларнинг асосий мақсадларидан бири стартапларни умумий ривожланиши, самарадорлиги ва ҳаётий яшовчанлигини оширишдан иборатдир. Ушбу мақсаддан келиб чиқиб, стартапларнинг барқарор бизнес фаолиятини таъминлашда **бизнесни қўллаб-қувватлаш ва турли хизматлар кўрсатиш воситаси** сифатида бизнес инкубаторлар фаолиятига нисбатан илмий қарашлар ҳам мавжуд. Бунда бизнес инкубаторлар стартаплар учун зарур инфратузилмадан фойдаланиш, тармоқ алоқаларини ўрнатиш, венчур капитал жалб этиш, тадбиркорлик бўйича махсус тренинглар ташкил этиш орқали қўллаб-қувватловчи хизматларни кўрсатиб, стартапларга бизнес юритишдаги чақириқлар ва хавф-хатарларни енгиб ўтишга замин яратади [5].

Инкубаторларнинг экотизимга таъсири улар кўрсатадиган хизматлар кўлами билан чекланган ҳолдаги илмий ёндашув стартаплар учун қиймат яратиш ёки тармоқ алоқалари масаласини четга сургандек бўлади.

Илмий адабиётларда бизнес инкубаторларни стартаплар учун **қиймат яратиш орқали қўллаб-қувватлаш ёндашуви** ҳам таклиф этилган бўлиб, унга кўра, инкубаторлар ёрдамида моддий ва номоддий ресурсларнинг ўзаро бирикмаси орқали стартаплар учун қиймат яратилиши кўрсатиб ўтилади [6]. Бунда инкубатор юзага келтирадиган инсон ва инфратузилма жойи ўртасидаги муносабатлар уч йил йўл билан қийматни яратади: i) тадбиркорлик тренинги орқали стартап ривожланишига туртки берилади; ii) стартап соҳасида ҳамфикрли жамият ўртасида мулоқотни шакллантиради; iii) ресурслардан фойдаланишга имкон берувчи ташқи манфаатдор томонларга стартаплар билан мулоқот қилишга ишонч беради. Бироқ қиймат яратиш ёндашуви инкубаторлар учун тармоқ алоқаларининг стратегик аҳамиятини етарлича қамраб олмайди

Бизнес инкубаторлар фаолияти стартапларни қўллаб-қувватлашда **тармоқ алоқалари ёндашуви** асосида ҳам илмий адабиётларда ўрганилган. Бунда стартаплар бизнес инкубаторлар ёрдамида икки хил тармоқ алоқаларига эга бўладилар: билимлар даражасидаги тармоқ алоқалари ва ҳамкорлик даражасидаги тармоқ алоқалари [7]. Маълумки, стартаплар бир ёки бир неча билимлар акс этган элементларга эга бўлиб, булар маҳсулот ва хизматларни яратишда турли патентлар, технологиялар, ишлаб чиқариш жараёнларини ўз ичига олади. Кейинги тармоқ алоқалари ҳамкорлик даражасидаги алоқаларни назарда тутиб, бунда стартаплар экотизимнинг турли иштирокчилари билан ҳамкорлик ўрнатиш орқали янги маҳсулот ва хизматларни яратишга интиладилар. Демак, ушбу ёндашувда инкубаторлар фаолияти стартаплар учун турли даражадаги тармоқ алоқаларини етказиб беришга қаратилган бўлади.

Тадқиқот методологияси.Мазкур тадқиқотда бизнес инкубаторлар фаолиятининг самарадорлиги уларнинг стартап экотизимида тутган ўрни, инновацион инфратузилма объекти сифатидаги аҳамияти, экотизим иштирокчилари билан ўзаро муносабатлари ҳамда стартапларни қўллаб-қувватлаш механизмлари нуқтаи назаридан таҳлил қилинди.

Мақолада бизнес инкубаторларни стартапларни ривожлантиришда институционал таҳлил, ташқи таъсир этувчи омиллар нуқтаи назаридан баҳолаш, бизнесни қўллаб-қувватлаш ва хизматлар кўрсатиш имкониятлари орқали ўрганиш, стартаплар учун қиймат яратиш ёндашувига боғлаб баҳолаш ҳамда стартаплар учун яратиб берадиган тармоқ алоқалари ёндашуви каби илмий тадқиқотларни қиёсий таҳлили амалга оширилди.

Шу билан бирга тадқиқотда Канада, Япония, Туркиядаги етакчи бизнес инкубаторлар фаолияти стартап экотизимини ривожлантириш, стартапларни қўллаб-қувватлаш, резидентларга кўрсатиладиган хизматлар, инкубация дастурлари, тармоқ алоқаларини йўлга қўйиш ҳамда венчур инвестициялар жалб этиш каби жиҳатлари кейс стади ёндашуви асосида ўрганилди. Мазкур давлатлар бизнес инкубаторларининг ривожланиш моделлари, университет ва технопарклар билан интеграция даражаси ҳамда стартапларни қўллаб-қувватлаш механизмларининг турлилиги нуқтаи назаридан танлаб олинди.

Айнан кейс стади таҳлил орқали дунёдаги нуфузли бизнес инкубаторларнинг муваффақиятга таъсир этувчи омиллари, уларнинг кучли жиҳатлари, стартап экотизимини ривожлантиришдаги асосий таъсир механизмлари ҳамда инновацион стартаплар учун қўллаб-қувватлаш инструментлари аниқланди.

Тадқиқотда хорижий ва Ўзбекистон инкубаторларини таҳлил қилишда асосий мезон сифатида қўллаб-қувватланган стартаплар сони, жалб этилган инвестициялар ҳажми, резидентлар яшовчанлиги, менторлар тармоғининг мавжудлиги, халқаро ҳамкорликнинг йўлга қўйилганлиги ва инкубация дастурларининг мазмуни кўриб чиқилди. Бунда таҳлиллар учун маълумот манбалари сифатида хорижий ва маҳаллий бизнес инкубаторларнинг веб-сайтлари, йиллик ҳисоботлари, турли статистика манбаларидаги

кўрсаткичлардан фойдаланилди.

Тадқиқот ишида Ўзбекистондаги ривожланиш динамикаси юқори бўлган бизнес инкубатор фаолияти, унинг мақсад ва устуворликлари ҳам контент таҳлил қилинди ва бунда кучли жиҳатлари, келгусидаги салоҳияти ўрганилди. Маҳаллий бизнес инкубаторнинг стартап лойиҳаларни амалга оширишдаги самарадорлик кўрсаткичлари ҳамда унинг стартап экотизимини ҳудудларда ривожлантиришга қўшаётган ҳиссаси баҳоланди. Тадқиқотда қиёсий таҳлил усули орқали хорижий ва маҳаллий бизнес инкубаторлар фаолиятининг умумий ва фарқли жиҳатлари аниқланди.

Таҳлил ва натижалар. Хорижий давлатлардаги етакчи бизнес инкубаторлар тажрибаси. Стартап экотизимида бевосита стартап лойиҳаларни қўллаб-қувватлашда фаол ўрин тутган хорижий бизнес инкубаторлар фаолиятига қисқача тўхталиб ўтамиз.

Канаданинг Макгилл университети қошида фаолият кўрсатадиган 1988 йилда ташкил этилган Добсон тадбиркорлик маркази айнан бизнес инкубатор сифатида университет профессор, тадқиқотчи ва талабаларининг стартап лойиҳаларини амалга оширишга ёрдам беради. Таъкидлаш жоизки, UBI Global Швеция тадқиқот маркази юритадиган бизнес инкубаторлар рейтингига кўра, 2023 йилда Добсон тадбиркорлик маркази дунёнинг 5 та энг яхши университет бизнес инкубаторлари рўйхатидан жой олган.

Добсон тадбиркорлик маркази 2024 йилда 530 та фаол стартапларни ривожланишига кўмаклашган бўлиб, улар фаолиятига жами 4,1 млрд.доллардан ортиқ инвестиция маблағларини жалб этган ҳамда дунёнинг 46 та давлатида мазкур стартаплар фаолият олиб боради. Мазкур стартаплар фаолияти йўлга қўйилиши натижасида 12 мингта янги иш ўринлари яратилган [8]. Ушбу Марказ Стартапларни қўллаб-қувватлаш бўйича дунёнинг 127 та университети билан ҳамкорлик алоқаларини йўлга қўйган.

Стартапларни қўллаб-қувватлашда Добсон тадбиркорлик маркази АҚШ, Канада ва Буюк Британиядаги етакчи компанияларда фаолият кўрсатувчи тадбиркорлар, менежерлар ва турли соҳа экспертларидан иборат 15 нафар кишидан иборат менторлар жамоасига эгадир. Мазкур менторлар жамоаси Добсон тадбиркорлик маркази томонидан блокчейн ва Интернет технологиялари, кўчмас мулк, ҳуқуқшунослик, молия ва инвестициялар йўналишлари бўйича стартапларни фаолиятини йўлга қўйишда эксперт ёрдамларини беради. Добсон тадбиркорлик марказида стартапларни қўллаб-қувватлашнинг қуйидаги 4 та йўналишлари мавжуд [8]:

1. Ғояни ҳаётийлигини текшириш. Бу босқичда стартапларга бизнес ғояларини бозорда яшовчанлигини текширишга кўмаклашиш, бозор талабини ўрганиш, маҳсулотни ишлаб чиқариш учун бизнес режани тайёрлаш ишлари амалга оширилади.

2. Лойиҳани амалга ошириш имкониятларини синаш. Бу босқичда стартап ташаббускорларида аниқ бизнес режа мавжуд бўлади ва унга асосан бозорга маҳсулотни олиб чиқиш стратегияси ишлаб чиқилади. Бунда маҳсулотга бозорда талабнинг кўлами илк харидорлар ва буюртмачиларда

ўрганилади.

3. Акселерация, яъни лойиҳани бозорга тезроқ чиқариш. Бу босқичда стартап ташаббускорлари маҳсулот намунасини ишлаб чиқарган бўладилар, бозорда маълум даражада талаб мавжудлиги аниқ бўлади ҳамда стартап жамоаси маълум даражада шаклланади. Стартаплар бозорда кенгайишга интилишади, бизнес моделни такомиллаштириш ҳамда бизнес фаолиятни масштаблашуви учун венчур инвестициялар жалб этишга интилашади.

4. Инвестицияларни жалб этиш дастури. Бунда стартаплар бозорда маълум даражада танилган ва муваффақиятга эришган бўлади, акселерация босқичини якунлаб, лойиҳага венчур маблағлар жалб этишни режалаштиради.

Добсон тадбиркорлик маркази томонидан истиқболли йўналишлари бўйича қўллаб-қувватланган стартаплар соғлиқни сақлаш ва тиббиёт технологиялари, қишлоқ хўжалиги ва озиқ-овқат саноати, компьютер технологиялари ва савдо соҳаси, биотехнологиялар, таълим соҳаси, экология, ишлаб чиқариш, ижтимоий соҳа, энергия, сув ресурслари ва яшил технологияларни қамраб олади [1-расм]. Стартаплар томонидан 2024 йилда Добсон тадбиркорлик маркази кўмагида расмийлаштирилган патентлар сони 258 тани ташкил этади.




1-расм. 2025 йил Добсон тадбиркорлик маркази томонидан қўллаб-қувватланган стартапларни тармоқлар бўйича тақсимоти[37]

Шунингдек, Добсон тадбиркорлик марказида стартапларга венчур инвестициялар жалб этишга тайёрлаш, уларни инвесторлар учун жозибадор бўлишини таъминлашга катта эътибор қаратилади. Бунда айнан Добсон тадбиркорлик марказида қўллаб-қувватланадиган стартаплар томонидан венчур инвестицияларни жалб этиш даражаси анча юқори кўрсаткичларга

[37] Добсон тадбиркорлик маркази маълумотлари асосида тайёрланди.

эгадир [2-расм].

2-расм. Добсон тадбиркорлик маркази қўллаб-қувватлаган стартапларга жалб этилган инвестициялар ҳажми[38]



Демак, Добсон тадбиркорлик маркази стартаплар учун илмий салоҳиятни намоён қилиш ва халқаро ҳамкорликка таянган ҳолда глобал бозорларга чиқиш учун зарур шарт-шароитлар яратадиган инкубатор сифатида қаралади.

Япониянинг Токио университети қошидаги FoundX инкубация маркази ушбу университет тадқиқотчи, битирувчи ва талабалари томонидан стартап лойиҳаларни амалга оширишни қўллаб-қувватлаш мақсадида 2019 йилда ташкил этилган.

FoundX инкубация маркази ўз бизнесини бошламоқчи бўлган университет тадқиқотчи ва талабалари учун тадбиркорликни қўллаб-қувватлашнинг “Бошлаш” дастури орқали кўмак беради. Ушбу дастур ўз мазмунига кўра, акселерациядан фарқ қилиб, инкубациянинг илк босқичини назарда тутади. Бунда FoundX инкубация маркази бизнес ғоясига эга бўлмаган, бироқ ўз бизнесини бошлаш истагидаги университет талабаларини қўллаб-қувватлашни амалга оширади.

FoundX дастури талабаларни тадбиркор сифатида шакллантириш ва ўсишини таъминлаш ҳамда тадбиркорларни яратиш дастури саналиб, кўпроқ иштиркочиларни зарур тадбиркорлик билим ва кўникмаларига эга бўлишларига қаратилгандир. Японияда офис жойларини ижарага олиш қиммат турганлиги боис FoundX стартап ташаббускорларига хоналарни бепул ижарага бериш ҳамда бизнесни йўлга қўйиш бўйича комплекс хизматлар кўрсатишни зиммасига олади.

[38] Добсон тадбиркорлик маркази манбалари асосида тайёрланди.

Мазкур дастур доирасида Токио университети талабалари стартап ғоя устида ўйлаш ва уни бизнес лойиҳа даражасига айлантириш, илк босқичда стартапни ишга тушириш асосларини ўрганиш ҳамда бизнес ғояларига эга талабалар ва стартапчилар билан мулоқотлари ташкил этилади.

Бундан ташқари FoundX инкубация маркази томонидан стартап ғояси мавжуд бўлган талабгорлар учун Асосчилар дастурини ҳам таклиф этади. Бу дастур стартап асосчилари ёки корхона ташкил этилганига бир йил бўлмаган тадбиркорларнинг стартап лойиҳаларини амалга оширишга мўлжалланган 9 ойлик дастур саналади [9]. Мазкур дастур уч босқичдан иборат бўлиб, 1-босқич уч ой давомида лойиҳани амалга оширишга тайёрлашни ва ишлаб чиқариш жараёнини ўз ичига олади. 2-босқичда лойиҳага инвестицияларни жалб этишни назарда тутиб, уни давомийлиги ҳам уч ой бўлади. Дастурнинг 3-босқичи ҳам уч ой давом этиб, стартапга инвестицияларни жалб этган ҳолда фаолиятини йўлга қўйишни назарда тутади. Бунда FoundX инкубация маркази стартапларга венчур маблағларни жалб этиш бўйича онлайн ресурс марказига эгалиги муҳим аҳамият касб этади.

Бундан маълум бўладки, Япониянинг FoundX инкубация маркази илк босқичдаги стартаплар учун тадбиркорлик билим ва кўникмаларини шакллантириш ҳамда стартап ғояларни ҳақиқий бинесга айлантиришда талаба ва тадқиқотчилар учун муҳим билим ва амалиётга эга бўладиган тажриба майдони сифатида намоён бўлади.

Туркиянинг Истанбул техника университети ва ITU ARI Teknokent Технопарки билан ҳамкорликда 2011 йилда ITU Cekirdek инкубация маркази ташкил этилган бўлиб, ушбу Марказ 2022 йилда UBI Global рейтингига кўра, дунёнинг 5 та энг яхши университет бизнес инкубаторлари рўйхатига киритилган.

ITU Cekirdek инкубация марказининг мақсади – стартаплар учун йирик корпорациялар, инвестицион тармоқлар ва профессионал бизнес вакиллари билан ҳамкорлик алоқаларини ўрнатишга қаратилган кенг қамровли платформани таклиф этишдан иборатдир.

2025 йил ҳолатига ITU Cekirdek инкубация маркази дунёнинг 35 та давлати ва Туркиядан 75 мингдан ортиқ стартап лойиҳалар бўйича талабномалар қабул қилган. ITU Cekirdek инкубация маркази фаолиятида 5 мингта стартаплар ва 12 мингтадан ортиқ корхоналарни қўллаб-қувватлашга муваффақ бўлган [10]. ITU Cekirdek инкубация марказини стартапларни қўллаб-қувватлаши натижасида 1,9 мингта стартап лойиҳа тадбиркорлик субъектига айланиб, уларга 300 млн.доллардан ортиқ инвестициялар жалб этилган ҳолда фаолияти йўлга қўйилган.

Мазкур инкубация маркази стартапларни қўллаб-қувватлашга қаратилган тармоқ тизимини яратган бўлиб, унда 40 дан ортиқ йирик ва нуфузли корпоратив ҳамкорлар (Истанбул режалаштириш агентлиги, Истанбул саноат палатаси, Автомобиль саноати экспортерлари уюшмаси ҳамда корпоратив инвестицион компаниялар тармоғи) билан яқиндан алоқалар ўрнатилган.

ITU Cekirdek инкубация маркази стартапларни қўллаб-қувватлаш бўйича 6 турдаги дастурларни амалга оширади ва шулардан 4 та асосий дастурлар бўйича маълумот 1-жадвалда келтирилган.

1-жадвал

ITU Cekirdek инкубация маркази томонидан стартапларни қўллаб-қувватлаш дастурлари тўғрисида маълумот[39]

Acceleration дастури	**Seed дастури**	**Growth дастури**	**Innogate дастури**
Турли тармоқ технологик ва инновацион стартаплар учун мўлжалланган	Халқаро стартаплар учун махсус дастур	Акцияларини оммавий жойлаштирган (IPO) стартаплар учун	Хорижий бозорларга чиқиш истагидаги турк стартаплари учун
Дастур давомийлиги 7 ҳафта	Дастур давомийлиги 8 ҳафта	Дастур давомийлиги 1 йил	Дастур давомийлиги 12 ҳафта
Тадбиркорлик бўйича махсус тренингда иштирок этиш	-	-	Хорижий бозорларга чиқиш бўйича дастур
Семинарда иштирок этиш ва лабораторияда синовларни қўллаб-қувватлаш	Семинарда иштирок этиш ва лабораторияда синовларни қўллаб-қувватлаш	Махсус тренинглар, консультациялар ва семинарларда иштирок этиш	Инвестицияларни жалб этиш бўйича дастур
Офис хоналаридан бепул фойдаланиш	Офис хоналаридан бепул фойдаланиш	Офис хоналаридан бепул фойдаланиш	Хорижий қонунчилик ва тартибга солиш бўйича маслаҳатлар олиш
Менторлар хизматидан фойдаланиш	Менторлар хизматидан фойдаланиш	Менторлар хизматидан фойдаланиш	Халқаро кўргазма ва тадбирларда иштирок этиш
Инвесторлар билан мулоқот ташкил этиш	Инвесторлар билан мулоқот ташкил этиш	Инвесторлар билан яккама-якка мулоқот ўтказиш	Глобал инвесторларга чиқиш имкони
Тадбиркорлар билан индивидуал учрашувлар ўтказиш имконияти	-	-	-
Прототиплаш лабораториясидан фойдаланиш имконияти	Прототиплаш лабораториясидан фойдаланиш имконияти	Прототиплаш лабораториясидан фойдаланиш имконияти	-
Demo Days да инвесторлар учун тақдимот ўтказиш	-	-	Глобал бозорларда ўтказиладиган Demo Day да инвесторлар учун тақдимот

[39] Жадвал муаллиф томонидан ишлаб чиқилган.

			қилиш
Салоҳиятли харидорлар билан учрашув ўтказиш	Салоҳиятли харидорлар билан учрашув ўтказиш	Салоҳиятли харидорлар билан учрашув ўтказиш	Глобал харидорлар билан мулоқот қилиш имкони
-	-	ITU ARI Teknokent технопарки резиденти бўлиш имкони	-
-	-	ITU ARI Teknokent ва ITU университети барча ресурсларидан фойдаланиш имкони	ITU ARI Teknokent ва ITU университети барча ресурсларидан фойдаланиш имкони
-	-	Алоҳида коучлар хизматидан фойдаланиш имкони	

ITU Cekirdek инкубация маркази нуфузли технологик университет ва Технопарклар ўртасида стартапларни муваффақиятли қўллаб-қувватлашнинг ёрқин намунасини намойиш этади. Бунда стартаплар учун ITU Cekirdek инкубация марказида жиҳозланган офис ва лаборатория хоналари таклиф этилиши билан бирга 500 нафардан ортиқ менторлар билан мулоқот қилиш, Туркиядаги йирик корпорациялар ва инвесторлар билан тўғридан-тўғри алоқалар ўрнатиш, грант маблағлари ажратиш, халқаро бозорларга чиқиш ҳамда бизнес ҳамжамияти тармоғи билан алоқалар ўрнатиш, демо-кунларда иштирок этиш имкониятлари яратиб берилади.

Хулоса ўрнида ITU Cekirdek инкубация маркази стартаплар учун кучли тадқиқот университетлари ва технологик парклар ўртасидаги самарали ҳамкорлик алоқалари ёрдамида инновацион ва технологик стартапларни глобал бозорларга чиқишига катта имкониятларни очиб беришини кўришимиз мумкин.

Ўзбекистонда стартапларни қўллаб-қувватлаш бўйича бизнес инкубаторлар фаолияти. Маълумки, Ўзбекистонда стартап экотизимининг бевосита иштирокчилари саналган бизнес инкубаторлар турли шаклда ташкил этилган ҳолда фаолият юритиб келади. Булар университетлар, корпоратив, давлат-хусусий шерикчилик ҳамда хорижий бизнес инкубаторлар сифатида ташкил этилган.

Ўзбекистоннинг инновацион ривожланиш стратегиясига мувофиқ 2026 йилгача республикамизда инновацион инфратузилма субъектлари сонини 3 бараваргача ошириб, яъни 2022 йилдаги 25 тадан улар сонини 2026 йилда 75 тага етказиш кўзда тутилган [11]. 2025 йил якунига кўра, республикамизда ҳудудларнинг инновацион салоҳиятини ошириш бўйича 4 та технологик парк, 3 та венчур фонди, 2 та бизнес инкубатор ва акселератор ҳамда 3 та инновацион марказлар ташкил этилиб, жами инновацион инфратузилма субъектлари сони 67 тага етказилди [12].

Бизнес инкубаторларнинг стартап экотизимидаги фаолиятини Startup

Garage стартап лойиҳаларни қўллаб-қувватлаш маркази мисолида кўриб чиқамиз.

Ўзбекистонда 2024 йил июлда давлат-хусусий шерикчилик асосида ташкил этилган Startup Garage маркази қисқа муддатда стартапларни қўллаб-қувватлаш инфратузилмасининг фаол субъектларидан бирига айланди [13]. Startup Garage Марказини ташкил этилишига “Aloqabank” АТБ, “Aloqa Ventures” венчур компанияси ҳамда “Mohirdev” IT компанияси катта ҳисса қўшди.

Шуни таъкидлаш лозимки, Startup Garage Маркази венчур студия форматида фаолият олиб бориб, яъни фақат инкубатор сифатида стартапларга бизнес асослари ва лойиҳаларни бошқариш бўйича тренинг ва мастер-класслар ўтиш билан кифояланмасдан, балки стартап жамоалари билан тўлақонли ҳаммуаллиф сифатида лолйиҳаларга инвестиция маблағларини жалб этиш билан шуғулланади [14].

Startup Garage Маркази стартап лойиҳаларни қўллаб-қувватлашда акселераторлар ёки венчур жамғармалардан фарқли равишда кўпинча лойиҳанинг илк бизнес ғоясини пухта ишлаб чиқишдан то уни бозорга кириш жараёнигача бевосита иштирок этган ҳолда қўллаб-қувватлайди. Startup Garage ёндошувидаги мазкур бизнес модель стартап лойиҳаларнинг муваффақиятсизликка учраш бўйича хавф-хатарларини камайтириш ва стартапни тезроқ бозорга чиқариш имконини беради.

Шу ўринда Startup Garage Маркази асосчиларидан бири Мухаммад Халилнинг таъкидлашича, марказ ўз фаолиятини АҚШнинг Стенфорд университетидаги машҳур Startup Garage венчур сутдияси фаолиятидан илҳомланган ҳолда йўлга қўйган бўлиб, стартапларнинг ўсишини тезлаштириш учун зарур воситалар, билим ва қўллаб-қувватлаш билан таъминлайдиган интенсив, лойиҳа асосидаги дастурдир.

Startup Garage Маркази ҳар йили 20 тадан ортиқ стартап лойиҳаларни амалга оширишга ёрдам беришни режалаштирган бўлиб, 2024 йилда Марказ дастлабки 5 та стартап лойиҳалар, яъни Magicbot - B2B, SaaS форматидаги электрон тижорат платформаси, Humocommerce - чакана савдони тизимлаштириш платформаси, Pulse EV - электромобиллар учун қувватланиш станцияларни ишлаб чиқариш ва ўрнатиш, Ish.uz - ходимларни қидириш ва танлаш платформаси ҳамда Vamar TMS - транспортни бошқариш тизими устида қўллаб-қувватлашни амалга оширди [15].

Стартапларни қўллаб-қувватлаш мақсадида стартап ташаббускорларига Startup Garage 6 ойлик интенсив дастурни таклиф этади ва бунда стартаплар ҳақиқий муаммони ечими бўйича таклифларни беришга йўналтирилади. Дастур доирасида стартап ташаббускорларини маҳаллий бозорда муаммоларни аниқлашга интилиб, бунинг учун тадбиркорлар, истеъмолчилар, экспертлар билан мулоқотлар амалга оширилади. Кейинги босқичда муаммони ечимига қаратилган стартап ғоя аниқланади ва дастлабки маҳсулот прототипи (MVP) яратилиб, уни бозорда яшовчанлиги, талаб мавжудлиги турли дастаклар ёрдамида текширилади. Агар бозорда янги маҳсулотга талаб

ёки қизиқиш бўлмаса, стартап лойиҳа тугатилиб, янги лойиҳани устида ишни бошлашга киришилади. Кейинги босқичда бозорда талаб юқори бўлган маҳсулотни ишлаб чиқариш учун стартап жамоасини шакллантириш жараёнига ўтилади ва бунда Startup Garage мавжуд тармоқ алоқалари (тадбиркорлар, менторлар, турли соҳа мутахассислари) орқали кучли жамоа таркибини тузишга кўмаклашади.


Стартаплар учун таклиф этиладиган интенсив дастурда Startup Garage томонидан стартап асослари, маҳсулот ривожланиши, маҳсулотни ишга тушириш, молиявий маблағ жалб этиш, маркетинг ва савдо ҳамда операциялар ва бошқарув каби мавзуларда тренинглар ўтилади.

Шу билан бирга Startup Garage стартап ғояларни истиқболли эканлигини баҳолашда қуйдаги 4 та жиҳатларга эътибор қаратади:

- муаммонинг долзарблиги ва ечимнинг муҳимлиги;
- маҳсулот бўйича бозор ҳажми ва кенгайиш имкониятлари;
- маҳсулотни тезда синовдан ўтказиш имконияти;
- жамоа бозорни тушуниши ва унга мос равишда тез ҳаракат қила олиши.

Бундан ташқари стартап лойиҳани молиявий маблағ жалб этиш имкониятлари, иқтисодий кўрсаткичлари ҳамда масштаблашуви ҳам ўрганилади.

Бизнес инкубаторлар учун муҳим хизмат турларидан бири бўлган стартап иштирокчиларини менторлар ва бизнес соҳа вакиллари томонидан доимий қўллаб-қувватлаш, стартап фаолиятига оид профессионла бизнес таълим бериш, турли ресурсларга эга бўлиш учун фойдали алоқалар ва имкониятларни яратиш ҳамда венчур компанияларни стартап лойиҳаларни молиялаштиришга жалб этиш Startup Garage томонидан кўрсатиб келинади.



3-расм. Startup Garage томонидан қўллаб-қувватланган стартаплар сони тўғрисида маълумот. (2026 йил 1 январ ҳолатига)[40]

Дастурни муваффақиятли тамомлаган стартап ташаббускорлари ўз

[40] Муаллиф томонидан турли манбалар асосида тузилди.

бизнес лойиҳаларини салоҳиятл инвесторларга тақдимот қилиш имкониятига эга бўладилар.

Республикамиз ҳудудлари бўйича стартапларни қўллаб-қувватлаш борасида Startup Garage Маркази фаолиятини кенгайтириб, 2024-2025 йиллар ичида барча вилоятларда ўзининг филиалларини очди. Шу билан бирга Марказ 2025 йил мартда ўзининг илк хорижий филиалини Қатарда ва 2025 йил апрелда яна бир филиалини Марокашда ташкил этди [16, 17]. Startup Garage Яқин Шарқ ва Шимолий Африка минтақаларига кириб бориш орқали Марказий Осиё ва Яқин Шарқ ўртасида стартапларни глобал даражада ўсиши, венчур инвестициялар жалб этиш ва технологик ҳамкорликни ривожлантиришга туртки беради.

2026 йилга келиб, Startup Garage Маркази томонидан қўллаб-қувватланган стартаплар сони 49 тани ташкил этиб, уларга жами 2,5 млн.доллар миқдорида венчур инвестициялар жалб этилди (3-Диаграмма).

Таҳлиллардан кўринадики, Startup Garage фаолияти ҳам иқтисодиёт учун истиқболли саналган турли соҳаларни қамраб олган бўлиб, бунда ахборот-коммуникация технологиялари, сунъий интеллект, машинада ўқитиш, биотехнологияларда қўлланиладиган илғор билимлардан фойдаланишга қаратилган инновацион стартапларни қўллаб-қувватлашга устувор аҳамият берилмоқда.

Хулоса ва таклифлар. Мазкур мақолада амалга оширилган таҳлиллар натижасида илмий адабиётларда бизнес инкубаторлар фаолиятини ўрганиш бўйича қўлланилган турли илмий қарашлар ва ёндашувлар орқали бизнес инкубатор институтининг мақоми инновацион иқтисодиётни барпо этишда кенгроқ аҳамиятга эга эканлиги очиб берилди. Бунда бизнес инкубаторлар ва акселераторлар айнан тадбиркорликни қўллаб-қувватлаш тизимининг қолган иштирокчилари амалга оширмайдиган муҳим функцияларни бажариши айён бўлади, яъни стартап ташаббускорлари орасида тадбиркорликни рағбатлантириш, инновацияларга асосланган янги товар ва хизматларни яратишда тадбиркор нуқтаи-назаридан фикрлаш ва ишбилармонлик жиҳатлари бўйича ҳаракатланишни амалга оширишга замин яратади.

Илмий адабиётлар таҳлили асосида бизнес инкубаторларнинг стартапларни қўллаб-қувватлашдаги фаолиятини интитуционал таҳлил орқали кўриб чиқилганда стартап экотизимининг муҳим иштирокчилари эканлиги ва бошқа экотизим аъзолари билан яқиндан ҳамкорлик қилиш орқали стартапларга зарур ресурслардан фойдаланишга замин яратиши аниқланди. Ташқи омил сифатидаги ёндашувга кўра, инкубаторлар стартап экотизимининг муҳим элементи эканлиги, улар моддий ва номоддий активлардан фойдаланишда стартапларга кенг йўл оча оладиган ва улар муваффақиятга сезиларли таъсир этувчи куч эканлиги маълум бўлади. Бизнесни қўллаб-қувватлаш ва хизматлар кўрсатиш воситаси сифатидаги ёндашув орқали инкубаторлар фаолиятига қаралганда, аввало, бошқа экотизим иштирокчилари таклиф эта олмайдиган хизматларни кўрсатиши ва зарур офис, ишлаб чиқариш ва тажриба учун жойлар билан таъминлаши

муҳимлиги очиб берилди. Шунингдек, бизнес инкубаторлар томонидан тармоқ алоқалари яратиш ёндашувига кўра, стартаплар тегишли билимларга оид ва экотизим иштирокчилари билан ҳамкорлик қилиш бўйича тармоқ салоҳиятидан фойдаланиш имконига эга бўладилар. Айнан ушбу билим ва ҳамкорлик тармоқларига стартаплар эришишини инкубаторлар таъминлаб беради.

Канададаги бизнес инкубаторларнинг ривожланиш тажрибаси шуни кўрсатадики, стартаплар муваффақияти учун инкубаторлар халқаро миқёсда тан олинган менторлар тармоғига эга бўлиши муҳим аҳамиятга эгадир. Канаданинг Добсон тадбиркорлик маркази стартап ташаббусларини танлашда фақат IT соҳасидаги лойиҳалар билан чекланмасдан тиббиёт, биотехнологиялар, мухандислик, қишлоқ хўжалиги, тежамкор технологиялар, экология ва атроф-муҳитни сақлаш бўйича стартап лойиҳаларни ҳам қўллаб-қувватлашга эътибор қаратади. Бунда Канада тажрибасидан кўринадики, истиқболли тармоқ соҳаларида етакчи хорижий илмий-тадқиқот муассасалари ва илмий-синов лабораториялари билан ҳамкорлик юқори технологик стартапларни яратишда ижобий самара бермоқда.

Япониянинг FoundX маркази асосан илк босқичдаги ғояни шакллантириш ва энди бизнес лойиҳани бошлаш истагидаги стартап ташаббускорларига дастлабки тадбиркорлик асослари, бизнесни бошлаш сабоқлари ҳамда маҳсулот ва хизматларни яратиш кўникмаларини ўргатиши Ўзбекистон шароитида ҳудудларда стартапларни ривожланишида бизнес инкубаторлар фаолиятини ушбу усул билан йўлга қўйишда ижобий натижа бериши мумкин.

Бизнес инкубаторлар фаолиятида янги ташкил этилган стартапларни яшовчалгини таъминлаш бўйича Япония тажрибаси қўллайдиган 9 ойлик инкубация дастури ҳам Ўзбекистоннинг ҳудудларида амалга оширишни кўриб чиқиш мақсадга мувофиқ саналади.

Туркиянинг ITU Cekirdek инкубация марказининг салоҳияти аввало, илмий-тадқиқотга таянадиган кучли университет ва технологик парк билан яқиндан ва самарали ҳамкорлик алоқаларини йўлга қўйилганига таянади. Айнан илмий-тадқиқот, чуқур технологиялар ва инновацион ишланмаларга асосланган технологик ва инновацион стартаплар университетнинг илмий-тадқиқот марказлари, тажриба-синов бўлинмалари ҳамда Технопарк тақдим этадиган инновацион тадбиркорликни қўллаб-қувватлаш инфратузилмаларига суянган ҳолда глобал бозорларда муваффақият қозона олаётганлигини кўрсатмоқда.

ITU Cekirdek инкубация марказининг инкубатор сифатида самарали фаолияти ва Туркия стартап экотизимига қўшаётган салмоқли ҳиссаси нуфузли саноат бирлашмалари, банк-молия муассасалари, венчур фондлар ҳамда глобал миқёсдаги компаниялар билан фаол ҳамкорлик тармоғини шакллантира олганида ҳам ётади.

Туркияда бизнес инкубаторларни ривожлантириш тажрибасидаги муҳим томони шундаки, стартапларни ривожланиш босқичи ва ҳолатига қараб

турли даражадаги мураккабликка эга бўлган инкубация дастурлари таклиф этилади ва инкубация жараёнида стартаплар фойдаланадиган ресурслар базалари, инфратузилма имкониятлари ҳамда бизнес хизматлари турлари хилма-хиллиги билан стартаплар яшовчанлиги учун катта имкониятларни яратиб беради.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60-сон Фармони.

2. Skawińska, E., & Zalewski, R. I. (2020). Success Factors of Startups in the EU-A Comparative Study. *Sustainability*, *12*(19), 8200.

3. Oliver, Z. T., & Hogan, M. (2020). Bridging the knowledge and business ecosystems: resources and mechanisms for regional entrepreneurial development. *Journal of Entrepreneurship and Public Policy*, *9*(4), 379-395.

4. Sungur, O. (2015). Business Incubators, Networking and Firm Survival: Evidence from Turkey. *International Journal of Business and Social Science*, *6*(5), 136-149.

5. Hakim, A. I., Sukimi, M. F., & Ab Rahman, A. H. (2024). Exploring the Role of Business Incubators to Sustainable Startups: A Systematic Literature Review. *PaperASIA*, *40*(5b), 307-320.

6. Nicholls-Nixon, C. L., Valliere, D., Singh, R. M., & Hassannezhad Chavoushi, Z. (2022). How incubation creates value for early-stage entrepreneurs: The People-Place nexus. Entrepreneurship & Regional Development, 34(9-10), 868-889.

7. Wei, S., Zhang, Z., & Chen, X. (2020). *How does business incubator motivate start-ups based on super-network: A dynamic capability perspective*. School of Economics and Management, Nanjing University of Aeronautics & Astronautics.

8. Dobson Center for Entrepreneurship Impact Report 2024. www.mcgill.ca/dobson

9. FoundX web-site https://foundx.jp/

10. https://itucekirdek.com/en/homepage/

11. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 6 июлдаги “2022-2026 йилларда Ўзбекистон Республикасининг инновацион ривожланиш стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-165-сон Фармони.

12. Ўзбекистон Республикаси Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги веб-сайтидаги манбалар. https://gov.uz/oz/edu/news/news

13. Toshkentda startap loyihalarni qo‘llab-quvvatlovchi Startup Garage markazi ochildi https://www.spot.uz/oz/2024/07/22/startup-garage/

14. https://startupgarage.uz/ Bizga ko’p beriladigan savollar

15. Kamida 10 kishidan ish o‘rinlari yaratiladi: O‘zbekistonda tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan tashabbus o‘tkaziladi. https://depozit.uz/news/kamida-10-kishidan-ish-orinlari-yaratiladi-ozbekistonda-tadbirkorlikni-rivojlantirishga-qaratilgan-tashabbus-otkaziladi

16. Ўзбекистоннинг “Startup Garage” компанияси Касабланкадаги янги венчур студияси билан Шимолий Африкада кенгаймоқда. https://uza.uz/uz/posts/ozbekistonning-startup-garage-kompaniyasi-kasablankadagi-yangi-venchur-studiyasi-bilan-shimoliy-afrikada-kengaymoqda_710656

17. “Startup Garage” venchur studiyasi Qatarda o‘z ofisini ochdi. https://www.spot.uz/oz/2025/03/06/startup-garage/

TURIZM SOHASIDA SUN’IY INTELLEKT VA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Bekmurodov Baxtiyor Farxodovich
O`zbekiston Respublikasi Bank-moliya Akademiyasi
Tayanch doktoranti
ORCID: 0009-0007-0425-8147

Annotatsiya. Mazkur tezisda raqamli iqtisodiyot sharoitida turizm sohasida tadbirkorlik subyektlarining raqobatbardoshligini oshirishda sun’iy intellekt va innovatsion texnologiyalarning o‘rni tahlil qilinadi. Shuningdek, xizmatlarni individuallashtirish, dinamik narx belgilash va raqamli marketing orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirish mexanizmlari ko‘rib chiqiladi hamda amaliy takliflar ishlab chiqiladi.

Kalit so‘zlar: Sun’iy intellekt, turizm, innovatsion texnologiyalar, raqobatbardoshlik, dinamik narx belgilash, raqamli marketing, virtual turizm, tadbirkorlik, iqtisodiy samaradorlik.

Kirish. Hozirgi globallashuv va raqamli transformatsiya jarayonlarida turizm sohasi iqtisodiyotning eng tez rivojlanayotgan tarmoqlaridan biriga aylanmoqda. Raqamli iqtisodiyotning shakllanishi va rivojlanishi turizm xizmatlarini ko‘rsatish jarayoniga tubdan yangi yondashuvlarni olib kirib, tadbirkorlik subyektlari uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda [1].

Sun’iy intellekt, katta ma’lumotlar (Big Data), virtual va kengaytirilgan reallik (VR/AR) kabi innovatsion texnologiyalar turizm xizmatlarini individuallashtirish, mijozlar ehtiyojlarini oldindan prognoz qilish va xizmatlar sifatini oshirishda muhim rol o‘ynamoqda [2]. Shu bilan birga, raqobatning keskinlashuvi sharoitida turizm subyektlarining raqobatbardoshligini oshirish dolzarb masalaga aylanmoqda. Mazkur tadqiqotning maqsadi - turizm sohasida sun’iy intellekt va innovatsion texnologiyalar orqali tadbirkorlik subyektlarining raqobatbardoshligini oshirish mexanizmlarini ilmiy asoslash va amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Turizm sohasida raqamli texnologiyalar va innovatsiyalarni qo‘llash masalalari so‘nggi yillarda ilmiy tadqiqotlarning markaziy yo‘nalishiga aylangan. Xususan, turizmni raqamlashtirish va uning iqtisodiy samaradorlikka ta’siri ko‘plab xalqaro tashkilotlar va olimlar tomonidan chuqur o‘rganilgan [3].

D.Buhalis va R.Law tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda axborot texnologiyalarining turizm industriyasidagi roli, ayniqsa xizmatlarni individuallashtirish va mijozlarga yo‘naltirilgan boshqaruv tizimlarini shakllantirishdagi ahamiyati asoslab berilgan [2]. Ularning fikriga ko‘ra, zamonaviy turizmda raqobatbardoshlikning asosiy omili bu - texnologik ustunlik hisoblanadi.

Sun’iy intellektning iqtisodiyotdagi o‘rni va biznes jarayonlariga integratsiyasi S.Russell va P.Norvig tadqiqotlarida keng yoritilgan bo‘lib, unda AI texnologiyalarining qaror qabul qilishni optimallashtirish, prognozlash va avtomatlashtirishdagi imkoniyatlari ko‘rsatib berilgan [4]. Bu esa turizm sohasida xizmatlar sifatini oshirish va xarajatlarni kamaytirishga xizmat qiladi.

OECD tashkiloti tomonidan e’lon qilingan tadqiqotlarda raqamli transformatsiya turizm sektorining barqaror rivojlanishini ta’minlovchi asosiy omillardan biri sifatida baholanadi. Ushbu manbalarda raqamli platformalar, onlayn bronlash tizimlari va katta ma’lumotlar tahlili turizm biznesining samaradorligini oshirishda muhim rol o‘ynashi ta’kidlangan.

Marketing sohasida P.Kotler va K.Keller tomonidan ishlab chiqilgan nazariyalar raqamli marketing vositalarining iste’molchilar xulq-atvoriga ta’sirini tushuntirib beradi [5]. Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlar va target reklama texnologiyalari orqali turizm xizmatlarini ilgari surish samaradorligi yuqori ekanligi ilmiy jihatdan asoslangan.

Mahalliy tadqiqotlarda esa O‘zbekiston sharoitida turizmni rivojlantirishda innovatsion texnologiyalarni joriy etish masalalari ko‘rib chiqilgan [6]. Biroq, mavjud ilmiy ishlarda sun’iy intellekt asosida tadbirkorlik subyektlarining raqobatbardoshligini oshirish mexanizmlarini kompleks tizim sifatida o‘rganish yetarli darajada yoritilmagan.

So‘nggi yillarda sun’iy intellektning turizm sohasidagi qo‘llanilishi, xususan, xizmatlarni individuallashtirish va prognozlashdagi roli zamonaviy tadqiqotlarda keng yoritilmoqda [7]. Shuningdek, raqamli platformalar va AI texnologiyalarining turizm biznes modellariga ta’siri chuqur tahlil qilinib, ularning raqobatbardoshlikni oshirishdagi ahamiyati asoslab berilgan [8].

Shu sababli, mazkur tadqiqot turizm sohasida AI va innovatsion texnologiyalar asosida raqobatbardoshlikni oshirishning tizimli modelini ishlab chiqishga qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda tizimli tahlil va sintez usuli, taqqoslash va iqtisodiy-statistik tahlil, mantiqiy umumlashtirish va ekspert baholash usullaridan foydalanildi.

1. Abduqodirov, A. (2021). Ta’limda innovatsion texnologiyalar. Toshkent: Fan nashriyoti.

2. Tolipov, O‘., & Usmonboyeva, M. (2020). Pedagogik texnologiyalar nazariyasi. Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti.

3. Abdusamatovna, B. M. (2025). The importance of the digital economy in shaping the educational environment. Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance, 6(3), 750-753.

4. Begaliyeva, M. A. (2026). Milliy iqtisodiyot tarmoqlarida xotin-qizlarning o‘rni. International Online Multidisciplinary Conference, 906-909.

5. OECD. (2022). Education at a Glance 2022: OECD Indicators. Paris: OECD Publishing.

HUDUDIY INNOVATSION TADBIRKORLIKNI QO ‘LLAB-QUVVATLASHNING ZAMONAVIY MODELLARI: TAHLIL VA ISTIQBOLLAR

Ishimova Mohinur Absalomovna
Davlat kadastrlari palatasi Toshkent shahar boshqarmasi Moliya-iqtisod sho‘basi buxgalteri
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Mustaqil izlanuvchi
ORCID: 0009-0001-1897-5178

Annotatsiya. Ushbu maqolada innovatsion iqtisodiyotni barpo etish sharoitida startap ekotizimlarini rivojlantirishning global tendensiyalari batafsil tahlil qilingan. Tadqiqotda OECD mamlakatlari, xususan, Portugaliyadagi qishloq va shahar startaplarining yashab qolish darajasi hamda iqtisodiy samaradorligi Gelbach dekompozitsiyasi usuli orqali o‘rganilgan. Shuningdek, Osiyo mintaqasidagi venchur kapitali (VC) dinamikasi va "yashil" texnologiyalarning o‘rni yoritilgan. O‘zbekistonning "Raqamli O‘zbekiston – 2030" va "O‘zbekiston – 2030" strategiyalari doirasida IT-Park rezidentlari uchun soliq imtiyozlari va "Mahallabay" ishlash tizimining innovatsion iqtisodiyotdagi ahamiyati ilmiy asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar. innovatsion iqtisodiyot, startap ekotizimi, venchur kapitali, raqamli transformatsiya, qishloq tadbirkorligi, soliq mexanizmlari, IT-Park, mahallabay tizimi, akademik spin-off, yashil investitsiyalar.

Kirish Zamonaviy global iqtisodiyotda raqobatbardoshlik bevosita innovatsiyalarni joriy etish va yuqori texnologik startaplarni qo‘llab-quvvatlash darajasi bilan o‘lchanmoqda. Startaplar shunchaki kichik biznes loyihasi emas, balki iqtisodiy o‘sishni jadallashtiruvchi asosiy drayverlardir. O‘zbekiston Respublikasida barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlash maqsadida qabul qilingan PF-6079-sonli va PF-22-sonli strategiyalar tadbirkorlik sub’ektlari uchun qulay muhit yaratish va YaIMda raqamli iqtisodiyot ulushini keskin oshirishni maqsad qilgan [1, 2]. Global tajriba shuni ko‘rsatadiki, startaplar nafaqat megapolislarda, balki qishloq hududlarida ham iqtisodiy tengsizlikni kamaytirish vositasi bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirishda aglomeratsiya effekti muhim omil hisoblanadi. Glaeser va Kerr [11] kabi olimlar shaharlarni "bilimlar to‘qnashuvi" (knowledge spillovers) uchun eng qulay maydon deb hisoblaydilar. Biroq, zamonaviy tadqiqotlar raqamli infratuzilma rivojlanishi bilan geografik cheklovlar ahamiyati kamayib borayotganini ko‘rsatmoqda [12].

Portugaliya misolida qishloq startaplarining o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rgangan Barrela va Marshalian [8] ularning yashab qolish darajasi shahardagiga qaraganda barqarorroq bo‘lishi mumkinligini isbotlagan. Mahalliy olimlardan N.H. Jumayev [5] raqamli iqtisodiyotda venchur fondlarining huquqiy maqomini takomillashtirish zarurligini ta’kidlasa, Sh.I. Mustafakulov [6] innovatsion loyihalarning jozibadorligini oshirishda soliq mexanizmlarining o‘rni beqiyos ekanligini asoslagan.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqola miqdoriy va sifat tahlil usullari sinteziga asoslangan. Portugaliyadagi 2010–2022 yillar oralig‘idagi startaplar dinamikasi "Quadros de Pessoal" administrativ panelli ma’lumotlari asosida Gelbach dekompozitsiyasi orqali tahlil qilindi [10]. O‘zbekiston tajribasini o‘rganishda esa benchmarking (qiyosiy tahlil) metodidan foydalanilib, IT-Park rezidentlari va standart korxonalar o‘rtasidagi soliq yuklamasi solishtirildi. Shuningdek, OECD hisobotlari asosida prognoz ko‘rsatkichlari shakllantirildi [9].

Tahlil va natijalar. Zamonaviy innovatsion ekotizimlarda loyihalarning hayotiyligi nafaqat texnologik ustunlikka, balki moliyaviy barqarorlik va geografik joylashuv determinantlariga ham bevosita bog'liqdir. Xususan, global miqyosda DeepTech va akademik startaplar (spin-offs) bozorga kirish davrining uzoqligi hamda tadqiqot (R&D) xarajatlarining yuqoriligi sababli davlatning uzoq muddatli strategik sarmoyaviy ko‘magiga (patient capital) eng yuqori ehtiyoj sezayotgan sektorlar sifatida e’tirof etilmoqda [14]. Startaplarning hududiy dinamikasi tahlili shuni ko'rsatadiki, geografik joylashuv loyihalarning ekzogen inqirozlarga chidamliligini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Quyidagi 1-jadvalda Portugaliya tajribasi misolida hududlararo startap ko‘rsatkichlarining qiyosiy tahlili keltirilgan.

1-jadval:

Portugaliyada hududlar kesimida startap ko‘rsatkichlari (2010–2026 yillar tahlili) [7,15]

Ko‘rsatkich	Shahar	Qishloq	Farq va potentsial
Startaplar soni (har 10 000 ishchiga)	196	257*	+31% (sof potentsial)
Yashab qolish darajasi (5 yildan so‘ng)	43%	55%	+12% (barqarorlik ustunligi)
O‘rtacha ish haqi (shahar=100%)	100%	93%	-7% (xarajatlar optimalligi)
Chidamlilik koeffitsienti	O‘rtacha	Yuqori	Bozor inqirozlariga moslashuvchanlik

Manba: OECD [7] va Startup Portugal [15] ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

**Gelbach dekompozitsiyasi usuli orqali ta’lim va infratuzilma omillari nazorat qilingandagi ko‘rsatkich.*

Portugaliya iqtisodiyoti misolida o‘tkazilgan empirik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, startap asoschilarining demografik tavsiflari va sohaviy o'zgaruvchilari (Gelbach dekompozitsiyasi usuli orqali) nazorat qilinganda, qishloq hududlarining startap yaratish salohiyati shahar aglomeratsiyalariga nisbatan 31 foizga yuqori bo‘lishi mumkinligi isbotlandi [7, 8]. Ushbu ilmiy xulosa qishloq joylarida startap faolligining nisbatan pastligi ularning “geografik determinizm” yoki lokatsion cheklanganligi bilan emas, balki asosan inson kapitali (ta’lim darajasi) va sohaviy infratuzilmadagi tizimli nomutanosibliklar bilan bog‘liqligini tasdiqlaydi [7].

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, qishloq startaplarining 5 yillik yashab qolish koeffitsiyenti (55%) shahardagi loyihalarga (43%) qaraganda sezilarli darajada ustun bo'lib, bu qishloq hududlarining past raqobat muhitida yuqori adaptiv barqarorlikka ega ekanligidan dalolat beradi. Shuningdek, operatsion xarajatlarning (ish haqi fondi misolida) 7% ga arzonligi loyihalarning dastlabki "o'lim vodiysi"

(valley of death) bosqichidan muvaffaqiyatli o'tishini ta'minlovchi muhim moliyaviy drayver bo'lib xizmat qiladi.

Innovatsion loyihalar, ayniqsa ilm-fan bilan bog‘liq bo‘lsa, uzoq muddatli moliyaviy yordam talab qiladi. 2-jadvalda turli sektorlarning davlat ko‘magiga bog‘liqligi keltirilgan.

2-jadval:

Sektorlar bo'yicha startaplarning davlat yordamiga bog'liqlik darajasi (2025) [9]

Sektor	Davlat yordami ulushi (%)	Sababi
DeepTech / Akademik	75%	R&D (tadqiqot) xarajatlarining yuqoriligi
Yashil energiya	60%	Ekologik standartlarga moslashish xarajatlari
Fintech / E-commerce	25%	Tez daromadga kirish imkoniyati
Agrotech (Qishloq)	45%	Infratuzilma va mavsumiy xavflar

Manba: OECD "Start-up Asia" hisoboti [9] asosida shakllantirilgan.

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, sektorlarning davlat ko‘magiga bog‘liqligi turlicha. Xususan, Yashil energiya (60%) va Agrotech (45%) ekologik standartlar va mavsumiy xavflar sababli sezilarli darajada yordamga muhtoj [9]. Fintech va E-commerce esa (25%) tez daromad keltirishi hisobiga eng past bog‘liqlikka ega. Eng yuqori bog‘liqlik darajasi esa akademik startaplarda (75%) kuzatilib, bu soha tadqiqot xarajatlarining ko‘pligi bois alohida strategik e’tibor talab qiladi [7, 9]. O‘zbekistonda OTMlar huzuridagi texnoparklar aynan shu yuqori bog‘liqlikni bartaraf etib, ilmiy ishlanmalarni samarali tijoratlashtirishga xizmat qilmoqda [4]. Bu esa o‘z navbatida, “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasida belgilangan ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasini ta’minlashning asosiy mexanizmi bo‘lib hisoblanadi [1].

O‘zbekistonda innovatsion tadbirkorlikni rag‘batlantirish strategiyasi nafaqat bevosita moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, balki zamonaviy huquqiy va institutsional ekotizimni shakllantirishni ham nazarda tutadi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-22-sonli Farmoni doirasida 2026-yilga qadar “Mahallabay” ishlash tizimi orqali 2 million nafar aholini tadbirkorlik faoliyatiga qamrab olish hamda mikrobiznes subyektlarini sifat jihatidan o‘stirish ustuvor vazifa qilib belgilangan [2]. Mazkur yondashuv innovatsiyalarni hududiy inklyuzivlik asosida rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasining ijrosini ta’minlash doirasida yuqori texnologiyalarga asoslangan startaplar uchun “Regulatory Sandbox” (maxsus tartibga solish rejimi) mexanizmi muvaffaqiyatli joriy etildi [1]. Ushbu tizim yangi texnologik yechimlarni amaldagi huquqiy to‘siqlarsiz sinovdan o‘tkazish imkoniyatini yaratishi bilan strategik ahamiyatga ega. Mazkur huquqiy drayverlar bilan bir qatorda, ekotizim ishtirokchilarini moliyaviy rag‘batlantirishda quyidagi tabaqalashtirilgan soliq imtiyozlari hal qiluvchi rol o‘ynamoqda:

3-jadval:

O‘zbekistonda startaplar uchun soliq mexanizmlari qiyosiy tahlili [1]


Imtiyoz turi	Standart tadbirkorlik	IT-Park rezidenti	Innovatsion startap (imtiyozli)
Foyda solig‘i	15%	0%	7.5% - 0%
Ijtimoiy soliq	12%	0%	1%
Daromad solig‘i (JShDS)	12%	5%	12%

Manba: O‘zR Prezidentining PQ-60 va PF-6079 [1] sonli hujjatlari asosida muallif ishlanmasi

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirishda nafaqat poytaxt markazlari, balki hududiy ekotizimlarni kompleks rivojlantirish barqaror iqtisodiy o‘sishning asosiy garovidir. Portugaliya tajribasida kuzatilgan qishloq startaplarining yuqori yashab qolish darajasi (survival rate) va ularning tashqi ta'sirlarga chidamliligi O‘zbekistonda joriy etilayotgan “Mahallabay” ishlash tizimi uchun muhim ilmiy benchmark bo‘lib xizmat qiladi [7].

Biroq, tizimli tahlillar shuni tasdiqlaydiki, akademik startaplar (spin-offs) va ilm-fanga asoslangan murakkab loyihalar bozorga kirish davrida uzoq muddatli moliyaviy barqarorlikni (patient capital), ya’ni davomiy investitsion ko‘mak va ixtisoslashgan inkubatsiya davrini talab etadi [9]. Bu holat mamlakatimizda DeepTech yo‘nalishini strategik rivojlantirish uchun sarmoyaviy muhitni yanada diversifikatsiya qilish va venchur moliyalashtirish instrumentlarini takomillashtirish zarurligini ko‘rsatadi.

Global va milliy ma’lumotlar sintezi shundan dalolat beradiki, 2025-2026 yillar O‘zbekiston startap ekotizimi uchun “miqdoriy o‘sish” bosqichidan “sifatli eksport” bosqichiga o‘tishning tub burilish davri bo‘ladi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF-22-sonli Farmoni innovatsion faoliyatni mutlaqo yangi bosqichga ko‘tarib, texnologik yangilanishlar poytaxt markazlaridan chekka tuman va mahallalar qamroviga qadar kengayishiga huquqiy zamin yaratdi [2].



1-rasm: O‘zbekistonda IT-eksport va startaplar o'sish prognozi (2020-2026)

Manba: *IT-Park statistik ko‘rsatkichlari va PF-22-sonli Farmon indikatorlari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.*


O‘zbekiston raqamli iqtisodiyoti tahlili AKT eksporti hajmi va startaplar dinamikasi o‘rtasida kuchli korrelyatsiya mavjudligini tasdiqlamoqda. 2020–2024-

yillar oralig‘ida eksport hajmining 12 barobar ortib, 600 mln dollarlik ko‘rsatkichga yetishi IT-Park rezidentlari uchun joriy qilingan 0% foyda va 5% JShDS soliq imtiyozlari hamda tizimli infratuzilmaviy ko‘makning bevosita samarasidir.

PF-22-sonli Farmon doirasidagi islohotlar strategiyasi 2026-yilga qadar eksport hajmini 1 mlrd dollarga, startaplar sonini esa 4 500 taga yetkazishni maqsad qilgan [2]. Diagrammada aks etgan eksponental o‘sish chizig‘i subyektlar sonining ortishi yuqori qo‘shilgan qiymatli intellektual xizmatlar eksportini shiddatli kengaytiruvchi asosiy determinant ekanligini isbotlaydi.

Mazkur dinamika “Raqamli O‘zbekiston-2030” strategiyasi doirasidagi transformatsiya jarayonlari nafaqat miqdoriy ko‘rsatkichlar, balki sifat jihatidan (valyuta tushumi samaradorligi) ham natijador ekanligini ko‘rsatadi [1]. Kutilayotgan 1 milliard dollarlik marraning salmoqli qismi, ya’ni qariyb 40 foizi aynan hududiy (viloyat va tumanlardagi) startaplar hissasiga to‘g‘ri kelishi prognoz qilinmoqda. Bu jarayonda “Mahallabay” ishlash tizimi orqali joriy etilgan moliyaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari asosiy innovatsion drayver bo‘lib xizmat qilishi shubhasizdir [2].

Innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish jarayonida sarmoyalarning maqsadli yo‘naltirilishi mamlakatning istiqboldagi texnologik ixtisoslashuvini belgilab beruvchi fundamental omildir. OECD hisobotlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, global miqyosdagi sarmoyaviy ustuvorliklar va O‘zbekiston milliy iqtisodiyoti o‘rtasida muayyan tarkibiy farqlar mavjud bo‘lib, bu bevosita amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning yo‘nalishini aks ettiradi [7].



2-rasm: Global (OECD) va Milliy (O‘zR) startap sektorlarining sarmoyaviy taqsimoti, % da

Manba: IT-Park statistik ko‘rsatkichlari va PF-22 sonli Farmon indikatorlari asosida muallif tomonidan hisoblangan va prognoz qilingan

O‘zbekistonning innovatsion investitsion landshafti o‘zining tarkibiy tuzilishi jihatidan global tendensiyalardan sezilarli darajada farqlanadi. Bugungi kunda mamlakatimizdagi venchur sarmoyalarining asosiy qismi — qariyb 65 foizi Fintech va E-commerce tarmoqlariga yo‘naltirilmoqda, holbuki global miqyosda ushbu ko‘rsatkich 44 foizni tashkil etadi. Bunday yuqori konsentratsiya PF-6079-sonli Farmon [1] bilan IT-Park rezidentlari uchun taqdim etilgan 0% foyda va 5%

daromad solig‘i kabi preferensiyalar natijasida tranzaksion xarajatlarning optimallashgani bilan izohlanadi. Mazkur sektorlar xalqaro bozorda "to‘yinish" bosqichida bo‘lsa-da, milliy iqtisodiyot uchun strategik innovatsion drayver vazifasini o‘tashda davom etmoqda.

Aksincha, dunyo miqyosida jozibadorligi ortib borayotgan (ulushi 25%) AI va DeepTech yo‘nalishlari O‘zbekistonda bor-yo‘g‘i 5 foizni tashkil etadi. Bu ko'rsatkich fundamental ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish mexanizmlari hali yetarli darajada shakllanmaganidan dalolat beradi. Ushbu tizimli bo‘shliqni to‘ldirish va akademik startaplarni rag‘batlantirish uchun sohada R&D (tadqiqot va ishlanmalar) soliq kreditlarini joriy etish strategik ahamiyatga ega [7].

Shu bilan birga, Agro va Green-Tech sohasidagi sarmoyaviy ulushimiz (15%) global o‘rtacha ko‘rsatkichdan (12%) yuqori ekanligi respublikada ekologik innovatsiyalarga bo‘lgan tizimli e’tiborni aks ettiradi. Bu natija, asosan, PF-22-sonli Farmon [2] doirasida “yashil” texnologiyalar uchun berilgan mol-mulk va yer solig‘i bo‘yicha imtiyozlar samaradorligi bilan bog‘liqdir.

2025-2026 yillarga oid prognozlar shuni ko‘rsatadiki, IT-Parkning 4500 ga yaqin rezidentlari faoliyatidagi sifat o‘zgarishlari natijasida milliy sarmoyaviy muhit oddiy “servis modelidan” murakkab texnologik ishlab chiqarishga (Green-Tech/AI) o‘tishning tub burilish davriga qadam qo‘ymoqda. Xulosa qilib aytganda, soliq mexanizmlarining sektorlar kesimida tabaqalanishi 2026-yilga borib innovatsion iqtisodiyotning xalqaro maydondagi raqobatbardoshligini ta’minlovchi hal qiluvchi omil bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, startaplar barqaror o‘sishni ta’minlovchi strategik drayver va hududiy iqtisodiy muvozanatni saqlash vositasi bo‘lib, xususan, Portugaliya tajribasidagi qishloq startaplarining yuqori yashovchanlik darajasi (55%) O‘zbekistonda joriy etilayotgan "Mahallabay" tizimining ilmiy benchmarki bo‘lib xizmat qiladi [5, 6]. 2026-yilga borib eksport hajmini 1 mlrd dollarga va startaplar sonini 4500 taga yetkazishda amaldagi institutsional va soliq mexanizmlari samaradorligi tasdiqlansada, AI va DeepTech sohalaridagi sarmoyaviy ulushning pastligi (5%) iqtisodiyotni "servis modelidan" "texnologik modelga" o‘tkazish bo‘yicha yangi choralarni talab etadi [7, 2]. Shu maqsadda, PF-22-sonli Farmon doirasida hududiy soliq tabaqalanishini joriy etish, chekka hududlarda ijtimoiy soliqni 1% miqdorida saqlash, universitetlar qoshida "Venture Studio"larni subsidiyalash va akademik spin-offlar uchun "Intellectual Property Box" rejimini qo‘llash, shuningdek, xususiy "Angel investorlar" uchun soliq chegirmalari (Tax Credit) tizimini yaratish maqsadga muvofiqdir [7]. Bundan tashqari, PF-6079 Strategiyasi bo‘yicha qishloq joylarda internet qamrovini 100 foizga yetkazish va "Green VC" tamoyillari asosida iqlimga doir loyihalarga imtiyozli grantlar ajratish global tajribani milliy ustuvorliklar bilan sintez qilish orqali 2030-yilga kelib raqamli iqtisodiyot ulushini YaIMda ikki barobar oshirishning asosiy kafolati bo‘lib xizmat qiladi [5].

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, PF-6079-son, 05.10.2020 y.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, “Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yilida ustuvor yo‘nalishlar bo‘yicha islohotlar dasturlari va “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha davlat dasturi to‘g‘risida”, PF-22-son, 16.02.2026 y.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, PF-60-son, 28.01.2022 y.
4. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, “Innovatsion faoliyat to‘g‘risida”, O‘RQ-630-son, 24.07.2020 y.
5. Jumayev N.H., “Raqamli iqtisodiyotda moliya va bank tizimi islohotlari”, Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2022.
6. Mustafakulov Sh.I., “Investitsion muhit jozibadorligi: nazariya va metodologiya”, Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2021.
7. OECD (2026), Explaining rural start-up firms and entrepreneurship in Portugal, OECD Regional Development Papers, OECD Publishing, Paris (0.1.1-0.1.36).
8. Barrela R., Marshalian M., et al. (2026), “The Geography of Start-up Entrepreneurship: Rural vs Urban dynamics”, NOVA School of Business and Economics Working Paper (p. 2).
9. OECD (2025), Start-up Asia: Chasing the Innovation Frontier, Development Centre Studies, OECD Publishing.
10. Gelbach J. (2016), “When do covariates matter? And which ones, and how much?”, Journal of Labour Economics, Vol. 34/2 (p. 33).
11. Glaeser E., Kerr W. (2010), “Clusters of Entrepreneurship”, Journal of Urban Economics, Vol. 67/1 (p. 26).
12. Audretsch D. B., et al. (2014), “Infrastructure and entrepreneurship”, Small Business Economics, Vol. 42/3.
13. Eurostat (2020), Manual on territorial typologies: General principles and criteria, Luxembourg (p. 25).
14. World Economic Forum (2025). The Future of DeepTech: Financing Long-Term Innovation. Global Innovation Report.
15. Startup Portugal (2025). National Ecosystem Report: Regional Dynamics and Trends.

SUN’IY INTELLEKT ASOSIDA NORASMIY BANDLIKNI ANIQLASH VA IJTIMOIY HIMOYA TIZIMIGA INTEGRATSIYA QILISH

Bobonazarova Yulduz Botirovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
mustaqil izlanuvchisi
ORCID:0009-0004-8650-7984

Annotatsiya: Mazkur maqolada sun’iy intellekt asosida norasmiy bandlikni aniqlash va uni ijtimoiy himoya tizimiga integratsiya qilish masalalari yoritiladi. Tadqiqotda mashinaviy o‘rganish usullariga asoslangan klassifikatsiya modeli taklif etilib, norasmiy bandlikni aniqlash imkoniyatlari ko‘rsatib beriladi. Natijalar sun’iy intellektdan foydalanish norasmiy sektorni qisqartirish, ijtimoiy sug‘urta qamrovini kengaytirish va ijtimoiy siyosat samaradorligini oshirishga xizmat qilishini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: sun’iy intellekt, norasmiy bandlik, mashinaviy o‘rganish, klassifikatsiya modeli, ijtimoiy himoya, ijtimoiy sug‘urta, raqamli iqtisodiyot, ma’lumotlar tahlili, mehnat bozori, davlat siyosati

Kirish. Zamonaviy iqtisodiyotda norasmiy bandlikni qisqartirish va ijtimoiy himoya tizimi qamrovini kengaytirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Norasmiy sektorda band bo‘lgan aholining katta qismi ijtimoiy sug‘urta tizimidan chetda qolayotgani ularning daromad xavfsizligi va ijtimoiy himoyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. O‘zbekiston Respublikasida ushbu muammolarni hal etish maqsadida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvarda PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Prezident farmonida aholi bandligini ta’minlash, norasmiy bandlikni qisqartirish hamda ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish ustuvor yo‘nalishlar sifatida belgilangan. Shu bilan birga, raqamli iqtisodiyot va sun’iy intellekt texnologiyalarining rivojlanishi mehnat bozorini boshqarishda yangi imkoniyatlarni yuzaga keltirmoqda. Ushbu sharoitda sun’iy intellekt asosida norasmiy bandlikni aniqlash va uni ijtimoiy himoya tizimiga integratsiya qilish muhim ilmiy-amaliy vazifa sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi; So‘nggi yillarda sun’iy intellekt va ma’lumotlarga asoslangan yondashuvlar ham mehnat bozori tahlilida qo‘llanilmoqda. Ajay Agrawal sun’iy intellektni qaror qabul qilish xarajatlarini kamaytiruvchi vosita sifatida baholab, u iqtisodiy jarayonlarni aniqroq prognozlash va yashirin hodisalarni aniqlash imkonini berishini ta’kidlaydi. Bu esa norasmiy bandlikni aniqlashda yangi imkoniyatlar yaratadi[48]. Shuningdek, Erik Brynjolfsson raqamli texnologiyalar va sun’iy intellektning iqtisodiy tizimlarga ta’sirini o‘rganib, ularning mehnat bozori shaffofligini oshirishdagi rolini alohida qayd etadi. Uning

[48] Ajay Agrawal, A., Gans, J., & Goldfarb, A. (2018). *Prediction Machines: The Simple Economics of Artificial Intelligence*. Harvard Business Review Press.

fikricha, ma’lumotlarga asoslangan boshqaruv tizimlari norasmiy iqtisodiy faoliyatni qisqartirishga xizmat qiladi[49]. Sendhil Mullainathan sun’iy intellekt va katta ma’lumotlar (big data) yordamida kambag‘allik va yashirin iqtisodiy faoliyatni aniqlash usullarini ishlab chiqdi. Uning tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, turli ma’lumot manbalari -mobil aloqa, moliyaviy operatsiyalar va iste’mol xatti-harakatlari - orqali norasmiy bandlikni yuqori aniqlik bilan prognoz qilish mumkin[50]. Shuningdek, Joshua Blumenstock mobil telefon ma’lumotlari asosida aholining daromad darajasi va iqtisodiy faolligini aniqlash bo‘yicha innovatsion yondashuvlarni taklif qilgan. Uning ishlari ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlarda rasmiy statistika yetarli bo‘lmagan sharoitda muhim ahamiyat kasb etadi[51]. Shu bilan birga, Dean Karlan moliyaviy inklyuziya va norasmiy sektorni o‘rganishda eksperimental metodlarni qo‘llab, siyosiy qarorlar qabul qilishda ma’lumotlarga asoslangan yondashuvni rivojlantirgan. Biroq, sun’iy intellektdan foydalanishda faqat aniqlik emas, balki adolat va shaffoflik masalalari ham muhimdir[52]. Bu borada Cathy O'Neil algoritmik tizimlarning ijtimoiy ta’siri, xususan, noto‘g‘ri qarorlar natijasida aholining ayrim qatlamlari ijtimoiy yordamdan chetda qolishi xavfini chuqur tahlil qilgan. Uning fikricha, SI tizimlari ijtimoiy himoya tizimlariga integratsiya qilinayotganda, ularning shaffofligi va hisobdorligi ta’minlanishi zarur[53]. Xalqaro miqyosda esa World Bank va International Labour Organization kabi tashkilotlar ushbu yo‘nalishda katta hissa qo‘shmoqda. Ular sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalar asosida ijtimoiy reyestrlar yaratish, kambag‘allik va norasmiy bandlikni xaritalash hamda ijtimoiy yordamni aniq yo‘naltirish tizimlarini ishlab chiqmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Ijtimoiy himoya tizimi va norasmiy bandlik o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni aniqlash hamda ularni integratsiyalash mexanizmlarini takomillashtirish maqsadida zamonaviy ilmiy tadqiqot metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot metodologiyasi klassik iqtisodiy tahlil usullari bilan bir qatorda ma’lumotlarga asoslangan (data-driven) va sun’iy intellektga tayanuvchi yondashuvlarning uyg‘unlashuviga asoslanadi. Ijtimoiy himoya va norasmiy bandlikning rivojlanish tendensiyalarini aniqlashda iqtisodiy-statistik tahlil, dinamik qatorlar tahlili, taqqoslash (komparativ) tahlili hamda guruhlash usullaridan foydalanildi. Ushbu metodlar orqali turli mamlakatlar va hududlar kesimida mavjud holat baholandi hamda ularning o‘zaro bog‘liqligi aniqlandi. Tadqiqotda norasmiy bandlikka ta’sir etuvchi omillarni aniqlash uchun korelatsion va regressiya tahlili usullaridan foydalanish nazarda tutiladi. Mazkur yondashuv orqali ijtimoiy himoya dasturlari, daromadlar darajasi, bandlik ko‘rsatkichlari va norasmiy iqtisodiy faoliyat o‘rtasidagi sabab-oqibat munosabatlari baholanadi. Shuningdek, zamonaviy iqtisodiy tadqiqotlarda keng qo‘llanilayotgan katta ma’lumotlar (Big Data) tahlili va

[49] Erik Brynjolfsson, E., & McAfee, A. (2014). *The Second Machine Age: Work, Progress, and Prosperity in a Time of Brilliant Technologies*. W. W. Norton & Company.
[50] Mullainathan, S., & Spiess, J. (2017). *Machine Learning: An Applied Econometric Approach.* Journal of Economic Perspectives.
[51] Blumenstock, J., Cadamuro, G., & On, R. (2015). *Predicting Poverty and Wealth from Mobile Phone Metadata*. Science.
[52] Karlan, D., & Valdivia, M. (2011). *Teaching Entrepreneurship: Impact of Business Training*.
[53] O'Neil, C. (2016). *Weapons of Math Destruction.*

mashinaviy o‘rganish (Machine Learning) yondashuvlarining metodologik imkoniyatlari ham o‘rganildi. Ushbu yondashuvlar Sendhil Mullainathan, Joshua Blumenstock va Ajay Agrawal tadqiqotlariga tayangan holda norasmiy bandlikni aniqlash, yashirin iqtisodiy faoliyatni prognozlash hamda ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamlarini identifikatsiya qilish imkoniyatlarini baholashda qo‘llanildi.

1-jadvalda 2020-2025-yillar davomida norasmiy bandlik darajasi bosqichma-bosqich kamayib borayotganini kuzatish mumkin.

2020-yilda ushbu ko‘rsatkich 52 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2025-yilga kelib 43 foizgacha pasaygan. Bu esa mehnat bozorida rasmiylashuv jarayonlari jadallashayotganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, sun’iy intellekt texnologiyalarining joriy etilishi norasmiy bandlikni aniqlash samaradorligini sezilarli darajada oshirgan. Jumladan, 2020-yilda atigi 5 foiz norasmiy faoliyat AI yordamida aniqlangan bo‘lsa, 2025-yilga kelib bu ko‘rsatkich 33 foizga yetgan.


1-jadval

2020-2025 yillarda norasmiy bandlik darajasi, sun’iy intellekt orqali aniqlash ko‘rsatkichlari va ijtimoiy himoya qamrovi dinamikasi[54]

Yil	Norasmiy bandlik (%)	AI orqali aniqlangan ulush (%)	Ijtimoiy himoyaga jalb qilinganlar (%)
2020	52	5	18
2021	51	8	20
2022	49	12	23
2023	47	18	27
2024	45	25	32
2025	43	33	38

Bu esa katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilish, soliq, bank va mobil ma’lumotlar integratsiyasi orqali yashirin iqtisodiy faoliyatni aniqlash imkoniyatlari kengayganini anglatadi. Natijada, ijtimoiy himoya tizimiga jalb qilingan aholining ulushi ham ortgan. 2020-yilda 18 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2025- yilga kelib 38 foizga yetgan. Bu esa davlat tomonidan raqamli texnologiyalar asosida aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini aniqlash va qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari takomillashayotganini ko‘rsatadi.

[54] Muallif tadqiqotlari asosida tuzildi.



1-rasm. Sun’iy intellekt yordamida olib borilgan tadqiqot natijalari va rejalari[55]

Metodologiyada probabilistik va prognozlash yondashuvlari muhim o‘rin tutadi. Shuningdek, aniqlangan natijalar asosida aholining ijtimoiy-iqtisodiy holatini baholash va ularni ijtimoiy himoya tizimlariga yo‘naltirish mexanizmi qo‘llaniladi. Bu esa ijtimoiy targeting metodologiyasini ifodalaydi. Tadqiqotda tizimli va iterativ yondashuv ham qo‘llanilib, ya’ni model doimiy ravishda yangi ma’lumotlar asosida takomillashtirib boriladi.


Tahli va natijalar shuni ko‘rsatadiki, sun’iy intellekt asosida yaratilgan modellardan foydalanish norasmiy bandlikni aniqlash imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytiradi. Xususan, mobil va moliyaviy ma’lumotlar asosida aholining real iqtisodiy holatini aniqlash mumkinligi isbotlandi.

Natijalar shuni ham ko’rsatadiki;

- norasmiy sektor hajmini aniqroq baholash imkoniyati oshadi;
- ijtimoiy yordamni maqsadli va samarali taqsimlash ta’minlanadi;
- ijtimoiy sug‘urta qamrovini kengaytirish imkoniyati yuzaga keladi;
- davlat siyosatining samaradorligi ortadi.

[55] Muallif tadqiqotlari asosida tuzildi.

Bundan tashqari, sun’iy intellekt asosidagi tizimlar yashirin iqtisodiy faoliyatni aniqlash orqali mehnat bozorining shaffofligini oshirishga xizmat qilishi aniqlandi.



2-rasm. Norasmiy bandlikni aniqlash va ijtimoiy himoya integratsiyasi – 5 bosqichli model[56]

Ushbu 5 bosqichli model norasmiy bandlikni aniqlash va uni ijtimoiy himoya tizimlariga integratsiya qilish jarayonini yagona, uzluksiz va o‘zaro bog‘liq tizim sifatida ifodalaydi. Bu model, odatda, davlatlar norasmiy iqtisodiyotni kamaytirish, ijtimoiy yordamni aniq ehtiyojmand qatlamlarga yetkazish hamda raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt imkoniyatlaridan samarali foydalanishni maqsad qilgan hollarda qo‘llaniladi. Ayniqsa, rasmiy statistika yetarli darajada rivojlanmagan yoki yashirin iqtisodiy faoliyat yuqori bo‘lgan sharoitlarda ushbu yondashuv katta ahamiyat kasb etadi. Jarayon ma’lumotlarni yig‘ishdan boshlanadi, bunda mobil aloqa, bank operatsiyalari va soliq tizimlaridan olingan ma’lumotlar asosiy manba bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu ma’lumotlar butun tizimning poydevorini tashkil etadi, chunki keyingi bosqichlar aynan shu axborotlarga tayanadi. Keyingi bosqichda sun’iy intellekt texnologiyalari yordamida ushbu ma’lumotlar tahlil qilinib, norasmiy bandlik holatlari aniqlanadi. Ya’ni, algoritmlar orqali shaxslarning rasmiy tizimdan tashqarida amalga oshirayotgan iqtisodiy faoliyati aniqlanadi. Shundan so‘ng aniqlangan natijalar asosida aholining ijtimoiy-iqtisodiy holati, daromad darajasi va ehtiyojlari baholanadi, bu esa qaysi qatlamlar ijtimoiy yordamga muhtoj ekanligini aniqlash imkonini beradi. Baholash natijalari keyingi bosqichda ijtimoiy himoya tizimlariga integratsiya qilinadi, ya’ni aniqlangan ehtiyojmand shaxslar tegishli davlat dasturlariga, nafaqalar yoki subsidiyalar tizimiga kiritiladi. Bu bosqich davlat siyosatini amalda ro‘yobga chiqaruvchi muhim halqa hisoblanadi. So‘nggi bosqichda esa monitoring va nazorat amalga oshiriladi, bunda berilgan yordamning samaradorligi, tizimning to‘g‘ri ishlashi va ehtimoliy

[56] Muallif tadqiqotlari asosida tuzildi.

xatoliklar muntazam ravishda tahlil qilinadi. Eng muhim jihati shundaki, monitoring natijalari yana yangi ma’lumotlar sifatida tizimga qaytadi va jarayon boshidan takroran ishlay boshlaydi. Shu tariqa, mazkur model yopiq sikl shaklida faoliyat yuritadi va uning har bir bosqichi boshqasiga bevosita bog‘liq holda ishlaydi. Aynan shu uzluksizlik va o‘zaro bog‘liqlik tufayli tizim doimiy ravishda takomillashib boradi va ijtimoiy himoya mexanizmlarining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Bu esa sun’iy intellekt asosidagi zamonaviy ijtimoiy siyosatning muhim va istiqbolli yondashuvi sifatida namoyon bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, sun’iy intellekt asosida norasmiy bandlikni aniqlash va uni ijtimoiy himoya tizimlariga integratsiya qilish zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy siyosatning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Tadqiqot natijalari ushbu yondashuv nafaqat norasmiy sektorni qisqartirish, balki ijtimoiy himoya tizimining samaradorligini oshirishga ham xizmat qilishini ko‘rsatdi. Shu bilan birga, ushbu tizimni joriy etishda shaffoflik, adolat va ma’lumotlar xavfsizligini ta’minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Kelgusida sun’iy intellekt texnologiyalarini yanada rivojlantirish va ularni davlat boshqaruvi tizimlariga keng joriy etish orqali ijtimoiy himoya mexanizmlarini yanada takomillashtirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmon: “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”.// Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022.
2. Ajay Agrawal, Gans, J., & Goldfarb, A. (2018). Prediction Machines: The Simple Economics of Artificial Intelligence. Harvard Business Review Press.
3. Erik Brynjolfsson, & McAfee, A. (2014). The Second Machine Age: Work, Progress, and Prosperity in a Time of Brilliant Technologies. W.W. Norton & Company.
4. Sendhil Mullainathan, & Spiess, J. (2017). Machine Learning: An Applied Econometric Approach. Journal of Economic Perspectives, 31(2), 87-106.
5. Joshua Blumenstock, Cadamuro, G., & On, R. (2015). Predicting Poverty and Wealth from Mobile Phone Metadata. Science, 350(6264), 1073-1076.
6. Dean Karlan, & Valdivia, M. (2011). Teaching Entrepreneurship: Impact of Business Training. Review of Economics and Statistics.
7. Cathy O'Neil (2016). Weapons of Math Destruction: How Big Data Increases Inequality and Threatens Democracy. Crown Publishing.
8. World Bank (2019). World Development Report: The Changing Nature of Work. Washington, DC.
9. World Bank (2021). Social Protection and Jobs Responses to COVID-19: A Real-Time Review.
10. International Labour Organization (2018). Women and Men in the Informal Economy: A Statistical Picture. Geneva.
11. International Labour Organization (2021). Extending Social Protection to Informal Workers.

TADBIRKORLIK JARAYONLARINI INTELLEKTUALLASHTIRISHDA GIBRID ONTOLOGIK-GENERATIV MULOQOT TIZIMINING MODEL VA ALGORITMLARI

Absalamova Diyora Bo‘riboyevna,
Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti
“Sun'iy intellekt” kafedrasining
tayanch doktoranti
ORCID: 0009-0007-4070-0959

Annotatsiya. Ushbu maqolada tadbirkorlik sohasida tez va aniq qarorlar qabul qilishga ko‘maklashuvchi intellektual muloqot tizimini loyihalashda qo‘llaniladigan gibrid ontologik-generativ model (HOG-M) va uning algoritmlari taqdim etiladi. 120 nafar tadbirkor ishtirokida o‘tkazilgan eksperiment natijalari ko‘rsatadiki, HOG-M tizimi klassik RAG yechimiga nisbatan F1-Score ni 0.698 dan 0.859 ga (23,1%), faktik aniqlikni esa 87,1% gacha oshirgan, gallyutsinatsiya darajasini esa 12,1% dan 5,8% ga tushirgan. Soliq hisoblash, shartnoma tahlili va kredit arizasi kabi biznes stsenariylarida ish vaqtini o‘rtacha 79,3% ga qisqartirishga erishilgan.

Kalit so‘zlar: Sun'iy intellekt, ontologiya, vektorli qidiruv, generativ muloqot tizimi, tadbirkorlik intellektual tizimi.

Kirish. Raqamli O‘zbekiston – 2030 strategiyasi va Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot strategiyasi doirasida sun'iy intellekt (SI) asosidagi yechimlarni iqtisodiyotning barcha sohalariga, xususan tadbirkorlikka tatbiq etish ustuvor vazifaga aylangan. Ammo hozirgi SI tizimlari – ayniqsa umumiy maqsadli yirik til modellari (LLM) – uchta tub muammoga duch keladi: (a) huquqiy va moliyaviy mezonlar bo‘yicha “gallyutsinatsiya” (noto‘g'ri ma'lumot generatsiyasi); (b) O‘zbekiston qonunchiligi va biznes kontekstini tushunmaslik; (c) real vaqt rejimida yangilanuvchi bilim bazasidan foydalana olmaslik [1].

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Intellektual muloqot tizimlari sohasida so‘nggi yillarda paradigmal o‘zgarish ro‘y berdi: qoida asosida ishlaydigan chatbotlardan (AIML, Rasa) neyrotarmoq asosida generatsiya qiluvchi tizimlarga (GPT-4, LLaMA-3) o‘tildi. Lewis va boshqalar (2020) taklif etgan RAG paradigmasi LLM ni tashqi bilimlar bazasi bilan boyitish yo‘lini ochdi va gallyutsinatsiya darajasini sezilarli kamaytirdi [2]. Biroq klassik RAG faqat leksik o‘xshashlikka tayanib, tushunchalar orasidagi mantiqiy munosabatlarni hisobga olmaydi.

Ontologiya va bilimlar grafi integratsiyasi sohasida Pan va boshqalar (2024) LLM va bilimlar graflarini birlashtirish yo‘l xaritasini taqdim etib, “Knowledge-Aware LLM” kontseptsiyasini asosladi [3]. Edge va boshqalar (2024) Graph RAG yondashuvini taklif etib, matndan avtomatik graf qurishni ko‘rsatdi [4]. Ammo ushbu ishlar formal ekspert ontologiyalaridan emas, avtomatik chiqarilgan graflardan foydalanadi, bu esa yuridik va moliyaviy domenlar uchun yetarli


ishonchlilik ta'minlamaydi.

Mahalliy tadqiqotlar orasida O‘zbekistonda SI asosidagi biznes tizimlari borasida yetarli darajada ixtisoslashgan ishlar mavjud emas, bu mazkur tadqiqotning dolzarbligini yanada oshiradi. Shuningdek, tadbirkorlar tomonidan foydalanilayotgan mavjud yechimlar (1C:Buxgalteriya, soliq kalkulyatorlari) interaktiv muloqot imkoniyatidan foydalana olmaydi — foydalanuvchi ixtiyoriy savolga javob ololmaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. HOG-M modeli uchta integratsiyalashgan qatlamdan iborat: (1) So‘rovni tahlil qilish qatlami — NER, intent classification va entity linking; (2) Bilimlar qatlami — OWL/RDF ontologiyasi, FAISS vektorli indeksi va biznes qoidalar bazasi; (3) Generatsiya qatlami — boyitilgan prompt va fine-tuned LLM (1-rasm).

O‘zbek tadbirkorlik domen ontologiyasi Protégé 5.6 muhitida OWL 2 DL tilida yaratildi: 247 ta sinf (Class), 89 ta ob'ekt xossasi (ObjectProperty), 156 ta ma'lumot xossasi (DataProperty) va 1,840 ta aksiomadan iborat. Ontologiyada O‘zbekiston Soliq kodeksi (2020), Tadbirkorlik faoliyati kafolatlari to‘g'risidagi qonun (2021), Mehnat kodeksi va 47 ta amaldagi me'yoriy hujjat formal ifodalangan.

Eksperimental baholash uchun Toshkent, Samarqand va Namangandan 120 nafar tadbirkor ishtirokida foydalanuvchi testi o‘tkazildi (5 ta ish stsenariysi, har biri 12 ta savol). Avtomat baholash uchun RAGAS tizimi: Precision, Recall, F1-Score, BLEU-4, BERTScore mezonlari ishlatildi.



1-rasm. Tadbirkorlik muloqot tizimining HOG-M arxitekturasi: to‘rt qatlamli gibrid model.[57]


[57] Muallif tomonidan ishlab chiqilgan tadbirkorlik muloqot tizimi uchun HOG-M arxitekturasi.

Tahlil va natijalar. So‘rovni ontologik tahlil qilish algoritmi. Foydalanuvchi so‘rovi qabul qilingach, tizim 5 bosqichli qayta ishlash algoritmini ishga tushiradi (2a-rasm). Avval NER modeli (fine-tuned BERT-UZ) maxsus terminlarni ajratadi — masalan, "QQS" → Soliqlar:QQSRates, "JSHSHIR" → Identifikator: ”JshshirEntity”. So‘ngra k=2 chuqurlikdagi BFS algoritmi ontologik grafda qo‘shni tugunlarni topadi: SPARQL so‘rovi orqali tegishli qonun moddalari, stavkalar va formulalar chiqariladi. Parallel ravishda FAISS indeksida kosinusli o‘xshashlik asosida eng mos 5 ta hujjat parchasini topadi (1).

RRF birlashtirish formulasi:

$$\mathrm{RRF(d)} = \sum_i \frac{1}{60+rank_i(d)} \quad (1)$$

Bu yondashuv ikkala qidiruv kanalining kuchli tomonlarini — ontologiyaning formal aniqligi va vektorli qidiruvning moslashuvchanligi — birlashtiradi. Eksperiment natijalari ko‘rsatadiki, faqat vektorli qidiruv (klassik RAG) so‘rovlar uchun 68,4% to‘g'ri javob berarkan, gibrid HOG-M esa 87,1% aniqlikka erishgan (+27,3%).



2-rasm. HOG-M so‘rovni qayta ishlash algoritmi (a) va samaradorlikni radar taqqoslamasi (b).[58]


Ontologiya va vektorli qidiruv integratsiyasi.

3-rasmda O‘zbek tadbirkorlik domen ontologiyasining graf strukturasi (a) va 847 ta hujjatning semantik vektorli fazodagi t-SNE proyeksiyasi (b) tasvirlangan. Ushbu sektor uchun domen ontologiyasi “tadbirkorlik”, “huquqiy-status”, “moliyaviy-holat”, “bozor-muhiti” kabi asosiy sinflar va ularning 243 ta pastki

[58] Eksperiment natijalarini ko‘rsatuvchi muallif tomonidan ishlab chiqilgan diagramma.


sinfidan iborat. Graf strukturasi k=2 qadamda munosabatlar zanjirini — masalan, "Tadbirkorlik → hasFinance → Kredit → requiresDoc → Ustav" —kabi chiqarish imkonini beradi.

Vektorli fazodagi klasterlanish tahlili (b rasm) ko‘rsatadiki, semantik yaqin hujjatlar (soliq masalalari, kredit va moliya, litsenziya va ruxsatnoma, bozor tahlili, HR va mehnat) bir-biridan aniq ajralgan klasterlarda joylashgan. Bu embedding sifatining yuqoriligini va FAISS indeksining domenga to‘g'ri mosligini tasdiqlaydi.



3a-rasm. O‘zbek tadbirkorlik domen ontologiyasi (a)[59]

[59] Tadbirkorlik sektorlari uchun domen ontologiyasi ifodalovchi muallif ishlanmasi.



3b-rasm. Semantik vektorli fazo t-SNE proyeksiyasi[60]

Eksperiment natijalari.

Avtomat baholash natijalari 1-jadvalda keltirilgan. HOG-M barcha metrikalar bo‘yicha klassik RAG va sof LLM dan ustun keldi. Ayniqsa diqqatga sazovor qismi, gallyutsinatsiya darajasi 23,4% hisoblanib (LLM) → 12,1% (RAG) → 5,8% (HOG-M), ya'ni 2,1 martali kamayishni tashkil etadi.

1-jadval


Avtomat baholash ko‘rsatkichlari taqqoslamasi[61]

Ko‘rsatkich	Sof LLM	Klassik RAG	HOG-M (taklif)	Delta vs RAG
Precision	0.512	0.714	0.871	+22.0%
Recall	0.448	0.682	0.848	+24.3%
F1-Score	0.478	0.698	0.859	+23.1%
BLEU-4	0.310	0.470	0.630	+34.0%
BERTScore	0.641	0.761	0.893	+17.3%
Gallyutsinatsiya ↓	23.4%	12.1%	5.8%	–52.1%
Latency, o‘rta (s)	0.82	1.64	2.35	+43.3%

Biznes tatbiq natijalari 4-rasmning (b) qismida keltirilgan. 5 ta ish stsenariysida (soliq hisoblash, shartnoma tahlili, kredit ariza, bozor tahlili, HR

[60] Tadbirkorlik sektorlari uchun fazo t-SNE proyeksiyasini ifodalovchi muallif ishlanmasi.
[61] n=120, 600 savol-javob juftligi asosida tahlil qilingan algoritmlar samaradorligini isbotlaydigan ko‘rsatkichlar taqqoslamasi.

masalalari) HOG-M ish vaqtini o‘rtacha 79,3% ga qisqartirdi. Masalan, soliq hisoblash 48 daqiqadan 8 daqiqaga tushdi (–83,3%). Tadbirkor qoniqish darajasi (1–5 shkalada) o‘rtacha 4,1/5.0 ni tashkil etdi.



4-rasm. HOG-M baholash natijalari: avtomat metrikalar (a) va biznes tatbiq samaradorligi (b).[62]

2-jadval

HOG-M tizimining kengayuvchanlik va resurs tahlili[63]

Parametr	Qiymat	Eslatma	Talablar
Vektorli indeks hajmi	50,000 chunk	512-token, 768-dim	4 GB RAM
Ontologiya hajmi	247 sinf	1,840 aksioma	< 50 MB
O‘rtacha so‘rov latency	2.35 s	GPU: A100 80GB	8 GB VRAM
Bir vaqtda foydalanuvchi	128 session	Async processing	16 CPU cores
LLM (fine-tuned)	Llama-3-8B-Instruct	4-bit NF4 quant.	8 GB VRAM

Xulosa va takliflar.

Ushbu tadqiqotda taklif etilgan HOG-M gibrid ontologik-generativ model tadbirkorlik sohasida intellektual muloqot tizimlarini yaratishda yangi yo‘nalishni ochadi. Asosiy ilmiy va amaliy xulosalar: birinchidan, ontologik k-hop graf qidiruvi va FAISS ANN vektorli qidiruvni RRF algoritmi orqali birlashtirish bo‘lib bu esa F1-Score ni 23,1% ga oshiradi va gallyutsinatsiya darajasini 2,1 barobar

[62] Muallif tomonidan ishlab chiqilgan eskperiment natijalarining visual ko‘rinishi.
[63] HOG-M tizimida resurs tahliliva kengayuvchanlik jadvali

kamaytiradi; ikkinchidan, O‘zbek tadbirkorlik domen ontologiyasi (247 sinf, 1,840 aksioma) qonunchilik va biznes bilimlarini formal ifodalash va avtomatik xulosa chiqarish uchun mustahkam asos yaratdi; uchinchidan, 120 nafar tadbirkor ishtirokidagi eksperiment biznes stsenariylarida ish vaqtini o‘rtacha 79,3% ga qisqartirishga erishilganini tasdiqladi.

Takliflar:

1. Tadbirkorlik sohasidagi davlat raqamlashtirish dasturlarida HOG-M tipidagi gibrid SI yechimlarni standart komponent sifatida joriy etish; bu I-Invest, My Tax, SIAMS platformalari bilan integratsiya orqali davlat xizmatlarining samaradorligini oshirish;

2. O‘zbekiston qonunchiligiga asoslangan domen ontologiyalarini yaratish va ochiq litsenziya asosida (CC BY 4.0) barcha dasturchilar foydalanishi uchun ochiq repozitoriyga joylash;

3. HOG-M arxitekturasini kichik va o‘rta biznes uchun SaaS (Software as a Service) formatida taqdim etish: oylik obuna modeli, bulutli deployment, API integratsiya imkoniyati.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti PF-6079. "Raqamli O‘zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash to‘g'risida. 2020-yil 5-oktabr, Toshkent.

2. Lewis P, Perez E, Piktus A, et al. Retrieval-Augmented Generation for Knowledge-Intensive NLP Tasks. Advances in Neural Information Processing Systems. 2020, 33: 9459–9474.

3. Pan J, Sheng S, Xu Y, et al. Unifying Large Language Models and Knowledge Graphs: A Roadmap. IEEE Transactions on Knowledge and Data Engineering. 2024, 36(7): 3580–3599. doi: 10.1109/TKDE.2024.3352100

4. Edge J, Trinh H, Cheng N, et al. From Local to Global: A Graph RAG Approach to Query-Focused Summarization. arXiv. 2024, arXiv:2404.16130.

5. Cormack GV, Clarke CLA, Buettcher S. Reciprocal Rank Fusion Outperforms Condorcet and Individual Rank Learning Methods. In: Proceedings of ACM SIGIR 2009; Boston, USA. pp. 758–759.

6. Bordes A, Usunier N, Garcia-Duran A, Weston J. Translating Embeddings for Modeling Multi-relational Data. Advances in Neural Information Processing Systems. 2013, 26: 2787–2795.

7. Gruber TR. A Translation Approach to Portable Ontology Specifications. Knowledge Acquisition. 1993, 5(2): 199–220.

8. Es S, James J, Espinosa-Anke L, Schockaert S. RAGAS: Automated Evaluation of Retrieval Augmented Generation. EACL 2024; pp. 150–163.

9. Noy NF, McGuinness DL. Ontology Development 101: A Guide to Creating Your First Ontology. Stanford Knowledge Systems Laboratory, KSL-01-05. 2001.

10. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. 2019-yil 30-dekabr. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2020.

AGRAR SOHADA INNOVATSION JARAYONLARNI RIVOJLANTIRISH VA INTELLEKTUAL MULKDAN SAMARALI FOYDALANISH

Baxriddinov Asror Raxmatovich
Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Toshkent filiali
Mustqil izlanuvchi
ORCID: 0009-0000-0294-8004

Annotatsiya. Agrar sohada innovatsion jarayonlarni rivojlantirishdagi xolatga qisqacha baho berilib, masalaning dolzarbligi asoslangan. Innovatsiyalar samaradorligini aniqlashdagi ananaviy yondashuvlardan zamonaviy usullarga o‘tish va innovatsion jarayonlarni shakllantirishdagi omillar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik jihatlari bayon etilgani holda ularga amal qilish ijobiy natijalar berishi imkoniyatlari mavjudligi qayd etilgan.

Kalit so‘zlar: Innovatsiya, innovatsion jarayon, innovatsion muhit, intellektual mulk, innovatsion g‘oya, iqtisodiy kategoriya, bozor omili. investitsiya, kapital, eksport salohiyati.

Kirish. Mamlakatimiz iqtisodiyotini innovatsion rivojlantirish fan va ishlab chiqarish o‘rtasidagi yangicha va mustahkam aloqalarni o‘rnatish hal etilishi lozim bo‘lgan asosiy vazifalar sirasiga kiradi. Ta’kidlash lozimki bu to‘g‘rida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 oktabridagi PF-5358 sonli farmonining 1-ilovasida takidlanganidek “Ilm fan va ishlab chiqarish o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarning samarali mexanizmlari mavjud emasligi davlat tomonidan moliyalashtirilgan ilmiy-tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilishni sezilarli cheklamoqda” [1] Prezidentimiz tomonidan qo‘yilgan masalani ijobiy hal etish bo‘yicha o‘tgan davr mobaynida iqtisodiyotning innovatsion sektorida mahsulot va xizmatlar sifati, mutaxassis va olimlarning intellektual solohiyati natijalari, ya’ni intellektual mulkka bo‘lgan huquqlari mustahkamlanib, inson uchun o‘z intellektual mehnati mahsulidan daromad olish imkoniyatlari kengayib, ularning huquqiy asoslari mustahkamlanmoqda. Shu boisdan ham, bugungi kunda agrar sohada intellektual mulkning umumiqtisodiy muammolarini o‘rganish bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borish jarayonida ham jonlanish kuzatilmoqda. Biroq, agrar sohada tegishli intellektual mulkning ijtimoiy-iqtisodiy jihatlari, ularning innovatsion jarayonlarga moslashishi, intellektual mulk va innovatsiyalar bozorini shakllantirish, ishlab chiqarish jarayonlariga joriy etish ya’ni tijoratlashtirish masalalarini ilmiy va amaliy jihatdan tadqiq etish asosida mamlakat agrar iqtisodiy fanini yanada rivojlantirish hamda ishlab chiqarish tarmoqlari bilan uyg‘unlashtirish dolzarb masalalardan biri ekanligini alohida qayd etish lozim. Zero innovatsiya va innovatsion jarayon, intellektual mulk va intellektual salohiyat iqtisodiy kategoriyalariga alohidalik tamoyilidan kelib chiqqan holda ularning har biriga xos

bo‘lgan mohiyatini aniqlash, o‘zaro bog‘liklik va ta’sir etish holatlarini ilmiy-nazariy jihatdan asoslagan holda ta’rif berish va tasnifiy xususiyatlarini asoslash zarurati ham muhim ahamiyatga egadir.


Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Iqtisodiy manbaa adabiyotlarda umumlashgan holda intellektual mulkka quyidagicha ta’rif berilgan. “Intellektual mulk – ijodiy aqliy faoliyat mahsuli. Ixtirochilik va mualliflik obyekti huquqi majmuiga kiruvchi, fan, adabiyot, san’at va ishlab chiqarish sohasida ijodiy faoliyatning boshqa turlari, va boshqa aqliy mulk obyektlari kiradi” [3].Turli ilmiy adabiyotlar tahlilidan kelib chiqib ta’kidlash mumkinki, “Boshqaruv” tushunchasi tor ma’noda biror bir tashkilotni maqsadini aniqlash va unga erishish uchun samara berishi qanchalik faoliyat yo‘nalishini to‘g‘ri tanlay bilish, qarorlar qabul qila olishga hamda uning boshqarilishini nazorat qilishga va bu jarayonning amal qilishiga bog‘liq bo‘ladi.[4] Lekin har bir boshqarish obyektida ma’lum darajadagi boshqarish tarkibi mavjud bo‘lib, u o‘zida boshkaruv maksadlarini amalga oshiruvchi va funksiyalarni bajaruvchi bir-biri bilan bog‘langan turli boshkaruv organlari va bug‘inlarining majmuini mujassam ettiradi.Shundan kelib chiqqan holda boshqarishning maqsadlari, funksiyalari,vazifalari, obyektlari va organlari uning tashkiliy tarkibini belgilab beradi. Yuqorida ta’kidlanganijek boshqaruv nuqtai nazaridan innovatsion jarayon va innovatsion faoliyat bir-biridan farq qilib, bizningcha bu jaryonlarni boshqarish innovatsiya nuqtai nazaridan makro ya’ni davlat miqyosida, inellektual mulk subektlari va innovatsion faoliyatni boshqarish esa mikro ya’ni tarmoq va korxonalar miqyosida yuz beradi. Agrar sohada innovatsion faoliyatning pirovard natijasi bo‘lib innovatsiya mahsuloti (texnologiya) hisoblanadi. Innovatsiya mahsuloti (texnologiyasi) o‘zining foydalilik darajasi va hajmi bilan farqlanadi, u agrar sohada yangi texnologiyalarni joriy etilishi evaziga tarmoq va korxona ishlab chiqarish imkoniyatlarini o‘sishini ifodalovchi ko‘rsatkichlarda o‘z aksini topadi.

Tadqiqot metodologiyasi. “Alohida ta’kidlash mumkinki innovatsion jarayonlarni boshqarishda inson omili asosiy o‘rinni egallaydi. Chunki, iqtisodiyotning asosiy muammosi sanalgan jamiyatda cheklangan resurslardan aholining cheksiz ehtiyojini ta’minlash muammolarini hal etish insonning aql idroki ya’ni intellektual salohiyatidan qay darajada foydalanishga bevosita bog‘liqdir”. [2]

to‘g‘risida”gi Qonunining moddasida “Aoli bandligi sohasidagi prinsiplar” belgilangan bo‘lib, unga ko‘ra aholi bandligi sohasidagi asosiy prinsiplar quyidagilardan iborat:

- bandlik turini tanlashning ixtiyoriyligi va erkinligi;
- aholi bandligini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish;
- kamsitishga yo‘l qo‘yilmasligi;
- shaffoflik va ochiqlik;
- ishsizlikdan himoya qilish va ishga joylashishda, kasbga tayyorlashdan, qayta tayyorlashdan hamda malaka oshirishdan o‘tishda ko‘maklashish;
- O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida mehnat faoliyati bilan shug‘ullanish, mustaqil ish izlash va ishga joylashish uchun huquqni ta’minlash;
- kasb egallash va ishga kirishdagi, mehnat qilish va bandlikni ta’minlash sharoitlaridagi, mehnatga haq to‘lashdagi, xizmat pog‘onalari bo‘yicha ko‘tarilishdagi imkoniyatlar tengligining kafolati;
- majburiy mehnatni taqiqlash, ya’ni biron-bir jazo qo‘llash tahdidi bilan ish bajarishga majburlashni taqiqlash.

Konstitutsiyaviy norma hamda mehnat qonunchiligidagi me’yorlardan kelib chiqqan holda Yangi O‘zbekistonda mehnat bozorining o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish va uning natijalari bo‘yicha mehnat organlariga tegishli taklif va tavsiyalar ishlab chiqish zaruratini tug‘diradi.

Adabiyotlar sharhi. Mehnat bozori, aholi bandligi va mehnat resurslarini boshqarish masalalari iqtisodiy siyosatning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur sohani tadqiq etishda huquqiy, institutsional va amaliy manbalar muhim nazariy-metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida fuqarolarning mehnat qilish, erkin kasb tanlash va ishsizlikdan himoyalanish huquqlari mustahkamlab qo‘yilgan bo‘lib, u davlat aholining bandligini ta’minlash va munosib mehnat sharoitlarini yaratishni o‘zining muhim vazifalaridan biri sifatida belgilaydi. Konstitutsiya normalari mehnat bozorini tartibga solish sohasidagi barcha huquqiy munosabatlarning asosiy poydevorini tashkil etadi [1].

Mehnat munosabatlarining huquqiy mexanizmlari O‘zbekiston Respublikasining “Mehnat kodeksi”da keng yoritilgan. Kodeksda mehnat shartnomalarini tuzish, xodimlarning huquq va majburiyatlari, mehnat muhofazasi, ish vaqti va dam olish vaqti, mehnatga haq to‘lash kabi masalalar tartibga solingan. Bu – mehnat bozorining institutsional muhitini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi [2].

Aholi bandligini ta’minlash sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillari va mexanizmlari O‘zbekiston Respublikasining “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonunida belgilangan. Mazkur qonunda aholini ish bilan ta’minlash, ishsizlarni qo‘llab-quvvatlash, mehnat bozori infratuzilmasini rivojlantirish hamda davlat tomonidan bandlikka ko‘maklashish choralari nazarda tutilgan. Shuningdek, qonunda mehnat bozorida teng imkoniyatlar yaratish va kamsitishga yo‘l qo‘ymaslik prinsiplari mustahkamlangan [3].

So‘nggi yillarda mamlakatda mehnat bozorini modernizatsiya qilish va aholi daromadlarini oshirishga qaratilgan islohotlar O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomalarida alohida o‘rin egallamoqda. Ushbu dasturiy hujjatlarda yangi ish o‘rinlarini yaratish, kambag‘allikni qisqartirish, kasb-hunarga o‘qitish tizimini takomillashtirish hamda zamonaviy mehnat bozori arxitekturasini shakllantirish vazifalari belgilab berilgan. Bu g‘oyalar mehnat bozorini tadqiq qilish va uning rivojlanish tendensiyalarini baholash uchun muhim konseptual asos bo‘lib xizmat qiladi [4].

Mehnat resurslari balansi va aholi bandligini hisoblash metodologiyasi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 22 dekabrdagi 1011-son qarori asosida takomillashtirilgan. Mazkur qarorda ishga joylashtirishga muhtoj aholi sonini aniqlash, uy xo‘jaliklarida tanlanma kuzatuvlar o‘tkazish hamda mehnat resurslari, bandlik va ishga joylashtirish balanslarini shakllantirishning yagona uslubiy yondashuvlari belgilangan. Ushbu metodika xalqaro mehnat statistikasi standartlariga mos bo‘lib, mehnat bozori holatini obyektiv baholash imkonini beradi [5].

Shunday qilib, tahlil qilingan normativ-huquqiy hujjatlar va dasturiy manbalar Yangi O‘zbekistonda mehnat bozorini o‘rganish, aholi bandligini ta’minlash hamda mehnat resurslarini samarali boshqarish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish uchun mustahkam nazariy va institutsional asosni shakllantirmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda mehnat bozori, aholi bandligi va ishsizlik darajasini kompleks baholash maqsadida miqdoriy va sifat jihatdan tahlil usullarining uyg‘unlashgan yondashuvi qo‘llanildi. Tadqiqot metodologik jihatdan xalqaro standartlar, xususan Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) tavsiyalari asosida shakllantirildi.

Tadqiqotning empirik bazasini O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tomonidan 2025-yilning VI-choragida o‘tkazilgan ishchi kuchi kuzatuvlari natijalari tashkil etdi. Kuzatuvlar tanlanma usulda amalga oshirilib, respublika bo‘yicha 208 ta tuman (shahar)dagi 1040 ta mahallada joylashgan 41 600 ta uy xo‘jaliklari qamrab olindi. Jami 179 916 nafar respondent ishtirok etgan bo‘lib, ulardan 15 yosh va undan yuqori bo‘lgan 123 186 nafar aholi mehnat bozori tahlilining asosiy maqsadli guruhini tashkil qildi.

Tanlanma shakllantirishda ko‘p bosqichli tanlov usuli qo‘llanildi. Bunda hududlar iqtisodiy rivojlanish darajasi, aholi zichligi va demografik xususiyatlari bo‘yicha qatlamlarga ajratildi. Har bir qatlam doirasida uy xo‘jaliklari tasodifiy tanlov asosida saralandi, bu esa natijalarning reprezentativligini ta’minlash imkonini berdi.

Ma’lumotlar yig‘ish jarayoni to‘liq raqamlashtirilgan platforma orqali amalga oshirilib, intervyudirlar tomonidan planshet qurilmalari yordamida onlayn rejimda kiritildi. Bu usul ma’lumotlarning aniqligi va ishonchliligini oshirish, inson omili bilan bog‘liq xatolarni kamaytirish hamda real vaqt rejimida monitoring qilish imkonini berdi.

Tahlil va natijalar. Tahlil jarayonida tanlanma kuzatuv, so‘rovnoma, deskriptiv statistika, qiyosiy tahlil va mehnat resurslari balans usullaridan

foydalanildi.

TADQIQOT QAMROVI

T/r	Hududlar	Tadqiqot o‘tkazilgan uy xo‘jaliklari soni	Uy xo‘jaligi a‘zolarining jami soni, *kishi*	15 yosh va undan katta a‘zolar, *kishi*
Jami		**41600**	**179916**	**123186**
1	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	3400	16282	11369
2	Andijon viloyati	3200	14820	10294
3	Buxoro viloyati	2600	12100	7637
4	Jizzax viloyati	2600	13739	8951
5	Qashqadaryo viloyati	3200	13892	9135
6	Navoiy viloyati	2200	8709	6008
7	Namangan viloyati	2800	11978	8016
8	Samarqand viloyati	3200	13471	9032
9	Surxondaryo viloyati	3000	12555	8416
10	Sirdaryo viloyati	2200	10045	6758
11	Toshkent viloyati	4400	18926	13215
12	Farg‘ona viloyati	3800	15321	10894
13	Xorazm viloyati	2600	10611	7765
14	Toshkent shahri	2400	7467	5696

Mehnat resurslari balansi - ishlashga layoqatli aholi soni, iqtisodiy faol aholi, band va ishsiz aholi o‘rtasidagi mutanosiblikni aks ettiruvchi muhim iqtisodiy ko‘rsatkichdir. U mehnat bozorida talab va taklif muvofiqligini ta’minlash, tarmoqlar kesimida kadrlar taqsimotini rejalashtirishda asosiy instrument sifatida xizmat qiladi. O‘zbekistonda mehnat resurslari balansi demografik omillar (yosh tarkibi, migratsiya), ta’lim tizimidagi o‘zgarishlar hamda iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish jarayonlari bilan chambarchas bog‘liq.

Davlatimiz rahbari tomonidan mehnat bozorini rivojlantirish va kambag‘allikni qisqartirish masalalariga ilmiy asoslangan yondashuv zarurligi alohida ta’kidlab o‘tilmoqda. Xususan, kambag‘al oilalarda yuqori daromadli mahsulotlar yetishtirishni yo‘lga qo‘yish, aholi bandligini ta’minlash, ularni tadbirkorlik faoliyatiga jalb etish hamda daromadlarini barqaror oshirishga qaratilgan ilmiy yondashuvlarni keng joriy etish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur yondashuvlar asosida yuqori daromadli va barqaror ish o‘rinlarini yaratish, shu orqali kambag‘allik darajasini qisqartirish hamda bu jarayonlarda ilm-fan va zamonaviy texnologiyalarni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Mamlakatimizda mehnat resurslari, bandlik va aholini ishga joylashtirish balansini shakllantirish tizimi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining

2017-yil 22-dekabrdagi “Ishga joylashtirishga muhtoj aholi sonini aniqlash, shu jumladan, uy xo‘jaliklarini mehnat bilan bandlik masalalari bo‘yicha o‘rganishlar o‘tkazish, shuningdek, mehnat resurslari, bandlik va aholini ishga joylashtirish balansini shakllantirish metodikasini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 1011-son qarori[67] asosida institutsional va metodik jihatdan tartibga solingan. Mazkur qaror mehnat bozoridagi real holatni xolis va tizimli baholash, ishga joylashtirishga muhtoj aholini aniq hisobga olish, shuningdek hisobot va prognoz balanslarini shakllantirishning yagona uslubiyatini joriy etishga qaratilgan.

Qarorga muvofiq:

1) mehnat resurslari, bandlik va aholini ishga joylashtirish hisobot va prognoz balanslari har yili respublika, hududlar va tarmoqlar kesimida ishlab chiqiladi;

2) mehnat bozoriga ilk bor kirib keluvchi yoshlar, ta’lim muassasalari bitiruvchilari, mehnat migrantlari, ishsizlar va iqtisodiy nofaol aholi alohida hisobga olinadi;

3) rasmiy va norasmiy sektorlardagi bandlik, shuningdek chet elda ishlayotgan fuqarolar mehnat resurslarining tarkibiy qismi sifatida baholanadi.

Balans tuzilmasining o‘ziga xos jihatlari qaror bilan tasdiqlangan balans modeli quyidagi muhim yo‘nalishlarni qamrab oladi:

- mehnat resurslari (mehnatga layoqatli yoshdagi aholi va ishlovchi pensionerlar);
- iqtisodiy faol aholi (rasmiy, norasmiy sektor va mehnat migrantlari);
- ishga joylashtirishga muhtoj aholi (ishsizlar, bitiruvchilar, harbiy xizmatdan bo‘shatilganlar va boshqalar);
- ish o‘rinlariga talab va taklif muvozanati, ya’ni mehnat bozori balansi.

Bu yondashuv xalqaro statistik standartlarga muvofiq holda mehnat bozoridagi talab va taklifni prognoz qilish imkonini beradi.

Aholining ish bilan bandligini o‘rganish tanlab olingan uy xo‘jaliklari a’zolaridan so‘rovnoma o‘tkazish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

Ushbu Tartibga muvofiq band bo‘lmagan aholi sonini hisoblash uchun ma’lumotlar bazasini shakllantirish hamda iqtisodiyotning norasmiy sektorida band bo‘lgan fuqarolar sonini aniqlash maqsadida mahallalarda uy xo‘jaliklarini tanlab o‘rganishlar tashkil etiladi. O‘rganishni o‘tkazish tartibi Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) tavsiyalariga asoslanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tomonidan har chorakda bir marotaba respublikaning barcha tuman (shahar)lari qamrab olingan holda uy xo‘jaliklarida ishchi kuchi kuzatuvlari o‘tkazilmoqda.

Mamlakatimizda Davlatimiz rahbari Sh.M. Mirziyoyev tashabbusi bilan raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish, barcha tarmoqlar va sohalarda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo‘yicha kompleks

[67] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 22 dekabrdagi «Ishga joylashtirishga muhtoj aholi sonini aniqlash, shu jumladan, uy xo‘jaliklarini mehnat bilan bandlik masalalari bo‘yicha o‘rganishlar o‘tkazish, shuningdek, mehnat resurslari, bandlik va aholini ishga joylashtirish balansini shakllantirish metodikasini takomillashtirish to‘g‘risida»gi 1011-son qarori.

chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, «Raqamli O‘zbekiston — 2030» strategiyasiga mos ravishda O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirining 2025-yil 6-dekabrdagi 252-sonli buyrug‘iga asosan 2025-yilning IV-choragida Mehnat bozori, aholi bandligi va ishsizlik darajasini o‘rganish bo‘yicha ishchi kuchi kuzatuvlari yangilangan yondashuvlar asosida to‘liq raqamlashtirilgan dasturiy ta’minot orqali olib borildi. Bu o‘z navbatida oldingi qog‘oz shaklidagi anketa-so‘rovnomalarni to‘ldirish va uzoq vaqt davomida hisoblash amaliyotidan farqli ravishda, yo‘l qo‘yilayotgan xato va kamchiliklarni oldini olish hamda mehnat bozoriga oid shakllanadigan ma’lumotlarni sifatli va aniq bo‘lishiga zamin yaratdi.


Kuzatuv jarayonini raqamlashtirishning afzalliklari muayyan vaqt rejimida kiritilayotgan ma’lumotlarning to‘liqligi va sifatliligini avtomatlashtirilgan tarzda nazorat qilish, ma’lumotlarni qog‘oz tashuvchilardan elektron shaklga o‘tkazishda xatoliklarga yo‘l qo‘ymaslik, barcha darajadagi rahbariyat tomonidan jarayonni tezkor kuzatish imkoniyati, ma’lumotlarni qayta ishlash vaqtini qisqartirish va tahliliy hisobotlarni avtomatik tarzda tuzishdan iborat bo‘ladi.


Ishchi kuchi kuzatuvlari oldingi amaliyotga nisbatan to‘rt baravar ko‘p (41600 ta) uy xo‘jaliklarida o‘tkazilib, 208 ta tuman (shahar)dagi 1040 ta mahalla qamrab olindi.

Kuzatuvlarning sifatli o‘tkazilishini ta’minlash va intervyudirlar (hokim yordamchilari) ishini joyiga chiqqan holda muvofiqlashtirish hamda uslubiy jihatdan ko‘maklashish maqsadida vazirlik huzuridagi Kambag‘allik va mehnat bozori tadqiqotlari institutining 22 nafar xodimlari hududlarda bo‘lib kuzatuv o‘tkazish jarayonlarida ishtirok etdi.

Bunda, qamrab olingan uy xo‘jaligi a’zolari soni jami 179 916 nafarni tashkil etdi, ulardan 123 186 (68,4 foiz) nafari mehnat bozori tahlilining asosiy maqsadli guruhini tashkil etuvchi 15 yosh va undan katta yoshdagi fuqarolardan iborat bo‘ldi.

Uy xo‘jaligi a’zolarining umumiy sonida erkaklar 50,7 foiz, ayollar esa 49,3 foizni tashkil etib, ushbu nisbat respublika aholisining jins bo‘yicha tabiiy taqsimotiga mos keladi.





Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Jizzax, Qashqadaryo, Surxondaryo, Andijon, Toshkent, Samarqand va Farg‘ona viloyatlarida 15-29 yoshdagi fuqarolar yuqori ko‘rsatkichni tashkil qilib, ushbu hududlarning mehnat bozori yuqori demografik yuk bilan ajralib turadi va bu holat yoshlar bandligiga ko‘maklashish bo‘yicha maqsadli dasturlarni amalga oshirish zaruratini keltirib chiqaradi.

Kuzatuv o‘tkazilgan uy xo‘jaliklarining ijtimoiy tuzilishi barqarorligi (mustahkam oila) ushbu toifadagi respondentlarning iqtisodiy faolligi potensial jihatdan yuqori ekanligidan dalolat beradi. O‘rta maxsus va oliy ma’lumotlilarning ko‘pchilikni tashkil etishi respublika ishchi kuchining ta’lim salohiyati yuqori ekanligidan dalolat bermoqda.

Kuzatuv o‘tkazilgan uy xo‘jaliklarida istiqomat qilayotgan 59,3 foiz aholi doimiy ish bilan band bo‘lib, ularning katta qismi ta’lim va ishlab chiqarish sanoati sohasiga to‘g‘ri kelmoqda. Aholi bandligi ko‘rsatkichlarida qurilish, qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohalari keyingi o‘rinlarni egalladi. Bundan ko‘rish mumkin-ki, hududlarning sanoatlashuvi o‘sib, bunyodkorlik ishlari jadal rivojlanmoqda.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, norasmiy sektorda band bo‘lganlarning aksariyati o‘zi mehnat faoliyatining ushbu shaklini afzal ko‘rishini ma’lum qilgan. Bu holat bir tomondan aholining huquqiy ongi va madaniyatni, shu jumladan mehnatga va ijtimoiy sheriklik munosabatlariga oid bilim va ko‘nikmalarini oshirish zarurligini ko‘rsatsa, ikkinchi tomondan ish beruvchilarda ishchi kuchini rasmiylashtirish bilan bog‘liq ma’lum muammolar mavjudligini anglatadi. Norasmiy bandlik kelgusida ijtimoiy sug‘urta, pensiya hamda mehnat kafolatlari bilan bog‘liq ijtimoiy muammolarni keltirib chiqarishi mumkin.

Shu bilan birga, ta’kidlash joizki, norasmiy sektorda band bo‘lganlarning 50,0 foizga yaqini tegishli shart-sharoitlar mavjud bo‘lgan taqdirda o‘z mehnat munosabatlarini rasmiylashtirishga tayyorligini bildirgan. Bu ko‘rsatkich iqtisodiyotning rasmiy sektorini kengaytirish, soliq tushumlari va ijtimoiy sug‘urta badallarini ko‘paytirish imkoniyati mavjudligidan dalolat beradi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra mamlakatda ishsizlik darajasi xalqaro standartlarga nisbatan o‘rtacha ishsizlik darajasini ko‘rsatadi. Ishsizlikning hududiy taqsimlanishida yuqori daraja Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Sirdaryo va Xorazm viloyatlarida kuzatilib, bu hududlarda ishsizlik darajasi respublika ko‘rsatkichidan yuqori va aholini ish bilan ta’minlashga ko‘maklashish bo‘yicha maqsadli hududiy dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirishni talab qiladi.

Samarqand, Surxondaryo, Toshkent, Farg‘ona va Namangan viloyatlarida ishsizlikning o‘sishiga yo‘l qo‘ymaslik bo‘yicha amaliy chora-tadbirlarni muntazam amalga oshirib borish tavsiya etiladi. Shuningdek, ayrim hududlarda tanlanma kuzatuvlarni o‘tkazish metodologiyasi, respondentlarni tanlash xususiyatlari hamda ma’muriy ma’lumotlar bilan sotsiologik kuzatuv natijalarining o‘zaro muvofiqligi masalalariga qo‘shimcha e’tibor qaratish zarurligini ko‘rsatdi.

Shuningdek, kuzatuv natijalariga ko‘ra ishsizlikning tarkibi, shakllari, sabablari va davomiyligi, ish qidirishning davomiyligi va foydalanilayotgan usullari hamda band bo‘lmagan aholining ishga kirish istagining faoliyat turlari kabi

masalalarni keng tahlil qilish imkoniyatlari mavjud.

Ishchi kuchi kuzatuvlari natijalaridan kelib chiqib hududlar bo‘yicha ishsizlik darajasi va uning sabablari, norasmiy sektorda band bo‘lganlarning ulushi va tarkibi, tashqi mehnat migratsiyasi tavsiflari, aholi daromadlari hamda mehnat bozoriga oid boshqa ma’lumotlar tahlil qilinib, aholi bandligiga ko‘maklashishning maqsadli hududiy dasturlarini ishlab chiqishda keng foydalaniladi.

O‘tkazilgan tadqiqot natijalari O‘zbekiston Respublikasida mehnat resurslari, aholi bandligi va ishga joylashtirish balansini shakllantirish tizimi so‘nggi yillarda institutsional jihatdan mustahkamlanganini ko‘rsatadi. Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 22 dekabrdagi 1011-son qarori asosida joriy etilgan balans modeli mehnat bozoridagi talab va taklifni xolis baholash, ishga joylashtirishga muhtoj aholini aniq hisobga olish va prognoz qilish imkonini bermoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, iqtisodiy faol aholi ulushi respublika bo‘yicha nisbatan yuqori bo‘lsada, hududlar o‘rtasida sezilarli farqlar mavjud. Norasmiy sektorda band aholining salmoqli ulushi, tashqi mehnat migratsiyasining ayrim mamlakatlarga yuqori darajada konsentratsiyalashuvi mehnat bozorida tarkibiy muammolarni hal etish yo‘nalishlarini takomillashtirib borish zarurligini ko‘rsatadi.

Xulosa va takliflar. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadi-ki, milliy bandlik va kambag‘allikni qisqartirish siyosati xalqaro, xususan, Birlashgan millatlar tashkiloti taraqqiyot dasturi va Barqaror rivojlanish maqsadlari konsepsiyalari bilan uyg‘un holda amalga oshirilayotganini, shuningdek, uning samaradorligini oshirish uchun tarkibiy va institutsional islohotlarni chuqurlashtirish zarurligini ko‘rsatadi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi:

1. Hududlar kesimida demografik o‘sish, ta’lim bitiruvchilari oqimi va mehnat migratsiyasi ko‘rsatkichlarini hisobga olgan holda o‘rta va uzoq muddatli prognoz balanslarini ishlab chiqish;

2. Kasbiy qayta tayyorlash va malaka oshirishni mehnat bozoriga moslashtirish. Friksion va tarkibiy ishsizlik yuqori bo‘lgan hududlarda ish beruvchilar ehtiyojlariga mos qisqa muddatli kasb-hunarga o‘qitish dasturlarini joriy etish;

3. Mehnat migrantlarini reintegratsiya qilish tizimini kuchaytirish. Xorijdan qaytgan fuqarolarni ishga joylashtirish, tadbirkorlikka jalb qilish va kasbiy qayta tayyorlash bo‘yicha maxsus hududiy dasturlar ishlab chiqish;

4. Ishsizlarni faollashtirish va bandlik xizmatlari samaradorligini oshirish. Davlat bandlik xizmatlarining raqamli platformalarini rivojlantirish, ishsizlar bilan individual ishlash amaliyotini kengaytirish orqali passiv ishsizlar ulushini kamaytirish;

5. Yuqori unumli va yuqori haq to‘lanadigan ish o‘rinlarini yaratish. Sanoat, xizmatlar va innovatsion tarmoqlarda investitsiyalarni rag‘batlantirish orqali daromadlar strukturasini yaxsilash va kambag‘allik xavfini kamaytirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Mehnat kodeksi”.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi qonuni.
4. Mirziyoev Sh.M. O‘zbekiston xalqi va Oliy Majlisga yo‘llagan murojaatnomasi., 2025 yil 26 dekabr., https://president.uz/uz/lists/view/8834
5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 22 dekabrdagi “Ishga joylashtirishga muhtoj aholi sonini aniqlash, shu jumladan, uy xo‘jaliklarini mehnat bilan bandlik masalalari bo‘yicha o‘rganishlar o‘tkazish, shuningdek, mehnat resurslari, bandlik va aholini ishga joylashtirish balansini shakllantirish metodikasini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 1011-son qarori.

O‘ZBEKISTONDAGI KICHIK TADBIRKORLIK: INNOVATSION RIVOJLANISHNING HOZIRGI HOLATI VA TENDENSIYALARI

To‘raev Mirxomid Obidovich,
Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti,
bosh mutaxassis

Annotatsiya. Maqolada O‘zbekiston uchun dolzarb bo‘lgan innovatsion kichik tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish masalalari bo‘yicha tadqiqot natijalari yoritilgan. Mamlakatda kichik biznes alohida tarmoqlar, shuningdek, umuman iqtisodiyotning barqaror va samarali rivojlanishining muhim tarkibiy qismi sifatida qaraladi. Bozorlarning tovarlar va xizmatlarga bo‘lgan ehtiyojini ta’minlashga yo‘naltirilgan ushbu sohaning muvaffaqiyatli faoliyatini rag‘batlantiruvchi omillar o‘rganildi hamda keyingi innovatsion rivojlanish imkoniyatlari aniqlandi.

Kalit so‘zlar: kichik tadbirkorlik, iqtisodiy o‘sish, qo‘llab-quvvatlash, samaradorlik, innovatsiyalar, ishlab chiqarish, xizmatlar.

Kirish. Kichik tadbirkorlik butun dunyoda iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishda muhim rol o‘ynaydi. Mamlakat transformatsiyasi sharoitida, 2026–2030-yillarga mo‘ljallangan umumrespublika “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida kichik biznesni rivojlantirishga ko‘maklashish iqtisodiy o‘sishning muhim omili, yangi ish o‘rinlari yaratish va aholining tadbirkorlik faoliyatidagi ishtirokini kengaytirish vositasi sifatida belgilangan. Mazkur strategiya kichik tadbirkorlikni iqtisodiyotning barqaror innovatsion rivojlanishining asosiy elementi sifatida ko‘rib, ushbu sohani kengaytirishga qaratilgan qator muhim normativ-huquqiy hujjatlar bilan mustahkamlangan faol moliyaviy, institutsional va ma’muriy qo‘llab-quvvatlashni nazarda tutadi [1].

Mavzu bo‘yicha adabiyotlar sharhi. Kichik tadbirkorlik samaradorligini baholash va uning iqtisodiy rivojlanishga qo‘shgan hissasi masalalari ko‘plab ilmiy nashrlarda o‘z aksini topgan. Kichik biznesni rivojlantirish muammolari bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar bilan ko‘plab olimlar shug‘ullanadi, ular qatorida Scott A. Shane, David B. Audretsch, Yuliya Snihur, Peng M., Lehmann E., Tambunan T., shuningdek, Oxrimenko A., Bayramova V., Davydova A., Xavina L., Novoselskiy S., Zakureeva A., Ezhova D. va boshqalarni qayd etish mumkin.

Ko‘rib chiqilayotgan faoliyat sohasidagi qiziqarli tadqiqotlar O‘zbekistonning turli tarmoqlari mutaxassislari ishlarida ham aks etgan bo‘lib, ular jumlasiga Tursunov A., Fayziyeva D., Suyunov D., Bekmurodov S., Dusmatov S., Eshov M., Soliyev I. va boshqalar kiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi, boshqa ilmiy-tadqiqot va ta’lim muassasalari bilan bir qatorda, iqtisodiyotning turli masalalarini, jumladan kichik biznesning innovatsion rivojlanishi bilan bog‘liq muammolarni muhokama qilish uchun tizimli ravishda ixtisoslashgan maydonlarni (ilmiy-amaliy konferensiyalar, to‘plamlar) taqdim etadi.

Mazkur Konferensiya akademik hamjamiyat, davlat tashkilotlari va ishbilarmon doiralar vakillari o‘rtasida mazmunli muloqot uchun professional platformani shakllantiradi [2].

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotning maqsadi — ko‘rib chiqilayotgan faoliyat sohasida institutsional o‘zgarishlar samaradorligini baholashdan iborat. Ushbu tadqiqotning vazifalari sifatida O‘zbekistonda innovatsion kichik tadbirkorlik rivojlanishining xususiyatlarini o‘rganish va tahlil qilish belgilangan.

Nazariy-metodologik asosni mazkur mavzuga oid dolzarb tadqiqotlar va ilmiy maqolalar tashkil etadi. Axborot bazasi sifatida tegishli normativ-huquqiy hujjatlar, statistik to‘plamlar, shuningdek ilmiy-texnik konferensiyalar va seminarlar ma’ruzalar to‘plamlari xizmat qildi.

Tadqiqotda tizimli sintez, umumlashtirish, tizimlashtirish, statistik, dinamik hamda taqqoslama tahlilning kompleks-kombinatsiyalangan usullari qo‘llanildi.

Tahlil va natijalar. Raqamli iqtisodiyot sharoitida kichik biznes iqtisodiyot tuzilmasida o‘z o‘rnini topib, bozorlarni odamlar kundalik hayotda foydalanadigan tovarlar va xizmatlar bilan ta’minlaydi. Bundan tashqari, kichik tadbirkorlik subyektlarining sezilarli qismi yirik korxona va kompaniyalar uchun mahsulot hamda butlovchi qismlar ishlab chiqarish bilan shug‘ullanadi. Jahon yoki makromintaqaviy savdoning holati va darajasiga kamroq bog‘liq bo‘lganligi sababli, kichik korxonalar bozor konyunkturasidagi mumkin bo‘lgan o‘zgarishlarga osonroq moslashadi.

Mamlakatda kichik biznes tuzilmasi korxonalar sonining umumiy ijobiy o‘sish dinamikasiga ega. Faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni taxminan 1,2 millionni tashkil etadi (1-jadval).

1-jadval


Faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni[68]

	Jami	**shundan:**	
		kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo‘jaliklarini qo‘shgan holda)	YATT, dehqon xo‘jaliklari, oilaviy tadbirkorlar, hunarmandlar va import tovarlari sotuvchilar
O‘zbekiston Respublikasi	**1201,5**	**493,0**	**708,5**
Qoraqalpog‘iston Resp.	56,9	24,5	32,5
viloyatlar:			
Andijon	122,7	29,3	93,4
Buxoro	73,9	30,3	43,6
Jizzax	94,6	22,5	72,1
Qashqadaryo	68,4	37,9	30,5
Navoiy	40,9	21,0	19,9
Namangan	78,3	28,5	49,8

[68] O‘zbekiston Respublikasida kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy ko‘rsatkichlari. 2026. Manbaga kirish: URL: https://stat.uz/img/kb_ru_p11674.pdf

	Jami	shundan:	
		kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo‘jaliklarini qo‘shgan holda)	YATT, dehqon xo‘jaliklari, oilaviy tadbirkorlar, hunarmandlar va import tovarlari sotuvchilar
Samarqand	103,8	45,4	58,4
Surxondaryo	107,3	26,9	80,4
Sirdaryo	35,2	13,9	21,3
Toshkent	91,8	46,7	45,1
Farg‘ona	93,4	41,9	51,5
Xorazm	91,9	27,8	64,1
Toshkent sh.	142,4	96,5	45,9

Aholining 1 ming nafariga to‘g‘ri keladigan kichik tadbirkorlik subyektlari soni 31,7 tani tashkil etadi, jumladan Jizzax viloyatida - 61,0 ta, Toshkent shahrida - 45,3 ta, Xorazm viloyatida - 44,8 ta va Sirdaryo viloyatida - 37,5 tani tashkil etadi. 2025-yilda 82,4 mingta kichik korxona va mikrofirmalar tashkil etilgan bo‘lib, ularning 30,2 mingtasi savdo sohasida, 10,5 mingtasi sanoat sohasida, 9,9 mingtasi qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida tashkil etilgan.



1-rasm. Kichik tadbirkorlik subyektlarining YaIMdagi hajmi inamikasi, trln so‘m[69]

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot va xizmatlar hajmi YaIM tarkibida 923,5 trillion so‘mni tashkil etib, ularning umumiy hajmdagi ulushi 52,2 foizga yetdi, bu esa mazkur sohaning iqtisodiyotdagi yuqori ahamiyatini ko‘rsatadi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha kichik tadbirkorlikning YaIMdagi eng yuqori ulushi qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida - 93,1%, qurilish sohasida-75,6%, xizmatlar sohasida - 47,2% va sanoatda - 28,5% ni tashkil etdi.

O‘tgan yilda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 383,9 trillion so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, ularning umumiy sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 34,9% ni tashkil etdi. Shu bilan birga, 2024-yilga nisbatan o‘sish sur’ati 114,8% ga yetdi.

[69] O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi saytida keltirilgan ma‘lumotlar asosida tayyorlandi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining quyidagi yo‘nalishlardagi ulushi sezilarli ahamiyatga ega:
-qurilish ishlarini bajarish - 73,6%, 2024-yilga nisbatan o ‘sish sur’ati 112,2%;
qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulotlari (xizmatlari) ishlab chiqarish-91,9%, o‘sish sur’ati 101,9%;
-chakana savdo aylanmasi - 83,0%, o ‘sish sur’ati 109,6%. [4].

Ushbu ijobiy natijalarga respublika infratuzilmasini kompleks va ilg‘or rivojlantirish asosida transport-logistika sektorining barqaror va samarali faoliyati ham katta hissa qo‘shgan. Bu esa iqtisodiy o‘sishning yuqori sur’atlariga erishish, aholining hayot sifatini oshirish hamda mamlakatni jahon iqtisodiyotiga integratsiya qilishning muhim sharti hisoblanadi.

Natijada, 2025-yilda yuk va yo‘lovchi tashish hajmlarining sezilarli o‘sishi qayd etildi. Masalan, avtomobil transporti yuk aylanmasida kichik tadbirkorlikning ulushi 77,4 foizni tashkil etib, 2024-yilga nisbatan o‘sish sur’ati 106,8 foizga yetdi. Shu bilan birga, avtomobil transporti orqali yo‘lovchi tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 90,6 foizni tashkil etdi, o‘sish sur’ati esa 103,3 foizni qayd etdi [5].

Shuningdek, kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) eksportini rivojlantirishga ham katta e’tibor qaratilmoqda. Ularning eksport hajmi 12,4 milliard AQSH dollarini tashkil etib, mamlakatdan umumiy eksport hajmining 36,6 foiziga teng bo‘ldi [6].

Xulosa va takliflar. Respublika iqtisodiyotining, jumladan kichik tadbirkorlikning barqaror faoliyatini ta’minlash maqsadida, investitsiyalarni jalb qilish hamda kam energiya sarflaydigan zamonaviy innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali sohani jadal rivojlantirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Ko‘rib chiqilayotgan iqtisodiyot sohasida yuqori qo‘shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko‘rsatishni ta’minlaydigan “kelajak sanoatlari”ni joriy etish va rivojlantirish, kooperatsion hamkorlik asosida yangi sifatdagi ishlab chiqaruvchi kuchlarni shakllantirish, sanoat sinergiyasini kuchaytirish kichik biznesda raqobat ustunliklariga erishishda katta ahamiyatga ega. Mazkur yo‘nalish o‘zaro bir-birini to‘ldiruvchi ilmiy rejalashtirish va harakatlarni muvofiqlashtirishni talab etadi.

Tadbirkorlik imkoniyatlarini kengaytirishda umumiy multiplikativ samara eng to‘liq tarzda davlat organlari va turli sohalardagi tashkilotlarning birgalikdagi sa’y-harakatlari asosida, biznesni qo‘llab-quvvatlash uchun qulay infratuzilma shakllantirish orqali namoyon bo‘ladi. Bunga tadbirkorlarni o‘qitish, axborot bilan ta’minlash, tarmoq, hududlararo va xalqaro aloqalarni yo‘lga qo‘yishga ko‘maklashish kiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023-yildagi №PF-158-sonli Farmoni. Manbaga kirish: URL: https://lex.uz/uz/docs/6600404

2. Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi sizlarni “Innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish va boshqarishda barqaror o‘sishga erishish yo‘llari: tadbirkorlik, innovatsiyalar, kichik va o‘rta biznes istiqbollari” mavusidagi xalqaro ilmiy-amaliy

konferensiyasiga taklif etadi. URL:https://gsbe.uz/ru/all-news/210

3.O‘zbekiston Respublikasida kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy ko‘rsatkichlari. 2026. Manbaga kirish: URL: https://stat.uz/img/kb_ru_p11674.pdf

4. O‘zbekiston Respublikasi yalpi ichki mahsuloti ishlab chiqarish. Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy ko‘rsatkichlari. 2026. Manbaga kirish: URL:

https://stat.uz/ru/?preview=1&option=com_dropfiles&format=&task=frontfile.download&catid=537&id=3916&Itemid=1000000000000

5. O‘zbekistonda transport-logistika tizimini rivojlantirish chora-tadbirlari tasdiqlandi. 2025. Manbaga kirish: URL: https://www.uzdaily.uz/en/measures-to-develop-the-transport-and-logistics-system-approved-in-uzbekistan/?utm_source=chatgpt.com

6.Tashqi savdo aylanmasi. 2026. Manbaga kirish: URL: https://stat.uz/img/news/press-reliz-rus_p38034.pdf https://stat.uz/img/news/press-reliz-rus_p38034.pdf

VENTURE CAPITAL, R&D EXPENDITURE AND INNOVATION OUTPUT IN KAZAKHSTAN: A TIME-SERIES ANALYSIS (2010–2024)

Dr. A K M Kamrul Hasan
Course Leader MBA in Finance and Senior Lecturer in Finance
Westminster International University in Tashkent
ORCID: 0000-0002-5243-7824

Shoqo'chqarova Gulruh
Westminster International University in Tashkent
Email: gshoqo'chqarova@students.wiut.uz

Abstract. This study examines whether venture capital (VC) investment and R&D expenditure translate into measurable innovation output, proxied by patent applications, in Kazakhstan over the period 2010 to 2024. Two models were estimated using annual time-series data, and ordinary least squares regression with Newey-West standard errors was applied. The results indicate that neither venture capital nor R&D expenditure produces a statistically significant positive effect on patent applications. The most consistent finding is a negative and significant effect of stock market capitalisation on patents, reflecting the extractive-industry composition of Kazakhstan's equity markets. The findings are set in the context of Kazakhstan's early-stage innovation system and hence hold implications for innovation finance policy.

Keywords: Venture capital, innovation, patent applications, R&D expenditure, Kazakhstan

Introduction. Innovation has emerged as a primary driver of long-term economic growth, yet the financing mechanisms that enable it remain understudied in emerging economies. Kazakhstan has established itself as the dominant venture capital destination in Central Asia, attracting USD 71 million, 74% of total regional VC funding in 2024 [1]. The country has also undertaken significant regulatory reforms through the Astana International Financial Centre (AIFC), established under Constitutional Law in December 2015, which created a common-law jurisdiction with a 50-year corporate tax exemption designed to attract international venture capital [2].

Despite this rapid institutional development, no quantitative study has examined whether venture capital investment translates into measurable innovation output in Kazakhstan. Existing studies are predominantly descriptive, focusing on investment volumes and ecosystem development rather than establishing an econometric link between financing and innovation performance [3]. This study fills that gap by providing the first time-series regression analysis of the VC-innovation relationship in Kazakhstan. The study raises the following research question: How does the availability of venture capital influence innovation output in Kazakhstan?

Literature Review. The theoretical foundation for this study draws on three frameworks. Endogenous Growth Theory (Romer, 1990) positions knowledge

creation and R&D investment as the primary engines of long-term growth, with venture capital playing a critical role in funding high-risk, innovative firms [4]. However, the theory's predictions are contingent on strong institutions and efficient financial markets, which are still developing in Kazakhstan. Schumpeter's creative destruction theory (1934, 1942) argues that economic development occurs through entrepreneurial innovation, with VC supporting startups that disrupt existing industries [5]. Pecking Order Theory (Myers & Majluf, 1984) explains why innovative firms prefer equity financing from VC investors to debt, given information asymmetry and the intensity of intangible assets [6].

Empirically, Kato (2025) claims that VC accelerates innovation in emerging economies through financial provision and strategic support, though effectiveness depends on ecosystem maturity [7]. Han et al. (2023) demonstrate that VC affects innovation through indirect mechanisms including risk tolerance and organisational behaviour, suggesting delayed effects [8]. Welker and Zhou (2024) show that VC effectiveness in emerging markets is contingent on institutional quality and absorptive capacity [9]. Smagulova and Goncalves (2024) specifically study Kazakhstan and find that AIFC reforms improved the investment environment, yet full conversion of VC into innovation outcomes remains constrained by limited absorptive capacity [3]. Hsu et al. (2014) demonstrate that equity market development does not uniformly support innovation in resource-dependent economies; stock market growth may crowd out innovative startup financing [10].

International reports show that Kazakhstan leads the region's venture capital activities, receiving most of the startup funding, while other Central Asian countries participate only to a limited extent. According to regional analyses, VC investments in Central Asia focus mainly on technology-based startups, including fintech, IT services, and digital platforms. Research indicates that weak financial systems, limited exit markets, and institutional barriers prevent the full conversion of VC funding into innovation outcomes, such as patents and commercialisable products [1]. The current venture capital market has limited effects on innovation outcomes, including patent development and technology commercialisation, due to two main factors, namely underdeveloped financial markets and a shortage of experienced entrepreneurs. Awode and Oduola (2024) argue that human capital development and technological advancement together create a stronger bond between industries, thereby underscoring the necessity of tertiary education and economic growth indicators [11]. Based on this contemporary debate, we raise two hypotheses, namely that R&D expenditure has (no) significant positive effect on patent applications in Kazakhstan (H 1 and H 2) and that venture capital investment volume has (no) significant positive effect on patent applications in Kazakhstan (H 3 and H 4).

Research Methodology: This study uses annual time-series data for Kazakhstan from 2010 to 2024, drawn from the World Bank World Development Indicators, WIPO, and Crunchbase. The dependent variable in both models is the natural logarithm of patent applications, ln(Patent). Two OLS regression models are estimated:

Model 1: $\text{In (Patent)t} = \beta O + \beta 1 RDt + \beta 2 Edut + \beta 3 Credit + \beta 4 \ln(GDPpc)\, t + \beta 5 MarkhetCapt + \beta 6 Tradet + \varepsilon t$

Model 2: $\text{In (Patent)t} = \beta O + \beta 1 (VCvol) Dt + \beta 2 Edut + \beta 3 Credit + \beta 4 \ln(GDPpc)\, t + \beta 5 MarkhetCapt + \beta 6 Tradet + \varepsilon t$

A logarithmic transformation is applied to patent applications, venture capital volume, and GDP per capita due to their large absolute values, while percentage variables are retained in their original form. The Breusch-Godfrey LM test found substantial autocorrelation at lag 2 in Model 1, with an R^2 of 11.028 and a p value of 0.004. The test indicated that Model 2 approached borderline autocorrelation, with an R^2 of 5.976 and a p value of 0.050. The Breusch-Pagan test found no heteroskedasticity in either model. Newey-West HAC standard errors with a lag length of 2 are therefore applied to both models. Both models are estimated on 17 observations; missing values were replaced with column means.

Analysis and Results. Table 1 presents the regression results. Standard errors are shown in parentheses.

Table 1. Regression Results — Dependent Variable: ln(Patent Applications)

Variable	Model 1 (R&D)	Model 2 (VC)
R&D Expenditure	-11.872* (5.859)	—
ln(Venture Capital)	—	-0.082 (0.130)
Tertiary Education	-0.084* (0.037)	-0.059 (0.042)
Domestic Credit	0.110 (0.088)	0.102 (0.102)
ln(GDP per Capita)	-0.347 (0.623)	-0.296 (0.728)
Market Capitalisation	-0.122** (0.040)	-0.106* (0.054)
Trade Openness	-0.012 (0.014)	-0.006 (0.020)
Observations	17	17
R-squared	0.764	0.744

* p<0.10, ** p<0.05, *** p<0.01. Newey-West standard errors, lag(2).

The two models demonstrate good performance, achieving R^2 values of 0.764 and 0.744, and their F-statistics are significant at p = 0.010 and p = 0.014. Nevertheless, the study requires cautious interpretation because 17 observations and 6 predictors limit the accuracy of individual coefficient estimation.

In Model 1, R&D expenditure yields a negative and marginally significant coefficient (-11.872, p<0.10). This counterintuitive result reflects Kazakhstan's structurally low R&D spending, averaging 0.14% of GDP, which is insufficient to generate patent output without complementary research infrastructure, experienced researchers, and commercialisation pathways. This aligns with absorptive capacity arguments that R&D investment requires institutional and human capital complementarities to produce innovation [11].

In Model 2, venture capital volume is negative and statistically insignificant (-0.082, p = 0.543). Three factors explain this: first, VC investment was negligible before 2014, limiting statistical variation; second, the established 3-7-year period between VC funding and patent production cannot be captured by annual contemporaneous regression analysis; third, Kazakhstan's innovation ecosystem lacks the institutional maturity required for VC to translate into patents [9].

The most robust finding across both models is the negative and significant effect of stock market capitalisation, significant at 5% in Model 1 (-0.122) and 10% in Model 2 (-0.106). This suggests that extractive industry companies dominate Kazakhstan's stock exchange, as their operations draw all investment resources towards the oil and gas and mining sectors, preventing funding from reaching innovative technological start-ups [10]. Tertiary education enrolment is also negative and marginally significant in Model 1 (-0.084, $p<0.10$), consistent with evidence that quantitative educational expansion without a STEM orientation does not drive patent activity [12].

Conclusions and Recommendations. This research provides the first quantitative assessment of the VC - innovation relationship in Kazakhstan. Neither venture capital nor R&D expenditure has a statistically significant positive effect on patent applications, a finding interpreted as reflecting the early-stage nature of Kazakhstan's innovation ecosystem and data constraints rather than a genuine absence of the relationship. The consistently negative effect of stock market capitalisation points to a structural feature of Kazakhstan's financial system that actively impedes innovation financing.

The study has three policy recommendations. First, public R&D investment should be increased to at least 1% of GDP to reach a threshold at which research spending generates measurable patent returns. Second, venture capital policy should focus not only on increasing investment volumes but also on building the institutional infrastructure, such as exit markets, investor protection, and technology transfer mechanisms, that enables VC to translate into innovation outcomes. Finally, financial market development policy should explicitly incentivise capital flows towards technology-intensive sectors rather than the dominant extractive industries. In addition, the study finds evidence that Kazakhstan's institutional framework needs further development before venture capital investments will begin delivering steady patent results in line with investor expectations.

Future research should extend this analysis as more comprehensive VC data become available, incorporate additional innovation indicators beyond patents, and conduct comparative analysis across Central Asian economies.

References

1. KPMG. (2025). Venture Capital in Central Asia. Available from: https://assets.kpmg.com/content/dam/kpmg/uz/pdf/2025/03/CA-VC-Report-2025.pdf

2. UNCTAD. (2015). Kazakhstan — Parliament approves law on the Astana International Financial Center. Investment Policy Monitor. Available from: https://investmentpolicy.unctad.org/investment-policy-monitor/measures/2771

3. Smagulova, G. and Goncalves, M. (2024). Fostering Innovation through Venture Capital in Kazakhstan. Journal of International Business and Management, 16(2), 1-27

4. Romer, P. (1990). Endogenous Technological Change. *Journal of Political Economy, 98(5),* S71–S102.

5. Schumpeter, J. (1934). The Theory of Economic Development. Harvard University Press.

6. Myers, S.C. and Majluf, N.S. (1984). Corporate financing and investment decisions when firms have information that investors do not have. *Journal of Financial Economics, 13(2),* 187–221.

7. Kato, A.I. (2025). Venture Capital as a Catalyst for Innovation and Economic Growth in Emerging Economies. *Administrative Sciences, 15(11),* 405.

8. Han, J. et al. (2023). The study on the relationship between venture capital, tolerance to failure, and enterprise innovation performance. *Frontiers in Psychology, 14*, 1133324.

9. Welker, A. and Zhou, H. (2024). Determinants of Venture Investment in Emerging Markets. *Journal of Emerging Market Finance, 24*(2), 170-193

10. Hsu, P.H., Tian, X. and Xu, Y. (2014). Financial development and innovation: Cross-country evidence. *Journal of Financial Economics, 112(1),* 116–135.

11. Awode, S.S. and Oduola, M.O. (2024). The interplay between technological innovation and human capital development in driving industrial productivity and competitiveness in Africa. *Journal of Economics and Development*.27(1), 56-71.

12. Yue, W. (2023). Human Capital and Firm Innovation: Evidence from China's Higher Education Expansion. *Emerging Markets Finance and Trade, 60(3),* 500–518.

GLOBAL IQTISODIY O‘ZGARISHLAR SHAROITIDA INNOVATSION IQTISODIYOTNI SHAKLLANTIRISHDAGI XAVF-XATARLAR VA ISTIQBOLLARI

Usmonov Shavkatjon Shukurovich
Jamoat xavfsizligi universiteti,
“Iqtisodiy fanlar” kafedrasi
katta o‘qituvchisi, i.f.f.d. (PhD)
ORCID:0009-0006-1118-3465

Mamatkulov Nurbek Kamiljon o’g’li
Jamoat xavfsizligi Universiteti
Magistratura tinglovchisi
ORCID: 0009-0007-3948-7441

Annotatsiya. Mazkur maqolada jahon xo‘jaligidagi fundamental transformatsiyalar fonida O‘zbekiston Respublikasining innovatsion iqtisodiyotga o‘tish jarayonidagi tizimli xavf-xatarlar va strategik istiqbollar chuqur tadqiq etiladi. Tadqiqot doirasida mamlakatimizda so‘nggi yillarda innovatsion rivojlanish borasida qabul qilingan me’yoriy-huquqiy hujjatlar ijrosi statistik ma’lumotlar asosida tahlil qilingan. Shuningdek, global miqyosdagi proteksionistik tendensiyalar, logistika zanjirlaridagi uzilishlar va texnologik qaramlik kabi tashqi xavflarning milliy innovatsion tizimga ta’siri ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: Innovatsion iqtisodiyot, global transformatsiya, raqamli platforma, texnologik suverenitet, venchur kapital, inson kapitali, startap ekotizimi, raqobatbardoshlik, xavf-xatarlar, strategik rejalashtirish.

Kirish. Hozirgi davr jahon iqtisodiyoti oldida turgan eng murakkab chaqiriqlardan biri bu an’anaviy ishlab chiqarish modellarining qadrsizlanib, bilim va innovatsiyaga asoslangan iqtisodiy tuzumga o‘tish zaruratidir. Dunyo mamlakati bo‘ylab kechayotgan globallashuvning yangi bosqichi endilikda resurslar uchun emas, balki intellektual mulk va texnologik ustunlik uchun raqobat maydoniga aylanib ulgurdi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, bugungi kunda jahon yalpi ichki mahsulotining qariyb 40 foizi bevosita raqamli texnologiyalar va innovatsion mahsulotlar hissasiga to‘g‘ri kelmoqda [1]. O‘zbekiston Respublikasi ham ushbu global tendensiyadan chetda qololmaydi, chunki mamlakatimiz oldida turgan eng muhim strategik vazifalardan biri xomashyo eksportiga qaramlikdan qutilib, yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar yaratuvchi davlatga aylanishdir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-iyuldagi PF-165-son Farmoni bilan tasdiqlangan “2022-2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasi” aynan shu maqsadga yo‘naltirilgan bo‘lib, mamlakatimizning uzoq muddatli rivojlanish yo‘nalishlarini belgilab bergan [2]. Farmonda qayd etilgan maqsadli ko‘rsatkichlar tahliliga ko‘ra, 2026-yilga borib

respublikada innovatsion faoliyat subyektlari sonini 613 tadan 2250 taga, startap loyihalar sonini esa 287 tadan 1437 taga yetkazish belgilangan. Bu raqamlar ortida ulkan iqtisodiy siljish yotibdi va ularga erishish uchun barcha resurslarni safarbar etish talab qilinadi. Biroq global voqelikdagi noaniqlik, geosiyosiy taranglik va xalqaro moliyaviy bozorlardagi volatillik mazkur jarayonlarni sezilarli darajada murakkablashtirishi muqarrar. Shu bois ushbu maqolada aynan shunday sharoitda innovatsion iqtisodiyotga o‘tishdagi xavflarni chuqur tahlil qilish va mavjud real imkoniyatlarni ilmiy asoslash masalasiga alohida e’tibor qaratilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Innovatsion iqtisodiyot nazariyasi va amaliyotiga oid mahalliy hamda xorijiy olimlarning ilmiy ishlanmalarini tahlil qilish tadqiqot metodologiyasining muhim poydevori bo‘lib xizmat qildi. Xususan, o‘tgan asrning boshlarida Y.Shumpeter tomonidan ilgari surilgan “ijodiy buzilish” konsepsiyasi hozirgi kunda ham innovatsion sikllarni tushunishning asosiy kaliti bo‘lib qolmoqda, zero bu nazariyaga ko‘ra iqtisodiy taraqqiyot aynan eski texnologik ukladlarning yangilari bilan almashinuvi orqali ta’minlanadi[6]. Ushbu g‘oyani rivojlantirgan K.Friman va B.-A.Lundvall kabi tadqiqotchilar milliy innovatsion tizim nazariyasini ishlab chiqib, davlat, fan va biznes o‘rtasidagi institutsional aloqalarning muhimligini asoslab berganlar[7] [8]. Jahon iqtisodiy forumi tomonidan yillik asosda e’lon qilinadigan Global raqobatbardoshlik indeksida innovatsion salohiyatni baholovchi indikatorlar qatoriga biznes dinamikasi, ilmiy-tadqiqot muassasalarining sifati va kadrlar bozorining egiluvchanligi kiritilgan[9]. Shuningdek, Jahon banki tahlilchilari tomonidan tayyorlangan “Innovatsion rivojlanish va inklyuziv o‘sish” mavzusidagi ma’ruzada rivojlanayotgan mamlakatlar uchun asosiy to‘siq bu moliyalashtirish manbalarining cheklanganligi emas, balki institutsional muhitning zaifligi ekanligi uqtirilgan[10]. Mahalliy tadqiqotchilar tomonidan ham so‘nggi yillarda O‘zbekiston iqtisodiyotining innovatsion transformatsiyasi masalalariga bag‘ishlangan qator ishlar e’lon qilingan bo‘lib, ularning aksariyatida texnologiyalarni transfer qilish va mahalliylashtirish dasturlarining samaradorligi tahlil etilgan. Xususan, A.V. Vahobovning ilmiy tadqiqotlarida iqtisodiy modernizatsiya va innovatsion rivojlanishning institutsional asoslari yoritilib, innovatsiyalarni iqtisodiy o‘sishning muhim omili sifatida rivojlantirish zarurligi asoslab berilgan. B.X. Xodiyevning ishlarida iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, investitsion faollikni oshirish hamda innovatsion faoliyatni rag‘batlantirish masalalari tadqiq etilgan. Shuningdek, S.S. G‘ulomov o‘z tadqiqotlarida raqamli iqtisodiyot, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va bilimlarga asoslangan iqtisodiyotning rivojlanish istiqbollarini tahlil qilgan. Mazkur ilmiy ishlanmalar O‘zbekistonda innovatsion iqtisodiyotning nazariy va amaliy asoslarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq ushbu tadqiqot mazkur ishlardan farqli ravishda xavf-xatarlarni baholashda tizimli yondashuvni qo‘llagan holda, makroiqtisodiy beqarorlik, institutsional zaiflik va inson omili uyg‘unligidagi kompleks muammolarni ochib berishga harakat qiladi. Adabiyotlar sharhidan olingan xulosa shuni ko‘rsatadiki, innovatsion rivojlanishning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan davlat siyosatining izchilligi bilan bir qatorda xususiy sektorning ichki motivatsiyasiga ham bevosita bog‘liqdir.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu ilmiy maqolani tayyorlash jarayonida kompleks yondashuv asosida bir nechta ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi. Tahlil davomida tizimli yondashuv yetakchi metod sifatida qo‘llanilib, global iqtisodiy o‘zgarishlarning O‘zbekiston milliy innovatsion tizimiga ta’siri yaxlit tizim sifatida o‘rganildi. Innovatsion rivojlanish jarayonlarini baholash va ularning rivojlanish tendensiyalarini aniqlash maqsadida qiyosiy tahlil usulidan keng foydalanildi. Mazkur usul yordamida O‘zbekistondagi innovatsion rivojlanish ko‘rsatkichlari rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar tajribasi bilan taqqoslandi.
Statistik ma’lumotlarni qayta ishlashda guruhlash, umumlashtirish va dinamik qatorlar usullari qo‘llanildi. Tadqiqotning axborot bazasini O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi, Milliy statistika qo‘mitasi, hududiy statistika boshqarmalari hamda xalqaro tashkilotlarning ochiq ma’lumotlari tashkil etdi [1]. Innovatsion rivojlanishning asosiy tendensiyalarini aniqlashda makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar, investitsion faollik, ilmiy-tadqiqot faoliyati va startap ekotizimiga oid ma’lumotlardan foydalanildi.
Tadqiqot doirasida innovatsion iqtisodiyotga ta’sir etuvchi xavf-xatarlarni baholashda ekspert baholash va ssenariy tahlili elementlari qo‘llanildi. Ushbu metodlar global iqtisodiy beqarorlik, texnologik qaramlik, logistika zanjirlaridagi uzilishlar hamda moliyaviy resurslarning cheklanganligi kabi omillarning innovatsion rivojlanishga ta’sirini kompleks baholash imkonini berdi.[3]
Mazkur metodologik yondashuv asosida olingan natijalar innovatsion iqtisodiyotning rivojlanish istiqbollari, mavjud tizimli muammolar va ularni bartaraf etish imkoniyatlarini aniqlashga xizmat qildi hamda ilmiy-amaliy takliflarni ishlab chiqish uchun zarur asos yaratdi.

Tahlil va natijalar. Olib borilgan kompleks tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, global iqtisodiy muhitdagi murakkab va o‘zgaruvchan sharoitlarga qaramay, O‘zbekiston iqtisodiyotida innovatsion transformatsiya uchun zarur makroiqtisodiy va institutsional asoslar shakllanib bormoqda. Mamlakatda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar natijasida investitsion faollikning ortishi, xizmatlar sektorining kengayishi hamda innovatsion faoliyat subyektlari sonining ko‘payishi kuzatilmoqda.
Xususan, 2026-yilning birinchi choragida yalpi ichki mahsulot o‘sishi 2025-yilning mos davriga nisbatan 108,7 foizni, sanoat ishlab chiqarishi esa 108,0 foizni tashkil etdi [1]. Mazkur ko‘rsatkichlar iqtisodiyotning barqaror rivojlanayotganligini va innovatsion faoliyatni kengaytirish uchun zarur iqtisodiy sharoitlar shakllanayotganligini ko‘rsatadi. Shuningdek, hududlar kesimida ham investitsion faollikning sezilarli darajada ortib borayotgani kuzatilmoqda. Jumladan, Xorazm viloyatida 2026-yilning dastlabki uch oyida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi 143,3 foizga oshgan [3]. Quyida keltirilgan 1-jadval ma’lumotlari mamlakatda so‘nggi yillarda kuzatilayotgan makroiqtisodiy sur’atlar va innovatsion infratuzilmadagi asosiy o‘zgarishlarni aks ettiradi.

1-jadval

2024-2026-yillar mobaynida O‘zbekiston Respublikasida innovatsion rivojlanishning asosiy makroiqtisodiy indikatorlari va ularning dinamikasi.[70]

Ko‘rsatkichlar nomi	2024-yil	2025-yil	2026-yil I-chorak	Strategik maqsad (2026-yil yakuni)
Sanoatda innovatsion faol subyektlar soni, birlik	613	1328	1504	2250
Ilm-fanga Davlat budjetidan ajratmalar, trln. so‘m	1,5	2,4	2,8	-
Ro‘yxatga olingan startap loyihalar soni	287	956	1087	1437
Global innovatsion indeksdagi o‘rni (GII)	82	73	-	Kuchli 50 talik
Asosiy kapitalga investitsiyalar o‘sishi %	104,5	112,1	129,6	-
Xizmatlar sohasi o‘sishi, %	-	110,4	116,1	-

Jadvalda keltirilgan ma’lumotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, mamlakatda innovatsion rivojlanishning asosiy ko‘rsatkichlari bo‘yicha ijobiy tendensiyalar shakllanmoqda. Xususan, sanoatda innovatsion faol subyektlar sonining 613 tadan 1504 taga yetishi, startap loyihalar sonining esa 287 tadan 1087 taga oshishi innovatsion ekotizimning kengayib borayotganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, ilm-fanga davlat budjetidan ajratilayotgan mablag‘lar hajmining ortib borishi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan davlat siyosatining izchil davom etayotganligini ko‘rsatadi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, xizmatlar sektorining 116,1 foizga o‘sishi va ta’lim xizmatlari hajmining 121,2 foizga yetishi aholining bilim va malakaga bo‘lgan talabining ortib borayotganidan dalolat beradi [4]. Mazkur holat innovatsion iqtisodiyot uchun zarur bo‘lgan inson kapitalini rivojlantirish nuqtai nazaridan muhim ahamiyatga ega.

Biroq tadqiqot davomida innovatsion rivojlanishning barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan qator xavf-xatarlar ham aniqlandi. Ular orasida tashqi texnologik qaramlik, ichki moliyaviy resurslarning cheklanganligi, yuqori texnologiyali mahsulotlar importiga bog‘liqlik hamda global iqtisodiy beqarorlik omillari alohida o‘rin tutadi. Ekspert baholash natijalariga ko‘ra, aynan texnologik qaramlik va innovatsion loyihalarni moliyalashtirishdagi cheklovlar innovatsion rivojlanish sur’atlariga eng katta xavf tug‘diruvchi omillar sifatida baholandi.

[70] Statistika qo’mitasi tomonidan berilgan rasmiy ma’limotlar asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

Umuman olganda, olingan natijalar O‘zbekistonda innovatsion iqtisodiyotning shakllanishi uchun muhim asoslar mavjudligini ko‘rsatmoqda. Shu bilan birga, mavjud imkoniyatlardan to‘liq foydalanish va aniqlangan xavf-xatarlarni kamaytirish maqsadida institutsional islohotlarni chuqurlashtirish, innovatsion infratuzilmani rivojlantirish hamda ilm-fan va biznes integratsiyasini kuchaytirish zarur hisoblanadi.

Xulosa va takliflar. Olib borilgan kompleks tadqiqot natijalari global iqtisodiy sharoitlarning beqarorlashuvi ta’sirida innovatsion jarayonlarni boshqarish yangicha yondashuvlarni talab qilishini yaqqol namoyon etmoqda. Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda O‘zbekiston iqtisodiyoti jahondagi siyosat va texnologik raqobat kuchaygan bir pallada mavjud imkoniyatlardan to‘liq foydalanish orqali raqobatbardoshlikni sezilarli darajada oshirish imkoniyatiga ega. Biroq bu imkoniyatni amalga oshirish uchun, eng avvalo, tashqi bozorlarga xomashyo yetkazib berishga ixtisoslashgan an’anaviy modeldan voz kechib, yuqori darajadagi qo‘shilgan qiymatga ega intellektual mahsulotlar eksportiga izchil ravishda o‘tish shart. Quyida tahlil natijalaridan kelib chiqib ishlab chiqilgan takliflarni bayon etamiz:

- Birinchi taklif sifatida hududiy innovatsion klasterlarni jadal rivojlantirish va ularni moliyalashtirishning yangi mexanizmlarini joriy etish lozim. Hozirgi kunda venchur fondlar soni oshirilgan bo‘lsa-da, ularning faoliyati asosan Toshkent shahri va viloyat markazlari bilan cheklanib qolmoqda. Bizning taklifimiz shundan iboratki, har bir hududda mahalliy hokimiyat va yirik korxonalar ishtirokida qo‘shma innovatsion jamg‘armalar tashkil etilsin va ularga soliq imtiyozlari berilsin. Bu jamg‘armalar aynan shu hududning ixtisoslashuviga mos keladigan startap loyihalarni moliyalashtirishga yo‘naltirilishi kerak.
- Ikkinchi taklif kadrlar masalasiga oid bo‘lib, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasini tubdan qayta ko‘rib chiqishni talab etadi. Bugungi kunda texnik oliygohlar huzurida faoliyat yuritayotgan texnoparklar soni sezilarli darajada oshgan, biroq ularning aksariyati ta’lim jarayonining organik bir qismi bo‘la olmagan. Taklifimizga ko‘ra, har bir texnik oliygohda “innovatsion voucher” tizimi joriy etilishi zarur, bu tizim orqali ishlab chiqarish korxonalari talabalarning aniq bir texnologik muammoni yechishiga to‘lov qiladi va bu jarayon bitiruv malakaviy ishiga tenglashtiriladi. Bu yondashuv bir vaqtning o‘zida uchta muammoni – kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, talabalarni moddiy rag‘batlantirish va korxonalarning innovatsion faolligini kuchaytirishga xizmat qiladi.
- Uchinchi taklif milliy hisoblar tizimiga bevosita daxldor. Ayni paytda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi tomonidan yuritiladigan milliy hisoblar tizimida innovatsion faollik ko‘rsatkichlari ko‘pincha sanoat ishlab chiqarishi bilan birlashtirilib yuborilmoqda. Bu esa real innovatsion qo‘shilgan qiymatni alohida o‘lchash va baholashni qiyinlashtiradi. Taklif etiladiki, Xalqaro valyuta jamg‘armasining “Kengaytirilgan Ma’lumotlarni tarqatishning umumiy tizimi” talablaridan kelib chiqib, milliy statistik hisobotlarga “innovatsion

mahsulotlar va xizmatlar ulushi” degan alohida indikator kiritilsin. Bu nafaqat davlat siyosatining samaradorligini aniqroq baholash, balki xalqaro reytinglardagi o‘rnimizni yaxshilashga ham xizmat qiladi.

- To‘rtinchi taklif sifatida “raqamli suverenitet”ni ta’minlashga qaratilgan dasturiy chora-tadbirlarni ilgari surmoqchimiz. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, tashqi texnologik xavflar eng yuqori darajadagi tahdid hisoblanadi. Shuning uchun ham O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi PF-16-son Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston - 2030” strategiyasini “Yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi doirasida mahalliy dasturiy ta’minot ishlab chiqaruvchilarni qo‘llab-quvvatlashning alohida yo‘nalishi belgilanishi lozim. Buning uchun davlat xaridlarida mahalliy IT-kompaniyalarga kamida 40 foizlik kvota ajratish va ularning eksportini rag‘batlantirish mexanizmlarini joriy etish samarali bo‘ladi.
- Yakuniy va eng muhim taklif shundan iboratki, innovatsion rivojlanish bo‘yicha barcha strategik hujjatlar yagona monitoring va baholash tizimi bilan qamrab olinishi kerak. Bu nafaqat ijro intizomini mustahkamlaydi, balki xalqaro investorlarning ishonchini oshirishning eng samarali vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Xulosa shuki, mamlakatimizda mavjud demografik dividend va islohotlarning hozirgi jadal sur’ati yuqorida sanab o‘tilgan xavflarni neytrallashtirish uchun yetarli zamin yaratadi, buning uchun faqatgina kuchli siyosiy iroda bilan birga aniq hisob-kitob qilingan tizimli yondashuv va qat’iy maqsadli dasturlar amalga oshirilishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. “O‘zbekiston raqamlarda: 2026-yil yanvar-mart oylari uchun dastlabki ma’lumotlar”.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-iyuldagi PF-165-son Farmoni. “2022-2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”.
3. Statistika qo’mitasining rasmiy sayti. Stat.uz. “2026-yil yanvar-mart holatiga”.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. “O‘zbekiston xizmatlar bozorida ta’lim sohasi yetakchilikni qo‘lga kiritdi: 2026-yil tahlili”.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi PF-16-son Farmoni. “O‘zbekiston - 2030 strategiyasini “Yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”.
6. Schumpeter J.A. “The Theory of Economic Development: An Inquiry into Profits, Capital, Credit, Interest and the Business Cycle”. – Harvard University Press, 1934.
7. Freeman C. “Technology Policy and Economic Performance: Lessons from Japan”. – London: Pinter Publishers, 1987.
8. Lundvall B.-Å. “National Systems of Innovation: Towards a Theory of Innovation and Interactive Learning”. – London: Pinter Publishers, 1992.

9. World Economic Forum. “The Global Competitiveness Report”.
10. World Bank. “Innovation, Technology and Entrepreneurship Global Practice Reports”. Y.Shumpeter

HUDUDLARDA TADBIRKORLIK QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY VA INSTITUTSIONAL MEXANIZMLARI

Suvpo‘latov Ozodjon Alijon o‘g‘li
TDIU “iqtisodiyot nazariyasi”
kafedrasi katta o‘qituvchisi
ORCID: 0009-0006-6344-6618

Annotatsiya. Ushbu maqolada hududlarda tadbirkorlik qobiliyatini rivojlantirishning nazariy va institutsional mexanizmlari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda tadbirkorlik qobiliyatining iqtisodiy mazmuni, uning hududiy rivojlanishdagi o‘rni hamda barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlashdagi ahamiyati yoritilgan. Maqolada hududlar kesimida tadbirkorlik qobiliyatini rivojlantirishga ta’sir etuvchi ijtimoiy-iqtisodiy omillar tahlil qilinib, ularni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan

Kalit so‘zlar: hududiy rivojlanish, tadbirkorlik qobiliyati, institutsional mexanizmlar, barqaror iqtisodiy o‘sish, kichik biznes, tadbirkorlik muhiti, davlat qo‘llab-quvvatlashi, infratuzilma, inson kapitali, innovatsion faoliyat.

Kirish. Hozirgi globallashuv va iqtisodiy transformatsiya sharoitida hududlarning barqaror rivojlanishini ta’minlash mamlakat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu jarayonda aholining tadbirkorlik qobiliyatini rivojlantirish, hududiy iqtisodiy faollikni oshirish hamda yangi ish o‘rinlarini yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, hududlar o‘rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlarni kamaytirish, mahalliy resurslardan samarali foydalanish va iqtisodiy o‘sishning barqaror manbalarini shakllantirishda tadbirkorlik faoliyati asosiy omillardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Tadbirkorlik qobiliyati iqtisodiy kategoriya sifatida shaxsning yangicha fikrlash, tavakkalchilikni qabul qilish, mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish va innovatsion yechimlarni amaliyotga joriy etish salohiyatini ifodalaydi. Hududlarda ushbu qobiliyatni rivojlantirish nafaqat alohida xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini kengaytirishga, balki umumiy hududiy iqtisodiy rivojlanish sur’atlarini jadallashtirishga ham xizmat qiladi.

Shu bilan birga, hududlarda tadbirkorlik qobiliyatini rivojlantirish ko‘p jihatdan institutsional muhitga bog‘liq. Jumladan, davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari, moliyaviy institutlar faoliyati, infratuzilmaning rivojlanganlik darajasi, ta’lim va konsalting xizmatlari hamda huquqiy-me’yoriy baza ushbu jarayonning muhim tarkibiy qismlari hisoblanadi. Mazkur omillarning yetarli darajada shakllanmaganligi ayrim hududlarda tadbirkorlik faolligining past bo‘lishiga sabab bo‘lmoqda.

Shu nuqtayi nazardan, hududlarda tadbirkorlik qobiliyatini rivojlantirishning nazariy va institutsional mexanizmlarini chuqur ilmiy o‘rganish, mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish dolzarb ilmiy masala hisoblanadi.

Adabiyotlar sharhi va nazariy asoslar. Tadbirkorlik qobiliyatining ilmiy-nazariy asoslari iqtisodiy tafakkur tarixida klassik iqtisodchilar asarlarida shakllangan. Mazkur tushunchani iqtisodiy kategoriya sifatida birinchi bo‘lib Richard Cantillon (1755) o‘zining “Essai sur la nature du commerce en général” asarida izohlagan. U tadbirkorni noaniqlik va tavakkalchilik sharoitida faoliyat yurituvchi, resurslarni oldindan ma’lum xarajat bilan jalb qilib, kelajakdagi noaniq daromadga yo‘naltiruvchi iqtisodiy subyekt sifatida tavsiflaydi.[1]

Keyinchalik Jean-Baptiste Say (1803) tadbirkorlik nazariyasini yanada rivojlantirib, tadbirkorni ishlab chiqarish omillarini birlashtiruvchi va ularni yuqori unumdorlikka yo‘naltiruvchi muhim iqtisodiy agent sifatida baholaydi. Uning fikricha, tadbirkor resurslarni past samarali sohalardan yuqori samarali tarmoqlarga yo‘naltirish orqali iqtisodiy o‘sishga xizmat qiladi. Say nazariyasida tadbirkorning roli nafaqat riskni qabul qilish, balki muvofiqlashtirish va boshqaruv funksiyasi bilan ham izohlanadi. [2]

Tadbirkorlik qobiliyatining zamonaviy nazariy talqinlari Joseph A. Schumpeter (1934) ishlari bilan chambarchas bog‘liq. Uning “The Theory of Economic Development” asarida tadbirkor iqtisodiy taraqqiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida talqin qilinadi. Schumpeter tadbirkorni innovatsiyalarni joriy etuvchi, yangi mahsulotlar, yangi texnologiyalar, yangi bozorlar va yangi tashkiliy shakllarni yaratish orqali iqtisodiy tizimda “ijodiy vayronkorlik” (creative destruction) jarayonini yuzaga keltiruvchi subyekt sifatida ko‘rsatadi. Mazkur yondashuv hududiy iqtisodiy rivojlanish nazariyasida ham muhim ahamiyatga ega bo‘lib, hududlarda tadbirkorlik qobiliyatini rivojlantirishning innovatsion omillarini tushuntirishga xizmat qiladi [3].

Institutsional iqtisodiyot nuqtai nazaridan hududlarda tadbirkorlik qobiliyatining rivojlanishi tashqi muhit omillari bilan bevosita bog‘liqdir. Xususan, huquqiy-me’yoriy baza, moliyaviy institutlar, bozor infratuzilmasi, ta’lim tizimi, biznes inkubatorlar va davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari tadbirkorlik muhitining shakllanishida muhim rol o‘ynaydi. Zamonaviy tadqiqotlarda tadbirkorlik va iqtisodiy o‘sish o‘rtasidagi bog‘liqlik institutsional muhit sifati bilan izohlanishi keng yoritilgan. [4]

Shu bois hududlarda tadbirkorlik qobiliyatini rivojlantirishning nazariy asoslari klassik iqtisodiy qarashlar, innovatsion yondashuvlar va institutsional mexanizmlar uyg‘unligi asosida shakllanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda tahlil va sintez, taqqoslash hamda statistik tahlil usullaridan foydalanildi. 2020-2025 yillar bo‘yicha hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi o‘rganildi. Tadqiqotning axborot bazasini statistika ma’lumotlari, ilmiy adabiyotlar va normativ-huquqiy hujjatlar tashkil etdi. Olingan natijalar asosida hududiy tadbirkorlikni rivojlantirish bo‘yicha xulosa va amaliy takliflar ishlab chiqildi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, hududlarda tadbirkorlik qobiliyatini rivojlantirish iqtisodiy faollikni oshirish va barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi. O‘zbekiston

Respublikasi statistika ma’lumotlariga ko‘ra, 2025-yil 1-oktyabr holatiga faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni 1 212,0 mingtani tashkil etgan. Har 1000 aholiga nisbatan tadbirkorlik subyektlari soni 32,1 birlik bo‘lib, bu ko‘rsatkich hududlar kesimida sezilarli farqlanishni namoyon etadi. Eng yuqori ko‘rsatkichlar Xorazm viloyatida 43,5, Toshkent shahrida 43,4, Sirdaryo viloyatida 37,7 va Buxoro viloyatida 37,5 birlikni tashkil etgan. [5]

Shuningdek, statistik tahlillar kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushi yildan-yilga ortib borayotganini ko‘rsatadi. 2020-2024 yillar davomida ushbu ko‘rsatkichning barqaror o‘sishi kichik biznesning iqtisodiy rivojlanish va bandlikni ta’minlashdagi muhim rolini tasdiqlaydi. [6]

Olingan natijalar asosida hududlarda tadbirkorlik qobiliyatini rivojlantirish uchun institutsional mexanizmlarni takomillashtirish, xususan, imtiyozli kreditlash, biznes inkubatorlar faoliyatini kengaytirish, kasbiy ta’lim va konsalting xizmatlarini rivojlantirish zarurligi aniqlandi. Ayniqsa, tadbirkorlik subyektlari soni nisbatan past bo‘lgan hududlarda maqsadli davlat dasturlarini ishlab chiqish va hududiy yondashuv asosida qo‘llab-quvvatlash choralari muhim ahamiyat kasb etadi.

1-Jadval


Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari(xizmatlari)dagi ulushi (% da)[71]

Klassifikator	2020	2021	2022	2023	2024	2025
O‘zbekiston Respublikasi	27,9	27,4	26	27	31,9	32,4
Andijon viloyati	21,4	27,2	22,4	22,2	29,8	34,9
Buxoro viloyati	35,1	38,7	33,5	30,5	41	41,175
Jizzax viloyati	65,4	51,9	50	25,1	28	25
Qashqadaryo viloyati	34,6	27,3	23	21,7	36,3	38,175
Navoiy viloyati	6,5	6,6	7,2	7,7	9,1	8,5
Samarqand viloyati	47,5	42,1	38,1	45,1	50,3	49,475
Surxondaryo viloyati	45,3	50,6	42,4	48,2	62,5	66,8
Sirdaryo viloyati	37,8	39,3	30,6	31,7	41,1	51,675
Farg‘ona viloyati	46	45,8	44	48,9	52,6	55,7
Xorazm viloyati	30,9	21,8	16	16,3	19,4	22,125
Toshkent shahri	37,9	38,5	36,9	37,3	38,8	37,925

Jadval ma’lumotlariga ko‘ra, 2020-2025 yillarda hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat mahsulotlari (xizmatlari)dagi ulushida turlicha o‘zgarishlar kuzatilgan. O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha ko‘rsatkich 27,9 foizdan 32,4 foizgacha oshgan. Surxondaryo va Farg‘ona viloyatlarida sezilarli o‘sish kuzatilib, mos ravishda 45,3 foizdan 66,8 foizgacha hamda 46 foizdan 55,7 foizgacha yetgan. Aksincha, Jizzax viloyatida ko‘rsatkich 65,4 foizdan 25 foizgacha kamaygan. Navoiy viloyatida esa ko‘rsatkich barcha yillar davomida eng past darajada saqlangan [7]. Mazkur holat hududlar o‘rtasida kichik tadbirkorlik

[71] www.stat.uz - O‘zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo‘mitasining rasmiy veb-sayti ma’lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

rivojlanish darajasida sezilarli tafovutlar mavjudligini ko‘rsatadi. Bu esa hududiy iqtisodiy siyosatda tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini yanada takomillashtirish zarurligini anglatadi. Ayniqsa, past ko‘rsatkich qayd etilgan hududlarda institutsional qo‘llab-quvvatlash, moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatlarini kengaytirish va tadbirkorlik infratuzilmasini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.



1-rasm. Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari(xizmatlari)dagi ulushi[72]

Grafik ma’lumotlari 2020-2025 yillar davomida hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari (xizmatlari)dagi ulushida sezilarli o‘zgarishlar kuzatilganligini ko‘rsatadi. Umuman olganda, O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha mazkur ko‘rsatkich 2020-yildagi 27,9 foizdan 2025-yilda 32,4 foizga oshgan bo‘lib, bu kichik tadbirkorlikning milliy iqtisodiyotdagi roli bosqichma-bosqich kuchayib borayotganini anglatadi.

Hududlar kesimida tahlil qilinganda, eng yuqori o‘sish Surxondaryo viloyatida kuzatilgan bo‘lib, ko‘rsatkich 45,3 foizdan 66,8 foizgacha oshgan. Mazkur holat ushbu hududda kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi keskin kengayganligini hamda hududiy tadbirkorlik muhitining faollashganligini ko‘rsatadi. Shuningdek, Farg‘ona viloyatida ham 46 foizdan 55,7 foizgacha barqaror o‘sish qayd etilgan.

Buxoro viloyatida ko‘rsatkich 35,1 foizdan 41,175 foizga, Toshkent shahrida esa 37,9 foizdan 37,925 foizga nisbatan barqaror saqlanib qolgan. Bu hududlarda kichik tadbirkorlikning sanoatdagi ulushi nisbatan yuqori va barqaror ekanligini ko‘rsatadi.

[72] www.stat.uz - O‘zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo‘mitasining rasmiy veb-sayti ma’lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Aksincha, Jizzax viloyatida 2020-yildagi 65,4 foizlik ko‘rsatkich 2025-yilda 25 foizgacha pasaygan. Ushbu keskin kamayish hudud sanoat tarkibidagi o‘zgarishlar, yirik korxonalar ulushining ortishi yoki kichik tadbirkorlik subyektlarining nisbiy hissasi qisqarishi bilan izohlanishi mumkin.

Navoiy viloyatida ko‘rsatkich barcha yillar davomida eng past darajada saqlanib, 6,5 foizdan 8,5 foizgacha oshgan. Bu esa hudud iqtisodiyotida yirik sanoat korxonalari ustunligi sababli kichik tadbirkorlikning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishidagi hissasi cheklanganligini ko‘rsatadi.

Umuman, grafik natijalari hududlar o‘rtasida kichik tadbirkorlik rivojlanish darajasida sezilarli tafovutlar mavjudligini ko‘rsatib, institutsional qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini hududlar kesimida differensial yondashuv asosida takomillashtirish zarurligini tasdiqlaydi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, tadqiqot natijalari hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi turlicha rivojlanayotganini ko‘rsatdi. Ayrim hududlarda, xususan Surxondaryo va Farg‘ona viloyatlarida barqaror o‘sish kuzatilgan bo‘lsa, ayrim hududlarda pasayish holatlari qayd etildi. Bu esa hududlar o‘rtasida tadbirkorlik muhitining rivojlanish darajasi bir xil emasligini tasdiqlaydi. Mazkur tafovutlar hududiy iqtisodiy siyosatni differensial yondashuv asosida olib borish zarurligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, hududlarda tadbirkorlik qobiliyatini rivojlantirish barqaror iqtisodiy o‘sish, bandlikni ta’minlash va mahalliy resurslardan samarali foydalanishda muhim omil hisoblanadi.

Shundan kelib chiqib, quyidagi takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq:

- Hududlarda tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha institutsional mexanizmlarni takomillashtirish;
- Imtiyozli kreditlash va moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish;
- Biznes inkubatorlar va konsalting xizmatlari faoliyatini rivojlantirish;
- Past ko‘rsatkichga ega hududlarda maqsadli davlat dasturlarini kuchaytirish;
- Aholining tadbirkorlik ko‘nikmalarini oshirishga qaratilgan o‘quv va trening dasturlarini keng joriy etish;
- Hududlarning iqtisodiy salohiyatidan kelib chiqib, sohaga ixtisoslashgan tadbirkorlik loyihalarini qo‘llab-quvvatlash.

Mazkur takliflarni amaliyotga joriy etish hududlarda tadbirkorlik qobiliyatini rivojlantirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish, aholi daromadlarini oshirish hamda barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Cantillon, R. (1755). Essai sur la nature du commerce en général. London: Fletcher Gyles. https://mises.org “How Entrepreneurship Theory Created Economics | Mises Institute”

2. Say, J.-B. (1803). Traité d’économie politique. Paris: Deterville. https://ciam.edu

3. Schumpeter, J. A. (1934). The Theory of Economic Development. Cambridge: Harvard University Press. https://www.abacademies.org

4. https://arxiv.org «Entrepreneurship, Institutions, and Economic Growth: Does the Level of Development Matter». https://arxiv.org

5. O‘zbekiston Respublikasi tadbirkorlik subyektlari to‘g‘risidagi statistik ma’lumotlar. https://www.uzdaily.uz

6. https://journalss.org — «O‘zbekistonda kichik biznes va tadbirkorlikning YaIMdagi ulushi va iqtisodiy rivojlanishga ta’siri: statistik tahlil-tadqiqotlar»

7. www.stat.uz - O‘zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo‘mitasining rasmiy veb-sayti

KICHIK BIZNESNI MUQOBIL MOLIYALASHTIRISHNING ILG‘OR XORIJIY TAJRIBALARI

Umarova Gulzodaxon Qodirbekovna
Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti,
Andijon fakulteti katta o’qituvchisi
ORCID:0009-0000-8859-4840

Annotatsiya. Ushbu maqolada kichik biznes subyektlarini muqobil moliyalashtirish mexanizmlari va ularning xorijiy ilg‘or tajribalari o‘rganilgan. Tadqiqot AQSh, Germaniya, Janubiy Koreya, Singapur va boshqa rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarning muqobil moliyalashtirish ekotizimlari – jumladan, kraudfanding, tengdoshlar orasidagi P2P kreditlash, venchur kapital, farishta investitsiya, zanjir moliyasi va aylanma kredit fondlarini qiyosiy tahlil qilishga qaratilgan. Ushbu maqolada xorijiy modellarni O‘zbekiston sharoitiga moslashtirishning ilmiy asoslangan takliflari bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: kichik biznes, muqobil moliyalashtirish, kraudfanding, P2P kreditlash, venchur kapital, moliyaviy inklyuzivlik, xorijiy tajriba.

Kirish. Kichik biznes subyektlari jahon iqtisodiyotining asosiy harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi. Jahon banki ma’lumotlariga ko‘ra, kichik va o‘rta biznes dunyo bo‘yicha rasmiy ish o‘rinlarining 70 foizini ta’minlaydi va YaIMning 50 foizga yaqinini yaratadi[11]. Biroq an’anaviy bank kreditlash tizimi kichik biznes subyektlari uchun ko‘pincha yetarli darajada mos emasligi aniqlangan – yuqori garov talablari, uzoq protseduralar va past kredit tarixi buning asosiy sabablaridir.

O‘zbekistonda 2024 yil holatiga ko‘ra, respublikada kichik tadbirkorlik subyektlari soni 500 ming dan oshgan bo‘lsa-da, ularning faqat 23 foizi bank kreditlariga murojaat qilgan, 14 foizi esa kredit olishga muvaffaq bo‘lgan [12]. Muqobil moliyalashtirish mexanizmlari bo‘yicha qonunchilik bazasi endigina shakllana boshlagan bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 24.11.2018 yildagi “Tadbirkorlik va innovatsiyalar sohasidagi loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi PF-5583-son Farmoni qabul qilinishi muhim qadam sifatida baholanmoqda.

Adabiyotlar sharhi. Muqobil moliyalashtirish sohasidagi ilmiy adabiyotlar so‘nggi o‘n yil ichida sezilarli darajada kengaydi. E. Mollick kraudfanding sohasidagi tadqiqotida ushbu mexanizmning nafaqat moliyaviy, balki bozorni tekshirish va ijtimoiy kapital shakllantirish funksiyalarini ham bajarishi mumkinligini asoslab berdi [8]. Shu yo‘nalishda P. Belleflamme, T. Lambert, va A. Schwienbacherlar mukofotga asoslangan va ulushga asoslangan kraudfandingni taqqoslab, har birining afzalliklari va cheklovlarini belgilab berdi [2].

P2P kreditlash sohasida Berger va Gleisner ning ishonch mexanizmlari va ijtimoiy ma’lumotlar haqidagi tadqiqoti fundamental ahamiyat kasb etadi. Ular investorlar tomonidan to‘liq foydalaniladigan ijtimoiy ma’lumotlar kredit qarorlarida muhim rol o‘ynashini empirik isbotlagan [3]. Keyinchalik, R. Emekter,

B. Jirasakuldech, va M. Lu “LendingClub” tashkiloti ma’lumotlari asosida P2P kreditlashda kredit xavfini baholash modelini ishlab chiqdi [5].

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda quyidagi metodlar qo‘llanildi: 5 ta tanlangan davlat bo‘yicha ko‘rsatkichlar qiyosiy mamlakatlar tahlili asosida taqqoslandi; moliyalashtirish mexanizmlarini tarkibiy belgilariga ko‘ra guruhlab klaster tahlili o‘tkazildi; 2018–2023 yillar bo‘yicha o‘sish sur’atlari dinamik tendensiya tahlili asosida hisoblandi.

Tadqiqot natijalari. Jahon muqobil moliyalashtirish bozori 2023 yilda 482 mlrd AQSh dollarini tashkil etdi. CCAF prognoziga ko‘ra, 2028- yilga qadar ushbu ko‘rsatkich 934 mlrd dollarga yetishi kutilmoqda, bu esa yillik o‘rtacha 14.2 foizlik o‘sish sur’atiga to‘g‘ri keladi. Geografik jihatdan bozor notekis taqsimlangan: Shimoliy Amerika 38 foiz, Osiyo-Tinch okeani mintaqasi 34 foiz, Yevropa esa 19 foiz ulushni egallaydi [4]. Kichik biznes subyektlari muqobil moliyalashtirishning asosiy foydalanuvchilari umumiy hajmning 67 foizini tashkil etadi. Ayniqsa, texnologiya, savdo va xizmat ko‘rsatish sohalaridagi startaplar ushbu mexanizmlardan faol foydalanayotganligi qayd etilmoqda.

1-jadval.

Global muqobil moliyalashtirish mexanizmlari turlari va asosiy ko‘rsatkichlari (2023 y.)[73]

Moliyalashtirish turi	**Asosiy xususiyatlari**	**Asosiy bozorlar**	**O‘rtacha hajmi (*AQSh dollari, ming*)**	**O‘sish sur’ati (*foiz hisobida*)**
Kraudfanding	Jamoaviy investitsiya, past to‘siq	AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya	5–500	18.3
P2P kreditlash	Bank vositachisiz, past foiz	Xitoy, AQSh, Hindiston	1–100	21.7
Venchur kapital	Yuqori tavakkalchilik yoki daromad	AQSh, Isroil, Singapur	500–10 000	9.4
Farishta investorlar	Erta bosqich, tajribalilik	AQSh, Buyuk Britaniya, GFR	25–500	14.6
Ta’minot zanjiri moliyasi	Zanjir bo‘ylab optimallash	Niderlandiya, Janubiy Koreya	10–1 000	16.2
Aylanma kredit fondlari	Qayta tiklanuvchi, ijtimoiy yo‘nalgan	Skandinaviya, Kanada	5–250	11.9

Qo‘shma Shtatlar muqobil moliyalashtirish sohasida global yetakchi bo‘lib, 2023 yilda 183 mlrd dollar hajmdagi bozorga ega. 2012 yilda qabul qilingan JOBS Act tashkiloti muqobil moliyalashtirishning huquqiy asosini shakllantirdi va bu qonun ortidan aksiyaviy kraudfanding legallashtirildi. “Kickstarter” va “Indiegogo” platformalari orqali hozirgi kunga qadar 7,5 mlrd dollardan ortiq mablag‘lar jalb qilingan bo‘lib, 250 ming dan ziyod loyiha moliyalashtirilgan [11].

O‘zbekistonda 2024 yil boshiga ko‘ra kichik biznes sektori ishchi kuchining 74 foizini band qildi va YaIMning 31,2 foizini yaratdi[74]. Biroq moliyaviy inklyuzivlik darajasi pastligicha qolmoqda. Global Findex (Jahon banki tomonidan aholining

[73] CCAF Global Alternative Finance Report, 2023; Statista, 2024

[74] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agnetligi ma’lumotlari. Stat.uz

moliyaviy xizmatlardan foydalanish darajasini baholovchi muhim xalqaro ko‘rsatkich hisoblanadi) ma’lumotlariga ko‘ra, kattalar aholisining 43 foizigina rasmiy moliya xizmatlaridan foydalanadi (jahon o‘rtacha ko‘rsatkichi – 76 foiz).

Xulosa. Ushbu tadqiqotda kichik biznesni muqobil moliyalashtirishning xorijiy ilg‘or tajribalari, ularning O‘zbekistonga tatbiq etilishi imkoniyatlari har tomonlama tahlil qilindi va Natijada quyidagicha xulosalar olindi:

– Global muqobil moliyalashtirish bozori 2023 yilda 482 mlrd. dollarga yetib, yillik 14,2% sur’atda o‘smoqda. Kichik biznes ushbu bozorning 67 foizini tashkil etadi.

– Rivojlangan mamlakatlarda (AQSh, Germaniya, Koreya, Singapur) muqobil moliyalashtirish mexanizmlari kichik biznes subyektlarining bank kreditiga alternativa sifatida barqaror o‘rin egallagan.

– O‘zbekistonda kichik biznes sektori iqtisodiyotda muhim o‘rin egallasa-da (YaIM 31,2%), muqobil moliyalashtirish bozori hajmi 80 mln dollardan oshmaydi, bu esa rivojlangan mamlakatlardan bir qancha barobarga kam.

– Regulyativ bazaning yetarsizligi, moliyaviy savodxonlikning pastligi, raqamli infratuzilmaning rivojlanmaganligi va kredit ma’lumotlari bazasining torligi asosiy to‘siqlar hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Beck, T., & Demirguc-Kunt, A. (2006). Small and medium-size enterprises: Access to finance as a growth constraint. Journal of Banking & Finance, 30(11), 2931–2943. https://doi.org/10.1016/j.jbankfin.2006.05.009

2. Belleflamme, P., Lakichik biznesert, T., & Schwienbacher, A. (2014). Crowdfunding: Tapping the right crowd. Journal of Business Venturing, 29(5), 585–609. https://doi.org/10.1016/j.jbusvent.2013.07.003

3. Berger, A. N., & Gleisner, F. (2009). Emergence of financial intermediaries in electronic markets: The case of online P2P lending. BuR Business Research, 2(1), 39–65.

4. Cambridge Centre for Alternative Finance (CCAF). (2023). The Global Alternative Finance Market Benchmarking Report 2023. University of Cakichik biznesridge Judge Business School.

5. Emekter, R., Tu, Y., Jirasakuldech, B., & Lu, M. (2015). Evaluating credit risk and loan performance in online peer-to-peer (P2P) lending. Applied Economics, 47(1), 54–70.

6. KfW Bankengruppe. (2023). KfW Annual Report 2023: Promoting the Future. Frankfurt am Main: KfW Group.

7. KOSME (Korea SME and Startups Agency). (2023). 2023 SME & Startup Support Yearbook. Seoul: KOSME.

8. Mollick, E. (2014). The dynamics of crowdfunding: An exploratory study. Journal of Business Venturing, 29(1), 1–16. https://doi.org/10.1016/j.jbusvent.2013.06.005

9. OECD. (2020). Alternative Financing Instruments for SMEs and Entrepreneurs: The Case of Land and Buildings. Paris: OECD Publishing. https://doi.org/10.1787/f0c61b55-en

11. World Bank. (2023). SME Finance: Gap Analysis and Policy Options. Washington, DC: World Bank Group.

12. https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA AYOLLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI

Rajabaliyeva Iroda Alisherovna
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti,
"Iqtisodiyot" kafedrasi o'qituvchisi
ORCID: 0009-0002-0776-7186

Annotatsiya. Mazkur maqolada raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi asosida ayollar tadbirkorligini rivojlantirish, raqamli iqtisodiyotga xos bo'lgan islohotlarning ijobiy tomonlari, mazkur sohani rivojlantirish bo'yicha olib borilayotgan islohotlar, iqtisodiyotni raqamlashtirish asosida real raqobatbardoshlikni uzoq muddatga saqlab qolishning afzalliklari yoritib berilgan, olib borilgan tadqiqot natijasida muallif tomonidan amaliy tavsiyalar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar. raqamlashtirish, raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi, ayollar tadbirkorligi, gender tengligi, raqamli axborotlar, raqamlashtirish bo'yicha bilimlar.

Kirish. Hozirgi kunda dunyoda raqamli iqtisodiyot jadal rivojlanib, iqtisodiy munosabatlarning yangi shakllarini yuzaga keltirmoqda. Raqamli texnologiyalar yordamida biznes yuritish jarayonlari soddalashib, yangi imkoniyatlar paydo bo'lmoqda. Bu esa aholi qatlamlari, ayniqsa ayollar uchun tadbirkorlik faoliyatini boshlash va rivojlantirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasida ham ayollar tadbirkorligini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi [2]. Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi esa ayollarga masofadan turib ishlash, onlayn biznes yuritish va xalqaro bozorlarga chiqish imkonini bermoqda.

Hozirgi globallashuv sharoitida raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi iqtisodiy tizimning barcha sohalariga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Xususan, raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi tadbirkorlik faoliyatini yangi bosqichga olib chiqib, aholining turli qatlamlari, jumladan ayollar uchun ham keng imkoniyatlar yaratmoqda. Ayollar tadbirkorligini rivojlantirish esa mamlakat iqtisodiy barqarorligi, bandlikni ta'minlash va ijtimoiy tenglikni qaror toptirishda muhim omil hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish masalalari davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi PF-6079-son Farmoni raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish, zamonaviy axborot texnologiyalarini keng joriy etish hamda aholining raqamli savodxonligini oshirishni nazarda tutadi [1]. Mazkur hujjat doirasida iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida, shu jumladan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda raqamli texnologiyalardan foydalanishni kengaytirish muhim vazifa etib belgilangan.

Shuningdek, ayollar tadbirkorligini rivojlantirishga qaratilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 7-martdagi PQ-4235-son Qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-martdagi PF-87-son Farmoni

xotin-qizlarning iqtisodiy faolligini oshirish, ularni tadbirkorlikka keng jalb etish, moliyaviy va institutsional qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirishga xizmat qilmoqda [3]. Ushbu normativ-huquqiy hujjatlar ayollar uchun biznes yuritishda teng sharoitlar yaratish, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish hamda zamonaviy iqtisodiy jarayonlarda faol ishtirok etishini ta’minlashga qaratilgan.

Biroq, raqamli iqtisodiyot asosida ayollar tadbirkorligini rivojlantirish jarayonida hali ham qator muammolar mavjud bo‘lib, ular orasida raqamli ko‘nikmalarning yetarli darajada shakllanmaganligi, moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatlarining cheklanganligi va axborot infratuzilmasining yetarlicha rivojlanmaganligi muhim o‘rin tutadi. Shu sababli mazkur yo‘nalishda chuqur ilmiy tadqiqotlar olib borish, mavjud muammolarni tahlil qilish va ularni bartaraf etish bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Ushbu ilmiy maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida ayollar tadbirkorligini rivojlantirishning huquqiy-normativ asoslari, mavjud imkoniyatlar va muammolar tahlil qilinadi hamda ularni samarali hal etish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Raqamli iqtisodiyot va ayollar tadbirkorligini rivojlantirish masalalari so‘nggi yillarda ilmiy tadqiqotlarning muhim yo‘nalishiga aylangan. Xalqaro va mahalliy olimlar tomonidan ushbu mavzu turli jihatlarda o‘rganilgan.

Xususan, Jumayeva M.A. o‘z tadqiqotlarida raqamli iqtisodiyot ayollar tadbirkorligi uchun yangi imkoniyatlar yaratishini, ayniqsa onlayn platformalar orqali biznes yuritish samaradorligi oshishini ta’kidlaydi [4]. Turakulova M.T. esa ayollar tadbirkorligini rivojlantirishda davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarining ahamiyatini asoslab beradi [5].

Shuxratova Z.A. va hamkorlarining ilmiy ishlarida iqtisodiyotni raqamlashtirish jarayonlari innovatsion rivojlanishning muhim omili sifatida baholanib, uning tadbirkorlik faoliyatiga ijobiy ta’siri ko‘rsatib o‘tilgan [6]. Shuningdek, boshqa tadqiqotlarda raqamli texnologiyalar kichik biznes subyektlari uchun xarajatlarni kamaytirish va bozorga kirishni osonlashtirish imkonini berishi qayd etilgan [8].

Xalqaro tadqiqotlarda ham ushbu masala keng yoritilgan. Jumladan, World Bank hisobotlarida ayollar tadbirkorligini rivojlantirish iqtisodiy o‘sishning muhim omili sifatida e’tirof etilgan [11]. UN Women tashkiloti esa raqamli iqtisodiyot sharoitida gender tengligini ta’minlash muhimligini ta’kidlaydi [12].

Shu bilan birga, mavjud tadqiqotlarda ayollarning raqamli ko‘nikmalari yetarli darajada rivojlanmaganligi, moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatlari cheklanganligi kabi muammolar ham qayd etilgan [9]. Bu esa mazkur yo‘nalishda qo‘shimcha ilmiy izlanishlar olib borish zarurligini ko‘rsatadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur ilmiy maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida ayollar tadbirkorligini rivojlantirish jarayonlarini o‘rganishda bir qator ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida tahlil va sintez usuli, taqqoslash usuli, statistik tahlil usuli, mantiqiy tahlil metodlar qo‘llanildi.

Tadqiqotning axborot bazasini O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari, davlat statistik ma’lumotlari, xalqaro tashkilotlar hisobotlari hamda mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy ishlari tashkil etdi. Mazkur metodologiya asosida raqamli iqtisodiyotning ayollar tadbirkorligiga ta’siri kompleks ravishda o‘rganilib, amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tahlil va natijalar. Raqamli iqtisodiyot inson faoliyati doirasidagi barcha informatsiyani raqamlashtirish texnologiyalarini qo‘llab saqlash, ishlov berish va uzatishning yagona tizimi sifatida iqtisodiyotni raqamlashtirish orqali ijodiy yondashib yangi iqtisodiyotni barpo etish imkoniyatlari bir nechta odamlar moddiy mahsulotlardan foydalana olmaydilar, chunki raqamli mahsulotlarning bunday to‘siqlari yo‘q: nusxa ko‘chirish va cheksiz odamlar doirasiga taqsimlanishi mumkin.

Raqamli iqtisodiyot - bu axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan holda ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste’mol jarayonlarini amalga oshirish tizimidir.

Raqamli iqtisodiyotning asosiy xususiyatlari:


- internet va platformalarga asoslangan faoliyat;
- tezkorlik va qulaylik;
- xarajatlarning kamayishi;
- global bozorlarga chiqish imkoniyati.

Bugungi kunda elektron tijorat (e-commerce), freelancing, onlayn xizmatlar va startap loyihalar raqamli iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismlariga aylangan.

Raqamli mahsulotlar asl xususiyatlarini yo‘qotmaydi, shuningdek, bu xususiyatlar birgalikda ishlash yoki almashinuv jarayonida yaxshilanishi mumkin. Raqamli iqtisodiyot korrupsiya va «yashirin iqtisodiyot»ning asosiy kushandasidir. Axborot-kommunikatsiya maydonchalari odatiy savdo binolarida mavjud bo‘lgan maydonlarning hajmiga cheklovlar va shu bilan birga bir vaqtning o‘zida xizmat ko‘rsatadigan mijozlarning soni va miqdori jihatidan cheklanishlarini oldini oladi. Keyingi yillarda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, faol tadbirkorlikni, xususan, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash orqali ayollarni mehnat bilan band qilish sharoitlarini yaratish borasida tizimli chora-tadbirlar olib borilmoqda. Uning ahamiyati yurtboshimiz ta’kidlaganidek “Meni kishilarimizning ongida paydo bo‘lgan stereotip ko‘p o‘ylantiradi. Odatda biz ayolni avvalambor ona, oila qo‘rg‘onining qo‘riqchisi sifatida hurmat qilamiz. Bu, shubhasiz, to‘g‘ri. Ammo bugun har bir ayol oddiy kuzatuvchi emas, balki mamlakatda amalga oshirilayotgan demokratik o‘zgarishlarning faol va tashabbuskor ishtirokchisi ham bo‘lishi kerak”.

Ayollar tadbirkorligi iqtisodiy o‘sishning muhim omillaridan biri bo‘lib quyidagilarga (1-rasm) asos bo‘ladi.

Ayollar tadbirkorligi bugungi globallashuv sharoitida faqat gender tengligi masalasi bo‘lib qolmay, balki milliy va global iqtisodiy rivojlanish strategiyalarining muhim tarkibiy qismiga aylangan. Ayollar boshqaruvidagi bizneslar ish o‘rinlari yaratish, innovatsiyalarni rag‘batlantirish va moliyaviy resurslardan samarali foydalanish orqali iqtisodiyotning o‘sish dinamikasini kuchaytirishi mumkin.



1-rasm. Ayollar tadbirkorligini rivojlantirishning ahamiyati[75]

Shu nuqtayi nazardan, “ayollar tadbirkorligi” degan tushuncha investitsiya, siyosat va jamiyat darajasida prioritetga aylanmoqda.Xususan, ayollarning tadbirkorlikka kirishi global miqyosda taxminan 43 % darajasida bo‘lib, bu iqtisodiy ishtirokning kengayganligini ko‘rsatmoqda (Go-Beyond, 2025). O‘zbekistonda ham ayollar boshqaruvidagi kichik va mikrofirmalar soni 2025-yil boshida 43 860 taga yetib, 2024-yilda esa ayollar rahbarligidagi korxonalarning sof foydasi 4,2 trln so‘mga teng bo‘lgan. Bu holatlar ayollar tadbirkorligining o‘ziga xos strategik ahamiyatga ega ekanligini isbotlaydi (1-jadval).

1-jadval

O‘zbekistonda ayollar tadbirkorligi bo‘yicha asosiy statistik ko‘rsatkichlar taqqoslanishi (2024 va 2025-yillarda)[76]

Ko‘rsatkich	2024-yil	2025-yil	O‘zgarish
Ayol tadbirkorlar umumiy soni	2,1 mln	2,2 mln	+0,1 mln
Ayollar rahbarligidagi kichik korxona va mikrofirmalar	41 249 ta	43 860 ta	+ 2 611ta (+6,3%)
Qashqadaryo viloyati misolida korxonalar	1879 ta	2 000 ta	+121 ta
Ayollar ulushi (tadbirkorlar ichida)	40%	43%	+3 %
Ayollar boshqaruvidagi bizneslar foydasi	4,2 trln so‘m	oshib bormoqda	ijobiy trend

Raqamli iqtisodiyot sharoitida ayollar uchun quyidagi imkoniyatlar yaratiladi:

- uyda turib biznes yuritish;
- kichik kapital bilan faoliyat boshlash;
- ijtimoiy tarmoqlar orqali savdo qilish;
- xalqaro bozorlarga chiqish.

Masalan, Instagram, Telegram va marketplace platformalari orqali ko‘plab ayollar o‘z bizneslarini yo‘lga qo‘ymoqda.


Ayollarning ish bilan bandligi darajasi global miqyosda kamayish tendensiyasiga ega. Jahon miqyosida ayollarning mehnat bozoriga kirish imkoniyatlari erkaklarnikidan 27 foizga past. Ayollar erkaklarga nisbatan ko‘proq

[75] Tadqiqotchi tomonidan ishlab chiqilgan.
[76] Stat.uz ma’lulotlari asosida muallif ishlanmasi.

ishsiz bo‘lib, global ishsizlik erkaklar uchun 5,5 foizga, ayollar uchun 6,2 foizga teng. Bu esa xotin-qizlarning bandlik darajasini tarmoqlar bo‘yicha kengaytirish, mehnat munosabatlarida gender tengligi darajasiga erishish bo‘yicha alohida yondashuv talab qiladi.

Ayollar rahbarligidagi kichik korxona va mikrofirmalar soni 6,3 % ga oshdi.

Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2025-yilning 1-yanvar holatiga O‘zbekistonda tadbirkor ayollar rahbarligidagi kichik korxona va mikrofirmalar soni 43 860 tani tashkil etgan (2-jadval). Ushbu ko‘rsatkich 2024 yil bilan solishtirilganda 2 611 taga oshgan.



2-rasm. Tadbirkor ayollar rahbarligidagi kichik korxona va mikrofirmalar soni hududlar kesimida[77]

Bizning fikrimizcha ayol ona, ishchi, xodim va uy bekasi, bu ikki taraflama og‘irlikni birga qo‘shib olib borish uchun ayollarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash lozim bu jarayonni gender tengligi darajasida o‘rganib, nafaqat ijtimoiy ishlab chiqarishda ish bilan bandlik balki, ularning oilaviy muammolar, bolalar tarbiyasi bilan mashg‘ulligini yengillatish kerak. Ayol ikki vazifani – kasb va onalikni qo‘shib olib borishi sababli ayolning ishchi kuchi ish beruvchi uchun kamroq e’tibor qaratiladigan ishchi kuchidir. Ish bilan bandlikning erkaklar va ayollarga kasb, oila majburiyatlarini qo‘shib olib borish imkoniyatini beruvchi yangi modellarini yaratishga tashkiliy, qonun chiqarish yo‘li bilan ko‘maklashish maqsadga muvofiq ko‘rinadi, bu esa ayollarga erkaklar qatori kasbiy sohalarida qolish, xizmat pog‘onalari bo‘ylab ko‘tarilish hamda o‘z oilaviy majburiyatlarini bajarish imkonini beradi.


Olib borilgan tadqiqotlarga asoslanib ta’kidlash lozimki, zamonaviy mehnat bozorining globallashuvi raqamlashtirish va axborot –kommunikatsiya texnologiyalarining kirib kelishi ayollar mehnatining o‘ziga xos yondashuvlarini

[77] Stat.uz ma’lumotlati asosida muallif ishlanmasi

keltirib chiqaradi. Aloqa va axborotlashtirish bo‘yicha respublikada gender tengligi nuqtayi-nazaridan ma’lumotlar yuritilmaydi, ularning raqamlashtirish bo‘yicha bilimlari, ularning axborotlarni qabul qilishi, bu boradagi ko‘nikmalarni puxta egallashi va umuman mazkur sohadagi bandligini tahlil qilish qiyin jarayon hisoblanadi. Bu mulohazali holatlarni o‘rganish, raqamli mehnat munosabatlari ko‘nikmalariga ega ayollarning masofaviy bandlik borasida faol chora-tadbirlar, tushuntirish ishlari olib borish lozim deb hisoblaymiz. Chunki, ular orasida masofaviy ish bilan bandlikning keng tarqalishi ham oila, ham farzandlar tarbiyasini birga qo‘shib olib borish, oilaviy munosabatlarni mustahkamlash, oilaviy ajrimlar sonining keskin kamayishi, oilaviy daromadlarni oshirishga erishishga imkoniyatlar yaratadi.

Shuningdek, intellektual talab va taklifning mutanosibligi darajasi aynan masofaviy samarali ish bilan bandlikni rivojlantirishga shart-sharoit yaratadi. Ekspertlarning aytishicha, raqamli dunyoda inson resurslaridan samarali foydalanish, kadrlar salohiyatini rivojlantirish va bu borada xalqaro standartlarni joriy etish, aynan, rivojlanayotgan mamlakatlarda tezkor investitsiyaviy jozibadorlikni oshirishga zamin yaratadi.

Mamlakatimizda ayollar tadbirkorligini rivojlantirish bo‘yicha bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda: imtiyozli kreditlar ajratilmoqda; kasb-hunar va biznes ko‘nikmalari o‘rgatilmoqda; startap loyihalar qo‘llab-quvvatlanmoqda; raqamli texnologiyalarni o‘rgatish kurslari tashkil etilmoqda. Natijada ayollar tadbirkorlar soni yildan-yilga ortib bormoqda**.** Shunga qaramay, quyidagi muammolar (3-rasm) mavjud.



3-rasm. Mavjud muammolar tahlili[78]

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, raqamli iqtisodiyot ayollar tadbirkorligini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda. Ushbu imkoniyatlardan samarali foydalanish orqali nafaqat ayollar bandligini oshirish, balki mamlakat iqtisodiy rivojlanishiga ham katta hissa qo‘shish mumkin.

Kelgusida raqamli texnologiyalarni yanada keng joriy etish va ayollarni

[78] Tadqiqotchi tomonidan ishlab chiqilgan.

qo‘llab-quvvatlash orqali ushbu sohani yangi bosqichga olib chiqish mumkin.

Zamonaviy iqtisodiyot sharoitida ayollar orasida tadbirkorlikni rivojlantirish uchun raqamlashtirish natijalarida quyidagi chora-tadbirlarga alohida e’tibor qaratish lozim:

- hududlarda ayollarning innovatsion va raqamli ko‘nikmalarni shakllantirish hamda masofaviy ish bilan bandlikni rivojlantirish asosida raqobatbardosh mutaxassislarni tanlab olishning yuqori imkoniyatini ta’minlash;
- har bir mahallada mehnatga layoqatli ayollar uchun raqamli kompetensiyalar, jumladan turli dasturiy ta’minot bilan ishlash, dasturlash ilmini chuqur o‘rgatishga asoslangan qisqa muddatli kurslarni tashkil qilish;
- iste’molchilar, ishlab chiqaruvchilar, vositachilar o‘rtasidagi axborot mahsulotlari bozorini masofaviy ishlashiga erishish;
- raqamli ko‘nikmalarga ega bo‘lgan ayollar uchun masofaviy ish o‘rinlari yaratish orqali axborot sohasida band ayollar ulushini oshirish;
- mehnat bozoriga birinchi marta kirib kelayotgan yosh ayollarni zamonaviy raqamli ko‘nikmalar layoqatiga ega ruhda tarbiyalash asosida kasbiy ko‘nikmalarini shakllantirish.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son Farmoni “Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 7-martdagi PQ-4235-son Qarori “Xotin-qizlar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-martdagi PF-87-son Farmoni “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”.
4. Jumayeva M.A. Ayollar tadbirkorligini rivojlantirishda raqamli iqtisodiyotning o‘rni // “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” jurnali, 2022.
5. Turakulova M.T. Raqamli iqtisodiyot sharoitida ayollar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash // ilmiy-amaliy konferensiya materiallari, 2024.
6. Shuxratova Z.A., Iskandarov Sh. O‘zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy sohalarni innovatsion rivojlantirish va raqamlashtirish odimlari // “Fan va jamiyat” jurnali, 2025.
7. Raqamli iqtisodiyot sharoitida tadbirkorlik subyektlarining raqamli kompetensiyasini rivojlantirish // “Raqamli iqtisodiyot” jurnali, 2024.
8. Raqamli iqtisodiyot sharoitida tadbirkorlik va kichik biznesni rivojlantirish istiqbollari // ilmiy maqola, 2024.
9. Dilafruz S., Shaxnoza G. Raqamli tadbirkorlik muammolari. 2023.
10. World Bank. (2021). Women, Business and the Law.
11. UN Women. (2020). Gender Equality in the Digital Economy.

INNOVATSION TADBIRKORLIK, KICHIK VA O‘RTA BIZNES RIVOJLANISHI

Muminova Madinaxon Doniyor qizi
O’zbekiston Respublikasi Bank-Moliya Akademiyasi
MBA magistratura talabasi,
Toshkentdagi Singapur Menejmentni Rivojlantirish Instituti,
yetakchi mutaxassis
ORCID: 0009-0003-1302-9363

Annotatsiya. Mazkur maqolada O’zbekistonda kichik va o’rta biznes (KO’B)ning rivojlanishida davlatning roli haqida o’rganildi. Shu bilan birga KO’B faoliyatlarining rivojlanish yo’lida, hozirda mavjud kamchilik va muammolar ham tahlil qilindi. Davlat o’rnatgan siyosatning samaradorligi, KO’B faoliyatini kengaytirish uchun raqamli iqtisodiyotdan keng foydalanish usullari, KO’B uchun zarur bo’lgan zamonaviy texnologiyalar haqida izlanishlar olib borildi. Maqola tadbirkorlar uchun foydali bo’lib, ilmiy jihatdan xulosalar va takliflar berilgan.

Kalit so’zlar: kichik va o’rta biznes (KO’B), davlat siyosati, samaradorlik, texnologiya, kamchilik va muammolar.

Kirish. Hozirgi davrga kelib nafaqat O‘zbekiston Respublikasida balki ko‘plab davlatlarda ayniqsa global iqtisodiyot rivojlanish davrida kichik va o‘rta biznes (KO‘B)ning ahamiyati katta. Hozirgi global davrda KO‘B aholi uchun yangi va ko‘p tarmoqli bo‘sh ish o‘rinlari yaratilishida, aholining daromad ko‘rsatkichlari ijobiy o‘zgarishida hamda iqtisodiyotga sezilarli darajada foyda keltirishida muhim sanalmoqda. Shulardan misol qiladigan bo‘lsak, keng imkoniyatlar, imtiyozlar, tadbirkorlar uchun yaratilayotgan davlat dasturlari. Lekin yetarli imkoniyatlar va qulayliklar yaratilishiga qaramay, samaradorlik KO‘Bga qay darajada ijobiy ta’sir ko‘rsatayotgani haqida ilmiy tahlillar yetarli emas. Shu masalaning o‘zi ham mavzuning qanchalik dolzarbligini bildiradi.

Tadqiqotdan ko‘zlangan maqsad O‘zbekistonda KO‘B rivojida davlat siyosatining rolini tahlillar orqali o‘rganish va uning samaradorligini baholash bilan birga KOB ning yanada rivoji uchun takliflar ishlab chiqishdan iborat.

So’nggi yillarda KO’B taraqqiyoti muhim rol o’ynamoqda. Bunga sabab hozirgi kunga kelib KO’B davlatning rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko’rsatmoqda va shu bilan birga raqobat ham rivojlanmoqda bu esa raqobatbardosh iqtisodiyotni yaratishga yanada keng imkoniyat va davlat farovonligi yo’lida muhim omillardan biri bo’lib kelmoqda. Shu sababli davlatimiz rahbari ham KO’B rivojlanishiga alohida e’tibor qaratmoqdalar. (Umurzakov va Toshboyev, 2014)

Tadqiqot zamini misolida hozirgi kunda KO’B rivoji uchun olib borilayotgan keng ko’lamdagi davlat siyosati, moliyaviy barqarorlik, turli xil islohotlarni ko’rish mumkin. Shu bilan birga davlatimiz rahbari tomonidan ishlab chiqilgan qarorlar, sohaga oid turli siyosiy manbalar va xorij tajribasidan ham kerakli ma’lumotlardan foydalanilgan. Ushbu tadqiqotni amalga oshirish jarayonida iqtisodchilar, olimlar va tadqiqotchilarning ilmiy ishlari tahlil qilindi. KO’B rivojlanishida davlat

siyosatining o’rni haqida ko’plab mahalliy va xorijiy olimlar fikrlari ko’rib chiqilgan.

Adabiyotlar tahlili. Kichik va o’rta biznes jahon iqtisodiyotida aholi uchun bo’sh ish o’rinlari yaratilishida ishtirok etuvchi keng miqyosdagi loyihalar, eksportchilar sifatida muhim rol o’ynaydi. Chunki ular yirik korxonalarga qaraganda faolroq hisoblanadi. Sababi yirik korxonalarda katta hajmdagi texnologiyalar jadal rivojlangan bo’lsa, KO’B lar bu holatga kamroq tayanadi, ularda ishchi kuchiga bo’lgan talab faolroq. (Buckley, 1998)

Rossiyalik olimlar ham KO’B rivojlanish funksiyalariga alohida ahamiyat berishgan. Tadqiqotchilarning yozishicha Rossiyalik olimlarning fikriga ko’ra rivojlangan davlatlarda xo’jalik yurituvchi subyektlarning 70% ni kichik bizneslar

tashkil etadi. Bu kabi ijobiy biznes ko’rsatkichlar mamlakatdagi aholi bandligi va daromadlarini ko’payishiga katta turtki bo’libgina qolmay, aholi farovonligi sezilarli darajada oshishida zarurligi aytib o’tilgan. (Toxirov, 2024)

M. Ishaq Bhatti, H. M. Awan , Z. Razaq muallifligida yozilgan tadqiqotida ko’plab mualliflar tomonidan korxonaning samaradorlik o’lchov ko’rsatkichlarini turli xil toifalari ko’rsatilgan. Ya’ni bu ko’rsatkichlarning 2 ta asosiy guruhi mavjud bo’lib birinchisi, moliyalashtirishga asoslangan ko’rsatkich bo’lsa, ikkinchisi esa moliyaviy ko’rsatkichga asoslanmagan samaradorlik ko’rsatkichi deb ta’riflangan. Tadqiqotchilarning yozishicha White (1996) ning fikriga ko’ra moliyaviy ko’rsatkichlar ya’ni - yetkazib berish ishonchliligi, sifat, vaqt bo’lsa, shu korxona yoki firma faoliyatining ko’p holatlarda qabul qilingan ko’rsatkichlari hisoblanadi degan.


Ammo M. Ishaq Bhatti, H. M. Awan , Z. Razaqning tadqiqotida boshqa mualliflar ya’ni Sinclair va Zairi (1995) ikkinchi tomondan mijozning qoniqish hosil qilishi, moliyaviy, ijtimoiy va mahsuldorlik ko’rsatkichlari, atrof-muhit va xavfsizlikni ko’pgina korxonalar tomonidan qo’llanib kelinayotgan samaradorlik ko’rsatkichi sifatida topdilar. (Bhatti va bshq, 2014)

Davlat siyosatining o’rni va yordamini tadbirkorlar va KO’B subyektlari uchun yaratilayotgan keng imkoniyatlar misolida ko’rish mumkin. Mamlakat iqtisodiyotining rivoji uchun davlat KO’Bga yordam berishi zarur, chunki KO’Blar davlat rivojlanishida faol ishtirokchilar hisoblanadi. Bunga sabab shuki, ular katta korxona va firmalarga qaraganda ichki imkoniyatlari biroz kamroq. (Sudibyo va bshq., 2023)

KO’Blarning rivojlanishida horijiy investitsiyalar ham alohida o’rin egallaydi, zero bu investitsiyalar kelajakdagi tajriba va eksport salohiyatini ham rivojlantiradi. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tadbirkorlar bilan bo’lib o’tgan ochiq muloqotda ham “Yangi O‘zbekiston qurish yo‘lida g‘oyat muhim va hal qiluvchi bosqichga qadam qo‘yyapmiz, sizlarning fidoyi mehnatingiz, innovatsion fikringiz, yondashuvingiz har qachongidan ham muhimroq va bu borada barcha soha vakillariga o‘rnak bo‘lishingizga ishonaman”, deb ta’kidladi. (Hamraev va Yuldasheva, 2023)

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2025 yildagi tadbirkorlar bilan bo’lib o’tgan V ochiq muloqotida KOB uchun tijorat banklari

tomonidan 250 trillion so’m, dastur doirasida 30 trillion so’m ajratilishini ta’kidlab o’tdi. “Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi” AJ tomonidan kamida 5 mingta tadbirkorlik loyihalarini amalga oshirish uchun – 4 trillion so‘mlik moliyaviy qo‘llab-quvvatlash choralari amalga oshirilishi joriy qilindi. (Mirziyoyev, 2026)



1- rasm. O’zbekiston raqamli iqtisodiyotida 2019-2025 yillar oralig’idagi keskin o’sish

Manbaa: (Ashurbayev va Ismailova, 2026)

So’nggi yillarda raqamli iqtisodiyot dolzarb ahamiyatga ega bo’lib kelmoqda. O’zbekiston raqamli iqtisodiyotda ko’plab yangiliklar va yutuqlarga erishib, Markaziy Osiyo mamlakatlari ichida ham raqamli markaz sifatida tanilmoqda. 2025-yil holatiga ko’ra internetga kirish 94.2 % ni tashkil etib, internet foydalanuvchilar soni 32.7 millionga yetdi. Bu esa 2019 yilga nisbatan sezilarli darajada raqamli iqtisodiyotning barqaror o’sishini ko’rsatmoqda. Raqamli iqtisodiyot bo’yicha O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Raqamli O‘zbekiston-2030” strategiyasi har tomonlama qo‘llab-quvvatlanadi. Bu tizim 1600 dan ko’p loyihalarni o’z ichiga oladi. Bulardan misol 29 ta tumanda elektron kasalxonalar, raqamli texnologiyalarni qamrab oluvchi pilot tashabbuslar ishlab chiqarish. Raqamli iqtisodiyotda bu kabi loyihalar davlat rivojiga, kichik va o’rta biznes subyektlarini kengayishiga hamda katta ko’lamdagi moliyaviy qarorlarni qabul qilishda samara beradi. (Ashurbayev va Ismailova, 2026)


Mazkur tadqiqot jarayonida ilmiy manbalar tahlil qilindi, olimlar va tadqiqotchilarning fikrlari solishtirildi. Adabiyotlar sharhida mavzuning nazariy tomonlari yoritilib turli davlatlardagi mavjud bo’lgan turli ilmiy qarashlar, o’xshash yoki umumiy tomonlari o’rganildi.

Tadqiqot metodologiyasi. Bu tadqiqot O‘zbekistonda kichik va o‘rta biznesni rivojlantirishda davlat siyosatining o‘rnini o‘rganish va ko‘rsatkichlarni aniqlashdan iborat bo‘lib, 2xil usuldan foydalaniladi ya’ni, aralash tadqiqot sifatida olib boriladi.

1 - usul: Miqdoriy
2 - usul: Sifat

Aralash tadqiqotda bu ikki usul birlashtirilganda, tadqiqot yanada ishonchli bo‘ladi. Chunki bu tadqiqotda 2 xil usul yordamida o‘rganilayotgan obyektning kuchli va zaif tomonlari o‘rganiladi hamda, triangulyatsiya usuli orqali ma’lumotlar solishtiruvi va birlashtiruvi tadqiqotni boyitadi. Ushbu triangulyatsiya yondashuvi tadqiqot ishonchliligini oshiradi. Tadqiqotchi to‘plagan ma’lumotlarini taqqoslashi bilan birgalikda ular asosida yanada ishonchliroq xulosa qilish imkoniyati paydo bo‘ladi. (Meydan, 2024)

Tahlil va natijalar. So’nggi ma’lumotlarga ko’ra KO’B soni yildan yilga o’sib bormoqda va iqtisodiyotda bunday ko’rsatkichlar ijobiy natijalar bermoqda. Olib borilgan tahlil natijalariga ko’ra davlat ishtirokining roli va olib borayotgan siyosati sabab KO’Blarning rivojlanishida sezilarli o’zgarishlar kuzatilmoqda. Bularga soliq imtiyozlari, innovatsion muhitga erkin kira olish imkoniyati va raqamli texnologiyalarni keng qo’llash kabilar misol bo’ladi. Innovatsion faoliyat bilan shug’ullanayotgan tadbirkorlik subyektlari keng ko’lamda rivojlanib kelmoqda. Masalan IT sohasida ish yuritayotgan korxonalar eng yuqori natijalar ko’rsatmoqda.



2-rasm. Innovatsion tadbirkorlik (O’zbekistonda)

Manbaa: O‘zbekiston Respublikasi Milliy Statistika Qo‘mitasi

Tahlil jarayonidan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, O’zbekistondagi rivojlanishning sezilarli qismi KO’Blarning barqaror ijobiy o’sish ko’rsatkichlari bilan bog’liq. Chunki davlatning modernizatsiya jarayonida davlatning turli sohalari rivojlanishi muhim o’rin egallaydi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda aynan raqamli iqtisodiyot nafaqat KO’B subyektlarida balki, ko’plab sohalarda keng qo’llanilishi ko’rsatildi. KO’B subyektlari yirik korxonalarga nisbatan moliyalashtirishning cheklanganligi yoki boshqa bir qator muammolar uchrab turishiga qaramay hozirga kelib sezilarli darajada rivojlanishlar sari bormoqda. Ko’plab mamlakatlarda hukumat darajasida ham tan olinmoqda va KO’B larni rivojlantirish siyosati keng tatbiq etilmoqda. Bundan tashqari KO’B subyektlari aholi bandligi va daromadini oshirishda eng muhim omillardan biri bo’lib sanalmoqda. KO’B faoliyatlari rivojlanishi uchun davlat siyosati mazkur sohaning rivojiga ulkan hissa qo’shmoqda. Adabiyotlar sharhi tamoyilida O’zbekistonda KO’B rivoji uchun olib borilayotgan

islohotlar o’z samarasini berishni boshladi. Soliq imtiyozlari, moliyaviy ko’maklar, erkin tadbirkorlik muhitini kengaytirishga qaratilgan islohotlar sohaning rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko’rsatmoqda, yanayam keng tatbiq etish uchun innovatsion yondashuvlarni ham joriy etish maqsadga muvofiq bo’ladi.
Yuqorida berilgan xulosalar keyinchalik shu sohada olib boriladigan ilmiy tadqiqotlarda nazariy asos sifatida xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Ashurbayev, O. и Ismailova, G. (2026) «The effect of digital marketing on competitiveness of business and potential implementation in businesses of Uzbekistan». Доступно на: https://doi.org/10.5281/zenodo.18288945.

Buckley, P.J. (1998) «International Technology Transfer by Small and Medium-Sized Enterprises», в P. J. Buckley, International Strategic Management and Government Policy. London: Palgrave Macmillan UK, cc. 78–95. Доступно на: https://doi.org/10.1007/978-1-349-26646-3_5.

2.Hamraev, O. и Yuldasheva, N. (2023) «О мерах по поддержке малого и среднего бизнеса в Республике Узбекистан», «Science and Education» Scientific Journal, 4(3). Доступно на: https://cyberleninka.ru/article/n/o-merah-po-podderzhke-malogo-i-srednego-biznesa-v-respublike-uzbekistan-v-2022-2026-godah/viewer.

3.Ishaq Bhatti, M., Awan, H.M. и Z. Razaq (2014) «The key performance indicators (KPIs) and their impact on overall organizational performance», Quality & Quantity, 48(6), cc. 3127–3143. Доступно на: https://doi.org/10.1007/s11135-013-9945-y.

4.Meydan (2024) «The Role of Triangulation in Qualitative Research: Converging Perspectives», Principles of Conducting Qualitative Research in Multicultural Settings. Turkey: IGI Global, c. 32. Доступно на: https://doi.org/10.4018/979-8-3693-3306-8.ch006.

5.Mirziyoyev, S.M. (2026) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan V ochiq muloqotida belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. Доступно на: https://president.uz/oz/lists/view/8394 (Просмотрено: 21 январь 2026 г.).

6.Sudibyo, N.A. и др. (2023) «The Rise of ASEAN SMEs: How to Successfully Enter the Global Market». Business, Economics and Management. Доступно на: https://doi.org/10.20944/preprints202307.1505.v1.

7.Toxirov, R. (2024) «Mamlakatimizda hududiy miqyosda kichik biznesga sarmoya kiritish bo‘yicha tadqiqotlar», University Research Base, cc. 314–318.

8.Umurzakov, U.P. и Toshboyev, A.J. (2014) Kichik biznes va tadbirkorlik. Toshkent: Sano-standart nashriyoti.

BANK SEKTORIDA SUN’IY INTELLEKT VA FINTECH TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA KICHIK VA O‘RTA BIZNESNI MOLIYALASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH

Xudoyberdiyev Ismoiljon Abbos o’g’li
O‘zbekiston Respublikasi Bank-Moliya akademiyasi magistranti
ORCID: 0009-0009-6198-8466

Annotatsiya. Mazkur maqolada bank sektorida sun’iy intellekt va FinTech texnologiyalaridan foydalanish orqali kichik va o‘rta biznesni moliyalashtirish tizimini takomillashtirish masalasi o‘rganilgan. Tadqiqotning asosiy maqsadi raqamli texnologiyalar yordamida kreditlash jarayonlarini optimallashtirish va moliyaviy xizmatlar samaradorligini oshirishdan iborat. Muammo dolzarbligi KOB subyektlarining moliyalashtirish resurslariga kirish imkoniyatlari cheklanganligi bilan izohlanadi. Tadqiqotda qiyosiy tahlil va tizimli yondashuv metodlaridan foydalanilgan. Natijada sun’iy intellekt asosidagi kredit skoring, alternativ ma’lumotlar va embedded finance mexanizmlarining samaradorligi asoslab berildi. Ilmiy yangilik sifatida FinTech va AI integratsiyasi asosida KOB moliyalashtirish modelini takomillashtirish yo‘llari ishlab chiqildi.

Kalit so’zlar: Sun’iy intellekt, FinTech, kichik va o‘rta biznes, kredit skoring, alternativ ma’lumotlar, embedded finance, raqamli bank xizmatlari, moliyalashtirish, bank sektori, risk boshqaruvi, raqamli transformatsiya.

Kirish. Hozirgi kunda raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi bank sektorida tub o‘zgarishlarni talab qilmoqda. Ayniqsa, kichik va o‘rta biznesni moliyalashtirish jarayonida an’anaviy kreditlash tizimining cheklovlari yaqqol sezilmoqda. Yuqori garov talablari, kredit ajratish jarayonining uzoq davom etishi hamda riskni baholashda an’anaviy usullarga tayanish KOB subyektlarining moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatlarini cheklaydi.

Shu sababli sun’iy intellekt va FinTech texnologiyalarini bank tizimiga keng joriy etish dolzarb masalaga aylanmoqda. Ushbu texnologiyalar kredit skoringni avtomatlashtirish, alternativ ma’lumotlardan foydalanish hamda moliyaviy xizmatlarni raqamli platformalarga integratsiya qilish orqali moliyalashtirish jarayonlarini sezilarli darajada takomillashtirish imkonini beradi.

Mazkur maqolada bank sektorida sun’iy intellekt va FinTech yechimlari asosida kichik va o‘rta biznesni moliyalashtirishni rivojlantirish yo‘nalishlari tahlil qilinadi.

Adabiyotlar sharhi. Mavzuga oid xorijiy adabiyotlarda sun’iy intellekt va FinTech texnologiyalarining bank sektoriga ta’siri keng yoritilgan. Jumladan, Arner, Barberis va Buckley (2020) FinTech rivojlanishi moliyaviy xizmatlarni raqamlashtirish va risklarni boshqarishda yangi yondashuvlarni shakllantirishini ta’kidlaydi. Ularning fikricha, raqamli texnologiyalar an’anaviy bank tizimining samaradorligini oshiradi [1].

OECD (2022) hisobotida kichik va o‘rta biznesni moliyalashtirishda raqamli platformalar va alternativ ma’lumotlardan foydalanish kredit olish imkoniyatlarini

kengaytirishi qayd etilgan [2]. Shuningdek, World Bank (2023) tadqiqotlarida FinTech yechimlari rivojlanayotgan mamlakatlarda moliyaviy inklyuziyani oshirishi asoslab berilgan [3].

McKinsey & Company (2023) tahlillarida esa sun'iy intellekt asosidagi kredit skoring tizimlari an'anaviy risk baholash usullariga nisbatan ancha aniq va tezkor ekani ko‘rsatilgan [4]. KPMG (2022) hisobotida FinTech va Big Data texnologiyalarining bank xizmatlarini transformatsiya qilishdagi roli yoritilgan [5].

Mahalliy olimlar orasida Zokirov (2020) raqamli moliya texnologiyalarining O‘zbekiston bank tizimiga joriy etilishi moliyaviy xizmatlar sifatini oshirishini ta'kidlaydi [6]. Biroq mavjud tadqiqotlarda sun'iy intellekt, alternativ ma'lumotlar va embedded finance integratsiyasi asosida KOB moliyalashtirish modelini kompleks yondashuvda o‘rganish yetarli darajada yoritilmagan.

Shu jihatdan ushbu maqolada aynan AI va FinTech texnologiyalarining birgalikdagi ta'siri asosida kichik va o‘rta biznesni moliyalashtirishni takomillashtirish masalasi kompleks yondashuvda tahlil qilinadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur maqolada bank sektorida sun'iy intellekt va FinTech texnologiyalarining kichik va o‘rta biznesni moliyalashtirishga ta'sirini o‘rganishda kompleks metodologik yondashuv qo‘llanildi. Tadqiqot jarayonida qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv, mantiqiy umumlashtirish hamda statistik ma'lumotlarni tahlil qilish usullaridan foydalanildi.

Qiyosiy tahlil usuli orqali an'anaviy bank kreditlash modeli va sun'iy intellekt asosidagi zamonaviy kredit skoring tizimlari o‘zaro solishtirildi. Ushbu solishtirish natijasida AI asosidagi yondashuv kredit qarorlarini qabul qilishda tezkorlik, aniqlik va riskni baholash darajasi bo‘yicha ustun ekanligi aniqlandi.

Tizimli yondashuv asosida kichik va o‘rta biznesni moliyalashtirish jarayoni tarkibiy elementlar - kredit skoring, alternativ ma'lumotlar va embedded finance mexanizmlari kesimida kompleks tarzda tahlil qilindi. Bu yondashuv moliyalashtirish tizimidagi o‘zaro bog‘liqlik va institutsional aloqalarni chuqurroq tushunishga imkon berdi.

Shuningdek, tadqiqotda xalqaro tashkilotlar (World Bank, OECD, McKinsey, KPMG) hisobotlari va ilmiy adabiyotlardagi statistik ma'lumotlar tahlil qilinib, ularning natijalari umumlashtirildi. Mantiqiy umumlashtirish usuli asosida esa mavjud muammolar va ularning yechimlariga oid ilmiy xulosalar shakllantirildi.

Natijada, bank sektorida sun'iy intellekt va FinTech texnologiyalarini integratsiya qilish kichik va o‘rta biznesni moliyalashtirish samaradorligini oshirishda muhim omil ekanligi ilmiy asosda isbotlandi.


Tahlil va natijalar. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, global FinTech kreditlash bozori 2024–2033 yillarda barqaror va yuqori sur'atlarda o‘smoqda.

1-jadval va grafik ma’lumotlariga ko‘ra, global FinTech kreditlash bozori 2024 yildagi 1 159,35 mlrd dollardan 2033 yilga kelib 10 250,39 mlrd dollargacha keskin oshishi kutilmoqda, bu esa bozorda juda yuqori o‘sish sur’atlari (CAGR 27% atrofida) mavjudligini ko‘rsatadi. Grafikda ayniqsa 2027 yildan keyin o‘sish tezlashgani ko‘rinadi, ya’ni dastlab bosqichma-bosqich rivojlangan bozor keyinchalik eksponensial o‘sish fazasiga o‘tmoqda. Bu holat texnologiyalarning keng joriy etilishi, sun’iy intellekt asosidagi kredit skoring tizimlari hamda moliyaviy xizmatlarning raqamlashtirilishi bilan izohlanadi.

1-JADVAL. GLOBAL FINTECH KREDITLASH BOZORI DINAMIKASI (2024-2033)

Ko'rsatkich	2024	2025	2027	2030	2033	CAGR
FinTech kreditlash bozori (mlrd $)	1,159.35	1,477.02	2,400.00	5,200.00	10,250.39	27.40%
AI kredit skoring bozori (mlrd $)	3.6	4.8	6.5	10.2	16.2	14.40%
Embedded finance bozori (mlrd $)	107.27	142.00	250.00	588.49	941.00	32.80%
Raqamli kreditlash platformalari (mlrd $)	10.55	14.20	22.00	44.49	75.00	27.10%
KOB raqamli moliyalashtirish (mlrd $)	18.5	24.0	38.0	72.0	120.0	23.20%

Manba: SkyQuest, Grand View Research, Dataintelo, 2024-2025 hisobotlari



Shu bilan birga, embedded finance bozori ham sezilarli darajada kengayib, 2024 yildagi 107,27 mlrd dollardan 2033 yilda 941 mlrd dollarga yetishi prognoz qilinmoqda, bu esa moliyaviy xizmatlarning an’anaviy banklardan tashqariga chiqib, boshqa platformalar ichiga integratsiyalashayotganini bildiradi. Raqamli kreditlash platformalari va KOB (kichik va o‘rta biznes)ni moliyalashtirish segmentlarida ham barqaror o‘sish kuzatilib, ular iqtisodiyotning muhim drayveriga aylanmoqda.


2-JADVAL. AN'ANAVIY VA AI ASOSIDAGI KREDIT SKORING TIZIMLARINI QIYOSLASH

Ko'rsatkich	An'anaviy usul	AI asosidagi usul	Farq/Ustunlik
Bashorat aniqligi (AUC ko'rsatkichi)	0.45-0.55	0.82-0.91	+37-36 punktga yuqori
Gini koeffitsienti	0.45-0.55	0.65-0.78	+20-23 punktga yuqori
Tahlil qilinadigan o'zgaruvchilar soni	15-30 ta	5,000-15,000 ta	500x ko'proq
Kredit qarorini qabul qilish vaqti	2-4 hafta	45 soniya - 7 daqiqa	99% tezroq
Kredit tasdiqlash darajasi (KOB)	30-40%	65-85%	+35-45 punktga yuqori
Defolt darajasidagi o'zgarish	Bazaviy	-18% gacha pasayish	Risk kamayishi
Kredit berish xarajati (har bir ariza)	$2,500-4,000	$300-700	85% tejamkor
Alternativ ma'lumotlardan foydalanish	Yo'q	Ha (tranzaksiyalar, ijtimoiy, raqamli)	Keng qamrov
"Thin-file" mijozlarga xizmat	Cheklangan	90% ko'proq tasdiqlash	Moliyaviy inklyuziya
Real vaqt rejimida yangilanish	Yo'q (vaqti-vaqti bilan)	Ha (doimiy)	Dinamik baholash

Manba: World Bank, McKinsey, Dataintelo, Pulse.io tahlillari, 2024-2026

Diagramma ma'lumotlari

Ko'rsatkich	An'anaviy	AI asosidagi
Bashorat aniqligi (%)	50	86
Kredit tasdiqlash (%)	35	75



Umuman olganda, grafik tahlili shuni ko‘rsatadiki, kelajakda bank sektori faqat an’anaviy kreditlash bilan cheklanib qolmay, balki raqamli ekotizimlar, platformalar va texnologik yechimlar orqali mijozlarga xizmat ko‘rsatishga o‘tadi. Bu esa moliyalashtirish mexanizmlariga bo‘lgan talabning tobora raqamli shaklga o‘tayotganini yaqqol namoyon etadi.

2-jadval va diagramma tahlili an’anaviy hamda AI asosidagi kredit skoring tizimlari o‘rtasida nafaqat farq, balki keskin samaradorlik tafovuti mavjudligini yaqqol ko‘rsatadi. Diagrammada ko‘rinib turibdiki, AI asosidagi tizimda bashorat aniqligi taxminan 86% ga yetgan bo‘lsa, an’anaviy usulda bu ko‘rsatkich atigi 50% atrofida. Bu esa risklarni baholashda sun’iy intellekt ancha chuqur va keng qamrovli tahlil olib borishini anglatadi.

Shuningdek, kredit tasdiqlash darajasi ham sezilarli darajada oshgan: an’anaviy tizimda 35% bo‘lgan ko‘rsatkich AI yordamida 75% gacha yetmoqda. Bu holat mijozlar uchun moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatining kengayganini bildiradi. Grafikdagi ustunlar orasidagi katta tafovut aynan AI texnologiyalarining ustunligini vizual tarzda ham tasdiqlaydi.

Eng muhim jihatlardan biri – vaqt omili. Jadvalga ko‘ra, an’anaviy tizimda kredit qarorini qabul qilish 2-4 hafta davom etsa, AI asosidagi tizimda bu jarayon soniyalar yoki bir necha daqiqalar ichida yakunlanadi. Bu banklar uchun operatsion samaradorlikni keskin oshirsa, mijozlar uchun esa tezkor xizmat ko‘rsatishni ta’minlaydi.


Bundan tashqari, AI tizimlari katta hajmdagi ma’lumotlarni (minglab o‘zgaruvchilarni) qayta ishlay olishi sababli kredit riskini kamaytiradi, defolt darajasini pasaytiradi va xarajatlarni optimallashtiradi. Umuman olganda, diagramma va jadval tahlili shuni ko‘rsatadiki, AI asosidagi kredit skoring tizimlari bank sektorida nafaqat tezlik va aniqlikni, balki moliyaviy inklyuziya darajasini ham sezilarli oshiruvchi muhim omil hisoblanadi.

3-JADVAL. ALTERNATIV MA'LUMOTLARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI

Ko'rsatkich	Joriy holat	Natijaviy ta'sir	Manba
Alternativ ma'lumotlarni qo'llayotgan kreditorlar ulushi	43%	57% hali qo'llamagan	Nova Credit, 2024
An'anaviy usulga tayanuvchi kreditorlar	78%	To'liq rasm bermaydi	Nova Credit, 2024
Alternativ ma'lumotlar orqali tasdiqlash imkoniyati	90% kreditorlar	Ko'proq munosib qarzdorlar	Nova Credit, 2024
Bashorat aniqligidagi yaxshilanish	+25%	Thin-file qarzdorlar uchun	World Bank, 2026
Yangi bozorlarni qamrab olish imkoniyati	90% kreditorlar	Yoshlar, muhojirlar, thin-file	Nova Credit, 2024
Yoshlar segmentiga qiziqish	73%	Kredit tarixsiz mijozlar	Nova Credit, 2024
Muhojirlar segmentiga qiziqish	41%	Xalqaro kredit portativligi	Nova Credit, 2024
Thin-file arizachilar segmenti	39%	100 mln+ AQSh mijozlari	Nova Credit, 2024
Uchinchi tomon hamkorlik rejasi	71%	Tezroq integratsiya	Nova Credit, 2024

Foydalanis	Foiz
Qo'llayotg	43.00%
Qo'llamag	57.00%

Manba: Nova Credit - State of Alternative Data in Lending Survey, 2024



3-jadval va diagramma tahlili alternativ ma’lumotlardan foydalanish kreditlash samaradorligini sezilarli darajada oshirayotganini ko‘rsatadi, biroq bu

imkoniyatlardan hali to‘liq foydalanilmayapti. Diagrammaga ko‘ra, kreditorlarning atigi 43 foizi alternativ ma’lumotlardan foydalanmoqda, 57 foizi esa hali an’anaviy yondashuv bilan cheklanib qolgan. Bu esa bozorning yarmidan ko‘pi hali raqamli transformatsiya jarayoniga to‘liq o‘tmaganini anglatadi.

Jadval ma’lumotlari shuni ko‘rsatadiki, alternativ ma’lumotlardan foydalanish bashorat aniqligini o‘rtacha 25% ga oshiradi. Ayniqsa, “thin-file” (kredit tarixi yetarli bo‘lmagan) mijozlarni baholashda bu yondashuv muhim ahamiyatga ega bo‘lib, an’anaviy tizimda rad etilishi mumkin bo‘lgan qarz oluvchilarni aniqlash imkonini beradi. Shu orqali banklar yangi mijoz segmentlarini, jumladan yoshlar, muhojirlar va kredit tarixiga ega bo‘lmagan shaxslarni ham qamrab olish imkoniga ega bo‘ladi.

Bundan tashqari, alternativ ma’lumotlar (mobil to‘lovlar, ijtimoiy faoliyat, tranzaksiya xulq-atvori va boshqalar) asosida baholash kredit tasdiqlash jarayonini kengaytiradi va moliyaviy inklyuziyani oshiradi. Diagrammada foydalanayotgan va foydalanmayotganlar o‘rtasidagi farq esa ushbu yo‘nalishda hali katta o‘sish salohiyati mavjudligini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, AI, FinTech va alternativ ma’lumotlar integratsiyasi KOBni moliyalashtirish tizimini yanada samarali, inklyuziv va moslashuvchan qilishda muhim omil hisoblanadi. Shu bilan birga, 57% kreditor hali bu imkoniyatlardan foydalanmayotgani ushbu sohada kelgusida kengayish va rivojlanish uchun katta zaxira mavjudligini bildiradi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, bank sektorida sun’iy intellekt va FinTech texnologiyalarining joriy etilishi kichik va o‘rta biznesni moliyalashtirish tizimini sezilarli darajada takomillashtiradi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, AI asosidagi kredit skoring, alternativ ma’lumotlardan foydalanish va embedded finance modellari an’anaviy kreditlash tizimiga nisbatan tezkor, aniq va samaraliroq hisoblanadi. Bu esa moliyaviy inklyuziyani kengaytirish va tadbirkorlarning kredit resurslariga kirish imkoniyatini oshirishga xizmat qiladi.

Biroq raqamli infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi, yagona ma’lumotlar bazasining to‘liq shakllanmaganligi hamda kadrlar malakasining yetishmasligi kabi muammolar mavjud.

Shu asosda quyidagi takliflar ilgari suriladi:

- sun’iy intellekt asosidagi milliy kredit skoring tizimini joriy etish;
- alternativ ma’lumotlar bazasini kengaytirish va integratsiya qilish;
- embedded finance platformalarini rivojlantirish;
- FinTech startaplarni qo‘llab-quvvatlash va venchur moliyalashtirishni kengaytirish;
- bank xodimlarining raqamli va AI bo‘yicha malakasini oshirish dasturlarini yo‘lga qo‘yish.

Mazkur chora-tadbirlar bank sektorining raqamli transformatsiyasini tezlashtirib, kichik va o‘rta biznes rivojiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Arner, D.W., Barberis, J. and Buckley, R.P. (2020) FinTech, RegTech and the Reform of Finance. Oxford: Oxford University Press.

2. European Commission (2021) Startup Ecosystems in Europe: Policies and Practices. Brussels: European Commission.

3. KPMG (2022) Global FinTech Report 2022. Amsterdam: KPMG International.

4. McKinsey & Company (2023) The State of AI in Banking: Unlocking Value at Scale. New York: McKinsey Global Institute.

5. OECD (2022) Financing SMEs and Entrepreneurs 2022: An OECD Scoreboard. Paris: OECD Publishing.

6. World Bank (2023) Fintech and the Future of Finance: Market Trends and Policy Challenges. Washington, D.C.: World Bank Group.

7. Zokirov, F. (2020) Raqamli moliya texnologiyalari va bank tizimi. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti.

QASHQADARYO VILOYATIDA YOSHLAR TADBIRKORLIGI VA KICHIK BIZNES RIVOJLANISHINING BANDLIKKA TA'SIRI

Jumanova Zilola Olimovna
Bank-moliya akademiyasi magistranti
ORCID: 0009-0004-4067-0276

Annotatsiya. Mazkur tadqiqotda Qashqadaryo viloyatida yoshlar tadbirkorligi va kichik biznes rivojlanishining bandlikka ta'siri 2020–2025-yillar ma'lumotlari asosida ekonometrik (OLS) model yordamida tahlil qilindi. Natijalar startaplar, kichik va o'rta biznes hamda kreditlash hajmi bandlikka ijobiy va ahamiyatli ta'sir ko'rsatishini, ishsizlik esa salbiy bog'liqlikka ega ekanligini ko'rsatdi. Olingan xulosalar hududda bandlikni oshirishda yoshlar tadbirkorligi va kichik biznesni qo'llab-quvvatlash muhim omil ekanligini tasdiqlaydi.

Kalit so'zlar: yoshlar tadbirkorligi, kichik biznes, bandlik, startaplar, kreditlash, Qashqadaryo viloyati

Kirish. Bugungi globallashuv va raqamli iqtisodiyot sharoitida kichik va o'rta biznes (KOB) iqtisodiy o'sish va bandlikni ta'minlashning asosiy drayverlaridan biri hisoblanadi. Xususan, yoshlar tadbirkorligi innovatsion g'oyalarni amaliy biznes faoliyatiga aylantirish orqali yangi ish o'rinlari yaratishda muhim rol o'ynaydi.

O'zbekistonda so'nggi yillarda tadbirkorlik muhitini yaxshilash, yoshlar bandligini oshirish va kichik biznesni qo'llab-quvvatlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylangan. Shu bilan birga, Qashqadaryo viloyati kabi demografik salohiyati yuqori hududlarda mehnat bozoriga kirib kelayotgan yoshlar sonining ortishi bandlik masalasini yanada dolzarb etmoqda.

Shu nuqtayi nazardan, mazkur tadqiqotning maqsadi Qashqadaryo viloyatida yoshlar tadbirkorligi va kichik biznes rivojlanishining bandlikka ta'sirini ekonometrik (OLS) model asosida tahlil qilish hamda hududiy iqtisodiy siyosatni takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishdan iborat. Ammo mavjud tadqiqotlarda hududiy darajada, ayniqsa Qashqadaryo viloyati misolida yoshlar tadbirkorligi, kreditlash va inson kapitalining bandlikka kompleks ta'siri yetarlicha ekonometrik asosda o'rganilmagan. Shu jihatdan ushbu tadqiqot mavjud ilmiy bo'shliqni to'ldirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar sharhi. Yoshlar tadbirkorligi va kichik biznesning bandlikka ta'siri iqtisodiy adabiyotlarda keng o'rganilgan. Acs va Audretsch o'zlarining "Entrepreneurship, Innovation and Technological Change" asarida tadbirkorlikni innovatsiya va yangi ish o'rinlari yaratishning asosiy manbai sifatida ko'rsatadi [1]. Shuningdek, Audretsch va Keilbach "Entrepreneurship and Regional Growth" tadqiqotida tadbirkorlik kapitali va hududiy bandlik o'sishi o'rtasida ijobiy bog'liqlik mavjudligini empirik asosda isbotlagan [2].

Inson kapitali nazariyasida Becker "Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis" asarida ta'lim va kasbiy ko'nikmalar mehnat bozoridagi raqobatbardoshlik va bandlik darajasini belgilovchi asosiy omil ekanligini asoslab bergan [3]. Zamonaviy tadqiqotlarda Autio va hamkorlari "Entrepreneurial Innovation: The Importance of Context" (Research Policy) maqolasida startap

ekotizimlari va venchur kapitalning mintaqaviy iqtisodiy o‘sish hamda bandlikka ta’siri muhim ekanligini ko‘rsatadi [4].

Moliyaviy resurslar nuqtayi nazaridan Beck, Demirgüç-Kunt va Levine “SMEs, Growth, and Poverty” maqolasida kichik va o‘rta biznesni kreditlash iqtisodiy o‘sish va bandlikni oshirishda muhim omil ekanligini empirik tahlil qiladi [5].

O‘zbekiston sharoitida Abdullayev “O‘zbekiston iqtisodiyotida kichik biznesning bandlikni ta’minlashdagi roli” maqolasida kichik biznesning hududiy bandlikka ijobiy ta’sirini ko‘rsatadi [6]. Islomovning “Yoshlar tadbirkorligi: muammolar va rivojlanish mexanizmlari” tadqiqotida biznes-inkubatorlar va institutsional qo‘llab-quvvatlashning ahamiyatini yoritadi[7]. Karimov esa “Raqamli iqtisodiyot sharoitida kichik biznesning innovatsion rivojlanishi” ishida fintech va raqamli platformalarning tadbirkorlik samaradorligiga ta’sirini tahlil qiladi [8].

Shu bilan birga, Qashqadaryo viloyati darajasida yoshlar tadbirkorligi, kreditlash va inson kapitalining bandlikka kompleks ta’siri bo‘yicha ekonometrik (OLS) tahlillar yetarli emas. Mazkur tadqiqot aynan ushbu ilmiy bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda Qashqadaryo viloyatida yoshlar tadbirkorligi va kichik biznes rivojlanishining bandlikka ta’siri miqdoriy yondashuv asosida tahlil qilindi. Tadqiqotda 2020-2025-yillar bo‘yicha yillik statistik ma’lumotlar foydalanildi [9]

Empirik tahlil uchun ko‘p omilli chiziqli regressiya modeli (OLS) qo‘llanildi. Modelda bandlik darajasi (Y) natijaviy o‘zgaruvchi sifatida, startaplar soni (X_1), KOB korxonalari soni (X_2), kreditlash hajmi (X_3) va ishsizlik darajasi (X_4) mustaqil o‘zgaruvchilar sifatida olindi.

$$\boldsymbol{Y = \beta_0 + \beta_1 X_1 + \beta_2 X_2 + \beta_3 X_3 + \beta_4 X_4 + \varepsilon}$$

Bu yerda:

- Y – bandlik darajasi (ming kishi)
- X_1 – startaplar soni (dona)
- X_2 – kichik va o‘rta biznes korxonalari soni (dona)
- X_3 – ajratilgan kreditlar hajmi (mlrd so‘m)
- X_4 – ishsizlik darajasi (%)
- β_0 – erkin had
- β_1, β_2, β_3, β_4 – regressiya koeffitsiyentlari
- ε – tasodifiy xatolik hadi

Ma’lumotlar O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi va Markaziy bank rasmiy hisobotlaridan olindi. Model natijalari EViews/STATA dasturlari yordamida baholandi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqot doirasida Qashqadaryo viloyatida yoshlar tadbirkorligi va kichik biznes rivojlanishining bandlik darajasiga ta’siri 2020-2025-yillar ma’lumotlari asosida tahlil qilindi. Empirik tahlilda startaplar soni, kichik va

o‘rta biznes (KOB) korxonalari, kreditlash hajmi hamda ishsizlik darajasi mustaqil o‘zgaruvchilar, bandlik darajasi esa natijaviy ko‘rsatkich sifatida olingan.

1-jadval

Qashqadaryo viloyatida asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlar dinamikasi (2020-2025)[79]

Yil	Startaplar (dona) X_1	KOB korxonalar (dona) X_2	Kreditlar (mlrd) X_3	Ishsizlik darajasi (%)X_4	Bandlik (ming kishi) Y
2020	132	8 450	92	9.8	1 245
2021	158	8 920	110	9.2	1 310
2022	186	9 540	135	8.6	1 405
2023	224	10 280	168	8.1	1 520
2024	271	11 150	205	7.6	1 670
2025	318	12 040	248	7.0	1 845

Jadval ma’lumotlari shuni ko‘rsatadiki, 2020-2025-yillar davomida viloyatda iqtisodiy faollik barqaror o‘sish tendensiyasiga ega bo‘lgan. Startaplar soni 132 tadan 318 tagacha oshgan bo‘lib, bu yoshlar tadbirkorligi va innovatsion tashabbuslarning kengayib borayotganini bildiradi. Kichik va o‘rta biznes (KOB) korxonalari soni ham 8 450 tadan 12 040 tagacha ko‘paygan, bu hududda tadbirkorlik muhiti rivojlanayotganidan dalolat beradi.

Kreditlash hajmi 92 mlrd so‘mdan 248 mlrd so‘mgacha oshgan bo‘lib, bu kichik biznesni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash kuchayganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, ishsizlik darajasi 9.8 foizdan 7.0 foizgacha pasaygan bo‘lib, bu mehnat bozorida ijobiy o‘zgarishlar yuz berayotganini anglatadi. Bandlik darajasi esa 1 245 ming kishidan 1 845 ming kishigacha oshgan bo‘lib, yangi ish o‘rinlari yaratilishi iqtisodiy o‘sishning muhim natijasi hisoblanadi.

Ekonometrik tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, model yuqori tushuntirish darajasiga ega bo‘lib, determinatsiya koeffitsiyenti (R^2=0,94) natijaviy o‘zgaruvchining asosiy qismi modelga kiritilgan omillar orqali izohlanishini ko‘rsatadi.

Startaplar soni (X_1) bandlik darajasiga ijobiy va statistik jihatdan ahamiyatli ta’sir ko‘rsatdi ($\beta_1 = 0{,}52$; $p < 0{,}01$). Kichik va o‘rta biznes korxonalari (X_2) ham ijobiy ta’sirga ega bo‘lib ($\beta_2 = 0{,}31$; $p < 0{,}05$), hududiy bandlikni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi.

[79] O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligining hududiy ma’lumotlari va Markaziy bankning rasmiy hisobotlari asosida muallif tomonidan qayta ishlangan.

2-jadval

OLS regressiya natijalari[80]

O‘zgaruvchi	Koeffitsiyent (β)	t-stat	P-value
X_1 (startaplar)	0,52	3,45	0,01
X_2 (KOB)	0,31	2,98	0,02
X_3 (kreditlar)	0,27	2,41	0,04
X_4 (ishsizlik)	-0,46	-3,76	0,00

Determinatsiya koeffitsiyenti: $R^2 = 0,94$

Kreditlash hajmi (X_3) ham ijobiy va ahamiyatli bo‘lib ($\beta_3 = 0,27$; $p < 0,05$), moliyaviy qo‘llab-quvvatlash bandlikni oshirishga xizmat qilishini ko‘rsatadi. Ishsizlik darajasi (X_4) esa salbiy ta’sirga ega ($\beta_4 = - 0,46$; $p < 0,01$).

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, mazkur tadqiqot natijalari Qashqadaryo viloyatida yoshlar tadbirkorligi va kichik biznes rivojlanishi bandlik darajasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatdi. Tahlillar shuni anglatadiki, startaplar sonining ortishi bandlikni oshirishda eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Shuningdek, kichik va o‘rta biznes korxonalarining ko‘payishi hamda kreditlash hajmining kengayishi yangi ish o‘rinlari yaratilishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ishsizlik darajasining pasayishi esa bandlikning yaxshilanishi bilan bevosita bog‘liq ekanligini tasdiqlaydi.

Shu asosda hududda bandlikni oshirish va yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish uchun quyidagi takliflar beriladi: yoshlar startaplarini qo‘llab-quvvatlashni kengaytirish, kichik biznesga imtiyozli kreditlar ajratishni kuchaytirish, biznes-inkubatorlar va oliy ta’lim muassasalari hamkorligini rivojlantirish, raqamli biznes platformalarni yaratish hamda startaplarni qo‘llab-quvvatlovchi maxsus markazlarni tashkil etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib quyidagi amaliy takliflar ishlab chiqildi:

1.Yoshlar startaplarini qo‘llab-quvvatlash maqsadida hududiy venchur moliyalashtirish mexanizmlarini rivojlantirish va grant tizimini kengaytirish.

2.Kichik biznes subyektlari uchun imtiyozli kreditlash tizimini takomillashtirish hamda foiz stavkalarini hududiy ehtiyojlardan kelib chiqib optimallashtirish.

3.Oliy ta’lim muassasalari va biznes-inkubatorlar o‘rtasida hamkorlikni kuchaytirish orqali amaliy ko‘nikmalarga asoslangan “dual ta’lim” tizimini rivojlantirish.

4.Yosh tadbirkorlar uchun raqamli platformalar yaratish orqali investitsiya va biznes loyihalarni bog‘lovchi yagona ekotizimni shakllantirish.

5.Hududiy darajada startaplarni qo‘llab-quvvatlovchi maxsus iqtisodiy zonalar va “startap-hub”larni kengaytirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1.Acs, Z. J., & Audretsch, D. B. Entrepreneurship, Innovation and Technological Change. - Boston: Now Publishers Inc., 2005. - 73 p.

[80] Muallif hisob-kitoblari

2.Audretsch, D. B., & Keilbach, M. Entrepreneurship and regional growth // Regional Studies. - 2004. - Vol. 38, No. 8. - P. 949-959.
3.Becker, G. S. Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis, with Special Reference to Education. - Chicago: University of Chicago Press, 1964. - 187 p.
4.Autio, E., Kenney, M., Mustar, P., Siegel, D. S., Wright, M. Entrepreneurial innovation: The importance of context // Research Policy. - 2014. - Vol. 43, No. 7. - P. 1097-1108.
5. Beck, T., Demirgüç-Kunt, A., Levine, R. SMEs, growth, and poverty: Cross-country evidence // Journal of Economic Growth. - 2005. - Vol. 10, No. 3. - P. 199-229.
6.Abdullayev, O. O‘zbekiston iqtisodiyotida kichik biznesning bandlikni ta’minlashdagi roli // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. - 2021. - №5.
7.Islomov, B. Yoshlar tadbirkorligi: muammolar va rivojlanish mexanizmlari // O‘zbekiston iqtisodiyoti ilmiy jurnali. - 2022. - №3.
8.Karimov, A. Raqamli iqtisodiyot sharoitida kichik biznesning innovatsion rivojlanishi // Moliyaviy tadqiqotlar jurnali. - 2023. - №2.
9.O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. Hududiy ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlar bo‘yicha rasmiy statistik to‘plamlar. - Toshkent, 2020-2025.
10.O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Hududiy kreditlash statistikasi hisobotlari. - Toshkent, 2020-2025.

TIJORAT BANKLARINING MUAMMOLI KREDITLARINI KAMAYTIRISH ORQALI INNOVATSION IQTISODIYOTDA BARQAROR O`SISHNI TA`MINLASH YO`LLARI

Alimov Oybek G‘ayratovich
O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti
ORCID:0009-0004-5448-1118

Annotatsiya. Mazkur tezisda innovatsion iqtisodiyot sharoitida tijorat banklarida muammoli kreditlar (NPL) ulushini kamaytirish orqali barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlash masalalari yoritilgan. Muammoli kreditlarning bank tizimi barqarorligiga hamda kichik va o‘rta biznesni moliyalashtirish imkoniyatlariga salbiy ta’siri tahlil qilingan. Kredit risklarini boshqarishning zamonaviy usullari, raqamli banking texnologiyalari hamda kredit monitoring tizimini takomillashtirish yo‘llari o‘rganilgan. Natijada bank tizimi barqarorligini oshirish va innovatsion iqtisodiy o‘sishni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: muammoli kreditlar, tijorat banklari, kredit riski, innovatsion iqtisodiyot, kichik va o‘rta biznes, raqamli banking, moliyaviy barqarorlik.

Kirish. Innovatsion iqtisodiyot sharoitida tijorat banklari iqtisodiy o‘sishning asosiy moliyaviy tayanchi hisoblanadi. Bank kreditlari kichik va o‘rta biznesni rivojlantirish va innovatsion loyihalarni moliyalashtirishda muhim rol o‘ynaydi. Biroq kredit portfelida muammoli kreditlar ulushining ortishi banklarning moliyaviy barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli muammoli kreditlarni kamaytirish dolzarb ilmiy-amaliy masala hisoblanadi.

Asosiy qism. Bugungi kunda tijorat banklari faoliyatida muammoli kreditlar (Non-Performing Loans, NPL) ulushining shakllanishi bank tizimi barqarorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadigan muhim muammolardan biri hisoblanadi. Muammoli kreditlarning ortishi kredit resurslarining aylanma tezligini pasaytiradi, banklarning likvidligini yomonlashtiradi hamda real sektorni, xususan kichik va o‘rta biznesni moliyalashtirish imkoniyatlarini cheklaydi.

Muammoli kreditlarning yuzaga kelishiga bir qator ichki va tashqi omillar sabab bo‘ladi. Ichki omillar sifatida, avvalo, qarz oluvchilarning to‘lov qobiliyatini yetarli darajada tahlil qilmaslik va kredit ajratish jarayonida risklarni baholash tizimining zaifligi alohida o‘rin tutadi. Ko‘plab hollarda kredit berish jarayonida mijozning biznes-rejasi yuzaki o‘rganilib, uning real daromad manbalari va pul oqimi chuqur tahlil qilinmaydi. Natijada kreditning qaytarilish ehtimoli pasayadi.

Shuningdek, biznes loyihalarning noto‘g‘ri rejalashtirilishi ham muammoli kreditlarning muhim sabablaridan biridir. Ayniqsa kichik va o‘rta biznes subyektlarida moliyaviy rejalashtirish va risklarni boshqarish bo‘yicha bilim va tajribaning yetarli emasligi kredit majburiyatlarini bajarishda qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Bundan tashqari, kredit monitoring tizimining sustligi ham muammolarni erta aniqlash va ularni bartaraf etish imkoniyatini cheklaydi.

Tashqi omillar sifatida esa makroiqtisodiy tebranishlar, inflyatsiya darajasining o‘zgarishi, valyuta kursining beqarorligi hamda bozor konyunkturasidagi o‘zgarishlar kredit portfeli sifatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Bunday sharoitda qarz oluvchilarning daromadlari kamayib, kreditni qaytarish imkoniyati pasayadi.Muammoli kreditlarni kamaytirish va bank tizimi barqarorligini ta’minlash uchun quyidagi yo‘nalishlar muhim ahamiyat kasb etadi:

Birinchidan, kredit risklarini chuqur va kompleks baholash tizimini joriy etish zarur. Bunda mijozlarning moliyaviy holati, pul oqimlari, kredit tarixi hamda biznes modeli zamonaviy kredit scoring modellari asosida baholanishi lozim. Bu yondashuv kredit ajratish jarayonida subyektivlikni kamaytiradi va qaror qabul qilish sifatini oshiradi.


Ikkinchidan, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish muhim hisoblanadi. Sun’iy intellekt, big data va mashinaviy o‘rganish texnologiyalari yordamida kredit portfeli doimiy monitoring qilinishi, risklar esa real vaqt rejimida aniqlanishi mumkin. Bu esa muammoli kreditlarning oldini olishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Uchinchidan, kredit restrukturizatsiyasi mexanizmlarini takomillashtirish zarur. Moliyaviy qiyinchilikka duch kelgan mijozlar uchun kredit to‘lovlarini kechiktirish, foiz stavkalarini qayta ko‘rib chiqish yoki muddatni uzaytirish kabi moslashuvchan instrumentlardan foydalanish kreditlarning qaytarilish darajasini oshiradi.

To‘rtinchidan, kredit monitoring tizimini kuchaytirish dolzarb hisoblanadi. Kredit ajratilgandan so‘ng mijozning moliyaviy holatini doimiy kuzatish, ogohlantiruvchi indikatorlar asosida erta signal tizimini joriy etish muammoli kreditlarning o‘sishini kamaytiradi.

Beshinchidan, kichik va o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini kengaytirish zarur. Imtiyozli kredit liniyalari, subsidiyalar va kafolat fondlari orqali tadbirkorlarning moliyaviy barqarorligini oshirish mumkin. Bu esa kreditlarning qaytarilish darajasini yaxshilash bilan birga innovatsion iqtisodiyot rivojiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Tahlil va natijalar. 2022-2026 yillar davomida O‘zbekistonda banklar kesimida muammoli kreditlar (NPL) dinamikasi ijobiy pasayish tendensiyasini ko‘rsatadi. Davlat ulushi mavjud banklarda NPL darajasi 2022 yildagi 5,4 foizdan 2026 yilga kelib 3,2 foizgacha kamaygan bo‘lib, bu kredit portfeli sifati asta-sekin yaxshilanayotganini bildiradi. Boshqa (xususiy) banklarda esa NPL darajasi umumiy jihatdan pastroq bo‘lsa-da, ayrim yillarda keskin tebranishlar kuzatilgan, xususan 2025 yilda 4,1 foizgacha oshgan. 2026 yilga kelib ushbu ko‘rsatkich yana 2,6 foizgacha pasayib, bank tizimida muammoli kreditlar ustidan nazorat kuchayganini ko‘rsatadi. Umuman olganda, davlat banklarida barqarorlik, xususiy banklarda esa o‘zgaruvchanlik yuqoriroq ekanligi kuzatiladi.



1-rasm. Muammoli kreditlarning (NPL) o‘zgarishi to‘g‘risida ma’lumot(yillar kesimida)

Mazkur holat kredit portfeli sifati va risklarni boshqarish mexanizmlarining nisbatan barqaror takomillashib borayotganini anglatadi. Shu bilan birga, xususiy banklarda NPL darajasi pastroq bo‘lishiga qaramay, uning yuqori o‘zgaruvchanligi, xususan 2025 yildagi keskin o‘sish, kredit siyosatining agressivlashuvi va risklarni baholash tizimlarining yetarli darajada barqaror emasligini ko‘rsatadi. Umuman olganda, tahlil natijalari bank tizimida kredit risklarini boshqarish samaradorligi oshib borayotganini, biroq ayrim segmentlarda tizimli risklar saqlanib qolayotganini tasdiqlaydi.

1-jadval

Tijorat banklarining muammoli kreditlari (NPL) to‘g‘risida 2026-yil 1-aprel holatiga ma’lumot

				mlrd. so’m
№	**Bank nomi**	**Kreditlar**	**Muammoli kreditlar (NPL)**	**Muammoli kreditlarning jami kreditlardagi ulushi**
Jami		**623 286**	**19 861**	**3,2%**
Davlat ulushi mavjud banklar		**415 581**	**14 296**	**3,4%**
1	O‘zmilliybank	108 018	3 089	2,9%
2	Agrobank	86 547	2 803	3,2%
3	O‘zsanoatqurilishbank	63 307	2 346	3,7%
4	Asaka bank	40 741	1 705	4,2%
5	Xalq banki	35 552	1 069	3,0%
6	Biznesni rivojlantirish banki	24 915	1 095	4,4%
7	Mikrokreditbank	21 180	940	4,4%
8	Aloqa bank	20 703	709	3,4%
9	Turon bank	14 617	539	3,7%

Boshqa banklar		**207 705**	**5 566**	**2,7%**
10	Ipoteka-bank	35 640	941	2,6%
11	Kapital bank	37 474	1 052	2,8%
12	Hamkorbank	26 787	248	0,9%
13	Ipak yo‘li bank	16 919	238	1,4%
14	Orient Finance bank	12 852	24	0,2%
15	Tibisi bank	8 983	625	7,0%
16	Anor bank	11 007	605	5,5%
17	Davr bank	9 218	290	3,1%
18	Invest Finance bank	10 408	273	2,6%
19	Trastbank	8 289	341	4,1%
20	Tenge bank	4 691	182	3,9%
21	Asia Alliance bank	4 617	46	1,0%
22	KDB Bank O‘zbekiston	3 852	0	0,0%
23	Hayot bank	5 718	233	4,1%
24	Ziraat Bank Uzbekistan	2 495	120	4,8%
25	Universal bank	2 185	15	0,7%
26	Garant bank	1 507	179	11,9%
27	AVO bank	1 091	67	6,2%
28	Apeks bank	1 941	1	0,0%
29	Oktobank	460	0	0,0%
30	Madad Invest bank	399	11	2,7%
31	Poytaxt bank	276	71	25,6%
32	Open bank	803	3	0,4%
33	Uzum bank	85	0	0,0%
34	Soderot bank	10	1	5,7%

2026-yil 1-aprel holatiga tijorat banklari kredit portfeli va muammoli kreditlar (NPL) holati kompleks tahlil qilindi. Umumiy kredit qo‘yilmalari hajmi 623 286 mlrd so‘mni tashkil etgan bo‘lib, shundan 19 861 mlrd so‘mi muammoli kreditlar hissasiga to‘g‘ri keladi. Natijada, muammoli kreditlar ulushi 3.19% darajasida shakllangan.

Mazkur ko‘rsatkich xalqaro bank amaliyotida qabul qilingan 3–5% lik me’yoriy chegaraga mos keladi va bu bank tizimining umumiy moliyaviy barqarorligi saqlanib qolayotganini bildiradi. Shu bilan birga, ushbu o‘rtacha ko‘rsatkich banklar kesimidagi ichki nomutanosibliklarni to‘liq aks ettirmaydi.

*Strukturaviy tahlil (banklar kesimida).*Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, muammoli kreditlar darajasi banklar o‘rtasida sezilarli darajada farqlanadi. Xususan:

Davlat ulushi mavjud banklarda NPL darajasi – 3.44%, xususiy banklarda NPL darajasi – 2.68%. Bu tafovut (0.76 foiz punkt) kredit risklarini boshqarish samaradorligi turlicha ekanligini ko‘rsatadi. Davlat banklarida yuqori NPL darajasi quyidagi omillar bilan izohlanadi:

iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarini qo‘llab-quvvatlash maqsadida berilgan imtiyozli kreditlar ulushining yuqoriligi;

qarz oluvchilarni tanlashda bozor tamoyillaridan chekinish holatlari;

kredit ajratilgandan keyingi monitoring mexanizmlarining yetarli darajada ishlamasligi.

*Yuqori riskli banklar tahlili.*Ayrim banklarda muammoli kreditlar ulushi 4%

dan yuqori bo‘lib, bu risk darajasi oshganligini ko‘rsatadi:

Mikrokreditbank – 4.43%

Biznesni rivojlantirish banki – 4.39%

Asaka bank – 4.18%

O‘zsanoatqurilishbank – 3.71%

Ushbu banklarda NPL darajasining yuqoriligi kredit portfelining sifati pastligi, qarz oluvchilarning moliyaviy holatini noto‘g‘ri baholash hamda kredit resurslarining maqsadsiz yo‘naltirilishi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Shuningdek, bu banklar faoliyatida quyidagi tizimli muammolar mavjudligi ehtimoli yuqori:

kreditlashning yuqori darajada konsentratsiyalashuvi (ya’ni bir nechta yirik qarz oluvchilarga bog‘liqlik);

sohaviy risklarning yuqoriligi (masalan, sanoat yoki qishloq xo‘jaligi sektoriga haddan tashqari yo‘naltirish);

qaytarilmayotgan kreditlar bo‘yicha kechikkan choralar.

Past riskli banklar (ijobiy tajriba)

Aksincha, ayrim banklarda muammoli kreditlar ulushi sezilarli darajada past:

Orient Finance bank – 0.18%

Hamkorbank – 0.93%

Ipak yo‘li bank – 1.40%

Bu natijalar quyidagi omillar bilan izohlanadi:

konservativ (ehtiyotkor) kredit siyosati;

mijozlarning kreditga layoqatliligini chuqur tahlil qilish;

kichik va o‘rta biznes segmentida diversifikatsiya qilingan portfel;

kredit monitoringi va undirish tizimining samaradorligi.

Tizimli xavflar va tendensiyalar

Tahlil shuni ko‘rsatadiki, umumiy NPL darajasi qoniqarli bo‘lsa-da, quyidagi tizimli xavflar mavjud:

Davlat banklarining ustunligi – kredit portfelining katta qismi davlat banklari hissasiga to‘g‘ri keladi va bu tizim riskini oshiradi.

NPL konsentratsiyasi – muammoli kreditlarning asosiy qismi bir nechta yirik banklarda jamlangan.

Makroiqtisodiy ta’sirlar – inflyatsiya, foiz stavkalari va valyuta risklari qarz oluvchilarning to‘lov qobiliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Kreditlash sifati va tezligi o‘rtasidagi ziddiyat – kredit hajmini oshirishga qaratilgan siyosat ba’zan sifat hisobiga amalga oshirilmoqda.

Dinamik va sifat jihatidan baholash

Agar NPL darajasi 3.19% bo‘lsa ham, bu ko‘rsatkichning barqarorligi muhim ahamiyatga ega. Agar kelgusida kredit portfeli tez o‘sishda davom etsa,lekin risk boshqaruvi shunga mos rivojlanmasa, unda muammoli kreditlar ulushi keskin oshish xavfi mavjud.

Shu sababli, hozirgi daraja “barqaror” bo‘lishiga qaramay, uni potensial xavf zonasi chegarasida deb baholash mumkin.

Xulosa va takliflar. O‘tkazilgan tahlil natijalariga ko‘ra, O‘zbekiston tijorat

banklarida muammoli kreditlar darajasi umumiy jihatdan qoniqarli holatda ekanligi aniqlandi. Biroq, banklar kesimida sezilarli farqlar mavjud bo‘lib, ayniqsa davlat ulushi yuqori bo‘lgan banklarda muammoli kreditlar ulushi nisbatan yuqoriligi kuzatilmoqda.

Bu holat kredit ajratish jarayonida risklarni yetarli darajada baholamaslik, davlat dasturlari doirasida berilgan kreditlarning samaradorligi pastligi hamda monitoring tizimining yetarli darajada ishlamasligi bilan izohlanadi.

Shuningdek, ayrim banklarda muammoli kreditlar ulushining 4% dan yuqori bo‘lishi bank tizimida potensial xavflar mavjudligini ko‘rsatadi. Shu sababli kredit portfeli sifatini yaxshilash va risklarni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish dolzarb masala hisoblanadi.

Takliflar. Mazkur muammolarni bartaraf etish va tijorat banklari faoliyatini yanada samarali tashkil etish maqsadida quyidagi takliflar ilgari suriladi:

- kredit risklarini baholash tizimini takomillashtirish;
- zamonaviy skoring modellari va sun’iy intellekt asosida mijozlarning to‘lov qobiliyatini aniqlash tizimini joriy etish zarur;
- erta ogohlantirish tizimini (early warning system) joriy qilish;
- kreditlar bo‘yicha muammolar yuzaga kelishidan oldin aniqlash va oldini olish mexanizmlarini kuchaytirish lozim;
- davlat banklarini transformatsiya qilish;
- ularning faoliyatini bozor tamoyillari asosida tashkil etish, siyosiy ta’sirlarni kamaytirish va korporativ boshqaruvni kuchaytirish talab etiladi;
- kredit portfelini diversifikatsiya qilish;
- kreditlarni turli soha va segmentlarga taqsimlash orqali risklarni kamaytirish mumkin;
- garov (ta’minot) tizimini takomillashtirish;
- garov obyektlarini baholashda mustaqil baholovchilar ulushini oshirish va ularning real qiymatini ta’minlash muhimdir;
- muammoli kreditlar bilan ishlashni kuchaytirish;
- restrukturizatsiya, qayta moliyalashtirish va undirish mexanizmlarini samarali yo‘lga qo‘yish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki (2023) Bank tizimi moliyaviy barqarorligi va kredit portfeli sifati bo‘yicha hisobot. Toshkent.

2. Frederic S. Mishkin (2019) The Economics of Money, Banking and Financial Markets. Pearson.

3. Joseph F.Sinkey(2002) Commercial Bank Financial Management.Prentice Hall.

4. Лаврушин, О.И. (2018) Банковское дело. Москва: КНОРУС.

5. Алимардонов, И.М. (2018) Кичик бизнес субъектларини кредитлаш. Тошкент.

XORIJ TAJRIBALARI ASOSIDA DAVLAT KORXONALARINING HR FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA SUN'IY INTELLEKTNI TADBIQ ETISH YO'LLARI

Adilova Gulmira Shamshetdinovna
Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi 2-bosqich tinglovchisi
ORCID:0009-0003-5362-1142

Annotatsiya. Davlat sektorida inson resurslarini boshqarish (HR) faoliyatiga sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish masalalari xorij tajribalari asosida tahlil qilingan. Zamonaviy raqamli transformatsiya sharoitida HR jarayonlarini avtomatlashtirish, xodimlarni tanlash, baholash va rivojlantirishda AI texnologiyalarining ahamiyati yoritilgan.

Kalit so'zlar: HR, sun'iy intellekt, davlat sektori, HR Analytics, rekruting, KPI, raqamli HR

Kirish: Bugungi kunda davlat boshqaruv tizimida inson resurslarini samarali boshqarish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Raqamli iqtisodiyot sharoitida HR faoliyatini zamonaviy texnologiyalar, hususan sun'iy intellekt asosida takomillashtirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar sharhi. So'nggi yillarda inson resurslarini boshqarish (HRM) sohasida sun'iy intellekt (AI) texnologiyalarini qo'llash masalalari xalqaro ilmiy adabiyotlarda keng o'rganilmoqda. Ayniqsa, davlat sektorida HR jarayonlarini raqamlashtirish va avtomatlashtirish masalalari dolzarb ilmiy yo'nalish sifatida shakllandi. HR sohasidagi zamonaviy konsepsiyalarni rivojlantirishda Dave Ulrichning ilmiy ishlari muhim ahamiyatga ega. U HRni tashkilot strategiyasi bilan integratsiyalashtirish zarurligini asoslab, inson resurslarini raqamli texnologiyalar asosida boshqarishni taklif etadi. Ushbu yondashuv AI texnologiyalarini HR jarayonlariga joriy etishning nazariy asosini tashkil etadi.

Sun'iy intellektning HR faoliyatidagi o'rni va ahamiyati Bernard Marr tomonidan chuqur tahlil qilingan. Uning tadqiqotlarida AI va Big Data texnologiyalari orqali xodimlar samaradorligini baholash, kadrlar aylanmasini prognoz qilish hamda HR qarorlarini optimallashtirish imkoniyatlari yoritilgan.

Xorijiy tadqiqotchilardan Thomas Davenport va Jeanne Harris o'z ishlarida tashkilotlarda analitik yondashuvlarni joriy etish orqali HR jarayonlarini samarali boshqarish mumkinligini ta'kidlaydilar. Ularning fikriga ko'ra, data-driven HR modellari AI texnologiyalari bilan uyg'unlashganda, qaror qabul qilish jarayoni sezilarli darajada yaxshilanadi. Amaliyotda AI texnologiyalarini joriy etish bo'yicha ilg'or tajriba IBM, Google va SAP kompaniyalari misolida namoyon bo'ladi. Ushbu kompaniyalar HR Analytics, predictive modeling va avtomatlashtirilgan rekruting tizimlarini joriy etgan bo'lib, xodimlar samaradorligini baholash va boshqarishda yuqori natijalarga erishgan.

Davlat boshqaruvi sohasida HR tizimini takomillashtirish masalalari OECD va World Bank hisobotlarida ham keng yoritilgan. Ularda davlat sektorda raqamli

HR tizimlarini joriy etish orqali shaffoflikni ta’minlash, korrupsiya xavfini kamaytirish va inson kapitalini rivojlantirish mumkinligi ta’kidlanadi.

Shuningdek, zamonaviy ilmiy manbalarda AI texnologiyalarini HR sohasida qo‘llashning ayrim muammolari ham qayd etilgan. Jumladan, algoritmlardagi noxolislik (bias), shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish masalalari hamda kadrlar tayyorgarligining yetarli emasligi kabi muammolar tadqiqotchilar tomonidan ko‘tarilmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda davlat sektorida inson resurslarini boshqarish (HR) faoliyatiga sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etishning nazariy va amaliy jihatlari kompleks yondashuv asosida o‘rganildi. Tadqiqot metodologiyasi zamonaviy ilmiy usullar majmuasiga tayanadi.

1.Tadqiqot usullari: Tadqiqot jarayonida quyidagi ilmiy usullardan foydalanildi:

- taqqoslash usuli (comparative analysis) – xorijiy davlatlar va kompaniyalar tajribasini solishtirish;
- tizimli yondashuv (system approach) – HR faoliyatini kompleks tizim sifatida baholash;
- statistik tahlil – kadrlar samaradorligi va aylanmasini baholash;
- prognozlash (forecasting) – AI orqali HR jarayonlarini rivojlantirish istiqbollarini aniqlash.

2. Tadqiqotning axborot bazasi: Mazkur tadqiqotning axborot bazasi turli xil manbalardan shakllantirilib, ular inson resurslarini boshqarish (HR) va sun’iy intellekt (AI) texnologiyalarini davlat sektoriga joriy etish jarayonlarini har tomonlama tahlil qilish imkonini beradi.

Tadqiqotning axborot manbalari quyidagilardan iborat:

1. Xalqaro tashkilotlar va institutsional manbalar: Tadqiqotda global darajada tan olingan xalqaro tashkilotlarning hisobotlari va tahliliy materiallaridan foydalanildi:

- OECD – davlat boshqaruvida inson resurslarini rivojlantirish, raqamli transformatsiya va HR boshqaruvi bo‘yicha siyosiy tavsiyalar;
- World Bank – davlat sektorida kadrlar siyosati, inson kapitali va raqamlashtirishga oid tahlillar;
- International Labour Organization – mehnat bozori, kadrlar siyosati va HR standartlari bo‘yicha xalqaro normalar.

Ushbu manbalar davlat sektorda HR tizimini rivojlantirishning strategik yo‘nalishlarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

2. Tadqiqot dizayni: Mazkur tadqiqotda davlat sektorida inson resurslarini boshqarish (HR) faoliyatiga sun’iy intellekt (AI) texnologiyalarini joriy etish jarayonlarini o‘rganish uchun kompleks va integratsiyalashgan tadqiqot dizayni qo‘llanildi. Tadqiqot dizayni ilmiy izlanishning maqsad va vazifalariga mos ravishda shakllantirilib, nazariy va amaliy tahlilni birlashtiradi. (metodologik yondashuv):

- Tadqiqotda aralash (mixed-methods) yondashuv qo‘llanildi-degani —

tadqiqot jarayonida ham sifat usullari, ham miqdoriy usullar birgalikda ishlatildi, degan ma’noni anglatadi. Mazkur tadqiqotda aralash yondashuv davlat sektorida HR faoliyatiga sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish jarayonlarini har tomonlama o‘rganish imkonini beradi. Chunki HR faoliyati faqat raqamlar orqali emas, balki tashkiliy jarayonlar, boshqaruv mexanizmlari, xodimlar bilan ishlash amaliyoti va normativ talablar orqali ham baholanadi.


- Sifat tahlili mazkur tadqiqotda davlat sektorida HR faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslari, boshqaruv mexanizmlari va amaliy jarayonlari chuqur o‘rganildi. Kontent-tahlil orqali normativ-huquqiy hujjatlar tahlil qilindi, case study usuli asosida aniq tashkilot misolida HR jarayonlari o‘rganildi, komparativ tahlil orqali esa xorijiy tajribalar bilan solishtirish amalga oshirildi. Shuningdek, kuzatuv usuli orqali HR faoliyatining amaliy jihatlari tahlil qilindi. Ushbu yondashuv HR tizimining mavjud holatini har tomonlama baholash va sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish imkoniyatlarini aniqlashga xizmat qildi.
- Miqdoriy (quantitative) tahlil davlat sektorida HR faoliyati samaradorligi raqamli ko‘rsatkichlar asosida baholandi. Jumladan, kadrlar aylanmasi, xodimlar samaradorligi, ishga qabul qilish jarayoni samaradorligi, malaka oshirish ko‘rsatkichlari va adaptatsiya davri kabi indikatorlar tahlil qilindi. Statistik usullar orqali HR jarayonlaridagi o‘zgarishlar va tendensiyalar aniqlandi. Ushbu yondashuv HR faoliyatiga sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish uchun ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish imkonini berdi.

3. Tadqiqot bosqichlari: Mazkur tadqiqot izchil va mantiqiy bog‘langan bosqichlarda amalga oshirildi. Dastlab HR va sun’iy intellekt bo‘yicha nazariy asoslar o‘rganildi hamda xorijiy tajribalar tahlil qilindi. Keyingi bosqichda davlat tashkilotida HR faoliyatining amaldagi holati baholandi va miqdoriy hamda sifat tahlillar amalga oshirildi. Tadqiqotning yakuniy bosqichida HR va AI integratsiya modeli ishlab chiqilib, davlat sektori uchun amaliy takliflar shakllantirildi. Ushbu bosqichlar tadqiqotning ilmiy izchilligi va natijalarining ishonchliligini ta’minlaydi.

4. Metodologiyaning ilmiy yangiligi: Mazkur tadqiqotning metodologik jihatdan ilmiy yangiligi davlat sektorida inson resurslarini boshqarish (HR) faoliyatiga sun’iy intellekt (AI) texnologiyalarini joriy etishni kompleks va integratsiyalashgan yondashuv asosida tadqiq etish bilan izohlanadi.

Birinchi navbatda, tadqiqotda HR faoliyati korporativ loyiha boshqaruvi nuqtayi nazaridan qayta ko‘rib chiqilib, HR jarayonlari dinamik va natijaga yo‘naltirilgan tizim sifatida talqin etildi. Bu yondashuv an’anaviy HR boshqaruvidan farqli ravishda, HR faoliyatini loyiha bosqichlari (rejalashtirish, amalga oshirish, nazorat) asosida tashkil etishni nazarda tutadi.Ikkinchidan, tadqiqotda sun’iy intellekt texnologiyalari HR tizimida faqat avtomatlashtirish vositasi sifatida emas, balki analitik va prognozlash instrumenti sifatida asoslandi. Bu orqali kadrlar aylanmasini oldindan aniqlash, xodimlar samaradorligini baholash va boshqaruv qarorlarini ilmiy asoslash imkoniyati kengaytirildi.

Uchinchidan, tadqiqotda HR faoliyatiga nisbatan data-driven (ma’lumotlarga asoslangan) yondashuv ishlab chiqildi. Ushbu yondashuv HR Analytics



ko‘rsatkichlari, KPI va raqamli ma’lumotlar asosida qaror qabul qilish mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan.

1-rasm Tadqiqot jarayonining bosqichlari[81]

To‘rtinchidan, davlat sektori uchun moslashtirilgan “Smart HR” konseptual modeli taklif etildi. Mazkur model HR jarayonlarini raqamlashtirish, avtomatlashtirish va sun’iy intellekt texnologiyalari bilan integratsiya qilish orqali inson resurslarini boshqarish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Beshinchidan, tadqiqotda sifat va miqdoriy tahlillarni birlashtiruvchi aralash (mixed-methods) metodologiya qo‘llanilib, HR faoliyatini har tomonlama va chuqur tahlil qilish imkoni yaratildi.

Tahlil va natiijalar: Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, davlat sektorida HR faoliyati hozirgi kunda an’anaviy usullarga asoslangan bo‘lib, raqamlashtirish va ma’lumotlarga asoslangan boshqaruv darajasi yetarli emas. Sifat tahlil natijalari HR jarayonlarida subyektivlik va samaradorlikning pastligini ko‘rsatgan bo‘lsa, miqdoriy tahlil esa kadrlar aylanmasi, ishga qabul qilish muddati va xodimlar samaradorligidagi muammolarni aniqladi. Shu bilan birga, xorijiy tajribalar AI

[81] Tadqiqotchi tomonidan ishlab chiqilgan.

texnologiyalarini joriy etish orqali HR faoliyati samaradorligini sezilarli darajada oshirish mumkinligini tasdiqladi. Natijada HR tizimini raqamlashtirish, AI asosida tahlil va prognozlash mexanizmlarini joriy etish hamda “Smart HR” modelini amalga oshirish bo‘yicha ilmiy asoslangan xulosalar shakllantirildi.

Xulosa va takliflar: Olib borilgan tadqiqotlar natijasida davlat sektorida inson resurslarini boshqarish (HR) faoliyatini takomillashtirishda sun’iy intellekt (AI) texnologiyalarini joriy etish muhim strategik ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, amaldagi HR tizimi asosan an’anaviy boshqaruv usullariga tayanadi, bu esa qaror qabul qilishda subyektivlik, vaqt sarfining yuqoriligi va samaradorlikning pastligiga olib kelmoqda.

Xorijiy tajribalar tahlili, jumladan IBM va Google kompaniyalari misolida, sun’iy intellekt texnologiyalari HR jarayonlarini avtomatlashtirish, tahlil qilish va prognozlash orqali samaradorlikni sezilarli darajada oshirish imkonini berishi isbotlandi. Mazkur tadqiqot doirasida HR faoliyatini korporativ loyiha boshqaruvi asosida tashkil etish, data-driven yondashuvni joriy etish va “Smart HR” konsepsiyasini ishlab chiqish ilmiy jihatdan asoslandi.

Tadqiqot natijalari asosida davlat sektorida HR faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha quyidagi amaliy takliflar ishlab chiqildi:

1. HR jarayonlarini raqamlashtirish va avtomatlashtirish
- HRIS, ATS va LMS tizimlarini joriy etish;
- hujjatlar aylanishini elektron shaklga o‘tkazish;
- HR jarayonlarini avtomatlashtirish.

2. Sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish
- rekruting jarayonida AI asosida nomzodlarni saralash;
- xodimlar samaradorligini avtomatik baholash;
- kadrlar aylanmasini prognoz qilish.

3. Data-driven HR boshqaruvini rivojlantirish
- KPI va HR Analytics tizimlarini joriy etish;
- qaror qabul qilishda ma’lumotlarga asoslanish;
- HR hisobotlarini raqamli formatga o‘tkazish.

4. Xodimlar malakasini oshirish
- HR mutaxassislari uchun AI va raqamli texnologiyalar bo‘yicha treninglar;
- raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish;
- zamonaviy HR metodologiyalarini o‘rgatish.

5. HR faoliyatini loyiha boshqaruvi asosida tashkil etish
- Agile, Scrum va Kanban elementlarini joriy etish;
- HR jarayonlarini loyiha bosqichlari bo‘yicha boshqarish;
- natijaga yo‘naltirilgan boshqaruv tizimini shakllantirish.

6. “Smart HR” modelini joriy etish
- HR + AI integratsiyasini ta’minlash;
- raqamli HR ekotizimini shakllantirish;
- davlat sektorida innovatsion boshqaruvni rivojlantirish.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, davlat sektorida HR faoliyatini

takomillashtirishda sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish muhim ahamiyatga ega. Amaldagi HR tizimidagi kamchiliklar - raqamlashtirishning past darajasi, ma’lumotlarga asoslangan boshqaruvning yetarli emasligi va samaradorlik muammolari aniqlandi. Shu asosda HR jarayonlarini raqamlashtirish, AI texnologiyalarini joriy etish, data-driven yondashuvni rivojlantirish hamda “Smart HR” modelini amalga oshirish bo‘yicha amaliy takliflar ishlab chiqildi. Ushbu takliflar davlat tashkilotlarida inson resurslarini boshqarish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Dave Ulrich. Human Resource Champions. – Boston: Harvard Business School Press, 1997.

2. Bernard Marr. Artificial Intelligence in Practice. – Wiley, 2019.

3. Thomas Davenport, Jeanne Harris. Competing on Analytics. – Harvard Business Review Press, 2007.

4. Daniel H. Pink. Drive: The Surprising Truth About What Motivates Us. – Riverhead Books, 2009.

5. Laszlo Bock. Work Rules!. – Twelve, 2015.

6. OECD. Public Employment and Management Report. – Paris, 2020.

7. World Bank. World Development Report: The Changing Nature of Work. – Washington, 2019.

8. International Labour Organization. Digital Labour Platforms and the Future of Work. – Geneva, 2021.

9. Davenport T., Ronanki R. Artificial Intelligence for the Real World. – Harvard Business Review, 2018.

10. Marler J., Boudreau J. An Evidence-Based Review of HR Analytics. – International Journal of HRM, 2017.

11. Minbaeva D. HRM Practices and Knowledge Transfer. – Journal of HRM, 2018.

XIZMAT KO’RSATISH SOHASIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH HOLATI

Mardonov Bahodir Baxronovich
Oriental universiteti Samarqand kampusi
«Biznes va boshqaruv» kafedrasi
professori v.b., i.f.d.
ORCID: 0000-0002-0920-7070

Annotatsiya. Ushbu maqolada raqamli iqtisodiyotning mazmun mohiyati yoritilgan. Shuningdek, raqamli texnologiyalarning milliy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi ahamiyati ham tadqiq etilgan. Xizmat ko’rsatish sohasida raqamli texnologiyalardan foydalanish holati tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: YaIM, milliy iqtisodiyot, innovatsiya, raqamli texnologiya, raqamli iqtisodiyot, innovatsion mahsulot, ta’lim sohasi.

Kirish. XXI asr “axborot asri”. Bugungi kunda jahon aholisi 8,1 mlrdan ortiq[1]. Shulardan 6,9 mlrd[2] kishi smartfonlardan foydalanadi. Bu dunyo aholisining qariyb 86 foizini tashkil etadi. Ayni paytda, internetdan foydalanuvchilar sonining o‘sish dinamikasi yuqori bo‘lib, yillik o‘rtacha 2,8 foiz ni tashkil qiladi va bu ko‘rsatkich yildan-yilga o‘sib bormoqda[3]. Tadqiqotlar bir kishi, bir kunda o‘rtacha 6 soat 40 minut vaqtini internet va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishga sarflashini aniqladi[4]. Ushbu ma’lumotlar o’z navbatida kishilarning ba’zi muammolariga raqamli texnologiyalar yordamida yechim topayotganini bildiradi. Modomiki, kishilar hayotida raqamli texnologiyalarning o’rni dasturiy mahsulotlarning ahamiyati ortib borar ekan, undan yanada samarali foydalanish yo’llarini ko’rish dolzarb vazifa hisoblanadi. Raqamli texnologiyalar milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlanishida ham katta rol o’ynaydi. U ayniqsa sohada mehnat unumdorligini oshirish, tovar va xizmatlar sifatini yaxshilash, axborot ayirboshlash kabi muhim vazifalarni bajaradi. Raqamli texnologiyalar kashf etilishi natijasida milliy iqtisodiyotning soha va tarmoqlarida undan foydalanishga bo’lgan talab ortadi. Masalan, tibbiy sohada bemorlarga tashxis qo’yish, ta’lim sohasida onlayn ta’lim xizmatlarini rivojlantirish, transport vositalariga buyurtma berish va boshqa tarmoqlarda keng foydalanmoqda. Bularning barchasi raqamli iqtisodiyotni chuqur o’rganish, uning imkoniyatlaridan samarali foydalanishni taqozo etadi**.**

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. M.B. Bakeev [5], C.V.Lomakin, A.M.Samoylov[6], G.G.Golovenchiklar [7] milliy iqtisodiyotda raqamli texnologiyalar soliq tizimida, korxonalarni boshqarishda, tovar va xizmatlar sifatini nazorat qilishda, ularni tashishda ahamiyatini keng tadqiq etgan. Ushbu olimlar raqamli texnologiyalarni atigi tor doirada ularning imkoniyatlarini tadqiq etishgan. Yana bir xorijiy tadqiqotchi M.Rouzning ta’kidlashicha esa: “Raqamli iqtisodiyot – bu axborotkommunikatsion texnologiyalar hisobiga amalga oshiriladigan iqtisodiy

faoliyatning xalqaro tarmog’i, deb ham ta’rif bergan» [8]. Mahalliy olimlarimizda S.S. Gulyamov rahbarligidagi mualliflar guruhi raqamli iqtisodiyotni “jarayonlarni tahlil qilish natijalaridan foydalanish va katta hajmdagi ma’lumotlarni qayta ishlash asosida turli xildagi ishlab chiqarishlar, texnologiyalar, asbob-uskunalar, tovarlar va xizmatlarni saqlash, sotish va yetkazib berish samaradorligini jiddiy ravishda oshirishga imkon beradigan va raqamli ko’rinishdagi ma’lumotlar asosiy ishlab chiqarish omili, deb sanalgan xo’jalik faoliyatidir” deb ta’riflash to’g’ri bo’lishini ta’kidlashgan. Shuning bilan birgalikda ushbu ta’rifning foydalanish uchun noqulay ekanligi aytib o’tib, o’zlarining quyidagi funksional ta’rifini keltirishgan: “Raqamli (elektron) iqtisodiyot bu - axborot, jumladan, shaxsiy axborotdan foydalanish hisobiga barcha qatnashchilarning ehtiyojlarini maksimal darajada qondirish uning o’ziga xos xususiyati bo’lgan iqtisodiyotdir[9]. N.X. Jumaevning ta’kidlashicha, raqamli iqtisodiyot deganda, faqatgina Blokcheyn (Blockchain) texnologiyasini va ulardan xalqaro moliya bozorlarida foydalanish masalalarini yoki kriptovalyutalarni tushunish kerak emas. Raqamli iqtisodiyot deganda, raqamli kommunikatsiyalar, IT yordamida olib boriladigan iqtisodiyot tushuniladi [10]. O.S. Umarovning fikricha, raqamli iqtisodiyot – bu ishlab chiqarish kompleksi insonlar uchun qulayliklarni ta’minlaydigan mahsulot va xizmatlarni yaratadigan virtual muhit bo’lib, raqamli texnologiyalardan foydalangan holda iqtisodiy ishlab chiqarish tizimidir. Shuningdek, raqamli iqtisod rasmiylashtirilishi mumkin bo’lgan barcha narsani qamrab olishi mumkin, ya’ni mantiqiy sxemalarda namoyon bo’ladi. Hayotning o’zi esa bu «narsalarni» ishlab chiqarish, tarqatish, almashtirish va iste’mol qilish tizimiga aylantirishga imkoniyat yaratadi [11].

Tadqiqot metodologiyasi. Xizmat ko’rsatish sohasida raqamli texnologiyalardan foydalanish holatini tadqiq etishda, ularning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatini yoritishda ilmiy abstraksiyalash, tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, statistik guruhlash, taqqoslash kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Bugungi kunda milliy iqtisodiyotning barqaror iqtisodiy o’sishini ta’minlashda innovatsion faoliyatni rivojlantirish ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Rivojlangan mamlakatlar yalpi ichki mahsulotining 70-90 foizi aynan innovatsion faoliyatni rivojlantirish hisobiga yaratilmoqda [12]. Chunki, dunyo bozorida raqamli texnologiyalar asosida ishlab chiqilgan zamonaviy ilm talab mahsulotlar ulushi YaIM tarkibida bo’lgan mamlakatlar iqtisodiy o’sishning yuqori sur’atlarini namoyon qilmoqda.

Xizmat ko’rsatish sohasida innovatsiyalarni tarmoqlar kesimida amalga oshirilgan tahlil, ushbu soha tarmoqlarida uning hajmi oshib, ijobiy siljishlar ro’y berayotganligini ko’rsatdi. Tahlil natijalari shundan dalolat berdiki, 2024 yilda xizmat ko’rsatish sohasi tarmoqlari bo’yicha innovatsiyalar hajmining eng ko’p qismi aloqa va axborotlashtirish (12,1 foiz), moliyaviy xizmatlar (5,8 foiz), savdo xizmatlari (6,1 foiz) hissasiga to’g’ri kelmoqda (1-jadval).

1-jadval

2023-2024 yillarda O’zbekistonda xizmat ko’rsatish tarmoqlari bo’yicha innovatsiyalar hajmi dinamikasi [13]

№	Xizmat ko’rsatish sohasi tarmoqlari	Yillar				2024 yilning 2023 yilga nisbatan o’zgarishi, (+;-)
		2023		2024		
		hajmi, mlrd. so’m	ulushi, % da	hajmi, mlrd. so’m	ulushi, % da	
1.	Aloqa va axborotlashtirish	3907,7	14,9	4897,0	12,1	+989,3
2.	Moliyaviy xizmatlar	1927,2	7,3	2357,8	5,82	+430,6
3.	Transport xizmanlari	1673,7	6,4	123,4	0,3	-1550,3
4.	Yashash va ovqatlanish xizmatlari	28,7	0,1	71,8	0,17	+43,1
5.	Savdo xizmatlari	938,7	3,6	2592,8	6,04	+1654,1
6.	Ko’chmas mulk bilan bog’liq xizmatlar	50,4	0,2	63,1	0,15	+12,7
7.	Ta’lim sohasidagi xizmatlar	20,2	0,1	68,7	0,17	+48,5
8.	Sog’liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	35,4	0,1	188,7	0,5	+153,3
9.	Ijara xizmatlari	33,7	0,12	42,8	0,11	+9,1
10.	Компьyuter va maishiy tovarlarni ta’mirlash bo’yicha xizmatlar	17105,1	65,0	29839,9	73,7	+12734,8
11.	Shaxsiy xizmatlar	65,6	0.3	6,8	0,01	-58,8
12.	Me’morchilik va muhandislik ishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	88,9	0,3	156,8	0,38	+67,9
13.	San’at, ko’ngil ochish va dam olish	12,4	0,1	2,9	0,007	-9,5
14.	Boshqa xizmatlar	504,9	1,9	88,1	0,2	-416,8
	Xizmat ko’rsatish sohasi bo’yicha innovatsiyalar hajmi	**26293,7**	**100,0**	**40451,6**	**100,0**	**+14157,9**

1-jadval ma’lumotlari xizmat ko’rsatish sohasining sog’liqni saqlash, ta’lim, shuningdek, ko’chmas mulk bilan bog’liq tarmoqlarida innovatsiyalar hajmi oshayotganligini ko’rsatmoqda. Ammo, ularning jami innovatsiyalar hajmidagi ulushi juda past. Masalan, ta’lim sohasidagi xizmatlar tarmog’ida yaratilgan innovatsiyalar hajmi xizmat ko’rsatish sohasida yaratilgan innovatsiyalar hajmining 0,2 foizini, sog’liqni saqlash sohasidagi xizmatlar esa 0,5 foizni tashkil etayapti. O’zbekistonda 36,0 mln.dan ortiq aholi istiqomat qilayotgan sharoitda ijtimoiy sohalarda yaratilayotgan innovatsiyalar hajmini qoniqarli, deb xulosa chiqarib bo’lmaydi. Demak tahlililar xizmat ko’rsatish sohasida raqamli texnologiyalardan foydalanilmayotganligini anglatadi. Shu sababli xizmat ko’rsatish sohasining YaIM

ulushi rivojlangan mamlakatlar darajasida emas. Shuni ham alohida ta’kidlab o’tish o’rinliki, O’zbekistonda raqamli texnologiyalarni kashf etish, yangi dasturiy mahsulotlarni ishlab chiqish juda sust. Bu borada sohadagi ilmiy tadqiqot ishlarni rivojlantirish, olimlar, ilmiy tadqiqotchilar mehnatini rag’batlantirish choralarini kengaytirish talab etiladi.

Xulosa va takliflar. Bizning nazarimizda, O’zbekistonda ijtimoiy sohalarni jadal rivojlantirish, xizmatlar bozorini innovatsion xizmatlar (mahsulotlar) bilan to’ldirish uchun mavjud iqtisodiy subyektlarning innovatsion faoliyati bilan to’liq va erkin faoliyat olib borishlariga davlat tomonidan yetarlicha muhit yaratib berilishi kerak, jumladan:

-xizmat ko’rsatish sohasida innovatsion faollikni oshirish uchun xizmat ko’rsatayotgan respublika va hududiy doiradagi loyihalarni qo’llab-quvvatlash va moliyalashtirish;

-davlat tomonidan mualliflik huquqlarini himoya qilishini ta’minlash hamda ushbu faoliyatdan olingan daromadlarga imtiyozli soliq stavkalarni o’rnatish;

- xizmat ko’rsatish faoliyatida innovatsiya jarayonlarini amalga oshiruvchi malakali kadrlarni tayyorlash va doimiy malaka oshirish kurslarini joriy etish;

-xizmat ko’rsatish korxonalarining innovatsion faoliyatiga doir yangiliklar, axborotlar bilan ta’minlash tizimini takomillashtirish, yangi joriy etilgan innovatsion ishlanmalar, tugallangan ilmiy tadqiqotlar to’g’risida ma’lumotlar bazasini yaratish;

- xizmat ko’rsatish korxonalarida innovatsiya faoliyatini to’laqonli amalga oshirish uchun davlat tomonidan moliyaviy yordam ko’rsatish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yhati

1.Country Meters. World – current world population. https://countrymeters.info/ru/World

2.Oberlo. How Many People Use the Internet. https://www.oberlo.com/statistics/how-many-people-use-internet

3.International Telecommunication Union (2024). *Global Internet use continues to rise but disparities remain, especially in low-income regions.* https://www.itu.int/en/mediacentre/Pages/PR-2024-11-27-facts-and-figures.aspx?utm_source

4.DataReportal. Digital 2022: Time Spent Using Connected Tech Continues to Rise. https://datareportal.com/reports/digital-2022-time-spent-with-connected-tech

5.Бакеев М.Б. Цифровая экономика и электронная коммерция: теоретические и практические аспекты — Санкт-Петербург: СПбГУ, 2020. — 180 с.

6.Ломакин С.В., Самойлов А.М. Влияние внешних и внутренних факторов на развитие электронной торговли в России // Экономика и управление. — 2020. — Т. 26, № 4. 321–330 с.

7.Головенчик Г.Г. Экономическая эффективность электронной торговли в условиях цифровизации // Вестник Белорусского государственного университета. Серия: Экономика. — 2021. — № 2. — С. 45–56.

8.Rouse, M. 2016. Digital Economy, Techtarget, Newton, MA. http://searchcio.techtarget.com/definition/ digital-economy.

9. Gulyamov S.S. Raqamli iqtisodiyotda blokcheyn texnologiyalar: O'quv qo'llanma / S.S.Gulyamov, R.H.Ayupov, O.M.Abdullayev, G.R.Baltabayeva; — T.: «Iqtisod-Moliya", 2019, - 380 b.

10. Jumaev N.X. Raqamli iqtisodiyot nega kerak va u nima beradi? – 12.03.2020. – Elektron resurs: https://review.uz/oz/post/raqamli-iqtisodiyot-mam¬lakatimiz-taraqqiyoti-garovidi

11. Umarov O.S. Raqamli iqtisodiyot va uning rivojlanish tendentsiyalari. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 3, may iyunь, 2018 yil.

12. Информационная инициатива по продвижению Целей устойчивого развития // https://theworldonly.org

13. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tayyorlandi //www.stat.uz

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA AXBOROT KOMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI AUTSORSINGIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Ruzmetov Baxtiyar
Abu Rayhon Beruniy nomidagi
Urganch davlat universiteti professori,
Barqaror Rivojlanish Markazi
Xorazm viloyati bo‘linmasi rahbari
ORCID: 009-009-2140-3363

Annotatsiya. Maqolada jahon miqyosida raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi va bu jarayonning mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy tizimiga, davlat boshqaruvi hamda iqtisodiy tarmoqlarga ta’siri tahlil qilingan. IT-autsorsing xizmatlaridan foydalanishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi ishlab chiqilgan bo‘lib, strategik boshqaruv, funksional yondashuv va iqtisodiy samaradorlikni oshirishga qaratilgan. Raqamli transformatsiya sharoitida korxonalarning raqobatbardoshligini ta’minlashda autsorsing xizmatlarining o‘rni ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: Raqamli iqtisodiyot, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, IT-autsorsing, tashkiliy-iqtisodiy mexanizm, raqamli transformatsiya, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari, strategik boshqaruv, iqtisodiy samaradorlik.

Jahonda shiddat bilan rivojlanayotgan raqamli texnologiyalar mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va davlat boshqaruv tuzilishi sifat hamda texnologik jihatdan tubdan o‘zgarishiga olib kelmoqda. Shu bilan birga raqamli texnologiyalarning nomutanosib rivojlanishi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga turlicha tatbiq etish sur’atlari oqibatida mamlakatlar iqtisodiy rivojlanishidagi tafovutlarining yanada kuchayishiga sabab bo‘lmoqda. 2023-yil yakuniga ko‘ra, “raqamli iqtisodiyotning o‘sish sur’atlari 115,5 foizni tashkil etib, axborot-texnologiyalarining yalpi ichki mahsulot o‘sishiga nisbatan AQSHda – 110,9 foiz, Xitoy Xalq Respublikasida – 110,0 foiz, Hindistonda – 105,5 foizni tashkil etgan”[1]. Xalqaro tadqiqotlardan ma’lum bo‘ladiki, raqamli transformatsiyalash jarayonlarini tezlashtirish va raqamli xizmatlar ko‘lamini kengaytirilishning innovatsion yondashuvlarini ishlab chiqish, jumladan IT-autsorsing xizmatlaridan foydalanishni yanada kengaytirish orqali aloqa va axborotlashtirish korxonalari raqobatbardoshlikka erishmoqdalar.

Jahon iqtisodiyotida kuzatilayotgan globallashuv sharoitida axborot kommunikatsion texnologiyalari autsorsingi xizmatlarini takomillashtirish muammo- lariga yo‘naltirilgan ilmiy izlanishlar amalga oshirilmoqda. Raqamli transformatsiya sharoitida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan maqsadli va samarali foydalanish, tadbirkorlik subyektlarining aloqa va axborotlashtirish xizmatlarini yanada kengaytirish, foydalanish ko‘lamini oshirish, korxonalarda IT-autsorsingdan foydalanish bo‘yicha maqsadli qarorlar qabul qilish va qo‘llab-quvvatlashning zamonaviy usullari hamda iqtisodiy dastaklarini joriy etish, axborot-

kommunikatsiya texnologiyalari IT-autsorsing xizmatlarini yanada kengaytirish mexanizmlarini ishlab chiqish, mantiqiy-axborot modellarini ishlab chiqish bu borada olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishlaridan hisoblanadi.

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda iqtisodiyotda raqamli transformatsiya jarayonlarini jadallashtirishga qaratilgan keng qamrovli islohotlar doirasida mamlakatning ijtimoiy- iqtisodiy hayoti va davlat boshqaruvi tizimiga raqamli texnologiyalarni joriy etish borasida bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son ““O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston – 2030” strategiyasining 57-maqsadi sifatida “Raqamli texnologiyalarni rivojlantirgan holda mamlakatni mintaqaviy “IT-HUB”ga aylantirish”, bunda “BMTning elektron hukumat reytingida TOP-30 talikka kirishga erishish” maqsadlari belgilangan[2]. Mazkur vazifalarning ijrosini amalga oshirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish, telekommunikatsiya xizmatlarida IT-autsorsingdan foydalangan holda xo‘jalik yurituvchi subyektlarning axborot tizimlarini ishlab chiqish va qo‘llab- quvvatlash mexanizmlarini ishlab chiqish, iqtisodiy faoliyat subyektlarining axborot tizimlarini ishlab chiqish va qo‘llab-quvvatlash loyihalarini ishlab chiqish masalalarni hal etishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar dolzarb hisoblanadi.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida korxonalarning AKTdan foydalanishi uchun keng imkoniyatlar yaratishda, hamda ushbu sohani rivojlantirishda duch kelinayotgan muammolar yechimini topishda mazkur sohada faoliyat yuritayotgan bozor subyektlari, jumladan aloqa va axborotlashtirish xizmatlari ko‘rsatuvchi korxonalar uchun muhim yo‘nalishdir. Ushbu yo‘nalishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari autsorsingi xizmatlaridan foydalanish yuqori ahamiyatga ega. Bu jarayonda aloqa kompaniyalari o‘zining ichki IT vazifalarini tashqi mutaxassislarga yoki tashkilotlarga topshirib, o‘z resurslarini boshqa muhim yo‘nalishlarga yo‘naltirish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Turli fan va sohalar bo‘yicha “autsorsing” atamasining ko‘plab talqinlari mavjud bo‘lib, “Autsorsing” (outsourcing) – biznes jarayonlari, xizmatlari yoki funksiyalarini tashqi tashkilotlar yoki kompaniyalarga berish jarayoni deb qaraladi. Bu, odatda, kompaniyaning o‘z resurslarini samarali boshqarish, xarajatlarni kamaytirish va maxsus bilim va ko‘nikmalardan foydalanish maqsadida amalga oshiriladi. Autsorsing IT xizmatlari, buxgalteriya, marketing, logistika va boshqa sohalarda qo‘llanilishi mumkin. Aloqa va axborotlashtirish sohalarida esa IT autsorsingi loyiha ishlarini va/yoki biznes funksiyalarini minimal xarajat bilan yuqori sifat darajasida amalga oshirish uchun uchinchi tomon pudratchilariga topshirishni nazarda tutadi.

Aloqa va axborotlashtirish kompaniyalari uchun autsorsing xizmatlarini tashkil etish o‘zining ayrim funksiyalari (dasturiy ta’minot, IT dasturlash tillar) bo‘yicha tashqi mutaxassislar yoki tashkilotlarni jalb qiladi. Bu xizmatlar tashqi tashkilot tomonidan muayyan shartnoma asosida ko‘rsatiladi. Bundan kelib chiqib, autsorsing xizmatlari tashkilot yoki kompaniyalar uchun o‘zining texnologik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarning imkoniyatlariga ega bo‘lmagan

korxonalar uchun iqtisodiy faoliyatni tashkil etishdagi ma’lum funksiyalarni bajarishda sinergetik ta’sirni yuzaga chiqarish imkonini beradi.

Xalqaro amaliyotda IT-autsorsingini tashkil etishning bir qator yo‘nalishlari va modellari mavjud bo‘lib, mazkur modellar asosida muallif tomonidan O‘zbekistonda aloqa va axborotlashtirish xizmatlari sohalarida autsorsingdan foydalanishning funksional jarayonlarini aniqlash orqali mazkur tizimni yaratish uchun asoslarni aniqlash imkonini bergan (1-rasm).



1-rasm. Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari sohalarida autsorsingdan foydalanishning funksional sxemasi

Autsorsingni amalga oshirish mexanizmi, birinchi navbatda, korxonaning tashkiliy tuzilmasini o‘zgartirish (vertikal va gorizontal boshqaruv aloqalarini qisqartirish va faqat asosiy faoliyatga e’tibor qaratish) orqali boshqaruv, ikkinchidan, korxonaning bozordagi mavqei mustahkamlanishiga olib keladigan jarayonni bajarish xarajatlarini kamaytirish, uning sifatini oshirish, risklarni kamaytirishga asoslangan iqtisodiy samaraga erishishga qaratilgan.

MMR (Maximize Market Research) tomonidan taqdim etilgan hisobotda Global IT-autsorsing bozori hajmi 2023-yilda 332,89 mlrd. AQSH dollariga baholangan. 2021- yilda kuzatilgan umumiy daromad 2029-yilgacha 4,52 foizga o‘sishi va qariyb 474,14 mlrd. AQSH dollarini tashkil qilishi prognoz qilingan. Ushbu holatlar mahalliy korxonalar uchun ham ahamiyatli bo‘lib, IT-autsorsing ishtirokchilariga bozor imkoniyatlarini aniqlash va tizimni joriy etishga oid bozor imkoniyatlari mavjudligidan dalolat beradi(1-jadval).

1-jadval


O‘zbekistonda iqtisodiy faoliyat turi bo‘yicha “Axborot va aloqa” sohasida faoliyatko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

Ko‘rsatkichlar	2018-yil	2019-yil	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil
Axborot va aloqa korxonalari jami	6 975	7 901	9 517	10 578	12204	10551
shu jumladan:						
Boshqa dasturiy ta’minotlarini chiqarish	206	248	315	352	425	494
Kino-videofilimlar, television dasturlar, fonogrammalar va musiqali dasturlarni ishlab chiqarish	205	227	293	353	400	305
Kompyuter dasturlashtirish sohasidagi faoliyat	561	710	896	1 121	1618	1602

Kompyuter texnologiyalari sohasidagi maslahat xizmatlari	272	309	387	461	536	583
Kompyuter uskunalari boshqarish bo‘yicha faoliyat	122	149	198	243	290	269
Axborot texnologiyalari va kompyuter tizimlari sohasidagi boshqa faoliyat turlari	1 051	1 217	1 433	1 596	1993	1694
Ma’lumotlarni joylashtirish va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar,	317	396	510	628	704	604
Simli aloqa xizmatlarini taqdim etish	542	457	463	362	386	296
Simsiz aloqa xizmatlarini taqdim etish	1065	1127	1382	1457	1588	1223
Boshqa telekommunikatsiya xizmatlari ko‘rsatish	606	805	1017	1255	1253	992
Boshqalar	**3 576**	**3 869**	**4 579**	**4 820**	**6790**	**8548**

Manba: stat.uz

O‘zbekiston Respublikasida “Axborot va aloqa” sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 2019-yilda 6 975 tani tashkil etgan bo‘lsa, 2023-yilda ular soni 12204 taga yetgan. Tahlil yillarida, mazkur sohada o‘rtacha 1400 tadan korxonalar faoliyati yo‘lga qo‘yilgan. 2023-yilda 2019-yilga nisbatan kompyuter dasturlashtirish sohasidagi faoliyat, ma’lumotlarni joylashtirish va ishlov berish bo‘yicha xizmatlari hamda kompyuter uskunalari boshqarish bo‘yicha faoliyat bilan shug‘ullanuvchi korxonalar deyarli 2 barobar ko‘paygan. Telekommunikatsiya xizmatlari ko‘rsatish ham yillar davomida o‘sib borish



tendensiyasi kuzatilgan, jumladan, 2019-yilda jami telekommunikatsiya xizmatlari soni 606 tani tashkil etgan bo‘lsa, 2023-yilda ular soni 992 taga yetgan.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida “Axborot va aloqa” sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalarning autsorsing xizmatlaridan foydalanish samaradorligini tahlil qilish bir necha bosqichlarni o‘z ichiga olib, bunda autsorsing qilinadigan faoliyat turlarini aniqlash, autsorsing turini tanlash, faoliyatning iqtisodiy maqsadga muvofiqligi va texnologik zarurligini baholash, hamda autsorser va buyurtmachi o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikning samarali tashkiliy shakllarini ishlab chiqish zarur. Tadqiqot ishida IT-kompaniyalarida autsorsing xizmatlaridan foydalanishga doir qaror qabul qilish murakkab strategik masala sifatida qaraldi va muallif tomonidan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari autsorsingi xizmatlaridan foydalanishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi ishlab chiqilgan. Ushbu mexanizm strategik maqsadlar, autsorsing vazifalari, strategik boshqaruv funksiyalari, korxona tuzilmasini o‘zgartirishda hisobga olinadigan tamoyillar va qoidalar, uslubiy yordamni o‘z ichiga olgan tizim sifatida taqdim etildi (2-rasm).

2-rasm. Raqamli iqtisodiyot sharoitida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari autsorsingi xizmatlaridan foydalanishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi

Autsorsing xizmatlaridan foydalanishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi tashkilotlarga axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish, xarajatlarni tejash va tezkor innovatsiyalarga erishish imkoniyatini beradi. Lekin tizimni yo‘lga qo‘yishda to‘g‘ri rejalashtirish va nazorat katta ahamiyatga ega.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari autsorsingi xizmatlaridan foydalanish bosqichida uning maqsad va vazifalarini strategik tahlil qilish, asosiy elementlarini, ya’ni mavzu, obyekt, maqsadlar va unga erishish usullarini o‘rganish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. https://review.uz/post/uzbekistan

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11sentyabrdagi PF-158-son ““O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. https://lex.uz/ru/docs/6600413

RETURN-ON-ECOLOGY: AN INVESTMENT PRIORITIZATION METRIC FOR SME ENVIRONMENTAL IMPROVEMENTS IN UZBEKISTAN

Supervisor
Temirkhanova Mutabar Jurayevna
Dsc, Head of the department «Accounting and audit»
National Research University "Tashkent Institute of Irrigation and Agricultural Mechanization Engineers institute "
ORCID: 0000-0002-5589-0368

Mansurov Abdumavlon Abduazim ugli
Tashkent Institute of Management and Economics
Department of Business Management, specialization: State Financial Control and Audit, 1st-year Master's student
ORCID: 0009-0008-5610-557X

Abstract. Environmental audits answer the question of what is wrong. They do not answer the question of where to spend money first. That is where the chain from inspection to action breaks. This paper introduces Return-on-Ecology (RoE): a number that takes audit findings and turns them into a ranked list of specific investment steps. RoE adds up four financial return streams - penalty reduction, ESG credit discount, resource savings, and green finance access - then divides their total by the cost of each improvement. Calculations on 2022-2024 data from Uzbekistan's Ministry of Ecology, National Bank, and Tashkent Stock Exchange show that with the right first step, investments pay back within 12-24 months.

Keywords: environmental audit, Return-on-Ecology, SMEs, green finance, ESG discount, investment prioritization, Uzbekistan.

Introduction. Since the introduction of mandatory environmental auditing in Uzbekistan under Law ZRU-678 in 2019, a compliance paradox has emerged that the legislative framework did not anticipate. According to a survey conducted by the Ministry of Ecology (2023), 61% of small and medium enterprise (SME) managers who fulfilled their mandatory audit obligations undertook no remedial action upon receiving their audit findings. When surveyed, respondents consistently cited two interrelated obstacles: an inability to determine the relative priority of identified violations and an absence of any mechanism for assessing the financial viability of proposed corrective measures. The environmental audit, as currently practised, delivers a register of non-conformities without providing the analytical tools necessary for informed investment decision-making.

The existing scholarly literature on environmental auditing addresses alternative compliance mechanisms in developing economies [1] and the institutional determinants of environmental governance [2]. However, the relationship between audit findings and subsequent capital allocation at the firm level remains largely unexamined. Specifically, the literature does not address how

enterprises should translate auditor recommendations into concrete investment priorities. The present paper is directed toward closing this analytical gap.

The contribution of this study is applied rather than theoretical in nature. The proposed methodology reduces the heterogeneous financial returns associated with distinct categories of ecological improvement to a single, commensurable index. This index is derived entirely from publicly available data sources, requiring no proprietary software. The prioritisation algorithm has been designed to be operationally accessible to practising auditors, without necessitating specialist financial expertise.

Annotatsiya. Ushbu maqola Surxondaryo viloyati sug‘oriladigan yerlarida suvdan foydalanish samaradorligini baholashning dolzarb muammolariga bag‘ishlangan. Unda mavjud baholash usullari tanqidiy tahlil qilinib, ularning mintaqa sharoitlariga mosligini oshirish bo‘yicha takliflar ilgari suriladi. Tadqiqot natijalari suv resurslaridan oqilona foydalanishni ta’minlash, qishloq xo‘jaligi ekinlari hosildorligini oshirish va ekologik barqarorlikni mustahkamlashga qaratilgan. Maqolada suv xo‘jaligini boshqarishda zamonaviy yondashuvlarni qo‘llashning ahamiyati asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: Suvdan foydalanish samaradorligi, Sug‘oriladigan yerlar, Surxondaryo viloyati, Baholash usullari, Suv resurslari, Qishloq xo‘jaligi, Irrigatsiya, Suv xo‘jaligi

Kirish. Sug‘oriladigan yerlarda suvdan samarali foydalanish global miqyosda, xususan, O‘zbekiston kabi suv resurslari cheklangan mintaqalarda dolzarb muammo hisoblanadi. Iqlim o‘zgarishi, aholi sonining o‘sishi va qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga bo‘lgan talabning ortishi sharoitida suvdan oqilona foydalanish iqtisodiy barqarorlik va ekologik xavfsizlikni ta’minlashning asosiy omillaridan biriga aylanmoqda [5]. O‘zbekiston suv resurslarining atigi 20 foizini o‘z hududida shakllantiradi va 2030 yilga borib suv taqchilligi 15 milliard kub metrga yetishi kutilmoqda [5]. Qishloq xo‘jaligi mamlakatda suv iste’molining 90 foizini tashkil etadi, bu esa 4.3 million gektar sug‘oriladigan yerlarga suv yetkazib berishni talab qiladi [5].

Mamlakatda sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash va suvdan foydalanish samaradorligini oshirish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, 2019 yil 17 iyundagi PF-5742-sonli Prezident Farmoni qishloq xo‘jaligi yer va suv resurslaridan samarali foydalanishni kuchaytirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni belgilab berdi [3]. Ushbu hujjatda yer hisobini aniqlash, ko‘p maqsadli davlat yer kadastrini rivojlantirish, ekinlarni joylashtirishni optimallashtirish va suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy etish kabi yo‘nalishlar ustuvor vazifa sifatida ko‘rsatilgan [3]. Shuningdek, 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan yer va suv resurslaridan samarali foydalanish konsepsiyasi, “yo‘l xaritasi” va prognoz ko‘rsatkichlari tasdiqlangan [4].

Biroq, mavjud sug‘orish tarmoqlarining eskirganligi va suv yo‘qotishlarining yuqoriligi suvdan foydalanish samaradorligini pasaytiruvchi asosiy omillardan bo‘lib qolmoqda [4, 5]. Tabiiy kanallardan yiliga taxminan 14 milliard kub metr suv yo‘qotilishi hisobga olinib, O‘zbekiston 2024-yilni kanallarni betonlash yili deb e’lon

qildi [5]. Surxondaryo viloyati ham bu borada faol ish olib bormoqda, viloyatda 326 ming gektar sug‘oriladigan yer mavjud bo‘lib, 2024 yil boshidan buyon 312 km davlat kanallari va 1542 km ichki sug‘orish tarmoqlari betonlashtirildi [2]. Ushbu sa’y-harakatlar natijasida suv yo‘qotishlari kamayib, kamida 20 foiz suvni tejash va qo‘shimcha qishloq xo‘jaligi maydonlarini sug‘orish imkoniyati yaratilishi kutilmoqda [2].

Mazkur tadqiqot Surxondaryo viloyati misolida sug‘oriladigan yerlarda suvdan foydalanish samaradorligini baholashning mavjud usullarini tahlil qilish, ularning amaliy ahamiyatini ko‘rsatish va samaradorlikni oshirish bo‘yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishga qaratilgan. Tadqiqot natijalari suv resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish va qishloq xo‘jaligida barqaror rivojlanishni ta’minlashga xizmat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Suv resurslaridan samarali foydalanishni baholash usullari bo‘yicha ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, bu soha global miqyosda tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Iqlim o‘zgarishi va aholi sonining o‘sishi sharoitida suvdan oqilona foydalanishni ta’minlashga qaratilgan tadqiqotlar soni ortib bormoqda. Xalqaro miqyosda suvdan foydalanish samaradorligini baholashda turli yondashuvlar qo‘llaniladi, jumladan, suv mahsuldorligi, suv izi va turli samaradorlik ko‘rsatkichlari (fizikaviy, iqtisodiy, agronomik). Zamonaviy tadqiqotlar nafaqat texnik va agronomik jihatlarga, balki ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik omillarni ham qamrab oluvchi kompleks baholash usullariga e’tibor qaratmoqda. Masofaviy zondlash, geografik axborot tizimlari (GAT) va gidrologik modellashtirish kabi ilg‘or texnologiyalar suv taqsimotini optimallashtirish, yo‘qotishlarni kamaytirish va ekinlarning suvga bo‘lgan ehtiyojini aniqroq belgilashda keng qo‘llanilmoqda.

O‘zbekistonda sug‘oriladigan yerlarda suvdan foydalanish samaradorligini oshirish masalasi so‘nggi yillarda davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangan. Bu borada qabul qilingan qator me’yoriy-huquqiy hujjatlar, jumladan, 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan yer va suv resurslaridan samarali foydalanish konsepsiyasi, "yo‘l xaritasi" va prognoz ko‘rsatkichlari mamlakatda suv xo‘jaligini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlarini belgilab bergan. Ushbu hujjatlarda sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy etish, suv yo‘qotishlarini kamaytirish maqsadida sug‘orish tarmoqlarini rekonstruksiya qilish va investorlarni jalb qilish kabi strategik vazifalar ilgari surilgan. Tadqiqotchilar ushbu konsepsiyaning amalga oshirilishi suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirishga xizmat qilishini ta’kidlamoqdalar, biroq uning amaliy ijrosidagi muammolar va natijalarni baholash bo‘yicha chuqur tahlillarga ehtiyoj borligini ham qayd etishadi.

Suv taqchilligi kuchayib borayotgan O‘zbekistonda suvdan foydalanish samaradorligini oshirishga qaratilgan amaliy chora-tadbirlar va ularning ilmiy asoslanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakatda suv resurslarining atigi 20 foizi o‘z hududida shakllanadi va 2030 yilga borib suv taqchilligi 15 milliard kub metrga yetishi kutilmoqda [5]. Qishloq xo‘jaligi suv iste’molining 90 foizini tashkil etishi sababli, bu sohada samaradorlikni oshirish harakatlari umumiy suv balansiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Adabiyotlarda ta’kidlanishicha, sug‘orish tarmoqlarining eskirganligi

va yiliga taxminan 14 milliard kub metr suv yo‘qotishlari asosiy muammolardan biridir [5]. Shu sababli, 2024 yil kanallarni betonlash va 2025 yil nasos stansiyalari samaradorligini oshirish yili deb e’lon qilingan [5]. Bu doirada 676.7 milliard so‘m evaziga 555 km kanallar rekonstruksiya qilinib, 433 km betonlashtirilgan. Shuningdek, 13.5 ming km ichki sug‘orish tizimlari betonlashtirilishi 300 ming gektar maydonning suv ta’minotini yaxshilab, sug‘orish samaradorligini 0.66 dan 0.67 ga oshirgan [5]. 1 milliard dollar ajratilgan nasos stansiyalarini modernizatsiya qilish yiliga 450 million kub metr suv yo‘qotishini kamaytirishi kutilmoqda [5].

Surxondaryo viloyati misolida suvdan foydalanish samaradorligini baholash bo‘yicha olib borilayotgan ishlar ham alohida e’tiborga loyiq. Viloyatdagi 326 ming gektar sug‘oriladigan yerlarning suv ta’minotini yaxshilash maqsadida keng ko‘lamli betonlash ishlari amalga oshirilmoqda. 2024 yil boshidan buyon 312 km davlat kanallari va 1542 km ichki sug‘orish tarmoqlari betonlashtirilgan [2]. Bu ishlar Prezident farmoni bilan tasdiqlangan moliyalashtirish mexanizmlari, jumladan, suvdan foydalanish solig‘i tushumlarining 40 foizini "Suv yetkazib berish xizmati" davlat korxonalariga yo‘naltirish hisobiga jadallashgan [2]. Mutaxassislar bu chora-tadbirlar natijasida suv yo‘qotishlari kamayib, kamida 20 foiz suvni tejash va qo‘shimcha maydonlarni sug‘orish imkoniyati yaratilishini kutmoqdalar [2]. Biroq, bunday loyihalarning haqiqiy samaradorligini baholash uchun aniq va tizimli monitoring usullari, shuningdek, loyiha oldi va loyihadan keyingi holatni qiyosiy tahlil qilishga asoslangan ilmiy tadqiqotlar zarur. Mavjud adabiyotlarda Surxondaryo viloyatining o‘ziga xos tabiiy-iqlim sharoitlari, suv resurslari manbalari va ekinlar tarkibi hisobga olingan holda suvdan foydalanish samaradorligini baholash bo‘yicha chuqur tahlillar yetarli emas.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, suvdan foydalanish samaradorligini baholashda ko‘pincha umumiy ko‘rsatkichlar va makro darajadagi ma’lumotlar asosida xulosalar chiqariladi. Biroq, mintaqaviy va mikro darajadagi (viloyatlar, tumanlar, fermer xo‘jaliklari miqyosidagi) samaradorlikni baholash usullari va ularning amaliy qo‘llanilishi bo‘yicha tadqiqotlar cheklangan. Ayniqsa, suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy etishning iqtisodiy-ekologik samaradorligini baholash, ularning mahalliy sharoitlarga moslashuvchanligini aniqlash bo‘yicha izlanishlar dolzarb. Shuningdek, suv resurslarini boshqarishda raqamli texnologiyalarni ("aqlli sug‘orish" tizimlari) qo‘llash va ularning samaradorligini baholash bo‘yicha ilmiy ishlar ham kengayishi lozim. Ushbu tadqiqot Surxondaryo viloyati misolida suvdan foydalanish samaradorligini baholashning mavjud usullarini chuqur tahlil qilish, ularning amaliy ahamiyatini ko‘rsatish va viloyatning o‘ziga xos sharoitlariga mos keladigan, ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish orqali bo‘shliqlarni to‘ldirishga qaratilgan. Bu suv resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish va qishloq xo‘jaligida barqaror rivojlanishni ta’minlashga muhim hissa qo‘shadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot sug‘oriladigan yerlarda suvdan foydalanish samaradorligini baholashning nazariy va amaliy jihatlarini o‘rganish hamda Surxondaryo viloyati misolida mavjud holatni tahlil qilishga qaratilgan. Tadqiqotda suv resurslaridan foydalanish samaradorligini aniqlash, unga ta’sir etuvchi omillarni baholash va samaradorlikni oshirish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish maqsadida kompleks metodologik yondashuv qo‘llanildi.

Tadqiqotning nazariy asosini suv resurslarini boshqarish, sug‘orish tizimlari samaradorligi, qishloq xo‘jaligida suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish hamda suvdan foydalanishning iqtisodiy va ekologik jihatlariga bag‘ishlangan mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy ishlari tashkil etdi. Shuningdek, suv xo‘jaligi sohasiga oid normativ-huquqiy hujjatlar, davlat dasturlari va xalqaro tashkilotlarning hisobotlari o‘rganildi.

Tadqiqot jarayonida statistik tahlil usulidan foydalanilib, Surxondaryo viloyatining sug‘oriladigan yer maydonlari, suv iste’moli hajmi, ekinlar hosildorligi, suv ta’minoti darajasi va meliorativ holatiga oid ma’lumotlar yig‘ildi va tahlil qilindi. Ma’lumotlar dinamik va strukturaviy tahlil usullari asosida o‘rganilib, suvdan foydalanish ko‘rsatkichlarining yillar davomida o‘zgarish tendensiyalari aniqlandi.

Tadqiqotda taqqoslama tahlil usuli yordamida viloyatning turli tumanlari hamda alohida xo‘jaliklar kesimida suvdan foydalanish samaradorligi ko‘rsatkichlari solishtirildi. Bundan tashqari, suv resurslaridan foydalanish bo‘yicha milliy va xalqaro tajribalar o‘rganilib, ularning afzalliklari va amaliy ahamiyati baholandi.

Suvdan foydalanish samaradorligini baholashda iqtisodiy tahlil usullari qo‘llanilib, 1 gektar sug‘oriladigan yerga sarflangan suv hajmi, bir kub metr suv hisobiga olingan qishloq xo‘jaligi mahsuloti, hosildorlik va iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari hisoblab chiqildi. Shu asosda suv resurslaridan foydalanishning iqtisodiy natijalari baholandi va mavjud muammolar aniqlandi.


Tadqiqotda korrelatsion va regressiya tahlili usullaridan foydalanilib, suv sarfi bilan hosildorlik, yalpi mahsulot hajmi hamda iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi bog‘liqlik darajasi aniqlandi. Ushbu usullar suv resurslaridan foydalanish samaradorligiga ta’sir etuvchi omillarning ahamiyatini baholash va istiqboldagi o‘zgarishlarni prognoz qilish imkonini berdi.

Shuningdek, ekspert baholash usuli asosida suv xo‘jaligi tashkilotlari mutaxassislari, fermer xo‘jaliklari rahbarlari va ilmiy tadqiqotchilarning fikr-mulohazalari o‘rganildi. Ekspertlar tomonidan bildirilgan taklif va tavsiyalar suvdan foydalanish samaradorligini oshirishning ustuvor yo‘nalishlarini aniqlashda muhim manba bo‘lib xizmat qildi.

Tadqiqotning axborot bazasini Surxondaryo viloyati suv xo‘jaligi tashkilotlari ma’lumotlari, qishloq xo‘jaligi statistikasi, ilmiy tadqiqot natijalari, rasmiy hisobotlar va boshqa ishonchli manbalar tashkil etdi. Olingan ma’lumotlar tizimlashtirilib, iqtisodiy-statistik dasturlar yordamida qayta ishlanib, ilmiy xulosalar shakllantirildi.

Tadqiqot natijasida Surxondaryo viloyatining sug‘oriladigan yerlarida suvdan foydalanish samaradorligini tavsiflovchi asosiy ko‘rsatkichlar baholandi, suv resurslaridan foydalanishdagi mavjud muammolar va yo‘qotishlar aniqlandi hamda suv tejovchi texnologiyalarni keng joriy etish, sug‘orish infratuzilmasini modernizatsiya qilish va suv resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi. Ushbu metodologik yondashuv tadqiqot natijalarining ilmiy asoslanganligi va amaliy ahamiyatini ta’minlashga xizmat qiladi.

Viloyatda ekinlarni sug‘orishda suv tejovchi texnologiyalarni joriy etilishi.[84]



	2000 йил	2005 йил	2010 йил	2015 йил
томчилатиб суғориш	411	450	600	1275
эгилувчан қувурлар ёрдамида суғориш	700	1500	3000	6637
эгатларга плёнка тушаб суғориш	680	970	1050	1423

Ma’lumotlarni tahlil qilishda qiyosiy va statistik tahlil, shuningdek, Geografik Axborot Tizimlari (GAT) usullaridan foydalaniladi. Qiyosiy tahlil betonlash ishlari amalga oshirilgan hududlardagi suvdan foydalanish samaradorligini loyiha oldi va keyingi holat bilan solishtirishga, shuningdek, betonlangan va betonlanmagan kanallar orqali sug‘oriladigan yerlardagi samaradorlik ko‘rsatkichlarini taqqoslashga qaratiladi. Statistik tahlil (korrelyatsiya, regressiya) suvdan foydalanish samaradorligiga ta’sir etuvchi omillarni (infratuzilma holati, ekin turi, boshqaruv usullari, iqlim sharoitlari) aniqlashga yordam beradi. GAT Surxondaryo viloyati miqyosida suv resurslari taqsimoti, yerlardan foydalanish va samaradorlik ko‘rsatkichlarining fazoviy o‘zgarishlarini vizualizatsiya va tahlil qilish imkonini beradi. Masofaviy zondlash ma’lumotlari (masalan, NDVI indekslari) ekinlarning vegetatsiya holati va suvga bo‘lgan ehtiyojini baholashda qo‘llanilishi mumkin.

Tadqiqot suv resurslarini boshqarishda raqamli texnologiyalar ("aqlli sug‘orish" tizimlari) va ularning Surxondaryo viloyati sharoitlarida qo‘llanilishi imkoniyatlarini o‘rganadi. Bu, ayniqsa, suv taqsimotini optimallashtirish va suv yo‘qotishlarini minimallashtirishda zamonaviy yechimlarning rolini baholashga qaratilgan. Tadqiqot natijalari asosida suvdan foydalanish samaradorligini oshirish bo‘yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar va takliflar ishlab chiqiladi, bu esa viloyat va mamlakat

[84] URXONDARYO VILOYATIDA SUV RESURSLARIDAN FOYDALANISHDA SUG‘ORISH USULIDAN FOYDALANISH TARIXI https://doi.org/10.5281/zenodo.11634716 Jumanazarova Komila Sharofiddin qizi

miqyosida suv resurslarini barqaror boshqarish siyosatini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Xulosa. Mazkur tadqiqot Surxondaryo viloyati misolida sug‘oriladigan yerlarda suvdan foydalanish samaradorligini baholashning kompleks usullarini tahlil qildi. Suv resurslari taqchilligi sharoitida, viloyatda amalga oshirilayotgan sug‘orish tarmoqlarini betonlash kabi infratuzilma loyihalarining suv yo‘qotishlarini kamaytirishdagi ahamiyati va iqtisodiy samaradorligi ko‘rsatildi. Tadqiqot fizikaviy, agronomik va iqtisodiy ko‘rsatkichlar asosida samaradorlikni baholashning amaliy jihatlarini yoritib berdi. Natijalar suv resurslarini boshqarishda zamonaviy texnologiyalar va ilmiy yondashuvlarning muhimligini tasdiqlab, mintaqaviy sharoitlarga moslashgan barqaror suvdan foydalanish strategiyalarini ishlab chiqish uchun asos yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Jha, M. K., & Singh, V. P. (Muharrirlar). Qishloq xo'jaligi suvini boshqarish: Muammolar va yechimlar. Singapore: Springer, 2021.
2. Singh, A. K., Singh, V. K., & Singh, S. K. (Eds.). Suv boshqaruvi Qurg'oqchil va yarim qurg'oqchil hududlarda: Muammolar va yechimlar. Singapore: Springer, 2021.
3. Jha, M. K., & Singh, V. P. (Muharrirlar.). Suv tanqisligi va barqaror qishloq xo'jaligi. Singapore: Springer, 2023.
4. Cai, X., Zhang, Y., & Wang, Y. "O'zgaruvchan iqlim sharoitida qishloq xo'jaligi suvdan foydalanish samaradorligini baholash uchun keng qamrovli tizim." Suv Resurslari Boshqaruvi, vol. 36, no. 1, 2022, pp. 1-18.
5. Qureshi, A. S., Khan, A. A., & Khan, M. A. "Takomillashtirilgan sug'orish boshqaruvi amaliyotlarining Pokistonda suv unumdorligiga ta'sirini baholash." Suv resurslari boshqaruvi, vol. 35, no. 1, 2021, pp. 293-309.
6. Shah, T., Karimov, A., & Ringler, C. "Pokistonning Hind havzasida qishloq xo'jaligi suv samaradorligini oshirish: Muammolar va imkoniyatlarga sharh." Xalqaro Suv, vol. 46, no. 1, 2021, pp. 1-20.
7. Liu, Y., Zhang, Y., & Li, Y. "Xitoyning qurg'oqchil hududlarida qishloq xo'jaligi suvdan foydalanish samaradorligi va uning ta'sir etuvchi omillarini baholash." Qurg'oqchil Yer Jurnali, vol. 13, no. 2, 2021, pp. 195-209.
8. Surxondaryo viloyatida suv resurslaridan foydalanishda sug‘orish usulidan foydalanish tarixi. https://doi.org/10.5281/zenodo.11634716 Jumanazarova Komila Sharofiddin qizi

BARQAROR IQTISODIY O‘SISH SHAROITIDA ENERGIYA TEJAMKORLIGI VA ENERGIYA SAMARADORLIGI: KONSEPTUAL FARQLAR VA RIVOJLANISH MEXANIZMLARI

Pardayeva Maftuna Ulug’bek qizi
TDIU tayanch doktoranti
ORCID:0009-0005-8889-7549

Annotatsiya. Ushbu tezisda mintaqaviy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish sharoitida "energiya tejamkorligi" va "energiya samaradorligi" tushunchalari o'rtasidagi konseptual farqlar ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Hududiy kichik sanoat zonalari misolida ishlab chiqarish hajmi va energiya iste'moli o'rtasidagi uzilish (decoupling) effekti baholanib, mintaqada asosan ma'muriy tejamkorlik usullari ustuvor ekanligi ko'rsatilgan. Tadqiqot xulosasi sifatida hududning ishlab chiqarish salohiyatini saqlab qolgan holda energiya sarfini optimallashtirish maqsadida zamonaviy texnologiyalarni moliyaviy rag'batlantirish, hududiy darajada sanoat simbiozini qo'llab-quvvatlash va investitsion loyihalarni ekonometrik monitoring qilish tizimini joriy etish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: mintaqaviy iqtisodiyot, energiya samaradorligi, energiya tejamkorligi, kichik sanoat zonalari, uzilish effekti (decoupling), sanoat simbiozi, texnologik modernizatsiya.

Kirish. Bugungi kunda mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish va uning raqobatbardoshligini oshirish bevosita ishlab chiqarish korxonalarining energiya ta'minoti hamda energiya resurslaridan oqilona foydalanish darajasiga bog'liq. Hududiy sanoat tarmoqlari, xususan, kichik sanoat va erkin iqtisodiy zonalarda ishlab chiqarish hajmining ortib borishi energiya resurslariga bo'lgan talabni muttasil oshirmoqda. Bunday sharoitda hududiy energetika siyosatini to'g'ri shakllantirish uchun "energiya tejamkorligi" va "energiya samaradorligi" tushunchalarining konseptual farqlarini ilmiy jihatdan farqlash va aynan samaradorlikka asoslangan mexanizmlarni joriy etish o'ta dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006-yil 7-avgustdagi "Yoqilg'i-energetika resurslari iste'molchilarini energetika tekshiruvidan va ekspertizadan o'tkazish qoidalarini tasdiqlash to'g'risida"gi 164-son qarorida quyidagi ta'riflar berilgan [1]:

energiyani tejash — energetika resurslaridan samarali foydalanishga yo'naltirilgan huquqiy, tashkiliy, ilmiy, ishlab chiqarish, texnik va iqtisodiy chora-tadbirlarni amalga oshirish; [2]

energetika resurslaridan samarali foydalanish — texnika va texnologiyalar rivojlanishining mavjud darajasida va atrof muhitni muhofaza qilishga qo'yiladigan talablarga rioya qilgan holda energetika resurslaridan foydalanishning iqtisodiy o'zini oqlagan samaradorligiga erishish. [2]

Iqtisodiy amaliyotda ham "energiya tejamkorligi" va "energiya samaradorligi" qo'llaniladigan tushunchalarning iqtisodiy o'sishga ta'sir etish mexanizmlari turlichadir. Energiya tejamkorligi asosan xulq-atvor va iste'mol odatlarini o'zgartirish, qulaylikni pasaytirish yoki uskunalar ish rejimini qisqartirish hisobiga energiyadan foydalanishni kamaytirishni nazarda tutadi. Bu yondashuv qisqa muddatli iqtisodiy samara bersa-da, uzoq muddatda mintaqaning ishlab chiqarish quvvatlariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ushbu mazmunan bir-biridan farq qiluvchi ikki tushuncha – "energiya tejamkorligi" va "energiya samaradorligi" o'rtasidagi dialektik bog'liqlikni va farqlarni aniqlashtirib olish maqsadga muvofiqdir. Ushbu tushunchalar ma'nosi bir-biriga yaqin tuyilsa-da, ularning iqtisodiy mohiyati va erishish mexanizmlari turlichadir. [3]

Tadqiqot metodologiyasi. Energiya tejamkorligi – bu energiya iste'molini mutlaq qisqartirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmui [2] bo'lib, u asosan iste'moldan vaqtincha voz kechish yoki cheklash orqali amalga oshiriladi — masalan, yoritish tizimini o'chirish yoki isitish haroratini pasaytirish. Bu yondashuv qisqa muddatli iqtisodiy samara bersa-da, ko'p hollarda ishlab chiqarish hajmining pasayishiga yoki aholi turmush darajasidagi qulayliklarning kamayishiga olib kelishi mumkin.

Bunga qarama-qarshi o'laroq, energiya samaradorligi – bu texnologik va innovatsion yondashuv bo'lib, bir xil miqdordagi energiya sarfi evaziga ko'proq foydali ish, ya'ni mahsulot yoki xizmat olishni nazarda tutadi [2]. Energiya resurslaridan samarali (ratsional), ya'ni oqilona foydalanishga qaratilgan jarayonlar majmui — energiya samaradorligiga beriladigan birlamchi ta'rifdir. [4] Mintaqaviy iqtisodiyot uchun aynan energiya samaradorligi strategik ustuvorlik hisoblanadi, chunki u iqtisodiy o'sish sur'atlarini pasaytirmasdan turib, resurs sarfini optimallashtirish imkonini beradi. Texnika va texnologiya rivojlanishining hozirgi darajasida yoqilg'i-energetika resurslaridan foydalanishda iqtisodiy jihatdan asoslangan samaradorlikka erishish hamda atrof-muhitni muhofaza qilish talablariga rioya qilish ham shular jumlasidandir [2]. Fikr o'rnida shuni aytish joizki, energiya iste'moli davrida tejalgan har bir kVt/soat energiya – bu yangi ishlab chiqarilishi shart bo'lmagan, tabiatga zarar yetkazmagan va qo'shimcha investitsiya talab qilmagan eng arzon va toza resurs hisoblanadi.

Ushbu iqtisodiy kategoriyalarning chegaralarini aniq belgilash va mintaqaviy rivojlanish strategiyasida ularning o'rnini to'g'ri baholash maqsadida, mazkur tushunchalarning qiyosiy tahlilini quyidagi jadval ko'rinishida ifodalash maqsadga muvofiq.

Tahlil va natijalar.

1-jadval. Energiya tejamkorligi va energiya samaradorligi tushunchalarining qiyosiy tavsifi

Tahlil mezonlari	Energiya tejamkorligi	Energiya samaradorligi
Asosiy mohiyati	Energiya iste'molini miqdoriy jihatdan qisqartirish.	Energiya iste'molini sifat jihatdan optimallashtirish — innovatsiya qo'llash.
Amalga oshirish mexanizmi	Iste'molchining xatti-harakatini o'zgartirish, cheklovlar joriy etish yoki foydalanishdan vaqtincha to'xtash.	Texnologik yangilanish, modernizatsiya va energiya yo'qotishlarini bartaraf etish.
Iqtisodiy natija	Xarajatlarning qisqa muddatli kamayishi, lekin ishlab chiqarish hajmi pasayishi ehtimoli mavjud.	Xarajatlarning uzoq muddatli barqaror kamayishi va mahsulot tannarxining arzonlashishi.
Hayot sifati va qulaylikka ta'siri	Ko'pincha qulaylik darajasining pasayishi yoki ma'lum cheklovlarni talab qiladi (komfortdan voz kechish).	Qulaylik darajasi saqlanib qoladi yoki oshadi (o'sha qulaylik kam energiya evaziga ta'minlanadi).
Investitsiya talabi	Katta investitsiya talab etmaydi.	Dastlabki bosqichda kapital qo'yilmalar, ya'ni investitsiya talab etadi.
Iqtisodiy ta'siri	Qisqa muddatli xarajatlarni tejash.	Uzoq muddatli strategik raqobatbardoshlik va dekapling effekti.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, energiya tejamkorligi taktik (qisqa muddatli) yechim hisoblansa, energiya samaradorligi mintaqa iqtisodiyotining strategik rivojlanishini ta'minlovchi omildir. Hududlarda sanoat ishlab chiqarish hajmining o'sishi sharoitida asosiy urg'uni aynan energiya samaradorligini oshiruvchi texnologiyalarga qaratish, iqtisodiy o'sish va energiya iste'moli o'rtasidagi nomutanosiblikni bartaraf etishga xizmat qiladi.

Shu tushunchalar bog'liqligidan kelib chiqib, mintaqa iqtisodiyotini rivojlantirishda hududiy sanoat markazlari va erkin iqtisodiy zonalarning muhim o'rin

tutgan holda, yirik sanoat salohiyatiga ega hududlarda mavjud kichik sanoat zonalarida ishlab chiqarish faoliyati tahlil qilinganda shuni ko'rish mumkinki, ishlab chiqarish fizik hajmining ortishi aksariyat hollarda energiya iste'molining proporsional o'sishi bilan parallel kechmoqda. Ushbu jarayonlarni Tapio indeksi kabi zamonaviy modellar asosida ekonometrik baholash shuni ko'rsatadiki, hududda ko'proq ma'muriy usullarga tayangan "energiya tejamkorligi" ustuvor bo'lib qolmoqda. [5] Natijada chinakam iqtisodiy "uzilish" (decoupling) effektiga, ya'ni yalpi mahsulot o'sayotgan bir paytda energiya sarfi pasayishi tendensiyasiga to'liq erishilmagan. [6] Buni bartaraf etish uchun faqatgina korxonalarni energiya limitlari bilan cheklash emas, balki ularni o'zaro bog'lovchi yagona yashil infratuzilmani shakllantirish, xalqaro tajribadagi kabi hududiy "sanoat simbiozi" zanjirlarini yaratish talab etiladi. [7]

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, hududiy iqtisodiyotning raqobatbardoshligi va barqaror o'sishi energiya resurslarini shunchaki iste'moldan cheklash (tejash) orqali emas, balki ilg'or texnologik innovatsiyalar va o'ylangan iqtisodiy mexanizmlar orqali energiya samaradorligini muttasil oshirib borish bilan bevosita bog'liqdir. Energiya tejamkorligidan energiya samaradorligiga strategik o'tishni ta'minlash va uzoq muddatli barqarorlikka erishish uchun quyidagi iqtisodiy va institutsional mexanizmlarni joriy etishni taklif sifatida ko'rishimiz mumkin: [8]

Texnologik modernizatsiyani moliyaviy rag'batlantirish: Kichik sanoat zonalarida eskirgan uskunalarni yuqori energiya samaradorligiga ega zamonaviy texnologiyalarga almashtirgan korxonalar uchun tezlashtirilgan amortizatsiya normalari va maqsadli soliq imtiyozlarini joriy etish.

Sanoat simbiozini hududiy darajada qo'llab-quvvatlash: Bir korxonaning ishlab chiqarish jarayonidagi ikkilamchi energiya resurslari (masalan, ortiqcha issiqlik yoki bug') boshqa bir korxona uchun energiya manbai bo'lib xizmat qiladigan tarmoqlararo kooperatsiya mexanizmlarini qonunchilik darajasida mustahkamlash.

Ekonometrik prognozlash va monitoring tizimini joriy etish: Hududiy investitsiya dasturlarini shakllantirishda har bir yangi ishlab chiqarish loyihasining mintaqa energiya sig'imiga ta'sirini dastlabki bosqichdayoq zamonaviy ekonometrik tahlil vositalari orqali baholash majburiyatini belgilash.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

[1] «164-сон 07.08.2006. Ёқилғи-энергетика ресурслари истеъмолчиларини энергетика текширувидан ва экспертизадан ўтказиш қоидаларини тасдиқлаш тўғрисида». Просмотрено: 23 апрель 2026 г. [Онлайн]. Доступно на: https://lex.uz/docs/1038881

[2] «ENERGIYA SAMARADORLIGI VA TEJAMKORLIGI NIMA?» Просмотрено: 26 февраль 2026 г. [Онлайн]. Доступно на: https://www.uzbekistonmet.uz/oz/lists/view/6297

[3] M. G. Patterson, «What is energy efficiency?: Concepts, indicators and methodological issues», Energy Policy, т. 24, вып. 5, сс. 377–390, май 1996, doi: 10.1016/0301-4215(96)00017-1.

[4] «ENERGIYA SAMARADORLIGI VA TEJAMKORLIGI NIMA?» Просмотрено: 23 апрель 2026 г. [Онлайн]. Доступно на: https://www.uzbekistonmet.uz/oz/lists/view/6297

[5] B. W. Ang, «LMDI decomposition approach: A guide for implementation», Energy Policy, т. 86, сс. 233–238, 2015.

[6] P. Tapio, «Towards a theory of decoupling: degrees of decoupling in the EU and the case of road traffic in Finland between 1970 and 2001», Transport Policy, т. 12, вып. 2, сс. 137–151, мар. 2005, doi: 10.1016/j.tranpol.2005.01.001.

[7] «(PDF) Industrial symbiosis: Literature and taxonomy», ResearchGate, doi: 10.1146/annurev.energy.25.1.313.

[8] N. G. Abdisalomovich, «SANOAT TARMOQLARIDA MODERNIZATSIYA VA INNOVASION ISLOHOTLAR: O'ZBEKISTONNING INDUSTRIAL TRANSFORMATSIYASI», ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION, т. 2, вып. 4, сс. 266–270, окт. 2025.

YASHIL QISHLOQ XO‘JALIGINI RIVOJLANTIRISHNING INNOVATSION YO‘LLARI: RAQAMLI DASTAKLAR VA EKOLOGIK TRANSFORMATSIYA

Abduraimov Abdunabi Uzbekboy o‘g‘li
Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti
Tayanch doktarant
ORCID: 009-0006-72106404

Annotatsiya. Ushbu tezisda yashil qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning innovatsion yo‘llari, xususan, raqamli monitoring, biologik himoya va suv tejamkor texnologiyalarni integratsiya qilish masalalari tahlil qilinadi. Tezisning maqsadi – an’anaviy dehqonchilikni ekologik toza modellarga o‘tkazish orqali tuproq unumdorligi va agroishlab chiqarish samaradorligini barqaror saqlash mexanizmlarini ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqotda tizimli tahlil va qiyosiy yondashuvlar qo‘llanilgan. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, raqamli dastaklar va yashil texnologiyalarni uyg‘unlashtirish resurs sarfini optimallashtirishga xizmat qiladi. Muallifning shaxsiy yondashuvi – mahalliy agroklasterlar uchun moslashtirilgan “yashil-raqamli transformatsiya” modelini taklif qilishdan iborat. Ilmiy yangilik – ekologik innovatsiyalarni tijoratlashtirishda raqamli monitoring va ESG tamoyillarini uyg‘unlashtirishning iqtisodiy-ekologik samaradorligini baholashning yangi metodik yondashuvini ishlab chiqishdan iborat.

Kalit so‘zlar: yashil qishloq xo‘jaligi, barqaror rivojlanish, aniq dehqonchilik, raqamli transformatsiya, ekologik innovatsiyalar, suv tejamkorlik, ESG tamoyillari.

Kirish. Global iqlim o‘zgarishlari, tuproq resurslarining degradatsiyasi va suv tanqisligi sharoitida qishloq xo‘jaligini barqaror rivojlantirish dolzarb masalaga aylandi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni bilan qabul qilingan “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasida qishloq xo’jaligi texnikalarini boshqarishda sun’iy yo’ldosh texnologiyalaridan foydalanish ulushini yil sayin oshirib borish va irrigatsiya tizimlarida avtomatlashtirilgan qurilmalarni o’rnatish masalalari qo’yilgan va “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida qishloq xo‘jaligida barqaror rivojlanishni ta’minlash uchun ekologik toza texnologiyalarni joriy etish, suv va energiya tejamkorligini oshirish hamda raqamli yechimlarni agrotizimga integratsiya qilish ustuvor vazifa sifatida belgilangan [1]. Mavjud an’anaviy dehqonchilik usullari ko‘pincha yuqori suv va energiya sarfi, tuproq unumdorligining pasayishi hamda atrof-muhitga salbiy ta’sir bilan tavsiflanadi. FAO ta’rifiga ko‘ra, yashil qishloq xo‘jaligi tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqtisodiy samaradorlikni integratsiyalash orqali barqaror oziq-ovqat tizimlarini shakllantirishga yo‘naltirilgan rivojlanish modelidir. [2]. Ushbu holat yashil agrotexnologiyalarni raqamli dastaklar orqali mahalliy sharoitga moslashtirishning yangi mexanizmlarini ishlab chiqish zaruratini vujudga keltirmoqda. Tadqiqotning tanlanish sababi – agrosohada “yashil-raqamli” transformatsiyani iqtisodiy jihatdan asoslash, mavjud institutsional va texnologik to‘siqlarni tahlil qilish va fermer xo‘jaliklari uchun amaliy

yo‘nalishlarni ishlab chiqish zaruratidan kelib chiqadi. Tadqiqotning maqsadi – yashil qishloq xo‘jaligini rivojlantirishda zamonaviy innovatsion texnologiyalarni joriy etishning iqtisodiy-ekologik samaradorligini baholash va uni agrokorxonalar tomonidan keng tatbiq etish mexanizmlarini taklif qilishdan iborat.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Yashil qishloq xo‘jaligi va raqamli texnologiyalar integratsiyasi masalasi so‘nggi yillarda xalqaro va mahalliy ilmiy adabiyotlarda keng yoritilmoqda. Xalqaro tadqiqotchilar va FAO hisobotlarida ta’kidlanishicha, aniq dehqonchilik (precision agriculture) va aqlli qurilmalar tarmog`i (Internet of things) asosidagi sug‘orish tizimlari suv resurslarini tejash, tuproq unumdorligini saqlash va hosildorlikni barqaror oshirish imkonini beradi. Jahon banki tadqiqotlarida esa raqamli monitoring tizimlarini joriy etish orqali agrobiznes subyektlarining operatsion xarajatlarini optimallashtirish mumkinligi iqtisodiy modellar asosida ko‘rsatilgan [3]. Mahalliy olimlar ham yashil agrotexnologiyalarning iqtisodiy samaradorligini o‘rganishga e’tibor qaratib, biologik himoya vositalari, organik o‘g‘itlar va tomchilatib sug‘orish texnologiyalarini joriy etishning agroklasterlar darajasidagi ahamiyatini tahlil qilganlar. Sh.Sadikova qishloq xo‘jaligini raqamlashtirishni kelajakda yuqori iqtisodiy o‘sishni ta’minlovchi asosiy vazifa sifatida ko‘radi. Uning tahlillariga ko‘ra, raqamli o‘zgarishlar mobil texnologiyalar va masofadan zondlash orqali kichik yer egalarining bozorga chiqish imkoniyatlarini yaxshilaydi va tranzaksiya xarajatlarini kamaytiradi [4]. M. Rasulov o‘z tadqiqotida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish uchun mamlakatda zarur infratuzilmani rivojlantirish va moliyaviy mexanizmlarni takomillashtirish muhimligini aytib o’tgan [5]. Shu bilan birga, yashil iqtisodiyotga o‘tishda fermer xo‘jaliklarini raqamli dastaklar bilan ta’minlash, kreditlash mexanizmlarini ekologik ko‘rsatkichlarga bog‘lash alohida ilmiy ishlarda yoritilgan [6]. Biroq, ko‘pchilik tadqiqotlarda yashil texnologiyalar bilan raqamli monitoring tizimlarini birlashtiruvchi integratsion modellar yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Aksariyat ishlarda texnik yechimlar yoki ekologik talablar alohida ko‘rib chiqilib, ularning kichik va o‘rta agrobiznes subyektlari sharoitiga moslashtirilgan iqtisodiy-asosli metodikasi yoritilmagan. Ushbu tadqiqotning o‘ziga xosligi shundaki, muallif “yashil-raqamli agrotransformatsiya” konsepsiyasini taklif etib, aniq dehqonchilik, real vaqtda resurs monitoringi va barqaror moliyalashtirish tamoyillarini mahalliy agrokorxonalar bilan uyg‘unlashtirishning yangi metodik yondashuvini ishlab chiqadi. Bu esa mavjud ilmiy bo‘shliqni to‘ldirish va O‘zbekiston sharoitida yashil qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning amaliy yo‘llarini ko‘rsatish imkonini beradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda yashil qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning innovatsion yo‘llarini ilmiy asoslash va ularning iqtisodiy-ekologik samaradorligini baholash maqsadida tizimli tahlil, qiyosiy taqqoslash, hujjatli tahlil usullaridan foydalanildi. Tizimli yondashuv doirasida “yashil-raqamli agrotransformatsiya” modelining tarkibiy elementlari (aniq dehqonchilik texnologiyalari, suv va tuproq monitoringi, organik o‘g‘itlar hamda biologik himoya vositalari) o‘zaro bog‘liqlikda o‘rganildi. Qiyosiy taqqoslash usuli orqali an’anaviy dehqonchilik usullari bilan zamonaviy yashil texnologiyalarni joriy etgan xo‘jaliklarning resurs boshqaruvi, tuproq degradatsiyasi darajasi va operatsion samaradorlik ko‘rsatkichlari dinamikasi tahlil qilindi. Hujjatli tahlil usuli O‘zbekiston

Respublikasi normativ-huquqiy hujjatlari, BMT FAO hisobotlari hamda xalqaro moliya institutlarining ochiq ma’lumotlari asosida amalga oshirildi. Konseptual modellashtirish yordamida mahalliy sharoitga moslashtirilgan integratsion yechimlar tarmog‘i ishlab chiqildi. Ushbu metodologik yondashuv tadqiqot natijalarining ilmiy asosliligini, obyektivligini va amaliy qo‘llanilishini ta’minladi.

Tahlil va natijalar. Ilmiy manbalar asosida an’anaviy agrotexnologiyalar va yashil-raqamli yechimlarni joriy etgan xo‘jaliklar faoliyati samaradorligi qiyosiy tahlil qilindi. Ilmiy tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, raqamli agrotexnologiyalarni qo‘llash turli ekin turlarida hosildorlikni 9,7 dan 62,6% gacha oshirishi va resurs sarfini kamaytirishi orqali xo‘jaliklar samaradorligini sezilarli darajada yaxshilaydi [7]. Raqamli ko‘nikmalarning rivojlanishi fermerlarning yashil ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga xizmat qilib, resurslardan oqilona foydalanish va ekologik natijalarni yaxshilash imkonini beradi [8]. Aniq dehqonchilik tamoyillari va raqamli monitoring tizimlaridan foydalanish suv va energiya resurslarini taqsimlashdagi noaniqliklarni bartaraf etishga, shuningdek, tuproqning kimyoviy va biologik holatini real vaqtda kuzatish imkonini beradi. Hujjatli tahlil ma’lumotlariga ko‘ra, O'zbekistonda yerlarning 50 foizdan ortig'i degradatsiyaga uchragan va har yili umumiy suv ta'minotining qariyb 39,5 foizi (18,2 mlrd m^3) infratuzilmaning yomon holati hamda samarasiz sug'orish usullari tufayli boy berilmoqda. Bu inqirozli holat resurslarni boshqarishdagi nooqilona yondashuvlar, xususan, barqaror bo'lmagan agrotexnik amaliyotlardan foydalanish va suv resurslarining noto'g'ri taqsimlanishi bilan bevosita bog'liq. Zamonaviy yashil-raqamli texnologiyalarni (masalan, conservation agriculture va raqamli monitoring) keng ko'lamda tatbiq etishda esa ba’zi institutsional noaniqliklar, jumladan, kompleks asoslarning yetishmasligi va moliyaviy rag'batlarning manfaatdor tomonlar o'rtasidagi qiziqish uyg‘otmayotganligi, O'zbekistonda barqaror, bardoshli oziq-ovqat tizimini rivojlantirish uchun integratsiyalashgan, iqlimga mos qishloq xo'jaligi yondashuvlariga shoshilinch ehtiyoj borligini ko’rsatmoqda [9]. Shuningdek, raqamli texnologiyalarni joriy etish intensivligining har bir birlikka oshishi iqtisodiy foydaning 30,4 foizga o‘sishiga olib keladi. Aniq sug‘orish (precision irrigation), dronlar yordamida kuzatuv (drone scouting) va boshqaruv dasturlari (management software) resurs xarajatlarini taxminan 20–30% ga kamaytirishi va hosildorlikni oshirishi mumkin. Yashil texnologiyalarni joriy etishda asosiy to‘siqlar sifatida dastlabki investitsiya xarajatlarining yuqoriligi, raqamli infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi va malakali agronom-mutaxassislar tanqisligi aniqlandi [10]. Qiyosiy yondashuv natijalari shuni ko‘rsatadiki, biologik himoya vositalari va organik o‘g‘itlardan kompleks foydalanish ko‘plab hollarda kimyoviy pestitsidlarga bo‘lgan qaramlikni kamaytiradi, tuproq unumdorligi va mahsulot sifatini yaxshilaydi hamda ekologik talablari yuqori bo‘lgan eksport bozorlariga moslashuvchanlikni oshiradi. Shu bilan birga, ushbu yondashuvning samaradorligi agroiqlimiy sharoitlar, boshqaruv texnologiyalari va ishlab chiqaruvchilarning malaka darajasiga sezilarli darajada bog‘liq [11]. Shuning uchun, raqamli boshqaruv platformalarini integratsiya qilish, ishlab chiqarish zanjiridagi ma’lumot almashinuvini tezlashtirish, qaror qabul qilish jarayonlarini shaffof va natijaga yo‘naltirilgan qilish zarur. Tahlillar natijasida aniqlandiki, yashil-raqamli transformatsiyani muvaffaqiyatli amalga oshirish faqat

texnologik yechimlarni o‘rnatish bilan cheklanmay, balki moliyaviy rag‘batlantirish mexanizmlari, kadrlar tayyorlash tizimi va davlat-xususiy sheriklikni integratsiya qilishni talab etadi. Shu asosida, an’anaviy chiziqli agroishlab chiqarishdan aylanma iqtisodiyot tamoyillariga asoslangan yashil modellarga o‘tish korxonalarning barqaror rivojlanishini ta’minlashda hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo‘lmoqda.

O`rganilgan manbalar va qiyosiy tahlillar asosida an’anaviy agrotexnologiyalar hamda yashil-raqamli texnologiyalarni qo‘llayotgan xo‘jaliklar faoliyati samaradorligi o‘rganildi. Natijalar shuni ko‘rsatmoqdaki, raqamli agrotexnologiyalarni joriy etish hosildorlikni oshirish, resurs sarfini kamaytirish va ekologik barqarorlikni ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

1-Jadval

An’anaviy va yashil-raqamli qishloq xo‘jaligi texnologiyalarining qiyosiy samaradorlik ko‘rsatkichlari[85]

Ko‘rsatkichlar	An’anaviy dehqonchilik	Yashil-raqamli dehqonchilik
Suv sarfi	Yuqori (40–50% yo‘qotish)	20–30% gacha tejaladi
Hosildorlik	Barqaror emas	10–60% gacha oshadi
Tuproq holati	Degradatsiya yuqori	Unumdorlik saqlanadi
O‘g‘it va pestitsidlar	Ko‘p miqdorda kimyoviy vositalar qo`llaniladi	Biologik va aniq dozada qo‘llanadi
Monitoring	Qo‘lda, davriy	Real vaqt rejimida (sensor, dron)
Xarajatlar	Yuqori operatsion xarajat	20–30% gacha optimallashtiriladi

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, yashil-raqamli texnologiyalarni qo‘llash resurslardan foydalanish samaradorligini oshiradi va ishlab chiqarish jarayonini optimallashtiradi. Xususan, aniq sug‘orish va raqamli monitoring tizimlari suv resurslaridan foydalanishda aniqlikni ta’minlab, yo‘qotishlarni sezilarli darajada kamaytiradi. Shuningdek, tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, raqamli texnologiyalarni joriy etish intensivligining oshishi xo‘jaliklarning iqtisodiy samaradorligini oshiradi va ekologik xavflarni kamaytiradi. Biroq, ushbu texnologiyalarni keng joriy etishda yuqori boshlang‘ich investitsiya xarajatlari, raqamli infratuzilmaning yetarli emasligi va malakali mutaxassislar tanqisligi asosiy to‘siq bo‘lib qolmoqda. Umuman olganda, tahlil natijalari yashil va raqamli texnologiyalarni integratsiya qilish qishloq xo‘jaligida resurs tejamkor, ekologik barqaror va iqtisodiy samarali modelni shakllantirishda muhim omil ekanligini tasdiqlaydi.

Xulosa va takliflar. Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, yashil qishloq xo‘jaligini rivojlantirishda raqamli texnologiyalar va ekologik innovatsiyalarni uyg‘unlashtirish zamonaviy agroiqtisodiy tizimlarning barqarorligini ta’minlashda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Aniq dehqonchilik, raqamli monitoring, masofadan zondlash, shuningdek, suv va energiya tejamkor texnologiyalarni qo‘llash orqali resurslardan

[85]Adabiyotlar asosida muallif tomonidan tuzilgan.

foydalanish samaradorligini sezilarli darajada oshirish, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish va hosildorlikni barqaror ko‘paytirish mumkinligi aniqlandi. Shu bilan birga, olib borilgan tahlillar ushbu texnologiyalarning amaliyotda joriy etilishi ko‘proq fragmentar xarakterga ega ekanligini, ya’ni ular o‘rtasida tizimli integratsiya va yagona boshqaruv mexanizmlarining yetishmasligini ko‘rsatdi.

Shu nuqtayi nazardan, yashil-raqamli agrotransformatsiyani samarali amalga oshirish uchun, avvalo, tuproq holati, suv resurslari, iqlim omillari va hosildorlik ko‘rsatkichlarini real vaqt rejimida birlashtiruvchi yagona milliy agrodata platformasini yaratish zarur. Bunday platforma fermer xo‘jaliklariga asoslangan qarorlar qabul qilish imkonini berib, resurslardan foydalanishdagi noaniqliklarni kamaytiradi. Shu bilan birga, qishloq xo‘jaligi subyektlari faoliyatini faqat iqtisodiy natijalar asosida emas, balki ekologik ko‘rsatkichlar (tuproq unumdorligi, suv tejash darajasi, karbon izi) bilan bog‘liq holda baholovchi raqamlashtirilgan tizimlarni joriy etish muhim ahamiyatga ega. Moliyaviy yondashuvni kuchaytirish maqsadida fermer xo’jaligi va agroklasterlar kesimida yashil obligatsiyalar va karbon kreditlari bozorini shakllantirish kabi innovatsion moliyaviy instrumentlarni keng joriy etish maqsadga muvofiq.

Bundan tashqari, sun’iy intellekt va katta ma’lumotlar (Big Data) asosida ishlovchi raqamli agro-konsalting xizmatlarini rivojlantirish, fermerlarga individual tavsiyalar berish orqali texnologiyalar samaradorligini oshiradi. Hududlarning agroiqlimiy xususiyatlarini hisobga olgan holda adaptiv texnologik yechimlar bazasini shakllantirish va uni ochiq raqamli platformalar orqali taqdim etish ham zarur. Shu bilan birga, resurslardan foydalanishni optimallashtirish maqsadida sensorlarga asoslangan aqlli boshqaruv tizimlarini keng joriy etish inson omiliga bog‘liq xatolarni kamaytirishga xizmat qiladi. Umuman olganda, mazkur yondashuvlar qishloq xo‘jaligida samaradorlikni oshirish, ekologik muvozanatni saqlash va uzoq muddatli barqaror rivojlanishni ta’minlashning muhim sharti sifatida namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining (2020-yildagi) *“Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida* (PF-6079-son Farmon)
2. FAO. (2021). *Green agriculture in action: A holistic and multidisciplinary framework for greening agrifood systems*. Food and Agriculture Organization of the United Nations. https://www.fao.org/platforms/green-agriculture/about/en
3. Schroeder, Kateryna; Lampietti, Julian; Elabed, Ghada. (2021). What's Cooking: Digital Transformation of the Agrifood System. Agriculture and Food Series;. World Bank. http://hdl.handle.net/10986/35216
4. Sh.Sodikova. (2024). Qishloq xo‘jaligida raqamli iqtisodiyotning o`rni. «GLOBALLASHUV VA IQLIM O‘ZGARISHI SHAROITIDA OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA’MINLASH: MUAMMO VA YECHIMLAR» RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI. https://doi.org/10.5281/zenodo.11445805
5. Rasulov, M. O‘zbekiston qishloq xo‘jaligida raqamli infratuzilmani rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ilmiy jurnali, 2022, № 2, 61–70-b.

6. Kudiyarov, A. A. (2026). Ekologik tanglik sharoitida qishloq xo‘jaligida yerlardan foydalanishning iqtisodiy samaradorligini oshirish. *“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot*, (2), 497–501.
7. George P, Simone A, Havva U, Vasilis P, Aikaterini K, Spyros F. (2024). Economic and environmental benefits of digital agricultural technologies in crop production: A review. Smart Agricultural Technology, Volume 8, 100441, ISSN 2772-3755, https://doi.org/10.1016/j.atech.2024.100441.
8. Siyu G, Ziye S, Bo W, and Zhigang Y. (2024). Could Digital Literacy Contribute to the Improvement of Green Production Efficiency in Agriculture? sage jurnals Open, 14(1). https://doi.org/10.1177/21582440241232789
9. Umarov S, Nurbekov A, Nishanov N, Kosimov M, Bobomurotov S, Umarov M, Khaitov B and Namozov N (2025) Land degradation in Uzbekistan: key challenges and sustainable solutions. Front. Sustain. Food Syst. 9:1676403. doi: 10.3389/fsufs.2025.1676403
10.Estekov, A. U. (2025). Organizational–Economic Framework for Digitalization-Based Agribusiness Development in Uzbekistan. *Global Journal of Research in Business Management*, *5*(6), 42–51. https://gjrpublication.com/gjrbm/
11.Verena Seufert, Navin Ramankutty, & Jonathan A. Foley. (2012). Comparing the yields of organic and conventional agriculture. Nature, 485, 229–232.

MAXSUS IQTISODIY ZONALAR ISHTIROKCHILARI BO‘LGAN TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING SAMARADORLIK HOLATI

Anvarxonov Abdulatifxon Jamshidxon o‘g‘li,
Toshkent shahridagi Xalqaro Vestminster universiteti,
Tayanch doktorant,
ORCID: 0009-0001-1334-2881

Annotatsiya. Ushbu tezisda tadbirkorlik subyektlarini qo‘llab-quvvatlashning samarali mexanizmlari maxsus iqtisodiy zonalar (MIZ) tajribasi misolida tahlil qilingan. O‘zbekistonning 14 ta hududiy birligini qamrab olgan 2018–2025 yillar statistikasi asosida MIZlardagi tadbirkorlik subyektlarining xizmat hajmi, foyda dinamikasi, ish o‘rinlari yaratish va moliyaviy ko‘rsatkichlari o‘rganilgan. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, logistika va davlat qo‘llab-quvvatlashi mavjud hududlarda tadbirkorlik subyektlari samaradorligi sezilarli darajada yuqori. Raqamli texnologiyalar, soliq va moliyaviy imtiyozlarni birlashtirgan kompleks yondashuv tadbirkorlik subyektlarini rivojlantirishning samarali yo‘li sifatida belgilangan.

Kalit so‘zlar: tadbirkorlik subyektlari, maxsus iqtisodiy zonalar, tadbirkorlik subyektlarini qo‘llab-quvvatlash, hududiy iqtisodiyot.

Kirish. Zamonaviy iqtisodiyotda tadbirkorlik subyektlari iqtisodiy o‘sish, bandlik va innovatsiyalarning asosiy harakatlantiruvchi kuch hisoblanadi. Jahon banki ma’lumotlariga ko‘ra, rivojlanayotgan mamlakatlarda tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni, jumladan YaIMni shakllantirishda sezilarli hissaga ega. Biroq tadbirkorlik subyektlarini to‘la salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun zamonaviy texnologiyalarga kirish imkoniyati, malakali kadrlar va qulay biznes muhiti zarur.

Ilg‘or texnologiyalarni joriy etish, sun’iy intellekt, raqamli platformalar, bulut texnologiyalari va avtomatlashtirish tadbirkorlik subyektlarining raqobatbardoshligini oshirish va xarajatlarni kamaytirish uchun muhim omilga aylanib bormoqda. Maxsus iqtisodiy zonalar (MIZ) esa ushbu texnologiyalarni tadbirkorlik subyektlariga yetkazib berishning institutsional mexanizmi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Soliq imtiyozlari, infratuzilmani qo‘llab-quvvatlash va klaster afzalliklari tadbirkorlik subyektlarini texnologik yangilashga undaydi.

O‘zbekistonda 2017-yildan boshlab amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar doirasida MIZ tizimi faol rivojlantirilmoqda. 2025-yilga kelib MIZ ishtirokchilarining ko‘rsatgan xizmatlar hajmi 2 768,2 mlrd. so‘mga yetdi va ish o‘rinlari soni 58 137 taga oshdi. Biroq MIZlarning tadbirkorlik subyektlarini rivojlantirishdagi roli va hududiy samaradorligi hali yetarli darajada o‘rganilmagan.

Tadqiqotning maqsadi 2018–2025 yillar statistikasi asosida O‘zbekiston MIZlarida tadbirkorlik subyektlarini ilg‘or texnologiyalar orqali qo‘llab-quvvatlashning samarali yo‘llarini aniqlash va takliflarni ishlab chiqishdan iborat.

Adabiyotlar sharhi. Ilg‘or texnologiyalarning tadbirkorlik subyektlariga ta’siri bo‘yicha adabiyotlar ikki yo‘nalishni ajratib ko‘rsatadi. Birinchi yo‘nalish texnologiyalarning tadbirkorlik subyektlari samaradorligiga bevosita ta’siri. Dibrell va

boshqalar (2008) AQShda tadbirkorlik subyektlarini o‘rganib, IT-investitsiyalar va innovatsion faollik o‘rtasida kuchli musbat korrelyatsiya borligini aniqlagan.

Ikkinchi yo‘nalish texnologiyalarga kirish tengsizligi muammosi. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (2021) hisobotiga ko‘ra, rivojlanayotgan mamlakatlardagi tadbirkorlik subyektlarining 70 foizi hali ham zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalana olmaydi, asosiy to‘siqlar esa moliyaviy imkoniyat etishmasligi va malakali kadrlar tanqisligi hisoblanadi.

Xalqaro amaliyotda MIZlarning tadbirkorlik subyektlarini qo‘llab-quvvatlashdagi roli ko‘p o‘rganilgan. Zeng (2015) Xitoy tajribasini tahlil qilib, MIZlarning bir turi bo‘lgan texnoparklarning tadbirkorlik subyektlari klasterlarini shakllantirishdagi rolini ochib bergan. Unga ko‘ra, bir hududda texnologik tadbirkorlik subyektlarining to‘planishi samaradorlikni keltirib chiqaradi va innovatsiya sur’atini 2–3 barobarga oshiradi. Akinci va Crittle (2008) esa 119 ta mamlakat MIZlarini taqqoslab, muvaffaqiyatli MIZlar uchun uch omil raqobatbardosh infratuzilma, samarali ma’muriyat va biznes muhitining qulay bo‘lishi muhimligini aniqlagan.

O‘zbekiston MIZlari bo‘yicha hududiy qiyosiy tahlil yetarli emas hamda, tadbirkorlik subyektlarini qo‘llab-quvvatlash samaradorligini o‘lchash uchun empirik ma’lumotlardan foydalanilmagan. Ushbu maqola ushbu bo‘shliqni to‘ldirish maqsadida 2018–2025 yillar statistik ma’lumotlari asosida tizimli tahlil o‘tkazilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda miqdoriy tahlil usullaridan foydalanilgan bo‘lib, ular tavsifiy statistika, o‘sish sur’atlari tahlili, hududlararo qiyosiy tahlil va samaradorlik indeksi metodologiyasi hisoblanadi.

Asosiy ma’lumot manbai O‘zbekiston Milliy Statistika qo‘mitasining ma’lumotlari bo‘lib, 2018–2025 yillar (8 yil) davomida 14 ta ma’muriy-hududiy birlik bo‘yicha panel ma’lumotlar tahlil qilingan. Jami 112 ta kuzatuv o‘rganildi.

Asosiy o‘zgaruvchilar sifatida MIZ ishtirokchilarining ko‘rsatgan xizmatlar hajmi (tadbirkorlik subyektlarining faolligini o‘lchash uchun), MIZ ishtirokchilarining ish o‘rinlari soni (tadbirkorlik subyektlarining mehnat bozoriga ta’siri), MIZ ishtirokchilarining foydasi yoki zarari (rentabellik ko‘rsatkichi), debitor va kreditor qarzdorliklar (moliyaviy barqarorlik ko‘rsatkichi), umumiy bozor xizmatlari hajmi (MIZ ulushini hisoblash uchun bazaviy ko‘rsatkich) sifatida foydalanilgan.

MIZ samaradorlik darajasi uch mezon asosida baholangan bo‘lib, xizmat hajmining o‘sish sur’ati, ish o‘rinlari, moliyaviy natija (foyda/zarar) kabilarni qamrab olgan. Hududlar “Yuqori”, “O‘rta”, “Past” va “Juda past” toifalariga ajratildi. Tadbirkorlik subyektlarining texnologik rivojlanish darajasi bilan MIZ samaradorligi o‘rtasidagi bog‘liqlik sifat tahlili orqali baholandi.

Tahlil va natijalar. O‘zbekiston bo‘yicha MIZ ishtirokchilarining ko‘rsatgan xizmatlar hajmi 2020–2025 yillar oralig‘ida 87,7 mlrd. so‘mdan 2 768,2 mlrd. so‘mga oshdi (1-jadval). Bu 2020–2025 yillar oralig‘ida qariyb 32 baravarga o‘sishni anglatadi va umumiy bozor xizmatlari o‘sishidan sezilarli darajada yuqori.

Ish o‘rinlari dinamikasi ham ijobiy bo‘lib, 2018 yildagi 10 215 ta o‘rindan 2025 yilga kelib 58 137 ta o‘ringa yetdi (deyarli 6 baravar). Bu ko‘rsatkich MIZlardagi tadbirkorlik subyektlarining mehnat bozoriga tobora muhimroq hissa qo‘shayotganini tasdiqlaydi.

1-jadval. O‘zbekistondagi MIZlar ishtirokchilarining dinamikasi

Yil	Ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmi, mlrd.so‘m	MIZ xizmat hajmi, mln. so‘m	Mehnat resurslari soni, ming kishi	MIZlardagi ish o‘rinlari, dona
2018	209 219,1	0	18829,6	10 215
2019	269 080,0	0	18949	23 667
2020	297 209,9	87 698,6	19158,2	31 531
2021	389 385,5	460 281,0	19334,9	34 806
2022	509 585,4	554 678,9	19517,5	45 519
2023	664 816,0	1 197 074,1	19739,6	46 860
2024	840 146,5	2 022 478,4	20085,2	53 080
2025	1 050 292,5	2 768 198,3	20602,6	58 137

Manba: Milliy Statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Hududiy tahlil (2-jadval) MIZlarda tadbirkorlik subyektlarining texnologik rivojlanishi va samaradorligi o‘rtasidagi kuchli bog‘liqlikni ko‘rsatadi. Toshkent, Jizzax va Navoiy viloyatlari MIZ samaradorligi bo‘yicha “Yuqori” toifada baholandi.

Jizzax viloyatida MIZ xizmat hajmi 569,4 mlrd. so‘m va foyda 717,7 mlrd. so‘m bilan Navoiy va Toshkent viloyatlaridan ham yuqori rentabellik ko‘rsatkichiga ega bo‘ldi. Bu ko‘rsatkich Jizzaxda joylashgan MIZlarda amalga oshirilayotgan investitsion va sanoat texnologiyalari klasterining samarasini aks ettiradi. Navoiy viloyatida esa xizmat hajmi (18,3 mlrd. so‘m) va ish o‘rinlari (7 496 ta) muvozanatli.

2-jadval. Hududlar bo‘yicha MIZlardagi tadbirkorlik subyektlarining samaradorligi

Hudud	MIZ xizmati, mln. so‘m	MIZlardagi ish o’rinlari, dona	MIZ foydasi (mln. so‘m)	Samaradorlik
Toshkent	1 394 823,5	13 539	217 394,5	Yuqori
Jizzax	569 402,0	8 307	717 664,9	Yuqori
Navoiy	185 389,1	7 496	517 809,5	Yuqori
Farg‘ona	87 984,8	5 686	120 556,9	O‘rta
Sirdaryo	18 804,8	5 558	4 675,6	O‘rta
Samarqand	57 478,6	6 925	-146 498,7	O‘rta
Namangan	29 044,3	2 447	127 739,2	Past
Xorazm	66 532,5	525	78 282,9	Past
Buxoro	180 710,9	2 979	-1 264 584,3	Past
Surxondaryo	90 551,6	1 302	-16 900,0	Past
Qashqadaryo	5 439,4	69	403,0	Juda past
Qoraqalpog‘iston	301,4	976	-99 060,9	Juda past

Manba: Milliy Statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

MIZ ishtirokchilarining debitor va kreditor qarzdorligi yildan-yilga oʻsib bormoqda (3-jadval). 2025 yilda debitor qarzdorlik 22,8 trln. soʻmga, kreditor qarzdorlik esa 27,9 trln. soʻmga yetdi. Kreditor qarzdorlikning debitordan yuqori boʻlishi tadbirkorlik subyektlarining moliyalashtirishda tashqi manbaga tayanishini koʻrsatadi.

Ijobiy tendensiya sifatida shuni ta’kidlash mumkinki, MIZ ishtirokchilarining foydasi 2022-yilda 2 trln. soʻmga koʻtarildi, bu texnologik investitsiyalarning qaytimini koʻrsatadi. 2025-yilga kelib foyda 364,2 mlrd. soʻmga tushganligi esa investitsiya kelishining barqaror emasligidan dalolat berishi mumkin.

3-jadval. MIZ ishtirokchilari moliyaviy koʻrsatkichlari, mln. soʻm

Yil	MIZ debitor qarzdorligi	MIZ kreditor qarzdorligi	MIZ ishtirokchilari foydasi
2018	974 288,6	1 438 488,4	227 897,0
2019	3 704 917,0	4 851 251,4	401 707,5
2020	3 172 234,0	4 782 099,8	564 296,0
2021	4 995 693,6	5 843 052,9	540 283,8
2022	6 950 716,0	8 059 968,8	2 081 457,7
2023	9 754 610,5	10 759 524,3	1 177 376,7
2024	17 099 328,0	24 816 919,0	1 745 501,4
2025	22 826 501,1	27 923 195,4	364 241,1

Manba: Milliy Statistika qoʻmitasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Qashqadaryo viloyatidagi MIZlar xizmat hajmi 5,4 mlrd. soʻm va ish oʻrinlari faqat 69 ta boʻlib, bu viloyatning katta iqtisodiy salohiyatiga nisbatan juda past koʻrsatkich hisoblanadi. Qoraqalpogʻistonda ham vaziyat oʻxshash boʻlib, 2025 yilda 99,0 mlrd. soʻm zarar qayd etilgan. Bu raqam MIZ rezidentlarining texnologik tayyorgarligi etarli emasligi va bozorga chiqish imkoniyatlarining chekliligidan dalolat beradi.

Xulosa va takliflar. Tadqiqot natijalarini umumlashtirganda, hududlardagi MIZ ishtirokchilari boʻlgan tadbirkorlik subyektlarining samaradorligi farqi asosan infratuzilma, maʼmuriy boshqaruv sifatliligini bilan bogʻliqligi yaqqol koʻrinadi. Zeng (2015) ta’kidlaganidek, bu kabi samaradorlikni oshiradigan harakatlar orqali korxonalar yakka oʻzi ishlagandagi erishadigan darajalardan koʻra yaxshiroq natijalarga erishiladi. Bu Akinci va Crittle (2008) xulosasi bilan ham mos keladi. MIZ muvaffaqiyati uchun soliq imtiyozlaridan koʻra infratuzilma va maʼmuriy sifat muhimroq. Oʻzbekiston hududlari boʻyicha koʻrsatkichlar ham shuni tasdiqlaydi Jizzax va Navoiyda MIZ foydasi yuqori, ammo Qashqadaryoda imtiyozlar mavjud boʻlsa-da, natija past.

Ma’lumotlar tahlili asosida tadbirkorlik subyektlarini ilgʻor texnologiyalar orqali qoʻllab-quvvatlashning uch modeli taklif etiladi. Birinchidan, infratuzilma, raqamli aloqa, elektr ta’minoti, logistika kabilarni doimiyligini ta’minlash. Bu asosiy shart boʻlib, usiz boshqa choralar natija bermaydi. Ikkinchidan, MIZlar ichida texnologik platformalar ya’ni texnopark, biznes inkubator, raqamli xizmatlar markazini

rivojlantirish. Bu tadbirkorlik subyektlariga arzon narxda zamonaviy texnologiyalarga kirish imkoniyatini beradi. Uchinchidan. moliyaviy rag‘bat, soliq imtiyozlari, subsidiyalashgan kreditlar, grant dasturlari. Bu uchinchi qatlam birinchi ikkitasiz samarali bo‘lmaydi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda ularning ketma-ketligiga rioya qilmaslik ko‘pincha tadbirkorlik subyektlarini qo‘llab-quvvatlash dasturlarining muvaffaqiyatsizlik sababiga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Akinci, G., & Crittle, J. (2008). Special Economic Zones: Performance, Lessons Learned, and Implications for Zone Development. World Bank Group, Washington D.C.
2. Dibrell, C., Davis, P. S., & Craig, J. (2008). Fueling Innovation through Information Technology in SMEs. Journal of Small Business Management, 46(2), 203–218.
3. Zeng, D. Z. (2015). Global Experiences with Special Economic Zones. World Bank Policy Research Working Paper No. 7240.
4. OECD. (2021). The Digital Transformation of SMEs. OECD Studies on SMEs and Entrepreneurship. OECD Publishing, Paris.
5. UNCTAD. (2019). World Investment Report 2019: Special Economic Zones. United Nations, Geneva.
6. O‘zbekiston Milliy Statsika qo’mitasi ma’lumotlar.

MOLIYAVIY INKLYUZIVLIKNING BANK TIZIMI BARQARORLIGIGA TA'SIRI: BANK MOBIL ILOVALARI MISOLIDA

Saydamatova Muxlisabonu Rasuljon qizi
TIU, 1-bosqich tayanch doktorant
ORCID:0009-0008-6747-2076

Annotatsiya . Moliyaviy xizmatlar texnologik transformatsiyaning ajralmas qismiga aylanib borayotgan bir davrda, tijorat banklarining moliyaviy qamrovni oshirishga intilishi raqamli innovatsiyalarning strategik ahamiyatini yanada kuchaytirmoqda. Mazkur tadqiqot bank mobil ilovalarini shunchaki xizmat ko'rsatuvchi interfeys emas, balki bank aktivlarini boshqaruvchi intellektual ekotizim sifatida baholaydi. Ishning ilmiy gipotezasi sifatida mobil ilovalar tarkibiga mijozning raqamli xatti-harakatini real vaqtda tahlil qiluvchi "Dinamik kredit skoringi" va aktiv-passiv boshqaruvini (ALM) avtomatlashtiruvchi "Smart Sweep" algoritmlarini integratsiya qilish taklif etiladi.

Kalit so'zlar: moliyaviy inklyuzivlik, bank mobil ilovalari, dinamik kredit skoringi, Smart Sweep, raqamli transformatsiya, aktiv-passiv boshqaruv, operatsion samaradorlik.

Mijoz ehtiyojlari aqlli texnologiyalar orqali qondirilayotgan bir davrda, raqamli moliyaviy inklyuziya muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada banklar tomonidan ustuvorlik beriladigan yo'nalishlaridan biri — kambag'allikni qisqartirish, iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish va ijtimoiy tengsizlikni yumshatishni ta'minlash hisoblanadi. Dunyoning 30 dan ortiq yetakchi rivojlanish tashkilotlarini birlashtirgan CGAP (Consultative Group to Assist the Poor) kabi nufuzli institutlar ta'kidlaganidek, aholining kam ta'minlangan qatlamlarini rasmiy moliya tizimiga integratsiya qilish nafaqat shaxsiy farovonlikni oshiradi, balki milliy iqtisodiyotlarning barqaror poydevorini yaratadi[86]. Moliyaviy ochiqlikning asosiy harakatlantiruvchilaridan biri - bank mobil ilovalari maydonga chiqayotgan bir paytda, an'anaviy bank xizmatlaridan foydalanish imkoniyati cheklangan hududlarda tranzaksiya xarajatlarini kamaytirish va moliyaviy xizmatlar qamrovini kengaytirishning yagona samarali vositasi aynan shu kabi ilova bo'lib xizmat qilmoqda. Biroq, moliyaviy inklyuzivlikning kengayishi faqat ijtimoiy natijalar bilan cheklanib qolmay, bank tizimining samaradorligiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Raqamli moliyaviy inklyuzivlik — bu moliya bozoridan chetda qolgan aholi qatlamlari uchun hamyonbop mahsulotlarni taqdim etish bilangina cheklanmaydigan kompleks jarayondir. Jarayonning muvaffaqiyati nafaqat texnik infratuzilmaning mavjudligiga, balki interfeys qulayligi, kiberxavfsizlik va ishonch kabi muhim omillarga bog'liq[87]. Hozirgi kunda tadqiqotlarning asosiy qismi foydalanuvchi interfeysi maksimal darajada qulay, xavfsiz va samarali qilishga, tugmalarning joylashuvi va ranglar majmuasiga qaratilgan bo'lib, ilova qanchalik tushunarli bo'lsa,

[86] https://tipalti.com/blog/digital-financial-inclusion
[87] Ahmad N. R. Financial inclusion: How digital banking is bridging the gap for emerging markets //Journal of Applied Linguistics and TESOL (JALT). – 2025. – T. 8. – №. 1. – C. 894-902.

inklyuzivlik shunchalik yuqori bo‘ladi, degan qarash ustuvorlik qiladi[88]. Shu nuqtayi nazardan, biz bank mobil ilovalarini shunchaki xizmat ko‘rsatuvchi interfeys emas, balki mijozning moliyaviy xatti-harakatini tahlil qiluvchi “Dinamik kredit skoringi” hamda aktiv-passiv boshqaruvini avtomatlashtiruvchi “Smart Sweep” algoritmlarini o‘zida mujassam etgan intellektual ekotizim sifatida baholashni taklif etamiz. Mazkur gipoteza bankning resurslar bazasini kengaytirish va kredit risklarini real vaqt rejimida boshqarish orqali moliyaviy inklyuzivlikni yangi, sifat jihatidan yuqori bo‘lgan iqtisodiy barqarorlik bosqichiga olib chiqishni nazarda tutadi.

Raqamli moliyaviy inklyuzivlik yo‘lidagi to‘siqlarning bartaraf etilishi va jamiyatda raqamli ishonch muhitining shakllanishi bank tizimi uchun bevosita iqtisodiy dividendlar manbai bo‘lib xizmat qiladi. Aholining moliya tizimiga integratsiyalashuvi bank sektorida depozitlar barqarorligini ta’minlash, tranzaksiya xarajatlarini pasaytirish va milliy iqtisodiyotda pul aylanmasini jadallashtirish uchun fundamental zamin yaratadi[89].

Texnologiyalardan jamiyat va iqtisodiyot manfaatlari yo‘lida foydalanish zaruriyatidan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, moliyaviy inklyuzivlik darajasining ortishi bank tizimi barqarorligiga nafaqat ijtimoiy, balki aniq iqtisodiy ta’sir ko‘rsatadi. Bank mobil ilovalari orqali aholini moliya tizimiga jalb qilish bankning ichki resurslarini mustahkamlash va xatarlarni kamaytirish imkonini beradi. Ushbu jarayonning asosiy yo‘nalishlari va ularning bank barqarorligiga ta’sirini 1-jadval orqali umumlashtirishimiz mumkin:

1-jadval


Raqamli moliyaviy inklyuzivlikning bank tizimi barqarorligini oshirishdagi o‘rni[90]

Yo‘nalishlar	Moliyaviy inklyuzivlik mexanizmi	Bank barqarorligi uchun natija
Mijozlar bazasini kengaytirish	Mobil ilova orqali avval bank xizmatidan foydalanmagan aholi qatlamlari jalb qilinadi.	Bank kam sonli yirik mijozga qaram bo‘lib qolmaydi, balki ko‘p sonli mijozlar hisobiga barqaror ishlaydi.
Operatsion samaradorlik	Raqamli xizmatlar ko‘rsatish orqali an’anaviy filiallar va qog‘oz xarajatlari qisqaradi.	Bankning sof foydasi va kapital yetarliligi darajasi oshadi.
Tizimli ishonchni mustahkamlash	Qulay va xavfsiz raqamli muhit aholining bank tizimiga bo‘lgan ishonchini oshiradi.	Iqtisodiy beqarorlik davrida omonatlarning ommaviy ravishda qaytib olinishi va likvidlik taqchilligi xavfi minimallashadi.
Kredit xatarlarini boshqarish	Ilova orqali mijozning moliyaviy xatti-harakati tahlil qilinib, to‘lov qobiliyati aniq baholanadi.	Muammoli kreditlar (NPL) ulushi kamayadi va aktivlar sifati yaxshilanadi.

[88] Davis, F. D. (1989). “Perceived Usefulness, Perceived Ease of Use, and User Acceptance of Information Technology”. MIS Quarterly.
[89] https://www.worldbank.org/en/publication/globalfindex
[90] https://media.un.org/avlibrary/en/asset/u131/u131112g ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi

Jadval ma’lumotlari raqamli moliyaviy inklyuzivlikning bank tizimi barqarorligiga ta’sirini bir-biri bilan bog‘liq bo‘lgan bir necha yo‘nalishda ochib beradi. Avvalo, resurslar bazasining diversifikatsiyalanishi bankning bir nechta yirik mijozga bo‘lgan strategik bog‘liqligini kamaytiradi. Mobil ilovalar orqali keng aholi qatlamlarining jalb qilinishi mablag‘larning bank tizimida keng taqsimlanishiga olib keladi, bu esa kutilmagan likvidlik taqchilligi xavfini minimallashtiradi. Shu bilan birga, raqamli xizmatlar ko‘rsatish orqali operatsion xarajatlarning tejalishi bank foyda marjasini oshiradi va uning kapital yetarliligini mustahkamlaydi. Eng muhimi, tizimda raqamli ishonchning shakllanishi iqtisodiy tebranishlar davrida aholining vahimaga tushib, omonatlarni ommaviy ravishda qaytib olish xavfini jiddiy ravishda pasaytiradi.

O‘zbekiston banklari ham mukammallikka intilmoqda va buni tasdig‘ini O‘zbekiston Respublikasi subyektlarining moliyaviy ishonchliligi va barqarorligi to‘g‘risida xolis va ishonchli ma’lumotlarni taqdim etishni asosiy vazifa etib belgilagan SNS Ratings agentligi O‘zbekiston banklarining 2026-yil yanvar oyi uchun mobil ilovalari reytingi orqali bilishimiz mumkin. Reytingda 35 ta bankdan 29 tasi qatnashgan. Ularning bahosi 11 ta shkalaga bo‘lingan. Eng yuqori ko‘rsatkichni 3 ta bank qayd etgan— “TBC Bank”, “Anorbank” va “Ipak yo‘li” banki[91]. Joriy yilgi bank mobil ilovalari bo‘yicha reyting ko‘rsatkich o‘tgan 2025-yilga nisbatan o‘sish dinamikasini taqdim etgan (1-rasm):



1-rasm. Banklarning mobil ilovalari reytingi: 2025–2026 taqqoslama tahlili[92]

Grafikda ikki davr bo‘yicha uchta ko‘rsatkich taqqoslandi va bu O‘zbekiston bank sektoridagi raqamli transformatsiya jarayonlarining jadallashganini ko‘rsatadi. Xususan, bank mobil ilovalarining umumiy yuklab olishlar soni 2026-yilga kelib o‘zining eng yuqori nuqtasiga ko‘tarilgani aholining bank xizmatlariga raqamli kanallar orqali kirib kelish ko‘lami kengayganidan, ya’ni miqdoriy inklyuzivlikning oshganidan dalolat beradi. Shuningdek, umumiy yuklab olishlar soni va foydalanuvchi

[91] https://vaqt.uz/uz/news/
[92] https://snsratings.uz/analytics ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi

faolligi o‘rtasidagi nomutanosiblikni ham ko‘rishimiz mumkin, bunda bank mobil ilovalarini rivojlantirishda miqdoriy ko‘rsatkichdan ko‘ra, sifatli rivojlanish bosqichiga o‘tish zaruriyatini ko‘rsatadi. Yuklab olishlar soni yuqori bo‘lishiga qaramay, qoniqish darajasi va faol foydalanuvchilar ulushining nisbatan pastligi — mijozlarning bank ilovalaridan kutilmalari faqatgina interfeys qulayligi bilan cheklanmayotganidan dalolat beradi.

Xulosa tariqasida ta’kidlash joizki, raqamli texnologiyalar davrida moliyaviy inklyuzivlik nafaqat texnik qamrov, balki bank tizimiga bo‘lgan ishonch va qulaylikni o‘zida mujassam etgan murakkab strategik jarayondir. O‘zbekiston bank sektoridagi hozirgi o‘sish dinamikasi, xususan, SNS Ratings agentligi tomonidan e’lon qilingan 2025-2026 yillar reytingi mobil ilovalar bozorida raqobat va sifat o‘sishi kuzatilayotganidan dalolat beradi. Biroq, mavjud interfeysga asoslangan “tashqi qulaylik” o‘zining konseptual yetarliligini yo‘qotib bormoqda va bank tizimini yangi, algoritmik boshqaruv modellariga o‘tish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda.

Tadqiqotimiz asosida moliyaviy inklyuzivlikni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish uchun “Dinamik kredit skoringi” tizimini joriy etish va “Smart Sweep” mexanizmini tatbiq etish aks etgan quyidagi ikki muhim strategik taklifni ilgari suramiz:

Birinchidan, “Dinamik kredit skoringi” tizimini joriy etish: mijozlarning an’anaviy kredit tarixidan tashqari, mobil ilovadagi “raqamli xatti-harakatlarini” real vaqtda tahlil qiluvchi intellektual algoritmlarni integratsiya qilish. Bu orqali kredit risklari (NPL) minimallashadi va banklar uchun yangi, mijozlar segmentini xavfsiz kreditlash imkoniyati yaratiladi.

Ikkinchidan, “Smart Sweep” mexanizmini tatbiq etish: mijozlarning kartadagi bo‘sh mablag‘larini avtomatik tarzda foizli depozitga o‘tkazuvchi va ehtiyoj tug‘ilganda darhol qaytaruvchi algoritmlarni joriy etish. Bu bankning resurslar bazasini kengaytirib, aktiv-passiv boshqaruvini avtomatlashtiradi va mijozlarning bank tizimiga bo‘lgan ishonchini “passiv daromad” mexanizmi orqali mustahkamlaydi. Bank mobil ilovalarining funksional rivojlanishi — bu shunchaki interfeys yangilanishi emas, balki bankning ichki intellektual salohiyatini oshirishdir. Ushbu algoritmik yondashuv O‘zbekiston banklariga nafaqat reytinglarda yuqori o‘rinni egallash, balki milliy iqtisodiyotda pul aylanmasini jadallashtirish va raqamli moliyaviy barqarorlikni ta’minlashda yetakchi bo‘lish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. https://tipalti.com/blog/digital-financial-inclusion
2. Ahmad N. R. Financial inclusion: How digital banking is bridging the gap for emerging markets //Journal of Applied Linguistics and TESOL (JALT). – 2025. – Т. 8. – №. 1. – С. 894-902.
3. https://www.worldbank.org/en/publication/globalfindex
4. https://media.un.org/avlibrary/en/asset/u131/u131112g
5. Yahaya O. A. Financial inclusion, credit access, and mobile banking: Pathways to economic growth in Nigeria //Journal of Management Studies and Business. – 2026. – Т. 23. – №. 2. – С. 118-146.

THE IMPACT OF CONSUMER AWARENESS OF CORPORATE SOCIAL RESPONSIBILITY ON GREEN PURCHASING BEHAVIOR

Rahmonova Madina Shuhrat qizi
Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti
Tayanch doktarant
ORCID: 0009-0009-7604-8848

Ergashev Obidjon Gapparovich
Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti
Ilmiy kotib, t.f.f.d PhD, katta ilmiy xodim
ORCID: 0009-0001-1759-9588

Abstract*:* As environmental concerns continue to grow, it is important to examine the factors that shape consumers' green purchasing behavior. This study examines the impact of consumers' awareness of corporate social responsibility on green purchasing. The study is based on a systematic review of 53 articles indexed in Scopus. The results showed that awareness of CSR has a positive effect on consumers' green purchasing behavior. Environmental attitudes were shown to act as a mediator, while consumers' self-confidence acted as a moderator. High levels of awareness and confidence encourage environmentally responsible behavior. The results of the study have important practical implications for the development of sustainable consumption.

Keywords: Corporate Social Responsibility; Consumer Knowledge; Green Purchase Behavior; Environmental Attitudes; Sustainable Consumption

Introduction. In recent years, environmental degradation, climate change, and resource depletion have increased the need for sustainable consumption patterns [1]. As a result, both politicians and businesses are increasingly focusing on promoting environmentally responsible behavior among consumers [2]. In this context, corporate social responsibility (CSR) has become an important factor influencing consumer decision-making, as companies are increasingly expected to act in an environmentally and socially responsible manner [3].

Consumer awareness of corporate social responsibility refers to the level of awareness that people have about companies' environmental and social practices [4]. This knowledge plays an important role in shaping consumers' perceptions, attitudes, and purchasing decisions. When consumers are well informed about responsible business practices, they are more likely to support companies that demonstrate a commitment to protecting the environment through their products and activities [5].

"Green purchasing behavior," defined as a preference for environmentally friendly products and services, is a key component of sustainable consumption [6]. Previous studies have shown that consumer awareness and knowledge significantly influence environmentally responsible behavior, especially through the formation of positive attitudes towards the environment [7].

The aim of this study is to examine the impact of consumer awareness of corporate social responsibility on green purchasing behavior, focusing on the underlying

psychological mechanisms that shape this attitude. By examining how knowledge is translated into behavior, the study contributes to a better understanding of the role of informed consumers in promoting sustainable economic development.

Methods. This study was based on a systematic literature review based on scientific articles indexed in Scopus. Articles were searched using keywords such as “corporate social responsibility”, “green purchasing behavior”, “consumer knowledge”, “environmental attitudes”, “perceived effectiveness”. The selection process was carried out based on the established criteria, and a total of 53 articles were selected. The data were analyzed using a qualitative synthesis method and the relationships between variables were identified. In addition, a bibliometric network analysis was conducted using the VOSviewer program to identify key concepts and their interrelationships.

Results. A systematic review of 53 peer-reviewed articles indexed in Scopus found a consistent and significant relationship between consumer awareness of corporate social responsibility and green purchasing behavior.




Figure 1. VOSviewer network visualization of key concepts and their interrelationships.

The VOSviewer network analysis reveals two main clusters. The first cluster (red) encompasses corporate social responsibility, manufacturing, marketing and consumer knowledge, reflecting the conceptual and informational foundations of this topic. The second cluster (green) consists of green purchasing, environmental issues, environment and purchasing decisions, representing behavioral purchasing.

The term "green purchasing behavior" appears as a unique connecting element between the two clusters, which is related to actual purchasing decisions related to consumption. In addition, both clusters are closely related to consumer knowledge, highlighting its importance in monitoring environmental safety. In general, it is seen that knowledge

related to CSR and environmental issues together affect the green purchasing system through related cognitive and behavioral mechanisms.

Table 1. Distribution of main findings reported in the included articles

Type of reported result	Number of articles	Percentage (%)
CSR awareness → directly positive effect on green purchasing behavior	32	60 %
CSR awareness → positive environmental attitudes → green purchasing behavior	28	53%
Perceived effectiveness as a moderating variable enhancing green purchasing behavior	18	34%
Education level and access to information significantly strengthen the impact of knowledge	22	42%

Table 1 summarizes the distribution of the main findings across the included studies. A majority of the articles (60%) report a direct positive effect of CSR awareness on green purchasing behavior, while more than half (53%) also identify positive environmental attitudes as a mediating mechanism. In addition, perceived effectiveness and education level/access to information appear as important moderating factors in 34% and 42% of the studies, respectively.

The majority of the reviewed studies confirm that high levels of consumer awareness of corporate social responsibility practices have a positive effect on green purchasing behavior. Specifically, well-informed consumers prefer environmentally friendly products and support companies that engage in responsible business practices. Furthermore, the analysis suggests that environmental attitudes play an important mediating role in this relationship. Many studies show that consumer awareness fosters positive environmental attitudes, which in turn leads to increased green purchasing behavior.

Table 2. Role of environmental attitudes in the relationship between CSR awareness and green purchasing behavior

Relationship path	Reported in studies	Direction of effect
CSR awareness → green purchasing behavior	60%	Positive
CSR awareness → positive environmental attitudes	53%	Positive
Environmental attitudes → green purchasing behavior	50%	Positive

In addition, several studies highlight the moderating effect of consumer perceptions of efficiency. The results show that consumers who believe that their individual actions can contribute to environmental protection are more likely to translate their knowledge into actual behavior. A comparative analysis of the selected literature shows that education level and access to information significantly increase the impact of consumer knowledge on sustainable consumption patterns. Overall, the reviewed studies convincingly demonstrate that consumers' awareness of corporate social responsibility is a key factor directly and indirectly determining their green purchasing behavior through psychological and behavioral mechanisms. psychological and behavioral mechanisms.

Discussion. The results of this study are consistent with the existing theoretical and empirical literature, which confirms that consumers' knowledge of corporate social responsibility plays an important role in shaping green purchasing behavior [8]. The results support the propositions of the theory of planned behavior, which emphasizes that knowledge and attitudes are the main determinants of behavioral outcomes [9].

The identified mediating role of environmental attitudes suggests that knowledge alone is not sufficient to change behavior unless it is internalized and does not lead to positive attitudes toward environmental protection. This finding is consistent with previous research, which suggests that knowledge alone is not sufficient to change behavior unless it is internalized and does not lead to positive attitudes toward environmental protection. This finding is consistent with previous research, which suggests that this connection serves as a psychological mechanism linking awareness to action [10].

Furthermore, the moderating effect of consumer self-efficacy emphasizes the importance of individual beliefs in shaping behavior. Even with sufficient knowledge, consumers' willingness to engage in green shopping is dependent on their belief that their actions can have a significant impact on the environment [11].

The results also highlight the role of education and access to information in raising consumer awareness and promoting sustainable consumption patterns. In this context, higher education institutions and policymakers have an important role to play in fostering environmental responsibility among consumers [12].

However, some differences in the reviewed studies suggest that cultural, economic, and regional factors may influence the strength of this relationship. This highlights the need for context-sensitive strategies in promoting environmentally responsible consumer behavior [13].

Overall, the study contributes to a deeper understanding of how consumer knowledge translates into sustainable behavior and highlights the importance of integrating knowledge, attitudes, and performance in policy development aimed at fostering a green economy.

Conclusion. This study investigated the impact of consumers' knowledge of corporate social responsibility on green purchasing behavior based on a systematic review of selected scientific literature. The results of the study confirm that consumer knowledge is an important factor in promoting environmentally responsible purchasing decisions.

The results indicate that consumer knowledge not only directly influences green purchasing behavior, but also indirectly through the formation of environmental attitudes. Furthermore, consumer awareness of efficiency strengthens this attitude by motivating individuals to translate their knowledge into actual behavior.

The study suggests that increasing consumer awareness of corporate social responsibility can serve as an effective strategy to promote sustainable consumption and support the transition to a green economy. In this regard, educational institutions, policymakers and businesses should focus on increasing transparency, providing environmental information and promoting responsible consumer behavior.

Despite its contribution, the study is limited by its reliance on previously published literature, which may differ in methodological approaches and regional contexts. Therefore, future research is recommended to conduct empirical studies in specific contexts to confirm and extend these findings.

Overall, the study highlights the importance of integrating knowledge, attitudes and individual perceptions in promoting sustainable economic development through consumer behavior.

References

1.Our resources are running out and these charts show how urgently action is needed. World Econ Forum 2024. https://www.weforum.org/stories/2024/03/sustainable-resource-consumption-urgent-un/

2.Huo J, Peng C. Depletion of natural resources and environmental quality: Prospects of energy use, energy imports, and economic growth hindrances. Resour Policy 2023;86:104049. https://doi.org/10.1016/j.resourpol.2023.104049.

3.Wekesa J. Impact of CSR (Corporate Social Responsibility) on Consumer Behavior. Int J Mark Strateg 2024;6:35–45. https://doi.org/10.47672/ijms.2132.

4.Zaborek P, Kurzak Mabrouk A. The Role of Social and Environmental CSR in Shaping Purchase Intentions: Experimental Evidence from the Cosmetics Market. Sustainability 2025;17:1792. https://doi.org/10.3390/su17051792.

5.Clinton C, Chatrath SK. The Value of Consumer Awareness and Corporate Social Responsibility in Marketing: An Overview. In: Ogunyemi K, Burgal V, editors. Prod. Conscious Consum., Emerald Publishing Limited; 2022, p. 49–63. https://doi.org/10.1108/978-1-80262-837-120221004.

6.Liang G. Factors Affecting Green Purchase Behaviour and Future Marketing Strategy. Am J Ind Bus Manag 2024;14:194–213. https://doi.org/10.4236/ajibm.2024.142010.

7.Tan B-C, Lau T-C. Green Purchase Behavior 2011.

8.Vu DM, Ha NT, Ngo TVN, et al. Environmental corporate social responsibility initiatives and green purchase intention: an application of the extended theory of planned behavior. Soc Responsib J 2022;18:1627–45. https://doi.org/10.1108/SRJ-06-2021-0220.

9.Ajzen I. The theory of planned behavior. Organ Behav Hum Decis Process 1991;50:179–211. https://doi.org/10.1016/0749-5978(91)90020-T

10.Liu P, Teng M, Han C. How does environmental knowledge translate into pro-environmental behaviors?: The mediating role of environmental attitudes and behavioral intentions. Sci Total Environ 2020;728:138126. https://doi.org/10.1016/j.scitotenv.2020.138126
11.Ben-Ami M, Hornik J, Eden D, et al. Boosting consumers' self-efficacy by repositioning the self. Eur J Mark 2014;48:1914–38. https://doi.org/10.1108/EJM-09-2010-0502.
12.Al-Nuaimi SR, Al-Ghamdi SG. Sustainable Consumption and Education for Sustainability in Higher Education. Sustainability 2022;14:7255. https://doi.org/10.3390/su14127255.
13.Baltabayev BZh, Rozhdestvenskaia EM, Krakovetskaya IV, et al. Responsible consumer behavior: Best practices and management challenges. Int J Innov Res Sci Stud 2025;8:2732–42. https://doi.org/10.53894/ijirss.v8i6.10198

YASHIL IQTISODIYOTNI JORIY ETISH SHAROITIDA QURILISH KORXONALARIDA STRATEGIK BOSHQARUVNI TAKOMILLASHTIRISHDAGI MUAMMOLAR VA CHEKLOVLAR

G'ulomova Shaxlo Baxtiyor qizi
Toshkent arxitektura-qurilish universiteti doktorant
ORCID:0009-0008-3226-2108

Annotatsiya. Mazkur maqolada yashil iqtisodiyotni joriy etish sharoitida O'zbekiston qurilish korxonalarida strategik boshqaruvni takomillashtirish muammolari va cheklovlari tahlil qilingan. Mavzuning dolzarbligi qurilish tarmog'ining jadal o'sishi, resurs sarfining yuqoriligi hamda energiya samaradorligi va ekologik talablarga moslashish zarurati bilan belgilanadi. Tadqiqotda qiyosiy-statistik, normativ-huquqiy tahlil, tizimli yondashuv va strategik guruhlash usullaridan foydalanildi. Natijada yashil strategik boshqaruvni joriy etishga to'sqinlik qiluvchi me'yoriy-metrik, moliyaviy-investitsion va operatsion-raqamli cheklovlar aniqlandi. Muallif yondashuvi ushbu cheklovlarni o'zaro bog'liq tizim sifatida baholashga asoslanadi. Ilmiy yangilik qurilish korxonalarida yashil strategik boshqaruv muammolarini kompleks cheklovlar tizimi orqali talqin etishda namoyon bo'ladi.Ushbu tezisda yashil iqtisodiyotni joriy etish sharoitida O'zbekiston qurilish korxonalarida strategik boshqaruvni takomillashtirishga to'sqinlik qilayotgan institutsional, moliyaviy, texnologik va tashkiliy cheklovlar tahlil qilindi.

Kalit so'zlar: yashil iqtisodiyot, qurilish korxonalari, strategik boshqaruv, energiya samaradorligi, MRV, yashil taksonomiya, yashil moliya, kichik biznes, hayotiy sikl qiymati.

Kirish. Yashil iqtisodiyotga o'tish qurilish tarmog'i uchun faqat ekologik talab emas, balki investitsiya, raqobatbardoshlik va uzoq muddatli boshqaruv barqarorligini belgilovchi omilga aylandi. UNEPning 2024-2025 yilgi global hisobotiga ko'ra, binolar va qurilish sektori global energiya iste'molining 32 foizini, global CO2 chiqindilarining 34 foizini shakllantiradi, sement va po'lat kabi asosiy qurilish materiallari esa global chiqindilarning 18 foiziga bog'liq [93]. O'zbekistonda 2025-yil yakunida qurilish ishlari hajmi 313 887,8 mlrd so'mni tashkil etdi, 2021-yildagi 107 492,7 mlrd so'mlik daraja bilan solishtirilganda tarmoq hajmi joriy narxlarda qariyb 2,9 baravarga kengaydi [94].

Qurilish sohasida strategik boshqaruvning yashil iqtisodiyot talablariga moslashuvi O'zbekistonning 2030-yilgacha bo'lgan milliy maqsadlari bilan bevosita bog'liq. Prezidentning 2022-yil 2-dekabrdagi PQ-436-son qarorida 2010-yil darajasiga nisbatan yalpi ichki mahsulot birligiga to'g'ri keladigan issiqxona gazlari chiqindilarini 35 foizga kamaytirish, qayta tiklanuvchi energiya quvvatini 15 GWga yetkazish, elektr

[93] United Nations Environment Programme. (2025). Global Status Report for Buildings and Construction 2024/2025. Nairobi: UNEP.
[94] O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. (2026). O'zbekiston Respublikasida bajarilgan qurilish ishlari: 2025-yil yanvar–dekabr uchun press-reliz, 21.01.2026.

energiyasi ishlab chiqarishda qayta tiklanuvchi manbalar ulushini 30 foizdan oshirish, sanoatda energiya samaradorligini kamida 20 foizga oshirish va yalpi ichki mahsulot energiya sig‘imini 30 foizga qisqartirish vazifalari belgilangan [95.] Shu jihatdan qurilish korxonalarining strategiyasi endilikda faqat tannarx, muddat va rentabellik bilan emas, balki energiya auditi, uglerod hisobi, yashil sertifikat, materiallar samaradorligi va loyihaning hayotiy sikl qiymati bilan ham baholanishi zarur.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Xorijiy ilmiy adabiyotlarda ekologik omillarni strategik boshqaruvga kiritish 1990-yillardan boshlab resursga asoslangan nazariya, innovatsion raqobat va dinamik qobiliyatlar konsepsiyalari orqali izohlangan. S. Hart 1995-yilda tabiiy resurslarga asoslangan firma nazariyasini ishlab chiqib, ifloslanishning oldini olish, mahsulotni boshqarish va barqaror rivojlanishni korxona raqobat strategiyasining tarkibiy qismi sifatida talqin qilgan 96. M. Porter va C. van der Linde 1995-yildagi tadqiqotida ekologik tartibga solish korxonalarni innovatsiyaga undashi mumkinligini asoslagan, D. Teece 2007-yilda dinamik qobiliyatlar nazariyasi orqali korxonalar tez o‘zgarayotgan tashqi muhitda strategik moslashuvni amalga oshirishini ko‘rsatgan, R. Kaplan va D. Norton 1996-yilda balanslashtirilgan ko‘rsatkichlar tizimi orqali strategiyani o‘lchovli indikatorlarga aylantirish mexanizmini taklif etgan [97.] Mazkur yondashuvlar qurilish korxonalarida yashil strategiyani resurs tejash, ekologik innovatsiya, malaka oshirish va korporativ ko‘rsatkichlar tizimi bilan bog‘lash imkonini beradi.

Xalqaro amaliy hisobotlarda yashil qurilish muammosi tarmoqning energiya, materiallar va chiqindi oqimlariga yuqori bog‘liqligi bilan izohlanadi. UNEP hisobotida 2023-yil holatiga ko‘ra qurilish tarmog‘i global CO2 chiqindilarining 34 foizini shakllantirgani qayd etilgan bo‘lsa, Jahon bankining O‘zbekiston yashil taksonomiyasi bo‘yicha 2024-yilgi yo‘riqnomasida yashil loyihalar uchun xarajat-foyda tahlili, yashil ta’sir hisobotlari, ESG va iqlim xavfini baholash amaliyotlarini kengaytirish zarurligi ko‘rsatilgan [98.] Ushbu ikki manba qurilish korxonalarida strategik boshqaruv faqat ishlab chiqarish samaradorligi emas, balki moliyaviy hisobot, ekologik verifikatsiya va investitsiya mezonlari bilan uzviy bog‘langanini tasdiqlaydi.

Mahalliy adabiyotlarda A.V. Vaxobov, Sh.X. Xojibakiyev va hammualliflarning 2020-yilda chop etilgan 262 betlik darsligi hamda S.N. Xashimovaning 2024-yildagi 224 betlik “Yashil iqtisodiyot” darsligi yashil iqtisodiyotning nazariy asoslari, tamoyillari, resurs samaradorligi va barqaror rivojlanish yo‘nalishlarini izohlaydi [99]. Shu bilan birga, mavjud mahalliy tadqiqotlarda qurilish korxonalari strategik

---

[95] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. (2022). 2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida, PQ-436-son, 02.12.2022.

[96] Hart, S. L. (1995). A natural-resource-based view of the firm. Academy of Management Review, 20(4), 986–1014.

[97] Porter, M. E., & van der Linde, C. (1995). Toward a new conception of the environment-competitiveness relationship. Journal of Economic Perspectives, 9(4), 97–118.; Teece, D. J. (2007). Explicating dynamic capabilities: the nature and microfoundations of enterprise performance. Strategic Management Journal, 28(13), 1319–1350.; Kaplan, R. S., & Norton, D. P. (1996). The Balanced Scorecard: Translating Strategy into Action. Boston: Harvard Business School Press.

[98] United Nations Environment Programme. (2025). Global Status Report for Buildings and Construction 2024/2025. Nairobi: UNEP.; World Bank. (2024). Guidance Note on Uzbekistan Green Taxonomy. Washington, DC: World Bank.

[99] Vaxobov, A. V., Xojibakiyev, Sh. X., va boshqalar. (2020). Yashil iqtisodiyot: darslik. Toshkent: Universitet.; Xashimova, S. N. (2024). Yashil iqtisodiyot: darslik. Toshkent: Ma’rifat.

boshqaruvi ko‘pincha umumiy raqobatbardoshlik, investitsiya boshqaruvi va innovatsiyalar kesimida o‘rganilgan; 2023–2026-yillarda shakllangan yashil taksonomiya, energiya auditi, elektron energetika pasporti va qurilish tarmog‘ining 2025-yilgi tarkibiy dinamikasi bilan bevosita bog‘langan tahlillar yetarli darajada tizimlashtirilmagan [100.] Shu sababli ushbu tezis qurilish korxonalaridagi strategik boshqaruv cheklovlarini rasmiy statistik va normativ asoslar bilan bog‘lab talqin qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotning uslubiy asosi 2021–2025-yillar bo‘yicha qurilish ishlari dinamikasini qiyosiy-statistik tahlil qilish, 2019–2030-yillar yashil iqtisodiyot strategiyasi, 2022-yil PQ-436-son qaror, 2023-yil 561-son Milliy “yashil” taksonomiya, 2024-yil 690-son energiya auditi tartibi va 2025-yil PQ-100-son qaror normalarini normativ-huquqiy jihatdan tahlil qilishdan iborat bo‘ldi [101]. Statistik guruhlash uch yo‘nalishda amalga oshirildi: qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha tarkibi, korxona turlari bo‘yicha taqsimoti va yalpi ichki mahsulot tarkibidagi ulushi. Metodologik yondashuvda qurilish korxonasining yashil strategiyasi 3 darajada baholandi: me’yoriy talablarga moslik, operatsion resurs samaradorligi va yashil innovatsiyalarni investitsiyaga aylantirish salohiyati.

Tahlilda strategik boshqaruv muammolari 6 mezon bo‘yicha ajratildi: energiya samaradorligi ko‘rsatkichlari, materiallar va chiqindilar oqimi, yashil moliyalashtirishga tayyorgarlik, raqamli monitoring, xodimlar malakasi va davlat xaridlari talablari. Bunda 2025-yilda qurilish tarmog‘ining yalpi qo‘shilgan qiymati 129 224,1 mlrd so‘mni tashkil etgani, tarmoqning YAIM tarkibidagi ulushi 2024-yildagi 7,2 foizdan 2025-yilda 7,3 foizga oshgani va qurilish ishlari hajmi 14,0 foizga o‘sgani asosiy tahliliy nuqta sifatida olindi [102]. Mazkur yondashuv yashil iqtisodiyotga o‘tish sharoitida strategik boshqaruvni baholashni faqat huquqiy majburiyatlar bilan emas, balki bozor tarkibi, korxona hajmi va investitsiya imkoniyatlari bilan bog‘laydi.

[100] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. (2023). Milliy “yashil” iqtisodiyot taksonomiyasini tasdiqlash to‘g‘risida, 561-son, 25.10.2023.; O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. (2026). O‘zbekiston Respublikasida bajarilgan qurilish ishlari: 2025-yil yanvar–dekabr uchun press-reliz, 21.01.2026.; O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. (2024). Yoqilg‘i-energetika resurslari iste’molchilarini hamda bino va inshootlarni energiya iste’molini energiya auditidan o‘tkazish tartiblarini belgilash to‘g‘risida, 690-son, 19.10.2024.

[101] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. (2022). 2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida, PQ-436-son, 02.12.2022.; O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. (2023). Milliy “yashil” iqtisodiyot taksonomiyasini tasdiqlash to‘g‘risida, 561-son, 25.10.2023.; O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. (2026). O‘zbekiston Respublikasida bajarilgan qurilish ishlari: 2025-yil yanvar–dekabr uchun press-reliz, 21.01.2026.; O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. (2024). Yoqilg‘i-energetika resurslari iste’molchilarini hamda bino va inshootlarni energiya iste’molini energiya auditidan o‘tkazish tartiblarini belgilash to‘g‘risida, 690-son, 19.10.2024.; O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. (2025). Uy-joy hamda bino-inshootlarni issiqlik energiyasi bilan ta’minlash sohasini tubdan isloh qilish hamda binolarning energiya samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida, PQ-100-son, 11.03.2025.

[102] O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. (2026). O‘zbekiston Respublikasi yalpi ichki mahsuloti: 2025-yil yanvar–dekabr uchun press-reliz, 26.01.2026.

1-rasm103. 2025-yil yanvar–dekabr oylarida O’zbekiston Respublikasida bajarilgan qurilish ishlari hajmi



Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotiga ko‘ra, 2025-yil yanvar–dekabr oylarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 313 887,8 mlrd so‘mni tashkil etib, 2024-yilga nisbatan 14,2 foizga oshdi; 2021-yilda ushbu ko‘rsatkich 107 492,7 mlrd so‘m, 2022-yilda 130 790,9 mlrd so‘m, 2023-yilda 222 935,8 mlrd so‘m va 2024-yilda 259 654,3 mlrd so‘m bo‘lgan [104]. Bunday tez kengayish sharoitida yashil strategiyani kechiktirish korxonalar uchun 2030-yilgi milliy maqsadlar, energiya auditi talablari va xalqaro moliyalashtirish mezonlariga moslashish xarajatlarini oshiradi.

Qurilish ishlari tarkibida bino va inshootlar qurilishi 2025-yilda 218 720,0 mlrd so‘mni tashkil etib, jami hajmning 69,7 foizini egalladi; fuqarolik obyektlari qurilishida 64 947,8 mlrd so‘m bilan 20,7 foiz ulushga, ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari 30 220,0 mlrd so‘m bilan 9,6 foiz ulushga ega bo‘ldi [105]. O‘sish sur’atlari tarkibiy nomutanosiblikni ochib beradi: bino va inshootlar qurilishi 7,5 foizga oshgan bo‘lsa, fuqarolik obyektlari qurilishi 31,1 foizga, ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari 37,6 foizga o‘sdi. Strategik boshqaruv nuqtayi nazaridan bu holat korxonalardan alohida loyiha turi bo‘yicha energiya samaradorligi, material sarfi, texnika yoqilg‘i iste’moli va chiqindi hajmini mustaqil hisoblash tizimini talab qiladi.

Korxona turlari kesimida asosiy cheklov kichik biznes va norasmiy sektorning yuqori ulushi bilan izohlanadi. 2025-yilda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari 149 858,3 mlrd so‘mni tashkil etib, jami hajmning

[103] O’zbekiston Milliy statistika qo’mitasi ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi
[104] O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. (2026). O‘zbekiston Respublikasida bajarilgan qurilish ishlari: 2025-yil yanvar–dekabr uchun press-reliz, 21.01.2026.
[105] O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. (2026). O‘zbekiston Respublikasida bajarilgan qurilish ishlari: 2025-yil yanvar–dekabr uchun press-reliz, 21.01.2026.

47,8 foiziga teng bo‘ldi; yirik qurilish tashkilotlari 82 960,9 mlrd so‘m bilan 26,4 foiz ulushni, norasmiy sektor esa 81 068,6 mlrd so‘m bilan 25,8 foiz ulushni egalladi [106]. Yirik korxonalarda boshqaruv tizimlarini standartlashtirish imkoniyati nisbatan yuqori bo‘lsa, kichik korxonalar va mikrofirmalarda energiya auditi, ESG hisobot, BIM, hayotiy sikl qiymati hamda yashil taksonomiya bo‘yicha alohida mutaxassis saqlash xarajati strategik cheklov sifatida namoyon bo‘ladi.

Yashil iqtisodiyotga o‘tish sharoitida qurilish korxonalarining strategik boshqaruvi eng avvalo o‘lchovli ko‘rsatkichlar tizimiga ehtiyoj sezadi. Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 19-oktyabrdagi 690-son qaroriga muvofiq, 2024-yil 1-noyabrdan foydalanish maydoni 200 kvadrat metrdan ortiq bino va inshootlarning energiya samaradorligi “A”dan “G”gacha bo‘lgan toifalar orqali aniqlanadi, “D” va undan past toifadagi bino-inshootlar uchun energiya samaradorligini oshirish bo‘yicha ko‘rsatmalar majburiy hisoblanadi [107.] Shu qarorda energetika pasportlari va energiya auditi hisobotlarini maxsus elektron platformaga joylashtirish tartibi belgilangan, energiya samaradorlik indeksi esa haqiqiy iste’mol qiymati bilan me’yoriy iste’mol qiymati o‘rtasidagi farq asosida aniqlanadi.

Energiya auditi tizimining joriy etilishi qurilish korxonalarida loyiha oldi tahlili, smeta, texnik topshiriq va ekspluatatsiya xarajatlarini birlashtiradigan yangi boshqaruv intizomini talab qiladi. “Energiyani tejash, undan oqilona foydalanish va energiya samaradorligini oshirish to‘g‘risida”gi 2024-yil 7-avgustdagi O‘RQ-940-son qonunda energiya auditining vazifalari sifatida yoqilg‘i-energetika resurslarini tejash salohiyatini baholash, progressiv normalarga o‘tish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish, energiya tejash tadbirlarini belgilash va energetika pasportini ishlab chiqish ko‘rsatilgan [108]. Demak, qurilish korxonasining strategik rejasida energiya auditi yakunlari investitsiya rejasiga, loyiha hujjatlariga va qurilishdan keyingi servis majburiyatlariga kiritilmasa, yashil iqtisodiyot talablari faqat rasmiy muvofiqlik darajasida qoladi.

Yashil moliyalashtirish va taksonomiya masalasi ham qurilish korxonalari uchun muhim cheklovlardan biridir. Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 25-oktabrdagi 561-son qarori bilan tasdiqlangan Milliy “yashil” iqtisodiyot taksonomiyasi “yashil” obligatsiyalar, kreditlar va boshqa moliyalashtirish manbalari hisobidan amalga oshiriladigan loyihalarni tasniflash mezonlarini belgilaydi; 2024-yil 1-oktabrga qadar tajriba tariqasida yashil loyihalar ushbu taksonomiya orqali tasniflanishi va davlat moliyaviy ko‘magidan foydalangan tadbirkorlik subyektlarining investitsiyaviy xarajatlari shu asosda tasniflanishi belgilangan 109. Qurilish korxonalari uchun bu holat loyiha pasportida energiya, suv, materiallar, chiqindi, uglerod va moliyaviy samaradorlik ko‘rsatkichlarini yagona tizimda rasmiylashtirish talabini kuchaytiradi.

---

[106] O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. (2026). O‘zbekiston Respublikasida bajarilgan qurilish ishlari: 2025-yil yanvar–dekabr uchun press-reliz, 21.01.2026.

[107] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. (2024). Yoqilg‘i-energetika resurslari iste’molchilarini hamda bino va inshootlarni energiya iste’molini energiya auditidan o‘tkazish tartiblarini belgilash to‘g‘risida, 690-son, 19.10.2024.

[108] O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. (2024). Energiyani tejash, undan oqilona foydalanish va energiya samaradorligini oshirish to‘g‘risida, O‘RQ-940-son, 07.08.2024.

Jahon banki(World Bank Open Data) tomonidan ishlab chiqilgan Sun’iy Intellektga Tayyorlik Indeksi (AIPI) mamlakatlarning SI texnologiyalarini joriy etishga tayyorlik darajasini kompleks baholaydi. Indeks quyidagi asosiy yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi:

- Raqamli infratuzilma (internet qamrovi, ulanish sifati, texnologik platformalar);
- Inson kapitali va mehnat bozori (malakali kadrlar tayyorlash tizimi, STEM ta’limi);
- Innovatsion ekotizim (ilmiy-tadqiqot ishlari, patent faolligi);
- Tartibga solish va etika (SI bo‘yicha qonunchilik bazasi, ma’lumotlar himoyasi).

Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi – SIga tayyorlik darajasi (AIPI) va aholi jon boshiga GDP o‘rtasidagi bog‘liqlikni empirik tahlil qilish, shuningdek, turli daromad guruhlariga mansub mamlakatlar uchun samarali SI strategiyalarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

1. AIPI va GDP per capita o‘rtasidagi korrelyatsiya va kauzal bog‘liqlikni aniqlash;
2. Turli daromad guruhlari bo‘yicha SI ta’sirining xususiyatlarini tahlil qilish;
3. Rivojlanayotgan mamlakatlar uchun optimal SI strategiyalarini ishlab chiqish bo‘yicha tavsiyalar berish.

Tadqiqot metodologiyasi. Ko’plab tadqiqotlarda SIning iqtisodiy o‘sishga ta’siri ikki asosiy kanal orqali tahlil qilinadi[2]:

Birinchi kanal – ishlab chiqarishni kengaytirish: SI kapitalning mehnatga nisbatan o‘rnini bosish qobiliyatiga ega bo‘lib, bu esa ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish va unumdorlikni oshirish imkoniyatini beradi. Trammell va Korinek (2023) ta’kidlashicha, yetarli darajada rivojlangan SI kapitalning “o‘z-o‘zini replikatsiya qilish” (self-replication) imkoniyatini yaratadi, bu esa iqtisodiy o‘sishni tezlashtiradi, ammo mehnat daromadlari ulushini kamaytirishi mumkin.

Ikkinchi kanal – bilim ishlab chiqarishni kuchaytirish: SI yangi texnologiyalar va innovatsiyalar yaratish jarayonlarini tezlashtirish orqali bilim ishlab chiqarishni jadallashtiradi. Bu esa “o‘z-o‘zini takomillashtiruvchi” (self-improving) kapital paydo bo‘lishiga olib keladi, bu esa iqtisodiy o‘sishni yanada tezlashtiradi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, GDP per capita va SI rivojlanishi o‘rtasida ikki tomonlama bog‘liqlik mavjud[1].

1-jadval

GDP per capita va SI rivojlanishi o‘rtasida ikki tomonlama bog‘liqlik tahlili[116].

Bog‘liqlik yo‘nalishi	Mexanizm	Empirik dalil
GDP → SI	Yuqori GDPli mamlakatlar SIga ko‘proq investitsiya qilish imkoniyatiga ega	Klaster tahlili natijasida GDP per capita SI rivojlanishining eng muhim omili sifatida aniqlangan
SI → GDP	SI samarali joriy etilgan mamlakatlarda mehnat unumdorligi va ishlab chiqarish hajmi oshadi	Yuqori AIPI ko‘rsatkichiga ega mamlakatlarda GDP o‘sish sur’atlari nisbatan yuqori

Pierre Mandon va boshqalar (2009-2024) tomonidan ishlab chiqilgan **Iqtisodiy Komplekslik Indeksi** (Economic Complexity Index – ECI) ushbu bog‘liqlikni tahlil qilishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. ECI mamlakat ishlab chiqaradigan tovarlar va xizmatlarning xilma-xilligi va murakkabligi orqali uning iqtisodiyotidagi bilim intensivligini o‘lchaydi. Ushbu indeks so‘nggi yillarda texnologiya (patentlar) va ilmiy tadqiqotlar (nashrlar) sohasiga ham kengaytirilgan[3].

Mandon (2025) tomonidan olib borilgan tadqiqotda AIPI va ECI asosida mamlakatlar quyidagi toifalarga ajratilgan[1]:

Global overperformerlar (yuqori daromadli mamlakatlar):

- Avstraliya, Yaponiya, Niderlandiya, Yangi Zelandiya
- Osiyo yo‘lbarslari: Gonkong, Janubiy Koreya, Singapur
- Shimoliy Yevropa mamlakatlari: Daniya, Finlandiya, Norvegiya

Lokal overperformerlar (o‘rta daromadli mamlakatlar):

- Albaniya, Xitoy, Kosta-Rika, Indoneziya, Qozog‘iston, Malayziya, Ukraina

Rivojlanayotgan mamlakatlar orasida yetakchilar:

- Gana, Hindiston, Marokash, Ruanda, Shri-Lanka, Tunis, Vyetnam

Ushbu mamlakatlar tajribasini o‘rganish shuni ko‘rsatadiki:

- SI sohasidagi tartibga solish va etika barcha daromad guruhlari uchun asosiy omil hisoblanadi;
- Kam va o‘rta daromadli mamlakatlarda ishchi kuchini rivojlantirish va tartibga solish ustuvor ahamiyatga ega;
- Yuqori daromadli mamlakatlarda raqamli infratuzilma va innovatsion tizimlar oldingi o‘ringa chiqadi.

Tadqiqotning bosqichlari

1. **Ma’lumotlarni tozalash va tayyorlash**: GDP per capita va AIPI ko‘rsatkichlarini birlashtirish, yetishmayotgan qiymatlarni aniqlash va to‘ldirish;
2. Tavsifiy statistika: O‘zgaruvchilarning taqsimlanishini o‘rganish, korrelyatsiya matritsasini tuzish;
3. Modellar moslashtirish: Har bir model uchun parametrlarni baholash;

[116] Xorijiy olimlar tadqiqotini o’rganish asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi.

4. Diagnostik testlar: Qoldiqlar tahlili, heteroskedastiklik va multikollinearlikni tekshirish;
5. Modellarni solishtirish: MSE, AIC va boshqa mezonlar asosida eng yaxshi modelni aniqlash;
6. Natijalarni interpretatsiya qilish: Har bir daromad guruhi uchun alohida xulosalar chiqarish.

Tahlil va natijalar. Tadqiqotda Jahon bankining 166 ta mamlakat to'g'risidagi aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yalpi ichki mahsulot (GDP per capita) va Sun'iy Intellektga Tayyorlik Indeksi (Artificial Intelligence Preparedness Index – AIPI) ma'lumotlari asosida tahlil olib borildi. Tahlilda uchta model tanlab olinib ularning natijalari solishtirildi. Baholash natijalariga asosan modelni tanlash metodlari taklif qilindi. Tahlillar RStudio dasturida bajarildi.

Chiziqli model

Model: $y = -31126 + 96906x$

$R^2 = 0.7008$

t-test (parametrlar uchun):

Parametr	Baho	Standart xato	t-statistika	p-qiymat
Intercept	-31126	12500	-2.490	0.0145
Slope (x)	96906	9900	9.788	<0.001

ANOVA jadvali:

Manba	SS	df	MS	F	p
Regressiya	2.98×10^{11}	1	2.98×10^{11}	229.6	<0.001
Qoldiq	1.27×10^{11}	98	1.30×10^{9}		
Jami	4.25×10^{11}	99			

Kvadratik model

Model: $y = 23341 - 146363x + 247414x^2$

$R^2 = 0.8133$

t-test:

Parametr	Baho	Standart xato	t-statistika	p-qiymat
Intercept	23341	15800	1.477	0.1429
x	-146363	21000	-6.970	<0.001
x^2	247414	19500	12.688	<0.001

ANOVA:

Manba	SS	df	MS	F	p
Regressiya	3.46×10^{11}	2	1.73×10^{11}	211.4	<0.001
Qoldiq	7.94×10^{10}	97	8.19×10^{8}		
Jami	4.25×10^{11}	99			

Log model

Model: $\log(y) = 4.9 + 8.26x$

$R^2 = 0.7517$


t-test:

Parametr	Baho	Standart xato	t-statistika	p-qiymat
Intercept	4.900	0.250	19.60	<0.001
Slope (x)	8.260	0.780	10.59	<0.001

ANOVA:

Manba	SS	df	MS	F	p
Regressiya	5.98	1	5.98	296.6	<0.001
Qoldiq	1.98	98	0.0202		
Jami	7.96	99			

Quyidagi rasmda Determinatsiya koeffitsiyenti bo'yicha har bir model uchun kutilma natijalari chiqarildi.



1-rasm. 3 ta model grafigi.[117]

x o'qida AIPI va y o'qida aholi jon boshiga YaIM miqdori keltirilgan. Bu rasmda uchta model grafigi joylashtirilgan. Ko'k model chiziqli, yashil kvadratik va qizil log modellar hisoblanadi. Eng katta determinatsiya koeffitsiyeti kvadratik modelda $R^2 = 0.81$ ekanligini ko'rish mumkin. Kulrang nuqtalar esa kuzatilgan ma'lumotlar hisoblanadi.

Modellarni baholash va ularni eng yaxshisini tanlash uchun quyidagi solishtirma jadval ishlab chiqildi.

2-jadval.

3 ta model natijalari asosida solishtirma jadval.[118]

Model nomi $y = GDP_{per_{capita}}, x = AIPI$	Determinatsiya koeffitsiyenti	Modelni tanlash (min)	Durbin-Watson test	Shapiro-Wilk normality test
Chiziqli model $y = -31126 + 96906x$	$R^2 = 0.7008$	AIC = 3293.58	p= 0.07423	p= 0.0004297
Kvadratik model $y = 23341 - 146363x + 247414x^2$	$R^2 = 0.8133$	AIC = 3222.02	p = 0.4147	p= 3.857e-10
Log model $\mathbf{\log(y) = 4.9 + 8.26x}$	**$R^2 = 0.7517$**	**AIC = 329.97**	**p= 0.1572**	**p= 0.09661**

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, determinatsiya koeffitsiyenti bo'yicha eng yaxshi model kvadratik model bo'lib chiqdi. AIC bo'yicha va normallik testi bo'yicha faqat log modelda yaxshi chiqdi. Durbin-Watson testi bo'yicha hech qaysi modelda avtokorrelatsiya yuqligi aniqlandi. Barcha natijalarni solishtirish asosida log model eng yaxshi model sifatida taklif qilinadi.

Xulosa va takliflar. Barcha uch modelda ham R^2 qiymati 0.70 dan yuqoriligini inobatga olib, AIPI (AI Preparedness Index) mamlakatlarning iqtisodiy farovonligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shuning uchun, mamlakat iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda SI ning rolini oshirish yo'llarini izlab topishi zarur. Tahlil natijalarini inobatga olib ilmiy ishda quyidagilar taklif etiladi:

[117] Muallif tomonidan RStudio dasturida ishlab chiqildi
[118] Muallif tomonidan RStudio dasturida ishlab chiqildi.

1. Barcha hukumat organlari va tashkilotlar SIga tayyorlik indeksini strategik milliy ko‘rsatkich sifatida qabul qilishlari kerak.

2. Har yili AIPI monitoringini o‘tkazish va uni GDP o‘sish prognozlari bilan bog‘lash tavsiya etiladi.

3. Mamlakat SI infratuzilmasi, raqamli ta’lim va SI startaplarni qo‘llab-quvvatlashga qaratishi zarur.

4. SI rivojlanishi iqtisodiy o‘sishning asosiy dvigateli ekanligini e’tiborga olib, davlat byudjetida SI sohasiga ajratiladigan mablag‘lar hajmini oshirish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Pierre Mandon, Beyond the AI divide: A straightforward approach to identifying global and local overperformers in AI preparedness, Digital Business, Volume 5, Issue 2, December 2025, 100136, https://doi.org/10.1016/j.digbus.2025.100136
2. Philip Trammell, Anton Korinek, Economic growth under transformative AI, eBook, London Centre for Economic Policy Research 2024, CEPR Discussion Paper No. 18780. CEPR Press, Paris & London. https://cepr.org/publications/dp18780
3. Pierre Mandon , Reproducibility package for Beyond The AI Divide: A Simple Approach To Identifying Global And Local Overperformers In AI Preparedness, RR_WLD_2025_284, https://doi.org/10.60572/rpkc-nf68
4. Lee, H., Lee, J., & Park, M. (2024). Data-Driven Exploration of Socioeconomic Factors Fostering AI Advancement. *Journal of System Engineering*, 20, 63-78.
5. Trammell, P., & Korinek, A. (2023). Economic growth under transformative AI. *MPG.eBooks*.
6. Kim, J., & Park, S. Development of per Capita GDP Forecasting Model Using Deep Learning. *Sustainability*, 17(3), 843. 2025.
7. Gualandri, F., & Kuzior, A. AI Integration and Economic Divides: Analyzing Global AI Strategies. *System Safety: Human - Technical Facility - Environment*. 2024.
8. Koch, P., Stojkoski, V., & Hidalgo, C. A. (2024). Augmenting the availability of historical GDP per capita estimates through machine learning. *Proceedings of the National Academy of Sciences*.

BARQAROR IQTISODIY O‘SISHNI TA’MINLASHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI VA «YASHIL» RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI: IJTIMOIY SIYOSAT KONTEKSTIDA

Izzatov Dilmurad Tursunbayevich,
Kambag‘allik va mehnat bozori tadqiqotlari instituti bosh ilmiy xodimi.
sots.f.d., dotsent. A.Abduholiqov taqrizi ostida
ORCID:0009-0006-0117-352X

Annotatsiya. Maqolada barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlashda zamonaviy texnologiyalarning o‘rni, «yashil» iqtisodiyot konsepsiyasi va uning ijtimoiy siyosat bilan o‘zaro bog‘liqligi tahlil qilinadi.

Shuningdek, xalqaro iqtisodiy integratsiya sharoitida davlatlar oldiga qo‘yilayotgan talablar, jumladan GSP+ tizimi va Barqaror rivojlanish maqsadlari doirasidagi vazifalar ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: barqaror iqtisodiy o‘sish, raqamli iqtisodiyot, yashil iqtisodiyot, ijtimoiy siyosat, GSP+, SDGs.

Kirish. Hozirgi globallashuv va raqamlashuv sharoitida barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlash masalasi jahon hamjamiyati oldidagi eng dolzarb vazifalardan biriga aylanmoqda. Ayniqsa, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, atrof-muhitni muhofaza qilish va ijtimoiy farovonlikni ta’minlash o‘zaro uzviy bog‘liq jarayon sifatida namoyon bo‘lmoqda. Shu nuqtayi nazardan, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va “yashil” iqtisodiyot tamoyillarini keng tatbiq etish barqaror taraqqiyotning muhim omili hisoblanadi.

O‘zbekistonda ham mazkur yo‘nalish davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan bo‘lib, 2025-yilning “Biznesni rivojlantirish va “yashil” iqtisodiyot yili” deb e’lon qilinishi bu boradagi islohotlarni yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qilmoqda. Bu tashabbus mamlakatda energiya samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish, ekologik barqarorlikni ta’minlash va aholi turmush sifatini yaxshilashga qaratilgan keng qamrovli chora-tadbirlarni o‘z ichiga oladi.

“...bugungi tahlikali zamonda jahon iqtisodiyotida murakkab o‘zgarishlar ro‘y bermoqda, yangi texnologiyalar jadal kirib kelyapti. barqaror taraqqiyotni ta’minlash uchun bank bilan hamkorlikda yangi mexanizm va ta’sirchan yondashuvlarni joriy etishni davrning o‘zi taqozo etmoqda.[119]”

Xalqaro miqyosda ham “yashil” rivojlanish masalasiga katta e’tibor qaratilmoqda. Jumladan, BMT Taraqqiyot dasturi (UNDP) doirasida barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda “yashil” iqtisodiyotni shakllantirish ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida belgilangan. Bu esa mamlakatlar, jumladan O‘zbekiston uchun ham ekologik jihatdan barqaror va inklyuziv iqtisodiy o‘sish modellarini joriy etish zaruratini yanada kuchaytirmoqda.

[119] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Osiyo taraqqiyot bankining 59-yillik yig‘ilishida so‘zlagan nutqidan. https://api.xs.uz/media/newspapers/pdf/2026/05/05-05-26_JCjE1w8.pdf

Mazkur jarayonda nodavlat notijorat tashkilotlari (NNTlar)ning o‘rni alohida ahamiyat kasb etadi. Ular jamiyatda ekologik madaniyatni oshirish, aholini “yashil” tashabbuslarga jalb etish, jamoatchilik nazoratini kuchaytirish hamda davlat va jamiyat o‘rtasida samarali muloqotni ta’minlashda muhim ko‘prik vazifasini bajaradi. Shuningdek, NNTlar innovatsion yechimlarni ilgari surish, mahalliy tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash va ijtimoiy siyosatni amalga oshirishda faol ishtirok etib, barqaror rivojlanish jarayoniga munosib hissa qo‘shmoqda.

Shu bois, barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlashda zamonaviy texnologiyalar va “yashil” rivojlanish imkoniyatlarini ijtimoiy siyosat kontekstida o‘rganish, ayniqsa, bu jarayonda NNTlar ishtirokini tahlil qilish ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar sharhi.

Barqaror iqtisodiy o‘sish masalasi iqtisodiyot nazariyasining eng muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu masala bo‘yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda iqtisodiy o‘sishning omillari, uning uzoq muddatli barqarorligini ta’minlash mexanizmlari hamda texnologik taraqqiyotning roli alohida o‘rganilgan.

Iqtisodiy o‘sish nazariyasining klassik vakillaridan biri Robert Solow o‘zining iqtisodiy o‘sish modelida uzoq muddatli iqtisodiy rivojlanishning asosiy manbai sifatida texnologik taraqqiyotni e’tirof etadi. Olimning fikricha, kapital va mehnat resurslarining o‘sishi iqtisodiy rivojlanishni ma’lum darajagacha ta’minlasa-da, barqaror iqtisodiy o‘sishga erishishda innovatsiyalar va texnologik yangilanishlar hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Mazkur yondashuv keyinchalik zamonaviy iqtisodiy rivojlanish konsepsiyalarining nazariy asosiga aylandi.

Texnologik taraqqiyot va raqamli transformatsiyaning iqtisodiy rivojlanishga ta’siri masalalari J.Stiglitz va boshqa iqtisodchi olimlar tomonidan ham keng tadqiq etilgan. Ularning ilmiy qarashlariga ko‘ra, raqamli texnologiyalar ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, tranzaksiya xarajatlarini kamaytirish hamda iqtisodiyotning raqobatbardoshligini kuchaytirishda muhim omil hisoblanadi. Ayniqsa, sun’iy intellekt, katta ma’lumotlar (Big Data) va raqamli platformalar iqtisodiy faoliyatning yangi shakllarini vujudga keltirmoqda.

So‘nggi yillarda barqaror iqtisodiy rivojlanish masalasi ekologik omillar bilan uzviy bog‘liq holda tadqiq qilinmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) hamda BMTning Atrof-muhit dasturi (UNEP) tomonidan ishlab chiqilgan ilmiy yondashuvlarda “yashil” iqtisodiyot iqtisodiy o‘sish, ekologik barqarorlik va ijtimoiy farovonlik o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlovchi rivojlanish modeli sifatida talqin etiladi. UNEP ekspertlari fikricha, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish, energiya samaradorligini oshirish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish iqtisodiy taraqqiyotning uzoq muddatli barqarorligini ta’minlaydi.

Barqaror rivojlanish konsepsiyasining zamonaviy talqini BMT tomonidan qabul qilingan Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDGs) bilan chambarchas bog‘liqdir. Ushbu hujjatda iqtisodiy o‘sish, ijtimoiy inklyuzivlik va ekologik muvozanat o‘zaro uyg‘un holda rivojlanishi lozim bo‘lgan ustuvor yo‘nalishlar sifatida belgilangan. Xususan, munosib mehnat, innovatsiyalarni rivojlantirish, mas’uliyatli ishlab chiqarish va iqlim

o‘zgarishlariga qarshi kurash masalalari barqaror rivojlanishning asosiy tarkibiy qismlari sifatida e’tirof etilgan.

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda “yashil o‘sish” (Green Growth) konsepsiyasi iqtisodiy rivojlanishning yangi modeli sifatida asoslab berilgan. Mazkur yondashuvga ko‘ra, iqtisodiy o‘sish atrof-muhitga salbiy ta’sirni kamaytirish va resurslardan samarali foydalanish bilan uyg‘unlashgan holda amalga oshirilishi lozim.

O‘zbekistonda ham barqaror iqtisodiy rivojlanish, raqamli transformatsiya va “yashil” iqtisodiyot masalalari bo‘yicha qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Mahalliy tadqiqotchilar tomonidan ijtimoiy siyosatning iqtisodiy rivojlanishdagi o‘rni, inson kapitalini rivojlantirish, ekologik xavfsizlik va raqamli iqtisodiyotning istiqbollari o‘rganilgan. Xususan, A.A.Abduxalilov va E.X.Zaitovlarning ilmiy ishlarida ijtimoiy siyosatning aholi farovonligini ta’minlashdagi ahamiyati yoritilgan.

Shu bilan birga, mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy texnologiyalar, “yashil” iqtisodiyot va ijtimoiy siyosatning o‘zaro bog‘liqligini, ayniqsa, ushbu jarayonda nodavlat notijorat tashkilotlarining institutsional rolini kompleks tarzda tadqiq etishga bag‘ishlangan ilmiy ishlar soni nisbatan cheklangan. Mazkur tadqiqot aynan ushbu jihatni yoritishga qaratilgani bilan mavjud ilmiy izlanishlarni to‘ldiradi va ularning mantiqiy davomi sifatida namoyon bo‘ladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlashda zamonaviy texnologiyalar va “yashil” rivojlanish istiqbollari ijtimoiy siyosat kontekstida nazariy hamda konseptual jihatdan tahlil qilindi.

Tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning umumilmiy va maxsus usullaridan foydalanildi. Xususan, tahlil va sintez usullari yordamida barqaror iqtisodiy o‘sish, “yashil” iqtisodiyot, raqamli transformatsiya hamda ijtimoiy siyosat tushunchalarining mazmun-mohiyati yoritildi.

Shuningdek, qiyosiy tahlil usuli asosida Birlashgan millatlar tashkiloti (BMT), Iqitisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD), BMTning Atrof-muhit dasturi (UNEP), Jahon savdo tashkiloti (WTO) va boshqa xalqaro institutlarning barqaror rivojlanish bo‘yicha yondashuvlari hamda O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar o‘zaro taqqoslandi.

Tadqiqotda tizimli yondashuvdan foydalanilib, zamonaviy texnologiyalar, “yashil” iqtisodiyot va ijtimoiy siyosat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik yagona tizim sifatida o‘rganildi. Shuningdek, induksiya va deduksiya usullari orqali umumiy nazariy qarashlardan kelib chiqib tegishli ilmiy xulosalar shakllantirildi.

Tadqiqotning axborot manbalarini O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti nutqlari, normativ-huquqiy hujjatlar, xalqaro tashkilotlar hisobotlari, ilmiy adabiyotlar hamda barqaror rivojlanish masalalariga oid ilmiy tadqiqotlar tashkil etdi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy texnologiyalar barqaror iqtisodiy o‘sishning asosiy drayveri sifatida iqtisodiyotning barcha sohalariga chuqur va transformatsion ta’sir ko‘rsatmoqda. Robert Solowning iqtisodiy o‘sish modeliga ko‘ra, uzoq muddatli iqtisodiy o‘sishning asosiy manbai texnologik taraqqiyot hisoblanadi. Amaliy tahlillar ham ushbu nazariy yondashuvni tasdiqlab, raqamli texnologiyalar ishlab chiqarish samaradorligini oshirish,

resurslardan oqilona foydalanish va tranzaksiya xarajatlarini qisqartirish orqali iqtisodiy o‘sish sur’atlarini tezlashtirishini ko‘rsatmoqda.

Ayniqsa, sun’iy intellekt, Big Data va blokcheyn kabi innovatsion texnologiyalar iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish bilan birga yangi bozor segmentlarini shakllantirmoqda. Bu esa iqtisodiy o‘sishning nafaqat miqdoriy, balki sifat jihatdan ham yangilanish jarayoni ekanini anglatadi.

2026 yilda Samarqand shahrida bo‘lib o‘tayotgan Osiyo taraqqiyot bankining 59-yillik yig‘ilishi doirasida muhokama etilayotgan “Taraqqiyot chorrahalari: mintaqaning o‘zaro bog‘liq kelajagini ilgari surish” mavzusi ham mazkur tendensiyalarning xalqaro miqyosda dolzarb ekanini tasdiqlaydi. Forum doirasida “yashil” transformatsiya, raqamlashtirish, energetik o‘tish va investitsiyalarni jalb qilish masalalariga ustuvor ahamiyat qaratilmoqda. Bu esa “yashil” iqtisodiyotning zamonaviy global iqtisodiy rivojlanishning strategik yo‘nalishiga aylanganini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston misolida tahlillar shuni ko‘rsatadiki, “yashil” energetikani rivojlantirish yo‘nalishida sezilarli natijalarga erishilmoqda. Hozirgi kunda mamlakatda ishlab chiqarilayotgan elektr energiyasining taxminan 30 foizi qayta tiklanuvchi energiya manbalari hissasiga to‘g‘ri keladi. Bu ko‘rsatkich energetika tizimining bosqichma-bosqich transformatsiyasidan dalolat beradi va barqaror rivojlanish sari amaliy harakatlar izchil amalga oshirilayotganini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, strategik maqsad sifatida 2030 yilga qadar ushbu ulushni 54 foizga yetkazish belgilangan bo‘lib, bu ekologik barqarorlikni ta’minlash, uglerod chiqindilarini qisqartirish va energetik xavfsizlikni mustahkamlashga qaratilgan uzoq muddatli siyosatdir.

Mazkur jarayonda nodavlat notijorat tashkilotlari (NNTlar) muhim institutsional subyekt sifatida ishtirok etmoqda. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, NNTlar “yashil” energetikaga o‘tish jarayonida jamoatchilikni xabardor qilish, ekologik madaniyatni shakllantirish va aholining energiya tejamkor xulq-atvorini rivojlantirishda faol rol o‘ynamoqda. Ular tomonidan amalga oshirilayotgan axborot kampaniyalari va mahalliy loyihalar jamiyatning “yashil” islohotlarga nisbatan ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Shuningdek, NNTlar jamoatchilik monitoringi va ekologik nazorat mexanizmlarida ishtirok etib, qayta tiklanuvchi energiya loyihalarining shaffofligi va samaradorligini oshirishga hissa qo‘shmoqda. Bu esa nafaqat sohadagi institutsional ishonchni mustahkamlaydi, balki davlat, xususiy sektor va fuqarolik jamiyati o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytiradi.

“Yashil” iqtisodiyot bo‘yicha olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ekologik barqarorlik va iqtisodiy o‘sish o‘zaro zid emas, balki bir-birini to‘ldiruvchi jarayonlardir. Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini joriy etish, energiya samaradorligini oshirish va kam uglerodli iqtisodiyotga o‘tish yangi ish o‘rinlarini yaratish, investitsiyalarni jalb qilish va iqtisodiy faollikni oshirishga xizmat qiladi.

Xalqaro institutlar, jumladan GSP+, WTO meyorlari va BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDGs) davlatlarni institutsional islohotlarni chuqurlashtirishga

undamoqda. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, mazkur standartlarga moslashish tashqi savdo imkoniyatlarini kengaytirish bilan birga, ijtimoiy siyosat sifatini ham yaxshilaydi.

Ijtimoiy siyosat nuqtayi nazaridan, raqamli texnologiyalar davlat xizmatlarining samaradorligini oshirib, ta’lim, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy himoya tizimlarining qamrovini kengaytirmoqda. Bu esa aholi turmush darajasini yaxshilash va ijtimoiy tenglikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

O‘zbekistonda 2025 yilning “Biznesni rivojlantirish va yashil iqtisodiyot yili” deb e’lon qilinishi mamlakatda barqaror rivojlanish strategiyasini yangi bosqichga olib chiqdi. Quyosh va shamol energetikasi loyihalari, raqamli davlat xizmatlarining keng joriy etilishi hamda xalqaro standartlarga moslashish jarayonlari iqtisodiyotning modernizatsiyasini tezlashtirmoqda. Shu bilan birga, GSP+ tizimida ishtirok etish eksport salohiyatini oshirish va ekologik-ijtimoiy standartlarni yaxshilashga xizmat qilmoqda.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari shuni tasdiqlaydiki, zamonaviy texnologiyalar, “yashil” iqtisodiyot va ijtimoiy siyosat o‘zaro integratsiyalashgan holda barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlovchi yagona tizim sifatida shakllanmoqda. Bu jarayonda NNTlar davlat va jamiyat o‘rtasidagi muhim institutsional ko‘prik vazifasini bajarib, barqaror rivojlanishning samaradorligini oshiruvchi strategik subyekt sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Xulosa va takliflar. Tadqiqot natijalari barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlashda zamonaviy texnologiyalar, “yashil” iqtisodiyot va ijtimoiy siyosat o‘rtasida uzviy va tizimli bog‘liqlik mavjud ekanini ko‘rsatdi. Global iqtisodiy transformatsiya jarayonida texnologik taraqqiyot iqtisodiy o‘sishning asosiy drayveri sifatida namoyon bo‘lib, ishlab chiqarish jarayonlarini tubdan o‘zgartirmoqda. Raqamli texnologiyalar, sun’iy intellekt, Big Data va blokcheyn kabi innovatsion yechimlar nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshirmoqda, balki iqtisodiy tizimning sifat jihatdan yangi bosqichga o‘tishiga xizmat qilmoqda.

Ayni paytda, “yashil” iqtisodiyot konsepsiyasi iqtisodiy o‘sish bilan ekologik barqarorlik o‘rtasida muvozanatni ta’minlovchi muhim model sifatida shakllanmoqda. Tadqiqotda aniqlanishicha, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng joriy etish, energiya samaradorligini oshirish va uglerod chiqindilarini qisqartirish nafaqat ekologik barqarorlikka, balki iqtisodiy faollikning ortishiga ham xizmat qiladi. Bu esa “yashil” iqtisodiyotning uzoq muddatli rivojlanish strategiyasi sifatida muhim ahamiyat kasb etishini ko‘rsatadi.

Tahlillar shuni ham ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda “yashil” energetika va raqamli transformatsiya yo‘nalishida amalga oshirilayotgan islohotlar barqaror iqtisodiy o‘sishning real asoslarini yaratmoqda. Elektr energiyasining 30 foizini qayta tiklanuvchi manbalar hissasiga to‘g‘ri kelishi va 2030 yilgacha bu ko‘rsatkichni 54 foizga yetkazish bo‘yicha belgilangan maqsad mamlakatning strategik ekologik va energetik siyosati izchilligini namoyon etadi. Bu jarayon iqtisodiy o‘sishni faqat miqdoriy emas, balki sifat jihatdan ham takomillashtirishga qaratilgan.

Mazkur jarayonda nodavlat notijorat tashkilotlari (NNTlar) alohida ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, NNTlar “yashil” transformatsiya jarayonida faqat ijtimoiy sherik emas, balki faol institutsional ishtirokchi sifatida namoyon

bo‘lmoqda. Ular ekologik madaniyatni shakllantirish, aholini “yashil” tashabbuslarga jalb etish, jamoatchilik monitoringi va ekologik nazorat mexanizmlarini amalga oshirish orqali davlat siyosati samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Shuningdek, NNTlar mahalliy darajada innovatsion loyihalarni qo‘llab-quvvatlash orqali ekologik va ijtimoiy muammolarni hal etishda muhim vositachi sifatida ishtirok etmoqda.

Xalqaro institutlar, jumladan GSP+, WTO va BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDGs) davlatlardan institutsional islohotlarni chuqurlashtirishni talab etmoqda. Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, ushbu standartlarga moslashish nafaqat tashqi iqtisodiy integratsiyani kuchaytiradi, balki ichki ijtimoiy siyosatning sifatini ham oshiradi. Bu esa iqtisodiy o‘sishning ijtimoiy inklyuzivligini ta’minlashda muhim omil hisoblanadi.

Ijtimoiy siyosat nuqtayi nazaridan qaralganda, raqamli texnologiyalar davlat xizmatlarining samaradorligini sezilarli oshirmoqda. Ta’lim, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy himoya sohalarida raqamlashuv jarayonlari aholi uchun xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirib, ijtimoiy tenglikni ta’minlashga xizmat qilmoqda. Bu esa barqaror iqtisodiy o‘sishning ijtimoiy asoslarini mustahkamlaydi.

2026 yilda Samarqandda o‘tkazilayotgan Osiyo taraqqiyot banki yig‘ilishi doirasida muhokama qilinayotgan “yashil transformatsiya” va “raqamli iqtisodiyot” masalalari ham global iqtisodiy rivojlanishning yangi bosqichga o‘tayotganini ko‘rsatadi. Bu holat “yashil” iqtisodiyotning xalqaro iqtisodiy tizimda strategik yo‘nalishga aylanganini tasdiqlaydi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy texnologiyalar, “yashil” iqtisodiyot va ijtimoiy siyosat o‘zaro integratsiyalashgan holda barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlovchi murakkab va ko‘pqirrali tizimni shakllantirmoqda. Bu tizimda davlat siyosati, xususiy sektor va fuqarolik jamiyati institutlari o‘zaro hamkorlikda harakat qilishi barqaror rivojlanishning asosiy sharti hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ilgari suriladi:

1. “Yashil” texnologiyalarni institutsional qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish. Davlat darajasida innovatsion va ekologik texnologiyalarni joriy etishni rag‘batlantiruvchi huquqiy va moliyaviy mexanizmlarni kengaytirish zarur.

2. NNTlar rolini institutsionallashtirish. NNTlarni faqat ijtimoiy sherik emas, balki ekologik siyosatni amalga oshirishda rasmiy monitoring va baholash ishtirokchisi sifatida rivojlantirish maqsadga muvofiq.

3. “Yashil raqamli iqtisodiyot” (green digital economy) modelini yanada rivojlantirish. Raqamli transformatsiya vositalari (sun’iy intellekt, IoT, Big Data, smart boshqaruv tizimlari) hamda ekologik innovatsiyalar integratsiyasiga asoslangan “yashil raqamli iqtisodiyot” modelini rivojlantirish barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlashning istiqbolli yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

4. Ekologik ta’lim va jamoatchilik ongini oshirish. Umumiy, o‘rta maxsus va oliy ta’lim hamda ommaviy axborot vositalari orqali ekologik madaniyatni shakllantirishga qaratilgan milliy dasturlarni kengaytirish lozim.

5. Xalqaro standartlarni implementatsiya qilishni tezlashtirish. GSP+, JST (WTO) va BRM (SDGs) talablarini milliy siyosatga to‘liq integratsiya qilish orqali tashqi iqtisodiy raqobatbardoshlikni oshirish mumkin.

6. Energetika sohasida uch tomonlama hamkorlik modelini rivojlantirish. Davlat–xususiy sektor–NNT hamkorligi asosida “yashil energiya” loyihalarini amalga oshirish samaradorlikni oshiradi.

7. Hududiy “yashil innovatsiya markazlari”ni tashkil etish. Mahalliy darajada innovatsion ekotexnologiyalarni sinash va joriy etish uchun maxsus platformalar yaratish taklif etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Osiyo taraqqiyot bankining 59-yillik yig‘ilishida so‘zlagan nutqidan. https://api.xs.uz/media/newspapers/pdf/2026/05/05-05-26_JCjE1w8.pdf
2. “Social Policy”. Alcock P., May M. and Wright Sh. 2012. John Wiley &Sons Ltd.
3. Ijtimoiy siyosat. A.A.Abduxalilov, E.X.Zaitov., “Zebo print”, Toshkent 2021 y.
4. United Nations. Transforming our world: The 2030 Agenda for Sustainable Development.
5. United Nations Environment Programme. Towards a Green Economy: Pathways to Sustainable Development and Poverty Eradication.
6. World Trade Organization. World Trade Report.
7. European Commission. GSP+ Monitoring Reports.
8. Robert Solow. A Contribution to the Theory of Economic Growth, 1956.
9. Stiglitz, J.E. Globalization and Its Discontents.

OECD. Green Growth Indicators Reports.

TELEKOMMUNIKATSIYA KORXONALARIDA YASHIL INVESTITSIYALAR SAMARADORLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARI

Bo‘tayeva Sabina Xoliyorovna
Toshkent iqtisodiyot va texnologiyalar universiteti o‘qituvchisi
ORCID: 0009-0007-8947-1982


Annotatsiya. Mazkur maqolada telekommunikatsiya korxonalarida yashil investitsiyalarni joriy etish va ularning samaradorligini oshirish masalalari o‘rganilgan. Raqamli iqtisodiyot sharoitida ekologik barqarorlikni ta’minlash, energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish hamda investitsiya faoliyatini optimallashtirishning zamonaviy yondashuvlari tahlil qilingan. Tadqiqot natijasida telekom sektorida yashil investitsiyalar samaradorligini oshirish mexanizmlari ishlab chiqilgan va amaliy tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar:yashil iqtisodiyot, telekommunikatsiya, investitsiya samaradorligi, raqamli iqtisodiyot, energiya samaradorligi, ESG, CAPEX, OPEX, barqaror rivojlanish, innovatsion texnologiyalari.

Zamonaviy global iqtisodiyotning rivojlanish tendensiyalari shuni ko‘rsatmoqdaki, barqaror taraqqiyotga erishish masalasi har bir soha uchun strategik ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, iqlim o‘zgarishlari, tabiiy resurslarning cheklanganligi hamda ekologik xavflarning ortib borishi sharoitida “yashil iqtisodiyot” tamoyillariga asoslangan rivojlanish modeli dolzarb yo‘nalishlardan biriga aylandi. Ushbu model doirasida yashil investitsiyalarni joriy etish va ularning samaradorligini oshirish masalasi nafaqat ekologik barqarorlikni ta’minlash, balki iqtisodiy raqobatbardoshlikni kuchaytirishning ham muhim omili sifatida e’tirof etilmoqda. Telekommunikatsiya sohasi zamonaviy raqamli iqtisodiyotning asosiy infratuzilmasi sifatida iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarning tezlashuviga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu bilan birga, ushbu soha yirik energiya iste’molchisi ham bo‘lib, uning faoliyatida uglerod izini kamaytirish, energiya samaradorligini oshirish hamda ekologik toza texnologiyalarni joriy etish zarurati tobora ortib bormoqda. Aynan shu jihatdan telekommunikatsiya korxonalarida yashil investitsiyalarni amalga oshirish va ularning samaradorligini oshirish mexanizmlarini ishlab chiqish dolzarb ilmiy-amaliy muammo hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasida ham so‘nggi yillarda “yashil iqtisodiyot”ni rivojlantirish, energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish hamda raqamli infratuzilmani modernizatsiya qilish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu jarayonlarda telekommunikatsiya korxonalarining o‘rni alohida bo‘lib, ular nafaqat raqamli xizmatlar ko‘rsatish, balki ekologik barqarorlikka yo‘naltirilgan innovatsion yondashuvlarni ham joriy etishi lozim. Shu nuqtai nazardan, telekommunikatsiya korxonalarida yashil investitsiyalar samaradorligini oshirish mexanizmlarini ilmiy jihatdan asoslash, mavjud muammolarni tahlil qilish hamda xalqaro tajribalar asosida taklif va tavsiyalar ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega. Bu esa korxonalarning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash, resurslardan oqilona foydalanishni ta’minlash hamda ekologik xavfsizlikni oshirishga xizmat qiladi.

Yashil investitsiyalar - bu ekologik barqarorlikni ta’minlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va iqlim o‘zgarishining salbiy ta’sirini kamaytirishga qaratilgan investitsiya faoliyatidir. Ushbu investitsiyalar iqtisodiy o‘sish bilan bir qatorda atrof-muhitni muhofaza qilishni ham o‘z ichiga olgan holda, zamonaviy iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Yashil investitsiyalar asosan qayta tiklanuvchi energiya manbalari quyosh, shamol, gidroenergiya, energiya samaradorligini oshirish texnologiyalari, chiqindilarni qayta ishlash va utilizatsiya qilish tizimlari, ekologik toza transport infratuzilmalari va suv va yer resurslarini boshqarish tizimlarini qamrab oladi. Mazkur investitsiyalar iqtisodiyotda “yashil o‘sish” modelini shakllantirishga xizmat qiladi. Bu modelda ishlab chiqarish jarayonlari ekologik xavfsiz texnologiyalar asosida tashkil etiladi[120].



1-rasm. Telekommunikatsiya korxonalarining atrof-muhitga salbiy ta’sirini qisqartirish mexanizimi

Telekommunikatsiya korxonalari zamonaviy raqamli iqtisodiyotning asosiy infratuzilmasini tashkil etadi. Ushbu sektor yuqori darajada energiya iste’moli, keng tarmoqli texnologik qurilmalar va uzluksiz ishlovchi tizimlarga tayanadi. Shu sababli yashil investitsiyalarni joriy etish aloqa korxonalarida ekologik barqarorlikni ta’minlash va iqtisodiy samaradorlikni oshirishning muhim vositasi hisoblanadi[121]. Aloqa korxonalarida energiya sarfi asosiy xarajat komponentlaridan biri bo‘lib, baza stansiyalar, ma’lumotlar markazlari va uzatish tizimlari orqali amalga oshiriladi.

Aloqa infratuzilmasining, ayniqsa, chekka hududlardagi baza stansiyalarining elektr ta’minoti muammolarini hal etishda quyosh va shamol energiyasidan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Yashil investitsiyalar raqamli texnologiyalar bilan uyg‘unlashgan holda yanada samarali natija beradi.

---

[120] O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi bo‘yicha statistik to‘plam. Toshkent, 2023.

[121] International Telecommunication Union. *Measuring Digital Development: Facts and Figures*. – Geneva, 2024.

Bunda real vaqt rejimida energiya monitoringi, tarmoq yuklamasini optimallashtirish va avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari orqali resurslarni tejash samarali hisoblanadi.

Ekologik barqarorlikka yo‘naltirilgan korxonalar investorlar uchun yanada jozibador hisoblanadi. Xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlikni kengaytirish, ESG reytinglarini yaxshilash va uzoq muddatli moliyaviy barqarorlikni ta’minlaydi. Yashil investitsiyalar yangi texnologiyalarni joriy etishni rag‘batlantiradi.

Asosan “aqlli tarmoqlar” (smart networks) rivojlanadi, 5G va keyingi avlod texnologiyalarida energiya samaradorligi oshadi hamda raqamli infratuzilma ekologik jihatdan optimallashtiriladi[122].

Umuman olganda, yashil investitsiyalar aloqa korxonalarida ikki asosiy yo‘nalishda muhim o‘rin egallaydi:

1. Iqtisodiy samaradorlikni oshirish, xarajatlarni kamaytirish, daromadlilikni ko‘paytirish;
2. Ekologik barqarorlikni ta’minlash, resurslardan oqilona foydalanish, chiqindilarni kamaytirish.

Natijada, telekommunikatsiya korxonalari nafaqat texnologik jihatdan rivojlanadi, balki barqaror va ekologik xavfsiz iqtisodiyotning muhim subyektiga aylanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Yashil iqtisodiyot va investitsiyalar samaradorligi masalalari ko‘plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan keng o‘rganilgan. Xususan, Edward B. Barbier va David Pearce o‘z tadqiqotlarida yashil iqtisodiyot konsepsiyasi ekologik barqarorlik va iqtisodiy o‘sish o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlashga qaratilganligini asoslab berganlar. Shuningdek, Nikolas Stern tomonidan ishlab chiqilgan nazariyalar iqlim o‘zgarishining iqtisodiyotga ta’sirini va yashil investitsiyalarning ahamiyatini chuqur yoritadi[123].

Telekommunikatsiya sektorida energiya samaradorligini oshirish masalalari International Telecommunication Union hamda World Bank kabi xalqaro tashkilotlar tomonidan keng tadqiq etilgan. Ularning hisobotlarida telekom infratuzilmada energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish orqali xarajatlarni kamaytirish va ekologik yuklamani qisqartirish mumkinligi ko‘rsatib o‘tilgan.

Investitsiyalar samaradorligini baholashda ESG (Environmental, Social, Governance) mezonlari zamonaviy yondashuv sifatida Robert G. Eccles va George Serafeim tadqiqotlarida asoslab berilgan. Ular ESG omillarini kompaniya qiymati va uzoq muddatli moliyaviy natijalar bilan bevosita bog‘liqligini ilmiy jihatdan isbotlaganlar.Yashil iqtisodiyot va investitsiyalar samaradorligi masalalari ko‘plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan o‘rganilgan[124].

[122] O‘ztelekom”AK ning .*Yillik hisobot.* – Toshkent, 2023.

[123] OECD. *Broadband Policies for Latin America and the Caribbean*. Paris, 2024.

[124] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi. Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi (2030). Toshkent, 2020.



2-rasm.Yashil investitsiyalar

Tadqiqot metodologiyasi. Telekommunikatsiya korxonalarida yashil investitsiyalar samaradorligini oshirish mexanizmlarini ilmiy asoslashga qaratilgan bo‘lib, unda kompleks, tizimli va integratsiyalashgan yondashuvlardan foydalanilgan. Tadqiqot metodologiyasi iqtisodiy nazariya, barqaror rivojlanish konsepsiyasi hamda raqamli iqtisodiyot tamoyillariga tayangan holda shakllantirilgan.

Tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning umumiy va maxsus usullaridan keng foydalanildi. Jumladan, tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv hamda statistik guruhlash usullari orqali telekommunikatsiya korxonalarining investitsion faoliyati va yashil investitsiyalar oqimi o‘rganildi. Ushbu usullar orqali mavjud holatning ichki va tashqi omillari aniqlanib, ularning o‘zaro bog‘liqligi asoslab berildi. Shuningdek, iqtisodiy-matematik modellashtirish usullaridan foydalanilgan holda yashil investitsiyalarning samaradorligini baholash va ularning korxona moliyaviy natijalariga ta’sirini aniqlashga harakat qilindi. Bu jarayonda korxonalarning moliyaviy hisobotlari, investitsion ko‘rsatkichlari hamda ekologik samaradorlik indikatorlari asos qilib olindi.

Empirik tadqiqot qismi doirasida O‘zbekiston telekommunikatsiya sohasidagi yirik korxonalar faoliyati, xususan, investitsion jarayonlar va raqamli transformatsiya tendensiyalari o‘rganildi. Ma’lumotlar bazasi sifatida statistik hisobotlar, rasmiy axborot manbalari hamda xalqaro tashkilotlar (World Bank, ITU, OECD) ma’lumotlaridan foydalanildi. Shuningdek, qiyosiy tahlil usuli orqali rivojlangan davlatlar tajribasi o‘rganilib, yashil investitsiyalarni boshqarishning samarali mexanizmlari aniqlab olindi. Bu esa O‘zbekiston telekommunikatsiya korxonalari uchun moslashtirilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga imkon berdi.


Tadqiqotda tizimli yondashuv asosida telekommunikatsiya korxonalarida yashil investitsiyalarni boshqarish jarayoni alohida bosqichlar va elementlardan iborat yaxlit tizim sifatida ko‘rib chiqildi. Bu yondashuv investitsion qarorlar qabul qilish, resurslarni taqsimlash va ekologik samaradorlikni baholash jarayonlarini o‘zaro bog‘liq holda tahlil qilish imkonini berdi.

Umuman olganda, qo‘llanilgan metodologik yondashuvlar tadqiqot natijalarining ilmiy asoslanganligini ta’minlab, telekommunikatsiya korxonalarida yashil investitsiyalar samaradorligini oshirish bo‘yicha ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalarning amaliy ahamiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Mazkur tadqiqotda quyidagi usullardan foydalanildi:

- Tizimli tahlil – telekommunikatsiya korxonalarining investitsiya faoliyatini kompleks o‘rganish uchun
- Qiyosiy tahlil – an’anaviy va yashil investitsiyalar samaradorligini solishtirish
- Statistik tahlil – energiya iste’moli va moliyaviy ko‘rsatkichlarni baholash
- Iqtisodiy-matematik modellashtirish – investitsiya samaradorligini aniqlash
- Ekspert baholash usuli – amaliy takliflar ishlab chiqishda foydalaniladi[125].

Tahlil va natijalar. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, telekommunikatsiya korxonalarida asosiy xarajatlarning katta qismi energiya sarfi bilan bog‘liq. An’anaviy texnologiyalar bilan solishtirganda yashil texnologiyalarni joriy etish elektr energiyasi sarfi 20–30% ga kamayadi, operatsion xarajatlar (OPEX) qisqaradi, uzoq muddatda kapital xarajatlar (CAPEX) samaradorligi oshadi, va ekologik ko‘rsatkichlar yaxshilanish natijalariga olib keladi.



3-rasm. Yashil investitsiyalar samaradorligini oshirish mexanizmi[126]

Yashil investitsiyalar samaradorligini oshirish mexanizmi zamonaviy iqtisodiyotda barqaror rivojlanishni ta’minlashning muhim instrumentlaridan biri hisoblanadi. Ushbu mexanizm ekologik xavfsizlikni ta’minlash, resurslardan oqilona foydalanish hamda iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirish kabi o‘zaro bog‘liq maqsadlarni uyg‘unlashtirishga xizmat qiladi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, telekommunikatsiya korxonalarida yashil investitsiyalarni joriy etish nafaqat ekologik, balki iqtisodiy jihatdan ham samarali hisoblanadi. Raqamli texnologiyalar bilan integratsiyalashgan holda ushbu

[125] Green Economy bo‘yicha ilmiy maqolalar // ScienceDirect, Springer, Scopus bazalari, 2020–2024.

[126] Ma’lumotlar asosida muallif tomonidan ishlanmasi

investitsiyalar korxonalarning raqobatbardoshligini oshiradi va barqaror rivojlanishni ta’minlaydi. Yashil investitsiyalarni samarali boshqarish orqali nafaqat ekologik muammolarni kamaytirish, balki iqtisodiy samaradorlikni oshirish, resurslardan foydalanish darajasini yaxshilash va korxonalar raqobatbardoshligini kuchaytirish mumkin. Ayniqsa, telekommunikatsiya va axborot texnologiyalari infratuzilmasining rivojlanishi ushbu jarayonni jadallashtiruvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Takliflar. Quyidagi amaliy takliflar ishlab chiqildi:

1. Telekom korxonalarda yashil investitsiyalar strategiyasini ishlab chiqish
2. Energiya samarador texnologiyalarni keng joriy etish
3. ESG standartlarini majburiy mezon sifatida qo‘llash
4. Davlat tomonidan soliq imtiyozlari va subsidiyalar berish
5. Sun’iy intellekt asosida energiya boshqaruv tizimlarini joriy etish
6. Xalqaro tajribani milliy sharoitga moslashtirish

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi bo‘yicha statistik to‘plam. Toshkent, 2023.
2. O‘ztelekom”AK ning .Yillik hisobot. – Toshkent, 2023.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi. Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi (2030). Toshkent, 2020.
4. Green Economy bo‘yicha ilmiy maqolalar // ScienceDirect, Springer, Scopus bazalari, 2020–2024.
5. Sustainable Development bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar // xalqaro ilmiy jurnallar, 2019–2024.
6. Yevropa Ittifoqi. Digital Decade Policy Programme *2030*. – Brussels, 2026.
7. European Commission. Shaping Europe’s Digital Future. – Brussels, 2024.
8. International Telecommunication Union. Measuring Digital Development*:* Facts and Figures. – Geneva, 2024.
9. World Bank.World Development Report:Digital Dividends.Washington DC, 2025.
10. OECD. Broadband Policies for Latin America and the Caribbean. Paris, 2024.

ИССКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ В ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКЕ УЗБЕКИСТАНА

Карабаев Рустам Зафарович,
ТУИТ, магистрант 1-курса
ORCID: 0009-0008-7487-2385

Аннотация. В данной статье системно проанализирована роль технологий искусственного интеллекта (далее - ИИ) в цифровой экономике и их применение в Узбекистане. Исследовано влияние ИИ на экономическую эффективность, состояние внедрения в национальную экономику и перспективы развития. Научно обоснованы стратегии развития искусственного интеллекта в республике.

Ключевые слова: искусственный интеллект, цифровая экономика, машинное обучение, Цифровой Узбекистан-2030, экономическая трансформация.

Введение. В условиях стремительного развития цифровых технологий искусственный интеллект становится одним из ключевых факторов развития цифровой экономики. Его внедрение способствует автоматизации бизнес-процессов, повышению эффективности управления, обработке больших объемов данных и принятию более обоснованных решений. В мировой практике технологии ИИ активно применяются в промышленности, финансовом секторе, государственном управлении, образовании и здравоохранении, обеспечивая рост производительности и инновационного потенциала экономики.

Для Республики Узбекистан развитие искусственного интеллекта является важным направлением цифровой трансформации и модернизации экономики. В стране реализуются масштабные программы цифровизации, направленные на внедрение современных информационных технологий, развитие электронного правительства и повышение качества государственных услуг. Использование технологий ИИ открывает новые возможности для повышения конкурентоспособности национальной экономики, развития инноваций и эффективного использования ресурсов. В связи с этим исследование перспектив и особенностей внедрения искусственного интеллекта в цифровую экономику Узбекистана является актуальной научной и практической задачей.

Цель исследования - проанализировать роль искусственного интеллекта в развитии цифровой экономики Узбекистана, определить основные направления его применения, а также выявить существующие проблемы и перспективы дальнейшего развития.

Литературный обзор по тематике исследования. Теоретические основы искусственного интеллекта и его влияния на экономику отражены в трудах зарубежных и отечественных исследователей. В работах К. Шваба [1] искусственный интеллект рассматривается как один из ключевых элементов Четвёртой промышленной революции, трансформирующий рынки труда и бизнес-процессы. Д. Тапскотт и М. Кастельс [2] подчёркивают роль цифровых

технологий и данных в формировании сетевой экономики, где ИИ выступает инструментом анализа и управления большими массивами информации. Отчёты Всемирного банка и ОЭСР акцентируют внимание на экономическом эффекте внедрения ИИ, включая рост производительности и улучшение качества государственных услуг. В научных публикациях узбекских исследователей особое внимание уделяется вопросам цифровизации экономики, развитию электронного правительства и формированию нормативно-правовой базы для внедрения технологий ИИ в национальную экономику.

Методология исследования. В рамках данного исследования использовался комплексный подход, включающий методы анализа и синтеза, сравнительный анализ, а также элементы системного и структурно-функционального анализа. Для оценки роли искусственного интеллекта в цифровой экономике Узбекистана применялись качественные методы исследования, основанные на анализе стратегических документов, государственных программ и официальных отчётов профильных ведомств. **Результат исследования.** В ходе исследования было установлено, что искусственный интеллект в цифровой экономике Узбекистана находится на стадии активного внедрения, при этом наибольшая концентрация ИИ-решений наблюдается в финансовом секторе, государственном управлении и телекоммуникациях. Анализ официальных отчетов Министерства цифровых технологий Республики Узбекистан, материалов IT Park Uzbekistan, а также аналитических обзоров Всемирного банка и ОЭСР позволяет выделить ключевые направления и результаты применения ИИ.

Таблица 1

Основные сферы применения искусственного интеллекта в Узбекистане[127]

Сфера деятельности	Применяемые ИИ решения	Экономический эффект
Банковско-финансовый сектор	Кредитный скоринг, антифрод-системы, чат-боты	Снижение рисков, ускорение операций
Государственные услуги	Обработка обращений граждан, аналитика данных	Повышение качества и доступность услуг
Телекоммуникации	Оптимизация сетей, прогноз нагрузки	Снижение издержек, рост надежности
Промышленность	Предиктивная аналитика, автоматизация	Рост произовдительности
Образование	Адаптивное обучение, анализ успеваемости	Повышение качества образования

На основе обобщения данных был рассчитан условный уровень распространения ИИ по секторам экономики. Результаты показывают, что

[127] Составлен автором в процессе исследования

наибольший уровень внедрения ИИ характерен для банковского сектора (около 70%) и сферы государственных услуг (около 65%), тогда как промышленность и образование пока демонстрируют более низкие показатели. Данная тенденция объясняется более высокой цифровой зрелостью финансовых и государственных информационных систем.

Таблица 2

Ключевые эффекты внедрения искусственного интеллекта [128]

Показатель	Результат
Производительность труда	Рост на 10–15% в цифровых секторах
Транзакционные издержки	Сокращение до 20%
Качество управленческих решений	Повышение за счет аналитики данных
Доступность услуг	Расширение онлайн-сервисов




Рис.1 График адаптации искусственного интеллекта по секторам в Узбекистане[129]

Графический анализ наглядно демонстрирует неравномерность внедрения ИИ по отраслям экономики, что указывает на необходимость стимулирования

[128] Составлен автором в процессе исследования с помощью официального сайта Государственного комитета статистики – stat.uz

[129] Построен автором на основе обобщённых данных Всемирного банка, OECD и национальной статистики

использования искусственного интеллекта в реальном секторе и региональных проектах.

В целом результаты исследования подтверждают, что искусственный интеллект оказывает положительное влияние на развитие цифровой экономики Узбекистана, однако для раскрытия его полного потенциала требуется дальнейшее развитие вычислительной инфраструктуры, подготовка высококвалифицированных кадров и совершенствование нормативно-правовой базы. Также стоит отметить в результате исследования и сбора необходимых данные были сформулированы следующие предложения:

- Наибольший уровень внедрения ИИ зафиксирован в банковско-финансовом секторе, где используются системы кредитного скоринга, антифрод-алгоритмы и интеллектуальные чат-боты; [6]

- В сфере государственного управления ИИ применяется для обработки обращений граждан, анализа больших массивов данных и повышения эффективности электронных государственных услуг; [4]

- В промышленности внедрение ИИ носит ограниченный характер и в основном связано с элементами предиктивной аналитики и автоматизации производственных процессов;

- Внедрение технологий искусственного интеллекта способствует росту производительности труда в цифрово зрелых секторах экономики в среднем на 10–15%; [7]

- Использование ИИ позволяет сократить транзакционные и операционные издержки организаций до 20% за счёт автоматизации бизнес-процессов; [7]

- Ключевыми ограничениями развития искусственного интеллекта в Узбекистане остаются дефицит высококвалифицированных специалистов, ограниченные вычислительные мощности и необходимость совершенствования законодательства в сфере защиты данных. [4]

Вывод. Проведённое исследование показало, что искусственный интеллект является одним из ключевых факторов развития цифровой экономики Республики Узбекистан и оказывает комплексное влияние на трансформацию социально-экономических процессов. Анализ теоретических источников и практики внедрения ИИ подтвердил, что данные технологии способствуют повышению эффективности использования ресурсов, росту производительности труда и улучшению качества управленческих решений как в государственном, так и в частном секторах экономики.

Результаты исследования свидетельствуют о том, что в Узбекистане сформированы базовые институциональные и организационные условия для развития искусственного интеллекта, включая наличие стратегических документов, государственную поддержку цифровизации и развитие инновационной инфраструктуры. Наиболее высокий уровень внедрения ИИ наблюдается в банковско-финансовом секторе, сфере электронного правительства и телекоммуникациях, что обусловлено более высокой степенью цифровой зрелости данных отраслей и наличием необходимых информационных ресурсов. Вместе с тем реальный сектор экономики и региональные проекты

демонстрируют более низкие темпы внедрения технологий искусственного интеллекта, что указывает на наличие структурных и технологических ограничений.

Исследование также выявило, что внедрение искусственного интеллекта обеспечивает значимый экономический эффект, выражающийся в снижении транзакционных и операционных издержек, ускорении бизнес-процессов и повышении доступности услуг для населения. В то же время сохраняются существенные проблемы, связанные с дефицитом высококвалифицированных кадров, ограниченностью вычислительных мощностей, а также необходимостью дальнейшего совершенствования нормативно-правовой базы в сфере защиты персональных данных и кибербезопасности.

Список использованной литературы

1. Шваб К. Четвертая промышленная революция. М.: Эксмо, 2018. 272 с.
2. Тапскотт Д. Цифровая экономика. Обещание цифровой эры для правительств, бизнеса и граждан. М.: Добрая книга, 2011. 368 с.
3. Официальный веб-сайт Государственного комитета статистики Республики Узбекистан. https://stat.uz
4. Официальный веб-сайт Министерства Цифровых технологий Республики Узбекистан. https://digital.uz
5. Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан “Об утверждении Концепции развития искусственного интеллекта на 2026-2030 годы” от 2026 года.
6. Официальный веб-сайт Центрального банка Республики Узбекистан. https://Cbu.uz
7. OECD, 2020 and World Bank, 2016
8. Ambartsumyan A. Внедрение искусственного интеллекта в банковский сектор Узбекистана // Вестник СПбГЭУ. 2025. № 5. С. 45-62

RAQAMLI IQTISODIYOT: NAZARIY ASOSLARI VA O‘ZBEKISTONDA RIVOJLANISH YO‘NALISHLARI

Karabayev Rustam Zafarovich,
TATU, 1-kurs magistranti
ORCID: 0009-0008-7487-2385

Annotatsiya. Mazkur maqolada raqamli iqtisodiyot bo‘yicha nazariy va empirik tadqiqotlar natijalari tizimli tahlil qilingan. Raqamli iqtisodiyotning afzalliklari, kamchiliklari, O‘zbekistonda uni joriy etish xususiyatlari va istiqbolli yo‘nalishlari tadqiq etilgan. Respublikamizda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning strategik yo‘nalishlari ilmiy asoslangan.

Kalit so‘zlar: raqamli iqtisodiyot, raqamli texnologiyalar, Raqamli O‘zbekiston-2030, iqtisodiy transformatsiya, strategik rivojlanish.

Kirish. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi sharoitida raqamli iqtisodiyot iqtisodiy o‘sishning muhim omillaridan biriga aylanmoqda. Raqamli texnologiyalarni iqtisodiyotning turli tarmoqlariga joriy etish ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, biznes jarayonlarini optimallashtirish, xizmatlar sifatini yaxshilash hamda yangi iqtisodiy imkoniyatlarni yaratishga xizmat qiladi. Bugungi kunda dunyoning ko‘plab mamlakatlari raqamli transformatsiyani milliy taraqqiyotning ustuvor yo‘nalishi sifatida belgilab, raqamli infratuzilmani rivojlantirish va innovatsion texnologiyalarni keng qo‘llashga alohida e’tibor qaratmoqda.

O‘zbekistonda ham raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. So‘nggi yillarda mamlakatda raqamlashtirish jarayonlarini jadallashtirish, elektron davlat xizmatlarini kengaytirish, elektron tijoratni rivojlantirish va iqtisodiyotning turli sohalarida zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu jarayonlar milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, investitsiyalarni jalb qilish va aholining turmush sifatini yaxshilashga xizmat qilmoqda. Shu bois raqamli iqtisodiyotning nazariy asoslari hamda O‘zbekistonda uning rivojlanish yo‘nalishlarini o‘rganish dolzarb ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Tadqiqot maqsadi – raqamli iqtisodiyotning nazariy asoslarini tahlil qilish, O‘zbekistonda uning rivojlanish holati va istiqbolli yo‘nalishlarini baholash hamda raqamli transformatsiya jarayonlarini takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Raqamli iqtisodiyot - bu raqamli texnologiyalar, internet va onlayn platformalar yordamida amalga oshiriladigan iqtisodiy faoliyatdir. Jahon Banki ta’rifiga ko‘ra, raqamli iqtisodiyot real vaqt rejimida ma’lumotlar almashinuviga asoslangan ijtimoiy-iqtisodiy aloqalar yig‘indisidir. [2]

S. Olimlarning turli qarashlariga ko‘ra, Kling R. va Lamb R. raqamli iqtisodiyotni internet va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining konvergensiyasi, shuningdek, elektron tijoratni rivojlantirish deb hisoblaydilar. AQSh Savdo vazirligi hisobotida esa raqamli mahsulotlar va xizmatlarga – dasturiy

ta’minot, onlayn ta’limni raqamli yetkazib berishga e’tibor qaratilgan. O‘zbek olimlari Begalov B.A. va Abdullayev M.K. raqamli iqtisodiyotni raqamli huquqdan raqamli pulgacha bo‘lgan keng tushunchalar to‘plami sifatida ta’riflaydilar. Vikipediya ma’lumotlariga ko‘ra, raqamli iqtisodiyot ishlab chiqarish samaradorligini oshiruvchi texnologiyalar integratsiyasidir. Jahon Banki esa uni yangi biznes modellarini yaratuvchi platformalar deb baholaydi. Ushbu turli nuqtayi nazarlar raqamli iqtisodiyotning keng ko‘lamli transformatsiyani anglatishini ko‘rsatadi. [3]

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda ilmiy adabiyotlar tahliliy metodlar qo’llanildi. Xorijiy, mahalliy manbalar hamda tadqiqot jarayonida muallif tomonidan ishlab chiqilqan matn asosida SWOT-PESTLE tahlillari o‘tkazildi.

Tahlil va natijalar. Raqamli iqtisodiyotning asosiy texnologiyalari quyidagilar: katta ma’lumotlar (Big Data), sun’iy intellekt (AI), blokcheyn, bulutli hisoblash va Buyuklar Interneti (IoT). Bu texnologiyalar biznes jarayonlarini avtomatlashtirish va mijozlarga xizmat ko‘rsatishni yaxshilaydi.

O‘zbekistonda dasturiy mahsulotlar industriyasi hajmi 5 baravar, eksporti esa 10 baravar oshirilishi rejalashtirilgan bo‘lib, 500 million AQSh dollariga yetkaziladi. Quyidagi sxema raqamli iqtisodiyotning asosiy komponentlarini ko‘rsatadi. Raqamli transformatsiya iqtisodiyotning real sektorlarida 70% gacha yetadi. UNDP hisobotiga ko‘ra, O‘zbekiston raqamli transformatsiyada muvaffaqiyatlarga erishgan bo‘lsa-da, infratuzilma muammolari saqlanib qolmoqda. [1]

O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyot “Raqamli O‘zbekiston-2030” strategiyasi asosida rivojlanmoqda. 2022-2026 yillarda raqamli iqtisodiyot hajmi 2,5 baravar oshiriladi, infratuzilma barcha aholi punktlarini qamrab oladi. [4]

1-jadval

Raqamli iqtisodiyot qo’llanishi ustunliklari va zaif tomonlari[130]

№	Ustunliklar	Zaif tomonlar
1	Ishlab chiqarish samaradorligi oshishi Jarayonlarni avtomatlashtirish orqali xodimlar vaqtini tejash, xizmat sifatini yaxshilash	Raqamli infratuzilma yetishmasligi Chegaralar va qishloq hududlarida internet ulanishi sifati pastligi
2	Xarajatlar sezilarli qisqarishi Qog’oz hujjatlardan voz kechish, ombor xarajatlari kamayishi	Kiberxavf-xatarlar kuchayishi Hujumlar, ma’lumotlar o’g’irlanishi xavfi ortishi
3	Jahon bozorlariga chiqish imkoniyati Elektron tijorat platformalari orqali eksport o’sishi	Malaka va bilim yetishmasligi Xodimlarning yangi texnologiyalarni o'rganishga tayyor emasligi
4	Innovatsiyalar rivoji tezlashishi Startaplar va yangi biznes modellar paydo bo’lishi	Ijtimoiy tengsizlik kuchayishi Raqamli savodxonlik darajasining pastligi tufayli bo’linish
5	Mijozlarga xizmat sifati yaxshilanishi 24/7 onlayn xizmatlar, shaxsiylashtirilgan takliflar	Ish o’rinlari qisqarishi xavfi Avtomatlashtirish tufayli oddiy ishchilar ishidan bo'shashi

[130] Tadqiqot natijalari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.

Raqamli iqtisodiyot zamonaviy jamiyat taraqqiyotining eng muhim va strategik yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida iqtisodiy munosabatlar mazmunan o‘zgarib, ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste’mol jarayonlarida raqamli texnologiyalar yetakchi o‘ringa chiqmoqda. Raqamli iqtisodiyot deganda iqtisodiy faoliyatning barcha sohalarida ma’lumotlar, raqamli platformalar, internet tarmoqlari, sun’iy intellekt, katta hajmdagi ma’lumotlar (Big Data), bulutli texnologiyalar va avtomatlashtirilgan axborot tizimlariga tayangan holda amalga oshiriladigan iqtisodiy tizim tushuniladi. Ushbu model an’anaviy iqtisodiyotdan farqli ravishda tezkorlik, shaffoflik, moslashuvchanlik va innovatsionlik bilan ajralib turadi hamda tranzaksiya xarajatlarini kamaytirish, resurslardan samarali foydalanish va yangi biznes modellarini yaratish imkonini beradi.

Nazariy jihatdan raqamli iqtisodiyot bilimlar iqtisodiyoti va innovatsion iqtisodiyotning mantiqiy davomi bo‘lib, unda asosiy ishlab chiqarish omili sifatida axborot va ma’lumotlar maydonga chiqadi. Raqamli infratuzilma, raqamli platformalar, raqamli ko‘nikmalarga ega inson kapitali va raqamli davlat boshqaruvi ushbu iqtisodiy modelning asosiy tayanch elementlari hisoblanadi. Shu bois, bugungi kunda rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar raqamli transformatsiyani milliy rivojlanish strategiyalarining markaziga qo‘ymoqda. Raqamli iqtisodiyot nafaqat iqtisodiy o‘sishni tezlashtiradi, balki davlat boshqaruvi samaradorligini oshiradi, korrupsiya darajasini pasaytiradi va aholiga ko‘rsatiladigan xizmatlar sifatini yaxshilaydi. [5]

O‘zbekiston ham global raqamlashtirish jarayonlaridan chetda qolmagan holda, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishni ustuvor yo‘nalish sifatida belgilab kelmoqda. So‘nggi yillarda “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi qabul qilinib, elektron hukumat tizimlari kengaytirildi, davlat xizmatlarining katta qismi onlayn shaklga o‘tkazildi, IT Parklar tashkil etildi va startap ekotizimi rivojlana boshladi. Bank-moliya sohasida fintech yechimlar, elektron to‘lov tizimlari va masofaviy bank xizmatlari joriy etilib, real sektor tarmoqlarida ham avtomatlashtirish va raqamlashtirish jarayonlari jadallashmoqda. [6] Shu bilan birga, hududlar kesimida raqamli infratuzilmaning notekis rivojlanganligi, malakali IT mutaxassislar yetishmasligi va kiberxavfsizlik masalalari raqamli iqtisodiyot rivojiga to‘sqinlik qilayotgan muhim omillar bo‘lib qolmoqda.

O‘zbekiston iqtisodiyotining raqamli transformatsiyasi so‘nggi yillarda davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Mamlakatda elektron hukumat tizimlari, raqamli davlat xizmatlari, elektron tijorat, fintech va IT-ekotizimni rivojlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu jarayonlarning samaradorligini baholash uchun SWOT tahlil usulidan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Kuchli tomonlar (Strengths). O‘zbekiston raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish uchun bir qator muhim ustunliklarga ega. Avvalo, davlat tomonidan raqamlashtirish jarayonlariga katta e’tibor qaratilayotgani va ushbu yo‘nalishda uzoq muddatli strategiyalar ishlab chiqilgani muhim omil hisoblanadi. «Raqamli O‘zbekiston – 2030»

strategiyasi, elektron hukumat platformalarining rivojlanishi va IT Park faoliyatining kengayishi mamlakatning raqamli rivojlanishiga mustahkam asos yaratmoqda.

Ikkinchidan, aholining katta qismini yoshlar tashkil etishi raqamli texnologiyalarni joriy etishda muhim demografik ustunlik hisoblanadi. Yosh avlod yangi texnologiyalarni tez o‘zlashtiradi va innovatsion faoliyatda faol ishtirok etadi.

Uchinchidan, telekommunikatsiya infratuzilmasining bosqichma-bosqich modernizatsiya qilinishi, mobil internet qamrovining kengayishi va davlat xizmatlarining elektron shaklga o‘tkazilishi raqamli iqtisodiyot rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Shuningdek, IT Park rezidentlari uchun yaratilgan soliq va bojxona imtiyozlari mahalliy hamda xorijiy investorlarni jalb qilish imkonini bermoqda.

Zaif tomonlar (Weaknesses). Shu bilan birga, raqamli iqtisodiyot rivojlanishini cheklovchi bir qator muammolar ham mavjud. Eng asosiy muammolardan biri hududlar o‘rtasidagi raqamli tafovut hisoblanadi. Yirik shaharlarda internet sifati va raqamli xizmatlar darajasi nisbatan yuqori bo‘lsa, ayrim chekka hududlarda infratuzilma yetarlicha rivojlanmagan.

Ikkinchi muammo - yuqori malakali IT mutaxassislari, ma’lumotlar tahlilchilari, sun’iy intellekt muhandislari va kiberxavfsizlik bo‘yicha ekspertlar sonining yetarli emasligidir. Raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi kadrlar tayyorlash tizimiga qo‘shimcha talablarni yuzaga keltirmoqda.

Bundan tashqari, ko‘plab korxonalarda biznes jarayonlarining hali ham an’anaviy usullar asosida yuritilishi, ma’lumotlarni boshqarish tizimlarining yetarli darajada integratsiyalashmaganligi va axborot xavfsizligi madaniyatining pastligi raqamlashtirish samaradorligini kamaytirmoqda.

Imkoniyatlar (Opportunities). Global iqtisodiyotning raqamlashtirilishi O‘zbekiston uchun yangi imkoniyatlarni yaratmoqda. Xususan, IT xizmatlar eksportini oshirish, xalqaro autsorsing loyihalarida ishtirok etish va mintaqaviy texnologik markazga aylanish istiqbollari mavjud.

Sun’iy intellekt, Big Data, blockchain, bulutli texnologiyalar va narsalar interneti (IoT) kabi innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali iqtisodiyotning samaradorligini sezilarli darajada oshirish mumkin. Ayniqsa, bank-moliya sektori, energetika, qishloq xo‘jaligi, transport va sog‘liqni saqlash sohalarida katta transformatsion imkoniyatlar mavjud.

Bundan tashqari, elektron tijorat bozori hajmining ortishi, masofaviy ta’lim va raqamli xizmatlarga bo‘lgan talabning oshishi yangi biznes modellarining shakllanishiga yordam beradi.

Tahdidlar (Threats). Raqamli iqtisodiyot rivojlanishi bilan bir qatorda yangi xavf va tahdidlar ham paydo bo‘lmoqda. Eng muhim tahdidlardan biri kiberxavfsizlik bilan bog‘liq. Kiberhujumlar, ma’lumotlar sizib chiqishi va moliyaviy firibgarlik holatlarining ko‘payishi iqtisodiy xavfsizlikka salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Shuningdek, xorijiy texnologiyalar va dasturiy ta’minotlarga yuqori darajadagi bog‘liqlik texnologik suverenitet uchun xavf tug‘diradi. Global IT kompaniyalari bilan raqobatning kuchayishi mahalliy kompaniyalarning bozorga kirishini murakkablashtirishi mumkin.

Raqamli tafovutning ortishi, ayrim ijtimoiy qatlamlarning raqamli xizmatlardan foydalana olmasligi ham ijtimoiy tengsizlikning kuchayishiga olib kelishi ehtimoldan xoli emas.

PESTEL tahlil raqamli iqtisodiyot rivojlanishiga ta’sir qiluvchi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, texnologik, ekologik va huquqiy omillarni kompleks baholash imkonini beradi.

Political (Siyosiy omillar). O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Hukumat tomonidan qabul qilingan strategik dasturlar, elektron hukumat tizimlarining rivojlantirilishi va IT sohasi uchun yaratilayotgan imtiyozlar raqamli transformatsiyani jadallashtirmoqda.

Xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikning kengayishi va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish bo‘yicha olib borilayotgan siyosat ham raqamli infratuzilmani rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Economic (Iqtisodiy omillar). Raqamli iqtisodiyot ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish, mehnat unumdorligini oshirish va yangi biznes modellarini shakllantirish imkonini beradi. Elektron tijorat, fintech xizmatlari va raqamli to‘lov tizimlari iqtisodiy faollikni kuchaytirmoqda.

Biroq zamonaviy texnologiyalarni joriy etish katta moliyaviy investitsiyalar talab qiladi. Kichik biznes subyektlari uchun raqamlashtirish xarajatlari ayrim hollarda muhim to‘siq bo‘lib qolmoqda.

Social (Ijtimoiy omillar). Aholining yosh tarkibi va internetdan foydalanuvchilar sonining ortib borishi raqamli iqtisodiyot rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratmoqda. Raqamli savodxonlikning oshishi davlat xizmatlari va tijorat xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirmoqda.

Biroq aholining barcha qatlamlari bir xil darajada raqamli ko‘nikmalarga ega emas. Ayniqsa, katta yoshdagi aholi va chekka hududlarda yashovchi fuqarolar orasida raqamli xizmatlardan foydalanish darajasi pastroq bo‘lishi mumkin.

Technological (Texnologik omillar). 5G texnologiyalari, sun’iy intellekt, Big Data, bulutli hisoblash va IoT texnologiyalarining rivojlanishi raqamli iqtisodiyotning asosiy drayverlari hisoblanadi. O‘zbekistonda data-markazlar, telekommunikatsiya tarmoqlari va dasturiy mahsulotlar ishlab chiqish sohasiga investitsiyalar hajmi ortib bormoqda.

Shunga qaramay, ayrim hududlarda internet sifati, server infratuzilmasi va texnologik platformalarning yetarli darajada rivojlanmaganligi saqlanib qolmoqda.

Environmental (Ekologik omillar). Raqamlashtirish qog‘oz hujjatlar hajmini kamaytirish, logistika xarajatlarini optimallashtirish va resurslardan samarali foydalanishga yordam beradi. Elektron hujjat aylanishi va masofaviy xizmatlar ekologik yuklamani kamaytiradi.

Biroq elektron qurilmalar sonining ortishi elektron chiqindilar hajmining ko‘payishiga olib keladi. Ma’lumotlarni qayta ishlash markazlari esa sezilarli energiya resurslarini talab qiladi.

Legal (Huquqiy omillar). Raqamli iqtisodiyotning samarali rivojlanishi uchun zamonaviy normativ-huquqiy baza zarur. Shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish,

elektron tijorat, elektron imzo, kiberxavfsizlik va sun’iy intellektni tartibga solish bo‘yicha qonunchilikni takomillashtirish muhim ahamiyatga ega.

Kelgusida sun’iy intellektdan foydalanish etikasi, ma’lumotlar almashinuvi va raqamli platformalar faoliyatini tartibga soluvchi huquqiy mexanizmlarni yanada rivojlantirish talab etiladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, raqamli iqtisodiyot zamonaviy iqtisodiy rivojlanishning ajralmas va strategik muhim yo‘nalishi hisoblanadi. U axborot va raqamli texnologiyalarni asosiy resurs sifatida qo‘llash orqali iqtisodiy jarayonlarning samaradorligini oshiradi, tranzaksiya xarajatlarini kamaytiradi hamda yangi innovatsion biznes modellarni shakllantirishga xizmat qiladi. O‘zbekiston sharoitida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi bu borada muhim institutsional asos vazifasini bajarmoqda.

Umuman olganda, raqamli iqtisodiyotni izchil rivojlantirish O‘zbekistonning raqobatbardoshligini oshirish, iqtisodiy xavfsizligini mustahkamlash va barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu jarayonda raqamli infratuzilmani rivojlantirish, kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va axborot xavfsizligini ta’minlash ustuvor vazifalar bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022 – 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” PF-60-son Farmoni.
2. Wikipedia raqamli kutubxonsidan “Raqamli iqtisodiyot” tushunchasi. https://uz.wikipedia.org/wiki/Raqamli_iqtisodiyot
3. Begalov B.A., Abdullayev M.K. Raqamli iqtisodiyot. 45–62.
4. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” Strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlar tadbirlari to‘g’risida (PF-6079-son) O’zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni.
5. O’zbekiston Respbulikasi Raqamli texnologiyalar vazirligining rasmiy
6. IT Park Uzbekistan rasmiy veb-sayti. https://itpark-uz
7. Tapscott D. The Digital Economy: Promise and Peril in the Age of Networked Intelligence. — New York: McGraw-Hill, 1996.
8. OECD. Digital Economy Outlook. — Paris: OECD Publishing, 2020.
9. Castells M. The Rise of the Network Society. — Oxford: Blackwell Publishers, 2010.

РАҚАМЛИ ВА “ЯШИЛ” РИВОЖЛАНИШ ШАРОИТИДА ХИЗМАТЛАР СОҲАСИНИ БОШҚАРИШ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ (АНДИЖОН ВИЛОЯТИ МИСОЛИДА)

Октамжонова Гулираъно Икромжон қизи,
Банк-молия академияси магистранти
ORCID: 0009-0007-4826-6632

Аннотация. Мақолада рақамли ва “яшил” ривожланиш шароитида хизматлар соҳасини бошқариш самарадорлиги таҳлил қилинган. Мавзу долзарблиги соҳанинг иқтисодиётдаги аҳамияти билан изоҳланади. Андижон вилояти мисолида таҳлилий усуллар орқали баҳолаш амалга оширилди. Натижада рақамли ва экологик ёндашувларни кучайтириш зарурлиги асосланди. Илмий янгилик сифатида амалий таклифлар ишлаб чиқилди.

Калит сўзлар: рақамли иқтисодиёт, “яшил” ривожланиш, хизматлар соҳаси, бошқарув самарадорлиги, барқарор иқтисодий ўсиш, рақамлаштириш, экологик инновациялар, Андижон вилояти.

Кириш. Ҳозирги глобал иқтисодий муҳитда рақамли трансформация ва “яшил” ривожланиш стратегик устувор йўналишга айланмоқда. Рақамли технологиялар хизматлар соҳасида самарадорлик ва сифатни ошириб, ресурслардан самарали фойдаланишни таъминлайди. Шу билан бирга, экологик муаммолар барқарор ва “яшил” ривожланиш тамойилларини жорий этишни тақозо этмоқда.

Ўзбекистонда мазкур йўналишда тизимли ислоҳотлар амалга оширилмоқда. Хусусан, “Рақамли Ўзбекистон – 2030” стратегияси иқтисодиётни рақамлаштириш, давлат хизматларини электронлаштириш ва АКТни кенг жорий этишни устувор вазифа сифатида белгилайди. Бу эса давлат бошқарувида шаффофлик ва тезкорликни ошириб, хизматлар соҳаси самарадорлигини юксалтиришга хизмат қилади [1].

Шу билан бирга, 2022–2026 йилларга мўлжалланган Тараққиёт стратегиясида барқарор ўсиш, “яшил” иқтисодиёт ва хизматлар соҳасини модернизация қилишга устувор аҳамият берилган. У ресурслардан самарали фойдаланиш, экологик барқарорлик ва инновацион технологияларни жорий этиш орқали соҳани ривожлантиришни назарда тутади. Бу эса хизматлар сифатини ошириш ва барқарор иқтисодий ўсишни таъминлайди [2].

Бундан ташқари, мамлакатда амалга оширилаётган ислоҳотлар доирасида хизматлар соҳасини рақамлаштириш, инфратузилмани такомиллаштириш ва экологик барқарорликни таъминлаш бўйича комплекс чора-тадбирлар белгиланган [3].

Хизматлар соҳаси иқтисодий ўсиш ва бандликда муҳим ўрин тутади. Бироқ бошқарув самарадорлигининг пастлиги, рақамлаштириш чекловлари ва экологик ёндашувларнинг заифлиги соҳани чекламоқда. Айниқса, ахборот тизимлари интеграциясининг етарли эмаслиги, рақамли хизматлар қамровининг пастлиги ва кадрлар етишмаслиги долзарб муаммолардир. Шу боис, рақамли ва

“яшил” шароитда соҳани самарали бошқариш муҳим аҳамиятга эга. Тадқиқот мақсади — Андижон вилояти мисолида таҳлил ўтказиб, амалий таклифлар ишлаб чиқиш.

Адабиётлар шарҳи. Рақамли иқтисодиёт шароитида хизматлар соҳасини ривожлантириш масалалари замонавий илмий тадқиқотларда муҳим ўрин эгалламоқда. Хусусан, тадқиқотларда қайд этилишича, рақамли технологияларни жорий этиш хизмат кўрсатиш жараёнларини оптималлаштириш, хизматлар сифатини ошириш ва иқтисодий самарадорликни таъминлашга хизмат қилади [4].

Илмий манбаларга кўра, рақамли платформалар хизматлар соҳасида самарали алоқа, транзакция харажатларини камайтириш ва янги бизнес моделларини шакллантириш орқали рақобатни кучайтириб, бозор имкониятларини кенгайтиради [5].

Шу билан бирга, хизматлар соҳаси иқтисодий ўсиш ва бандликни таъминлашда муҳим ўрин тутиб, унинг самарадорлигини ошириш замонавий бошқарув ёндашувлари ва инновацион технологияларни кенг жорий этишни талаб этади [6].

Сўнгги тадқиқотлар хизматлар соҳасини рақамли трансформация қилишда инфратузилмани ривожлантириш, ахборот тизимларини интеграция қилиш ва рақамли кўникмаларни оширишни устувор йўналиш сифатида кўрсатади. Бироқ бу жараёнда ташкилий, технологик ва кадрлар билан боғлиқ муаммолар сақланмоқда [7].

Мавжуд тадқиқотлар хизматлар соҳасини рақамли иқтисодиёт шароитида ривожлантиришни кенг ёритган, аммо уни “яшил” тамойиллар билан уйғун ҳолда, айниқса ҳудудий даражада комплекс таҳлил қилиш етарли эмас. Шу боис, мазкур тадқиқот соҳани рақамли ва “яшил” ёндашувлар асосида баҳолаш ҳамда бошқарув самарадорлигини ошириш бўйича илмий асосланган таклифлар ишлаб чиқишга қаратилган.

Тадқиқот методологияси. Тадқиқотда хизматлар самарадорлигини баҳолаш учун таҳлил, қиёсий ва статистик усуллар комплекс қўлланилди. Андижон вилояти мисолида соҳанинг ривожланиш динамикаси ва таркибий ўзгаришлари ўрганилди. Тизимли ёндашув асосида бошқарув механизмлари ва кадрлар салоҳиятининг таъсири баҳоланди, назарий ёндашувлар умумлаштирилди. Натижада асосий тенденциялар ва муаммолар аниқланиб, самарадорликни оширишга қаратилган илмий асосланган амалий таклифлар ишлаб чиқилди.

Таҳлил ва натижалар муҳокамаси. Андижон вилоятида хизматлар соҳасининг ривожланиши ва иқтисодий самарадорлигини баҳолаш учун асосий статистик кўрсаткичлар таҳлил қилинди. Таҳлил орқали соҳанинг таркибий тузилиши, ўсиш динамикаси ва иқтисодиётдаги аҳамияти аниқланди. Шунингдек, рақамли технологиялар таъсири ва таркибий ўзгаришлар ўрганилди. Натижада ижобий тенденциялар ва мавжуд муаммолар белгиланди.

1-жадвал

Андижон вилоятида хизматлар соҳасининг таркибий ва динамик кўрсаткичлари (2024–2025 йй.)


№	Хизмат тури	2024 йил (млрд сўм)	2025 йил (млрд сўм)	Ўсиш суръати (%)
1	Жами хизмат	43233,06	53969,59	114,73
2	Савдо хизматлари	9002,83	10346,71	108,63
3	Транспорт хизматлари	6751,52	8589,55	112,04
4	Молиявий хизматлар	6086,11	8737,44	142,03
5	Алоқа ва ахборотлаштириш хизматлари	1410,22	1797,65	115,14
6	Яшаш ва овқатланиш хизматлари	12470,15	15147,28	109,31
7	Кўчмас мулк билан боғлиқ хизматлар	708,88	908,55	109,28

Манба: Andstat.uz асосида муаллиф томонидан тайёрланди.

Жадвал маълумотларига кўра, 2025 йилда Андижон вилоятида хизматлар ҳажми 43233,06 млрд сўмдан 53969,59 млрд сўмгача ошиб, 114,73% ўсиш қайд этилган. Бу соҳанинг иқтисодиётдаги аҳамияти ортиб бораётганини кўрсатади. Энг юқори ўсиш молиявий хизматларда (142,03%) кузатилиб, бу финтех ва рақамли хизматлар ривожи билан изоҳланади. Алоқа ва ахборот хизматларидаги 115,14% ўсиш рақамли инфратузилма кенгайганини англатади. Транспорт (112,04%) ҳамда яшаш ва овқатланиш (109,31%) хизматларидаги ўсиш иқтисодий фаоллик ошганини кўрсатади. Савдо хизматлари ўсиши нисбатан паст (108,63%) бўлса-да, ҳажм жиҳатидан етакчи ўринни сақлаб қолган. Кўчмас мулк хизматларидаги ўсиш (109,28%) инвестиция фаоллигининг кучайганини ифодалайди. Умуман, соҳада тармоқлараро диверсификация жараёнлари кузатилмоқда.

Бироқ мазкур ижобий динамикага қарамасдан, соҳада сифат кўрсаткичлари ва бошқарув самарадорлиги билан боғлиқ айрим муаммолар сақланиб қолмоқда. Хусусан, рақамли технологияларни жорий этиш даражасининг номутаносиблиги, ахборот тизимлари интеграциясининг пастлиги ва малакали кадрлар етишмаслиги хизматлар соҳасида самарадорликни чекловчи асосий омиллар ҳисобланади.

Хизматлар соҳасининг ривожланиш динамикасини янада аниқроқ акс эттириш мақсадида қуйидаги график келтирилган.



Манба: Andstat.uz асосида муаллиф томонидан тайёрланди.

2-расм. Андижон вилоятида хизматлар соҳасининг тармоқлар бўйича ўсиш динамикаси (2024–2025 йй.).

Келтирилган график маълумотлари Андижон вилоятида хизматлар соҳасининг тармоқлар бўйича барқарор ўсиш тенденциясига эга эканлигини тасдиқлайди. Барча асосий хизмат турларида 2025 йилда ижобий ўсиш кузатилиб, хизматлар ҳажмининг изчил ортиб бораётгани аниқланди.

Таҳлилларга кўра, энг юқори ўсиш молиявий хизматларда кузатилиб, бу рақамли хизматлар ва иқтисодий фаоллик ошганини кўрсатади. Транспорт ва алоқа соҳасидаги ўсиш рақамлаштириш ва инфратузилма ривожини ифодалайди. Савдо, яшаш ва овқатланиш хизматларида барқарор ўсиш аҳоли эҳтиёжлари билан боғлиқ ҳолда шаклланмоқда, кўчмас мулк хизматларидаги ўсиш эса инвестиция фаоллигини англатади. Шу билан бирга, сифат, бошқарув самарадорлиги ва кадрлар салоҳияти билан боғлиқ муаммолар сақланиб қолмоқда. Бу ҳолат рақамли ёндашувларни кенг жорий этиш, инсон капиталини ривожлантириш ва институционал ислоҳотларни чуқурлаштириш зарурлигини кўрсатади.

Хулоса ва таклифлар. Таҳлиллар Андижон вилоятида хизматлар соҳаси барқарор ўсишга эга эканини кўрсатди. Хизматлар ҳажмининг ортиши ва тармоқлар бўйича ижобий динамика соҳанинг иқтисодиётдаги аҳамияти ошганини тасдиқлайди. Айниқса, молиявий ва АКТ хизматларидаги юқори ўсиш рақамли иқтисодиёт ривожини ифодалайди. Бироқ сифат кўрсаткичлари, бошқарув самарадорлиги ва институционал механизмлар билан боғлиқ муаммолар сақланмоқда. Жумладан, рақамлаштириш даражасининг пастлиги, тизимлар интеграциясининг етарли эмаслиги ва кадрлар етишмаслиги соҳанинг самарали ривожига тўсқинлик қилмоқда.

Таҳлил натижалари асосида қуйидаги амалий таклифлар ишлаб чиқилди:

1. Хизматлар соҳасини рақамли трансформация қилишни жадаллаштириш ва ягона интеграциялашган электрон хизматлар платформаларини кенг жорий этиш;

2. Ахборот тизимлари ўртасидаги интеграцияни кучайтириш орқали хизмат кўрсатиш жараёнларини соддалаштириш ва шаффофликни таъминлаш;

3. Хизматлар соҳаси учун замонавий билим ва кўникмаларга эга кадрларни тайёрлаш ҳамда уларни қайта тайёрлаш тизимини такомиллаштириш;

4. “Яшил” иқтисодиёт тамойиллари асосида ресурс тежамкор ва экологик инновацияларни хизматлар соҳасига кенг жорий этиш;

5. Хизматлар сифатини баҳолашнинг аниқ мезонлари ва мониторинг тизимини шакллантириш орқали самарадорликни ошириш;

6. Давлат ва хусусий сектор ўртасидаги ҳамкорликни кучайтириш орқали хизматлар бозорида рақобат муҳитини ривожлантириш.

Юқорида келтирилган таклифларни амалга ошириш хизматлар соҳасида самарадорликни ошириш, хизматлар сифатини яхшилаш ва ҳудудий иқтисодий ўсишни таъминлашга хизмат қилади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйҳати

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти ПФ-6079-сон (2020) ПФ-6079-сон 05.10.2020. “Рақамли Ўзбекистон-2030” стратегиясини тасдиқлаш ва уни самарали амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида.

2. Ўзбекистон Республикаси Президенти фармони ПФ-60-сон (2022) ПФ-60-сон 28.01.2022. 2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида.

3. Ўзбекистон Республикаси Президенти ПФ-21-сон (2026) ПФ-21-сон 16.02.2026. Мамлакат тараққиётининг 2030 йилгача мўлжалланган устувор йўналишлари доирасида ислоҳотларни изчил давом эттириш ва янги босқичга олиб чиқишнинг қўшимча чора-тадбирлари тўғрисида.

4. Очилов (2024) Рақамли иқтисодиёт шароитида хизматлар соҳасини ривожлантириш йўллари.

5. Лылов (2024) Цифровые платформы и их роль в развитии цифровой экономики и цифрового бизнеса.

6. Абдурахмонович, Б.А. (2024) Хизматлар соҳасини ривожлантиришнинг ўзига хос хусусиятлари ва йўналишлари

7. Акбаров, А. (2025) ўзбекистон иқтисодиётида хизматлар соҳасининг аҳамияти ва ривожланиш босқичлари.

PROSPECTS FOR DEVELOPING REGIONAL ECONOMIC DIVERSIFICATION BASED ON TOURISM IN THE KHOREZM REGION

Rajapova Gulnoza Makhmudovna
Banking and Finance Academy
of the Republic of Uzbekistan
Master's student
ORCID:0009-0009-0458-6065

Abstract. This article analyzes the opportunities for ensuring economic diversification through tourism in the regions of Uzbekistan. In particular, using the example of the Khorezm region, the impact of tourism on the regional economy, the development of the service sector, its role in increasing employment, and its importance in enhancing investment attractiveness are examined. Tourism serves as an important factor in diversifying the regional economy and contributes to the formation of new sources of income. The article also proposes measures aimed at developing infrastructure, improving service quality, and introducing new tourism directions.

Keywords: tourism, economic diversification, regional development, service sector, Khorezm region, investment, employment, tourism infrastructure

Introduction. In modern economic conditions, economic diversification is considered an important strategic direction for ensuring the sustainability of regional development. Diversification contributes to reducing risks and expanding sources of income through the development of various sectors of the economy.

Tourism is regarded as a key strategic sector for economic diversification and regional development, especially for developing economies such as Uzbekistan. It not only contributes to the growth of service exports and employment but also helps reduce interregional socio-economic disparities, develop local infrastructure, and promote international integration [1].

Over the decades leading up to 2019, tourism experienced continuous expansion and diversification despite periodic shocks, becoming one of the largest and fastest-growing sectors of the global economy.

Following the severe disruptions caused by the COVID-19 pandemic that began in 2020, international tourism largely recovered by 2023 and continued to play a significant role as a driver of economic growth and job creation. This recovery supported tourist destinations in both developed and developing market economies [2].

In recent years, the tourism sector in the Republic of Uzbekistan has been developing as one of the priority sectors of the economy. Based on state programs, special attention is being paid to the development of tourism infrastructure, increasing the inflow of foreign tourists, and improving the quality of services.

Specifically, the Resolution of the President of the Republic of Uzbekistan dated April 30, 2022, No. PP-232 "On Additional Measures to Diversify Domestic Tourism Services" envisages a range of measures aimed at elevating tourism to a strategic sector of the national economy, diversifying and significantly increasing the volume of domestic tourism services, creating necessary conditions for introducing citizens to the

country's tourism potential, improving the quality of provided tourism services and enhancing their competitiveness in global markets, expanding opportunities for business entities operating in the tourism sector, accelerating the development of modern service infrastructure, as well as promoting employment and broadening income sources for the population [3].

Furthermore, in order to improve the tourism infrastructure in the region, develop the hotel industry, and provide state financial support, the Resolution of the President of the Republic of Uzbekistan No. PP-394 dated November 15, 2024, "On measures to further develop the tourism potential of the Khorezm region in 2024 - 2026" was adopted. This resolution introduced a number of benefits for hotel enterprises and other entities operating in the sector [4].

In particular, the amounts of state subsidies allocated for the construction and renovation of hotels were determined, and tax incentives were established for business entities engaged in hotel operations, catering, and tour operator services.

The Khorezm region, especially the city of Khiva, possesses significant potential for tourism development due to its rich historical and cultural heritage. Therefore, studying the opportunities for ensuring economic diversification through tourism in this region is considered a relevant scientific issue.

Literature Review. In the context of the dynamic development of the global economy, ensuring the sustainable growth of the tourism sector and enhancing its competitiveness is one of the key priorities. Therefore, diversification is essential to minimize or prevent significant risks in the tourism industry. In addition, the theoretical and practical foundations of tourism development and diversification, as well as the necessity of diversifying tourism services, its main factors, and future prospects, have been analyzed. Particular attention is paid to innovative approaches and strategic planning methods, supported by empirical studies and best practices from various countries around the world [5].

In the book *"Sustainable Tourism"*, Harris, Williams, and Griffin analyze the concept of sustainable tourism as a comprehensive process that integrates economic, social, and environmental factors. According to their approach, tourism not only contributes to economic growth by expanding the service sector, increasing employment, and generating income within a region, but also creates a multiplier effect that stimulates the development of other sectors such as transport, trade, agriculture, and handicrafts [6].

In *"Tourism Economics and Policy"* by Dwyer, Forsyth, and Dwyer, the role of tourism in economic development and diversification is examined from both theoretical and practical perspectives. The authors consider tourism as a key factor ensuring sustainable regional economic growth and emphasize its significant impact on employment, investment, and income generation [7].

Studies in tourism economics indicate that tourism:

- stimulates the growth of the service sector;
- creates new employment opportunities;
- promotes the development of small and medium-sized enterprises;
- reduces regional economic disparities.

Research Methodology. This study employs several scientific methods, including statistical - analysis to examine tourism indicators, comparative - analysis to evaluate changes over time, and a systematic approach - to identify the comprehensive impact of tourism on the economy.

Analysis and Results. Despite the decline caused by the COVID-19 pandemic, the rapid recovery of the tourism sector indicates its resilience and its role as a stable and prospective sector of the economy.

In recent years, the volume of tourism flows in the Khorezm region, as well as the export of tourism services driven by foreign visitors, has increased significantly.

Table 1

Dynamics of Tourism Growth in the Khorezm Region (2017-2025)[8]

№	Year	Total number of tourists	Domestic	International
1.	2017	1 160,7	1 100,0	60,7
2.	2018	1 653,7	1 530,5	123,2
3.	2019	2 646,6	2 225,8	420,8
4.	2020	360,6	337,5	23,1
5.	2021	1 294,8	1 255,0	39,8
6.	2022	1 626,0	1 488,5	137,5
7.	2023	2 765,3	2 200,6	564,7
8.	2024	5 289,7	4 152,9	1 136,9
9.	2025	12 428,4	10 251,5	2 176,9


Source: Compiled by the author based on data from the Khorezm Regional Department of Tourism

As shown in the table, in 2025 a total of 12,428,409 tourists visited the Khorezm region, including 2,176,937 international tourists and 10,251,472 domestic tourists. This represents a 2.4-fold increase compared to the previous year. Specifically, in 2024, a total of 5,289,749 tourists visited the region, of which 1,136,853 were international tourists and 4,152,896 were domestic tourists.

This growth demonstrates the ongoing development of tourism infrastructure in the region and highlights the effectiveness of state policies in supporting the tourism sector.

Figure 1

Share of Domestic and International Tourists Visiting the Khorezm Region in 2025 [8]




Source: Compiled by the author based on data from the Khorezm Regional Department of Tourism

In 2025, the total number of tourists visiting the region exceeded 12.4 million, of which the majority - 82% were domestic tourists. The share of international tourists remained relatively low, accounting for 18%.

Figure 2

Volume of Tourism Service Exports in the Khorezm Region (2017–2025) [8]



Source: Compiled by the author based on data from the Khorezm Regional Department of Tourism

In 2025, the volume of tourism service exports in the Khorezm region amounted to USD 802.6 million. This figure represents a 2.1-fold increase compared to the corresponding period of the previous year. In 2024, the volume of tourism service exports in the region was USD 378.8 million.

Conclusion and Recommendations. The findings of this study demonstrate that tourism plays a significant role in promoting economic diversification in the Khorezm region. The growth of the tourism sector contributes not only to the expansion of tourism-related services but also stimulates the development of transport, trade,

handicrafts, catering, construction, and information and communication services. As a result, tourism generates additional income sources, creates employment opportunities, and strengthens the socio-economic stability of the region.

The analysis shows that the Khorezm region possesses substantial potential for further tourism development due to its rich historical and cultural heritage, unique architectural monuments, and growing international recognition. However, realizing this potential requires a comprehensive and systematic approach. In particular, priority should be given to improving tourism infrastructure, enhancing the quality of services in accordance with international standards, and expanding the use of digital technologies in tourism promotion and management.

Furthermore, the diversification of tourism products through the development of ecological, gastronomic, rural, ethnographic, and pilgrimage tourism can contribute to increasing tourist arrivals, extending visitors' length of stay, and raising tourism revenues. Supporting small businesses, family entrepreneurship, and handicraft activities related to tourism is also essential for maximizing the socio-economic benefits of the sector. In addition, attracting domestic and foreign investment through favorable investment policies and public-private partnership mechanisms would further strengthen the competitiveness of the region's tourism industry.

Overall, tourism has the potential to become a strategic driver of economic diversification and sustainable regional development in the Khorezm region. Effective implementation of the proposed measures would enhance the region's competitiveness and support its transformation into one of the leading tourism destinations in Uzbekistan and Central Asia.

References

1. Fayazov, S.M. (2025) Economic Mechanisms of Managing the Seasonality of Tourist Flow in Uzbekistan, Academia Open, 10(2). Available at: https://doi.org/10.21070/acopen.10.2025.11771.
2. International Tourism Highlights — 2024 Edition.
3. Resolution (2022) No. PP-232 of April 30, 2022, On additional measures for the diversification of domestic tourism services. Available at: https://lex.uz/pdfs/5991928 (Accessed: 19 January 2026).
4. Resolution (2024) No. PP-394 of November 15, 2024, On measures to further develop the tourism potential of the Khorezm region in 2024–2026. Available at: https://lex.uz/docs/7223758 (Accessed: 22 January 2026).
5. Komilov, D. (2025) Fundamental principles of tourism development and diversification. Available at: https://doi.org/10.5281/Zenodo.14909170.
6. Harris, R., Williams, P. and Griffin, T. (2012) Sustainable Tourism. Routledge.
7. Dwyer, L., Forsyth, P. and Dwyer, W. (2020) Tourism Economics and Policy. 2nd edn. Channel View Publications. Available at: https://doi.org/10.21832/Dwyer7314.
8. Analysis of data from the Khorezm Regional Department of Tourism

ПОДДЕРЖКА МАЛОГО И СРЕДНЕГО БИЗНЕСА СО СТОРОНЫ БАНКОВСКОГО СЕКТОРА УЗБЕКИСТАНА: ПРОБЛЕМЫ, ТЕНДЕНЦИИ И ПЕРСПЕКТИВЫ

Курбанова Дилфуза Махсудовна
к.э.н., доцент, заместитель руководителя Проектного офиса
Высшая школа бизнеса и предпринимательства при Кабинете Министров РУз
Ташкент, Узбекистан
ORCID:0000-0002-6936-5505

Аннотация. В статье исследуется роль банковского сектора в финансировании субъектов малого и среднего бизнеса (МСБ) Узбекистана. На основе верифицированных статистических данных за 2023–2025 годы выявлены и систематизированы структурные барьеры, ограничивающие доступ субъектов МСБ к банковским кредитным ресурсам. Рассмотрены государственные и международные инициативы в данной сфере, включая гарантийные механизмы, льготные кредитные линии и программы цифровизации финансовых услуг. Проведён анализ практики кредитования МСБ на примере Agrobank, Turonbank и Mikrokreditbank. По результатам исследования сформулированы рекомендации по формированию инклюзивной финансовой экосистемы, обеспечивающей устойчивое развитие малого предпринимательства.

Ключевые слова: малый и средний бизнес, банковский сектор, финансирование МСБ, кредитование, процентные ставки, залоговые требования, финансовая инклюзия, Банк развития бизнеса, цифровизация.

Введение. Малый и средний бизнес (МСБ) занимает ключевое место в экономической системе Узбекистана. По данным Национального комитета по статистике, в 2024 году доля МСБ в валовом внутреннем продукте страны составила 54,3%, что на 3,1 п.п. превышает показатель 2023 года. Реальный прирост ВВП по итогам 2024 года составил 6,5%, а по итогам 2025 года — 7,7%, номинальный объём ВВП достиг 147 млрд долл. США. Данные показатели свидетельствуют об устойчивой положительной макроэкономической динамике, однако не устраняют принципиального структурного дисбаланса, в частности субъекты МСБ, формирующие большую часть национального продукта, располагают существенно ограниченным доступом к банковским кредитным ресурсам в сравнении с крупными корпоративными заёмщиками.

МСБ представлен во всех ключевых секторах экономики — торговле, сельском хозяйстве, строительстве и сфере услуг, на долю микро- и малых предприятий приходится более 74% розничного товарооборота страны. Вместе с тем в отраслях с высокой добавленной стоимостью — обрабатывающей

промышленности, логистике, технологических услугах — удельный вес МСБ остаётся недостаточным, в том числе вследствие ограниченного доступа к долгосрочному финансированию. Значительная часть кредитного портфеля банковской системы сосредоточена в сегменте крупного бизнеса и торговли, тогда как производственный и инновационный МСБ испытывает существенные затруднения при привлечении заёмных средств в связи с высокими залоговыми требованиями и стоимостью кредитных ресурсов. Изложенные обстоятельства обусловили принятие в марте 2025 года Указа Президента Республики Узбекистан № УП-50 «О мерах по повышению роли малого и среднего бизнеса в экономике», которым установлены целевые показатели: увеличение доли МСБ в ВВП — до 55%, в промышленном производстве — до 34%, в экспорте — до 34%, в занятости населения — до 75%.

Банковский сектор и МСБ. Банковский сектор является основным источником внешнего финансирования для субъектов малого предпринимательства в Узбекистане. В условиях недостаточного развития рынка капитала, ограниченного доступа к венчурному и акционерному финансированию кредиты коммерческих банков представляют собой практически единственный инструмент привлечения заёмных средств для абсолютного большинства малых предприятий. По итогам 2025 года банковская система Узбекистана продемонстрировала значительный рост ключевых показателей: совокупные активы увеличились на 20,2%, кредитный портфель — на 13,3%, чистая прибыль сектора возросла в 2,2 раза и достигла 15,5 трлн сумов. Объём кредитов, выданных юридическим лицам и индивидуальным предпринимателям, увеличился на 27%, составив 233 трлн сумов.

Investitsiya daromadi va adolatli qiymat. Avvalroq muhokama qilinganidek, sug‘urta kompaniyalari sug‘urta mukofotlarini da’volar (float) shaklida to‘lashdan ancha oldin oladilar. Shu bilan birga, sug‘urta kompaniyalari daromad yoki foyda olish uchun ushbu suzuvchi mablag‘larni turli investitsiyalarga investitsiya qiladilar. Maxsus buxgalteriya standartlari investitsiyaga qarab farq qilishi mumkin bo‘lsa-da, ko‘plab investitsiyalar adolatli qiymat bo‘yicha o‘lchanadi. Bu shuni anglatadiki, agar bu investitsiyalar qiymati oshsa, sug‘urta kompaniyasi daromadlar to‘g‘risidagi hisobotda realizatsiya qilinmagan foydani ko‘rsatadi. Albatta, agar investitsiyalar pasayib ketsa, bu realizatsiya qilinmagan zararga olib keladi. Barcha investitsiyalar daromadlar to‘g‘risidagi hisobotga ta’sir qilmaydi. Ba’zi amalga oshirilmagan foyda yoki zararlar boshqa to‘liq daromadlarda aks ettiriladi.

Sug‘urta kompaniyalari uchun moliyaviy hisobot tahlilining ahamiyati. Sug‘urta kompaniyalarini bir nechta sabablarga ko‘ra tahlil qilish muhimdir:

To‘lov qobiliyatini baholash. Sug‘urta kompaniyalari har qanday da’volarni qondirish uchun moliyaviy jihatdan qodir bo‘lishi uchun to‘lovga qodir bo‘lishi kerak.

Buning bir qismi sifatida, sug‘urtachilar yetarli miqdorda kapital zaxiralarini saqlashlari va odatda qat’iy daromadli investitsiyalarga investitsiya qilishlari kerak. Qat’iy daromadli investitsiyalar, ayniqsa davlat va korporativ obligatsiyalar kabi yuqori darajadagi obligatsiyalar, odatda barqaror va oldindan aytib bo‘ladigan daromad keltiradi. Obligatsiyalardan oldindan aytib bo‘ladigan pul oqimlari da’volarni to‘lash zarur bo‘lganda mablag‘larning mavjudligini ta’minlashga yordam beradi.

Daromadlilikni baholash. Biznesni rivojlantirish, shuningdek, da’volarni to‘lashga qodirligini ta’minlash uchun sug‘urta kompaniyalari daromadli bo‘lishi kerak. Foyda sug‘urta polislarini anderrayting shaklida, shuningdek, foydali investitsiyalar orqali olinishi mumkin. Qanday bo‘lmasin, rentabellik aksiyadorlik kapitalini oshiradi va sug‘urtalovchining o‘z moliyaviy majburiyatlarini bajarishini ta'minlaydi.

Xatarlarni boshqarish. Sug‘urta tavakkalchilik biznesida, shuning uchun sug‘urta kompaniyalari uchun tavakkalchilikni to‘g‘ri boshqarish juda muhimdir. Xavflarni boshqarish to‘lov qobiliyati va moliyaviy barqarorlikni ta’minlash, turli da’volar xavfini to‘g‘ri tushunish (va bu tavakkalchiliklarni to‘g‘ri baholash), tartibga solishga rioya qilish, mijozlar ishonchi va obro‘sini saqlab qolish va boshqa ko‘plab jihatlar uchun muhimdir.

Sug‘urta kompaniyalari uchun asosiy moliyaviy koeffitsiyentlar. Sug‘urta kompaniyasini muntazam, faoliyat yurituvchi kompaniyani tahlil qilishda foydalanadigan ko‘plab ko‘rsatkichlar asosida tahlil qilish mumkin. Masalan, kapitalning daromadliligini boshqa har qanday kompaniya bilan bir xil hisoblash mumkin. Biroq, sug‘urta bilan bog‘liq turli xil moliyaviy koeffitsiyentlar ham mavjud. Eng keng tarqalganlaridan ba'zilari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

Zarar koeffitsiyenti: Zarar koeffitsiyenti ko‘rilgan zararlarni olingan mukofotlarga bo‘lish yo‘li bilan hisoblanadi. Bu koeffitsiyent qanchalik yuqori bo‘lsa, sug‘urta anderraytingining rentabelligi shunchalik past bo‘ladi va aksincha;

Xarajatlar nisbati: Xarajatlar nisbati sotib olish, anderrayting va xizmat ko‘rsatish mukofotlari bilan bog‘liq xarajatlarni olingan mukofotlarga bo‘lish yo‘li bilan hisoblanadi. Zarar nisbati singari, bu nisbat qanchalik past bo‘lsa, shuncha yaxshi;

Birlashtirilgan nisbat: Bu nisbat sug‘urta mukofotlarini yaratish bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan har qanday xarajatlarni olib, ushbu xarajatlarni ma’lum bir davrda yaratilgan daromadli mukofotlarga bo‘lish yo‘li bilan hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda, birlashtirilgan nisbatni zarar nisbatini xarajatlar nisbatiga qo‘shish orqali hisoblash mumkin.

Boshqacha qilib aytganda, birlashtirilgan nisbat formulasi (Komissiyalar + Xarajatlar + Da’volar) / Sug‘urta mukofotlari. Bu nisbat qanchalik yuqori bo‘lsa, sug‘urta polislarini anderrayting qilishda kompaniya shuncha kam daromadli bo‘ladi (va aksincha). Har qanday investitsiya daromadi (yoki xarajati) bu hisob-kitobga kiritilmagan, shuning uchun hatto 100% yoki undan ko‘p umumiy nisbat ham sug‘urtalovchi pul yo‘qotayotganini anglatmaydi.

Anderrayting koeffitsiyenti: Anderrayting koeffitsiyenti shunchaki bittadan minus umumiy koeffitsiyentga teng. Agar umumiy koeffitsient 95% bo‘lsa, unda

anderrayting koeffitsiyenti 5% ni tashkil qiladi (1-95%). Boshqacha qilib aytganda, barcha anderrayting xarajatlari, da’volar va komissiyalardan so‘ng, sug‘urtalovchida ishlab topilgan mukofotlarning 5% qoladi.

Sug‘urta kompaniyalari uchun moliyaviy hisobotlarni tahlil qilishdagi qiyinchiliklar. Sug‘urta kompaniyasining moliyaviy hisobotlarini tahlil qilish bir qator qiyinchiliklarga duch keladi:

Murakkab buxgalteriya qoidalari: Sug‘urtalovchining rentabelligi va faoliyatini aniq baholash uchun sohaga xos buxgalteriya qoidalarini chuqur tushunish zarur.

Moliyaviy sog‘lomlikni baholash: Sug‘urtalovchining moliyaviy sog‘lomligini aniq tushunish kompaniyaning da’volarni to‘lashga qodirligini baholash uchun juda muhimdir. Bu kelajakdagi moliyaviy hisobotlarni aniq prognoz qilish qobiliyatini, shuningdek, kelajakdagi da’volarni to‘g‘ri baholashni talab qiladi.

Qayta sug‘urta: Qayta sug‘urta kompaniyalari va qayta sug‘urta shartnomalarining mavjudligi oxir-oqibat sug‘urta kompaniyasi tomonidan yuzaga keladigan xavfni tushunishni yanada murakkablashtiradi.

Normativ farqlar: Sug‘urta kompaniyalari juda katta va turli yurisdiksiyalarda turli xil tartibga solish talablari bilan faoliyat yuritishi mumkin.

Xulosa va takliflar

Xulosa:

1. Sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy hisobotlari ularning faoliyat samaradorligini baholashda asosiy axborot manbai hisoblanadi.
2. “Float” sug‘urta kompaniyalari uchun muhim moliyalashtirish manbai bo‘lib, investitsiya daromadlarini shakllantirishda katta rol o‘ynaydi.
3. Sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligi ko‘p jihatdan zaxiralar va kapital yetarliligiga bog‘liq.
4. IBNR kabi baholash ko‘rsatkichlari sug‘urta risklarini hisobga olishda muhim ahamiyatga ega.
5. Moliyaviy koeffitsiyentlar (zarar koeffitsiyenti, xarajatlar nisbati, kombinatsiyalangan koeffitsient) sug‘urta kompaniyasining samaradorligini aniqlashda muhim vosita hisoblanadi.
6. Sug‘urta hisobotlarini tahlil qilish murakkab bo‘lib, maxsus bilim va yondashuvni talab etadi.

Takliflar:

1. Sug‘urta kompaniyalarida moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlar (IFRS) asosida yuritishni kengaytirish.
2. Risklarni baholashda zamonaviy matematik va statistik modellarni joriy etish.
3. “Float” mablag‘larini samarali boshqarish orqali investitsiya daromadlarini oshirish.
4. Sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy ochiqligini oshirish va investorlar uchun shaffoflikni ta’minlash.
5. Raqamli texnologiyalar asosida moliyaviy tahlil tizimlarini rivojlantirish.
6. Kadrlar malakasini oshirish orqali sug‘urta sohasida professional

tahlilchilarni tayyorlash.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 23-noyabrdagi O‘RQ-730-sonli “Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni.

2. Corporate Finance Institute (CFI). Insurance Financial Statements Analysis.

3. The Progressive Corporation. Consolidated Balance Sheets, Annual Report (Form 10-K).

4. Berkshire Hathaway Inc. Annual Report. 2024 y.

5. International Financial Reporting Standards (IFRS).

6. Rejda, G. E. Principles of Risk Management and Insurance, 13th Edition. Pearson. Intermediate to advanced, 2016. 700 p.

7. Harrington, S. E., Niehaus, G. Risk Management and Insurance. McGraw-Hill/Irwin, Edition 2nd. 2003. 704 p.

8. Vaughan, E. J., Vaughan, T. Fundamentals of Risk and Insurance, 11th Edition. John Wiley & Sons, Incorporated, 2013. 688 p.

ENHANCING FINANCIAL INCLUSION THROUGH FINTECH INNOVATION IN COMMERCIAL BANKING: EVIDENCE FROM UZBEKISTAN

Nazarova Shohista Tolmas kizi
PhD Student, Department of Banking,
Tashkent State University of Economics
ORCID: 0009-0006-8313-6705

Abstract. Financial inclusion remains a critical development challenge in transition economies, where a significant share of the population and small businesses lack access to formal banking services. This paper examines how the integration of financial technology (fintech) solutions within commercial banks can serve as a strategic lever for broadening financial access in Uzbekistan. Drawing on regulatory reports and the operational experience of Business Development Bank (BDB), the study analyses the impact of mobile banking applications, digital onboarding, alternative credit scoring, and payment infrastructure modernisation on inclusion metrics. The findings indicate that targeted fintech adoption can reduce service delivery costs by up to 60%, increase the active client base among underserved segments, and improve loan approval rates for micro and small enterprises. The paper concludes with actionable policy and institutional recommendations.

Keywords: financial inclusion, fintech, commercial banks, digital banking, mobile payments, credit scoring, Uzbekistan.

Introduction. Access to financial services is widely recognised as a foundational enabler of economic participation. The World Bank's Global Findex Database (2021) estimates that approximately 1.4 billion adults worldwide remain unbanked, with a disproportionate concentration in South and Central Asia. In Uzbekistan, despite a population of over 36 million, formal account ownership stood at roughly 55% in 2022, while access to credit among micro and small enterprises (MSEs) remains constrained by high collateral requirements and limited credit history.

Theoretical Framework. Financial inclusion scholarship converges on two complementary explanations for service gaps: supply-side constraints (cost of delivery, risk perception, regulatory burden) and demand-side barriers (financial literacy, trust, geographic distance). Fintech interventions address both dimensions simultaneously [1, 2]. Rogers' (2003) Diffusion of Innovation theory and the Technology Acceptance Model (TAM) together explain why mobile banking products that demonstrate relative advantage and low complexity diffuse more rapidly across income segments [3, 4]. This paper employs the BIS CPMI three-layer framework — access, usage, and quality — to assess progress and identify remaining gaps [5].

Fintech Landscape in Uzbekistan's Banking Sector. Since Presidential Decree UP-6079 on the Development of the Digital Economy (2020), Uzbekistan's financial sector has undergone accelerated digitalisation: integration of Uzcard and Humo interbank networks, biometric digital identity (MyID), liberalised e-money licences, and CBU-piloted open banking frameworks. BDB's Biznes 24/7 platform surpassed one million installations by 2024, offering multi-currency account management, P2P

transfers, cardless ATM withdrawals, and real-time AML-filtered transaction monitoring.

Table 1 summarises key fintech adoption indicators across Uzbekistan's banking sector over the 2020–2024 period.

Table 1. Key Fintech Adoption Indicators in Uzbekistan's Banking Sector (2020–2024)

Indicator	2020	2021	2022	2023	2024*
Active mobile banking users (mln)	1.2	2.8	5.1	8.4	12.7
Population share with digital accounts (%)	38	46	55	63	72
MSE digital credit clients (mln)	0.18	0.41	0.79	1.35	2.10
Avg. onboarding time — branch (days)	4.2	4.0	3.8	2.1	1.5
Avg. onboarding time — digital (min)	—	25	18	15	12
Cost-to-serve: digital vs branch (%)	—	—	48	44	42

** **Preliminary data. Sources: CBU Annual Reports (2020–2024); BDB internal metrics; National Statistics Committee of Uzbekistan.***

Methodology. The study employs a mixed-methods design combining quantitative analysis of secondary data with institutional case analysis. Sources include CBU annual reports (2020–2024), World Bank Findex microdata, and BDB internal performance metrics. Inclusion indicators are operationalised across three dimensions: (1) share of adults with active transactional accounts, (2) share of MSEs with at least one digital credit product, and (3) cost-to-serve ratio for remote versus branch-delivered services. Comparative benchmarking against regional peers — Kazakhstan's Kaspi Bank and Georgia's TBC Bank — supplements the domestic evidence base.

Findings and Discussion. The analysis yields four principal findings. First, digital account opening via MyID biometric verification reduced onboarding time from an average of 4.2 business days to under 15 minutes, cutting per-account acquisition costs by approximately 58%. Second, alternative credit scoring models leveraging transactional and utility data expanded the addressable MSE lending market by an estimated 23%. Third, P2P and QR-based payment integration increased active monthly usage among existing clients by 34%.

Figure 1 illustrates the compound growth trajectory of both mobile banking adoption and MSE digital credit access over the 2020–2024 period.




Figure 1. Dynamics of Fintech Adoption in Uzbekistan's Commercial Banks (2020–2024)

Source: CBU Annual Reports (2020–2024); BDB internal metrics; author's calculations.

Fourth, adoption rates among rural and low-income segments remain constrained by network reliability issues and limited financial literacy — indicating that technology deployment alone is insufficient and must be paired with targeted digital literacy programmes and last-mile infrastructure investment.

Conclusions and Recommendations This study demonstrates that the strategic integration of financial technology (fintech) within commercial banking systems serves as a critical, high-impact mechanism for expanding financial inclusion across Uzbekistan. To capitalize on these findings and institutionalize digital financial access, the following policy and structural recommendations are proposed:

1. **Regulatory Simplification and Open Banking Implementation:** The Central Bank of Uzbekistan (CBU) should expedite the establishment of comprehensive open banking regulations. Granting licensed third-party providers structured API access to banking data—strictly subject to verified customer consent—is essential to foster competitive product innovation tailored to historically underserved demographic segments.
2. **Institutionalization of Alternative Credit Scoring Frameworks:** Commercial banks should systematically integrate non-traditional data arrays—specifically transactional histories, telecommunication utilization metrics, and utility payment behavior—into institutional credit underwriting methodologies. Regulated by standardized CBU governance parameters, this approach will mitigate information asymmetry and extend credit access to micro and small enterprises (MSEs) lacking conventional collateral assets.

3. **Strategic Co-Investment in Digital Financial Literacy:** The Ministry of Economy and Finance, in coordination with commercial banking institutions, should deploy targeted financial literacy campaigns within rural districts. To maximize absorption, these educational frameworks ought to be structurally embedded into existing local community service delivery infrastructures and mahalla networks.
4. **Expansion of Agent Banking Architectures:** To resolve systemic infrastructural deficiencies in regions characterized by volatile mobile connectivity, a robust agent banking network should be deployed. Leveraging the established physical presence of national postal and retail distribution channels will secure last-mile financial service delivery.
5. **Establishment of an Empirical Financial Inclusion Dashboard:** A synchronized Key Performance Indicator (KPI) framework should be institutionalized and published quarterly through the joint oversight of the CBU and the Ministry of Digital Technologies. This empirical instrument will facilitate continuous, data-driven policy evaluation and iteration across the domestic banking ecosystem.

References

1. Demirguc-Kunt, A., Klapper, L., Singer, D., & Ansar, S. (2022). The Global Findex Database 2021. World Bank Publications.
2. Ozili, P. K. (2018). Impact of digital finance on financial inclusion and stability. Borsa Istanbul Review, 18(4), 329–340.
3. Rogers, E. M. (2003). Diffusion of Innovations (5th ed.). Free Press, New York.
4. Davis, F. D. (1989). Perceived usefulness, perceived ease of use, and user acceptance of information technology. MIS Quarterly, 13(3), 319–340.
5. BIS – CPMI (2020). Payment aspects of financial inclusion in the fintech era. Bank for International Settlements.
6. Berg, T., et al. (2020). On the rise of fintechs — credit scoring using digital footprints. Review of Financial Studies, 33(7), 2845–2897.
7. Jagtiani, J., & Lemieux, C. (2019). The roles of alternative data and machine learning in fintech lending. Economic Inquiry, 57(3), 1532–1550.
8. Central Bank of Uzbekistan (2024). Annual Report on the Development of the Banking Sector. Tashkent.
9. GSMA (2023). State of the Industry Report on Mobile Money. GSMA Intelligence.
10. Sahay, R., et al. (2020). The Promise of Fintech: Financial Inclusion in the Post COVID-19 Era. IMF Departmental Paper No. 2020/009.

MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALARNING SHAKLLANISH VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Jabbarov Kamoliddin Yo‘ldoshevich
O‘zbekiston Milliy universiteti dotsenti
Iqtisodiyot fanlari falsafa doktori, dotsent
ORCID:0000-0003-0280-550X

Toxirov Faxribek Farhod o’g’li
O‘zbekiston Milliy universiteti
Iqtisodiyot fakulteti 1-kurs magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada moliyaviy texnologiyalar (FinTech) ning shakllanish va rivojlanish bosqichlari ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda FinTech tushunchasining iqtisodiy mohiyati, uning moliya tizimiga ta’siri hamda raqamli transformatsiya jarayonidagi o‘rni ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, FinTech rivojlanishining asosiy bosqichlari, FinTech 1.0 dan FinTech 4.0 gacha bo‘lgan evolyutsion jarayonlar tizimli ravishda yoritilgan. Maqolada tranzaksiya xarajatlari nazariyasi va axborot asimmetriyasi konsepsiyasi asosida FinTech ning iqtisodiy samaradorlikka ta’siri asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar. FinTech, moliyaviy texnologiyalar, raqamli moliya, blokcheyn, sun’iy intellekt, moliyaviy inklyuzivlik, raqamli transformatsiya, bank tizimi, P2P kreditlash, Big Data.

Kirish. Moliyaviy texnologiyalar yoki FinTech XXI asr iqtisodiyotining eng tez rivojlanayotgan va transformatsiya qiluvchi sohalaridan biri hisoblanadi. Raqamli texnologiyalar, internet infratuzilmasi va sun’iy intellektning jadal taraqqiyoti moliya sektorining an’anaviy modellarini tubdan o‘zgartirmoqda. Natijada moliyaviy xizmatlar nafaqat tezkor va qulay, balki keng aholi qatlamlari uchun ochiq va inklyuziv bo‘lib bormoqda.

Hozirgi sharoitda FinTech nafaqat texnologik innovatsiya, balki iqtisodiy rivojlanishning muhim drayveriga aylandi. U tranzaksiya xarajatlarini kamaytirish, axborot asimmetriyasini qisqartirish va moliyaviy xizmatlarning sifatini oshirish orqali bozor samaradorligini ta’minlaydi. Shu bilan birga, raqamli moliyaning kengayishi bank tizimi, investitsiya muhiti va iste’molchilar xulq-atvorida chuqur institutsional o‘zgarishlarni keltirib chiqarmoqda.

Tadqiqotning maqsadi moliyaviy texnologiyalarning tarixiy shakllanish va rivojlanish bosqichlarini tizimli tahlil qilish, ularning moliya bozorlari va bank tizimidagi transformatsion ta’sirini ochib berishdan iborat. Shundan kelib chiqib, FinTech rivojlanishining zamonaviy tendensiyalari, institutsional xususiyatlari hamda raqamli iqtisodiyot sharoitidagi ahamiyatini baholash vazifasi qo‘yilgan.

Adabiyotlar sharhi. Moliyaviy texnologiyalar so‘nggi o‘n yilliklarda iqtisodiyot va moliya sohasidagi eng muhim innovatsionlardan biri sifatida ilmiy tadqiqotchilar diqqat markazida bo‘lib kelmoqda. FinTech tushunchasi moliyaviy xizmatlar ko‘rsatish jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo‘llash orqali

samaradorlik, tezkorlik va moliyaviy ommaboplikni oshirishga qaratilgan raqamli yechimlar majmuasi sifatida talqin qilinadi. Ilmiy adabiyotlarda mazkur tushunchaning mazmun-mohiyati va iqtisodiy ahamiyati bo‘yicha turli yondashuvlar shakllangan.

Schueffel FinTech tushunchasini tizimlashtirgan holda uni moliyaviy xizmatlarni takomillashtirish maqsadida qo‘llaniladigan innovatsion texnologiyalar yig‘indisi sifatida ta’riflaydi. Muallifning ta’kidlashicha, FinTech nafaqat texnologik yangiliklarni, balki moliyaviy xizmatlar bozorida yangi biznes modellar va institutsional o‘zgarishlarni ham o‘z ichiga oladi. Ushbu yondashuv FinTechni alohida texnologiya emas, balki iqtisodiy va raqamli transformatsiya jarayonining muhim tarkibiy qismi sifatida baholash imkonini beradi [1].

Gomber, Koch va Siering lar raqamli moliya konsepsiyasini tahlil qilar ekan, FinTech rivojlanishini axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining moliya tizimi bilan integratsiyalashuvi natijasi sifatida ko‘radi. Mualliflar raqamli moliyaning kelgusi rivojlanish yo‘nalishlari sifatida Big Data, sun’iy intellekt, bulutli texnologiyalar va blokcheyn yechimlarini ko‘rsatib, ularning moliyaviy xizmatlar bozorida raqobat muhitini kuchaytirishini asoslab beradi. Shuningdek, tadqiqotda FinTech kompaniyalari va an’anaviy banklar o‘rtasidagi munosabatlar raqobatdan hamkorlikka o‘tayotganligi qayd etilgan [2].

FinTechning nazariy asoslarini tushuntirishda institutsional iqtisodiyot namoyandalari tomonidan ishlab chiqilgan tranzaksiya xarajatlari nazariyasi muhim ahamiyatga ega. Xususan, Coase iqtisodiy munosabatlardagi xarajatlarni kamaytirish firmalarning asosiy maqsadi ekanligini ta’kidlaydi. Ushbu nazariya nuqtai nazaridan qaralganda, raqamli texnologiyalar orqali amalga oshirilayotgan moliyaviy operatsiyalar vaqt va resurs sarfini qisqartirish orqali bozor samaradorligini oshiradi. Jumladan, onlayn banking, raqamli to‘lov tizimlari va avtomatlashtirilgan investitsiya platformalari moliyaviy xizmatlar ko‘rsatishdagi tranzaksiya xarajatlarini sezilarli darajada kamaytirmoqda [3].

Boshqa bir iqtisodchi olim Akerlof tomonidan ishlab chiqilgan axborot asimmetriyasi konsepsiyasi ham FinTech rivojlanishining muhim nazariy asoslaridan biri hisoblanadi. Unga ko‘ra, bozor ishtirokchilari o‘rtasida axborotning teng taqsimlanmaganligi iqtisodiy qarorlar samaradorligini pasaytiradi. Zamonaviy FinTech texnologiyalari, ayniqsa Big Data tahlili, mashinali o‘qitish va sun’iy intellekt vositalari mijozlar haqidagi ma’lumotlarni tezkor qayta ishlash orqali mazkur muammoni qisman bartaraf etish imkonini yaratmoqda. Natijada kredit risklarini baholash, sug‘urta xizmatlarini taqdim etish va investitsiya qarorlarini qabul qilish jarayonlarida aniqlik darajasi ortib bormoqda [4].

Arner, Barberis va Buckley lar FinTech rivojlanishini tarixiy nuqtai nazardan tahlil qilib, uni moliya sohasidagi to‘rt bosqichli evolyusion jarayon sifatida izohlaydi. Mualliflar FinTech 1.0 bosqichini global moliyaviy integratsiyaning boshlanishi, FinTech 2.0 bosqichini bank xizmatlarining raqamlashuvi, FinTech 3.0 bosqichini innovatsion startaplar faollashuvi va FinTech 4.0 bosqichini sun’iy intellekt hamda platformali iqtisodiyotning shakllanishi bilan bog‘laydi. Mazkur konsepsiya bugungi kunda FinTech tadqiqotlarida eng ko‘p iqtibos keltiriladigan nazariy yondashuvlardan biri hisoblanadi [5].

Nicoletti moliyaviy texnologiyalarning kelajakdagi rivojlanish istiqbollarini tahlil qilar ekan, raqamli platformalar va avtomatlashtirilgan qaror qabul qilish tizimlari moliya sohasining asosiy drayverlariga aylanishini ta’kidlaydi. Muallifning fikricha, kelajakda banklar an’anaviy moliyaviy institut sifatida emas, balki raqamli ekotizimlarni boshqaruvchi texnologik platformalar sifatida faoliyat yuritadi. Bu esa moliyaviy xizmatlarning mutlaqo yangi modeli shakllanishiga olib keladi [6].

So‘nggi yillarda olimlar tomonidan FinTechning moliyaviy inklyuzivlikka ta’siriga ham alohida e’tibor qaratilmoqda. Jahon banki tadqiqotlarida raqamli to‘lov tizimlari, mobil banking va elektron hamyonlar aholining bank xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishi asoslab berilgan. Ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda FinTech texnologiyalari an’anaviy bank infratuzilmasi yetarlicha rivojlanmagan hududlarda aholining moliyaviy xizmatlarga kirish imkoniyatlarini sezilarli darajada oshirmoqda. Bu holat iqtisodiy o‘sish va ijtimoiy farovonlikni ta’minlashning muhim omillaridan biri sifatida baholanmoqda.

Shu bilan birga, ilmiy adabiyotlarda FinTech rivojlanishi bilan bog‘liq xavflar ham keng muhokama qilinmoqda. Xususan, kiberxavfsizlik, ma’lumotlar maxfiyligi, raqamli firibgarlik va tartibga solish mexanizmlarining yetarli darajada takomillashmaganligi FinTech sohasining asosiy muammolari sifatida qayd etilmoqda. Tadqiqotchilar fikriga ko‘ra, kelgusida FinTechning barqaror rivojlanishi innovatsiyalar va moliyaviy xavfsizlik o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlash darajasiga bog‘liq bo‘ladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda tahliliy, tizimli tahlil, tarixiy-evolyutsion tahlil, qiyosiy tahlil hamda induksiya va deduksiya usullari qo‘llanildi.

Tahlil va natijalar. Fintech moliyaviy faoliyatni axborot texnologiyalari bilan integratsiyalashuvi natijasida paydo bo'lgan turli jarayonlar va vositalarni o'z ichiga oladi. U provayderlar uchun xarajatlarni kamaytiradi va moliyaviy xizmatlarni iste'molchilar uchun yanada qulayroq qiladi.

Fintech biznes, tadbirkorlar va iste'molchilarga kompyuterlar va smartfonlar orqali kirish mumkin bo'lgan zamonaviy dasturiy ta'minot va algoritmlardan foydalangan holda moliyaviy faoliyatini samarali boshqarishga yordam beradi. Dastlab XXI asrning boshlarida moliyaviy institutlar uchun Back Office texnologiyalarga qaratilgan fintech keyinchalik iste'molchilarga yo'naltirilgan xizmatlarga aylandi. Bugungi kunda u bank, ta'lim, investitsiyalarni boshqarish, notijorat tashkilotlar va rivojlanayotgan kriptovalyuta bozori kabi turli sohalarni qamrab oladi. Ushbu o'tish fintechning ko'p qirrali ekanligini va uning an'anaviy moliyaviy tizimlarga ham, kundalik moliyaviy aloqalarga ham chuqur ta'sirini ko‘rsatadi [7].

Fintech Bitcoin kabi kriptovalyutalarni ishlab chiqish va ulardan foydalanishni ham o'z ichiga oladi. Kriptovalyutalar yangiliklar sarlavhalarini egallab tursa ham, pulning katta qismi hali ham ko'p trillion dollarlik bozor qiymati bilan an'anaviy bank sanoatida jamlangan.

Fintechdagi sun'iy intellekt va mashinali o'rganish kabi rivojlanayotgan texnologiyalar qaror qabul qilishni soddalashtiradi va chatbotlar orqali firibgarlikni aniqlash hamda mijozlarni qo'llab-quvvatlash kabi xizmatlarni yaxshilaydi.

Arner, Barberis va Buckley kabi olimlar FinTech evolyutsiyasini tarixiy kontekstda tahlil qilib, uni post-inqiroz moliyaviy paradigmasi sifatida asoslab beradi [5]. Mualliflar FinTech rivojlanishini to‘rt bosqichga ajratadi va har bir bosqich o‘ziga xos texnologik hamda institutsional o‘zgarishlar bilan belgilanadi.

1. FinTech 1.0 (1866–1967): Analog moliyaviy integratsiya bosqichi. Ushbu davrda telegraf, temir yo‘l va transmilliy bank tarmoqlari global kapital harakatini tezlashtirgan[5]. Moliyaviy operatsiyalar tezligining oshishi xalqaro savdo va investitsiya oqimlarini kengaytirishga xizmat qilgan. Bu bosqichda texnologiya yordamchi vosita sifatida ishlagan bo‘lishiga qaramasdan, global moliyaviy integratsiya poydevori aynan shu davrda shakllangan.

2. FinTech 2.0 (1967–2008): Banklarning raqamlashtirilish bosqichi. 1960 yillarning oxiriga kelib, bank tizimining kompyuterlashtirilishi moliyaviy xizmatlar samaradorligini sezilarli oshirdi [6]. ATM, SWIFT va internet-banking tizimlari tranzaksiya xarajatlarini kamaytirishga xizmat qildi va iqtisodiy masalalarning operatsion tezligini oshirdi. Bu davrda texnologik innovatsiyalar asosan banklarning ichki infratuzilmasini modernizatsiya qilishga qaratilgan edi.

3. FinTech 3.0 (2008–2020): Startaplar va moliyaviy erkinlik bosqichi. Global moliyaviy inqirozdan so‘ng banklarga bo‘lgan ishonch pasaydi va alternativ moliyaviy platformalar shakllandi [5]. Bu davrga kelib raqamli moliya yangi tadqiqot yo‘nalishiga aylanib ulgurdi [2]. Mobil to‘lovlar, P2P kreditlash, kraudfanding va blokcheyn texnologiyalari moliyaviy xizmatlarning inklyuzivligini oshirdi.

4. FinTech 4.0: Intellektual va platformali moliya bosqichi. So‘nggi bosqich sun’iy intellekt, Big Data, regtech va markaziy bank raqamli valyutalari (CBDC) joriy qilinishi bilan tavsiflanadi [2]. Bu davrga kelib regulyator texnologiyalar moliyaviy nazoratni real vaqt rejimida amalga oshirish imkonini berishni boshladi [5]. Bu bosqichda moliyaviy tizim platformali ekotizim modeliga transformatsiya qilinishi boshlandi.

Nazariy jihatdan FinTech rivojlanishi tranzaksiya xarajatlari nazariyasi [3] hamda axborot asimmetriyasi konsepsiyasi [4] orqali izohlanadi. Raqamli texnologiyalarning joriy qilinishi vositachilik xarajatlarini kamaytiradi va shaffoflikni oshiradi. Jahon banki ma’lumotlariga ko‘ra, mobil to‘lov tizimlari rivojlanayotgan mamlakatlarda bank xizmatlaridan foydalanish ko‘rsatkichlarini sezilarli oshirgan[9].

Bir so‘z bilan aytganda, FinTech evolyutsiyasi texnologik innovatsiyalar, institutsional islohotlar va raqamli infratuzilma uyg‘unligiga asoslanadi. Uning rivojlanish bosqichlari moliyaviy tizimning markazlashgan bank modelidan platformali va intellektual modelga o‘tishini aks ettiradi (1-jadval).

1-Jadval

FinTech ning rivojlanish bosqichlari [9]

Bosqich	Davr	Asosiy texnologiya	Institutsional model	Strategik natija
FinTech 1.0	1866–1967	Telegraf	Global banklashuv	Moliyaviy integratsiya
FinTech 2.0	1967–2008	ATM, SWIFT	Markazlashgan bank	Operatsion samaradorlik
FinTech 3.0	2008–2020	Mobil to‘lov, P2P, blokcheyn	Startap modeli	Demokratlashuv
FinTech 4.0	2020–hozir	AI, Big Data, CBDC	Platformali ekotizim	Intellektual moliya

Bugungi kunda fintech moliyaviy xizmatlar yoki to'lovlar talab qilinadigan deyarli barcha sohalarda qo'llaniladi. Jumladan:

1. Bank infratuzilmasi. Bu banklarga qarz oluvchilar, iste'molchilar va moliyaviy xizmatlar provayderlarini baholash uchun ball tizimlari yoki bank xizmatlariga uzluksiz masofadan kirish uchun mobil banking kabi xizmatlarni ko'rsatish hamda faoliyat yuritish imkonini beruvchi texnologiyalardir.

2. Biznes vositalari. Bular biznesga shaxsiy foydalanish yoki tartibga soluvchi organlarga hisobot berish uchun moliyaviy ma'lumotlarni mustaqil ravishda qayta ishlash imkonini beruvchi dasturiy ta'minotdir. Bunga mijozlarga hisob-fakturalarni berish, ish haqini avtomatik ravishda hisoblash va boshqalar uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan turli xil buxgalteriya dasturlari kiradi.

3. Shaxsiy moliya. Bular foydalanuvchilarga pullarini boshqarishda yordam beradigan turli xil ilovalar va xizmatlar, masalan, onlayn hamyonlar va maslahatchilar.

4. To'lovlar. Bular to'lov va kliring tizimlari, kriptovalyutalar va foydalanuvchilar yoki tashkilotlar o'rtasidagi onlayn hisob-kitoblar uchun boshqa xizmatlardir.

5. Kredit berish. Bu yerda P2P kredit berish vositalari ishtirokchilarga banklarning yordamisiz kredit berish va olish imkonini beradi. Shuningdek, bank qarz oluvchini tekshiradigan va kreditni masofadan turib beradigan onlayn kredit berish ham kiradi. Jarayon chatbotlarga foydalanuvchilarga mikrokreditlar berishga ruxsat berishgacha boradi. Faktoring yoki savdo moliyalashtirish tizimi ham mavjud bo'lib, unda yetkazib beruvchilar mijozlarga jo'natmalarni kechiktirilgan to'lov bilan qayta moliyalashtiradilar. Faktoring operatsiyalari ko'pincha blokcheyn va avtomatik to'lovlarni qayta ishlash uchun turli mexanizmlardan foydalanadi.

6. Investitsiyalar. Bu moliyaviy bozorlarni tahlil qila oladigan va tranzaksiyalar bo'yicha ma'lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qila oladigan savdo vositalari va savdo robotlariga tegishli savdo aktivlarini sotib olish, sotish yoki e'tiborsiz qoldirish jarayonlaridir.

7. Tahlil va prognozlash. Ushbu toifaga katta hajmdagi ma'lumotlar asosida turli xil ma'lumotlarni to'playdigan va qayta ishlaydigan analitik tizimlar kiradi. Masalan,

bank roboti maxsus dastur yordamida foydalanuvchining xatti-harakatlarini tahlil qilishi va ular qaysi guruhlarga tegishli ekanligini, qayerda vaqt o'tkazishini, qanday videolarni tomosha qilishini va qanday faoliyat bilan shug'ullanishini aniqlashi mumkin. Bu ma'lumotlarning barchasi qarz oluvchining halolligi haqida tasavvur hosil qilishga yordam beradi.

XXI asrning ikkinchi choragiga kelib, FinTechni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari sifatida jahonda quyidagilarga alohida e’tibor qaratilmoqda:

1. Raqamli profil. Bu davlat axborot tizimlarida saqlanadigan shaxs haqidagi ishonchli va qonuniy ma'lumotlar to'plamidir. Raqamli profilning joriy etilishi biznesga tasdiqlangan mijoz ma'lumotlarini tezda olish, xizmat ko'rsatish vaqtini va hujjatlarni rasmiylashtirish xarajatlarini kamaytirish imkonini beradi.

2. Masterchain Blockchain platformasi. Bu kriptografik axborotni himoya qilish standartlariga muvofiq sertifikatlangan moliya bozori ishtirokchilari uchun infratuzilma. Platforma elektron imzolarni qo'llab-quvvatlaydi va ma’lum doirada jismoniy shaxslar yoki kompaniyalar o'rtasida qonuniy operatsiyalarni amalga oshirish imkonini beradi.

Fintech tomonidan amalga oshirilgan eng katta yutuqlardan biri bu ochiq bank xizmatlarining paydo bo'lishi bo‘ldi. Bu innovatsiyalar rivojlanadigan va mijozlar ehtiyojlari yaxshiroq qondiriladigan hamkorlikdagi ekotizimni rivojlantiradi. Shu bilan bir qatorda, blokcheyn texnologiyasi shaffoflikni oshiradigan va tranzaksiyalarda firibgarlik xavfini sezilarli darajada kamaytiradigan markazlashtirilmagan reyestrlarni joriy etdi[10].

Ta'sis etilgan banklar uchun bu strategik qayta baholashni keltirib chiqardi. Ko'pchilik endi neobanklar qo'lga kiritayotgan tezkor tortishuvlarga qarshi turish uchun raqamli transformatsiya tashabbuslariga sarmoya kiritmoqda. Ba'zilar hatto ushbu texnologiyaga asoslangan raqobatchilar bilan to'g'ridan-to'g'ri raqobatlashish uchun raqamli ”spin-offlar”[135]ni ishga tushirmoqdalar.

Jismoniy bank infratuzilmasi cheklangan yoki ishonchsiz bo'lgan hududlarda fintech yechimlari jamg'arma hisobvaraqlari, kredit imkoniyatlari va sug'urta mahsulotlari kabi muhim xizmatlarga kirish imkonini beradi. Masalan, Keniyadagi “M-Pesa”[136] kabi mobil to'lov yechimlari millionlab foydalanuvchilar uchun hayot manbaiga aylandi, nafaqat shaxslarning imkoniyatlarini kengaytirishni, balki jamiyat darajasida iqtisodiy o'sishni ham rag'batlantirdi.

Lekin masalaning ikkinchi tomoni borki, unga ko‘ra bank faoliyatini raqamlashtirish bilan kiberxavflarga duchor bo'lishning ortishi kuzatilmoqda. Ishonch fintech yechimlarini qabul qilish va ulardan doimiy foydalanishda muhim omil bo'lib qolmoqda. Moliya institutlari raqamli xizmatlarini kengaytirar ekan, mijozlar ma'lumotlarini himoya qilish, moliyaviy jinoyatlarning oldini olish va tartibga solishga rioya qilishni ta'minlash uchun mustahkam kiberxavfsizlik choralarini ta'minlashi juda muhimdir.

[135] Bu yirik kompaniyaning o‘z tarkibidagi bir bo‘limni ajratib, mustaqil yangi kompaniya sifatida tashkil qilishi.

[136] Bu mobil telefon orqali pul yuborish, qabul qilish va to‘lov qilish imkonini beruvchi elektron to‘lov tizimi. U 2007-yilda Safaricom tomonidan Kenyada ishga tushirilgan va moliyaviy ommaboplikni oshirishda muhim rol o‘ynagan.

FinTech ekotizimi startaplar, banklar va regulyatorlarni birlashtirgan dinamik tarmoq bo'lib, ular moliyalashtirishga innovatsiyalarni olib kirishdi. O'zaro ta'sir ochiq “API” orqali raqobatdan hamkorlikka o'tmoqda, bu yerda startaplar moslashuvchanlikni taklif qiladi, banklar infratuzilma va mijozlar bazasini taqdim etadi, regulyatorlar esa xavfsizlik va rivojlanishni ta'minlaydi.

Bunday sharoitda moliya bozorida “FinTech startaplari” sonining eksponensial o'sishi kuzatilmoqda. Investorlar yangi, istiqbolli FinTech kompaniyalariga faol ravishda katta miqdordagi mablag'larni kiritmoqdalar va ularning qiymatining oshishini kutmoqdalar. Bank sektori yaqin orada katta tarkibiy qayta qurishdan o'tishi haqida keng fikr paydo bo'ldi. Kredit muassasalarining nafaqat "jismoniy" shakli, balki ularning faoliyatining tabiati ham o'zgaradi. Banklar realdan virtual iqtisodiy makon va ekotizimlarga o'tdilar. Bu vaziyatda banklarning o'zlari endi bank bo'lib qolishni istamaydilar.

Xulosa va takliflar. Moliyaviy texnologiyalarning rivojlanishi moliya tizimining evolyutsion transformatsiyasini aks ettiradi. FinTech 1.0 bosqichidan boshlab, hozirgi FinTech 4.0 bosqichigacha bo‘lgan jarayon texnologik innovatsiyalar, institutsional islohotlar va raqamli infratuzilmaning uyg‘unligida amalga oshgan. Bu jarayon natijasida an’anaviy bank modeli platformali va intellektual moliya modeliga aylanmoqda.

Zamonaviy FinTech yechimlari moliyaviy xizmatlarning samaradorligi, shaffofligi va ommabopligini sezilarli darajada oshirdi. Ayniqsa, mobil to‘lovlar, sun’iy intellekt, blokcheyn va ochiq bank xizmatlari moliya bozorida yangi imkoniyatlar yaratdi. Shu bilan birga, moliyaviy inklyuzivlikni ta’minlash, kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash va global iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirishda FinTech muhim o‘rin tutmoqda.

Biroq, FinTech rivoji bilan bog‘liq kiberxavfsizlik, ma’lumotlar maxfiyligi va tartibga solish masalalari ham dolzarbligicha qolmoqda. Shu bois, innovatsiya va xavfsizlik o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlash kelgusidagi asosiy vazifalardan biri bo‘lib qoladi.

Umuman olganda, FinTech nafaqat moliya sohasini, balki butun iqtisodiy tizimni raqamli transformatsiya qilishda markaziy omil sifatida namoyon bo‘lmoqda va uning kelajakdagi ahamiyati yanada ortishi kutilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Schueffel, P. (2016). Taming the beast: A scientific definition of FinTech. Journal of Innovation Management, 4(4), 32–54.
2. Gomber, P., Koch, J.-A., & Siering, M. (2017). Digital finance and FinTech. Journal of Business Economics, 87(5), 537–580.
3. Coase, R. H. (1937). The nature of the firm. Economica, 4(16), 386–405.
4. Akerlof, G. A. (1970). The market for “lemons”: Quality uncertainty and the market mechanism. The Quarterly Journal of Economics, 84(3), 488–500.
5. Arner, D. W., Barberis, J., & Buckley, R. P. (2015). The evolution of FinTech. Georgetown Journal of International Law, 47(4), 1271–1319.
6. Nicoletti, B. (2017). The future of FinTech: Integrating finance and technology in financial services. Palgrave Macmillan.
7. investopedia.com
8. Akerlof, G. A. (1970). The market for “lemons”: Quality uncertainty and the market mechanism. The Quarterly Journal of Economics, 84(3), 488–500.
9. World Bank (2022). Financial Inclusion Overview.

https://oxford-management.com/training-courses/finance-business-acumen. Oxford Management Centre John Eccles House, Robert Robinson Ave Oxford Science Park, Oxford OX

TIJORAT BANKLARI FAOLIYATIGA YANGI MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH ORQALI BANK MIJOZLARINI KREDITLASHNI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI

Ibodullayev Shohboz To’lqin o’g’li
iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
“O’zmilliybank” AJ Transformatsion ofis, loyiha kuratori
ORCID: 0000-0002-3885-711X

Annotatsiya. Mazkur ilmiy maqolada tijorat banklarining kredit turlari va ularning bank faoliyati uchun ahamiyati to‘liq tahlil qilingan. Bank xizmatlariga bog’liq xorijlik mutaxassislarning fikrlari o‘rganilgan hamda O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarining korporativ va chakana bank xizmatlari jozibadorligini ta’minlashga to‘siq bo‘layotgan muammolar ko‘rsatilgan hamda ularni bartaraf etishga qaratilgan ilmiy takliflar keltirilgan. Tadqiqot doirasida dunyoning rivojlangan mamlakatlarining transmilliy banklari – Bank of America, Sberbank va O’zbekiston Respublikasining yirik aksiyadorlik tijorat banklari O’zmilliybank hamda Asakabanklarining tahliliy ma’lumotlari o’rganilib, ulardagi aktivlar barqarorligi va raqobatbardoshlik darajasi tahlili amalga oshirilgan.

Kalit so‘zlar: kredit, foiz stavkasi, moliyaviy texnologiyalar, skoring, sun’iy intellekt, raqobatbardoshlik, skoring.

Kirish. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-noyabrdagi ““Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PF-6079 sonli farmonida 2022-yil 1-yanvarga qadar masofadan kredit mahsulotlarini realizatsiya qilish, omonatlar va hisob raqamlarni ochishni o‘z ichiga olgan keng turdagi onlayn xizmatlar ko‘rsatishni ta’minlash orqali tijorat banklarining raqamli transformatsiyasi yakuniga yetkazish hamda tijorat banklari tomonidan mijozlarga masofaviy bank xizmatlari (internet-banking, bank-mijoz, sms-banking va boshqalar), shu jumladan, mobil ilovalar orqali xizmat ko‘rsatish ko‘lamini va sifatini oshirish kabi dolzarb vazifalar keltirib o‘tilgan. [1]

Yuqorida qayd etilgan holatlar tijorat banklari faoliyatiga xususan kichik va o‘rta biznes sohasidagi mijozlarni kreditlash va chakana bank xizmatlarini ko‘rsatish jarayoniga yangi moliyaviy texnologiyalarni jalb etish hamda bu orqali bankning foizli daromadlarini oshirishga erishish zaruriyatini yuzaga keltirmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. M. Tavasiyev va S. Stoyanova bank mahsulotini texnologiya sifatida ta’riflaydilar. Bank mahsuloti - bu bank xodimlarining xizmat ko‘rsatilayotgan mijoz bilan o‘zaro munosabatlari reglamentini tashkil etuvchi o‘zaro bog‘liq harakatlar, protseduralar majmuasi, mijozga xizmat ko‘rsatishning yagona tugallangan texnologiyasidir deb ta’riflaydilar. [2]

Darhaqiqat, bank mahsulotlari bugungi kunda o‘zining ko‘plab qulayliklari bilan yaxlit texnologiya xususiyatlarini o‘zida namoyon etmoqda. Shuning bilan bir qatorda, bankning raqamli mahsulotlari orqali juda ko‘plab mijozlar bazasiga ega bo‘lish hamda

ularning vaqtini va bankning operatsion xarajatlarini tejash imkoniyati yuzaga kelmoqda.

O.I.Lavrushin “Банковское дело” (2018) asarida kredit tizimini iqtisodiyotning “qon aylanish tizimi” sifatida ta’riflaydi. U bank faoliyatida innovatsion texnologiyalarni joriy etish nafaqat xizmat ko‘rsatish tezligini oshirish, balki kredit resurslarini qayta taqsimlashda samaradorlikni kuchaytirishini asoslaydi. Lavrushin innovatsiyalarni uchta yo‘nalishda tahlil qiladi: kredit mahsulotlarini modernizatsiya qilish, axborot tizimlarini raqamlashtirish va bank xodimlari malakasini oshirish. Unga ko‘ra, kredit portfeli sifatini yaxshilash uchun sun’iy intellekt asosida mijoz baholash tizimlarini qo‘llash zarur. Bu yondashuv, ayniqsa, O‘zbekiston bank sektorida “Hamkorbank” kabi raqamli transformatsiyaga yo‘naltirilgan banklar tajribasida dolzarb hisoblanadi [3].

Harald Hau, Yi Huang va hamkorlari (2020) Xitoyda fintech kreditlash tizimining iqtisodiy oqibatlarini o‘rgangan. Ularning tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, raqamli platformalar kredit bozorida samaradorlikni oshirib, kichik biznes subyektlari uchun moliyaviy resurslarga kirish imkonini kengaytiradi. Ular fintech texnologiyalarini an’anaviy bank xizmatlariga muqobil emas, balki ularni to‘ldiruvchi mexanizm sifatida talqin qiladi [4].

Xavier Vives (2019) “fintechning bank tizimiga ta’siri” nomli ishida raqamli innovatsiyalar bank sektorining raqobat tuzilmasiga va regulyator siyosatiga qanday ta’sir ko‘rsatishini tahlil qilgan. U fintech va bigtech kompaniyalarning kirib kelishi an’anaviy bank faoliyatini qayta shakllantirayotganini va kreditlash siyosatini yangi nazariy asoslarga tayanishga majbur qilayotganini asoslaydi [5].

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarining kreditlashga oid faoliyati 2021–2025-yillar kesimida tahlil qilinib, dunyoning rivojlangan transmilliy banklari bilan taqqoslovchi tahlil asosida solishtirilgan. Ma’lumotlar bazasi sifatida Markaziy bankning rasmiy statistikasi, shuningdek banklarning moliyaviy hisobotlaridan foydalaniladi.

Tahlil va natijalar. Dunyoda juda ko‘plab jarayonlar masofaviy, raqamli tarzda amalga oshirila boshladi. ZipDo internet nashrining bergan statistik ma’lumotlariga ko‘ra 2022 yilda masofaviy bank tranzaksiyalari ulushi 65 foizni tashkil etgan hamda 39 foiz bank mahsulotlari iste’molchilari raqamli(masofaviy) bank xizmatlarini afzal ko‘rishgan. [6].

1-jadval


Bank of America va Sberbankning transformatsiya jarayonlari natijasi bo‘yicha ma’lumot (2026 yil 1-yanvar holatiga) [7]

Bank nomi	Xodimlari soni	Bank bo`linmalari soni	1 yilda bank transformatsiyasiga ajratiladigan mablag`	Onlayn bankdan foydalanadigan mijozlar soni	Jismoniy shaxslarga amalga oshirilgan to`lovlar
Bank of America	213 200	3600	13,5 mlrd.dollar	59 mln	4,5 trln dollar
Sberbank	280 000	22 300	13,9 mlrd.rubl	111,3 mln	238,9 mlrd dollar

1-jadval ma’lumotlaridan ko‘rish mumkinki yuqoridagi ikki nafar dunyoning yirik transmilliy banklari onlayn bank mahsulotlari yaratish va bu orqali mijozlar

bazasini kengaytirish borasida sezilarli ishlarni amalga oshirgan. Bu esa, yuqoridagi banklar uchun foizli va foizsiz daromadlarni oshishi va operatsion xarajatlarni qisqartirilishiga natijada bankning moliyaviy barqarorligi hamda raqobatbardoshligini ta’minlash imkoniyati mavjud bo‘lishini ko‘rsatadi.

O’zbekiston Respublikasida faoliyat olib borayotgan tijorat banklarida ham keng ko’lamli transformatsiya jarayonlari olib borilmoqda. Bank operatsiyalarini amalga oshirishda sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish va buning natijasida bankning aktivlar sifati yaxshilanishi, kredit portfelida muammoli kreditlar ulushi qisqarishi hamda buning natijasida banklarning foizli daromadlari va faol mijozlar bazasini oshirish imkonini bermoqda.



1-rasm. “O‘zmilliybank” AJ tomonidan 2021-2024 yillar mo‘ljallangan bank strategiyasining 1- bosqichida erishilgan moliyaviy natijalar [8]

1-rasm ma’lumotlaridan shuni ko’rish mumkinki, “O‘zmilliybank” AJ tomonidan transformatsiya jarayonining 1-bosqichi muvaffaqiyatli amalga oshirilganligini ko’rish mumkin. Xususan, bankda jismoniy va yuridik shaxslarni kreditlash jarayonida takomillashgan kredit konvert shakllantirilganligi hamda mijozlarning moliyaviy barqarorligini baholashning zamonaviy mexanizmlari joriy etilganligi hisobiga, yuridik shaxslarning kredit portfeli 2024-yilda 2021-yilga nisbatan 1.5 barobarga oshgan holda 90,0 trln.so’mni tashkil etgan.

Xulosa va takliflar. Tijorat banklari faoliyatiga yangi moliyaviy texnologiyalarni joriy etish orqali chakana bank kreditlarini takomillashtirish borasida olib borgan tahlillarimiz natijasida quyidagi xulosalarni shakllantirdik:

* bankning raqamli mahsulotlari orqali juda ko‘plab mijozlar bazasiga ega bo‘lish hamda ularning vaqtini va bankning operatsion xarajatlarini tejash imkoniyati yuzaga kelmoqda;

* xalqaro bank amaliyotidan ko‘rish mumkinki, bank aktivlari orasida nisbatan risk darajasi past va daromadliligi barqaror bo‘lgan aktivlar bu qisqa muddatli kreditlar yoki jismoniy shaxslarga ajratilgan chakana kreditlar hisoblanadi;

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda quyidagi takliflarni kiritdik:

1. Tijorat banklari uchun onlayn bank xizmatlarini ko’rsatish nisbatan qulay va arzon amaliyot ekanligi hamda buning natijasida bankning operatsion xarajatlari

qisqarishini hisobga olib, aholi gavjum nuqtalarda keng imkoniyatli, raqamli bank ofislarini shakllantirish lozim.

2. Tijorat banklari faoliyatiga yangi moliyaviy texnologiyalarni joriy etish mamlakatimiz iqtisodiyoti va bankalarning raqobatbardoshligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etishini inobatga olgan holda banklar tomonidan amaliyotga joriy etilayotgan fintex texnologiyalarini ishga tushirishda mavjud byurokratik to’siqlar davlat tomonidan soddalashtirilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-noyabrdagi ““Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PF-6079 sonli farmoni. www.lex.uz.

2. Банковское дело: базовые операции для клиентов : учеб. пособие / под ред. А. М. Тавасиева. М. : Финансы и статистика, 2005.

3. Лаврушин О.И. Банковское дело. – М.: КНОРУС, 2016. – 800 с.

4. Hau Harald, Huang Yi, Shan Hongzhe, Sheng Zixia. How FinTech Enters China’s Credit Market//Papers and Proceedings, 2019. -№ 109. – P. 60–64**.**

5. Xavier Vives. The Impact of Fintech on Banking// Science and Education Publishing, 2020. - №1. – P. 13-20.

6. https://zipdo.co/digital-banking-statistics

7. www.bankofamerica.com va www.sberbank.ru

8. www.nbu.uz

IQTISODIYOTNING RAQAMLASHUVI SHAROITIDA KRIPTO-AKTIVLARNING GIBRID KATEGORIYA SIFATIDAGI IQTISODIY MOHIYATI

Iminoxunov Abdukoxor Abdivaitovich
Texnologiya, menejment va kommunikatsiya instituti
Iqtisodiyot, moliya va buxgalteriya hisobi kafedrasi professori v.b., i.f.f.d.
ORCID: 0000-0003-0182-4303

Hakimov Abdurahmon Muhammad-Ali o‘g‘li
Prague Institute of Management and Technology tadqiqotchisi
ORCID: 0009-0009-8275-2217

Annotatsiya. Mazkur tadqiqotda iqtisodiyotning raqamlashuvi sharoitida kripto-aktivlarning gibrid kategoriya sifatidagi iqtisodiy mohiyati o‘rganilgan. Tadqiqotning maqsadi kripto-aktivlar haqidagi konseptual tushunchalarni aniqlashtirish hamda ularni moliyaviy instrumentlar, raqamli texnologiyalar va institutsional mexanizmlar kesishgan nuqtada shakllanadigan murakkab iqtisodiy obyekt sifatida talqin qilishni asoslashdan iborat. Tadqiqot sifatga asoslangan konseptual metodologiyaga tayanadi va tizimli, institutsional, qiyosiy hamda tahliliy usullarni o‘z ichiga oladi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, mavjud yondashuvlar kripto-aktivlarni to‘lov, investitsiya yoki texnologik foydalilik kabi alohida funksiyalar orqali talqin qilishga moyil, holbuki ularning real iqtisodiy mohiyati texnologik, iqtisodiy va institutsional tarkibiy qismlarning o‘zaro ta’siri bilan belgilanadi. Tadqiqotning ilmiy hissasi kripto-aktivlarni gibrid iqtisodiy kategoriya sifatida asoslash hamda ularni keyingi tahlil qilish uchun tizimli yondashuvni taklif etishdan iborat.

Kalit so‘zlar: kripto-aktivlar, raqamli iqtisodiyot, gibrid iqtisodiy kategoriya, blokcheyn, taqsimlangan reyestr texnologiyasi, moliyaviy instrumentlar, institutsional mexanizmlar, tizimli yondashuv.

Kirish.

Iqtisodiyotning raqamlashuvi sharoitida kripto-aktivlar moliyaviy munosabatlar transformatsiyasining asosiy drayverlaridan biriga aylanib, qiymat aylanishi, investitsion faollik va raqamli huquqlarning yangi mexanizmlarini shakllantirmoqda. Ularning qo‘llanish doirasining kengayishi, taqsimlangan reyestr texnologiyalarining rivojlanishi bilan bir qatorda, zamonaviy moliyaviy tizimda ularning iqtisodiy mohiyati va rolini qayta ko‘rib chiqish zaruratini yuzaga keltirmoqda (Nakamoto, 2008; Tapscott & Tapscott, 2016).

Ilmiy tadqiqotlar hajmi ortib borayotganiga qaramay, iqtisodiy adabiyotlarda kripto-aktivlarning mohiyatini aniqlash bo‘yicha hanuzgacha yagona yondashuv mavjud emas. Mavjud talqinlar odatda to‘lov, investitsiya yoki texnologik rol kabi muayyan funksiyalar tahlili bilan cheklanadi. Bu esa nazariy qarashlarning tarqoqligiga va ushbu kategoriyani kompleks tushunishning yetishmasligiga olib keladi (Böhme et al., 2015; Gans, 2019).

Mazkur konseptual noaniqlik kripto-aktivlar bo‘yicha keyingi tadqiqotlar uchun mustahkam nazariy asosni ishlab chiqishga hamda samarali tartibga solish mexanizmlarini loyihalashga to‘sqinlik qiladi. Natijada kripto-aktivlarning ko‘p tarkibli mohiyatini hamda ularning moliyaviy, texnologik va institutsional jarayonlar kesishgan nuqtada faoliyat yuritishini qamrab oladigan integratsiyalashgan yondashuvni ishlab chiqish zarurati yuzaga keladi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi tizimli yondashuv asosida kripto-aktivlarning iqtisodiy tushunchasini aniqlashtirish hamda ularni raqamli iqtisodiyot doirasida gibrid iqtisodiy kategoriya sifatida tasniflashni asoslashdan iborat.

Adabiyotlar sharhi.

Kripto-aktivlar bo‘yicha ilmiy adabiyotlar bir nechta asosiy yo‘nalishlarda rivojlangan. Tadqiqotlarning birinchi guruhi kripto-aktivlarning texnologik asoslariga hamda ularning blokcheyn va taqsimlangan reyestr texnologiyalari bilan bog‘liqligiga e’tibor qaratadi. Nakamoto (2008) bitcoinning peer-to-peer elektron pul tizimi sifatidagi dastlabki modelini taklif etgan bo‘lsa, Tapscott va Tapscott (2016) blokcheyn texnologiyasining iqtisodiy va biznes munosabatlarini transformatsiya qilish salohiyatini ta’kidlagan. Ushbu ishlar kripto-aktivlarning texnologik infratuzilmasini tushuntirish uchun muhim ahamiyatga ega, biroq ularning kengroq iqtisodiy mohiyatini to‘liq ochib bermaydi.

Tadqiqotlarning ikkinchi guruhi kripto-aktivlarni asosan moliyaviy bozorlar va investitsion xatti-harakatlar nuqtai nazaridan ko‘rib chiqadi. Baur, Hong va Lee (2018) bitcoinni ayirboshlash vositasi va spekulyativ aktiv sifatida tahlil qilgan bo‘lsa, Corbet, Lucey va Yarovaya (2019) kriptovalyuta daromadliligi, volatilligi va investorlar kayfiyatini o‘rganadi. Ushbu tadqiqotlar kripto-aktivlarning investitsion va bozor xususiyatlarini ochib beradi, biroq ularning tahliliy diqqat markazi asosan narx dinamikasi, volatillik va moliyaviy xatti-harakatlar bilan cheklanadi.

Uchinchi yo‘nalish blokcheyn iqtisodiyoti va tokenizatsiya bilan bog‘liq. Catalini va Gans (2020) blokcheyn texnologiyalarining iqtisodiy mantig‘ini o‘rganadi, OECD (2020) esa tokenizatsiya va uning moliyaviy bozorlarga ta’sirini tahlil qiladi. Ushbu tadqiqotlar kripto-aktivlarni faqat to‘lov instrumentlari yoki spekulyativ aktivlar darajasiga tushirib bo‘lmasligini ko‘rsatadi, chunki ular raqamli moliyaviy ekotizimlarda texnologik va institutsional funksiyalarni ham bajaradi.

Shu bilan birga, institutsional iqtisodiyot nazariyasi kripto-aktivlarni tushunish uchun muhim metodologik asos yaratadi. North (1990) va Williamson (2000) iqtisodiy o‘zaro munosabatlar nafaqat bozor mexanizmlari, balki qoidalar, institutlar va boshqaruv tuzilmalari orqali ham shakllanishini ko‘rsatadi. Ushbu yondashuv kripto-aktivlar uchun dolzarbdir, chunki ularning muomalasi texnologik protokollar, bozor rag‘batlari, tartibga solish asoslari va ishonch mexanizmlariga bog‘liq.

Adabiyotlar sharhi shuni ko‘rsatadiki, mavjud tadqiqotlar kripto-aktivlarning turli jihatlarini tushuntiradi, biroq ular odatda bitta ustuvor o‘lchamga – texnologik infratuzilma, moliyaviy bozor xatti-harakatlari, investitsion funksiya yoki institutsional tartibga solishga urg‘u beradi. Shu sababli adabiyotlarda ushbu o‘lchamlarni yagona konseptual doira ichida birlashtiradigan integratsiyalashgan talqin yetishmaydi.

Mazkur bo‘shliq kripto-aktivlarni raqamli iqtisodiyotning gibrid iqtisodiy kategoriyasi sifatida tahlil qilish zaruratini asoslaydi.

Metodlar.

Tadqiqot sifatga asoslangan konseptual metodologiyaga tayanadi. U ekonometrik testlash yoki statistik o‘lchashni amalga oshirishni maqsad qilmaydi; aksincha, kripto-aktivlarning iqtisodiy mohiyatini nazariy jihatdan aniqlashtirishga yo‘naltirilgan. Ushbu metodologik yondashuv doirasida kripto-aktivlar moliyaviy instrumentlar, raqamli texnologiyalar va institutsional munosabatlar kesishgan nuqtada shakllanadigan murakkab iqtisodiy hodisa sifatida ko‘rib chiqiladi. Metodologik asos tizimli va institutsional yondashuvlarni birlashtiradi, bu esa kripto-aktivlarning ichki tuzilmasini hamda ularning muomalasida qoidalar, boshqaruv mexanizmlari va tartibga solish asoslarining rolini tahlil qilish imkonini beradi (North, 1990; Williamson, 2000).

Tadqiqotda kripto-aktivlarning muhim xususiyatlarini aniqlash va ikkilamchi belgilarni chetga chiqarish uchun ilmiy abstraksiyalash usulidan foydalaniladi. Kripto-aktivlarni ta’riflash bo‘yicha mavjud nazariy yondashuvlarni umumlashtirish va ularni yagona konseptual doiraga integratsiya qilish uchun tahlil va sintez usullari qo‘llaniladi.

Mavjud yondashuvlar tahlili adabiyotlar sharhi va foydalanilgan manbalar ro‘yxatiga kiritilgan manbalarni qiyosiy konseptual ko‘rib chiqish orqali amalga oshirildi. Ko‘rib chiqilgan ishlar ularning ustuvor tahliliy yo‘nalishiga ko‘ra quyidagicha guruhlashtirildi:

- texnologik yondashuv;
- moliyaviy-bozor yondashuvi;
- investitsion yondashuv;
- blokcheyn iqtisodiyoti yondashuvi;
- institutsional yondashuv.

Har bir guruh uchta mezon asosida baholandi: birinchidan, kripto-aktivlarning qaysi funksiyasiga urg‘u berilishi; ikkinchidan, qaysi o‘lcham yetarli darajada izohlanmaganligi; uchinchidan, mazkur yondashuv kripto-aktivlarni integratsiyalashgan iqtisodiy kategoriya sifatida talqin qilish imkonini berishi yoki bermasligi. Ushbu tartib mavjud talqinlarning tarqoq xususiyatini aniqlash va tizimli yondashuv zaruratini asoslash imkonini berdi.

Tizimli yondashuv kripto-aktivlarning ichki tuzilmasini hamda ularning asosiy tarkibiy qismlari – texnologik, iqtisodiy va institutsional komponentlari o‘rtasidagi aloqalarni aniqlash imkonini beradi. Qiyosiy usul kripto-aktivlar bo‘yicha mavjud talqinlarni baholash va ularning cheklovlarini ochib berish uchun qo‘llaniladi, bu esa integratsiyalashgan nazariy yondashuv zaruratini asoslashga xizmat qiladi.

Qo‘llanilgan metodologik vositalar majmui kripto-aktivlarni kompleks tahlil qilishni ta’minlaydi hamda raqamli iqtisodiyot kontekstida ularning iqtisodiy mohiyatini aniqlashtirishga hissa qo‘shadi.

Natijalar.

Tadqiqot natijalari adabiyotlar sharhida ko‘rib chiqilgan yondashuvlarning qiyosiy konseptual tahliliga asoslanadi. Tahlil shuni ko‘rsatadiki, kripto-aktivlarning

mavjud talqinlari odatda bitta ustuvor funksiya atrofida shakllanadi. Texnologik yondashuvlar kripto-aktivlarni blokcheyn va taqsimlangan reyestr infratuzilmasi orqali izohlaydi; moliyaviy-bozor yondashuvlari narx dinamikasi, volatillik va spekulyativ xatti-harakatlarga e'tibor qaratadi; investitsion yondashuvlar ularning aktiv sifatidagi rolini ta'kidlaydi; institutsional yondashuvlar esa qoidalar, boshqaruv mexanizmlari va tartibga solishdagi noaniqliklarni o'rganadi. Natijada har bir yondashuv kripto-aktivlarning muhim, biroq qisman jihatini qamrab oladi, ularning ko'p tarkibli kategoriya sifatidagi iqtisodiy mohiyatini esa to'liq ochib bermaydi.

Qiyosiy tahlil ko'rib chiqilgan yondashuvlarning uchta asosiy cheklovini aniqladi. Birinchidan, to'lovga yo'naltirilgan talqinlar kripto-aktivlarni ayirboshlash vositasigacha qisqartiradi va ularning investitsion hamda texnologik funksiyalarini izohlab bermaydi. Ikkinchidan, investitsion talqinlar bozor qiymati va spekulyativ xatti-harakatlarga e'tibor qaratadi, biroq texnologik protokollar va institutsional qoidalarning rolini yetarli darajada hisobga olmaydi. Uchinchidan, texnologiyaga yo'naltirilgan talqinlar blokcheyn infratuzilmasini tavsiflaydi, ammo kripto-aktivlarning qiymat yaratish, qiymatni uzatish va iqtisodiy muvofiqlashtirish jarayonlarida qanday ishtirok etishini to'liq ochib bermaydi. Ushbu cheklovlar kripto-aktivlarni alohida funksiyalar orqali emas, balki texnologik, iqtisodiy va institutsional komponentlarning o'zaro ta'siri orqali tahlil qilish zarurligini tasdiqlaydi.

Tizimli tahlil asosida kripto-aktivlarni an'anaviy iqtisodiy kategoriyalar doirasida yetarli darajada talqin qilib bo'lmasligi asoslanadi. Shu nuqtayi nazardan, kripto-aktivlarni moliyaviy instrumentlar, raqamli texnologiyalar va tovar ayirboshlash elementlari xususiyatlarini birlashtiruvchi gibrid iqtisodiy obyekt sifatida tushunish taklif etiladi.

Kripto-aktivlarning iqtisodiy mohiyati uchta asosiy komponent – texnologik, iqtisodiy va institutsional komponentlarning o'zaro ta'siri orqali namoyon bo'lishi aniqlanadi. Texnologik komponent taqsimlangan reyestrlar va raqamli infratuzilmaning faoliyat yuritishini ta'minlaydi; iqtisodiy komponent qiymat yaratish, qiymatni uzatish va qiymatni jamg'arish jarayonlarini aks ettiradi; institutsional komponent esa muomala qoidalari va tartibga solish mexanizmlarini belgilaydi.

Tadqiqot ushbu komponentlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik tizimli xususiyatga ega ekanini va raqamli iqtisodiyotda kripto-aktivlarning o'ziga xos jihatlarini belgilashini ko'rsatadi. Bu kripto-aktivlarni murakkab tuzilmaga ega mustaqil iqtisodiy kategoriya sifatida ko'rib chiqish imkonini beradi, ularni alohida moliyaviy instrumentlar yoki texnologik yechimlar turlarigacha qisqartirib bo'lmaydi.

Shunday qilib, olingan natijalar kripto-aktivlarning raqamli iqtisodiyotning gibrid kategoriyasi sifatidagi iqtisodiy mazmunini aniqlashtirish hamda ularni tahlil qilishda tarqoq yondashuvlardan tizimli yondashuvlarga o'tish zaruratini asoslash imkonini beradi.

Muhokama.

Tadqiqot natijalari qiyosiy adabiyotlar tahlilida aniqlangan cheklovlarni bartaraf etish imkonini beradi. Mavjud yondashuvlar kripto-aktivlarning muhim jihatlarini tushuntiradi, biroq ular odatda alohida o'lchamlarga – texnologik infratuzilma, bozor xatti-harakatlari, investitsion funksiya yoki institutsional tartibga solishga e'tibor

qaratadi. Kripto-aktivlarni gibrid iqtisodiy obyekt sifatida taklif etilayotgan tushunish ularning ko‘p tarkibli mohiyatini aks ettiradi hamda texnologik, iqtisodiy va institutsional o‘lchamlarni yagona tahliliy doira ichida integratsiya qilish imkonini beradi (Catalini & Gans, 2020).

Nazariy nuqtayi nazardan, bu kripto-aktivlarning alohida funksiyalarini tahlil qilishdan ularni mustaqil iqtisodiy kategoriya sifatida tizimli ko‘rib chiqishga o‘tishni anglatadi. Bunday o‘tish ularning raqamli iqtisodiyotdagi o‘ziga xos rolini tushuntirish va murakkab mohiyatini qamrab olishga qodir yangi tahliliy vositalar zaruratini asoslash uchun muhimdir.

Kripto-aktivlarning iqtisodiy mohiyatini aniqlashtirish amaliy jihatdan ham muhim ahamiyatga ega, chunki u yanada izchil konseptual asos va samaraliroq tartibga solish mexanizmlarini ishlab chiqish uchun poydevor yaratadi. Aniq nazariy talqinning mavjud emasligi akademik va amaliy kontekstlarda noaniqlikni yuzaga keltiradi, bu esa institutsional qarorlar qabul qilish samaradorligini pasaytiradi.

Olingan natijalar raqamli iqtisodiyot sohasidagi zamonaviy tadqiqotlar bilan mos keladi, chunki ularda kripto-aktivlarni tahlil qilishda ularning texnologik va iqtisodiy xususiyatlarini hisobga oluvchi kompleks yondashuv muhimligi ta’kidlanadi (OECD, 2020). Biroq mavjud tadqiqotlardan farqli ravishda, mazkur tadqiqot kripto-aktivlarni tizimli iqtisodiy hodisa sifatida ko‘rib chiqish imkonini beruvchi integratsiyalashgan talqinni taklif etadi.

Shunday qilib, natijalar kripto-aktivlar nazariyasini rivojlantirish ularning gibrid mohiyatini aks ettiruvchi tizimli yondashuvga asoslanishi lozimligini tasdiqlaydi. Taklif etilgan talqin ilmiy tahlil doirasini kengaytiradi hamda keyingi tadqiqotlar, jumladan, tasniflash doiralarini ishlab chiqish va raqamli iqtisodiyot doirasida kripto-aktivlarning institutsional hamda amaliy jihatlarini o‘rganish uchun nazariy asos yaratadi.

Xulosa.

Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, kripto-aktivlarni ta’riflash bo‘yicha mavjud yondashuvlar ularni kompleks tushunishni ta’minlamaydi, chunki ular alohida funksiyalarning tarqoq tahliliga asoslanadi va raqamli iqtisodiyot doirasida ularning murakkab mohiyatini to‘liq qamrab olmaydi.

Tadqiqot kripto-aktivlarning iqtisodiy mazmunini ularni moliyaviy instrumentlar, raqamli texnologiyalar va tovar ayirboshlash elementlari xususiyatlarini birlashtiruvchi gibrid iqtisodiy obyekt sifatida talqin qilishni asoslash orqali aniqlashtiradi. Ushbu yondashuv mavjud talqinlarning cheklovlarini bartaraf etish hamda kripto-aktivlarni tizimli tahlil qilish uchun asos yaratish imkonini beradi.

Tadqiqotning ilmiy hissasi kripto-aktivlarning iqtisodiy mohiyatini raqamli iqtisodiyotning gibrid kategoriyasi sifatida aniqlashtirish hamda ularni tahlil qilishda tarqoq yondashuvlardan tizimli yondashuvlarga o‘tish zaruratini asoslashdan iborat.

Olingan natijalar kripto-aktivlar bo‘yicha keyingi tadqiqotlar, jumladan, tasniflash doiralarini ishlab chiqish hamda raqamli iqtisodiyot doirasida ularning tartibga solinishi va faoliyat yuritishini belgilovchi institutsional mexanizmlarni tahlil qilish uchun nazariy asos yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Baur, D. G., Hong, K., & Lee, A. D. (2018). Bitcoin: Medium of exchange or speculative asset? *Journal of International Financial Markets, Institutions and Money*, 54, 177–189.

2. Böhme, R., Christin, N., Edelman, B., & Moore, T. (2015). Bitcoin: Economics, Technology, and Governance. *Journal of Economic Perspectives*, 29(2), 213–238.

3. Catalini, C., & Gans, J. S. (2020). Some simple economics of the blockchain. *Communications of the ACM*, 63(7), 80–90.

4. Corbet, S., Lucey, B., & Yarovaya, L. (2019). Cryptocurrency returns, volatility and investor sentiment. *Finance Research Letters*, 28, 1–6.

5. Nakamoto, S. (2008). *Bitcoin: A peer-to-peer electronic cash system*.

6. North, D. C. (1990). *Institutions, institutional change and economic performance*. Cambridge University Press.

7. OECD. (2020). *Tokenisation of assets and potential implications for financial markets*.

8. Tapscott, D., & Tapscott, A. (2016). *Blockchain revolution: How the technology behind Bitcoin is changing money, business, and the world*. Penguin.
Williamson, O. E. (2000). The new institutional economics: Taking stock, looking ahead. *Journal of Economic Literature*, 38(3), 595–613.

9. Williamson, O. E. (2000). The new institutional economics: Taking stock, looking ahead. *Journal of Economic Literature*, 38(3), 595–613.

O‘ZBEKISTONDA YASHIL STARTAPLAR UCHUN SUN’IY INTELLEKT YORDAMIDA ISHLAYDIGAN KRAUDFANDING PLATFORMALARI: IMKONIYATLAR, ISHONCH VA YASHIL YUVISH XAVFLARI

Eshbayev Oybek
Raqamli iqtisodiyot kafedrasi mustaqil tadqiqotchisi,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Toshkent, Uzbekiston
ORCID: 0000-0002-1018-0899

Annotatsiya. Strukturaviy tenglamalar (SEM) tahlili integratsiyalashgan yondashuvning maqsadi kontseptual modelni taqdim etishdan iborat. Ishonch dinamikasi va investitsiya niyatlarini tahlil qilish, shuningdek greenwashing bilan bog‘liq omillarni ham hisobga olish maqsadida, ayrim qaror qabul qilish mezonlari va baholash ko‘rsatkichlari Analitik ierarxiya jarayoni (AHP) orqali aniqlangan ustuvorliklar to‘plami bilan birlashtirildi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, investorlarning platformaga nisbatan ijobiy qarashlari hamda shaffoflikka bo‘lgan kutishlari sun’iy intellekt yashil startaplar, kraudfanding platformalari va ekologik tashabbuslarga nisbatan shakllanadigan idrok etilgan ishonchning vositachilik ta’siri orqali ularning investitsiya niyatlarini ijobiy shakllantirishini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: sun’iy intellekt yordamida kraudfanding, yashil startaplarni moliyalashtirish, investor ishonchining shakllanishi, strukturaviy tenglamalar modeli (SEM), analitik ierarxiya jarayoni (AHP)

Kirish. Ba’zi tadqiqotchilar tadbirkorlik niyatlarini o‘rganishda Ajzenning rejalashtirilgan xulq-atvor nazariyasi modeliga tayanadilar. Ushbu model yangi biznes boshlashga bo‘lgan shaxsiy urinishni uchta asosiy omil orqali izohlaydi: asoschining munosabati, harakat qilish niyati va nazorat darajasi haqidagi idrok [1].

Avvalgi tadqiqotlarga ko‘ra, kraudfanding platformalaridan foydalanishda idrok etilgan foydalilik va idrok etilgan ishonch darajasining yuqori bo‘lishi investitsiya niyatlarini kuchaytiruvchi muhim omillar hisoblanadi [2,3,4,5,6]. Kraudfanding platformasi tushunchasiga bag‘ishlangan muhim tadqiqotlardan birida olimlar raqamli platforma quyidagi uch turdagi afzalliklarni yaratishi kerakligini ta’kidlaydilar: kapitalni safarbar qilish, tarmoq orqali bog‘lanish imkoniyati va keng doiradagi investorlar uchun oson kirish imkoniyati. Tadqiqotning asosiy maqsadi — greenwashing xavflariga javob berishda barqaror moliyalashtirishga erishishda sun’iy intellekt va investor ishonchining rolini tahlil qilish.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Böckel, Hörisch, & Tenner kraudfanding bo‘yicha mavjud adabiyotlarga keng qamrovli sharh berib, uni tadbirkorlik moliyalashtirishining boshqa shakllari, masalan, venchur kapitali va “angel” investitsiyalari bilan taqqoslaydi [3]. Turli nazariy modellar kontekst va taxminlar o‘rtasidagi farqlarni hisobga olmagan holda birlashtirilganda jiddiy muammolar yuzaga keladi. Masalan, institutsional muhit, tartibga solish tuzilmalari va texnologik tayyorgarlik darajasi bilan moslikning yetishmasligi bunga sabab bo‘lishi mumkin[5,7,8].

Sun’iy intellektni joriy etish va kraudfanding platformalari yashil startaplarni moliyalashtirishga hissa qo‘shuvchi omillar sifatida e’tirof etilayotgan bo‘lsa-da, ayniqsa pandemiyadan keyingi davr kabi bozor o‘tish bosqichlarida ushbu omillar bilan yashil moliya natijalari o‘rtasidagi bog‘liqlik bo‘yicha empirik dalillar yetarli emas [9,10]. Mazkur konseptual yondashuvlarni amaliyotda qo‘llash murakkab bo‘lib, ular tadbirkorlar uchun barqaror moliyalashtirish konsepsiyasini bevosita amaliy shaklda tatbiq etish imkonini bermasligi ham ko‘rsatilgan [6,1,2,3,4].

Ba’zi mualliflarning fikriga ko‘ra, startaplarda strategik rejaning mavjud emasligiga ikki asosiy sabab bo‘lishi mumkin: birinchidan, asoschi kundalik operatsion faoliyat bilan haddan tashqari band bo‘lib, uzoq muddatli rejalashtirishga e’tibor qaratmasligi; ikkinchidan esa, biznes kengayishidan oldin vorislik rejasini tayyorlash uchun hali yetarli vaqt bor degan qarash. Ko‘plab tadqiqotlar investitsiya qarorlariga ishonch, platforma shaffofligi va raqamli muhitning ta’siri mavjudligini ko‘rsatadi [4,5,6,1,2,3,4,5].

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotning metodi bunday platformalarni baholash va qiyosiy empirik tahlillarni amalga oshirish uchun mos bo‘lgan integratsiyalashgan SEM–AHP modelini taqdim etishdan iborat. Shuningdek, ushbu hodisani integratsiyalashgan yondashuv asosida tahlil qilish orqali ushbu sohadagi nazariy va empirik adabiyotlarni boyitish ham ko‘zda tutilgan. Tadqiqot, bundan tashqari, greenwashing xavflarini hisobga olgan holda mazkur omillarning investitsiya niyatlariga ta’sirini ham tahlil qilishni maqsad qiladi.

Tahlil va natijalar. Ushbu natijalar taklif etilgan integratsiyalashgan SEM–AHP konseptual asosining haqiqiyligini qo‘llab-quvvatlayotgandek ko‘rinadi va shu orqali sun’iy intellekt yordamida ishlaydigan kraudfanding platformalarini amaliyotda baholash hamda rivojlantirish uchun ishonchga asoslangan kraudfanding modeli integratsiyasiga tayanuvchi tahliliy baholash usulini taqdim etadi.

1-jadval. Yashil startaplar uchun sun’iy intellekt yordamida ishlaydigan kraudfanding platformalarini baholash bo‘yicha AHP modeli vaznlangan supermatritsasi

O‘zgaruvchilar	Hamjamiyat-ishonch	Yuqori AI shaffofligi	Gibrid AI–inson	Sun’iy intellekt	Greenwashing xavfini	Investor ishonchi	Platforma shaffofligi	Maqsad
Hamjamiyat-ishonch platformasi	0.000	0.000	0.000	0.681	0.096	0.681	0.091	0.194
Yuqori AI shaffofligi platformasi	0.000	0.000	0.000	0.250	0.210	0.069	0.727	0.157
Gibrid AI–inson platformasi	0.000	0.000	0.000	0.069	0.694	0.250	0.182	0.149

Sun’iy intellekt ishonchliligi	0.000	0.000	0.000	0.000	0.000	0.000	0.000	0.125
Greenwashing xavfini nazorat qilish	0.000	0.000	0.000	0.000	0.000	0.000	0.000	0.125
Investor ishonchi	0.000	0.000	0.000	0.000	0.000	0.000	0.000	0.125
Platforma shaffofligi	0.000	0.000	0.000	0.000	0.000	0.000	0.000	0.125
Maqsad	0.000	0.000	0.000	0.000	0.000	0.000	0.000	0.000

Manba: tadqiqotchining olib borgan tahlili asosida tuzilgan

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, sun’iy intellektdan foydalanadigan kraudfanding platformalari ko‘pincha yashil startaplarni moliyalashtirish muhitida samaraliroq faoliyat yuritish imkoniyatiga ega bo‘ladi va bu orqali investitsiya natijalarining yanada shaffof bo‘lishiga, ba’zi hollarda esa kutilmagan ijobiy natijalarga ham olib keladi [9,10]. Uchta platforma muqobili orasida hamjamiyat-ishonchga asoslangan kraudfanding platformasi konfiguratsiyasi yashil startaplar uchun moliyalashtirish muvaffaqiyati shartli ehtimoliga eng katta hissa qo‘shuvchi omil sifatida namoyon bo‘ladi. Sun’iy intellekt shaffofligi platformalarining qariyb yarmi (0.314) hamda gibrid AI–inson platformalarining deyarli yarmi (0.299) ustuvorligi pastroq bo‘lgan guruhga kiradi. Ushbu guruhda investorlar ishonchining kuchli shakllanish ehtimoli past bo‘lib, natijada mazkur kraudfanding baholash modeli doirasida moliyalashtirish muvaffaqiyatiga erishish ehtimoli ham past bo‘ladi.

2-jadval. Sun’iy intellekt yordamidagi kraudfanding platformasi modeli bo‘yicha strukturaviy tenglamalar modeli (SEM) natijalari

	Koef.	Std. xato	z	P>z	95% ishonch oralig‘i
Strukturaviy model					
AI ishonchliligi signali					
AI shaffofligi indeksi	0.796	0.054	14.850	0.000	0.691 – 0.901
Ekologik ta’sir kutishlari	-0.077	0.082	-0.940	0.346	-0.237 – 0.083
Yashil loyiha sifati	-0.015	0.080	-0.180	0.856	-0.171 – 0.142
Doimiy had (_cons)	0.913	0.240	3.810	0.000	0.444 – 1.383
Platformaga ishonch ko‘rsatkichi					
AI shaffofligi indeksi	0.395	0.083	4.760	0.000	0.232 – 0.557
Raqamli tekshiruv (due diligence) ko‘rsatkichi	0.092	0.096	0.960	0.339	-0.097 – 0.280
Ekologik ta’sir kutishlari	-0.130	0.049	-2.630	0.009	-0.226 – -0.033
Investorning investitsiya niyati	0.467	0.067	6.950	0.000	0.335 – 0.598
Doimiy had (_cons)	-0.360	0.277	-1.300	0.193	-0.903 – 0.182
Shaffoflik idroki					

Raqamli tekshiruv (due diligence) ko‘rsatkichi	0.419	0.092	4.560	0.000	0.239 – 0.599
Investorning investitsiya niyati	0.343	0.092	3.750	0.000	0.164 – 0.523
Greenwashing xavfini idrok etish	-0.168	0.078	-2.160	0.031	-0.320 – -0.015
Doimiy had (_cons)	0.534	0.566	0.940	0.345	-0.575 – 1.643
Xatolik dispersiyalari					
var(e.AI ishonchliligi signali)	0.213	0.028			
var(e.Platformaga ishonch ko‘rsatkichi)	0.183	0.024			
var(e.Shaffoflik idroki)	0.327	0.042			

Manba: tadqiqotchining olib borgan tahlili asosida tuzilgan

Ushbu integratsiyalashgan modelda konstruktorlarni o‘lchash imkoniyati muhim omil sifatida yana bir bor e’tiborga olindi. Shu sababli har bir yashirin konstruktiv yanada aniqroq tavsiflash uchun indikator raqamlari belgilandi. Bundan tashqari, SEM baholash natijalari shuni ko‘rsatadiki, sun’iy intellekt shaffofligi signallari hamda raqamli platformalarda bilim yaratish jarayonlari yashil innovatsiyalarni moliyalashtirish bilan bog‘liq inqiroz sharoitida investorlarning investitsiya niyatlariga sezilarli darajada ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Xulosa va takliflar. Ushbu tadqiqot ishonch shakllanishi mexanizmlarini yanada aniqroq tushuntirishga qaratilgan keyingi empirik tadqiqotlar uchun konseptual asos yaratishi mumkin. Aynan shu jihat mazkur tadqiqotning asosiy tahliliy hissasi hisoblanadi. Bu yondashuv yashil startaplarni moliyalashtirish hamda umuman raqamli moliya sohasida nazariy tushunchalarni kengaytirishga yordam beradi. Integratsiyalashgan analitik model doirasidagi sun’iy intellekt yordamida ishlaydigan kraudfanding tizimini amaliyotga joriy etishdan oldin turli mintaqalar va kraudfanding platformalaridan ma’lumotlar to‘plash, empirik ma’lumotlar bazalarini hamda o‘lchov indikatorlarini shakllantirish muhimdir. Shuningdek, kraudfanding ekotizimi bilan bog‘liq ishonchli dalillarni to‘plash zarur. Bu esa tahliliy modelni baholashga, shuningdek investitsiya niyatini belgilovchi omillarni yanada aniq va ishonchli talqin qilishga imkon beradi. Ushbu jarayon davomida ko‘proq uzoq muddatli (longitudinal) empirik ma’lumotlar yig‘ish imkoniyati paydo bo‘ladi va zarurat tug‘ilganda tahliliy konseptual asos yana bir bor takomillashtirilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. T, R., Sutha, V., Alsalami, Z., Sruthi, P., Desai, P., & Egambergan, K. (2025). Innovative Blockchain-Integrated Crowdfunding Solution for Sustainable Business Startups. *2025 International Conference on Metaverse and Current Trends in Computing (ICMCTC)*, 1-4. https://doi.org/10.1109/icmctc62214.2025.11196570
2. Nagesh, K., & Murugan, K. (2025). Fintech and sustainable finance: impact of digital finance in promoting green investments. *mLAC Journal for Arts, Commerce and Sciences (m-JACS) ISSN: 2584-1920*. https://doi.org/10.59415/mjacs.v3i1.246

3. Böckel, A., Hörisch, J., & Tenner, I. (2020). A systematic literature review of crowdfunding and sustainability: highlighting what really matters. *Management Review Quarterly*, 71, 433-453. https://doi.org/10.1007/s11301-020-00189-3
4. Gregoriades, A., & Themistocleous, C. (2025). Improving Crowdfunding Decisions Using Explainable Artificial Intelligence. *Sustainability*. https://doi.org/10.3390/su17041361
5. Rizwan, A., & Mustafa*, F. (2022). Fintech Attaining Sustainable Development: An Investor Perspective of Crowdfunding Platforms in a Developing Country. *Sustainability*. https://doi.org/10.3390/su14127114
6. Bento, N., Gianfrate, G., & Thoni, M. (2019). Crowdfunding for sustainability ventures. *Journal of Cleaner Production*. https://doi.org/10.1016/j.jclepro.2019.117751
7. Carè, R., Fatima, R., Cerciello, M., & Taddeo, S. (2025). Exploring the Landscape of Green Crowdfunding: Trends, Themes, and Insights from a Bibliometric Review. *Finance Research Letters*. https://doi.org/10.1016/j.frl.2025.107143
8. Gai, L., Algeri, C., Ielasi, F., & Manganiello, M. (2025). Sustainability-Oriented Equity Crowdfunding: The Role of Proponents, Investors, and Sustainable Development. *Sustainability*. https://doi.org/10.3390/su17052188
9. Srikanth, D. (2025). AI-Powered Entrepreneurial Ecosystems: A Computational Model For Sustainable Startup Growth In Green Tech Sectors. *International Journal of Environmental Sciences*. https://doi.org/10.64252/ewn4zw14
10. Aziza, K. (2025). Crowdfunding in Uzbekistan: Trends and Development Directions. *International Journal Of Management And Economics Fundamental*. https://doi.org/10.37547/ijmef/volume05issue08-03

KREDIT RISKLARINI BAHOLASHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR VA SUN'IY INTELLEKTDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH

Hakimova Nargiza Abdukarimovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tayanch doktoranti
ORCID:0000-0003-3339-0650

Annotatsiya. Ushbu maqolada tijorat banklarida kredit risklarini baholash va boshqarish tizimini zamonaviy texnologiyalar hamda sun'iy intellekt asosida takomillashtirish masalalari tadqiq etiladi. Global iqtisodiy o'zgarishlar, moliya bozorlaridagi beqarorlik va raqamli transformatsiya sharoitida kredit riskini tezkor, aniq va izohlanadigan tarzda baholash zarurati asoslab beriladi. Tadqiqotda bank risklarining nazariy asoslari, kredit riski mazmuni, an'anaviy baholash usullarining cheklovlari hamda katta hajmdagi ma'lumotlar (big data), mashinaviy o'qitish (machine learning), raqamli skoring va erta ogohlantirish tizimlarining ustunliklari tahlil qilinadi. Xorijiy va O'zbekiston amaliyoti qiyosiy ko'rib chiqilib, kredit byurosi ma'lumotlari, real vaqt monitoringi, model shaffofligi va kiberxavfsizlik bilan bog'liq masalalarning amaliy ahamiyati yoritiladi. Tadqiqot natijasida kredit risklarini baholashni takomillashtirish bo'yicha banklar uchun ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar: kredit riski, bank risklari, risklarni baholash, sun'iy intellekt, raqamli texnologiyalar, mashinaviy o'qitish, kredit skoring, risk-menejment, tijorat banklari.

Kirish. So'nggi yillarda jahon iqtisodiyotida kuzatilayotgan globallashuv jarayonlari, geosiyosiy noaniqlik, inflyatsion bosim va moliya bozorlaridagi o'zgaruvchanlik banklar zimmasiga risklarni yanada aniq o'lchash va tezkor boshqarish vazifasini yuklamoqda. Ayniqsa, kredit operatsiyalarining bank aktivlari tarkibidagi salmog'i yuqori bo'lgan sharoitda kredit riskini baholashdagi xatolar kapital yetarliligi, likvidlik va foydalilikka bevosita salbiy ta'sir ko'rsatadi [1].

Raqamli iqtisodiyotning kengayishi banklarda katta hajmdagi ma'lumotlardan foydalanish, qarz oluvchining moliyaviy xulq-atvorini chuqurroq kuzatish va kredit qarorlarini avtomatlashtirish uchun yangi imkoniyatlar yaratdi. Shu bilan birga, sun'iy intellekt va mashinaviy o'qitishdan foydalanish model xatoligi, ma'lumotlar sifati, tarafkashlik, shaffoflik hamda kiberxavfsizlik bilan bog'liq yangi tavakkalchiliklarni ham yuzaga chiqarmoqda [2] [3].

Maqolaning maqsadi tijorat banklarida kredit risklarini baholashda zamonaviy texnologiyalar va sun'iy intellektdan foydalanishning nazariy asoslari hamda amaliy natijalarini tahlil qilish, xorijiy va O'zbekiston amaliyoti asosida mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflarni ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot jarayonida qiyosiy tahlil, mantiqiy umumlashtirish, statistik guruhlash, trend tahlili va tizimli yondashuv usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada ilmiy abstraksiyalash, qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv, statistik guruhlash va institutsional tahlil usullaridan foydalanildi. Xorijiy amaliyotni baholashda BIS, IMF, ECB, EBA, FSB, OECD va Jahon banki materiallari umumlashtirildi; O‘zbekiston amaliyoti bo‘yicha esa Markaziy bankning statistik byulletenlari, moliyaviy barqarorlik sharhlari va yillik hisobotlari asos qilib olindi. Tadqiqotning amaliy qiymati xorijiy tajriba bilan milliy bank tizimi o‘rtasidagi institutsional tafovutlarni aniqlash va ularni qisqartirishga qaratilgan takliflar ishlab chiqilishida namoyon bo‘ladi.

Tahlil va natijalar. Bank risklari odatda kredit, bozor, likvidlik, operatsion va obro‘ risklari kabi asosiy guruhlarga ajratiladi. Mazkur risklar bir-biri bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lsa-da, bank aktivlarining eng katta qismi kreditlar hisobiga shakllanishi sababli kredit riski markaziy o‘rinni egallaydi. Kredit riski qarz oluvchining shartnomada belgilangan to‘lovlarni to‘liq va o‘z vaqtida amalga oshirmasligi oqibatida bank zarar ko‘rish ehtimolini anglatadi [4].

Xalqaro bank amaliyotida kredit riskini o‘lchashda uchta tayanch ko‘rsatkichdan keng foydalaniladi: defolt ehtimoli (Probability of Default — PD), defolt holatidagi yo‘qotish darajasi (Loss Given Default — LGD) hamda defolt paytidagi talab hajmi (Exposure at Default — EAD). Aynan ushbu ko‘rsatkichlar asosida kutilayotgan yo‘qotishlar, iqtisodiy kapital va riskka mos narxlash mexanizmlari shakllantiriladi [5].

An’anaviy kredit tahlili ko‘pincha moliyaviy hisobotlar, pul oqimlari, garov ta’minoti, kredit tarixi va ekspert bahosiga tayanadi. Bunday yondashuvning afzalligi uning tushunarli va amaliyotda sinovdan o‘tganligida bo‘lsa, cheklovi qaror qabul qilishning sekinligi, kam miqdordagi o‘zgaruvchilar bilan ishlashi va noan’anaviy ma’lumotlarni yetarli darajada qamrab olmasligidadir [6].

Zamonaviy adabiyotlarda kredit riskini baholashning yangi bosqichi sifatida mashinaviy o‘qitish algoritmlari ko‘rib chiqiladi. So‘nggi ilmiy sharhlar ushbu usullar katta va murakkab ma’lumotlar to‘plamida an’anaviy modellarga nisbatan yuqoriroq bashorat kuchiga ega ekanini ko‘rsatadi, biroq ularni tijorat amaliyotiga joriy etishda izohlanuvchanlik va model validatsiyasi hal qiluvchi masala bo‘lib qolmoqda [7] [8].

Xorijiy bank amaliyoti shuni ko‘rsatadiki, kredit risklarini boshqarishda texnologik transformatsiya endi faqat operatsion samaradorlik masalasi emas, balki moliyaviy barqarorlik omiliga aylanib ulgurdi. Yevropa Markaziy banki sun’iy intellekt banklarga risklarni tezroq baholash, kapital va likvidlik rejalashtirishni yaxshilash hamda tahliliy jarayonlarni avtomatlashtirish imkonini berishini ta’kidlaydi. Shu bilan birga, modelning “qora quti” xususiyati, bir xil texnologik ta’minotchilarga yuqori darajada qaramlik va ma’lumotlar xatoligi tizimli tavakkalchiliklarni kuchaytirishi mumkinligi qayd etiladi [9].

Yevropa bank nazorati amaliyotida sun’iy intellektdan foydalanish ko‘lami bosqichma-bosqich kengaymoqda. Yevropa bank organi ma’lumotlariga ko‘ra, 2024-yil bahoridagi so‘rov natijalarida Yevropa Ittifoqi banklarining aksariyati allaqachon regressiya, qaror daraxtlari, tabiiy tilni qayta ishlash va neyron tarmoqlar kabi usullardan foydalanayotganini bildirgan, qariyb 40 foizi esa umumiy maqsadli sun’iy intellekt yechimlarini sinovdan o‘tkazayotgan yoki amaliyotga joriy qilgan. Bu holat

kredit baholashning yanada ma’lumotga boy, dinamik va individual yondashuvga o‘tishini anglatadi [10].

Xalqaro moliyaviy institutlar, xususan, Moliyaviy barqarorlik kengashi hamda Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti, moliya sohasida sun’iy intellektni joriy etishda boshqaruv, javobgarlik, tushuntiriluvchanlik, adolatlilik va inson nazoratini saqlab qolish zarurligini alohida ta’kidlaydi. Demak, xorijiy amaliyotning asosiy xulosasi shundan iboratki, sun’iy intellekt kredit riskini kamaytirishning samarali vositasi bo‘lishi mumkin, biroq u kuchli institutsional nazorat va sifatli ma’lumotlar infratuzilmasi bilan uyg‘unlashgandagina barqaror natija beradi [11].

Jahon banki va unga aloqador tadqiqotlar kichik va o‘rta biznes hamda “ingichka kredit tarixiga ega” mijozlar segmentida muqobil ma’lumotlardan foydalanish moliyaviy inklyuziyani kuchaytirishini ko‘rsatadi. To‘lov intizomi, savdo aylanmasi, tranzaksiya izi va raqamli xulq-atvor ko‘rsatkichlari qo‘llanilganda, banklar qarz oluvchini faqat garov yoki rasmiy hisobot asosidagina emas, balki real iqtisodiy faollik nuqtayi nazaridan ham baholash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu, ayniqsa, kichik biznes uchun kreditning mavjudligini oshirishda muhimdir.

1-jadval

Xorijiy amaliyotda kredit risklarini raqamli boshqarish bo‘yicha ayrim yondashuvlar

Institut/amaliyot	Asosiy xulosa	O‘zbekiston uchun saboq
ECB va EBA amaliyoti	AI kredit va likvidlik riskini baholashni tezlashtiradi, biroq model shaffofligi va ta’minotchi konsentratsiyasi muammoli	AI joriy etishda izohlanuvchanlik va model auditini majburiy qilish kerak
FSB va OECD tavsiyalari	Boshqaruv, javobgarlik, ma’lumotlar sifati va adolatlilik tamoyillari texnologiyadan ajralmas	Regulyator va banklar darajasida model tavakkalchiligi siyosatini kuchaytirish lozim
Jahon banki va fintech yondashuvi	Muqobil ma’lumotlar “ingichka tarixga ega” mijozlarni baholashni yaxshilaydi	Kichik biznes va jismoniy shaxslarga kreditlashda tranzaksion va to‘lov ma’lumotlarini keng qo‘llash maqsadga muvofiq

Manba: ECB, EBA, FSB, OECD va Jahon banki materiallari asosida muallif ishlanmasi.

O‘zbekiston bank tizimida so‘nggi yillarda kreditlash ko‘lami kengayib, raqamli xizmatlar sezilarli darajada rivojlandi. Markaziy bankning 2025-yil 1-yanvar holatiga doir ma’lumotlariga ko‘ra, tijorat banklarining jami kreditlari 533,1 trln so‘mga, jami depozitlari esa 308,7 trln so‘mga yetgan. Bu ko‘rsatkichlar kredit

portfelini boshqarish sifatiga nisbatan talabni oshiradi, chunki kreditlar bank aktivlarining asosiy drayveri bo‘lib qolmoqda [12].

Shu bilan birga, 2025-yil 1-yanvar holatida muammoli kreditlar hajmi 21,2 trln so‘mni, ularning jami kreditlardagi ulushi esa 4,0 foizni tashkil etdi. Markaziy bankning 2025-yil birinchi yarim yilligi bo‘yicha moliyaviy barqarorlik sharhida esa ushbu ko‘rsatkich 3,8 foizgacha pasaygani, kapital monandliligi 17,4 foiz, likvidlikni qoplash koeffitsiyenti 195 foiz darajasida shakllangani qayd etilgan. Bu holat tizimda ma’lum darajada barqarorlik mavjudligini ko‘rsatsa-da, kredit riskini baholash sifatini yanada oshirish uchun institutsional zaxiralar hanuz katta ekanini bildiradi [13] [14].

O‘zbekiston amaliyotida kredit riskini boshqarishda kredit byurolari va kredit tarixi bazalari muhim rol o‘ynamoqda. Markaziy bankning 2024-yil yillik hisobotida qayd etilishicha, KATM kredit byurosi bilan kredit axboroti almashuvchi foydalanuvchilar soni 2025-yil 1-yanvar holatiga 773 taga, kredit axborotini yetkazib beruvchilar soni esa 777 taga yetgan; bundan tashqari, 60 dan ortiq turdagi kredit hisobotlari taqdim etilmoqda hamda “FREEZE” xizmati ishga tushirilgan. Bu jarayon ma’lumotlar bazasining kengayayotganini ko‘rsatadi va zamonaviy skoring modellarini yaratish uchun zarur infratuzilmaviy asosni shakllantiradi [15].

2-jadval

O‘zbekiston bank tizimining kredit riskiga doir ayrim ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkich	Qiymat	Izoh
Jami kreditlar (2025-yil 1-yanvar)	533,1 trln so‘m	Kredit portfeli ko‘lami keng, risk baholash sifati hal qiluvchi omil
Jami depozitlar (2025-yil 1-yanvar)	308,7 trln so‘m	Resurs bazasi bilan kredit o‘sishi o‘rtasidagi muvozanat muhim
Muammoli kreditlar ulushi (2025-yil 1-yanvar)	4,0 %	Portfel sifati ustidan nazorat saqlanayotganini ko‘rsatadi
Muammoli kreditlar ulushi (2025-yil I yarim yilligi)	3,8 %	Barqarorlik sharhiga ko‘ra pasayish tendensiyasi mavjud
Kredit byurosi foydalanuvchilari	773 ta	Kredit axboroti almashinuvi tarmog‘i sezilarli kengaygan
Kredit axboroti yetkazib beruvchilari	777 ta	Ma’lumotlar bazasi qamrovi kengayib bormoqda

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

Biroq amaliyotda kredit qarorlarining sezilarli qismi hanuz moliyaviy hisobot, garov qiymati, kredit tarixi va kredit inspektori xulosasiga tayanadi. Ayniqsa, kichik biznes, o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar va raqamli maydonda faol bo‘lgan mijozlar bo‘yicha noan’anaviy ma’lumotlardan foydalanish ko‘lami cheklangan. Natijada

banklar ayrim segmentlarda real to‘lov intizomini erta aniqlash, mijozning daromad oqimi va xulq-atvor riskini dinamik kuzatish imkoniyatidan to‘liq foydalana olmayapti.

O‘zbekiston amaliyotining yana bir xususiyati shundaki, raqamlashtirish darajasi oshib borayotganiga qaramay, kredit riskini baholashning sun’iy intellektga asoslangan modellari bo‘yicha umumsektor miqyosidagi standartlashtirilgan talablar va model tavakkalchiligi boshqaruvi endi-endi shakllanmoqda. Bu esa model shaffofligi, qarorlarni izohlash, ma’lumotlar etikasi, kiberxavfsizlik va ichki audit masalalarini yanada muhimlashtiradi. Shunday ekan, O‘zbekiston bank tizimi uchun masala faqat yangi algoritm sotib olish emas, balki ma’lumotlar, boshqaruv va nazoratning yaxlit ekotizimini yaratishdan iboratdir.

Xorijiy amaliyot bilan O‘zbekiston amaliyotini qiyoslash bir necha xulosani beradi. Birinchidan, xorijiy banklar sun’iy intellektni kredit riskini baholashning alohida bosqichida emas, balki mijozni tanlash, narxlash, erta ogohlantirish, portfel monitoringi va stress-sinov jarayonlariga integratsiyalashgan boshqaruv vositasi sifatida ko‘rmoqda. O‘zbekistonda esa raqamlashtirish ko‘proq ma’lumotlarni yig‘ish va operatsion tezkorlikni oshirish darajasida rivojlangan bo‘lib, analitik chuqurlik va model integratsiyasi hali yetarli emas.

Ikkinchidan, Yevropa va boshqa rivojlangan bozorlar tajribasi kredit riskini baholashda izohlanuvchan modellar, model validatsiyasi va sun’iy intellekt etikasi talablarini kuchaytirayotgan bir paytda, O‘zbekiston bank amaliyotida ushbu yo‘nalish bo‘yicha uslubiy hujjatlar va ichki protseduralarni yanada tizimlashtirish ehtiyoji saqlanib qolmoqda. Uchinchi jihat shundan iboratki, xorijiy amaliyotda muqobil ma’lumotlar — savdo tranzaksiyalari, e-tijorat oqimlari, kommunal to‘lovlar, raqamli xulq-atvor — kredit qobiliyatini baholashda faol qo‘llanilmoqda; O‘zbekistonda bunday yondashuv katta istiqbolga ega bo‘lsa-da, uning institutsional tatbiqi hali boshlang‘ich bosqichda.

Shu bilan birga, O‘zbekiston amaliyotida ham muhim ijobiy siljishlar mavjud. Kredit byurolari bilan integratsiya kengaymoqda, bank tizimining kapital va likvidlik ko‘rsatkichlari minimal talablardan yuqorida shakllanmoqda, muammoli kreditlar ulushi nazorat ostida qolmoqda. Demak, asosiy vazifa mavjud makroprudensial barqarorlikni saqlagan holda, kredit riskini baholashning mikro darajadagi aniqligini kuchaytirishdan iborat.

Xulosa va tahlillar. Tadqiqot natijalari asosida tijorat banklarida kredit risklarini baholash tizimini takomillashtirish uchun, avvalo, gibrid skoring modelini joriy etish maqsadga muvofiqdir. Bunda an’anaviy moliyaviy ko‘rsatkichlar, kredit tarixi va garov ma’lumotlari mijozning tranzaksion faolligi, to‘lov intizomi, raqamli izlari va tarmoq xususiyatlari bilan birlashtiriladi. Bunday gibrid model bir tomondan bankning amaldagi amaliyotini saqlab qolsa, ikkinchi tomondan bashorat aniqligini oshiradi.

Ikkinchi yo‘nalish sifatida banklarda izohlanuvchan sun’iy intellekt (explainable AI) yondashuvlarini keng qo‘llash zarur. Kredit qarorini faqat algoritm natijasi sifatida emas, balki izohlab beriladigan iqtisodiy mantiq sifatida taqdim etish bankning ichki nazorati, regulyator bilan munosabati va mijozlar ishonchi uchun

muhimdir. Ilmiy tadqiqotlar ham kredit riskini modellashtirishda yuqori aniqlik bilan bir qatorda interpretatsiya vositalari majburiyligini ko‘rsatmoqda [16].

Uchinchi yo‘nalish — real vaqt rejimida ishlaydigan erta ogohlantirish tizimini yaratishdir. Bunday tizim kredit portfelidagi salbiy siljishlarni faqat chorak yakunida emas, balki kunlik yoki haftalik monitoring asosida aniqlash imkonini beradi. Natijada bank restrukturizatsiya, limitlarni qayta ko‘rib chiqish, qo‘shimcha ta’minot talab qilish yoki riskka mos foiz siyosatini o‘z vaqtida qo‘llashi mumkin.

To‘rtinchidan, banklarda model tavakkalchiligi boshqaruvini alohida ichki siyosat darajasiga ko‘tarish lozim. Modelni ishlab chiqish, testdan o‘tkazish, validatsiya qilish, qayta kalibrlash va mustaqil auditorlik tekshiruvidan o‘tkazish jarayonlari yagona standart asosida tartibga solinishi kerak. Bu, ayniqsa, uchinchi tomon ta’minotchilari ishtirok etadigan raqamli yechimlar sharoitida muhimdir.

Beshinchidan, kiberxavfsizlik va ma’lumotlar sifati kredit riskini boshqarishning texnik emas, balki bevosita iqtisodiy kategoriyasi sifatida qaralishi kerak. Ma’lumotlar noto‘g‘ri, to‘liq bo‘lmagan yoki yangilanmagan bo‘lsa, eng yaxshi algoritm ham noto‘g‘ri qaror beradi. Shu sababli ma’lumotlarni tozalash, verifikatsiya qilish, yagona identifikatorlar asosida integratsiya va kirish nazoratini kuchaytirish zarur.

Nihoyat, tijorat banklari xodimlarining risk tahlili, ma’lumotlar analitikasi va sun’iy intellekt bilan ishlash ko‘nikmalarini oshirish bo‘yicha uzluksiz malaka dasturlarini joriy etish lozim. Texnologik yangilanish inson kapitali bilan qo‘llab-quvvatlanmasa, model samaradorligi past bo‘lib qoladi. Demak, kredit riskini boshqarish tizimida “texnologiya + ma’lumot + malaka + nazorat” zanjiri yaxlit ishlashi zarur.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, kredit risklarini baholashda zamonaviy texnologiyalar va sun’iy intellektdan foydalanish bank tizimining barqarorligi, kredit portfeli sifati va resurslar taqsimotining samaradorligiga sezilarli ijobiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Biroq ushbu texnologiyalar faqat avtomatlashtirish vositasi sifatida emas, balki model shaffofligi, ma’lumotlar sifati, etik mezonlar va ichki nazorat bilan uyg‘unlashgan boshqaruv tizimi sifatida joriy etilgandagina kutilgan natijani beradi.

Maqolada amalga oshirilgan tadqiqotlar asosida quyidagi ilmiy-amaliy takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiqdir: birinchidan, tijorat banklarida kredit riskini baholash uchun an’anaviy ko‘rsatkichlar va noan’anaviy ma’lumotlarni birlashtiruvchi gibrid skoring modellarini joriy etish; ikkinchidan, izohlanuvchan sun’iy intellekt vositalarini kredit qarorlarida majburiy element sifatida qo‘llash; uchinchidan, kredit portfeli bo‘yicha real vaqt rejimidagi erta ogohlantirish tizimini yaratish; to‘rtinchidan, model tavakkalchiligi va uchinchi tomon texnologik ta’minotchilariga doir ichki boshqaruv siyosatini kuchaytirish; beshinchidan, kredit byurolari, to‘lov tizimlari va bank ichki bazalarini yagona ma’lumotlar arxitekturasi doirasida integratsiya qilish; oltinchidan, bank xodimlarining ma’lumotlar tahlili va sun’iy intellekt bilan ishlash bo‘yicha kasbiy kompetensiyalarini tizimli ravishda oshirish.

Shunday qilib, O‘zbekiston bank tizimida kredit risklarini baholashni zamonaviylashtirishning eng muhim sharti — makroprudensial barqarorlikni saqlagan holda, mikro darajadagi risk baholash mexanizmlarini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishdir. Mazkur yo‘nalishdagi izchil islohotlar bank tizimining raqobatbardoshligini kuchaytiradi, kredit resurslarining samarali taqsimlanishini ta’minlaydi hamda real sektor va tadbirkorlikni moliyalashtirish sifatini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. International Monetary Fund. (2025). Global Financial Stability Report: April 2025. Washington, DC: IMF.
2. OECD. (2024). Regulatory Approaches to Artificial Intelligence in Finance. Paris: OECD.
3. Feyen, E., Natarajan, H., & Saal, M. (2023). Fintech and the Future of Finance: Market and Policy Implications. Washington, DC: World Bank.
4. Hull, J. C. (2023). Risk Management and Financial Institutions (6th ed.). Hoboken, NJ: Wiley.
5. Basel Committee on Banking Supervision. (2025). Basel III Monitoring Report. Basel: Bank for International Settlements.
6. Saunders, A., & Cornett, M. M. (2021). Financial Institutions Management: A Risk Management Approach (11th ed.). New York: McGraw-Hill.
7. Roy, J. K., & Vasa, L. (2024). Machine Learning and Artificial Intelligence Method for FinTech Credit Scoring and Risk Management. International Journal of Business Analytics, 11(1).
8. Montevechi, A. A., Miranda, R. C., Medeiros, A. L., & Montevechi, J. A. B. (2024). Advancing Credit Risk Modelling with Machine Learning: A Comprehensive Review of the State-of-the-Art. Engineering Applications of Artificial Intelligence, 137(A), Article 109082.
9. European Central Bank. (2024). The Rise of Artificial Intelligence: Benefits and Risks for Financial Stability. Financial Stability Review. Frankfurt am Main: ECB.
10. European Banking Authority. (2024). Risk Assessment Report: Autumn 2024. Special Topic – Artificial Intelligence. Paris: EBA.
11. Financial Stability Board. (2024). The Financial Stability Implications of Artificial Intelligence. Basel: FSB.
12. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2025). Tijorat banklarining kredit va depozitlar to‘g‘risida 2025-yil 1-yanvar holatiga ma’lumot. Toshkent.
13. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2025). 2025-yil birinchi yarim yilligi uchun moliyaviy barqarorlik sharhi. Toshkent.
14. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2025). Tijorat banklarining muammoli kreditlari (NPL) to‘g‘risida 2025-yil 1-yanvar holatiga ma’lumot. Toshkent.
15. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2025). Markaziy bankning 2024 yil uchun yillik hisoboti. Toshkent.
16. Nallakaruppan, M. K., Chaturvedi, H., Grover, V., va boshq. (2024). Credit Risk Assessment and Financial Decision Support Using Explainable Artificial Intelligence. Risks, 12(10), Article 164.

TIJORAT BANKLARI FAOLIYATIDA MUAMMOLI KREDITLAR (NPL)ni BOSHQARISHNING INSTITUTSIONAL MEXANIZMLARI VA ULARNING MOLIYAVIY BARQARORLIKKA TA'SIRI

Po'lotov Shoxrux Salimovich
AJ"Asakabank"Buxoro BXM boshqaruvchisi
Bank moliya akademiyasi mustaqil izlanuvchi
ORCID:0009-0007-6680-7279

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekiston tijorat banklari faoliyatida muammoli kreditlar bilan ishlashning amaldagi holati, ularning vujudga kelish sabablari va bartaraf etish mexanizmlari tahlil qilingan. Maqolada tijorat banklaridagi muammoli kreditlar (NPL) bo'yicha qarzdorliklarni undirish jarayonlari batafsil tahlil qilingan. Muammoli kreditlarni samarali boshqarish va undirish tizimini takomillashtirish bo'yicha amaliy takliflar hamda tavsiyalar taqdim etilgan.

Kredit operatsiyalarini amalga oshirishda muammoli kreditlarning yuzaga kelishi, ularning buxgalteriya hisobini xalqaro standartlari talablari asosida tartibga solishni zaruriyat qilib qo'ymoqda. Ushbu zaruriyatdan kelib chiqib, tijorat banklarida kreditlar bo'yicha to'lash va ehtimoliy yo'qotishlar zahiralarini jarayolari hisobini takomillashtirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Kalit so'zlar: tijorat banklari, muammoli qarzdorlik, NPL, kredit riski, moliyaviy barqarorlik, CAR (kapitalning etarlilik koeffitsienti), foiz stavkalari, annuitet, differensial, avanslangan foiz, Bazel standartlari

KIRISH. So'nggi yillarda bank tizimining barqaror rivojlanishini ta'minlash masalasi global va milliy miqyosda iqtisodiy siyosatning ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Tijorat banklari real sektorni moliyalashtirish orqali iqtisodiy o'sishning muhim drayveri sifatida namoyon bo'lib, ularning moliyaviy barqarorligi kredit munosabatlarining uzluksizligini belgilab beradi.Ushbu jarayonda muammoli kreditlar darajasi va ularni samarali boshqarish mexanizmlari bank faoliyatining barqarorligiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.Tijorat banklarida

muammoli kreditlarni samarali boshqarish moliyaviy barqarorlikni ta’minlashning muhim omillardan biri hisoblanadi.[137]

Kredit tovar-pul munosabatlari mavjud sharoitdagi takror ishlab chiqarish jarayonining ajralmas bir qismi bo’lib, tovar ishlab chiqarish kredit munosabatlari vujudga kelishining tabiiy asosi hisoblanadi. Kreditning vujudga kelishini nafaqat ichki iste’mol uchun tovar ishlab chiqarish doirasidan emas, balki asosan yuridik jihatdan mustaqil, bir-biriga mulkdor sifatida qarama-qarshi turuvchi va iqtisodiy munosabatlarga kirishishga tayyor tovar egalari faoliyat ko’rsatayotgan muomala doirasidan qidirish kerak.

Kreditning kengaytirilgan takror ishlab chiqarishda mehnat unumdorligini oshirishga ta’siri fondlar va mehnat unumdorligini qiymat shakllari o’sish su’ratlarini bir-biriga munosabatini ifodalaydi va o’z navbatida, ishlab chiqarish fondlari samaradorligi darajasini xarakterlaydi.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-1-son Farmoni, 2020-yil 12-maydagi “2020–2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-5992-2-son Farmoni hamda 2023-yil 18-avgustdagi “Davlat ishtirokidagi korxonalar va tijorat banklarini isloh qilish mexanizmini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-283-son qarorida belgilangan vazifalarni amalga oshirish maqsadida tegishli ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bank risklarini baholaydigan tizimlar yaratish. Bankning operatsiyalari bo'yicha risklarni baholash va uni boshqarish tizimlarini shakllantirish lozim. Chunki hozirgi kunda eng asosiy e ’tibor banklar faoliyatidagi risklarni kamaytirishga va ularni samaraii boshqarishga qaratilmoqda.[138]

ADABIYOTLAR SHARHI. Ilmiy adabiyotlarda muammoli kreditlar masalasi asosan risklarni boshqarish va prudensial bo‘lsa-da,qaytarish jarayonini institutsional mexanizmlar orqali kompleks baholashga yetarli darajada e’tibor qaratilmagan.Amaliyotda esa banklar va regulyatorlar o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik darajasi, huquqiy muhitning moslashuvchanligi va tashkiliy tuzilmalar samaradorligi muammoli kreditlarni kamaytirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Shu jihatdan, mazkur masalani tizimli yondashuv asosida o‘rganish ilmiy ahamiyatga ega.

Muammoli kreditlar tushunchasi borasida ko‘plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan ta’riflar berilgan bo‘lib, ular bu tushunchani kengroq anglashga xizmat qiladi. Muammoli kreditlarning paydo bo‘lishiga kreditni noto‘g‘ri baholash, iqtisodiy tanazzul va qarz oluvchilarni noto‘g‘ri boshqarish kabi omillar sabab bo‘lishini ko‘rsatadi. Jonibek Rustamov muammoli kreditlarning iqtisodiy ahamiyati va bank operatsion samaradorligiga ta’sirini o‘rganadi. U muammoli kreditlar va bank

[137] Abdullayev Yo.A . Tijorat banklarida risklarni boshqarish.Toshkent :Moliya 2022y -56 bet

[138] Karimov Sh.X. Bank menejmenti.Toshkent.Iqtisod ,2021-45 bet .

samaradorligi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni tahlil qilib, risklarni boshqarish amaliyotlarini yaxshilash, moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash va barqaror iqtisodiy rivojlanishni rag‘batlantirishda muammoli kreditlarni bartaraf etishning ahamiyatini ta’kidlaydi.

Bank barqarorligi va muammoli kreditlar o‘rtasidagi bog‘liqlik masalasi Thorsten Beck, Asli Demirgüç-Kunt va Ross Levine. Ular institutsional muhit,bank nazorati sifati va huquqiy tizimning rivojlanganlik darajasi muammoli kreditlar dinamikasiga bevosita ta’sir ko‘rsatishini ta’kidlaydi. Mualliflarning fikricha, samarali institutsional mexanizmlar kreditlarni qaytarish jarayonini tezlashtiradi va bank moliyaviy barqarorligini mustahkamlaydi.

D.I.Zokirova (2023) ilmiy ishlarida O‘zbekistonda faoliyat yuritayotgan tijorat banklari va ularning aholiga taklif etayotgan chakana xizmatlari tarkibida mavjud bo‘lgan muammoli kreditlar o‘rganilgan, tijorat banklarining muammoli kreditlari statistikasi tahlil eilgan. Ushbu muammoni bartaraf etishda xorij tajribalarini qo‘llash imkoni-yatlari keltirilgan hamda takliflar berib o‘tilgan. Xorijiy olimlar tadqiqotlarida muammoli kreditlar darajasiga ta’sir qilishda yalpi ichki mahsulotning o‘sishi, inflyatsiya va ishsizlik darajasi kabi makroiqtisodiy omillarning rolini ta’kidlaydi. Retsessiya yoki iqtisodiy tanazzul muammoli kreditlarlarning ko‘payishiga olib kelishi mumkin (Acharya va boshq., 2019). Adabiyotlarda muammoli kreditlarning asosiy sababi sifatida kredit riskini baholashdagi kamchiliklar ham ta’kidlangan. Zaif kredit anderrayting standartlari va noto‘g‘ri tekshirish jarayonlari yuqori muammoli kreditga olib kelishi mumkin (Berger va DeYoung, 2001)

METODOLOGIYA. Mazkur tadqiqot tijorat banklarida muammoli kreditlarni boshqarish va ularni qaytarish samaradorligini oshirishga qaratilgan institutsional mexanizmlarni kompleks baholashga yo‘naltirilgan bo‘lib, unda nazariy va empiric tadqiqot usullari uyg‘unlashgan holda qo‘llanildi. Tadqiqot jarayonida bank faoliyatining tashkiliy, huquqiy va prudensial jihatlari o‘zaro bog‘liq holda ko‘rib chiqildi hamda muammoli kreditlar dinamikasiga ta’sir etuvchi asosiy omillar tizimli ravishda aniqlandi. Ushbu yondashuv muammoli kreditlarni boshqarish jarayonining ko‘p qirrali tabiatini chuqurroq ochib berish imkonini yaratadi.

Adabiyotlarni ko‘rib chiqish usulida biz muammoli kreditlar bo‘yicha mavjud adabiyotlarni keng ko‘lamli ko‘rib chiqdik, materiallar sifatida ilmiy ishlar, kitoblar va moliya institutlari va nazorat qiluvchi organlarning hisobotlariga asoslandik. Kontseptual asos usulida Biz muammoli kreditlar bo‘yicha turli nazariy qarashlarni o‘zida mujassam-lashtirgan, iqtisodiy, moliyaviy va me’yoriy o‘lchovlarni o‘z ichiga olgan kontseptual asosni ishlab chiqdik.

TAHLIL VA NATIJA. Muammoli kreditlarni boshqarish va ularni qaytarish samaradorligini oshirish jarayonida banklarning tashkiliy-huquqiy va texnologik institutlari hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Shu sababli tahlil moliyaviy ko‘rsatkichlardan ko‘ra, qaytarish jarayonining amaliy samaradorligini ifodalovchi institutsional indikatorlarga yo‘naltirildi.

Dastlab banklarda muammoli kreditlarni qaytarish jarayonining tashkiliy samaradorligi ko‘rsatkichlari tahlil qilindi. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, suddan tashqari kelishuvlar va ichki undirish bo‘linmalarining faolligi oshgan davrlarda

qaytarish muddati qisqaradi va qarzdorlar bilan kelishuvga erishish ehtimoli ortadi. Bu holat banklar tomonidan huquqiy jarayonlardan ko‘ra murosa va restrukturizatsiya mexanizmlariga ustuvorlik berilishi samaradorlikni oshirayotganini ko‘rsatadi.

Kredit bo‘yicha kechikish xavfi paydo bo‘lishi bilanoq banklar mijoz bilan individual ishlashni boshlaydi. Bu yondashuv o‘z vaqtida kredit qaytarilishini ta’minlashda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi.Tijorat banklari muammoli kreditlar bilan ishlash uchun alohida bo‘lim tashkil etadi yoki mutaxassislarni jalb etadi. Ushbu tarkibiy tuzilmalar kredit restrukturizatsiyasi, kelishuv asosida qayta jadval tuzish va zarur hollarda sudgacha yoki sud orqali qarzdorlikni undirib olish bo‘yicha huquqiy chora-tadbirlarni amalga oshiradi.Tijorat banklari qarzdorlikning kechikishiga yo‘l qo‘ymaslik uchun proaktiv (oldini oluvchi) boshqaruvni yo‘lga qo‘yib, mijoz bilan ishonchli va hamkorlik asosidagi aloqalarni rivojlantirish orqali moliyaviy risklarni kamaytirish va kredit portfeli sifatini oshirishga intilmoqda.

1-jadval

Tijorat banklarining muammoli kreditlari (NPL) to`g`risida
2026-yil 1-fevral holatiga ma'lumot

mlrd. so`m

№	Bank nomi	Kreditlar	Muammoli kreditlar (NPL)	Muammoli kreditlarning jami kreditlardagi ulushi
Jami		**610 381**	**19 361**	**3,2%**
Davlat ulushi mavjud banklar		**408 859**	**13 747**	**3,4%**
1	O‘zmilliybank	106 819	3 070	2,9%
2	Agrobank	82 217	2 694	3,3%
3	O‘zsanoatqurilishbank	65 505	2 022	3,1%
4	Asaka bank	41 198	1 670	4,1%
5	Xalq banki	33 942	1 026	3,0%
6	Biznesni rivojlantirish banki	24 660	1 100	4,5%
7	Mikrokreditbank	20 440	1 003	4,9%
8	Aloqa bank	19 682	640	3,3%
9	Turon bank	14 396	522	3,6%
Boshqa banklar		**201 523**	**5 615**	**2,8%**
10	Ipoteka-bank	35 324	1 382	3,9%
11	Kapital bank	36 864	1 008	2,7%
12	Hamkorbank	24 742	197	0,8%
13	Ipak yo‘li bank	16 183	205	1,3%
14	Orient Finance bank	14 349	21	0,1%
15	Tibisi bank	9 637	605	6,3%
16	Anor bank	10 479	498	4,8%
17	Davr bank	8 978	279	3,1%
18	Invest Finance bank	9 676	252	2,6%
19	Trastbank	8 016	310	3,9%
20	Tenge bank	4 405	141	3,2%

21	Asia Alliance bank	4 561	52	1,1%
22	KDB Bank O‘zbekiston	3 346	0	0,0%
23	Hayot bank	4 983	222	4,5%
24	Ziraat Bank Uzbekistan	2 198	93	4,2%
25	Universal bank	2 062	39	1,9%
26	Garant bank	1 475	145	9,8%
27	AVO bank	969	59	6,1%
28	Apeks bank	1 591	1	0,1%
29	Oktobank	463	0	0,0%
30	Madad Invest bank	422	12	2,8%
31	Poytaxt bank	265	90	33,8%
32	Open bank	427	2	0,6%
33	Uzum bank	95	0	0,0%
34	Soderot bank	11	1	5,7%

Manba: Markaziy bank uz.

Bu jadval natijalaridan ko’rinib turiptiki AJ”Asakabank” 1670 mlrd. so’m muammoli krediti bo’lib, foizda 4.1 %ni tashkil qiladi. Davlat ulushi mavjud banklar O‘zmilliybank 3 070 mlrd. so’m, foizda 2.9%ni tashkil qiladi. O‘zsanoatqurilishbank 2 022 mlrd. so’m, foizda 3,1ni tashkil qiladi. Xalq bankida muammoli kreditlar 1026 mlrd. so’m, foizda 3.0ni tashkil qiladi.Biznesni rivojlantirish bankining muammoli kreditlari 1100 mlrd. so’m bo’lsa,foizda 4,5 ni tashkil etadi.

2-jadval

AJ “Asakabank” da muammoli kreditlar ulushi

	Yil	Bank aktivlari (trln so‘m)	Muammoli kreditlar ulushi (%)_Banklar	Aktivlar (trln so‘m)	Muammoli kreditlar ulushi(%)
1	2022	350	4.2	19.6	3.8
2	2023	400	4.8	25.1	4.1
3	2024	450	5.6	32.8	5.4
4	2025	520	6.0	39.7	4.5
5	2026	600	1670	45.0	4.1

Manba:Muallif ishlanmasi

So‘nggi yillarda O‘zbekiston bank tizimida aktivlar ulushi ortib borish bilan birga, muammoli aktivlar ham salmoqli muammoga aylanib bormoqda. Masalan, 2024 yilda tijorat banklari aktivlari umumiy hajmi 450 trln so‘mdan oshib, 2023 yilda 600 trln so‘mdan oshdi. Bu o‘sish, avvalo, banklar faol kredit siyosat yuritishi, yangi bozor segmentlariga chiqishga urinishi va davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash dasturlari bilan bog‘liq bo‘lsa-da, o‘sha paytda muammoli aktivlar, xususan muammoli kreditlar ham ko‘paydi. Moliya bozorini rivojlantirish agentligi ma'lumotlariga ko‘ra, 2025 yil yakuniga kelib, umumiy muammoli kreditlar ulushi 5,6% dan 6,2% gacha ko‘tarildi. Ba'zi banklarda esa bu ko‘rsatkich 10% va undan ortiqni tashkil etdi. Bu esa tijorat banklari strategiyasini qayta ko‘rib chiqish zarurligini ko‘rsatadi.

3-jadval

Davlat ulushidagi banklarning NPL bo'yicha solishtirish (mlrd. so'm)

№	Banklar nomi	2025yil NPL (1-chorak)	2026yi NPL (1-chorak)	Farqi	Foizda
1	O'zmilliybank	3275	3 070	-205	-0.1
2	O'zsanoatqurilishbank	1844	2 694	850	0.1
3	Agrobank	2903	2 022	-881	-1.6
4	Asakabank	1752	1 670	-82	-0,4
5	Xalq banki	1253	1 026	-227	-1.2
6	Mikrokreditbank	804	1 100	296	0.3
7	Biznesni rivojlantirish banki	1915	1 003	-912	-4
8	Aloqabank	12944	640	-12304	-1.4
9	Turonbank	12558	522	-12036	0.8
	Jami :	**14 344**	**13747**	**-597**	**-0.8**

Manba:Muallif ishlanmasi

Bu jadvalda davlat banklarinig 2-yillik NPLlari tahlil qilinib ko'rganda O'zmilliy bank 2026yilga 20025 yilga nisbatan NPL summasi 205 mlrd. so'mga kamaygan. O'zsanoatqurilishbank esa 2025 yilga nisbatan 2026 yilga 850 mlrd so'mga ko'paygan.Agrobankning muammoli kreditlari ham 881mlrd so'mga kamaygan. AJ "Asakabank" 2025 yilga nisbatan 82 mlrd. so'mga kamaygan,ya'ni yaxshi natijaga erishgan. Xalq bankining ham muammoli krediti 2025 yilga nisbatan 227 mlrd so'mga kamaygan. Biznesni rivojlantirish bankida ham muammoli kreitlar 912 mlrd so'mga kamaygan. Turonbank 2025 yilga nisbatan 12036 mlrd so'mga kamaygan.

AJ"Asakabank" uchun ikkita ko'rsatkichni ko'rib chiqdik - NPL qoplash koeffitsienti va CAR - real ma'lumotlarga va uning talqiniga e'tibor qaratamiz.

CAR (kapitalning etarlilik koeffitsienti)

CAR (kapitalning etarlilik koeffitsienti) bankning yo'qotishlardan qanchalik himoyalanganligini ko'rsatadi.

Umuman olganda bank tizimi kapital yetarliligi darajasi xalqaro me'yorlarni ortig'i bilan bajargan. Ammo oxirgi yillarda biroz pasayish tendensiyasiga ega ekanligini kuzatish mumkin. Buning asosiy ikkita sababini keltirish mumkin: bank aktivlarining o'sishi kapital o'sishidan yuqori ekanligi va riskka tortilgan aktivlar summasining oshganligi. Bu bank tizimida daromadlilikni oshishiga xizmat qilishi mumkin.

Kapitalning yetarlilik koeffitsienti (CAR) — bankning tavakkalchilikni hisobga olgan holdagi aktivlariga (RWA) nisbatan o'z kapitali hajmini o'lchaydigan asosiy xavfsizlik ko'rsatkichidir. O'zbekistonda regulyativ kapitalning yetarlilik darajasi minimal 13-14,5% atrofida (xalqaro Bazel III standartlariga muvofiq) belgilangan bo'lib, amalda o'rtacha 17% dan yuqori bo'lishi kuzatiladi.

Bank kapitalini oshirish maqsadida hamda Bazel 3 tavsiyalariga muvofiq, har bir bankda moliyaviy-iqtisodiy inqirozlar yuzaga kelganda, ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun jami aktivlarning 3,0 foizidan kam bo'lmagan miqdorda konservatsiya

buferi tashkil qilinishini hisobga olgan holda bankning regulyativ kapitalini, I darajali kapitalini va I darajali asosiy kapitalini yilma-yil oshirib borishi ko'zda tutilgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR. Banklar tomonidan qo'llaniladigan zamonaviy usullar va davlat tomonidan ko'rsatiladigan qo'llab-quvvatlash, shu bilan birga, kredit risklarini boshqarish strategiyalari O'zbekistonning moliyaviy tizimini barqarorlashtirishga yordam beradi. Shu bois kredit risklarini samarali boshqarish banklar uchun ustuvor vazifa bo‘lib qolmoqda.

Tijorat banklarida muammoli kreditlarning salbiy oqibatlarini kamaytirish va samaradorligini ta’minlash maqsadida quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur:

1.Banklarning kredit siyosatini kuchaytirish (garov talablari, kredit berish talablari va yangi mijozlar uchun qat'iy talablar, yaxshi kredit tarixiga ega mijozlar uchun talablarni yumshatish.

2.Imtiyozli dasturli kreditlar orqali biznesni, qarz oluvchilarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash (yaxshi kredit tarixiga ega bo‘lgan mavjud mijozlar uchun qulay shart-sharoitlardan foydalanish.

3.Kreditlarni muddatini uzaytirish, qarzlarni qayta tuzish, banklar balansidagi muammoli kreditlarni sotish, balansdan tashqari kreditlar bilan qo‘shimcha ishlash.

4. Muammoli aktivlarni sotish.

Kredit risklarini baholashda sun’iy intellekt (AI) va mashinaviy o’rganish (ML) texnologiyalarini, kredit tarixlari reyestrlari, soliq ma’lumotlar bazalari va alternativ axborot manbalari bilan integratsiya asosida, kengroq qo’llash zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi «2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi PF–60-son Farmoni: https://lex.uz/ru/docs/-58410632.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi «2020–2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida»gi PF–5992-son Farmoni: https://lex.uz/docs/-4811025

3.Abdullayev Yo.A . Tijorat banklarida risklarni boshqarish.Toshkent :Moliya 2022y -56 bet

Karimov Sh.X. Bank menejmenti.Toshkent.Iqtisod ,2021-45 bet .

4. Otabek, Arzikulov, and To‘ychiyev Dilshod. “Tijorat banklarining kredit portfelini boshqarish yo‘llari.” International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research (2023): 158–167.

5. Norov, A., Shaxiddinonov, S., & Norova, N. (2023). Tijorat banklari tomonidan ajratilgan kreditlar risklarini kamayti-rish mexanizmlaritijorat banklari tomonidan ajratilgan kreditlar risklarini kamaytirish mexanizmlari. Prioritetnie naprav-leniya, sovremennie tendensii i perspektivi razvitiya finansovogo rinka, 134–135.

6. Bekjon Bo‘ron o‘gli, N. (2023). Tijorat banklari faoliyatida muammoli kreditlar va ularning tahlili. Gospodarka i Innowacje., 340–346.

7. Olqarova, Z., & Boyev, B. (2022). Tijorat banklarining muammoli kreditlar bilan ishlashi va ularni takomillashtirish mas-alalari. So‘ngi ilmiy tadqiqotlar

nazariyasi, 5(5), 56–65.5. Ergasheva, L. (2023). Muammoli kreditlar va uni monitoring qilish tartibi. Innovative Development in Educational Activ-ities, 2(5), 299–302.

8. Mamadiyarov, Z. (2020). Тижорат банкларида муаммоли кредитларнинг вужудга келиш сабаблари ва уларни камайтириш йўллари. Архив научных исследований, (26).

ISLOM MOLIYASI VOSITALARI ORQALI KICHIK VA O‘RTA BIZNESNI MOLIYAVIY QO‘LLAB-QUVVATLASHNING INNOVATSION MEXANIZMLARI

Kuldashev Jahongir Qamariddinovich
Toshkent Ijtimoiy Innovatsiya Universiteti
O’qituvchi/Mustaqil izlanuvchi
ORCID:0009-0003-3342-4547

Annotatsiya. Mazkur maqolada kichik va o‘rta biznesni moliyalashtirishda islom moliyasi vositalaridan foydalanish imkoniyatlari O‘zbekiston sharoiti nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Tadqiqotda murabaha, musharaka, mudaraba, ijara, salam va istisno kabi instrumentlarning iqtisodiy mazmuni, kichik biznes ehtiyojlariga mosligi hamda an’anaviy kreditlashdan farqli jihatlari yoritilgan. Maqolada mavjud ilmiy adabiyotlar asosida islom moliyasining risklarni bo‘lishish, real aktivlarga tayanish va moliyaviy inklyuziyani kengaytirishdagi o‘rni aniqlashtirilgan. Shuningdek, fintech platformalari, raqamli identifikatsiya, elektron shartnomalar va ma’lumotlar tahlili orqali islomiy moliyalashtirish xizmatlarini hududlarda joriy etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar. islom moliyasi, kichik va o‘rta biznes, innovatsion moliyalashtirish, murabaha, musharaka, mudaraba, ijara, salam, istisno, fintech, raqamli transformatsiya, moliyaviy inklyuziya.

Kirish

Kichik va o‘rta biznes har qanday iqtisodiyotda bandlikni kengaytirish, mahalliy ishlab chiqarishni rivojlantirish, ichki bozorni to‘ldirish va hududiy iqtisodiy faollikni oshirishda muhim o‘rin tutadi. Shu sababli tadbirkorlik subyektlarini moliyalashtirish masalasi faqat bank krediti berish bilan cheklanmaydi, balki moliyaviy xizmatlarning xilma-xilligi, risklarni baholash, investitsion sheriklik va real sektor bilan bog‘langan mexanizmlarni ham talab qiladi.

Amaliyotda kichik biznes subyektlari ko‘pincha garov ta’minoti yetishmasligi, foiz stavkalarining yuqoriligi, aylanma mablag‘ tanqisligi, moliyaviy hisobot yuritishdagi kamchiliklar va startap loyihalarning yuqori riskli deb baholanishi sababli yetarli moliyaviy resursga ega bo‘la olmaydi. Bu holat ayniqsa hududlarda, oilaviy tadbirkorlikda, yoshlar va xotin-qizlar biznes tashabbuslarida yaqqol seziladi.

Islom moliyasi mazkur muammolarga muqobil yondashuv taklif qiladi. Uning asosiy tamoyili foizli qarz munosabatlaridan ko‘ra real aktiv, savdo, ijara va sheriklikka tayangan holda moliyalashtirishdir. Bunda mablag‘ning maqsadli ishlatilishi kuchayadi, moliyaviy operatsiya real iqtisodiy faoliyat bilan bog‘lanadi, foyda va risk tomonlar o‘rtasida nisbatan adolatli taqsimlanadi.

Ushbu maqolaning maqsadi kichik va o‘rta biznesni moliyalashtirishda islom moliyasi vositalarining amaliy ahamiyatini aniqlash, ularni O‘zbekiston sharoitida joriy etish imkoniyatlarini baholash hamda raqamli texnologiyalar yordamida samaradorligini oshirish bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqotning asosiy

savoli quyidagicha qo‘yildi: O‘zbekiston sharoitida qaysi islomiy moliyalashtirish instrumentlari kichik biznes uchun eng mos bo‘lishi mumkin va ularni amaliyotga tatbiq etishda qanday mexanizmlar zarur?

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

Islom moliyasi bo‘yicha ilmiy adabiyotlarda ushbu tizimning nazariy asosi, risklarni bo‘lishish tamoyili va real aktivlarga tayanishi keng yoritilgan. Z. Iqbal va A. Mirakhor islom moliyasining asosiy farqi qarzga asoslangan foiz munosabatidan ko‘ra sheriklik va risklarni taqsimlashga asoslanishida ekanini ta’kidlaydi [1]. Ularning yondashuvi kichik biznesni moliyalashtirishda muhim, chunki tadbirkorlik loyihalarida risk faqat qarz oluvchi zimmasiga yuklanmaydi, balki moliyalashtiruvchi institut ham loyiha natijasiga manfaatdor bo‘ladi.

M. A. El-Gamal islom moliyasi mahsulotlarini faqat nom jihatidan emas, balki iqtisodiy mazmuni bo‘yicha baholash zarurligini ko‘rsatadi [2]. Uning fikricha, shariatga mos deb ataladigan har qanday mahsulot real iqtisodiy faoliyatga xizmat qilishi, operatsiya shakli bilan iqtisodiy natija o‘rtasida uyg‘unlik bo‘lishi lozim. Bu xulosa kichik biznes uchun islomiy moliyalashtirish mahsulotlarini ishlab chiqishda formal yondashuvdan qochish kerakligini ko‘rsatadi.

M. U. Chapra islom iqtisodiyoti va moliyasini ijtimoiy adolat, mas’uliyat va barqaror rivojlanish bilan bog‘laydi [3]. Unga ko‘ra, moliyaviy tizimning vazifasi faqat daromad olish emas, balki jamiyatdagi resurslardan samarali va adolatli foydalanishni ta’minlashdir. Ushbu qarash kichik va o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlashda islom moliyasining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatini asoslashga xizmat qiladi.

M. Obaidullah islomiy mikromoliyalashtirish bo‘yicha tadqiqotlarida kambag‘allikni kamaytirish, moliyaviy inklyuziyani kengaytirish va diniy qadriyatlar sababli an’anaviy kreditlardan foydalanmaydigan qatlamlar uchun mos moliyaviy mahsulotlar zarurligini ta’kidlaydi [4]. Bu yondashuv O‘zbekiston sharoitida ham dolzarb, chunki ayrim tadbirkorlar foizli kreditdan diniy yoki iqtisodiy sabablarga ko‘ra ehtiyot bo‘lishi mumkin.

T. Beck, A. Demirgüç-Kunt va O. Merrouche islomiy va an’anaviy banklarni qiyosiy tahlil qilib, islom banklarida aktivlar real operatsiyalar bilan bog‘liq bo‘lishi moliyaviy barqarorlikka ijobiy ta’sir qilishi mumkinligini ko‘rsatadi [5]. Biroq mualliflar samaradorlik faqat shariat tamoyillari bilan emas, balki boshqaruv sifati, nazorat va institutsional muhit bilan ham bog‘liq ekanini qayd etadi. Demak, O‘zbekistonda islomiy moliya xizmatlarini joriy etishda huquqiy baza, shariat kengashi, risk-menejment va standartlashtirilgan shartnomalar muhim ahamiyatga ega.

O. Hasan va J. Dridi tadqiqotlarida islomiy moliya institutlari global moliyaviy inqiroz davrida ayrim jihatdan barqarorroq bo‘lganini, ammo ularning rivojlanishi likvidlikni boshqarish, kapital yetarliligi va nazorat tizimiga bog‘liqligini ko‘rsatgan [6]. Bu natija kichik biznesni moliyalashtirishda islom moliyasi instrumentlari imkoniyatlarini baholash bilan birga ularning institutsional cheklovlarini ham hisobga olish zarurligini anglatadi.

So‘nggi yillarda fintech va raqamli bank xizmatlari islom moliyasi mahsulotlarini yanada ommalashtirish imkonini bermoqda. Elektron identifikatsiya, masofaviy shartnoma, raqamli to‘lov monitoringi va kraudfanding platformalari kichik loyihalarni tezroq baholash hamda moliyalashtirish xarajatlarini kamaytirishga xizmat qilishi mumkin. Shu bois mazkur maqolada avvalgi tadqiqotlardan farqli ravishda islom moliyasi instrumentlari kichik biznes ehtiyojlari va raqamli texnologiyalar bilan bog‘liq holda tahlil qilindi.

Tadqiqot metodologiyasi

Maqolani tayyorlashda qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv, mantiqiy umumlashtirish, iqtisodiy kuzatuv va konseptual tahlil usullaridan foydalanildi. Avvalo islom moliyasi bo‘yicha mavjud nazariy qarashlar o‘rganildi, so‘ngra kichik va o‘rta biznesning moliyaviy ehtiyojlari bilan islomiy moliyalashtirish instrumentlari o‘rtasidagi moslik baholandi.

Qiyosiy tahlil usuli orqali murabaha, musharaka, mudaraba, ijara, salam va istisno instrumentlari an’anaviy kreditlash mexanizmlari bilan taqqoslandi. Tizimli yondashuv yordamida islom moliyasining faqat alohida mahsulot sifatidagi emas, balki huquqiy, institutsional, texnologik va ijtimoiy omillar bilan bog‘liq kompleks mexanizm sifatidagi xususiyatlari ko‘rib chiqildi.

Tadqiqotda asosiy e’tibor uchta mezonga qaratildi: birinchidan, instrumentning kichik biznes uchun amaliy qulayligi; ikkinchidan, mablag‘ning real iqtisodiy faoliyatga bog‘lanish darajasi; uchinchidan, raqamli texnologiyalar yordamida xizmat ko‘rsatish xarajatlarini kamaytirish imkoniyati. Shu mezonlar asosida O‘zbekiston sharoitida foydalanish mumkin bo‘lgan takliflar shakllantirildi.

Tahlil va natijalar

Islom moliyasi vositalari kichik va o‘rta biznes uchun moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish imkonini beradi. Bunda asosiy e’tibor tadbirkorga naqd pul berishdan ko‘ra uning real ehtiyojini — xomashyo, uskuna, bino, transport, ishlab chiqarish buyurtmasi yoki aylanma mablag‘ni maqsadli moliyalashtirishga qaratiladi.

Murabaha mexanizmida moliya muassasasi tadbirkor uchun zarur bo‘lgan tovar yoki uskunani sotib olib, uni kelishilgan ustama bilan muddatli to‘lov asosida sotadi. Bu mexanizm kichik biznes uchun tushunarli, nisbatan sodda va real aktiv bilan bog‘liq bo‘lgani sababli dastlabki bosqichda joriy etish uchun qulay hisoblanadi. Ayniqsa savdo, xizmat ko‘rsatish, kichik ishlab chiqarish va uskunalar xaridida murabaha amaliy ahamiyatga ega.

Musharaka sheriklik asosidagi moliyalashtirish bo‘lib, tomonlar loyihaga kapital qo‘shadi va foyda oldindan kelishilgan nisbatda taqsimlanadi. Zarar esa kiritilgan kapital ulushiga mutanosib bo‘ladi. Ushbu model yangi biznes loyihalari, kooperatsiya asosidagi ishlab chiqarish, hududiy klasterlar va oilaviy tadbirkorlik tashabbuslarini rivojlantirishda foydali bo‘lishi mumkin.

Mudaraba modelida bir tomon kapital taqdim etadi, ikkinchi tomon esa loyiha boshqaruvi va tadbirkorlik tajribasi bilan ishtirok etadi. Bu model g‘oyasi bor, lekin kapitali yetarli bo‘lmagan yosh tadbirkorlar va startap loyihalari uchun muhim. Biroq mudaraba yuqori darajadagi ishonch, shaffof hisobdorlik va muntazam monitoringni talab qiladi. Shu sababli uni raqamli buxgalteriya, elektron savdo aylanmasi va ma’lumotlar tahlili bilan birga qo‘llash maqsadga muvofiq.

Ijara instrumenti tadbirkorga qimmat aktivni birdan sotib olmasdan, undan foydalanish imkonini beradi. Uskuna, transport, bino-inshoot yoki ishlab chiqarish jihozlari ijarasi kichik biznesning boshlang‘ich investitsion bosimini kamaytiradi. Bu vosita ayniqsa yangi ishlab chiqarish liniyasini yo‘lga qo‘yish yoki xizmat ko‘rsatish obyektini jihozlashda muhim bo‘lishi mumkin.

Salam va istisno instrumentlari mavsumiy va buyurtma asosidagi ishlab chiqarish uchun mos keladi. Salam kelgusida yetkazib beriladigan mahsulot uchun oldindan to‘lovni nazarda tutadi va qishloq xo‘jaligi hamda qayta ishlash sohasida qo‘llanishi mumkin. Istisno esa buyurtma asosida ishlab chiqariladigan mahsulot yoki obyektlarni moliyalashtirishda, jumladan mebelsozlik, qurilish materiallari, hunarmandchilik va kichik sanoat yo‘nalishlarida qulaydir.

1-jadval. Islom moliyasi vositalarining kichik biznes uchun amaliy afzalliklari

Instrument	Asosiy mazmuni	Kichik biznes uchun amaliy afzalligi
Murabaha	Tovar yoki uskunani ustama bilan muddatli sotish	Xomashyo va jihozlarni maqsadli moliyalashtirish imkonini beradi
Musharaka	Sheriklik asosida kapital qo‘shish	Risk va foyda tomonlar o‘rtasida nisbatan adolatli taqsimlanadi
Mudaraba	Bir tomon kapital, ikkinchi tomon boshqaruvni ta’minlaydi	Kapitali cheklangan, lekin g‘oyasi kuchli startaplar uchun mos
Ijara	Aktivdan ijara asosida foydalanish	Boshlang‘ich xarajatlarni kamaytiradi va likvidlikni saqlaydi
Salam	Kelgusidagi mahsulot uchun oldindan to‘lov	Qishloq xo‘jaligi va mavsumiy ishlab chiqarishda foydali
Istisno	Buyurtma asosida ishlab chiqariladigan mahsulotni moliyalashtirish	Hunarmandchilik va kichik sanoat loyihalari uchun qulay

Jadvaldan ko‘rinadiki, islom moliyasi instrumentlari kichik biznesning ehtiyojlariga qarab turlicha qo‘llanishi mumkin. Murabaha va ijara qisqa muddatli amaliy ehtiyojlarni qondirishda qulay bo‘lsa, musharaka va mudaraba tadbirkorlik riskini bo‘lishish hamda innovatsion loyihalarni qo‘llab-quvvatlashda samaraliroq bo‘lishi

mumkin. Salam va istisno esa ishlab chiqarish sikli oldindan moliyalashtirishni talab qiladigan sohalar uchun mos keladi.

Raqamli texnologiyalar ushbu instrumentlarning amaliy samaradorligini oshiradi. Masofaviy identifikatsiya tadbirkorni tez ro‘yxatdan o‘tkazishga, elektron shartnoma hujjat aylanishini soddalashtirishga, ma’lumotlar tahlili esa loyiha riskini aniqlashga yordam beradi. Sun’iy intellekt va avtomatlashtirilgan skoring tizimlari savdo aylanmasi, to‘lov intizomi, mahsulotga bo‘lgan talab va mavsumiy risklarni baholashda qo‘llanishi mumkin. Shu bilan birga, bunday texnologiyalar shariat talablariga moslik, ma’lumotlar maxfiyligi va iste’molchi huquqlarini himoya qilish talablari bilan uyg‘unlashtirilishi zarur.

O‘zbekiston sharoitida islom moliyasini kichik biznesga yo‘naltirish bir nechta natijalarni berishi mumkin. Birinchidan, foizli kreditdan foydalanishni istamaydigan tadbirkorlar moliyaviy tizimga jalb qilinadi. Ikkinchidan, real aktivlarga tayangan moliyalashtirish mablag‘larning maqsadli sarflanishini kuchaytiradi. Uchinchidan, hududiy tadbirkorlik, oilaviy biznes, qishloq xo‘jaligi va xizmat ko‘rsatish sohalarida yangi moliyalashtirish kanallari paydo bo‘ladi. To‘rtinchidan, fintech yechimlari orqali kichik summali loyihalarni baholash va monitoring qilish xarajatlari kamayadi.

Biroq mazkur jarayonda ayrim muammolar ham mavjud. Jumladan, islomiy moliya bo‘yicha alohida huquqiy-me’yoriy baza, shariat kengashlari faoliyati, standart shartnoma shakllari, soliq va buxgalteriya hisobi tartibi, malakali kadrlar hamda aholi va tadbirkorlarning moliyaviy savodxonligi masalalari bosqichma-bosqich hal qilinishi lozim.

Xulosa va takliflar

Olib borilgan tahlil shuni ko‘rsatadiki, islom moliyasi vositalari kichik va o‘rta biznesni moliyaviy qo‘llab-quvvatlashda muhim muqobil mexanizm bo‘lishi mumkin. Ularning asosiy ustunligi real aktivlarga tayanishi, foizli qarz yukini kamaytirishi, foyda va riskni bo‘lishish imkonini yaratishi hamda moliyaviy inklyuziyani kengaytirishidir.

O‘zbekiston sharoitida murabaha va ijara instrumentlarini dastlabki bosqichda kengroq joriy etish mumkin, chunki ular kichik biznes uchun tushunarli va amaliy jihatdan qulay. Keyingi bosqichda musharaka va mudaraba asosidagi sheriklik loyihalarini, ayniqsa startaplar, yoshlar tadbirkorligi va hududiy ishlab chiqarish loyihalari uchun yo‘lga qo‘yish maqsadga muvofiq. Salam va istisno esa qishloq xo‘jaligi, hunarmandchilik va buyurtma asosida mahsulot ishlab chiqaradigan kichik korxonalar uchun alohida ahamiyatga ega.

1. kichik va o‘rta biznes uchun soddalashtirilgan islomiy moliyalashtirish mahsulotlari paketini ishlab chiqish;
2. tijorat banklari va mikromoliya institutlarida islomiy moliya oynalarini bosqichma-bosqich kengaytirish;

3. murabaha, ijara va sheriklikka asoslangan moliyalashtirish uchun standart shartnoma namunalarini ishlab chiqish;

4. fintech platformalari orqali masofaviy identifikatsiya, elektron shartnoma va to‘lov monitoringini yo‘lga qo‘yish;

5. oliy ta’lim muassasalari va malaka oshirish tizimida islom moliyasi bo‘yicha amaliy kurslarni kuchaytirish;

6. hududlarda kichik biznes uchun pilot islomiy moliyalashtirish loyihalarini amalga oshirish va natijalar asosida normativ-huquqiy bazani takomillashtirish;

7. tadbirkorlar uchun islomiy moliya mahsulotlari bo‘yicha maslahat va tushuntirish xizmatlarini kengaytirish.

Umuman olganda, islom moliyasi vositalarini kichik va o‘rta biznes rivojiga yo‘naltirish O‘zbekistonda moliyaviy inklyuziyani kengaytirish, investitsion faollikni oshirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish va barqaror iqtisodiy o‘sishga erishishda muhim omillardan biri bo‘lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Iqbal, Z., Mirakhor, A. An Introduction to Islamic Finance: Theory and Practice. 2nd ed. Singapore: John Wiley & Sons, 2011.

2. El-Gamal, M. A. Islamic Finance: Law, Economics, and Practice. Cambridge: Cambridge University Press, 2006.

3. Chapra, M. U. The Future of Economics: An Islamic Perspective. Leicester: The Islamic Foundation, 2000.

4. Obaidullah, M. Introduction to Islamic Microfinance. New Delhi: IBF Net Limited, 2008.

5. Beck, T., Demirgüç-Kunt, A., Merrouche, O. Islamic vs. Conventional Banking: Business Model, Efficiency and Stability. World Bank Policy Research Working Paper No. 5446, 2010.

6. Hasan, M., Dridi, J. The Effects of the Global Crisis on Islamic and Conventional Banks: A Comparative Study. IMF Working Paper WP/10/201, 2010.

7. AAOIFI. Shari’ah Standards. Manama: Accounting and Auditing Organization for Islamic Financial Institutions, latest edition.

8. Islamic Financial Services Board. Islamic Financial Services Industry Stability Report. Kuala Lumpur: IFSB, latest edition.

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlik, bank-moliya tizimi va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishga oid normativ-huquqiy hujjatlari.

DON MAHSULOTLARINI YETISHTIRISH VA QAYTA ISHLASHDA INVESTITSIYALAR SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI

Po'latova Sug'diyona Iskandar qizi
Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti tayanch doktoranti
ORCID:0009-0006-7889-507X

Annotatsiya. Ushbu maqola don mahsulotlarini yetishtirish va qayta ishlash sohasidagi investitsiyalar samaradorligini oshirish masalalariga bag'ishlangan. Unda mavjud investitsiya jarayonlarining tahlili o'tkazilib, ularning samaradorligiga ta'sir etuvchi asosiy omillar aniqlanadi. Tadqiqot natijasida investitsiyalarni jalb qilish va ulardan foydalanish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqiladi. Maqolada innovatsion texnologiyalarni joriy etish, resurslardan oqilona foydalanish va qo'shimcha qiymat zanjirini rivojlantirish orqali investitsiya samaradorligini oshirish yo'llari ko'rib chiqiladi. Taklif etilgan yondashuvlar soha rivojlanishiga va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Investitsiyalar, Don Mahsulotlari, Qayta Ishlash, Samaradorlik, Qishloq Xo'jaligi, Oziq-ovqat Xavfsizligi, Innovatsion Texnologiyalar, Qo'shimcha Qiymat.

Kirish. Don mahsulotlari sektori har qanday davlatning oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda, iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashda va aholi farovonligini oshirishda strategik ahamiyatga ega. O‘zbekiston sharoitida ushbu soha qishloq xo‘jaligining asosiy ustunlaridan biri bo‘lib, mamlakatning agrar salohiyatini belgilaydi. Don yetishtirish va uni qayta ishlash zanjiri nafaqat ichki ehtiyojlarni qondirish, balki eksport salohiyatini oshirish nuqtai nazaridan ham muhimdir. Global miqyosda oziq-ovqatga bo‘lgan talabning ortishi, iqlim o‘zgarishlari va resurslar cheklanganligi sharoitida donchilik sohasiga investitsiyalarni jalb qilish va ulardan samarali foydalanish dolzarb vazifaga aylanmoqda. Ushbu sohada barqaror o‘sishni ta’minlash, ishlab chiqarish hajmini oshirish, mahsulot sifatini yaxshilash va qo‘shimcha qiymat yaratish zamonaviy texnologiyalar, innovatsion yechimlar va ilg‘or boshqaruv usullarini joriy etishni talab qiladi. Bu esa o‘z navbatida, investitsiya faoliyatini rag‘batlantirish va davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi [1]. Investitsiyalar donchilikning barcha bosqichlarida – urug‘chilikdan tortib, hosilni yig‘ishtirish, saqlash, qayta ishlash va yakuniy mahsulotni iste’molchiga yetkazishgacha muhim rol o‘ynaydi. Ular ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiya qilish, yangi texnologiyalarni o‘zlashtirish va raqobatbardoshlikni oshirish uchun zaruriy shartdir. Biroq, investitsiyalarning hajmi qanchalik katta bo‘lmasin, ularning samaradorligi ta’minlanmasa, kutilgan iqtisodiy va ijtimoiy natijalarga erishish mushkul. Don mahsulotlarini yetishtirish va qayta ishlashda investitsiya loyihalarini amalga oshirishda yuzaga keladigan xatarlar, resurslardan noto‘g‘ri foydalanish va bozor konyunkturasidagi o‘zgarishlar samaradorlikka salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu bois, mazkur maqola donchilik va qayta ishlashda investitsiya samaradorligini

oshirishning nazariy asoslari, omillari, amaliy mexanizmlari va yo‘llarini kompleks o‘rganishga qaratilgan. Unda investitsiya jarayonlarini optimallashtirish, innovatsion yondashuvlarni joriy etish hamda davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash choralarini takomillashtirish orqali soha rivojiga hissa qo‘shish imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Don mahsulotlarini yetishtirish va qayta ishlashda investitsiyalar samaradorligini oshirish masalasi iqtisodiy adabiyotlarda keng muhokama qilingan. Tadqiqotlar asosan investitsiya jarayonlarining nazariy asoslari, qishloq xo‘jaligi sektoridagi o‘ziga xos xususiyatlari va samaradorlikni baholash metodologiyalariga qaratilgan. Xolmatov (2020) [2] va Saidov (2021) [3] kabi mualliflar investitsiya samaradorligini oshirishning umumiy prinsiplarini, xususan, sof joriy qiymat (NPV), ichki rentabellik normasi (IRR) va xarajat-foyda tahlili kabi moliyaviy ko‘rsatkichlarni qishloq xo‘jaligi loyihalariga tatbiq etish imkoniyatlarini o‘rganganlar. Ular investitsiya loyihalarini tanlashda moliyaviy, ijtimoiy va ekologik omillarni hisobga olish zarurligini ta’kidlaydilar, chunki donchilik sektori uzoq muddatli barqarorlikni talab qiladi. Qodirov va boshqalar (2022) [4] qishloq xo‘jaligida investitsiya xatarlarini kamaytirish bo‘yicha innovatsion sug‘urta mexanizmlari va diversifikatsiya strategiyalarini tahlil qilib, ularning samaradorlikka ijobiy ta’sirini ko‘rsatganlar. Bu ishlar investitsiya jarayonlarining murakkabligini va kompleks yondashuv zarurligini ko‘rsatadi.

Don mahsulotlari sektorida investitsiya samaradorligiga ta’sir etuvchi omillar doirasi keng. G‘aniyev (2021) [5] zamonaviy agrotexnologiyalarni, jumladan, aniq dehqonchilik usullarini joriy etishning hosildorlikni oshirish va resurslardan samarali foydalanishdagi rolini yoritgan. Uning xulosalariga ko‘ra, yuqori texnologiyali uskunalar va raqamli yechimlarga kiritilgan investitsiyalar dastlabki xarajatlari yuqori bo‘lsa-da, uzoq muddatda sezilarli iqtisodiy foyda keltiradi. Qayta ishlash sanoatida innovatsiyalarning ahamiyati ham ko‘plab mualliflar tomonidan e’tirof etilgan. Hasanov va Ahmedov (2023) [6] donni chuqur qayta ishlash texnologiyalariga yo‘naltirilgan investitsiyalarning qo‘shimcha qiymat zanjirini yaratish va eksport salohiyatini oshirishdagi rolini tahlil qilganlar. Ular bunday investitsiyalar nafaqat iqtisodiy samaradorlikni, balki hududiy rivojlanish va bandlikni ta’minlashga ham xizmat qilishini ta’kidlaydilar. Biroq, bu turdagi investitsiyalar yuqori texnologik bilim, malakali kadrlar va kapital xarajatlari talab etishi sababli, ularni amalga oshirishda ma’lum qiyinchiliklar mavjudligi qayd etilgan, bu esa loyihalarni rejalashtirishda chuqur tahlil zarurligini ko‘rsatadi.

Investitsiya samaradorligini oshirishda davlat siyosati va institutsional muhitning roli muhim. Mirzayev (2020) [7] davlat tomonidan beriladigan subsidiyalar, imtiyozli kreditlar va soliq preferensiyalarining investitsiya xatarlarini kamaytirishdagi hal qiluvchi ahamiyatini o‘rgangan. Yer munosabatlarining tartibga solinishi, mulk huquqining himoyasi va shartnoma majburiyatlarining bajarilishi kabi institutsional omillar ham investitsiya muhitining jozibadorligini belgilaydi. Karimov va boshqalar (2022) [8] qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bozorlariga kirish imkoniyatlari va logistika infratuzilmasining investitsiya loyihalarining rentabelligiga ta’sirini tahlil qilganlar. Ular samarali ta’minot zanjirlarini yaratish va bozorga chiqish xarajatlarini kamaytirish investitsiya samaradorligini oshirishning muhim sharti ekanligini ta’kidlaydilar. Don

mahsulotlarini saqlash, tashish va qayta ishlash infratuzilmasiga kiritilgan investitsiyalar hosil yo‘qotishlarini kamaytirish va mahsulot sifatini saqlash orqali sezilarli iqtisodiy foyda keltirishi isbotlangan. Bu esa infratuzilma investitsiyalarining nafaqat bevosita, balki bilvosita samaradorlikka ta’sirini ham ko‘rsatadi. O‘zbekiston sharoitida don mahsulotlarini yetishtirish va qayta ishlashda investitsiya samaradorligini oshirish bo‘yicha tadqiqotlar mavjud bo‘lsa-da, to‘liq o‘rganilmagan jihatlar talaygina. Mahalliy sharoitga moslashgan, iqlim o‘zgarishlariga chidamli va resurs tejamkor texnologiyalarga kiritiladigan investitsiyalarning samaradorlik ko‘rsatkichlari bo‘yicha chuqur tahlillar yetarli emas.

Kichik va o‘rta fermer xo‘jaliklarining investitsiya imkoniyatlarini kengaytirish, ularni moliyalashtirishning innovatsion mexanizmlari (klaster tizimi, kooperatsiya) va ularning samaradorlikka ta’siri bo‘yicha amaliy tavsiyalar kam. Ibrohimov (2023) [9] klasterlarning salohiyatini o‘rgangan bo‘lsa-da, donchilik sektoridagi muvaffaqiyat omillari va to‘siqlari bo‘yicha tizimli tahlillar cheklangan. Global tajribalarni O‘zbekiston sharoitiga moslashtirish va mahalliy investitsiya muhitiga integratsiya qilish bo‘yicha chuqur ilmiy asoslangan ishlar talab etiladi, chunki mavjud adabiyotlar ko‘pincha umumiy iqtisodiy yoki agrar siyosat doirasida investitsiyalarni ko‘rib chiqadi, don mahsulotlari zanjirining har bir bosqichida investitsiya samaradorligini oshirishning xususiyatlari va ularning o‘zaro bog‘liqligi bo‘yicha kompleks yondashuvlar kam uchraydi.

Xulosa qilib aytganda, don mahsulotlarini yetishtirish va qayta ishlashda investitsiya samaradorligini oshirish bo‘yicha boy adabiyotlar bazasi shakllangan. Biroq, mavjud tadqiqotlar ko‘pincha umumiy prinsiplar yoki ayrim jihatlarga e’tibor qaratadi. Ushbu maqola donchilik va qayta ishlash zanjirining barcha bosqichlarida investitsiya samaradorligini oshirishning kompleks yondashuvini ishlab chiqishga intiladi. Bu moliyaviy ko‘rsatkichlarni optimallashtirish, innovatsion texnologiyalar, xatarlarni boshqarish, davlat ko‘magi mexanizmlarini takomillashtirish va bozor infratuzilmasini rivojlantirish orqali erishiladigan iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik samaralarni o‘z ichiga oladi. O‘zbekiston sharoitini hisobga olgan holda, mavjud adabiyotlardagi bo‘shliqlarni to‘ldirish va amaliyotga tatbiq etish mumkin bo‘lgan aniq tavsiyalar ishlab chiqish ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi bo‘lib, don mahsulotlari sektorida barqaror o‘sishni ta’minlash va oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot don mahsulotlarini yetishtirish va qayta ishlash tarmog‘ida investitsiyalar samaradorligini oshirishning nazariy, uslubiy va amaliy jihatlarini o‘rganishga qaratilgan. Tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning umumiy va maxsus usullaridan foydalanilib, investitsiya faoliyatining iqtisodiy samaradorligiga ta’sir etuvchi omillar kompleks ravishda tahlil qilindi. Tadqiqotning metodologik asosini tizimli yondashuv, iqtisodiy tahlil, statistik kuzatish, taqqoslash, guruhlash, iqtisodiy-matematik modellashtirish hamda ekspert baholash usullari tashkil etdi.

Tadqiqotning dastlabki bosqichida don mahsulotlarini yetishtirish va qayta ishlash sohasiga oid mahalliy va xorijiy ilmiy adabiyotlar, monografiyalar, ilmiy maqolalar, normativ-huquqiy hujjatlar hamda xalqaro tashkilotlar hisobotlari

o‘rganildi. Ushbu manbalar asosida investitsiyalar samaradorligini baholashning nazariy yondashuvlari va amaliy mexanizmlari tahlil qilinib, tadqiqotning konseptual asoslari shakllantirildi.

Tadqiqot davomida statistik tahlil usulidan foydalanilib, don mahsulotlarini yetishtirish va qayta ishlash korxonalarining so‘nggi yillardagi iqtisodiy ko‘rsatkichlari o‘rganildi. Jumladan, investitsiyalar hajmi, ishlab chiqarish hajmi, hosildorlik darajasi, mahsulot tannarxi, rentabellik ko‘rsatkichlari va qayta ishlash quvvatlarining o‘zgarish dinamikasi tahlil qilindi. Olingan ma’lumotlar asosida investitsiyalarning ishlab chiqarish natijalariga ta’siri baholandi.

Taqqoslash usuli yordamida O‘zbekistonning don mahsulotlari yetishtirish va qayta ishlash tizimi rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasi bilan solishtirildi. Ushbu yondashuv investitsiya resurslaridan samarali foydalanishning ilg‘or amaliyotlarini aniqlash va ularni milliy sharoitga moslashtirish imkonini berdi. Shuningdek, turli xo‘jalik yurituvchi subyektlarning investitsiya faoliyati natijalari o‘zaro taqqoslanib, samaradorlikka ta’sir etuvchi asosiy omillar aniqlandi.

Tadqiqotda iqtisodiy-matematik usullardan ham foydalanildi. Xususan, investitsiyalar hajmi bilan ishlab chiqarish samaradorligi, hosildorlik va foyda ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi bog‘liqlik korrelatsion va regressiya tahlillari yordamida baholandi. Ushbu usul investitsiyalarning iqtisodiy natijalarga ta’sir darajasini aniqlash va istiqboldagi rivojlanish tendensiyalarini prognoz qilish imkonini berdi.

Bundan tashqari, ekspert baholash usuli qo‘llanilib, qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat sanoati sohasida faoliyat yuritayotgan mutaxassislar, olimlar, investorlar hamda korxona rahbarlarining fikr-mulohazalari o‘rganildi. Ekspertlarning baholari asosida investitsiyalar samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi ustuvor yo‘nalishlar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tadqiqotning axborot bazasini O‘zbekiston Respublikasi statistika organlari ma’lumotlari, qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat sanoatiga oid rasmiy hisobotlar, ilmiy nashrlar, xalqaro tashkilotlarning tahliliy materiallari hamda don mahsulotlarini yetishtirish va qayta ishlash korxonalarining iqtisodiy ko‘rsatkichlari tashkil etdi. Olingan ma’lumotlar tizimlashtirilib, umumlashtirildi va ilmiy xulosalar chiqarishda foydalanildi.

Natijada tadqiqot davomida investitsiyalar samaradorligini oshirishga ta’sir etuvchi asosiy omillar aniqlanib, don mahsulotlarini yetishtirish va qayta ishlash tarmog‘ida innovatsion texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarish va qayta ishlash quvvatlarini modernizatsiya qilish, resurslardan samarali foydalanish hamda investitsiya boshqaruvini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi. Ushbu metodologik yondashuv tadqiqot natijalarining ishonchliligi va ilmiy asoslanganligini ta’minlashga xizmat qildi.

2019-2022 – yillar kesimida O‘zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog‘iston Respublikasida ishlab chiqarilgan don va dukkakli ekin mahsulotlari.[139]

Hududlar kesimi	Yetishtirilgan ekin turlari	Yillar kesimi				2022 yilda 2019 yilga nisbatan, (%)
		2019	2020	2021	2022	
O‘zbekiston Respublikasi	Donli ekinlar	7437,8	7636	7634,6	7990,5	106,5
Qoraqalpog'iston Respublikasi		293,4	278	271,1	312,2	104,1
O‘zbekiston Respublikasi	Dukkakli ekinlar	339,6	401,6	439,8	469,5	1213,1
Qoraqalpog'iston Respublikasi		6,1	8,1	14,8	25,1	64,9

Tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi

2019–2022-yillar davomida O‘zbekiston Respublikasi hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasida donli va dukkakli ekinlar ishlab chiqarish hajmlarining o‘zgarishi tahlil qilindi. Jadval ma’lumotlari qishloq xo‘jaligida ushbu ekin turlarining yetishtirish hajmi yillar davomida barqaror o‘sib borganligini ko‘rsatadi. Bu holat mamlakatda oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash, ekin maydonlaridan samarali foydalanish hamda agrar sohada amalga oshirilayotgan islohotlar natijasi sifatida baholanishi mumkin. O‘zbekistonda don va dukkakli don ekinlari yetishtirish hajmlarining ortib borishi rasmiy statistika ma’lumotlarida ham qayd etilgan.

Donli ekinlar bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasida 2019-yilda 7437,8 ming tonna mahsulot yetishtirilgan bo‘lsa, 2022-yilga kelib bu ko‘rsatkich 7990,5 ming tonnaga yetgan. Natijada 2019-yilga nisbatan o‘sish sur’ati 106,5 % ni tashkil etgan. Ayniqsa, 2021–2022-yillarda don yetishtirish hajmining sezilarli oshishi kuzatilgan bo‘lib, bu hosildorlikning ortishi va agrotexnologik tadbirlarning takomillashuvi bilan izohlanadi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasida ham donli ekinlar ishlab chiqarish hajmida ijobiy o‘zgarishlar kuzatilgan. 2019-yildagi 293,4 ming tonna ko‘rsatkich 2022-yilda 312,2 ming tonnaga yetib, 104,1 % o‘sishni tashkil etgan. Biroq respublika ko‘rsatkichlariga nisbatan Qoraqalpog‘istonning ulushi ancha past bo‘lib qolmoqda. Bu hududning tabiiy-iqlim sharoitlari, suv resurslari cheklanganligi hamda yerlarning meliorativ holati bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Statistik ma’lumotlarda ham Qoraqalpog‘iston Respublikasining don yetishtirishdagi ulushi boshqa hududlarga nisbatan pastligi qayd etilgan.

[139] DON VA DUKKAKLI DON MAHSULOTLARI YETISHTIRISHNI RIVOJLANTIRISHDA KOOPERATSIYANINING O‘RNI 1Beglayev Uchqun Xurramovich, 2Sharifova Durdona

Dukkakli ekinlar yetishtirish ko‘rsatkichlari tahlili yanada qiziqarli natijalarni ko‘rsatadi. O‘zbekiston Respublikasida 2019-yilda 339,6 ming tonna dukkakli ekinlar yetishtirilgan bo‘lsa, 2022-yilda bu ko‘rsatkich 469,5 ming tonnaga yetgan. Umumiy o‘sish 38,3 % ni tashkil etib, dukkakli ekinlarga bo‘lgan talabning oshishi hamda ekinlar tarkibini diversifikatsiya qilish siyosati natijasida yuzaga kelgan deb hisoblash mumkin.

Qoraqalpog‘iston Respublikasida esa dukkakli ekinlar ishlab chiqarish hajmi 2019-yildagi 6,1 ming tonnadan 2022-yilda 25,1 ming tonnagacha oshgan. Bu qariyb 4 baravar o‘sishni anglatadi. Ayniqsa, 2021–2022-yillarda o‘sish sur’atining yuqoriligi ushbu hududda dukkakli ekinlar maydonlarining kengaytirilgani va ularning iqtisodiy samaradorligi oshganidan dalolat beradi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari 2019–2022-yillar davomida ham O‘zbekiston Respublikasi, ham Qoraqalpog‘iston Respublikasida donli va dukkakli ekinlar ishlab chiqarish hajmi ortib borganligini ko‘rsatdi. Donli ekinlar ishlab chiqarishida o‘sish nisbatan barqaror bo‘lgan bo‘lsa, dukkakli ekinlar yetishtirishda ayniqsa yuqori sur’atlar kuzatildi. Bu esa qishloq xo‘jaligi tarmoqlarini diversifikatsiya qilish, tuproq unumdorligini saqlash va aholining oqsilga boy oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojini qondirishda dukkakli ekinlarning ahamiyati ortib borayotganini ko‘rsatadi. Shu sababli kelgusida dukkakli ekinlar yetishtirishni yanada rivojlantirish va zamonaviy agrotexnologiyalarni keng joriy etish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi.

11. Ergashev O. S. Bulutli texnologiyalarni O'zbekiston bank tizimida qo'llash istiqbollari va iqtisodiy samaradorligi // Moliya va bank ishi. — 2023. — № 1. — B. 33–47.
12. Shodmonov Sh. Sh., Umarova Z. O. Fintech ekotizimining kichik biznesni rivojlantirishdagi inklyuziv moliyaviy mexanizmlari // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. — 2022. — № 4. — B. 61–75.
Aripov A. A. Raqamli transformatsiya sharoitida O'zbekiston bank tizimining rivojlanish tendensiyalari // Raqamli iqtisodiyot. — 2023. — № 2. — B. 18–30.

KICHIK VA O'RTA BIZNESNI RIVOJLANTIRISHDA ISLOM MOLIYA MAHSULOTLARIDAN FOYDALANISH

Tashmatova Nozima Rustam qizi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
tayanch doktranti
ORCID:0009-0009-8894-5271

Annotatsiya. Hozirgi kunda muqobil moliya tizimiga aylanib borayotgan islom moliya tizimining kichik va o'rta biznes subyektlari uchun jozibadorligini oshirish, ularning e'tiqodiga nisbatan halol moliyaviy munosabatlar qurish orqali mamlakatimiz iqtisodiy o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatish mumkin. Islom moliya mahsulotlari kichik va o'rta biznes vakillari uchun o'zining xalolik, adolatlilik, foydalilik kabi tamoyillari bilan o'ziga jalb qilsada, hozirgi kundagi normativi-huquqiy hujjatlarning yetarlik darajada ishonchsizligi ularni bu mahsulotlardan foydalanish darajasini pasaytirmoqda. Yangi 2026-yil 27-mart kuni qabul qilingan o'zgartirishlar va ularni kichik va o'rta biznes vakillarining faoliyatiga ta'siri maqolada ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: islom moliyasi, islom moliya mahsulotlari, kichik va o'rta biznes, iqtisodiy o'sish.

Kirish. Jahonda rivojlanib, allaqachon o'zining o'ringa ega bo'lgan moliya tizimlaridan biri islom moliya tizimi hisoblanadi. Islom moliya tizimi nafaqat musulmon balki, musulmon b'o'lmagan davlatlarga ham qiziqarlik bo'lib, ular ham o'z e'tiqodidan qat'iy nazar islom moliya mahsulotlaridan foydalanib kelmoqda. Iqtisodiyotning bandlik kategoriyasi bo'yicha 50-70%, mamlakatning YaIMga nisbatan 30-50%, korxonalar soniga nisbatan 90-95% [140] ni kichik va o'rta biznes vakillariga tegishlik. Bu ko'rsatkichlardan ko'rinib turibdiki, kichik va o'rta biznes vakillarini rivojlantirish, moliyalashtirish, investitsiya jalb qilish uchun iqtisodiyotdagi mavjud moliya tizimlari yordam beradi. Aynan adolatlilik darajasi yuqori bo'lganligi uchun islom moliyasi kichik va o'rta biznes subyektlarining etib orini jalb qiladi.

Islom moliyasi o'zining qat'iy qonun qoidalari mavjudligi va ular doirasida gina ish ko'rishi, hech qanday istisnosiz amal qilishi bilan farqlanib turadi. Kichik va o'rta biznes vakillari iqtisodiyotning fundamenti bo'lganligi va ko'pincha yangi startaplar, innovatsion g'oyalar yoki bozorga endi kirib kelayotgan subyektlar bo'lganligi uchun ularni qo'llab quvvatlash va mavjud imkoniyatlardan foydalanish ularni zarar ko'rish ehtimollikni pasaytirib, foydani oshirib beradi. Aynan zararni teng taqsimlash, noaniq loyihalarga, riski yuqori bo'lgan loyihalarni inkor etgan holda shar'iy qonun qoidalar asosida ishlaydigan islom moliya tizimi kichik va o'rta biznes vakillariga o'ta zarur hisoblanadi.

Tadbirkorlik subyektlarining asosiy maqsadi ham kam zarar ko'rib, katta foyda olish bo'lganligi, ularni islom moliya tizimida mavjud tamoyillarda asoslanib ishlashligi, mamlakatning esa aynan shu sohani rivojlantirishga katta urg'u berilishi ikki sohaning bir biriga muvofiq ish olib borishligini taqozo etadi.

[140] https://data.worldbank.org/

Hozirgi kunda mamlakatimizda “O’zbekiston-2030”[141] strategiyasining maqsadlaridan biri bo’lgan (50-maqsad) islom banklari 2030-yilda 3 taga yetishi ko’zda tutilishi bu tizim sekin astalik bilan kirib kelayotganligidan darak beradi. Bundan tashqari, kichik va o’rta biznesni rivojlantirishga qaratilgan 48.49-maqsadlarda[142] tadbirkorlik subyektlarining moliya resurslaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish ularda muqobil moliya tizimidan foydalanishni taqozo qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Islom moliyasi kichik va o’rta biznes subyektlari uchun muqobil moliya tizimi bo’lib kelmoqda. Uning nafaqat musulmon balki musulmon bo’lmagan davlatlar moliya tizimida ham qo’llab kelishmoqda. Kamerun aholisining ko’p qismi musulmon bo’lmasa ham, ularning islom moliya mahsulotlariga bo’lgan qiziqishi ortib bormoqda[143]. “Kamerun davlatining kichik va o’rta biznes subyektlarining innovatsion salohiyatini oshira oladimi?” mavzusida yozilgan maqolada Ali Haruna va boshqalar empiric tahlil qilgan. 1358 kichik va o’rta biznes subyektlari kuzatilgan va tahlil olib borilgan. Tahlilning umumiy natijalari ijobiy bo’lib, islom moliyasi kichik va o’rta biznesga har taraflama, jarayon innovatsiyasi, mahsulot innovatsiyasi, marketing innovatsiyasi, tashkiliy innovatsiyalarga sezilarli ijobiy ta’sir ko’rsatgan.

Tadqiqotlar yana shuni ko‘rsatadiki, kichik va o’rta biznesni rivojlantirishda eng katta to‘siqlardan biri bo’lib moliyaviy yetishmovchilik hisoblanadi[144]. “Kichik va o’rta biznesni qo’llab quvvatlashda islom moliyasining roli” mavzusida Shahid Husein va boshqalar tomonidan yozilgan maqola islom moliyasining naqadar kerakligi haqidadir. Islom moliyasi KO’B rivojlanishini shunchaki mablag' bilan ta'minlash emas, balki etik (axloqiy) va inklyuziv (jamiyatning barcha qatlamlarini qamrab oluvchi) yechimlar orqali qo'llab-quvvatlaydi. Bu tizim Shariat tamoyillariga asoslangani sababli, u tadbirkor bilan bank o'rtasida adolatli munosabat o'rnatadi degan g’oyani ilgari suradi.


Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda kichik va o‘rta biznes (SME) subyektlarini rivojlantirishda islom moliya mahsulotlaridan foydalanish samaradorligini baholash maqsadida aralash metodologik yondashuv (mixed-methods) qo‘llanildi. Yondashuv nazariy tahlil, empirik ma’lumotlar yig‘ish va ekonometrik baholashni o‘z ichiga oladi. Tadqiqot deskriptiv va ekspluatator (tushuntiruvchi) xarakterga ega: deskriptiv bosqichda islom moliya instrumentlarining (murabaha, musharaka, mudaraba, ijara) nazariy asoslari va SME uchun ahamiyati tizimlashtirildi. Ekspluatator bosqichda ushbu instrumentlarning kichik biznes ko‘rsatkichlariga (daromad, bandlik, investitsiya hajmi) ta’siri baholandi. Tadqiqotda quyidagi ma’lumotlardan foydalanildi: ikkilamchi ma’lumotlar (secondary data): World Bank, OECD, Islamic Development Bank hisobotlari. O‘zbekiston bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari. Birlamchi ma’lumotlar (primary data): SME subyektlari o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rovnoma (anketa) natijalari,

[141] https://gov.uz/uz/pages/2030_strategy
[142] https://gov.uz/uz/pages/2030_strategy
[143] www.elsevier.com/journals/borsa-istanbul-review/2214-8450
[144] https://regionallens.com

Tadbirkorlar va moliya mutaxassislari bilan yarim tuzilgan intervyular. Tadqiqotda quyidagi ilmiy usullar qo‘llanildi. Ilmiy adabiyotlarni tizimli tahlil qilish (literature review) taqqoslash va umumlashtirish usullari. Deskriptiv statistika (o‘rtacha qiymat, ulush, dispersiya). Korrelyatsion tahlil (bog‘liqlikni aniqlash). Islom moliya instrumentlarining O‘zbekistonda endigina rivojlanayotgani sababli ma’lumotlar cheklanganligi tadqiqotning cheklovi hisoblanadi.

Tahlil va natijalar. Natijalar kichik va o’rta biznes orasidagi bog’liqlikni analitik tahlil qilish asosida yaratilgan.

1.Kichik biznesning iqtisodiyotdagi o‘rni (analitik tahlil)Jahon amaliyoti shuni ko‘rsatadiki, kichik va o‘rta biznes subyektlari iqtisodiyotning asosiy drayveri hisoblanadi. Xususan, World Bank ma’lumotlariga ko‘ra, kichik va o‘rta biznes subyektlari korxonalar umumiy sonining 90 foizdan ortig‘ini tashkil etadi hamda bandlikning 50 foizdan ziyod qismini ta’minlaydi.



1-rasm. O‘zbekistonda kichik biznesning YAIMdagi ulushi[145]

Yuqoridagi rasmdan ko’rinib turibdiki, O‘zbekiston sharoitida ham kichik biznesning ulushi yuqori bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, u yalpi ichki mahsulotning qariyb 50–60 foizini tashkil etadi. Natija: kichik biznesni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash iqtisodiy o‘sishning muhim omili hisoblanadi.

2. An’anaviy moliyalashtirish muammolari. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, kichik biznes subyektlari an’anaviy bank tizimidan foydalanishda bir qator muammolarga duch keladi: yuqori foiz stavkalari, garov talablarining qattiqligi, kredit olish jarayonining murakkabligi. Natija: mavjud moliyaviy tizim kichik biznes ehtiyojlarini to‘liq qondira olmaydi.


[145] https://stat.uz/uz/

3. Islom moliya mahsulotlarining imkoniyatlari (nazariy + amaliy tahlil). Islom moliya tizimi quyidagi xususiyatlari bilan ajralib turadi: foiz (riba) taqiqlangan, riskni taqsimlash mexanizmi mavjud, aktivga asoslangan moliyalashtirish. Asosiy instrumentlar:

- murabaha
- musharaka
- mudaraba
- ijara.

Islamic Development Bank tadqiqotlariga ko‘ra, ushbu instrumentlar ayniqsa kichik biznes uchun mos moliyalashtirish shakli hisoblanadi. Natija: islom moliyasi kichik biznes uchun muqobil va barqaror moliyaviy manba bo‘la oladi.

4. O‘zbekiston sharoitida rivojlanish istiqbollari. O‘zbekistonda islom moliya tizimi hali boshlang‘ich bosqichda bo‘lsa-da, unga bo‘lgan talab ortib bormoqda. Asosiy muammolar: huquqiy baza yetarli emas 30% ni tashkil etsa, aholining xabardorlik darajasi 40% ni tashkil qiladi.



2-rasm. Islom moliyasini kirib kelishdagi duch keladigan muammolar[146]

Yuqorida rasmda keltirilgan asosiy muammolar bartaraf etishlikni, zarur shart-sharoitlar yaratilsa, islom moliyasi kichik biznes rivojida muhim omilga aylanishi mumkin.

5. Umumiy natija (eng muhim xulosa). Yuqoridagi tahlillar asosida quyidagi xulosaga kelish mumkin: Islom moliya mahsulotlari kichik va o‘rta biznes subyektlarini moliyalashtirishda samarali alternativ mexanizm hisoblanadi. Ular an’anaviy moliya tizimidagi kamchiliklarni qisman bartaraf etib, iqtisodiy barqarorlik va moliyaviy inklyuziyani ta’minlashga xizmat qiladi.

[146] Kuzatuvlar natijasidagi muallif ishlanmasi.

Xulosa va takliflar. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, kichik va o‘rta biznesni rivojlantirishda islom moliya mahsulotlari samarali muqobil moliyalashtirish manbasi hisoblanadi. Ular foizsiz mexanizmlar, riskni taqsimlash va real aktivlarga asoslanganligi bilan an’anaviy moliya tizimining ayrim kamchiliklarini bartaraf etadi. Shu bilan birga, O‘zbekiston sharoitida ushbu tizimning rivojlanish darajasi hali yetarli emas. Takliflar:

- Islom moliyasiga oid huquqiy-me’yoriy bazani takomillashtirish
- Tijorat banklarida islom moliya mahsulotlarini joriy etishni kengaytirish
- Aholi va tadbirkorlar uchun moliyaviy savodxonlik va xabardorlikni oshirish
- Soha uchun malakali mutaxassislar tayyorlash tizimini rivojlantirish
- Xorijiy tajribani, xususan Islamic Development Bank kabi institutlar amaliyotini o‘rganish va moslashtirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Ali Haruna, Honor´e Tekam Oumb´e, Armand Mboutchouang Kountchou, Charles Bertin Pilag Kakeu. (2024) Can Islamic finance enhance the innovation capacity of Cameroonian SMEs? Empirical evidence based on a multivariate probit approach. Borsa Istanbul Review 24 (2024) 187–200
2. Shahid Hussain, Muhammad Ismail. (2025 Exploring the Role of Islamic Finance in Supporting SME Growth: A Review Study. ISSN (Online): 3007-1038. Pages: 225–231.
3. https://data.worldbank.org/
4. https://gov.uz/uz/pages/2030_strategy
5. www.elsevier.com/journals/borsa-istanbul-review/2214-8450
6. https://regionallens.com
7. https://stat.uz/uz/

SUG‘URTA OPERATSIYALARINI HISOBGA OLISH TALABLARI – KICHIK VA O‘RTA BIZNESNING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA’MINLASH OMILI SIFATIDA

Egamberdiyeva Hilolaoy Olimjon qizi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
“Buxgalteriya hisobi” kafedrasi tayanch doktoranti
ORCID - 0009-0001-5052-7631

Annotatsiya. Ushbu maqolada sug‘urta operatsiyalarini xalqaro (MHXS 17) va milliy hisob standartlarida aks ettirish talablarining qiyosiy tahlili keltirilgan. Tadqiqotning maqsadi – sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy hisobot shaffofligi kichik va o‘rta biznes subyektlari uchun qanday moliyaviy dastaklar yaratishi mumkinligini aniqlashdan iborat. Tahlil natijasida MHXS 17 daromadlarni vaqt bo‘yicha taqsimlash, majburiyatlarni joriy qiymatda baholash va risk tuzatmasini majburiy qo‘llash orqali sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy holatini real aks ettirishi aniqlandi. Milliy standartlarda esa tarixiy tannarx va bir martalik tan olish amaliyoti saqlanib qolgan. Ushbu farqlar O‘zbekiston sug‘urta kompaniyalarining xorijiy investitsiyalarni jalb etish va kichik biznesga moliyaviy xizmatlar ko‘rsatish imkoniyatlarini cheklaydi. Maqolada MHXS 17 talablarini bosqichma-bosqich joriy etish orqali sug‘urta tizimini modernizatsiya qilish va tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: MHXS 17, milliy buxgalteriya standartlari, sug‘urta operatsiyalari, kichik va o‘rta biznes, moliyaviy dastaklar, moliyaviy barqarorlik, sug‘urta mukofotlari, risklarni boshqarish.

Kirish. Zamonaviy iqtisodiyot sharoitida kichik va o‘rta biznes subyektlarining moliyaviy barqarorligi bevosita ularning risklarni boshqarish va sug‘urta himoyasidan foydalanish imkoniyatlariga bog‘liqdir. Sug‘urta kompaniyalari esa o‘z navbatida moliyaviy hisobotlarda majburiyatlar va daromadlarni shaffof aks ettirishi lozim. Bu esa sug‘urta operatsiyalarini hisobga olish va hisobot berish jarayonining xalqaro va milliy standartlarga mosligini taqozo etadi[147].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonida kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash va moliyaviy xizmatlar sifatini oshirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan[148]. Sug‘urta xizmatlarining shaffofligi va ishonchliligi tadbirkorlik subyektlarining kredit olish, investitsiyalarni jalb qilish va o‘z faoliyatini kengaytirish imkoniyatlarini bevosita oshiradi.

Shu sababli, ushbu maqolada MHXS 17 “Sug‘urta shartnomalari” va O‘zbekiston milliy buxgalteriya standartlarida sug‘urta operatsiyalarini aks ettirish talablari qiyosiy

[147] O‘zbekiston Respublikasining “Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni. (2021). Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi

[148] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni. (2022).

tahlil qilinib, ularning kichik va o‘rta biznesni moliyaviy qo‘llab-quvvatlashdagi roli ochib beriladi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Xalqaro va milliy hisob standartlarida sug‘urta operatsiyalarini aks ettirish masalalari bir qator olimlar tomonidan o‘rganilgan.

Xalqaro tadqiqotlarda Wüthrich va Merz (2008)[149] hamda England va Verrall (2002)[150] tomonidan stoxastik modellashtirish usullari asosida sug‘urta majburiyatlarini baholashning ahamiyati yoritilgan. PKO Bank Polski (2022) yillik hisobotida MHXS 17 ni joriy etish amaliyoti, xususan diskont stavkalarini aniqlashning “pastdan yuqoriga” (bottom-up) usuli ko‘rsatilgan[151].

Mahalliy olimlardan Xudoyqulov (2019)[152] sug‘urta faoliyatida moliyaviy barqarorlik va zaxiralarni boshqarish masalalarini, Karimov va Abdurahmonov (2021)[153] esa O‘zbekistonda sug‘urta bozorini rivojlantirish va risklarni boshqarish masalalarini o‘rgangan. Biroq, mavjud tadqiqotlarda sug‘urta hisob standartlarining bevosita kichik va o‘rta biznesni moliyaviy qo‘llab-quvvatlashdagi o‘rni yetarlicha o‘rganilmagan. Ushbu maqola mavjud ilmiy bo‘shliqni to‘ldirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda quyidagi usullardan foydalanilgan. Qiyosiy tahlil usuli yordamida MHXS 17 va O‘zbekiston milliy standartlari talablari solishtirildi. Tahlil va sintez usuli orqali sug‘urta operatsiyalarini hisobga olish mexanizmlari o‘rganildi. Induksiya va deduksiya usuli umumiy xulosalar chiqarish va ularni kichik biznes moliyaviy dastaklariga tatbiq etish imkonini berdi. Kuzatish usuli esa xalqaro va mahalliy sug‘urta kompaniyalari tajribasini o‘rganishga yo‘naltirildi.

Tadqiqotning nazariy asosini MHXS fondi materiallari, O‘zbekiston Respublikasining “Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni[154], milliy buxgalteriya standartlari[155] hamda xalqaro va mahalliy olimlarning ilmiy ishlari tashkil etadi.

Tahlil va natijalar. MHXS 17 va O‘zbekiston milliy standartlarini qiyosiy tahlil qilish natijasida bir qator muhim farqlar aniqlandi. Xalqaro standart IFRS tomonidan 2017-yilda qabul qilingan va 2023-yil 1-yanvardan kuchga kirgan bo‘lsa, O‘zbekiston milliy standartlari 2008-yilda tasdiqlangan va hozirgacha sezilarli o‘zgarishlarsiz qo‘llanib kelinmoqda. Majburiyatlarni baholashda MHXS 17 diskontlangan joriy qiymat usulidan foydalanadi, milliy standartlar esa asosan tarixiy tannarxga asoslangan. Risk tuzatmasi MHXS 17da majburiy bo‘lib, milliy standartlarda esa talab etilmaydi. Shartnoma xizmati marjasi (CSM) MHXS 17da mavjud bo‘lib, milliy standartlarda bu tushuncha umuman yo‘q.

---

[149] Wüthrich, M. V., & Merz, M. (2008). *Stochastic Claims Reserving Methods in Insurance*. Chichester: Wiley. 336 p.

[150] England, P. D., & Verrall, R. J. (2002). Stochastic claims reserving in general insurance. *British Actuarial Journal*, 8(3), 443-518.

[151] PKO Bank Polski. (2022). *Annual Report – MHXS 17 Insurance Contracts*. Warsaw.

[152] Xudoyqulov, S. (2019). *Sug‘urta faoliyatida moliyaviy barqarorlik va zaxiralarni boshqarish masalalari*. Toshkent: “Iqtisodiyot” nashriyoti. 180 b.

[153] Karimov, B., & Abdurahmonov, D. (2021). *O‘zbekistonda sug‘urta bozorini rivojlantirish va risklarni boshqarish*. Toshkent: “Fan va texnologiya” nashriyoti. 200 b.

[154] O‘zbekiston Respublikasining “Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni. (2021). Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi.

[155] International Accounting Standards Board (IASB). (2017). *MHXS 17 Insurance Contracts*. London: MHXS Foundation.

Sug‘urta mukofotlarini hisobga olish masalasiga kelsak, MHXS 17 bo‘yicha sug‘urta mukofotlari shartnoma amal qilish muddati davomida bosqichma-bosqich daromad sifatida tan olinadi. Bu yondashuv sug‘urta kompaniyasining moliyaviy holatini real vaqt rejimida aks ettiradi. Kichik va o‘rta biznes subyektlari uchun bu – sug‘urta kompaniyasining to‘lov qobiliyatini aniq baholash imkonini beradi. Milliy standartlarda esa mukofotlar ko‘pincha olinganda bir martalik tan olinadi. Bu sug‘urta kompaniyasining moliyaviy natijalarini vaqtincha yaxshilab ko‘rsatishi mumkin, ammo real risklarni yashiradi. Natijada tadbirkorlar ishonchli sug‘urta kompaniyasini tanlashda qiyinchiliklarga duch keladi.

Investitsion daromadlarni hisobga olishda ham farqlar mavjud. MHXS 17 bo‘yicha investitsion daromadlar adolatli qiymatda baholanadi, tegishli davrga taqsimlanadi va har bir hisobot sanasida aktivlarni qayta baholash majburiy hisoblanadi. Milliy standartlarda esa baholash asosan tarixiy tannarx bo‘yicha olib boriladi, daromad ko‘pincha olingan davrda tan olinadi va aktivlarni qayta baholash majburiy emas[156]. MHXS 17 bo‘yicha investitsion daromadlarning adolatli qiymatda baholanishi sug‘urta kompaniyasining real moliyaviy holatini ochib beradi. Bu esa kichik biznesga kredit beruvchi banklar va investorlar uchun muhim axborot manbai hisoblanadi.

Qayta sug‘urtalash operatsiyalariga kelsak, MHXS 17 bo‘yicha qayta sug‘urtalash aktivlari alohida hisobga olinadi va risk tuzatmasi qayta sug‘urtalash uchun ham hisoblanadi. Bu tizim orqali sug‘urta kompaniyalari o‘z risklarini kamaytiradi va natijada kichik biznesga taklif qilinadigan sug‘urta mahsulotlarining narxi va sifati yaxshilanadi.

Qiyosiy tahlil natijalariga ko‘ra, asosiy farqlar quyidagilardan iborat. Daromadni tan olish vaqti bo‘yicha MHXS 17da vaqt bo‘yicha taqsimlansa, milliy standartlarda bir martalik tan olinadi. Majburiyatlarni baholashda MHXS 17 joriy qiymatdan foydalansa, milliy standartlar tarixiy tannarxga asoslanadi. Risk tuzatmasi MHXS 17da majburiy bo‘lsa, milliy standartlarda talab etilmaydi. Ushbu farqlarning kichik biznes uchun oqibati shundaki, MHXS 17 qo‘llanilganda sug‘urta kompaniyasining real moliyaviy holati to‘liq aks etadi, milliy standartlarda esa risklar yetarlicha aks etmaydi, bu esa tadbirkorlarning noto‘g‘ri qaror qabul qilishiga olib kelishi mumkin.

O‘zbekiston sug‘urta bozorining holatiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, 2025-yilda O‘zbekiston sug‘urta bozori hajmi 13,46 trillion so‘mga yetib, 37,8 foiz o‘sishni qayd etgan. Kichik va o‘rta biznes subyektlarining sug‘urtaga bo‘lgan talabi ortib bormoqda. Biroq, milliy standartlarning MHXS 17 ga mos emasligi xorijiy investitsiyalar va qayta sug‘urtalash imkoniyatlarini cheklab qo‘ymoqda.

Xulosa va takliflar. MHXS 17 va O‘zbekiston milliy standartlari o‘rtasida sezilarli farqlar mavjud. Asosiy farqlar – daromadlarni tan olish vaqti, majburiyatlarni baholash usuli (joriy qiymat va tarixiy tannarx) hamda risk tuzatmasi majburiyligidadir. Milliy standartlar MHXS 17 ga nisbatan soddaroq, ammo kamroq shaffof hisoblanadi. Bu esa O‘zbekiston sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy hisobotlarini xalqaro talablarga moslashtirishni qiyinlashtiradi va kichik biznes subyektlarining ishonchli sug‘urta himoyasidan foydalanish imkoniyatlarini cheklaydi. Yuqoridagi tahlillar asosida quyidagi amaliy takliflar ishlab chiqildi.

[156] International Accounting Standards Board (IASB). (2017).

Birinchidan, MHXS 17 ni bosqichma-bosqich joriy etish maqsadga muvofiqdir. Avval qisqa muddatli sug‘urta turlari uchun PAA (Premium Allocation Approach) modelini, keyin esa hayot sug‘urtasi uchun GMM (General Measurement Model) modelini amaliyotga tatbiq etish lozim. Bu sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy hisobot shaffofligini oshiradi va kichik hamda o‘rta biznes subyektlari uchun ishonchli moliyaviy dastak vazifasini o‘taydi.

Ikkinchidan, milliy buxgalteriya standartlariga MHXS 17 talablariga mos o‘zgartirishlar kiritish zarur. Xususan, diskontlash, risk tuzatmasi va shartnoma xizmati marjasi (CSM) kabi tushunchalarni milliy qonunchilikka kiritish orqali sug‘urta operatsiyalarini hisobga olish tizimini xalqaro talablarga yaqinlashtirish tavsiya etiladi. Natijada, kichik biznes subyektlariga kredit ajratish jarayonida sug‘urta polisi ishonchli garov vositasiga aylanadi.

Uchinchidan, kadrlar malakasini oshirish tizimini yo‘lga qo‘yish lozim. Buxgalteriya hisobi va aktuariya sohasida faoliyat yurituvchi mutaxassislar uchun MHXS 17 standarti bo‘yicha maxsus o‘quv dasturlari va malaka oshirish kurslarini tashkil etish orqali sohada professional kadrlar yetishmasligi muammosini bartaraf etish mumkin. Malakali kadrlar esa sifatli moliyaviy xizmatlarning asosiy kafolati hisoblanadi.

To‘rtinchidan, sug‘urta mahsulotlarini kichik va o‘rta biznes ehtiyojlariga moslashtirish zarur. Kichik biznes vakillari uchun sodda, tushunarli va qulay narxdagi sug‘urta mahsulotlarini ishlab chiqish, shuningdek, tadbirkorlarning moliyaviy savodxonligini oshirishga qaratilgan axborot va targ‘ibot kampaniyalarini o‘tkazish maqsadga muvofiqdir. Bu chora-tadbirlar moliyaviy dastaklarning qamrov darajasini kengaytiradi va tadbirkorlik subyektlarining sug‘urta xizmatlaridan foydalanish faolligini oshiradi.

Ushbu takliflarni amalga oshirish orqali O‘zbekiston sug‘urta tizimi MHXS 17 talablariga yaqinlashadi, kichik va o‘rta biznes subyektlari ishonchli sug‘urta himoyasiga ega bo‘ladi, sug‘urta kompaniyalari xorijiy investitsiyalarni jalb qila oladi hamda banklar va moliya institutlari tadbirkorlarga kredit berishda sug‘urta polisidan samarali foydalanish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

I. Qonun hujjatlari

[1] O‘zbekiston Respublikasining “Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni. (2021). Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi.

[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni. (2022).

[3] O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirining “Sug‘urtalovchilarning sug‘urta zaxiralari to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi buyrug‘i. (2008). 107-son, 20-noyabr. Toshkent.

II. Ilmiy adabiyotlar

[4] International Accounting Standards Board (IASB). (2017). *MHXS 17 Insurance Contracts*. London: MHXS Foundation.

[5] Wüthrich, M. V., & Merz, M. (2008). *Stochastic Claims Reserving Methods in Insurance*. Chichester: Wiley. 336 p.

[6] England, P. D., & Verrall, R. J. (2002). Stochastic claims reserving in general insurance. *British Actuarial Journal*, 8(3), 443-518.
[7] PKO Bank Polski. (2022). *Annual Report – MHXS 17 Insurance Contracts*. Warsaw.
[8] Xudoyqulov, S. (2019). *Sug‘urta faoliyatida moliyaviy barqarorlik va zaxiralarni boshqarish masalalari*. Toshkent: “Iqtisodiyot” nashriyoti. 180 b.
[9] Karimov, B., & Abdurahmonov, D. (2021). *O‘zbekistonda sug‘urta bozorini rivojlantirish va risklarni boshqarish*. Toshkent: “Fan va texnologiya” nashriyoti. 200 b.

MASOFAVIY BANK XIZMATLARIDAGI MUAMMOLARNI SUN'IY INTELLEKT ORQALI TADQIQ ETISH

Qozoqov Shahboz Ortiqbayevich
Bank va moliya akademiyasi
Mustaqil izlanuvchi
ORCID: 0009-0006-6137-47

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekistonning raqamli iqtisodiyotga o‘tish sharoitida kichik va o‘rta biznes subyektlari uchun masofaviy bank xizmatlarining o‘rni tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosi foydalanuvchilarning strukturalanmagan fikrlarini tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) usullari, xususan, Latent Dirichlet Allocation (LDA) mavzuli modellashtirish algoritmi yordamida tahlil qilishga qaratilgan. Natijada, tadbirkorlar duch kelayotgan asosiy muammolar aniqlangan va ularni bartaraf etish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Fintex, masofaviy bank xizmatlari, modellashtirish, tabiiy tilni qayta ishlash (NLP), tadbirkorlik, sun’iy intellekt

Kirish. O‘zbekiston Respublikasining "Raqamli O‘zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida bank-moliya tizimini transformatsiya qilish ustuvor vazifa etib belgilangan[1]. Bugungi kunda respublikada faoliyat yuritayotgan 500 mingdan ortiq tadbirkorlik subyektlari uchun masofaviy bank xizmatlarini taqdim etuvchi ilovalar kundalik faoliyatning ajralmas qismiga aylandi. Biroq, texnologik rivojlanishga qaramay, ko‘plab tadbirkorlar raqamli moliyaviy xizmatlardan foydalanishda turli operatsion va texnik to‘siqlarga duch kelmoqda.

Tadbirkorlik subyektlarining ehtiyojlari jismoniy shaxslarnikidan tubdan farq qiladi. Ular uchun tranzaksiyalar tezligi, boshqa tizimlar bilan integrtasiya jumladan buxgalteriya dasturlari yoki davlat servislari, soliq hisoboti, tashqi iqtisodiy faoliayt va konvertatsiya jarayonlarining soddaligi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ushbu maqolada aynan tadbirkorlarning masofaviy bank xizmatlaridan foydalanish tajribasi va ular duch kelayotgan yashirin muammolarni aniqlash uchun zamonaviy sun’iy intellekt usullari qo‘llaniladi.

Adabiyotlar sharhi. Zamonaviy moliyaviy xizmatlar rivojida masofaviy bank xizmatlari va raqamli texnologiyalarning o‘rni tobora ortib bormoqda. Xususan, fintex sohasidagi tadqiqotlar masofaviy bank xizmatlarining samaradorligi va ularni qabul qilish omillarini chuqur o‘rganishga qaratilgan. Masofaviy bank xizmatlari xizmatlarini qabul qilish jarayonini tushuntirishda keng qo‘llaniladigan nazariy yondashuvlardan biri Technology Acceptance Model (TAM) hisoblanadi. Ushbu modelga ko‘ra, foydalanuvchilar texnologiyani qabul qilishida uning qulayligi va foydaliligi asosiy omillar sifatida namoyon bo‘ladi. Muhammad Imran Shaikh va Heikki Karjaluoto (2015) tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotda masofaviy bank xizmatlari xizmatlaridan foydalanishda aynan shu omillar hal qiluvchi rol o‘ynashi aniqlangan [2].

Rivojlanayotgan mamlakatlarda masofaviy bank xizmatlarini joriy etish jarayoni o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, infratuzilma rivojlanish

darajasi va aholining moliyaviy savodxonligi o‘rtasidagi nomutanosiblik ushbu xizmatlardan samarali foydalanishga to‘sqinlik qiladi [3]. Bu holat O‘zbekiston sharoitida ham dolzarb hisoblanadi.

So‘nggi yillarda katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilishda Latent Dirichlet Allocation modeli keng qo‘llanilmoqda. Ushbu model David M. Blei va boshqalar tomonidan 2003-yilda taklif etilgan bo‘lib, matnli ma’lumotlardan yashirin mavzularni aniqlash imkonini beradi [4]. Zamonaviy tadqiqotlar LDA modelining moliyaviy xizmatlar tahlilidagi samaradorligini tasdiqlaydi. Masalan, Zheng Wang va boshqalar (2021) onlayn bank ilovalari sharhlarini tahlil qilish orqali foydalanuvchilarning yashirin ehtiyojlarini aniqlashda ushbu model yuqori aniqlikka ega ekanligini ko‘rsatgan [5]. Shuningdek, Ezio Milian va boshqalar (2019) Fintech sohasidagi ilmiy adabiyotlarni tahlil qilishda mavzuli modellashtirish usullaridan foydalanib, sohadagi asosiy muammolarni tizimli ravishda aniqlashga erishgan [6]. Bank ilovalarini sentiment tahlili bir qancha davlatlarda o‘takizilib, o‘zining dolzarb va foydali uslub ekanlgini isbotlagan [7], [8], [9], [10].

Yuqoridagi adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, masofaviy bank xizmatlari va matn tahlili usullari bo‘yicha xalqaro miqyosda keng qamrovli tadqiqotlar mavjud. Biroq, O‘zbekiston sharoitida, ayniqsa tadbirkorlik subyektlari kesimida masofaviy bank xizmatlari xizmatlaridagi operatsion to‘siqlarni sun’iy intellekt yordamida tahlil qilish yetarli darajada o‘rganilmagan. Mazkur tadqiqot aynan shu ilmiy bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda O‘zbekistondagi tijorat banklarining ilovalariga yozilgan foydalanuvchi sharhlarini sun‘iy intellekt texnologiyalari yordamida tahlil qilish metodologiyasi qo‘llanildi. Ma’lumotlar Google Play platformasidan google-play-scraper kutubxonasi orqali to‘plandi. Tadqiqot doirasida 12 ta bank ilovasining 1–3 yulduzli (muammoli) sharhlari tanlab olindi.

Mavzularni aniqlash uchun Latent Dirichlet Allocation (LDA) modeli Gensim kutubxonasi yordamida qurildi. Optimal mavzular soni k=3 dan k=10 gacha iteratsiya qilinib, Coherence Score (c_v) metrikai asosida tanlandi.


Tahlil va natijalar. 12 ta ilovadan jami 225 ta muammoli sharh yig‘ildi. Dublikatlarni tozalash va minimal uzunlik filtri (15 belgi) qo‘llanilgandan so‘ng 216 ta sharh tahlilga yaroqli deb topildi. Eng ko‘p sharh Uzum Business (78 ta, 36,1%) va Ipak Yoli Business (52 ta, 24,1%) ilovalaridan yig‘ildi. Quyidagi jadvalda muammoli sharhlar sonini ko’rish mumkin

1-jadval. Ilovalar bo‘yicha muammoli sharhlar statistikasi

Ilova nomi	Sharhlar	O‘rt. reyting	Mavzular soni
Uzum Business	78	1,28	5
Ipak Yoli Business	52	1,29	5
Hamkorbank Business	26	1,58	5
Davr Bank Business	19	1,32	5
Xalq Bank Business	17	1,12	5

SQB Business	12	1,58	4
Milliy Business	6	1,00	3
Anorbank Business	3	1,00	3
TBC Business	3	1,67	2

1-rasm.Mavzular soni bo'yicha kogerentlik



2-rasm. Eng ko'p muammoli so'zlar



1-rasmda ko'rinib turganidek Coherence Score (c_v) tahlili k=5 da eng yuqori qiymatga (0,5307) erishganini ko'rsatdi. k=3 da model juda umumiy natijalar berdi (0,4784), k=6 dan boshlab esa ortiqcha segmentatsiya kuzatildi. Shu sababli 5 ta mavzu optimal deb qabul qilindi.

2-jadval. Sun'iy intellekt orqali aniqlangan muammo klasterlari

Mavzu	Kalit so'zlar (stemlar)	Sharhlar	O'rt. reyting
1	ro'yxatdan o'tish, kirish, bloklash, dostup	35	1,29
2	xodimlar, kirish, har kuni, ishlash	42	1,41
3	dastur, telefon, versiya, hisobot, ko'chirma	39	1,18
4	sertifikat, mobil, zarur	17	1,35
5	ishlash, pul, xato, eski, hisob	83	1,35

2-rasm va 2-jadvalda Eng katta klaster — Mavzu 5 (83 ta sharh, 38,4%) — umumiy texnik nosozliklar, pul o'tkazmalari va hisob bilan bog'liq xatolarni o'z ichiga oladi. Bu eng keng tarqalgan muammo turi bo'lib, barcha ilovalar uchun xosdir.

Xulosa va takliflar. Tadqiqot natijalari O'zbekiston tijorat banklarining biznes-ilovalarida beshta asosiy muammo klasterini aniqladi. Birinchidan, umumiy texnik nosozliklar va xatolar eng keng tarqalgan muammo (38,4%) bo'lib, pul o'tkazmalari, hisob balanslari va dasturning to'satdan to'xtashi kabi holatlarni qamrab oladi. Ikkinchidan, autentifikatsiya va ro'yxatdan o'tish jarayonlari murakkab va ko'p bosqichli bo'lib, tadbirkorlar uchun jiddiy to'siq yaratmoqda. Uchinchidan, ERI sertifikatlari bilan bog'liq texnik muammolar ayniqsa davlat banklari ilovalarida yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Shuningdek, dasturiy ta’minot sifati — yangilanishlar, versiyalar mosligi va hisobot funksiyalari — foydalanuvchilar orasida eng kuchli norozilik uyg‘otayotgani aniqlandi (o‘rtacha reyting 1,18). Bank xodimlarining mijozlarga xizmat ko‘rsatish sifati ham raqamli muhitda yetarli darajada emasligini ko‘rsatmoqda.

Coherence Score 0,53 darajasida bo‘lishi mavzular yetarli darajada ajralganini, ammo ma’lumotlar hajmining cheklanganligi (216 ta sharh) natijalarni ehtiyotkorlik bilan talqin qilish zarurligini ko‘rsatadi.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, quyidagi takliflar qilinadi:

1. **Texnik infratuzilmani mustahkamlash.** Banklarga ilovalarning barqarorligini oshirish, xatolarni real vaqtda monitoring qilish tizimlari joriy etish tavsiya etiladi.
2. **Autentifikatsiya jarayonlarini soddalashtirish.** Biometrik identifikatsiya (yuz tanish, barmoq izi) va MyID integratsiyasini kengaytirish, ko‘p bosqichli ro‘yxatdan o‘tish jarayonini qisqartirish lozim.
3. **ERI sertifikatlarini raqamlashtirilgan boshqaruvga o‘tkazish.** Ayniqsa davlat banklari uchun bulutli ERI xizmatlarini joriy etish va sertifikat yangilash jarayonlarini avtomatlashtirish taklif etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 05.10.2020 yildagi PF-6079-son

2. Shaikh, A.A. and Karjaluoto, H. (2015) Mobile Banking Adoption: A Literature Review. Telematics and Informatics, 32, 129-142.

3. Thakor, A.V. (2020). Fintech and banking: What do we know? Journal of Financial Intermediation, Volume 41, 2020, 100833.

4. Blei, D.M., Ng, A.Y., Jordan, M.I. (2003). Latent Dirichlet Allocation. Journal of Machine Learning Research, 3 (2003) 993-1022.

5. Kanti D, Arindra N.M,Sengupta P, (2024). Customer perceptions on open banking apps: Insights using Structural topic modeling, Journal of Retailing and Consumer Services, Volume 81, 104029,

6. Milian, E. Z., Spinola, M., & de Carvalho, M. M. (2019) Fintechs: A Literature Review and Research Agenda. Electronic Commerce Research and Applications, No. 34, 100833.

7. Çallı, L. (2023), "Exploring mobile banking adoption and service quality features through user-generated content: the application of a topic modeling approach to Google Play Store reviews", International Journal of Bank Marketing, Vol. 41 No. 2, pp. 428–454

8. Basu, B., Sebastian, M.P. and Kar, A.K. (2024), "What affects the promoting intention of mobile banking services? Insights from mining consumer reviews", Journal of Retailing and Consumer Services, Vol. 77, p. 103695

9. Oh Y.K. and Kim, J.M. (2022), "What improves customer satisfaction in mobile banking apps? An application of text mining analysis", Asia Marketing Journal, Vol. 24 No. 3, pp. 108–122.

10. Edwina, T.M. and Mauritsius, T. (2024), "Data-driven insights for mobile banking app improvement: a sentiment analysis and topic modelling approach for SimobiPlus user reviews", International Journal of Engineering Trends and Technology, Vol. 72 No. 6, pp. 347–360

РОЛЬ МОДЕЛЕЙ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ПРОЦЕССОВ ОЦЕНКИ ОБЪЕКТОВ НЕДВИЖИМОСТИ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ

Мансурова Сайёра Бахтияровна
Ташкентский архитектурно-строительный институт,
докторант
ORCID: 0009-0009-8204-3963

Аннотация. В данной статье исследуются теоретико-методологические основы цифровой трансформации процессов оценки объектов недвижимости в промышленном секторе и применения в этой области моделей искусственного интеллекта. Автор анализирует проблемы несоответствия традиционных методов оценки специфике промышленных активов и обосновывает необходимость использования алгоритмов машинного обучения и технологий Большие данные. В результате исследования раскрыты преимущества и экономическая эффективность внедрения моделей ИИ при определении рыночной стоимости промышленной недвижимости, что способствует повышению точности оценки и формированию инновационной цифровой среды в данной сфере.

Ключевые слова: промышленная экономика, оценка недвижимости, цифровая трансформация, искусственный интеллект, машинное обучение, инновационные модели, большие данные, PropTech.

Введение. В условиях форсированной цифровизации глобальной экономики и интеграции технологий Индустрии 4.0, цифровая трансформация традиционных бизнес-процессов становится определяющим вектором обеспечения конкурентоспособности национальных экономических систем. В данном контексте стратегическую значимость приобретает модернизация методологии оценки объектов недвижимости, особенно в промышленном секторе. Высокая капиталоёмкость, технологическая сложность и узкая специализация промышленных активов диктуют необходимость перехода от дискретных методов анализа к адаптивным интеллектуальным моделям, способным обеспечить прецизионную точность при определении стоимости.

Традиционный инструментарий оценки (сравнительный, доходный и затратный подходы) в современных реалиях сталкивается с проблемой «информационной асимметрии» и ограниченной эффективностью. Это обусловлено специфичностью промышленных объектов, дефицитом верифицированных рыночных данных и сложностью учёта динамических факторов, влияющих на стоимость в условиях волатильности рынков. Интеграция технологий большие данные и алгоритмов машинного обучения позволяет нивелировать данные барьеры, трансформируя процесс оценки в высокотехнологичный аналитический цикл, способный выявлять скрытые кофакторы стоимости.

Для Республики Узбекистан задачи цифровой трансформации оценочной деятельности коррелируют с приоритетами «Стратегии развития Нового

Узбекистана», а также целевыми показателями Указов и Постановлений Президента РУз, направленных на создание фундамента «Цифровой экономики». В частности, реализация мер по внедрению искусственного интеллекта и созданию открытых цифровых платформ кадастровой и рыночной информации формирует институциональную среду для внедрения инновационных оценочных технологий. Переход на международные стандарты оценки в совокупности с использованием ИИ-моделей рассматривается не только как технологический апгрейд, но и как механизм минимизации субъективных рисков и повышения транспарентности рынка.

Таким образом, исследование роли моделей искусственного интеллекта в трансформации процессов оценки промышленной недвижимости является актуальной научно-практической задачей. Результаты исследования имеют принципиальное значение для повышения эффективности управления государственными и частными промышленными активами, оптимизации инвестиционных потоков и обеспечения устойчивого экономического роста страны в условиях цифрового перехода.

Обзор литературы по теме. Процесс цифровой трансформации оценочной деятельности в последние годы перешел от этапа автоматизации расчетов к этапу внедрения интеллектуальных аналитических систем. В контексте четвертой промышленной революции оценка промышленных активов рассматривается не как статичная процедура, а как динамический элемент цифровых двойников предприятий.

Современные исследователи, такие как Mullainathan S. и Jannin J. (2021)[157], подчеркивают, что в условиях высокой неопределенности промышленных рынков «алгоритмическая оценка минимизирует когнитивные искажения эксперта, обеспечивая высокую степень объективности». В сегменте индустриальной недвижимости это подтверждается работами Lopez-Granados et al. (2022)[158], которые обосновывают превосходство глубокого обучения над классическими гедонистическими моделями при анализе сложных инфраструктурных объектов.

Особое внимание в новейшей литературе уделяется интеграции пространственных данных и машинного обучения. Wang Y. и соавторы (2023)[159] в своих исследованиях доказывают, что использование ансамблевых методов позволяет учитывать синергетический эффект между местоположением промышленной зоны и логистическими издержками предприятия, что является критически важным для оценки стоимости в рамках концепции «умных городов» и индустриальных парков.

Роль Большие данные в снижении информационной асимметрии на рынке промышленной недвижимости детально раскрыта в работах Saull A. и Baum A.

[157] Mullainathan, S., & Jannin, J. (2021). Machine Learning: An Applied Econometric Approach. Journal of Economic Perspectives, 35(4), 112–134.

[158] Lopez-Granados, A., et al. (2022). Deep Learning vs. Hedonic Models: Comparative Analysis in Industrial Asset Valuation. Journal of Real Estate Research, 44(2), 215–238.

[159] Wang, Y., et al. (2023). Ensemble Methods (XGBoost and LightGBM) for Industrial Zone Valuation in Smart City Frameworks. Sustainable Cities and Society, Vol. 89, 104321.

(2024)[160]. Авторы вводят понятие «алгоритмической прозрачности», утверждая, что доступ к массивам данных о энергопотреблении, экологических индексах и износе оборудования через IoT-датчики фундаментально меняет структуру доходного подхода к оценке.

В Республике Узбекистан научный дискурс в этой сфере также активно развивается. Исследования Абдуллаева А.М. (2022)[161] и Исломовой Д.М. (2023)[162] подчеркивают институциональную значимость цифровизации кадастровых систем как фундамента для внедрения технологий ИИ. Однако, как отмечает Каримов Н.Г. (2024)[163], специфика оценки промышленных объектов в условиях свободных экономических зон Узбекистана требует разработки гибридных моделей, сочетающих в себе как традиционные стоимостные показатели, так и инновационные индексы технологической готовности активов. Таким образом, актуальный обзор литературы подтверждает, что мировой тренд направлен на создание самообучающихся систем оценки. Тем не менее, теоретические аспекты адаптации моделей ИИ к специфике промышленного сектора, характеризующегося низкой ликвидностью и высокой капиталоемкостью, остаются полем для активных научных дискуссий, что обуславливает значимость данного исследования.

Методология, цель и задачи исследования. Целью исследования является концептуальное обоснование и разработка инновационного инструментария цифровой трансформации процессов оценки промышленной недвижимости на основе синергии технологий большие данные и алгоритмов искусственного интеллекта, обеспечивающего прецизионную точность и транспарентность определения рыночной стоимости в условиях цифровой экономики Узбекистана.

Задачи исследования. Для достижения поставленной цели в работе решаются следующие задачи:

- **Ревизия методологии:** исследовать эволюционную динамику и выявить критические ограничения традиционных подходов (сравнительного, доходного и затратного) применительно к высокотехнологичным промышленным активам.
- **Анализ драйверов цифровизации:** проанализировать глобальные тренды цифровой трансформации и их детерминирующее влияние на экосистему оценочной деятельности.
- **Таксономия ИИ-моделей:** систематизировать теоретические основы и классифицировать алгоритмы машинного обучения, пригодные для аппроксимации стоимости промышленных объектов.

[160] Saull, A., & Baum, A. (2024). Algorithmic Transparency and Big Data in Real Estate: The Impact of IoT and ESG. PropTech Journal, 12(1), 45–62.

[161] Абдуллаев, А. М. (2022). Цифровизация кадастровых систем как фактор инновационного развития экономики Узбекистана. Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар, (3), 12–24

[162] Исломова, Д. М. (2023). Институциональные основы внедрения технологий искусственного интеллекта в оценочную деятельность. Монография. — Ташкент: "Fan", 180 с.

[163] Каримов, Н. Г. (2024). Гибридные модели оценки активов в свободных экономических зонах: баланс традиций и инноваций. Молия ва банк, (1), 5–18.

- **Технологическая интеграция:** обосновать архитектуру интеграции решений **PropTech** и потоков **Большие данные** в традиционные оценочные процедуры.
- **Дизайн концептуальной модели:** разработать многофакторную интеллектуальную модель оценки, учитывающую отраслевую специфику (индустриальные кластеры, СЭЗ) и технологический износ 4.0.
- **Оценка эффективности:** верифицировать экономический эффект и антикоррупционный потенциал внедрения интеллектуальных систем в национальную оценочную практику.
- **Институциональное проектирование:** идентифицировать барьеры внедрения ИИ в Республике Узбекистан и разработать дорожную карту по совершенствованию цифровой инфраструктуры оценки.

Методология исследования. Методологический базис исследования базируется на конвергенции системного подхода и методов интеллектуального анализа данных. В работе применены:

1. **Методы системного и компаративного анализа:** для сопоставления архитектуры традиционных и цифровых платформ оценки.
2. **Продвинутая аналитика и Машинное обучение:** Применение ансамблевых методов и **Искусственных нейронных сетей** для моделирования сложных нелинейных зависимостей факторов стоимости.
3. **Методы обработки Большие данные:** Обработка гетерогенных данных (структурированных кадастровых и неструктурированных рыночных данных) для снижения информационной асимметрии.
4. **Эконометрическое моделирование:** для статистической верификации гипотез о влиянии цифровых и экологических кофакторов на капитализацию промышленных предприятий.

Информационная база исследования: Нормативно-правовой массив Республики Узбекистан (в т.ч. стратегии «Цифровой Узбекистан – 2030» и «Индустрия 4.0»), статистические панели Агентства статистики, отчетные данные ГУП «Центр управления государственными активами», а также репозитории международных баз данных недвижимости и кейсы глобальных PropTech-компаний.

Анализ и обсуждение результатов. В рамках исследования была разработана интеллектуальная модель оценки стоимости объектов промышленной недвижимости на основе алгоритма градиентного бустинга (**XGBoost**). Выбор данной модели обусловлен её способностью эффективно обрабатывать разреженные данные и выявлять нелинейные зависимости, которые характерны для индустриальных активов Узбекистана.

1. Построение математической модели

Для оценки рыночной стоимости *(V)* промышленного объекта использовалась многофакторная функция, аппроксимированная с помощью ансамбля деревьев решений:

$$\hat{V} = \sum_{K=1}^{K} f_k\,(X_I),\ f_K \in F$$

Где:

- $\boldsymbol{X_i}$ — вектор признаков объекта (площадь, возраст, индекс цифровизации, расстояние до логистических узлов);
- $\boldsymbol{f_k}$ — независимое дерево решений;
- $\boldsymbol{K}$ — количество деревьев в ансамбле.

Целевая функция минимизации ошибки (Ob_j) с учетом регуляризации (Ω) для предотвращения переобучения:

$$Obj(\theta) = \sum_{i}^{n} L(y_i, \hat{y_i}) + \sum_{k=1}^{K} \Omega(f_k)$$

Где:

- $\boldsymbol{Obj(\theta)}$— общая целевая функция, которую алгоритм стремится минимизировать в процессе обучения.
- $\sum_i^n \boldsymbol{L(y_i, \hat{y}_i)}$ — функция потерь, измеряющая расхождение между фактическим значением стоимости и прогнозным значением, полученным моделью. Она отвечает за **точность** модели.
- $\sum_{k=1}^{K} \boldsymbol{\Omega(f_k)}$— член регуляризации. Он контролирует сложность деревьев решений и предотвращает **переобучение** модели.
- **n** — количество объектов в обучающей выборке.
- **K** — общее количество деревьев решений в ансамбле.

2. Факторный анализ и важность признаков

В ходе обучения модели на данных по промышленным зонам г. Ташкента и Ташкентской области (250 объектов) была определена значимость различных факторов. Традиционные факторы (площадь, материал стен) дополнились цифровыми и инфраструктурными кофакторами:

Фактор (Признак)	**Вес %**	**Описание**
Логистическая доступность	32%	Близость к СЭЗ, ЖД узлам и магистралям
Энергообеспеченность	25%	Выделенная электрическая мощность (кВт)
Цифровой паспорт объекта	18%	Наличие BIM-модели и уровень автоматизации
Возраст и износ	15%	Физический и функциональный износ 4.0
Экологический индекс (ESG)	10%	Уровень энергоэффективности и выбросов

Таблица 1. Оценка значимости факторов в интеллектуальной модели оценки промышленной недвижимости на основе алгоритма XGBoost.

Представленная таблица (Таблица 1) отражает результаты иерархического анализа факторов, влияющих на формирование рыночной стоимости промышленных объектов в разработанной интеллектуальной модели. В отличие от традиционных методов оценки, где превалируют физические характеристики здания, данная модель, обученная на базе алгоритма **XGBoost**, выявила высокую значимость инфраструктурных и цифровых кофакторов.

Ключевые выводы по данным таблицы:

1. **Логистическая доминанта (32%):** Модель определила близость к свободным экономическим зонам и транспортным узлам как наиболее весомый фактор. Это подтверждает гипотезу о том, что для промышленных предприятий стоимость недвижимости неразрывно связана с минимизацией операционных издержек на логистику.
2. **Энергетический потенциал (25%):** Высокий удельный вес выделенной электрической мощности подчеркивает энергоемкость современного промышленного производства. В условиях дефицита мощностей, наличие готовой энергетической инфраструктуры создает значительную «ценовую премию».
3. **Цифровизация и Инновации (18%):** Включение «Цифрового паспорта объекта» в процесс оценки является инновационным подходом. Это позволяет учитывать не только стены, но и технологическую «интеллектуальность» здания, что напрямую коррелирует с темой конференции о цифровой трансформации бизнеса.
4. **Экологическая ответственность (10%):** относительно новый для локального рынка фактор **ESG** уже начинает оказывать влияние на стоимость. Модель фиксирует растущий спрос инвесторов на энергоэффективные и экологически безопасные производственные площади.

Таким образом, использование ИИ позволило математически обосновать влияние современных «невидимых» факторов на капитализацию активов, что практически невозможно реализовать с высокой точностью в рамках стандартных сравнительных процедур.

Результаты проведенного исследования на базе алгоритма машинного обучения **XGBoost** позволяют сделать ряд принципиальных выводов, характеризующих текущее состояние и векторы цифровизации оценочной деятельности в промышленном секторе Узбекистана.

1. Институциональный сдвиг: от затратного метода к интеллектуальному моделированию

Сравнительный анализ показал, что традиционные методы оценки, опирающиеся на затратный подход, обладают существенной погрешностью (12–15%), обусловленной высокой долей субъективизма эксперта. Внедрение модели на базе XGBoost позволило снизить показатель **MAPE до 4,2%**.

- **Дискуссионный аспект:** Мы наблюдаем трансформацию процесса оценки из «искусства экспертной оценки» в «точное количественное прогнозирование». Это означает, что для промышленного бизнеса стоимость активов становится более прозрачной и предсказуемой, что критически важно для привлечения инвестиций и банковского кредитования под залог недвижимости.

2. Декомпозиция факторов стоимости

Выявленная иерархия факторов (логистическая доминанта 32%, энергоэффективность 25%, цифровизация 18%) отражает структурные изменения в требованиях рынка к промышленным объектам:

- **Логистический детерминизм:** Высокая значимость близости к свободным экономическим зонам подтверждает гипотезу о том, что для промышленного предприятия операционная эффективность (минимизация транспортных издержек) является фундаментальным драйвером капитализации.
- **Энергетический суверенитет:** Удельный вес фактора энергоэффективности (25%) свидетельствует о том, что в условиях дефицита энергоресурсов рынок начинает премировать объекты с современной инфраструктурой энергоснабжения, рассматривая их как активы с низким уровнем операционных рисков.
- **Цифровизация как актив:** Включение BIM-моделей (Цифрового паспорта объекта) в процесс оценки (18%) является маркером перехода к модели «Индустрии 4.0». Наличие цифрового двойника здания перестает быть технической деталью и становится фактором ликвидности, напрямую влияющим на рыночную оценку.

3. Влияние ESG-повестки на промышленный сектор

Результаты подтверждают, что ESG-фактор (10%) перестал быть номинальным и становится инструментом капитализации. Модель зафиксировала повышенный интерес инвесторов к «зеленым» промышленным площадкам. Это создает стимул для девелоперов и собственников промышленных активов инвестировать в экологическую модернизацию, так как это математически обоснованно ведет к росту стоимости активов.

4. Практические следствия и ограничения модели

Масштабирование данной модели на уровень национальной экономики позволит решить следующие задачи:

- **Снижение асимметрии информации:** ИИ выступает как нейтральный арбитр, устраняя конфликты интересов между сторонами сделки.
- **Ускорение принятия решений:** Автоматизация процесса позволяет сократить время на проведение оценки с нескольких дней до минут, что радикально повышает эффективность управления портфелями промышленной недвижимости.

Ограничения исследования: стоит отметить, что высокая точность модели (MAPE 4,2%) напрямую зависит от качества и репрезентативности обучающей выборки (Большие данные). В условиях формирования цифровой среды в Узбекистане необходимо создание единого государственного реестра данных о промышленной недвижимости, что позволит повысить точность предиктивных моделей до международного уровня (менее 3%).




Рис. 1. Гистограмма важности признаков при оценке стоимости промышленной недвижимости

На Рисунке 1 наглядно представлено распределение весовых коэффициентов, определенных алгоритмом **XGBoost**. Визуализация подтверждает, что в современных условиях цифровая и энергетическая инфраструктура объекта (суммарно 43%) начинает конкурировать по значимости с фундаментальными логистическими факторами (32%). Это доказывает гипотезу о том, что интеллектуальные модели способны выявлять скрытые корреляции, которые часто игнорируются при субъективном подходе эксперта-оценщика. К прочим факторам (15%) были отнесены такие традиционные показатели, как физический возраст здания, материал перекрытий и удаленность от административного центра города.

Результаты моделирования показывают, что традиционная оценка (фокусирующаяся на износе) охватывает лишь около **15%** реальной рыночной стоимости современного промышленного объекта, в то время как **инфраструктурно-технологический потенциал** определяет более **70%** его капитализации.

3. Сравнительный статистический анализ и верификация результатов (Традиционные методы против ИИ)

Для оценки прогностической способности разработанной модели был проведен имитационный эксперимент на базе выборки из 10 контрольных объектов промышленного назначения, расположенных в Ташкентской области. Сравнение проводилось между результатами экспертной оценки (традиционный затратный и сравнительный методы) и прогнозными значениями, сгенерированными алгоритмом **XGBoost**.

Метрики оценки точности

Для количественного измерения эффективности моделей использовался показатель средней абсолютной ошибки в процентах (**MAPE — Mean Absolute Percentage Error**), который рассчитывается по формуле:

$$\text{MAPE} = \frac{100\%}{\text{n}} \sum_{\text{i=1}}^{\text{n}} \left| \frac{y_i - \hat{y}_i}{y_i} \right|$$

- **MAPE** — средняя абсолютная ошибка в процентах. Является ключевым индикатором точности: чем ниже значение MAPE, тем выше прогностическая способность модели.
- **n** — объем выборки (общее количество оцененных объектов недвижимости).
- y_i — фактическая рыночная стоимость i-го объекта (эталонное значение).

Использование метрики MAPE обусловлено необходимостью получения объективной оценки работы алгоритма в условиях специфичного рынка промышленной недвижимости Узбекистана. В то время как традиционные методы часто допускают погрешность более 12-15% из-за субъективности экспертного мнения, применение данной формулы к результатам модели ИИ показало снижение ошибки до 4.2%, что подтверждает высокую статистическую значимость исследования.

Выводы и рекомендации. Проведенное исследование теоретических и прикладных аспектов внедрения искусственного интеллекта в процессы оценки промышленной недвижимости позволяет сформулировать следующие выводы:

1. Превосходство интеллектуальных алгоритмов: Апробация модели на базе алгоритма **XGBoost** показала радикальное преимущество перед традиционными методами оценки. Снижение средней абсолютной ошибки (**MAPE**) до **4,2%** (по сравнению с 12-15% при экспертной оценке) подтверждает высокую надежность машинного обучения при работе со специфическими активами промышленного сектора.

2. Пересмотр драйверов стоимости: Установлено, что в условиях цифровой трансформации классические факторы (физический износ, материал конструкций) уступают место технологическим и инфраструктурным показателям. Совокупный вес факторов **цифровизации (18%)** и **энергоэффективности (25%)** составляет **43%**, что свидетельствует о формировании новой модели рыночной привлекательности объектов.

3. Прозрачность и нейтральность: Использование ИИ позволяет минимизировать «человеческий фактор» и субъективизм оценщика. Это создает основу для формирования доверительной цифровой среды между государством, промышленными предприятиями и финансовыми институтами (банками).

Рекомендации для внедрения:

На основе полученных результатов предлагаются следующие рекомендации для развития сектора:

- **Формирование национальных баз данных (Большие данные):** для повышения точности моделей до уровня мировых стандартов (менее 3%)

необходимо создание единого государственного цифрового реестра параметров промышленной недвижимости, включая данные об энергопотреблении и наличии цифровых двойников (BIM).

- **Внедрение стандартов PropTech:** рекомендуется интегрировать обязательное наличие «Цифрового паспорта объекта» в стандарты оценки. Это позволит автоматизировать сбор данных для ИИ-моделей и повысить ликвидность промышленных зон.
- **Стимулирование «Зеленой» модернизации:** Учитывая выявленный вес ESG-факторов (10%), предприятиям рекомендуется инвестировать в экологическую эффективность, так как это напрямую и математически обоснованно ведет к росту рыночной стоимости их активов.
- **Образовательный компонент:** Необходима подготовка специалистов нового поколения — цифровых оценщиков, обладающих компетенциями как в области экономики недвижимости, так и в сфере анализа данных (Data Science).

Заключение: Переход от дискретной экспертной оценки к непрерывному интеллектуальному мониторингу стоимости активов является необходимым условием для успешной реализации стратегии цифровой трансформации экономики Узбекистана. Разработанная модель может служить фундаментом для создания автоматизированных систем оценки в масштабах всей республики.

Заключение и предложении. Завершая исследование роли моделей искусственного интеллекта в цифровой трансформации оценки промышленной недвижимости, можно сформулировать комплексный аналитический вывод:

1. Технологический прорыв в методологии: Традиционные подходы к оценке, доминировавшие десятилетиями, в современных условиях демонстрируют ограниченность (погрешность 12-15%), так как не способны в полной мере учесть динамику цифровых изменений. Внедрение алгоритма **XGBoost** позволило не только снизить статистическую ошибку до **4,2% (MAPE)**, но и перевести процесс оценки из категории «экспертного мнения» в категорию «доказательного анализа данных».

2. Формирование новой структуры стоимости: Анализ значимости признаков показал, что мы являемся свидетелями структурного сдвига. Если раньше ценность промышленного объекта определялась «стенами и землей», то сегодня **43% стоимости** генерируется за счет интеллектуальной и энергетической инфраструктуры. Это фундаментальный инсайт для инвесторов: капитализация активов теперь напрямую зависит от уровня их цифровой интеграции (BIM, PropTech).

3. Институциональное значение: Цифровизация процессов оценки способствует минимизации информационной асимметрии на рынке. Это критически важно для банковского сектора Узбекистана при расчете залоговых коэффициентов и для государства при мониторинге эффективности использования промышленных зон.

Практические предложения и рекомендации:

Для успешной имплементации результатов исследования в реальный сектор экономики предлагается:

- **Создание Национальной экосистемы данных:** рекомендуется инициировать создание централизованной базы данных параметров промышленных объектов. Без качественных «больших данных» даже самые совершенные модели ИИ теряют свою предсказательную силу.
- **Интеграция цифровых двойников в стандарты оценки:** предлагается закрепить на нормативном уровне использование данных BIM-технологий как обязательных параметров при определении рыночной стоимости современных производственных комплексов.
- **Стимулирование внедрения PropTech-решений:** Разработка и внедрение автоматизированных систем оценки (AVM) позволит предприятиям проводить переоценку активов в режиме реального времени, что радикально повысит гибкость финансового менеджмента.
- **Адаптация образовательных программ:** ввиду выявленной сложности интеллектуальных моделей, необходимо внедрение междисциплинарных программ обучения для специалистов-оценщиков, включающих модули по анализу данных (Data Science) и машинному обучению.

Итоговое заключение: Цифровая трансформация процессов оценки — это не просто техническое обновление инструментов, а стратегический переход к «умной» экономике. Модели искусственного интеллекта становятся гарантом объективности, прозрачности и точности, что в конечном итоге повышает инвестиционную привлекательность промышленного сектора Республики Узбекистан в условиях глобальной конкуренции.

Список использованный литературы

1. Закон Республики Узбекистан «Об оценочной деятельности» № ЗРУ-42 от 19.08.1999 г. (в ред. 2023 г.) Определяет принципы, субъектов, объекты и виды оценочной деятельности. Устанавливает, что результат оценки должен соответствовать требованиям рыночной достоверности, объективности и документальной обоснованности.
2.Закон «О государственной регистрации прав на недвижимое имущество» (ЗРУ-378 от 24.12.2014 г.) Регламентирует учет прав на объекты недвижимости, включая кадастровую стоимость как базу для налогообложения.
3.Закон «О кадастре» (ЗРУ-548 от 17.12.2019 г.) Устанавливает принципы ведения государственных кадастров, включая земельный, имущественный и градостроительный кадастры.
4.Постановление Кабинета Министров № 54 от 26.01.2018 г. «О мерах по совершенствованию порядка проведения оценочной деятельности» — утверждает порядок государственной аккредитации оценщиков, стандарты отчётности и критерии экспертного заключения.
5.Указ Президента Республики Узбекистан № УП-5580 от 28.11.2018 г. «О мерах по коренному реформированию системы управления государственной

недвижимостью» — подчёркивает необходимость внедрения информационных технологий и цифровых платформ в систему учета и оценки объектов.
6.Указ Президента № УП-101 от 07.02.2022 г. «О мерах по ускоренному внедрению цифровых технологий в системе управления недвижимостью» — устанавливает задание по внедрению автоматизированных систем оценки, интеграции кадастров с банками и налоговыми органами.
7.Национальные стандарты оценки (НСО) Применяются профессиональными оценщиками на территории Узбекистана. Включают правила по определению рыночной и иной стоимости, отчётности и методологии.
8.International Valuation Standards (IVS) — международные стандарты оценки, утверждаемые IVSC (International Valuation Standards Council). Особое внимание в последних редакциях уделено цифровой оценке, использованию AVM (Automated Valuation Models), Большие данные и учёту ESG-факторов.
RICS Global Valuation Standards (Red Book) — стандарты Британского королевского института оценщиков (RICS), содержащие требования к автоматизированной и массовой оценке.
9.TEGoVA – European Valuation Standards (EVS) — применимы в ЕС, охватывают массовую оценку, контроль качества отчётов, а также цифровые платформы оценки.
10.Mullainathan, S., & Jannin, J. (2021). *Machine Learning: An Applied Econometric Approach.* Journal of Economic Perspectives, 35(4), 112–134.
11.Lopez-Granados, A., et al. (2022). *Deep Learning vs. Hedonic Models: Comparative Analysis in Industrial Asset Valuation.* Journal of Real Estate Research, 44(2), 215–238.
12.Wang, Y., et al. (2023). *Ensemble Methods (XGBoost and LightGBM) for Industrial Zone Valuation in Smart City Frameworks.* Sustainable Cities and Society, Vol. 89, 104321.
13.Saull, A., & Baum, A. (2024). *Algorithmic Transparency and Большие данные in Real Estate: The Impact of IoT and ESG.* PropTech Journal, 12(1), 45–62.
14.Абдуллаев, А. М. (2022). *Цифровизация кадастровых систем как фактор инновационного развития экономики Узбекистана.* Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар, (3), 12–24.
15.Исломова, Д. М. (2023). *Институциональные основы внедрения технологий искусственного интеллекта в оценочную деятельность.* Монография. — Ташкент: "Fan", 180 с.
16.Каримов, Н. Г. (2024). *Гибридные модели оценки активов в свободных экономических зонах: баланс традиций и инноваций.* Молия ва банк, (1), 5–18.
17.Chen, L., & Miller, R. (2023). *Industry 4.0 and Digital Twins in Valuation: From Static to Dynamic Assessment.* International Journal of Industrial Management, 58, 102–115. *(Тавсия этилган қўшимча манба).*
18.My.gov.uz — информация о правовом статусе и собственниках недвижимости.

RAQAMLI BANK XIZMATLARI ASOSIDA KICHIK VA O‘RTA BIZNESNI MOLIYAVIY QO‘LLAB-QUVVATLASHNI RIVOJLANTIRISH

Usmonov Shavkatjon Shukurovich
Jamoat xavfsizligi universiteti,
“Iqtisodiy fanlar” kafedrasi
katta o‘qituvchisi, i.f.f.d. (PhD)
ORCID:0009-0006-1118-3465

Ismoilov Muhammadqodir Ulug’bek o’g’li
Jamoat xavfsizligi Universiteti
Magistratura tinglovchisi
ORCID: 0009-0007-6112-7987

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston iqtisodiyotining tayanch bo‘g‘ini bo‘lgan kichik va o‘rta biznes subyektlarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash tizimida raqamli bank xizmatlarining tutgan o‘rni va rivojlanish istiqbollari chuqur tadqiq etiladi. Shuningdek, raqamli kreditlash, onlayn hisob-kitob tizimlari va fintech yechimlarning tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga qo‘shayotgan hissasi ochib berilgan. Tadqiqot jarayonida tadbirkorlarning an’anaviy bank xizmatlaridan raqamli platformalarga o‘tishidagi asosiy to‘siqlar va ularni bartaraf etish yo‘llari aniqlangan.

Kalit so‘zlar: raqamli bank xizmatlari, fintech, kichik va o‘rta biznes, onlayn kreditlash, moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, raqamli transformatsiya, startap, bank ekotizimi, venchur kapitali, moliyaviy inklyuzivlik.

Kirish. Bugungi globallashuv va raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi sharoitida kichik va o‘rta biznes subyektlarining moliyaviy resurslarga bo‘lgan talabi tobora ortib bormoqda, bu esa bank sektoridan mutlaqo yangicha yondashuvlarni talab etmoqda. An’anaviy bank amaliyoti o‘rnini bosqichma-bosqich raqamli texnologiyalarga asoslangan innovatsion moliyaviy vositalar egallamoqda, bu jarayon esa tadbirkorlik faoliyatining samaradorligini sezilarli darajada oshirmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992-son Farmoni bilan tasdiqlangan “2020–2025-yillarga mo‘ljallangan bank tizimini isloh qilish strategiyasi”da moliyaviy xizmatlarni raqamlashtirish va ochiqlikni ta’minlash soha rivojining asosiy yo‘nalishlari sifatida belgilab berilgan. Ushbu strategiyaga muvofiq, tijorat banklari tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun raqamli infratuzilmani kengaytirish, onlayn kreditlash tizimlarini joriy etish hamda masofaviy bank xizmatlari ko‘lamini oshirish bo‘yicha izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi PF-16-son Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston - 2030” strategiyasini amalga oshirishga oid davlat dasturida ham aynan raqamli bank infratuzilmasini rivojlantirish orqali tadbirkorlik subyektlarini qo‘llab-quvvatlash masalasi alohida ustuvor yo‘nalish etib belgilangan. Jahon iqtisodiy forumi ma’lumotlariga ko‘ra, so‘nggi o‘n yilda raqamli moliyaviy xizmatlardan foydalanuvchi tadbirkorlik subyektlari soni global miqyosda 4,2 baravarga oshgan bo‘lib, bu tendensiya O‘zbekiston iqtisodiyoti uchun

ham bevosita dolzarb ahamiyat kasb etmoqda[2]. Shu bois ushbu maqolada raqamli bank xizmatlari orqali kichik va o‘rta biznesni moliyaviy qo‘llab-quvvatlashning mavjud holati, yuzaga kelayotgan muammolar va istiqbolli yo‘nalishlarni chuqur tahlil etish asosiy maqsad qilib qo‘yilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Raqamli bank xizmatlari va ularning kichik biznesni moliyaviy qo‘llab-quvvatlashdagi o‘rniga oid mahalliy hamda xorijiy tadqiqotchilarning ilmiy ishlanmalarini o‘rganish ushbu maqolaning nazariy poydevorini mustahkamladi.

Xususan, Xayrullayev Davrbek tomonidan 2025-yilda nashr etilgan “Raqamli bank xizmatlarining kichik biznesni moliyaviy qo‘llab-quvvatlashdagi o‘rni” mavzusidagi tadqiqot ishida raqamli bank platformalari kichik biznes uchun moliyaviy xizmatlar olish imkoniyatlarini 3,2 baravar oshirganligi ilmiy dalillar bilan asoslab berilgan[5]. Shuningdek, ushbu tadqiqotda onlayn kredit olish jarayoni an’anaviy usulga nisbatan 65 foiz tezroq amalga oshirilayotganligi qayd etilgan bo‘lib, bu esa raqamli transformatsiyaning iqtisodiy samaradorligini yaqqol namoyon etadi. Jahon banki tomonidan e’lon qilingan “Raqamli moliyaviy inklyuzivlik” hisobotida ta’kidlanishicha, rivojlanayotgan mamlakatlarda kichik va o‘rta biznesni raqamli bank xizmatlari orqali qo‘llab-quvvatlash yalpi ichki mahsulot o‘sishini 1,5–2,0 foiz punktga tezlashtirishga xizmat qilmoqda. Mahalliy tadqiqotchilar tomonidan ham bu borada qator izlanishlar olib borilgan bo‘lib, ularda asosiy e’tibor tijorat banklarining innovatsion moliyaviy xizmatlar va fintech yechimlar orqali tadbirkorlik subyektlarini rivojlantirish masalalariga qaratilgan. Mazkur maqola yuqoridagi tadqiqotlardan farqli ravishda, aynan O‘zbekistondagi amaliy holatni statistik ma’lumotlar, qonunchilik bazasi va real bank amaliyoti orqali kompleks tahlil qilishga e’tibor qaratadi. Shuningdek, maqolada so‘nggi yillarda mamlakatimiz bank sektorida faoliyat boshlagan “TBC Business” va “SQB Business” kabi raqamli bank platformalarining amaliy faoliyati ham tahlilga tortilgan . Adabiyotlar tahlili yakunida ayon bo‘ladiki, raqamli bank xizmatlari kichik va o‘rta biznesning nafaqat moliyaviy barqarorligini ta’minlash, balki ularning raqobatbardoshligini oshirishda ham hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolani tayyorlash jarayonida kompleks va tizimli yondashuv asosida bir nechta zamonaviy tadqiqot usullaridan unumli foydalanildi. Tahlil davomida qiyosiy taqqoslash usuli yetakchi metod sifatida qo‘llanilib, an’anaviy bank xizmatlari ko‘rsatish amaliyoti hamda zamonaviy raqamli bank platformalari samaradorligi o‘zaro solishtirildi. Iqtisodiy-statistik tahlil usuli orqali O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi va tijorat banklarining ochiq hisobotlarida keltirilgan raqamli ma’lumotlar qayta ishlandi, natijada tadbirkorlik subyektlarining raqamli bank xizmatlariga bo‘lgan talabi dinamikasi aniqlandi. Shuningdek, tizimli yondashuv yordamida raqamli bank xizmatlarining kichik va o‘rta biznesga ta’sir ko‘rsatuvchi barcha omillar - huquqiy baza, texnologik infratuzilma, kadrlar salohiyati va bozor talablari yaxlit holda o‘rganildi. Empirik ma’lumotlarni to‘plashda O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki, “O‘zsanoatqurilishbank” (SQB), “TBC Uzbekistan” va “Yangi Bank” kabi yetakchi moliya institutlarining 2024-2026-yillardagi rasmiy hisobotlaridan keng

foydalanildi[3]. Metodologik jihatdan xavf-xatarlarni baholashda ekspert baholash usulidan foydalanilib, raqamli bank xizmatlarining rivojlanishiga to‘sqinlik qilayotgan tizimli muammolar aniqlandi. Maqolaning tahliliy qismida keltirilgan statistik jadvallar aynan shu uslubiyat asosida tayyorlanib, raqamli moliyaviy xizmatlarning tadbirkorlik sektoriga ta’sirini aniq miqdoriy qiymatlarda ifodalab berdi. Bundan tashqari, mavjud qonunchilik bazasi tahlili orqali raqamli bank platformalarini huquqiy tartibga solish mexanizmlari ham tadqiq etildi.

Tahlil va natijalar. Olib borilgan kompleks tadqiqot natijasida O‘zbekistonda raqamli bank xizmatlari orqali kichik va o‘rta biznesni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash tizimi jadal rivojlanayotganligi, biroq bu borada qator tizimli muammolar saqlanib qolayotganligi aniqlandi. Quyida ushbu sohaga oid asosiy statistik ko‘rsatkichlar tahlili va ularning iqtisodiy mohiyati ochib berilgan.

1-jadval

O‘zbekiston Respublikasida 2024–2026-yillar mobaynida raqamli bank xizmatlari va kichik biznesni moliyaviy qo‘llab-quvvatlashning asosiy ko‘rsatkichlari dinamikasi.[164]

Ko‘rsatkichlar nomi	2024-yil	2025-yil	2026-yil I-chorak	O‘sish sur’ati
Raqamli bank foydalanuvchilari soni, mln nafar	1,6	2,46	2,85	78,1 %
“SQB Business” auditoriyasi, ming nafar	15	42	58	286 %
“TBC Business” ro‘yxatdan o‘tgan tadbirkorlar, ming nafar	–	25	38	152 %
Kichik biznesga ajratilgan raqamli kreditlar hajmi, trln so‘m	4,2	7,5	8,9	111,9 %
Raqamli bank orqali berilgan mikroqarzlar soni, ming dona	18	42	56	211,1 %
Bank mijozlari mamnunlik indeksi (NPS), %	65,4	71,7	74,3	13,6 %
Raqamli to‘lov tizimlari orqali amalga oshirilgan tranzaksiyalar hajmi, trln so‘m	19,5	23,7	85,1	12,8 %

Jadvalda keltirilgan raqamli ko’rsatkichlarni tahlil qilish natijasi shuni ko‘rsatadiki, mamlakatimizda raqamli bank xizmatlaridan foydalanuvchi tadbirkorlik subyektlari soni izchil ravishda ortib bormoqda. Xususan, “SQB Business” platformasi auditoriyasi 2024-yildagi 15 ming nafardan 2026-yilning birinchi choragida 58 ming nafarga yetganligi raqamli bank xizmatlariga bo‘lgan talabning nihoyatda yuqori ekanligini tasdiqlaydi. O‘zsanoatqurilishbank (SQB) tomonidan kichik va o‘rta biznesga qariyb 7,5 trillion so‘m miqdorida kreditlar yo‘naltirilib, ushbu yo‘nalishdagi o‘sish 1,8 baravarni tashkil etgan[3]. Bu raqamlar mamlakatda tadbirkorlik faolligi

[164] Statistika qo’mitasi tomonidan berilgan rasmiy ma’lumotlar asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

yuqoriligini va raqamli platformalar orqali moliyalashtirish mexanizmlari samarali ishlayotganligini koʻrsatadi.

2024-yilda “TBC Uzbekistan” tomonidan kichik va oʻrta biznes uchun birinchi toʻliq raqamli bank servisi - “TBC Business” xizmatining ishga tushirilishi esa ushbu sohadagi eng muhim yutuqlardan biri boʻldi. “TBC Uzbekistan” bosh direktori Nika Kurdiani ta’kidlaganidek, “TBC Business’ning ishga tushirilishi Oʻzbekistonda tadbirkorlar uchun moliyaviy xizmatlarni transformatsiya qilishda muhim qadam boʻlib, mamlakatning iqtisodiy oʻsishiga hissa qoʻshadi”. Platformada hisob ochish atigi bir necha daqiqa vaqt oladi, ma’lumotlarni tekshirish esa avtomatik tarzda amalga oshirilib, hech qanday hujjat talab qilinmaydi. 2024-yil yakunlariga koʻra, “TBC Uzbekistan” bankining mijozlar bazasi 17 million nafarga yetgan, sof foydasi 27 million AQSh dollarini tashkil qilgan boʻlib, bu raqamlar raqamli bank modelining nafaqat qulay, balki iqtisodiy jihatdan samarali ekanligini ham koʻrsatadi[6]. Oʻzbekiston bank sektoridagi yana bir muhim yangilik “Yangi Bank” faoliyati bilan bogʻliq. Mazkur bankning boshqaruvi raisi Svetlana Xe ta’kidlaganidek, “biznes uchun raqamli bank yaratish gʻoyasi bozorda kichik va oʻrta biznesga raqamli formatda mavjud boʻlgan bank mahsulotlari kerakligini tushunishdan kelib chiqqan”. Yangi Bank tomonidan tadbirkorlarga tranzaksiyalarni boshqarish, ish haqi loyihalari, korporativ kartalar, ekvayring va faktoring kabi keng qamrovli xizmatlar taqdim etilmoqda. Ushbu bankning faoliyati shuni koʻrsatmoqdaki, raqamli banklar an’anaviy banklarga nisbatan tezroq va kamroq byurokratik toʻsiqlar bilan ishlay oladi, bu esa tadbirkorlarning vaqtini tejashga va ularning biznes samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar. Olib borilgan kompleks tadqiqot natijalari shuni yaqqol namoyon etmoqdaki, Oʻzbekistonda raqamli bank xizmatlari orqali kichik va oʻrta biznesni moliyaviy qoʻllab-quvvatlash tizimi jadal rivojlanib borayotgan bir paytda, uni yanada takomillashtirish uchun qator chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur. Xulosa sifatida ta’kidlash joizki, raqamli bank platformalari tadbirkorlik subyektlariga moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirdi, biroq bu jarayon hali toʻliq yakunlanmagan.

- Birinchi taklif sifatida, hududiy nomutanosiblikni bartaraf etish maqsadida chekka tumanlarda raqamli infratuzilmani rivojlantirish dasturi qabul qilinishi lozim. Buning uchun mobil aloqa operatorlari va internet-provayderlar bilan hamkorlikda maxsus “Raqamli tadbirkor” loyihasi yoʻlga qoʻyilishi, unda tadbirkorlarga raqamli bank xizmatlaridan foydalanish uchun bepul internet-paketlar taqdim etilishi maqsadga muvofiqdir.
- Ikkinchi taklif, aholining raqamli moliyaviy savodxonligini oshirishga qaratilgan keng koʻlamli ta’lim dasturini amalga oshirishdan iborat. Har bir viloyat markazida tashkil etilayotgan “Yoshlar biznesi” markazlarida tadbirkorlar uchun bepul raqamli bank treninglari yoʻlga qoʻyilishi, shuningdek, onlayn vebinarlar va oʻquv video-darsliklari tayyorlanishi kerak.
- Uchinchi taklif, raqamli bank xizmatlarining xalqaro integratsiyasini kuchaytirishga oid. Jahon banki va Xalqaro moliya korporatsiyasi bilan hamkorlikda milliy raqamli

bank platformalarini xalqaro to‘lov tizimlariga ulash dasturi ishlab chiqilishi, bu orqali tadbirkorlarning tashqi savdo operatsiyalarini amalga oshirish imkoniyatlari kengaytirilishi zarur.

- To‘rtinchi taklif, venchur kapitali va startap ekotizimini rivojlantirish orqali innovatsion raqamli bank mahsulotlarini yaratishga qaratilgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 14-fevraldagi qaroriga muvofiq joriy etilayotgan “Yoshlar biznesi” dasturi doirasida yosh tadbirkorlarning raqamli moliyaviy xizmatlar sohasidagi startap loyihalariga alohida grant va imtiyozli kreditlar ajratilishi lozim. 2025-2027-yillarda ushbu dastur doirasida jami 350 ming nafar yosh qamrab olinishi rejalashtirilganligi bu boradagi ishlarning ko‘lami kengayib borayotganidan dalolat beradi.
- Yakuniy taklif sifatida, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan raqamli bank platformalari faoliyatini tartibga soluvchi maxsus me’yoriy-huquqiy baza ishlab chiqilishi va bu orqali kiberxavfsizlik talablari hamda ma’lumotlar himoyasi standartlari aniq belgilanishi zarur.

Xulosa qiladigan bo’lsak, mamlakatimizda raqamli bank xizmatlarini rivojlantirish orqali kichik va o‘rta biznesni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish uchun barcha zarur shart-sharoitlar mavjud bo‘lib, buning uchun faqatgina izchil siyosat va tizimli yondashuv talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. “Raqamli iqtisodiyot sharoitida tijorat banklari tomonidan kichik biznes subyektlarini rivojlantirish yo‘llari” - Zenodo ilmiy maqolasi, 2025.
2. O‘zsanoatqurilishbank rasmiy sayti, SQB.uz. 17.12.2025.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 14-fevraldagi qarori. “Yoshlar biznesi” dasturi joriy etilishi to‘g‘risida.
4. Xayrullayev D.N. “Raqamli bank xizmatlarining kichik biznesni moliyaviy qo‘llab-quvvatlashdagi o‘rni” – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ilmiy maqolasi, 2025 .
5. “TBC Uzbekistan kichik va o‘rta biznes uchun to‘liq raqamli bank servisi - TBC Business’ni ishga tushirmoqda” – UzDaily.uz, 23.12.2024 .
6. “TBC Business – Biznes uchun bank xizmatlari” – TBC Bank rasmiy sayti.

МАРКАЗИЙ БАНКНИНГ ТИЖОРАТ БАНКЛАРИ ФАОЛИЯТИНИ НАЗОРАТ ҚИЛИШ ТУРЛАРИ

Хусанбоев АҒзамжон Ғопоржонович
Тошкент менежмент ва иқтисодиёт институти
“Бизнес бошқаруви ва молия” кафедраси катта ўқитувчиси
ORCID: 0000-0002-7323-4815

Аннотация. Мақолада “банк назорати” тушунчаси, унинг моҳияти, иқтисодий аҳамияти, халқаро банк назорати, жаҳон тажрибаси, республикамиздаги банк тизими ва назорат қилиш тартиблари баён қилинган. Мақола якунида хулосалар келтирилган.

Калит сўзлар: Назорат, банк назорати, инспекция, пруденциал назорат, дистанцион назорат, Базель қўмитаси.

Киришда. Сўнгги йилларда банк назоратини ташкил этиш бўйича кўпгина давлатларда турлича қонунлар ва тартиблар қабул қилинган. Республикамизда Марказий банк томонидан тижорат банклари фаолиятини назорат қилинишининг асосий мақсади тижорат банкларига бирон-бир иқтисодий чора кўриш эмас, балки банк фаолиятида мавжуд бўлган камчиликларни бартараф этиб, банк тизимининг барқарорлигини ошириш натижасида банк омонатчилари ва кредиторларининг манфаатларини ҳимоя қилишдан иборат.

Банк назорати ва таҳлилидан бош мақсад банк фаолияти самарадорлигини оширишдан иборат. Республикамизда Марказий банкка банк тизимини бошқариш ҳуқуқи қонун асосида юклатилган. Марказий банк тижорат банкларини бошқариш, банк фаолиятини тартибга солиш мақсадида турли иқтисодий нормативлар ўрнатади. Ушбу нормативлар банк фаолиятини турли томонларини қамраб олади. Унда банк капиталига, активларига бериладиган йирик кредитлар ва инвестицияларга ҳамда банкка алоқадор шахслар билан амалга ошириладиган операцияларга чекловлар ўрнатилган. Бу ўрнатилган нормативлар банклар томонидан бажарилиши ва амал қилиниши Марказий банк томонидан доимий равишда назорат қилиб борилади. Уларнинг бири талабга жавоб бермайдиган бўлса, Марказий банк томонидан ушбу банк фаолиятини чегаралаш бўйича қонун доирасида санкциялар қўлланиши мумкин. Шу муносабат билан, банклар фаолияти Марказий банк томонидан доимий равишда назорат қилиб тартибга солиб турилиши лозим.

Мавзуга оид адабиётлар шарҳи. “Банк назорати тушунчаси”[165] ва унинг турлари ҳақида: З. Қурбонов, А. Рахимовлар томонидан “Банк назорати ва таҳлили” дарслигида келтирилган. Назорат – бу қонунчиликни таъминлаш бўйича турли давлат органларининг фаолият шакли деб қайд қилинган.

Банк назорати – давлат томонидан банк – молия тизимининг барқарор фаолият кўрсатишини таъминлаш, омонатчилар, кредиторлар ва мижозларнинг манфаатларини ҳимоя қилишга қаратилган фаолият йўналиши ҳисобланиши келтирилган.

[165] З.Қурбонов, А.Рахимов томонидан “Банк назорати ва таҳлили” Дарслик. Тошкент – 2022 йил. 5-бет.

Шунингдек, иқтисодчи олим М.А.Котляров[166] банк назоратига давлатнинг энг асосий иқтисодий ва ижтимоий функцияси сифатида қараб, унинг асосий мақсадлари омонатчилар манфаатларини ҳимоя қилиш ва банк тизими барқарорлигини таъминлашдан иборат эканлигини таъкидлайди.

Олимлар банк назоратини қуйидагича таърифлайдилар:

Масалан, Г.Г.Фетисов[167] банк назоратининг учта - олдини олиш, хабар бериш ва текшириш функцияларини ажратиб кўрсатган.

1. Олдини олиш функцияси. Кредит ташкилотларининг банк соҳасига кириб келиш жараёнларини ва улар фаолиятини тартибга солиш бўйича банк назоратида махсус инструментларнинг мавжудлигини англатади. Мазкур функция банк назорати бўйича махсус ваколатли органнинг банк тизимини шакллантириш ва барқарорлигини таъминлаш учун кредит ташкилотларига нисбатан тартибга солиш номалари ва талаблари билан таъминланганлигини назарда тутади.

2. Хабар бериш функцияси, Банклар фаолиятида салбий тенденцияларни ўз вақтида аниқлаш имконини берувчи ташхис қўйиш ва ҳаракат қилиш инструментларининг мавжудлигини англатади. Мазкур функция банк назорати бўйича махсус ваколатли органга ҳамда бевосита банкка юзага келаётган муаммолар тўғрисида хабар беради ва уларни фаол ҳаракат қилишга чорлайди.

3. Текшириш функцияси тартибга солувчи нормалардан четга чиқиш ҳолатларини, уларнинг юзага келиш сабабларини аниқлаш, кредит ташкилоти ҳамда банк назорати бўйича махсус ваколатли органнинг муаммоларини олдини олиш ва уларни бартараф этиш бўйича ҳаракатларининг самарадорлигини аниқлашга қаратилган. Ушбу функциянинг асосий инструменти – бу жойларда ўтказиладиган текширишлар услубидир.

Банк назорати мақсадлари О.И.Лаврушиннинг фикрига кўра, турли мамлакатларда банк назорати бўйича миллий тизимлар турлича шаклланган бўлсада, уларнинг барчаси учта асосий мақсадга йўналтирилган дейди.

1. Пул ва молиявий барқарорликни таъминлаш, яъни банкларнинг банкрот бўлишининг олдини олиш ва уларни соғломлаштириш бўйича чоралар кўриш.

2. Активлар сифатини ошириш ва потенциал хатарларни камайтириш эвазига банк тизими самарадорлигини ошириш.

3. Омонатчилар манфаатини ҳимоя қилишдир.

Таҳлил ва натижалар. Банклар фаолиятини ривожланиш тарихи ва ривожланган банк тизимини назорат қилишни ташкил этиш тажрибасига кўра ҳозирги кунда банк фаолиятини назорати учта усул билан амалга оширилмоқда.

Биринчи усули – бу Марказий банк томонидан тижорат банклари фаолиятини масофадан, яъни уларни молиявий ҳисоботларини таҳлил қилиш орқали амалга оширилса,

---

166 М.А.Котляров. Проблемы совершенствования пруденциального банковского надзора а России // Банковсикое дело. 2004. №3

167 Фетисов. Г.Г. Устойчивость, стабилность, равновесие и надежность банковской системы: понятия и критерии оценки // Законодательство и экономика. - №8. Август 2002 г.

Иккинчи усули – бу жойларда инспекция (инспекцион назорат), яъни барча молиявий ҳисоботлар ва уларга тегишли қўшимча маълумотлар тижорат банкларининг ўзида текшириш ўтказиш орқали амалга оширилади.

Учинчи усул – бу масофадан туриб ва жойларда текшириш усулларидан бир вақтда фойдаланишдан иборат. Банк фаолиятини назорат қилишни усулларини иккига ажратиб (дистанцион ва инспекцион) ўрганиш мақсадга мувофиқ.

Марказий банкнинг назорат департаментининг вазифалари банк тизими барқарорлигини сақлаб туриш, омонатчилар, қарз олувчилар ва кредиторларнинг манфаатлари ҳимоя қилинишини таъминлаш мақсадида тижорат банклари фаолиятини тартибга солиш ҳамда уларни масофавий назорат қилишдан иборат. Марказий банкнинг Инспекция департаменти Марказий банкнинг банк тизими барқарорлигини таъминлашга қаратилган назорат вазифаларидан келиб чиқиб, банклар, микрокредит ташкилотлари, ломбардлар ва уларнинг филиаллари фаолиятини таваккалчиликка асосланган банк назорати тамойиллари асосида инспекция қилиб бориш мақсадида ташкил қилинган.

Маълумки, Марказий банкнинг “Ўзбекистон Республикаси Марказий банки томонидан банклар ва уларнинг филиалларида инспекция (текшириш) ўтказиш тартиби тўғрисида”ги (рўйхат рақами: 2217, 14.04.2011й) Низомга асосан банклар ва уларнинг филиалларида инспекциялар ўтказиши белгиланган. Унга кўра, текширишнинг қуйидаги 4 та турлари мавжуд:

Комплекс инспекция қилиш – банклар ва уларнинг филиалларини ҳақиқий молиявий аҳволини ва банк фаолиятига хос бўлган хавф-хатарларни бевосита жойига чиқиш орқали ўрганган ҳолда уларнинг фаолиятига умумий баҳо бериш мақсадида бир вақтда инспекция ўтказилишини назарда тутувчи назорат туридир.

Масофадан назорат қилиш – муаммоларни бошланғич даврида аниқлаш мақсадида банклар томонидан Марказий банкка тақдим этиладиган ҳисоботлар таҳлили, шу жумладан, уларнинг молиявий ҳолатининг мониторингига асосланган назорат туридир.

Назорат тартибидаги инспекция қилиш – банк ва унинг филиалларида текшириш ўтказувчи таркибий тузилма томонидан охирги инспекцияда аниқланган хато ва камчиликларни бартараф этилиши аҳволини назорат қилиш мақсадида амалга ошириладиган текширишдир.

Қуйидаги ҳолларда алоҳида масалалар юзасидан инспекция қилиш ўтказилди.

- Ўзбекистон Республикаси Президентининг ёки Вазирлар Маҳкамасининг қарорларини муҳофаза қилиш масофадан назорат қилиш натижаларига кўра банклар молиявий ҳолатининг барқарор эмас деб топилиши ва омонатчилар ҳамда кредиторлар манфаатларига хавф-хатар туғдириши мумкин бўлган ҳолатлар мавжудлигида;

- банклар ва уларнинг филиаллари томонидан қонун ҳужжатлари бузилганлиги ҳақида Марказий банкка келган маълумотлар, шунингдек

фуқаролар ҳамда юридик шахслар мурожаатлари асосида инспекция ўтказилиши мумкин.

Бунда, инспекция муддати 30 календарь кундан ошмаслиги лозим. Алоҳида ҳолларда инспекция муддати Марказий банк фармойиши асосида узайтирилиши мумкин. Республикамизда банк назорати ва халқаро амалиёти бўйича Базель қўмитасининг тавсияларидан келиб чиқиб, тижорат банклари фаолиятини молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлари доирасида тартибга солувчи комплекс меъёрий ҳужжатлар ишлаб чиқилмоқда. Бунда тижорат банкларининг молиявий барқарорлигини таъминлаш мақсадида улар балансида мавжуд муаммоларни олдиндан аниқлаш ҳамда банк ликвидлиги пасайиши ва капитал тугаши юзага келишидан олдин огоҳлантирув чораларини кўриш тамойилларидан фойдаланилади.

Мамлакатларнинг кўпчилиги ушбу асосий тамойилларни маъқуллаган ва уларни тўлиқ амалга ошириш мажбуриятини олди. Асосий тамойиллар мамлакатлар томонидан назорат тизимларининг самарадорлигини баҳолаш, ишончли назорат амалиётининг асосига эришиш бўйича келгусидаги ишларни аниқлаш ҳамда назорат тизимлари ва амалиётларини янгилаш учун асос сифатида фойдаланилади. Асосий тамойиллар банк секторини тартибга солиш, назорат қилиш, бошқариш ва рискларни бошқариш учун мустаҳкам асос яратиш учун кенг қамровли стандартни тақдим этади. Улар назорат органларининг хавфсизлик ва ишончлилик масалаларини ҳал қилиш, назоратга истиқболли ва таваккалчиликка асосланган ёндашувни илгари суриш ҳамда банклар ва банк фаолияти хавфсизлиги ва мустаҳкамлигига таҳдидларни юмшатиш учун эрта аралашув ва ўз вақтида назорат чораларини қўллашни рағбатлантириш бўйича ваколатларини белгилайди.

Баҳолаш методологияси юрисдикциялар томонидан асосий принципларга ва ФСАП контекстида мувофиқлик даражасини баҳолаш учун стандартдан қандай фойдаланиш кераклигини тавсифлайди; Самарали банк назоратининг зарурий шартларида самарали банк назорати боғлиқ бўлган, лекин назорат қилувчи органларнинг бевосита юрисдикциясига кирмаслиги мумкин бўлган бир қатор ташқи элементлар белгиланган. Халқаро амалиётда банк назорати усуллари текширув объектининг ҳудудий жойлашувига қараб уларни икки тоифага бўлиш мумкин. Мисол учун, Россия банки мисолида кўрадиган бўлсак:

Биринчи усул, Россия банк тизимида муҳим ва кенг тарқалган тартибга солиш усули. У Россия Федерацияси Марказий банкка тақдим этиладиган банкларнинг молиявий ҳисоботлари асосида тизимли равишда амалга оширилади.

Иккинчи усул, бу аудит усули, аксинча, банклар фаолиятининг барқарорлиги ва қонунийлигини жойида текшириш орқали назорат қилишдан иборат. Россия банки Россия банки томонидан тасдиқланган текшириш режасига мувофиқ назорат қилинадиган ташкилотларни икки йилда бир мартадан кўп бўлмаган режали текширишларни ўтказади. Бундай текширувларни ўтказишда Россия Федерацияси Марказий банкининг ваколатли вакиллари фаолият олиб бориладиган жойларга киришлари, назорат қилинадиган ташкилотнинг зарур

ҳужжатларини олишлари ва текширишлари ва уларни текшириш материалларига илова қилишлари мумкин.

Қуйидаги мавжуд тасниф тартибга солиш усулларини уларни бошлаган субъектга қараб ажратади:

- Давлат: банк қонунчилигининг барча норматив-ҳуқуқий ҳужжатлари тизими.

- Жамоатчилик: жамоатчилик фикрини ҳимоя қилувчи ташкилотлар, масалан, Россия банки ҳузуридаги Миллий банк кенгаши, истеъмолчилар, омонатчилар ва кредиторлар ҳуқуқларини ҳимоя қилиш жамиятлари томонидан амалга оширилади.

- Мустақил: аудиторлик ташкилотлари томонидан назорат қилиш элементлари. “Банклар ва банк фаолияти тўғрисида” Федерал қонунига мувофиқ, кредит ташкилотининг фаолияти ҳар йили Россия банки томонидан кредит ташкилотларини текшириш учун лицензияга эга бўлган аудиторлик ташкилоти томонидан аудитдан ўтказилади.

Ягона назорат механизмининг ишлаш тамойилларини ўз ичига олган ҳужжат бешта гуруҳни белгилайди:

- Муассасаларни муҳим ва аҳамиятсиз бўлганларга таснифлаш;

- Муҳим кредит ташкилотларини танлаш мезонлари:

- активларнинг қиймати 30 миллиард евродан ошган ёки активларнинг резидент мамлакат ЯИМга нисбати 20 фоиздан ошган (активлар миқдори камида 5 миллиард евро бўлиши керак);

- ташкилот ўз мамлакатидаги учта ташкилотдан бири бўлиши керак;

- ташкилот Европа барқарорлик механизмидан бевосита ёрдам олади. Европа Марказий банки евро ҳудудидаги 130 га яқин йирик банклар устидан бевосита назоратни амалга оширади, улар муҳим институтлар ҳисобланади. Қолган банклар (3200 га яқин) жойлашган давлатга қараб маҳаллий ваколатли органлар томонидан назорат қилинади. ЕСБ ушбу банклар фаолиятини назорат қилишда билвосита рол ўйнайди. Минтақавий назорат органлари билан биргаликда ЕСБ назорат стандартларини ишлаб чиқади ва тасдиқлайди.

Хулоса ва таклифлар. Ривожланган мамлакатлар банклари томонидан ўтказилган таҳлиллар шуни кўрсатмоқдаки, кейинги йилларда банк назорати нафақат молия секторида, балки бутун иқтисодиётда жуд муҳим рол ўйнайди. Банк назоратини ташкил этиш бўйича кўпгина давлатларда турли даврларда банк бўйича қонунлар ва тартиблар қабул қилинган. Республикамизда Марказий банк томонидан тижорат банклари фаолиятини назорат қилинишининг асосий мақсади банк тизимининг барқарорлигини ошириш натижасида банк омонатчилари ва кредиторларининг манфаатларини ҳимоя қилишдан иборат.

Марказий банк томонидан тижорат банклари фаолиятини масофадан яъни уларни молиявий ҳисоботларини таҳлил қилиш орқали амалга оширилса, иккинчи усули – бу жойларда инспекция, яъни барча молиявий ҳисоботлар ва уларга тегишли қўшимча маълумотлар тижорат банкларининг ўзида текшириш ўтказиш орқали амалга оширилиб борилмоқда.

Республикамизда банк назорати ва халқаро амалиёти бўйича Базель қўмитасининг тавсияларидан келиб чиқиб, тижорат банклари фаолиятини молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлари доирасида тартибга солувчи комплекс меъёрий ҳужжатлар ишлаб чиқилмоқда. Бунда тижорат банкларининг молиявий барқарорлигини таъминлаш мақсадида улар балансида мавжуд муаммоларни олдиндан аниқлаш ҳамда банк ликвидлиги пасайиши ва капитал тугаши юзага келишидан олдин огоҳлантирув чораларини кўриш тамойилларидан фойдаланилади. 2023 йил декабрь ойида Марказий банк бошқаруви томонидан “Банкларда рискка асосланган назорат қўлланмаси” тасдиқланган бўлиб, 2024 йилдан бошлаб тижорат банкларида инспекциялар ушбу ҳужжат асосида амалга оширилиши бошланди. Марказий банкнинг Пруденциал назорат департаменти ва Инспекция департаменти томонидан таваккалчиликка асосланган банк назорати тамойиллари асосида банклар назорат қилиб борилиши лозим.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. З. Қурбонов, А. Рахимовлар томонидан “Банк назорати ва таҳлили”. Дарслик – Тошкент.: 2022.

2. М.А. Котляров. Проблемы совершенствования пруденциального банковского надзора, а России // Банковское дело. 2004. №3

3. A. Sheng, Bank Supervision: Principles and Practice, Economic Development Institute of the World Bank, 1990, p-5.

4. Фетисов. Г.Г. Устойчивость, стабилность, равновесие и надежность банковской системы: понятия и критерии оценки // Законодательство и экономика. - №8. Август 2002 г.

5. Лаврушина. О.И. Банковское дело. Под ред. – М., Кнорус. 2011.

6. Норқобилов С, Дадабоева Ҳ, Жўраев Ў. Халқаро амалиётда банк анзорати. – Т.: “Иқтисод-молия”. 2007.

7.https://cbu.uz/oz/about/central-office/divisions/banklarni-prudensial-azoratidepartamenti-1/

8. https://lex.uz/uz/docs/-1770790

9. cbu. uz. сайтидан

IQTISODIY PROGNOZLAR ISHLAB CHIQISHDA EKONOMETRIK DASTURLARDAN FOYDALANISH ZARURATI VA ZAMONAVIY PROGNOZLASH VOSITALARI

Rasulov Jamshid Shokir o‘g‘li
TDIU, PhD, katta o‘qituvchi
ORCID: 0009-0005-2070-3269

Annotatsiya. Zamonaviy iqtisodiy tizimda prognozlar ishlab chiqish mamlakatlar iqtisodiyoti uchun muhim qarorlar qilish uchun zarur hisoblanadi. Shu sababli, an’anaviy tizimdan farqli ravishda iqtisodiy tizimlarni tahlil qilishda va samarali siyosat ishlab chiqarish uchun iqtisodchilarda zamonaviy ekonometrik vositalardan foydalanish haqida tushuncha hosil qilish zarurdir.

Kalit so‘zlar: YaIM, Indicio, FRED, EViews, R+, RATS, Stata, SAS.

Kirish. Makroiqtisodiy tahlillar doim dinamik xususiyatlarga ega bo‘lib diskret yoki davomiy ma’lumotlar bilan ishlashni talab qiladi. Ikkala ma’lumot turi bilan ishlashdan maqsad mavjud iqtisodiy vaziyatniahlil qilish va ushbu vaziyat yordamida kelajakni prognoz qilishdir. Uy xo‘jaliklari, hukumatlar va biznes egalari uchun asosli qarorlar qilishga yordam beradi. Davlat iqtisodiyoti miqyosida prognozlash iqtisodiy siyosatni ishlab chiqish, fiskal sohada esa davlat xarajatlarini kutilayotgan budjet daromadlariga mosligini ta’minlash uchun, monetar soha uchun esa muomalaga chiqarilishi kerak bo‘lgan pul massasini bozordagi tovar va xizmatlar hajmiga mosligini aniqlab noinflyatsion siyosiy qarorlar ishlab chiqarish uchun zarur hisoblanadi.

Zamonaviy iqtisodiyotda prognozlash turli xil yuqori aniqlikka ega bo‘lgan ekonometrik dasturlar yordamida aniqlanadi. Ular kichik, shuningdek katta miqdordagi sonlarni ham aniqlik bilan prognozlash xususiyatiga egadir. Hozirda ekonometrik vositalar YaIM, inflyatsiya, yalpi talab, moliyaviy xavflar va boshqa turli miqdorlarni prognozlash uchun qo‘llanilyapti.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada tizimli yondashuv, statistika, matematik modellashtirish, iqtisodiy tahlil, taqqoslash, ilmiy abstraksiya va boshqa usullardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Ushbu maqolaning asosiy qismida hozirgi kunda iqtisodiy soha vakillari tomonidan ko‘p qo‘llaniladigan zamonaviy ekonometrik modellar va vositalarning afzalliklari va kamchiliklarini muhokama qilinadi.

Indicio — bu ilg‘or ekonometrik, mashinali o‘rganish va statistik tadqiqot usullarini biznes yoki davlat siyosatidagi prognozlash ehtiyojlari bilan bog‘lashga qaratilgan zamonaviy avtomatlashtirilgan prognozlash platformasidir. Ushbu platforma "no-code" (kod yozishni talab qilmaydigan) interfeysga ega, buning yordamida chuqur ekonometrik bilimga ega bo‘lmagan tahlilchilarga ham prognoz modellarini yaratish, solishtirish va amaliyotga tatbiq etish imkoniga ega bo‘ladilar. “Indicio” platformasi ko‘plab ko‘rsatkichlarni kiritish uchun ko‘plab ma’lumotlar bazalarini (masalan, Macrobond, Bloomberg, Refinitiv, FRED, Eurostat va boshqalar) integratsiya qiladi. O‘zgaruvchilarni tanlash yoki qidirish algoritmi qaysi tashqi

ko‘rsatkichlar dolzarb ekanligini aniqlashga yordam beradi. Ushbu platforma o‘zida ko‘plab modellarni o‘z ichiga oladi, masalan mashinali o‘rganish, Bayes usullari, penallangan regressiyalar, aralash chastotali va vaqtli qatorlar modellari va boshqalar. Shuningdek, u modellarni birlashtirish, modellarni vaznlar bo‘yicha taqsimlash, ssenariylar tahlili, yetakchi indikatorlarni aniqlash va retrospektiv testlashni (backtesting) qo‘llab-quvvatlaydi. Tizim modellashtirish ishlarining asosiy qismini avtomatlashtiradi va bu tahlilchilarga natijalarni talqin qilish, joriy etish va monitoring qilishga ko‘proq vaqt ajratish imkonini beradi.

1-jadval

“Indicio” platformasi afzalliklari va kamchiliklari[168]

Afzalliklari	Kamchiliklari
kuchli avtomatlashtirish va foydalanish qulayligi;	ochiq manbali (open-source) dasturlardan qimmatroq;
kod yozishni talab qilmaydigan modellar tezkor ishlash imkonini beradi;	litsenziya yoki obuna xarajatlari foydalanish ko‘lamiga qarab yuqori bo‘lishi mumkin;
keng ko‘lamli modellar kutubxonasiga egadir;	shaxsiy modellarni kodlash imkoniyati cheklangan
tashqi ma’lumotlar manbalariga integratsiyalashgan kirish;	maxsus yoki mutlaqo yangi model spetsifikatsiyalarini yaratish imkoniyati mavjud bo‘lmasligi mumkin;

Iqtisodchilar tomonidan eng ko‘p foydalaniladigan navbatdagi ekonometrik dasturlardan bir bu EViews hisoblanadi. U iqtisodiy tadqiqotlar, markaziy banklar, konsalting va akademik doiralarda keng ommalashgan, uzoq yillik tarixga ega tijorat ekonometrik dasturiy paketidir. U vaqtli qatorlar tahlili, panel ma’lumotlar, kross-seksion tahlil, prognozlash, tarkibiy ekonometrik modellashtirish, simulyatsiya va gipotezalarni tekshirish kabi ko‘plab yo‘nalishlar uchun boy vositalar majmuasini taklif etadi. Dastur interfeysi asosan grafik va menyularga asoslangan bo‘lsa-da, u kodlar kiritish va paketli hisoblash (batch runs) jarayonlarini ham qo‘llab-quvvatlaydi. So‘nggi versiyalarida (masalan, EViews 14) mavsumiy tuzatish vositalari, kvantil ARDL baholash, MIDAS/GARCH takomillashtirmalari va tarkibiy uzilishlarni tekshirish kabi kengaytirilgan imkoniyatlar qo‘shilgan. Dastur an’anaviy ekonometrik modellashtirish (VAR, ARIMA, panel ma’lumotlar) bilan bir qatorda ma’lumotlarni samarali boshqarish, diagnostika va prognozlarni baholash vositalari zarur bo‘lgan hollarda yuqori samaradorlikka ega hisoblanadi.

[168]Muallif izlanishlari natijasida tuzilgan.

2-jadval

“EViews” ekonometrik dasturining afzalliklari va kamchiliklari[169]

Afzalliklari	Kamchiliklari
ko‘plab ekonometrik usullar joriy etilgan;	kichik tashkilotlar yoki mustaqil tahlilchilar uchun sezilarli darajada yuqori bo‘lishi mumkin;
kuchli diagnostika va baholash vositalari;	moslashuvchanlikning pastligi;
hamgrafikinterfeys (GUI/menyu) qulayligini, hamskriptlaryordamidaavtomatlashtirishningmavjudligi;	operatsion tizim cheklovi (asosan Windows operatsion tizimiga mo‘ljallangan);

“R+” — hozirgi kunda ekonometrik prognozlash uchun eng kuchli vositalardan biri bo‘lib qolmoqda. U o‘z ichiga “forecast”, “fable”, “tsibble”, “prophet”, “bsts”, “vars”, “coda” kabi paketlar, shuningdek, ko‘payib borayotgan Bayyes hamda penallashgan regresiya (penalized regression) paketlari bilan birga, R tahlilchilarga modellar spetsifikatsiyasi ustidan to‘liq nazorat, moslashuvchanlik va shaffoflikni taqdim etadi. Tahlilchilar vaqtli qatorlar, sabab-oqibat regresiyasi, holatlar fazosi (state-space) modellari va iyerarxik modellarni o‘zaro birlashtira oladilar. Modellarni baholash, qoldiqlar diagnostikasi, kross-validatsiya va prognozlashdagi noaniqliklarni hisoblash funksiyalari tizimda keng qo‘llab-quvvatlanadi. Dasturning ochiq kodli ekanligi yangi tadqiqot usullarini doimiy ravishda integratsiya qilish imkonini beradi.

3-jadval

“R+” dasturining afzalliklari va kamchiliklari[170]

Afzalliklari	Kamchiliklari
deyarli har qanday modelni kodlash imkonini beradi;	Boshqa dasturlar bilan taqqoslaganda o‘rganishning murakkabligi;
ko‘plab o‘quv resurslari va tayyor paketlar mavjudligi;	juda katta ma’lumotlar bazasi yoki o‘ta murakkab modellar bilan ishlaganda unumdorlik pasayishi mumkin;
Foydalanish mutlaqo bepul;	joriy etish va monitoring jarayoni nisbatan murakkabroq;

“RATS (Regression Analysis of Time Series)” dasturi — Estima kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan, ekonometrika va vaqtli qatorlar tahlili uchun mo‘ljallangan mashhur dasturiy ta’minotdir. U akademik va amaliy ekonometrik tadqiqotlar sohasida boy merosga ega. Dastur ARIMA, VAR, transfer funksiyalari / dinamik regresiya modellari, spektral tahlil, holatlar fazosi (state-space) modellari, GARCH/ARCH va boshqa ko‘plab usullarni qo‘llab-quvvatlaydi. RATS asosan buyruqlarga (command-based) asoslangan bo‘lsa-da, u grafik imkoniyatlar, ma’lumotlarni import/eksport qilish funksiyalari va kuchli diagnostika vositalariga ham ega. U oddiy vositalarga qaraganda ko‘proq nazorat va funksional imkoniyatlarni talab qiladigan, vaqtli qatorlarni prognozlash bilan shug‘ullanuvchi mutaxassislar tomonidan qo‘llaniladi.

[169]Muallif izlanishlari natijasida tuzilgan.
[170]Muallif izlanishlari natijasida tuzilgan.

4-jadval

“RATS” dasturining afzalliklari va kamchiliklari[171]

Afzalliklari	Kamchiliklari
keng ko‘lamli modellar majmuasi;	litsenziyalash xarajatlari;
aniqlik va moslashuvchanlik;	interfeys murakkabligi;
ishonchlilik;	Integratsiyalashda qiyinchiliklar;

Stata va SAS kabi dasturiy ta’minotlar ham ekonometrika, statistika va prognozlash sohasida asosiy vositalar hisoblanadi. Ushbu tijorat vositalari akademik doiralar, davlat siyosatini ishlab chiqish va korporativ ish jarayonlarida yuqori ishonchga ega. Ular keng qamrovli modellar kutubxonasi (chiziqli, chiziqli bo‘lmagan, panel, vaqtli qatorlar), diagnostika vositalari, shuningdek, skriptlar yozish, avtomatlashtirish va ko‘pincha sifatli texnik yordam hamda foydalanuvchilar hamjamiyatini taqdim etadi. Ko‘pgina tashkilotlar mustahkam prognozlar tayyorlash, ssenariylar tahlilini o‘tkazish yoki me’yoriy muvofiqlik hamda natijalarning takrorlanuvchanligini (reproducibility) ta’minlash zarur bo‘lganda aynan shu dasturlardan foydalanadilar.

5-jadval

“STATA va SAS” dasturlarinig afzallik va kamchiliklari[172]

Afzalliklari	Kamchiliklari
kuchli tijorat yordami;	litsenziyalash yoki texnik yordam qimmat bo‘lishi mumkin;
boy vositalar majmuasi	moslashuvchanlik sustroq kechishi mumkin;
integratsiya imkoniyati;	o‘rganish jarayoni murakkab bo‘lishi mumkin;

Yuqorida tahlil qilingan barcha ekonometrik vositalar o‘z tahlil ko‘lami va xususiyatiga qarab iqtisodiy tahlillarda va ishonchli prognozlar ishlab chiqishda qo‘llaniladi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, iqtisodiy jarayonlarning murakkablashishi va ma’lumotlar oqimining jadallashishi prognozlashda ekonometrik dasturlardan foydalanishni tanlov emas, balki zaruriyatga aylantirdi. Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, EViews va Stata kabi an’anaviy vositalar barqarorlik va rasmiy hisobotlar uchun hamon yetakchi bo‘lsa-da, R va Python kabi ochiq manbali tillar moslashuvchanlik va yangi algoritmlarni joriy etishda ustunlikka ega bo‘lmoqda. Prognozlar sifatini oshirish uchun tahlilchilardan nafaqat iqtisodiy nazariya, balki ushbu dasturiy vositalarning texnik imkoniyatlarini o‘zaro uyg‘unlashtirish talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Bayu Supardi., The role of econometrics in predicting economic trends: challenges and innovations, Journal of Economics and Economic Education Research, Volume 25, Special Issue 6, 2024.

[171]Muallif izlanishlari natijasida tuzilgan.
[172]Muallif izlanishlari natijasida tuzilgan.

2. Narayan, S., & Smyth, R. (2015). The financial econometrics of price discovery and predictability. International Review of Financial Analysis, 42, 380-393.
3. Jan Capek., Jesus Crespo Cuaresma., Niko Huazenberg. Macroeconomic forecasting in the euro area using predictive combinations of DSGE models. /International journal of forecasting. 2022.
4. Daron Acemoglu., Introduction to modern economic growth. Massachusetts institute of technology. April, 2017. – 255 p.

ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА ДОХОДНОСТЬ КОРПОРАТИВНЫХ ОБЛИГАЦИЙ БАНКОВ УЗБЕКИСТАНА И РОССИЙСКОЙ ФЕДЕРАЦИИ

Исмоилхужаева Угилой Гани кизи
Магистрант 2-го курса. Программа двух дипломов «Финансовые стратегии и аналитика»
Банковская -Финансовая академия (РУз)
Высшая школа экономики (РФ)
ORCID: 0009-0003-0822-0702

Аннотация. В работе проведен анализ факторов доходности (YTM) корпоративных облигаций банков Узбекистана и России на примере еврооблигаций за 2016–2025 гг. На основе моделей Pooled OLS и LSDV выявлено, что глобальный индикатор риска (индекс EMBI) сохраняет значимое отрицательное влияние на доходность в обеих спецификациях. Эффект замещающих облигаций значим только в сквозной регрессии и теряет значимость в LSDV, что указывает на его поглощение индивидуальными характеристиками эмитентов. Чувствительность к ставке ФРС выявляется исключительно в модели с фиксированными эффектами. Результаты исследования имеют практическое значение для понимания стоимости банковского фондирования, что напрямую влияет на условия кредитования субъектов малого и среднего бизнеса.

Ключевые слова: корпоративные облигации, еврооблигации, замещающие облигации, доходность (YTM), Узбекистан, Россия, модель LSDV, индекс EMBI, банковский сектор, стоимость фондирования, кредитование МСБ.

Введение. Развитие рынка корпоративных облигаций коммерческих банков является фундаментом стабильности современной финансовой системы, обеспечивая эффективное перераспределение инвестиционных ресурсов. В условиях глобальной волатильности для развивающихся рынков критически важным становится понимание детерминант стоимости долгового фондирования.

В контексте задач конференции данное исследование относится к секции 3 «Tadbirkorlik sohasida zamonaviy moliyaviy dastaklar», поскольку стоимость фондирования коммерческих банков является ключевым фактором, определяющим доступность кредитных ресурсов для малого и среднего бизнеса. Выявление факторов доходности корпоративных облигаций банков (на примере еврооблигаций) позволяет понять механизмы формирования цены заимствований для банков, что в конечном итоге транслируется в процентные ставки по кредитам для предпринимательского сектора.

Актуальность исследования обусловлена необходимостью глубокого анализа факторов доходности к погашению (YTM) корпоративных облигаций банков в условиях полярных рыночных трансформаций. С одной стороны, финансовая система Узбекистана проходит этап активной либерализации и интеграции в мировые рынки капитала. С другой стороны, российский рынок

переживает структурную трансформацию, связанную с переходом к механизму замещающих облигаций. Сравнительный анализ этих двух контекстов позволяет выявить как универсальные макроэкономические драйверы, так и оценить влияние структурной среды на ценообразование долговых инструментов.

Несмотря на наличие классических теорий (модель Мертона, многофакторные регрессии), эмпирические исследования банковского сегмента на развивающихся рынках остаются фрагментарными. Большинство авторов фокусируется на суверенном долге, оставляя без внимания специфику банковских эмитентов. Данная работа развивает авторские исследования 2025 года, расширяя географический охват и применяя более сложный эконометрический аппарат.

Научная проблема заключается в определении степени влияния глобальных макроэкономических шоков (индекс EMBI, ставка ФРС США) и внутренних регуляторных факторов на премию за риск по корпоративным облигациям банков в условиях различных институциональных режимов.

Целью статьи является выявление и сравнительная оценка ключевых детерминант доходности еврооблигаций коммерческих банков Узбекистана и России на основе эконометрического моделирования за период 2016–2025 гг.

Обзор литературы. Теоретические аспекты оценки стоимости заемного капитала и кредитных спредов подробно освещены в работах Ивашковской и Кукиной (2009) [3], а также в классических моделях Дамодарана (2005) [2]. Эмпирические исследования подтверждают, что кредитный рейтинг является доминирующим фактором: согласно Gabbi & Sironi (2005) [8], он объясняет до 79% вариации спредов. Применительно к российскому рынку Тонишевский (2019) [5] и Берзон (2013) [1] доказывают значимость как макроэкономических показателей (цена на нефть, курс национальной валюты), так и специфических факторов, таких как вероятность дефолта и качество корпоративного управления. Влияние странового риска на доходность долговых инструментов развивающихся стран также подчеркивается в работах Mugwanja (2021) [9] и Bellas et al. (2010) [6].

Методология исследования.Исследование базируется на анализе несбалансированных панельных данных за 2016–2025 гг. Выборка включает 61 наблюдение по 7 системно значимым банкам: Россия (Альфа-банк, Газпромбанк, Совкомбанк, ВТБ) и Узбекистан (Узнацбанк, Узпромстройбанк, Ипотека-банк). Для российского рынка учтен структурный переход к замещающим облигациям после 2022 г. через фиктивную переменную (X5).

Эконометрический инструментарий:

Для оценки факторов доходности последовательно применялись два подхода:

1. Сквозная регрессия (Pooled OLS) - для выявления общих закономерностей.
2. Модель с фиксированными эффектами (LSDV) - для учета индивидуальной специфики банков.

Гипотезы исследования:

H1a: Ставка ФРС США (X1) оказывает положительное влияние на доходность.

H1b: Ключевая ставка ЦБ (X2) оказывает положительное статистически значимое влияние.
H2a: Рост цен на нефть Brent (X3) оказывает отрицательное влияние на доходность.
H2b: На современном этапе значимость цен на нефть (X3) снижается (фактор становится незначимым).
H3: Динамика индекса EMBI (X4) оказывает статистически значимое влияние на доходность.

Анализ и результаты

Результаты регрессионного анализа факторов доходности еврооблигаций банков Узбекистана и России

Таблица 1

Переменная	Ожидаемый знак	Pooled OLS (Coeff.)	LSDV (Coeff.)
Intercept (Константа)	+/-	13,05***	14,63***
X1 (Fed Rate)	+	0,32 (p=0,119)	0,29** (p=0,028)
X2 (CB Rate)	+	0,09** (p=0,041)	0,19*** (p=0,001)
X3 (Brent)	-	-0,005 (p=0,68)	-0,007 (p=0,39)
X4 (EMBI)	-	-0,07** (p=0,046)	-0,10*** (p=0,001)
X5 (Dummy ЗО)	+	1,65*** (p=0,001)	0,05 (p<0,90)
R-squared (R^2)		0,79	0,92

Примечание: *** p < 0,01; ** p < 0,05; * p < 0,10.
Источник: расчеты автора в MS Excel (Real Statistics).

Анализ результатов Pooled OLS (R^2 = 0,79):

Сквозная регрессия показала, что ключевым структурным фактором является переход к замещающим облигациям (переменная X5). Коэффициент 1,65 (p < 0,001) указывает на то, что данный переход увеличивает доходность инструментов в среднем на 1,65% при прочих равных условиях. Также подтверждена значимость ключевой ставки национальных регуляторов (X2, p = 0,041) и индекса странового риска EMBI (X4, p = 0,046). Отрицательный коэффициент индекса EMBI (–0,07) указывает на то, что ухудшение глобального восприятия риска снижает доходность.

Ставка ФРС (X1) и цена нефти (X3) в данной спецификации статистически незначимы (p > 0,05).

Анализ результатов LSDV (R^2 = 0,92):

Применение модели с фиксированными эффектами позволило повысить точность анализа до R^2 = 0,92. В этой спецификации:

- Ставка ФРС США (X1) стала статистически значимой (коэфф. 0,29, p = 0,028), что подтверждает скрытое влияние глобальной монетарной политики на стоимость банковского долга при учёте индивидуальных эффектов эмитентов.

- Ключевая ставка ЦБ (X2) сохранила значимость, а её коэффициент вырос до 0,19 ($p < 0,001$), что указывает на более высокую чувствительность доходности к внутренней денежно-кредитной политике.
- Индекс EMBI (X4) остался значимым с возросшим коэффициентом (–0,10, $p < 0,001$).
- Переменная X5 (тип облигаций) стала статистически незначимой ($p = 0,908$), что означает: эффект замещающих облигаций, наблюдаемый в Pooled OLS, поглощается индивидуальными характеристиками банков-эмитентов в LSDV.

Индивидуальные эффекты банков (LSDV):

Анализ фиктивных переменных (результаты полной регрессии находятся в распоряжении автора) показал, что наибольшую положительную премию за риск среди российских банков демонстрирует Совкомбанк (коэфф. 2,91, $p < 0,001$). Банки Узбекистана (Узнацбанк, Узпромстройбанк, Ипотекабанк) демонстрируют отрицательные коэффициенты (от –0,73 до –0,08), что может свидетельствовать о более низкой доходности или восприятии инвесторами их как единого странового риска с высокой государственной поддержкой.

Заключение и предложения. Проведённое исследование позволяет сделать следующие выводы:

1. Дивергенция механизмов ценообразования. Рынок Узбекистана сохраняет классическую зависимость от глобального индекса EMBI (коэфф. –0,10, $p < 0,001$). Российский рынок, напротив, демонстрирует переориентацию на внутренние факторы, однако эффект замещающих облигаций значим только в сквозной регрессии (1,65%) и теряет значимость в LSDV, что указывает на определяющую роль индивидуальных характеристик банков.
2. Роль индивидуальных эффектов. Модель LSDV ($R^2 = 0,92$) доказала, что учёт специфики отдельных банков критически важен: именно он позволяет выявить значимость ставки ФРС и «очистить» ложную значимость переменной типа облигаций.

Подтверждение гипотез:

H1a подтверждена частично (только в LSDV).
H1b подтверждена в обеих спецификациях.
H2a не подтверждена, H2b подтверждена (нефть незначима).
H3 подтверждена в обеих спецификациях.

Практические рекомендации:

- Банкам Узбекистана: рекомендуется постоянный мониторинг глобальных индикаторов риска (EMBI) для эффективного планирования стоимости новых выпусков.
- Банкам России: рекомендуется работа над повышением индивидуального кредитного рейтинга и прозрачности отчётности, так как именно индивидуальные эффекты, а не статус замещающей облигации, определяют доходность.
- Регуляторам: Центральным банкам обеих стран рекомендуется использовать рынок облигаций как индикатор эффективности трансмиссионного механизма

денежно-кредитной политики, так как выявлена прямая статистически значимая связь между ключевой ставкой и доходностью (коэфф. 0,19, $p < 0,001$).

С практической точки зрения, снижение стоимости фондирования банков, выявленное через чувствительность к ключевой ставке (коэфф. 0,19, $p < 0,001$), создаёт потенциал для удешевления кредитных ресурсов, предоставляемых субъектам малого и среднего бизнеса, что соответствует задачам современной финансовой поддержки предпринимательства.

Список использованной литературы

1.Берзон Н. И., Теплова Т. В. Финансовый менеджмент: учебник / коллектив авторов. - 2014.

2.Дамодаран А. Инструменты и методы оценки любых активов. - Москва, 2008.

3.Ивашковская И. В., Кукина Е. Б. Детерминанты экономической прибыли крупных российских компаний. - 2009.

4.Котелкин С. В. Международная финансовая система. - 2004.

5.Тонишевский Е. А. Детерминанты доходности облигационного рынка. - 2019.

6.Bellas D., et al. Determinants of Emerging Market Sovereign Bond Spreads: Fundamentals vs Financial Stress. - 2010, p. 4–5.

7.Cavallo E., Valenzuela P. The Determinants of Corporate Risk in Emerging Markets: An Option-Adjusted Spread Analysis. - 2007, p. 15.

8.Giampaolo G., Andrea S. Which factors affect corporate bonds pricing? empirical evidence from eurobonds primary market spreads. - 2005.

9.Mugwanja C. Effect of country on yield in Kenyan Eurobonds. - 2021.

10. Brent Crude Oil [Электронный ресурс] // Trading Economics. - URL: https://tradingeconomics.com/commodity/brent-crude-oil

11.CBonds [Электронный ресурс] : база данных : доходность банков РФ. - URL: https://cbonds.ru/

12.iShares J.P. Morgan USD Emerging Markets Bond ETF : Historical Data [Электронный ресурс] // Investing.com. - URL: https://www.investing.com/etfs/ishares-jpmorgan-usd-em-mkts-bd-historical-data

13.United States Interest Rate [Электронный ресурс] // Trading Economics. - URL: https://ru.tradingeconomics.com/united-states/interest-rate

14.Ключевая ставка Банка России [Электронный ресурс] // Центральный банк Российской Федерации: официальный сайт. - URL: https://www.cbr.ru/hd_base/keyrate/

15.Краткий еженедельный обзор мировых сырьевых и финансовых рынков [Электронный ресурс] : [данные о доходности банков Узбекистана, 2020–2025 гг.] // SQB.uz : сайт АКБ «Узпромстройбанк». - URL: https://sqb.uz/press-center/analytics-ru/kratkiy-ezhenedelnyy-obzor-mirovykh-syrevykh-i-finansovykh-rynkov-na-13-01-2025g/

16.Ставка рефинансирования (ключевая ставка) [Электронный ресурс] // Центральный банк Республики Узбекистан: официальный сайт. - URL: https://cbu.uz/ru/monetary-policy/refinancing-rate/

“RAQAMLI PLATFORMALAR ORQALI XALQARO SAVDODA IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA’MINLASH MUAMMOLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH MEXANIZMLARI”

Muxtorov Boburmirzo Bahodir o‘g‘li
O‘zbekistor Respublikasi Markaziy banki
Buxoro viloyat bosh boshqarmasi.
Rahbar yordamchsi
ORCID: 0009-0007-1300-2450

Annotatsiya. Ushbu maqolada raqamli platformalar orqali xalqaro savdoda iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash muammolari va ularni bartaraf etish mexanizmlari tahlil qilinadi. Raqamli iqtisodiyot sharoitida kichik va o‘rta korxonalarning global bozorlarga kirishi bilan birga kiberxavfsizlik, tranzaksiya xavfsizligi va regulyativ muammolar dolzarb masala sifatida namoyon bo‘ladi. Tadqiqotda taqqoslash va statistik tahlil usullari qo‘llanib, O‘zbekiston va boshqa rivojlangan mamlakatlardagi tajribalar o‘rganildi. Muallif maqolada ilmiy va amaliy nuqtayi nazardan raqamli platformalarni samarali boshqarish va xavfsizlikni ta’minlash bo‘yicha takliflar keltiradi.

Kalit so‘zlar: Raqamli platformalar, xalqaro savdo, iqtisodiy xavfsizlik, kiberxavfsizlik, tranzaksiya xavfsizligi, regulyativ mexanizm, raqamli iqtisodiyot.

Kirish. So‘nggi yillarda jahon iqtisodiyotida yuz berayotgan chuqur transformatsion jarayonlar, xususan, raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi xalqaro savdo tizimining shakllanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Raqamli iqtisodiyotning kengayishi natijasida an’anaviy savdo shakllari o‘rnini elektron savdo va raqamli platformalar asosidagi savdo mexanizmlari egallamoqda. Xususan, Amazon, Alibaba, eBay, OLX, ZoodMall va Uzum Market kabi raqamli platformalar orqali amalga oshirilayotgan xalqaro savdo hajmi yil sayin ortib bormoqda. Ushbu platformalar nafaqat yirik korxonalar, balki kichik va o‘rta biznes subyektlari uchun ham global bozorlarga kirish imkoniyatini yaratmoqda.

Shu bilan birga, raqamli platformalar orqali xalqaro savdoni kengaytirish jarayonida iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Raqamli savdo jarayonlarida yuzaga kelayotgan kiberxavfsizlik tahdidlari, moliyaviy firibgarlik, ma’lumotlar xavfsizligi, to‘lov tizimlaridagi nosozliklar hamda tartibga solish mexanizmlarining yetarli darajada shakllanmaganligi xalqaro savdoda yangi xavf-xatarlarni keltirib chiqarmoqda. Ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda raqamli infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi va institutsional mexanizmlarning zaifligi iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashda muhim muammolarni yuzaga keltirmoqda.

Raqamli platformalar orqali amalga oshirilayotgan xalqaro savdo jarayonlarida iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash muammolari nafaqat alohida korxonalar, balki milliy iqtisodiyotlar darajasida ham muhim strategik masalaga aylanmoqda. Xususan, noqonuniy tranzaksiyalar, kiberhujumlar, shaxsiy ma’lumotlarning tarqalishi va noqonuniy tovarlar aylanmasi kabi holatlar davlatlarning iqtisodiy barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu sababli, raqamli platformalar faoliyatini samarali

tartibga solish, xavfsizlik mexanizmlarini takomillashtirish va xalqaro hamkorlikni kuchaytirish zarurati ortib bormoqda.

O‘zbekiston sharoitida ham raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish va elektron savdo hajmini oshirish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Mamlakatda Uzum Market, OLX, ZoodMall, E-auksion, Uztrade kabi raqamli platformalar orqali ichki va tashqi savdo operatsiyalari kengayib bormoqda. Shu bilan birga, xalqaro savdoda raqamli platformalardan foydalanish jarayonida iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash, kiberxavfsizlikni mustahkamlash va tranzaksiya xavfsizligini oshirish bo‘yicha kompleks choralar ko‘rish zarurati mavjud.

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi raqamli platformalar orqali xalqaro savdoda iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash muammolarini aniqlash hamda ularni bartaraf etish mexanizmlarini ilmiy jihatdan asoslashdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun maqolada quyidagi vazifalar belgilandi:

- raqamli platformalar orqali xalqaro savdoning iqtisodiy xavfsizlikka ta’sirini tahlil qilish;
- raqamli savdo jarayonida yuzaga keladigan asosiy xavfsizlik muammolarini aniqlash;
- xalqaro tajriba asosida iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash mexanizmlarini o‘rganish;
- O‘zbekiston sharoitida raqamli platformalar orqali savdoda xavfsizlikni oshirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iboratki, unda raqamli platformalar orqali xalqaro savdoda iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashning zamonaviy muammolari tizimli ravishda tahlil qilinib, ularni bartaraf etishning institutsional, texnologik va innovatsion mexanizmlari kompleks yondashuv asosida yoritilgan. Tadqiqot natijalari raqamli iqtisodiyot sharoitida milliy iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlash va xalqaro savdoni samarali tashkil etishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Jadval 1. Global raqamli platformalar orqali xalqaro savdoning o‘sish dinamikasi va iqtisodiy xavfsizlik omillari

Ko‘rsatkichlar	2019	2021	2023	2026 (prognoz)
Global e-commerce savdo hajmi (trln. USD)	3.4	4.9	6.3	7.5
Raqamli platformalar ulushi (%)	52	60	68	75
Xalqaro savdoda SME ishtiroki (%)	23	30	37	45
Kiberxavfsizlik tahdidlari soni (mingta)	650	920	1200	1500
Onlayn tranzaksiya firibgarligi ulushi (%)	1.8	2.3	3.1	3.8

Manba: World Bank, UNCTAD Digital Economy Report, Statista ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda raqamli platformalar orqali xalqaro savdoda iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash muammolari va ularni bartaraf etish mexanizmlarini kompleks o‘rganish maqsadida zamonaviy ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi. Tadqiqot metodologiyasi tizimli yondashuvga asoslangan bo‘lib, unda nazariy va empirik tahlil usullarining uyg‘unligi ta’minlandi.

Tadqiqotning metodologik asosini xalqaro savdo nazariyasi, raqamli iqtisodiyot

konsepsiyasi hamda iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashning institutsional yondashuvlari tashkil etadi. Raqamli platformalar faoliyati va ularning xalqaro savdoga ta’sirini baholashda tizimli tahlil, taqqoslash, statistik va iqtisodiy tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot jarayonida quyidagi asosiy metodlar qo‘llanildi:

Birinchidan, **tizimli tahlil usuli** orqali raqamli platformalar faoliyatining xalqaro savdoga ta’siri va iqtisodiy xavfsizlik bilan bog‘liq jihatlari kompleks tarzda o‘rganildi. Ushbu yondashuv raqamli savdo jarayonlarining o‘zaro bog‘liq elementlarini aniqlash va ularning iqtisodiy xavfsizlikka ta’sirini baholash imkonini berdi.

Ikkinchidan, **taqqoslash tahlili** asosida rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda raqamli platformalar orqali savdo jarayonlarining xavfsizlik darajasi o‘rganildi. Xususan, AQSh, Xitoy, Yevropa Ittifoqi mamlakatlari hamda O‘zbekiston tajribasi solishtirilib, mavjud muammolar va ularni hal etish bo‘yicha amaliy yondashuvlar tahlil qilindi.

Uchinchidan, **statistik tahlil usuli** yordamida xalqaro tashkilotlar (World Bank, UNCTAD, WTO, IMF) ma’lumotlari asosida raqamli platformalar orqali amalga oshirilayotgan savdo hajmi, tranzaksiya xavfsizligi va kiberxavfsizlik tahdidlari dinamikasi o‘rganildi. Statistik ma’lumotlar asosida raqamli savdo rivojlanishining iqtisodiy xavfsizlikka ta’siri baholandi.

To‘rtinchidan, **case study (amaliy holatlarni o‘rganish)** usuli orqali O‘zbekistonda faoliyat yuritayotgan Uzum Market, OLX, ZoodMall, E-auksion va Uztrade platformalarining faoliyati tahlil qilindi. Mazkur platformalarda to‘lov xavfsizligi, foydalanuvchi ma’lumotlarini himoya qilish, logistika jarayonlari va tranzaksiya monitoringi tizimi o‘rganilib, mavjud muammolar aniqlandi.

Beshinchidan, **ekspert baholash usuli** asosida raqamli savdo sohasida faoliyat yuritayotgan mutaxassislar va ilmiy tadqiqotchilarning fikr-mulohazalari umumlashtirildi. Ushbu yondashuv raqamli platformalar orqali savdoda iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Tadqiqotning axborot bazasini xalqaro tashkilotlar hisobotlari, ilmiy maqolalar, milliy statistik ma’lumotlar va raqamli platformalar faoliyatiga oid ochiq ma’lumotlar tashkil etdi. Olingan ma’lumotlar iqtisodiy-statistik usullar yordamida qayta ishlanib, umumlashtirildi.

Jadval 3. Tadqiqotda qo‘llanilgan metodlar va ularning maqsadi

Tadqiqot usuli	Qo‘llanish yo‘nalishi	Tadqiqotdagi maqsadi
Tizimli tahlil	Raqamli platformalar va xalqaro savdo tizimi	Xavfsizlik omillarini kompleks o‘rganish
Taqqoslash tahlili	Xalqaro va milliy tajriba	Rivojlangan davlatlar tajribasini aniqlash
Statistik tahlil	Global savdo va xavfsizlik ko‘rsatkichlari	Tendensiyalarni aniqlash
Case study	Uzum Market, OLX, ZoodMall	Amaliy muammolarni aniqlash
Ekspert baholash	Mutaxassislar fikri	Taklif va tavsiyalar ishlab chiqish

Manba: Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Mazkur metodologiya tadqiqotning ilmiy asoslanganligini ta’minlab, raqamli platformalar orqali xalqaro savdoda iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash muammolarini chuqur tahlil qilish imkonini berdi. Tanlangan metodlar natijalarni ishonchli va amaliy ahamiyatga ega bo‘lishini ta’minlaydi.

Tadqiqot natijalari va tahlil. Raqamli platformalar orqali xalqaro savdoning rivojlanishi global iqtisodiyotda yangi imkoniyatlar bilan birga iqtisodiy xavfsizlik bilan bog‘liq muammolarni ham yuzaga keltirmoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, raqamli savdo jarayonlarining kengayishi kichik va o‘rta biznes subyektlarining xalqaro bozorlarga kirishini osonlashtirgan bo‘lsa-da, tranzaksiya xavfsizligi, kiberxavfsizlik va ma’lumotlar himoyasi bilan bog‘liq tahdidlar ortib bormoqda.

Statistik tahlillar asosida aniqlanishicha, so‘nggi besh yil davomida global elektron savdo hajmi o‘rtacha 12–15 foizga o‘sib borgan. Ushbu o‘sishda raqamli platformalarning ulushi keskin ortgan. Ayniqsa, pandemiyadan keyingi davrda onlayn savdo operatsiyalarining ko‘payishi natijasida tranzaksiya xavfsizligi va ma’lumotlar himoyasi masalalari dolzarb ahamiyat kasb etgan.

Jadval 4. Global raqamli platformalar orqali xalqaro savdo hajmi va o‘sish sur’ati

Yillar	Global e-commerce hajmi (trln. USD)	Raqamli platformalar ulushi (%)	Yillik o‘sish (%)
2019	3.4	52	10
2020	4.2	57	18
2021	4.9	60	16
2022	5.8	65	14
2023	6.3	68	12

Manba: UNCTAD, World Bank va Statista ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, global savdoda raqamli platformalarning ulushi 2019–2023-yillar davomida 52 foizdan 68 foizgacha oshgan. Bu esa xalqaro savdo operatsiyalarida raqamli texnologiyalarning ahamiyati ortib borayotganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, savdo hajmining ortishi tranzaksiya xavfsizligi va kiberxavfsizlik bilan bog‘liq tahdidlarning ham ko‘payishiga sabab bo‘lmoqda.

O‘zbekiston misolida ham raqamli platformalar orqali savdo operatsiyalarining hajmi sezilarli darajada oshmoqda. Milliy platformalar orqali amalga oshirilayotgan savdo operatsiyalari nafaqat ichki bozorni, balki xalqaro savdoni ham rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Biroq, mazkur jarayonda iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash bilan bog‘liq muammolar saqlanib qolmoqda.

Jadval 5. O‘zbekistonda raqamli platformalar orqali savdo operatsiyalari va xavfsizlik ko‘rsatkichlari

Platforma	Foydalanuvchilar soni (mln)	Yillik savdo hajmi (mln USD)	Firibgarlik holatlari (%)
Uzum Market	3.5	150	2.8
OLX	2.8	90	3.2
ZoodMall	1.6	75	2.1
E-auksion	0.9	60	2.5
Uztrade	0.5	110	1.9

Manba: Ochiq ma’lumotlar va ekspert baholari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Mazkur jadval tahlili shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda raqamli platformalar orqali savdo hajmi ortib borayotganiga qaramay, tranzaksiya xavfsizligi bilan bog‘liq muammolar mavjud. Ayniqsa, firibgarlik holatlari va ma’lumotlar xavfsizligi bilan bog‘liq risklar iqtisodiy xavfsizlikka salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, raqamli platformalar orqali savdo jarayonlarida iqtisodiy xavfsizlikka ta’sir etuvchi asosiy omillar quyidagilardan iborat: kiberxavfsizlik darajasi, to‘lov tizimlarining ishonchliligi, logistika va monitoring tizimlari, hamda normativ-huquqiy tartibga solish darajasi.

Jadval 6. Raqamli platformalar orqali savdoda iqtisodiy xavfsizlikka ta’sir etuvchi omillar (baholash natijalari)

Omillar	Ta’sir darajasi (%)	Xavf darajasi	Izoh
Kiberxavfsizlik	30	Yuqori	Ma’lumotlar o‘g‘irlanishi xavfi
To‘lov tizimlari	25	O‘rta	Tranzaksiya firibgarligi
Logistika tizimi	15	O‘rta	Yetkazib berish nazorati
Normativ baza	20	Yuqori	Tartibga solish yetarli emas
Platforma monitoringi	10	Past	Nazorat tizimi rivojlanmoqda

Manba: Muallif tomonidan ekspert baholash asosida tuzilgan.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, raqamli platformalar orqali xalqaro savdoda iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash ko‘p omilli jarayon bo‘lib, u texnologik, institutsional va huquqiy mexanizmlarning o‘zaro uyg‘unligini talab etadi. Ayniqsa, kiberxavfsizlik va to‘lov tizimlarining barqarorligi iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashda asosiy omil hisoblanadi. Shu sababli, raqamli platformalar faoliyatini samarali tartibga solish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish zarurati ortib bormoqda.

Xulosa va takliflar. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, raqamli platformalar global iqtisodiyotning ajralmas qismiga aylanib, xalqaro savdo jarayonlarining tezlashishi, tranzaksiya xarajatlarining kamayishi hamda bozorlar o‘rtasidagi integratsiyaning kuchayishiga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, elektron savdo platformalari, raqamli to‘lov tizimlari va logistika platformalarining rivojlanishi kichik va o‘rta biznes subyektlariga xalqaro bozorga chiqish imkoniyatlarini kengaytirmoqda.

Biroq, raqamli platformalar orqali xalqaro savdoning rivojlanishi bilan bir qatorda iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash bilan bog‘liq qator muammolar ham yuzaga kelmoqda. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, kiberxavfsizlik tahdidlari, ma’lumotlar xavfsizligi bilan bog‘liq xatarlar, noqonuniy moliyaviy operatsiyalar, raqamli platformalarda monopoliyalashuv tendensiyalari hamda normativ-huquqiy bazaning yetarli darajada takomillashmaganligi iqtisodiy xavfsizlikka salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

O‘zbekiston sharoitida raqamli platformalar orqali xalqaro savdoning rivojlanishi iqtisodiy o‘sishni ta’minlashda muhim omil bo‘lsa-da, ularni tartibga solish, raqamli infratuzilmani takomillashtirish va xavfsizlik mexanizmlarini kuchaytirish dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda. Shu sababli raqamli platformalar orqali xalqaro savdoda iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash masalasi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralishi zarur.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

Birinchidan, raqamli platformalar orqali amalga oshiriladigan xalqaro savdo

operatsiyalarida iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash maqsadida milliy darajada yagona raqamli monitoring tizimini joriy etish zarur. Mazkur tizim eksport-import operatsiyalarini real vaqt rejimida kuzatish, shubhali tranzaksiyalarni aniqlash va noqonuniy moliyaviy oqimlarni oldini olish imkonini beradi.

Ikkinchidan, kiberxavfsizlikni kuchaytirish maqsadida raqamli platformalar faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy bazani xalqaro standartlar asosida takomillashtirish lozim. Xususan, ma’lumotlarni himoya qilish, elektron tijoratda iste’molchilar huquqlarini ta’minlash hamda raqamli identifikatsiya tizimlarini rivojlantirish bo‘yicha aniq mexanizmlar ishlab chiqilishi kerak.

Uchinchidan, raqamli platformalarda faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlari uchun raqamli savdo, kiberxavfsizlik va moliyaviy texnologiyalar bo‘yicha malaka oshirish dasturlarini kengaytirish maqsadga muvofiq. Bu esa tadbirkorlarning raqamli muhitdagi xavfsizlik risklarini boshqarish imkoniyatlarini oshiradi.

To‘rtinchidan, xalqaro tajribani inobatga olgan holda raqamli platformalar faoliyatini tartibga solishda davlat va xususiy sektor hamkorligini kuchaytirish zarur. Bu borada transchegaraviy ma’lumot almashinuvi, elektron tijorat standartlarini uyg‘unlashtirish va raqamli savdoni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha xalqaro hamkorlikni kengaytirish muhim ahamiyatga ega.

Beshinchidan, O‘zbekiston bank-moliya tizimida raqamli to‘lov platformalari xavfsizligini ta’minlash hamda xalqaro moliyaviy operatsiyalarni shaffoflashtirish maqsadida sun’iy intellekt va blokcheyn texnologiyalarini joriy etish tavsiya etiladi. Mazkur texnologiyalar tranzaksiyalarni monitoring qilish, firibgarlik holatlarini aniqlash va moliyaviy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Umuman olganda, raqamli platformalar orqali xalqaro savdoning rivojlanishi iqtisodiy o‘sish va innovatsion taraqqiyot uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda. Biroq ushbu jarayonlarda iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash uchun kompleks yondashuv, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish hamda samarali institutsional mexanizmlarni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Taklif etilgan ilmiy-amaliy tavsiyalarni amaliyotga joriy etish raqamli iqtisodiyot sharoitida xalqaro savdo barqarorligini ta’minlash hamda milliy iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. Raqamli O‘zbekiston – 2030 strategiyasi to‘g‘risida. – Toshkent, 2020.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent, 2022.
3. World Bank. World Development Report 2020: Trading for Development in the Age of Global Value Chains. – Washington DC: World Bank Publications, 2020. – pp. 1–250.
4. UNCTAD. Digital Economy Report 2021: Cross-border Data Flows and Development. – Geneva: United Nations Publications, 2021. – pp. 15–180.
5. OECD. Digital Trade and Economic Security. – Paris: OECD Publishing, 2022. – pp. 10–145.

6. WTO. World Trade Report 2022: Climate Change and International Trade. – Geneva: World Trade Organization, 2022. – pp. 50–210.
7. Kshetri N. E-commerce and International Trade: Policy and Economic Implications. – New York: Springer, 2018. – pp. 25–160.
8. Bukht R., Heeks R. Digital Economy Policy in Developing Countries. – Oxford: Oxford University Press, 2020. – pp. 40–170.
9. Tapscott D. Blockchain Revolution: How the Technology Behind Bitcoin Is Changing Money, Business, and the World. – New York: Penguin, 2019. – pp. 35–210.
10. Mesenbourg T. Measuring the Digital Economy. – Washington DC: U.S. Bureau of the Census, 2019. – pp. 5–90.
11. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. O‘zbekiston to‘lov tizimlari rivojlanishi bo‘yicha yillik hisobot. – Toshkent, 2024.
12. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. Raqamli iqtisodiyot va elektron tijoratni rivojlantirish bo‘yicha statistik ma’lumotlar to‘plami. – Toshkent, 2023.
13. Asian Development Bank. Asian Economic Integration Report 2023: Trade and Digitalization. – Manila: ADB Publications, 2023. – pp. 60–200.
14. UNESCAP. Digital Trade Facilitation in Asia and the Pacific 2022. – Bangkok: United Nations ESCAP, 2022. – pp. 20–150.
15. Porter M. Competitive Advantage of Nations. – New York: Free Press, 2018. – pp. 100–350.

BANK SEKTORIDA SUN’IY INTELLEKT VA FINTECH TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA KICHIK VA O‘RTA BIZNESNI MOLIYALASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH

Xudoyberdiyev Ismoiljon Abbos o’g’li
O‘zbekiston Respublikasi Bank-Moliya akademiyasi magistranti
ORCID: 0009-0009-6198-8466

Annotatsiya. Mazkur maqolada bank sektorida sun’iy intellekt va FinTech texnologiyalaridan foydalanish orqali kichik va o‘rta biznesni moliyalashtirish tizimini takomillashtirish masalasi o‘rganilgan. Tadqiqotning asosiy maqsadi raqamli texnologiyalar yordamida kreditlash jarayonlarini optimallashtirish va moliyaviy xizmatlar samaradorligini oshirishdan iborat. Muammo dolzarbligi KOB subyektlarining moliyalashtirish resurslariga kirish imkoniyatlari cheklanganligi bilan izohlanadi. Tadqiqotda qiyosiy tahlil va tizimli yondashuv metodlaridan foydalanilgan. Natijada sun’iy intellekt asosidagi kredit skoring, alternativ ma’lumotlar va embedded finance mexanizmlarining samaradorligi asoslab berildi. Ilmiy yangilik sifatida FinTech va AI integratsiyasi asosida KOB moliyalashtirish modelini takomillashtirish yo‘llari ishlab chiqildi.

Kalit so’zlar: Sun’iy intellekt, FinTech, kichik va o‘rta biznes, kredit skoring, alternativ ma’lumotlar, embedded finance, raqamli bank xizmatlari, moliyalashtirish, bank sektori, risk boshqaruvi, raqamli transformatsiya.

Kirish. Hozirgi kunda raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi bank sektorida tub o‘zgarishlarni talab qilmoqda. Ayniqsa, kichik va o‘rta biznesni moliyalashtirish jarayonida an’anaviy kreditlash tizimining cheklovlari yaqqol sezilmoqda. Yuqori garov talablari, kredit ajratish jarayonining uzoq davom etishi hamda riskni baholashda an’anaviy usullarga tayanish KOB subyektlarining moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatlarini cheklaydi. Shu sababli sun’iy intellekt va FinTech texnologiyalarini bank tizimiga keng joriy etish dolzarb masalaga aylanmoqda. Ushbu texnologiyalar kredit skoringni avtomatlashtirish, alternativ ma’lumotlardan foydalanish hamda moliyaviy xizmatlarni raqamli platformalarga integratsiya qilish orqali moliyalashtirish jarayonlarini sezilarli darajada takomillashtirish imkonini beradi. Mazkur maqolada bank sektorida sun’iy intellekt va FinTech yechimlari asosida kichik va o‘rta biznesni moliyalashtirishni rivojlantirish yo‘nalishlari tahlil qilinadi.

Adabiyotlar sharhi. Mavzuga oid xorijiy adabiyotlarda sun’iy intellekt va FinTech texnologiyalarining bank sektoriga ta’siri keng yoritilgan. Jumladan, Arner, Barberis va Buckley (2020) FinTech rivojlanishi moliyaviy xizmatlarni raqamlashtirish va risklarni boshqarishda yangi yondashuvlarni shakllantirishini ta’kidlaydi. Ularning fikricha, raqamli texnologiyalar an’anaviy bank tizimining samaradorligini oshiradi [1].

OECD (2022) hisobotida kichik va o‘rta biznesni moliyalashtirishda raqamli platformalar va alternativ ma’lumotlardan foydalanish kredit olish imkoniyatlarini kengaytirishi qayd etilgan [2]. Shuningdek, World Bank (2023) tadqiqotlarida FinTech

yechimlari rivojlanayotgan mamlakatlarda moliyaviy inklyuziyani oshirishi asoslab berilgan [3].

McKinsey & Company (2023) tahlillarida esa sun’iy intellekt asosidagi kredit skoring tizimlari an’anaviy risk baholash usullariga nisbatan ancha aniq va tezkor ekani ko‘rsatilgan [4]. KPMG (2022) hisobotida FinTech va Big Data texnologiyalarining bank xizmatlarini transformatsiya qilishdagi roli yoritilgan [5].

Mahalliy olimlar orasida Zokirov (2020) raqamli moliya texnologiyalarining O‘zbekiston bank tizimiga joriy etilishi moliyaviy xizmatlar sifatini oshirishini ta’kidlaydi [6]. Biroq mavjud tadqiqotlarda sun’iy intellekt, alternativ ma’lumotlar va embedded finance integratsiyasi asosida KOB moliyalashtirish modelini kompleks yondashuvda o‘rganish yetarli darajada yoritilmagan.

Shu jihatdan ushbu maqolada aynan AI va FinTech texnologiyalarining birgalikdagi ta’siri asosida kichik va o‘rta biznesni moliyalashtirishni takomillashtirish masalasi kompleks yondashuvda tahlil qilinadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur maqolada bank sektorida sun’iy intellekt va FinTech texnologiyalarining kichik va o‘rta biznesni moliyalashtirishga ta’sirini o‘rganishda kompleks metodologik yondashuv qo‘llanildi. Tadqiqot jarayonida qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv, mantiqiy umumlashtirish hamda statistik ma’lumotlarni tahlil qilish usullaridan foydalanildi.

Qiyosiy tahlil usuli orqali an’anaviy bank kreditlash modeli va sun’iy intellekt asosidagi zamonaviy kredit skoring tizimlari o‘zaro solishtirildi. Ushbu solishtirish natijasida AI asosidagi yondashuv kredit qarorlarini qabul qilishda tezkorlik, aniqlik va riskni baholash darajasi bo‘yicha ustun ekanligi aniqlandi.

Tizimli yondashuv asosida kichik va o‘rta biznesni moliyalashtirish jarayoni tarkibiy elementlar — kredit skoring, alternativ ma’lumotlar va embedded finance mexanizmlari kesimida kompleks tarzda tahlil qilindi. Bu yondashuv moliyalashtirish tizimidagi o‘zaro bog‘liqlik va institutsional aloqalarni chuqurroq tushunishga imkon berdi.

Shuningdek, tadqiqotda xalqaro tashkilotlar (World Bank, OECD, McKinsey, KPMG) hisobotlari va ilmiy adabiyotlardagi statistik ma’lumotlar tahlil qilinib, ularning natijalari umumlashtirildi. Mantiqiy umumlashtirish usuli asosida esa mavjud muammolar va ularning yechimlariga oid ilmiy xulosalar shakllantirildi.

Natijada, bank sektorida sun’iy intellekt va FinTech texnologiyalarini integratsiya qilish kichik va o‘rta biznesni moliyalashtirish samaradorligini oshirishda muhim omil ekanligi ilmiy asosda isbotlandi.


Tahlil va natijalar. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, global FinTech kreditlash bozori 2024–2033 yillarda barqaror va yuqori sur’atlarda o‘smoqda.

1-JADVAL. GLOBAL FINTECH KREDITLASH BOZORI DINAMIKASI (2024-2033)

Ko'rsatkich	2024	2025	2027	2030	2033	CAGR
FinTech kreditlash bozori (mlrd $)	1 159,35	1 477,02	2 400,00	5 200,00	10 250,39	27,40%
AI kredit skoring bozori (mlrd $)	3,6	4,8	6,5	10,2	16,2	14,40%

Embedded finance bozori (mlrd $)	107,27	142,00	250,00	588,49	941,00	32,80%
Raqamli kreditlash platformalari (mlrd $)	10,55	14,20	22,00	44,49	75,00	27,10%
KOB raqamli moliyalashtirish (mlrd $)	18,5	24,0	38,0	72,0	120,0	23,20%

Manba: SkyQuest, Grand View Research, Dataintelo, 2024-2025 hisobotlari



1-jadval va grafik ma’lumotlariga ko‘ra, global FinTech kreditlash bozori 2024 yildagi 1 159,35 mlrd dollardan 2033 yilga kelib 10 250,39 mlrd dollargacha keskin oshishi kutilmoqda, bu esa bozorda juda yuqori o‘sish sur’atlari (CAGR 27% atrofida) mavjudligini ko‘rsatadi. Grafikda ayniqsa 2027 yildan keyin o‘sish tezlashgani ko‘rinadi, ya’ni dastlab bosqichma-bosqich rivojlangan bozor keyinchalik eksponensial o‘sish fazasiga o‘tmoqda. Bu holat texnologiyalarning keng joriy etilishi, sun’iy intellekt asosidagi kredit skoring tizimlari hamda moliyaviy xizmatlarning raqamlashtirilishi bilan izohlanadi.

Shu bilan birga, embedded finance bozori ham sezilarli darajada kengayib, 2024 yildagi 107,27 mlrd dollardan 2033 yilda 941 mlrd dollarga yetishi prognoz qilinmoqda, bu esa moliyaviy xizmatlarning an’anaviy banklardan tashqariga chiqib, boshqa platformalar ichiga integratsiyalashayotganini bildiradi. Raqamli kreditlash platformalari va KOB (kichik va o‘rta biznes)ni moliyalashtirish segmentlarida ham barqaror o‘sish kuzatilib, ular iqtisodiyotning muhim drayveriga aylanmoqda.


Umuman olganda, grafik tahlili shuni ko‘rsatadiki, kelajakda bank sektori faqat an’anaviy kreditlash bilan cheklanib qolmay, balki raqamli ekotizimlar, platformalar va texnologik yechimlar orqali mijozlarga xizmat ko‘rsatishga o‘tadi. Bu esa moliyalashtirish mexanizmlariga bo‘lgan talabning tobora raqamli shaklga o‘tayotganini yaqqol namoyon etadi.

2-jadval va diagramma tahlili an’anaviy hamda AI asosidagi kredit skoring tizimlari o‘rtasida nafaqat farq, balki keskin samaradorlik tafovuti mavjudligini yaqqol ko‘rsatadi. Diagrammada ko‘rinib turibdiki, AI asosidagi tizimda bashorat aniqligi taxminan 86% ga yetgan bo‘lsa, an’anaviy usulda bu ko‘rsatkich atigi 50% atrofida. Bu esa risklarni baholashda sun’iy intellekt ancha chuqur va keng qamrovli tahlil olib borishini anglatadi.

2-JADVAL. AN'ANAVIY VA AI ASOSIDAGI KREDIT SKORING TIZIMLARINI QIYOSLASH

Ko'rsatkich	An'anaviy usul	AI asosidagi usul	Farq/Ustunlik
Bashorat aniqligi (AUC ko'rsatkichi)	0.45-0.55	0.82-0.91	**+37-36 punktga yuqori**
Gini koeffitsienti	0.45-0.55	0.65-0.78	**+20-23 punktga yuqori**
Tahlil qilinadigan o'zgaruvchilar soni	15-30 ta	5,000-15,000 ta	**500x ko'proq**
Kredit qarorini qabul qilish vaqti	2-4 hafta	45 soniya - 7 daqiqa	**99% tezroq**
Kredit tasdiqlash darajasi (KOB)	30-40%	65-85%	**+35-45 punktga yuqori**
Defolt darajasidagi o'zgarish	Bazaviy	-18% gacha pasayish	**Risk kamayishi**
Kredit berish xarajati (har bir ariza)	$2,500-4,000	$300-700	**85% tejamkor**
Alternativ ma'lumotlardan foydalanish	Yo'q	Ha (tranzaksiyalar, ijtimoiy, raqamli)	**Keng qamrov**
"Thin-file" mijozlarga xizmat	Cheklangan	90% ko'proq tasdiqlash	**Moliyaviy inklyuziya**
Real vaqt rejimida yangilanish	Yo'q (vaqti-vaqti bilan)	Ha (doimiy)	**Dinamik baholash**

Manba: World Bank, McKinsey, Dataintelo, Pulse.io tahlillari, 2024-2026



Shuningdek, kredit tasdiqlash darajasi ham sezilarli darajada oshgan: an’anaviy tizimda 35% bo‘lgan ko‘rsatkich AI yordamida 75% gacha yetmoqda. Bu holat mijozlar uchun moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatining kengayganini bildiradi. Grafikdagi ustunlar orasidagi katta tafovut aynan AI texnologiyalarining ustunligini vizual tarzda ham tasdiqlaydi.

Eng muhim jihatlardan biri – vaqt omili. Jadvalga ko‘ra, an’anaviy tizimda kredit qarorini qabul qilish 2–4 hafta davom etsa, AI asosidagi tizimda bu jarayon soniyalar yoki bir necha daqiqalar ichida yakunlanadi. Bu banklar uchun operatsion samaradorlikni keskin oshirsa, mijozlar uchun esa tezkor xizmat ko‘rsatishni ta’minlaydi.


Bundan tashqari, AI tizimlari katta hajmdagi ma’lumotlarni (minglab o‘zgaruvchilarni) qayta ishlay olishi sababli kredit riskini kamaytiradi, defolt darajasini pasaytiradi va xarajatlarni optimallashtiradi. Umuman olganda, diagramma va jadval tahlili shuni ko‘rsatadiki, AI asosidagi kredit skoring tizimlari bank sektorida nafaqat tezlik va aniqlikni, balki moliyaviy inklyuziya darajasini ham sezilarli oshiruvchi muhim omil hisoblanadi.

3-jadval va diagramma tahlili alternativ ma’lumotlardan foydalanish kreditlash samaradorligini sezilarli darajada oshirayotganini ko‘rsatadi, biroq bu imkoniyatlardan hali to‘liq foydalanilmayapti. Diagrammaga ko‘ra, kreditorlarning atigi 43 foizi alternativ ma’lumotlardan foydalanmoqda, 57 foizi esa hali an’anaviy yondashuv bilan cheklanib qolgan. Bu esa bozorning yarmidan ko‘pi hali raqamli transformatsiya jarayoniga to‘liq o‘tmaganini anglatadi.

3-JADVAL. ALTERNATIV MA'LUMOTLARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI

Ko'rsatkich	Joriy holat	Natijaviy ta'sir	Manba
Alternativ ma'lumotlarni qo'llayotgan kreditorlar ulushi	43%	57% hali qo'llamagan	Nova Credit, 2024

An'anaviy usulga tayanuvchi kreditorlar	78%	To'liq rasm bermaydi	Nova Credit, 2024
Alternativ ma'lumotlar orqali tasdiqlash imkoniyati	90% kreditorlar	Ko'proq munosib qarzdorlar	Nova Credit, 2024
Bashorat aniqligidagi yaxshilanish	+25%	Thin-file qarzdorlar uchun	World Bank, 2026
Yangi bozorlarni qamrab olish imkoniyati	90% kreditorlar	Yoshlar, muhojirlar, thin-file	Nova Credit, 2024
Yoshlar segmentiga qiziqish	73%	Kredit tarixsiz mijozlar	Nova Credit, 2024
Muhojirlar segmentiga qiziqish	41%	Xalqaro kredit portativligi	Nova Credit, 2024
Thin-file arizachilar segmenti	39%	100 mln+ AQSh mijozlari	Nova Credit, 2024
Uchinchi tomon hamkorlik rejasi	71%	Tezroq integratsiya	Nova Credit, 2024



Manba: Nova Credit - State of Alternative Data in Lending Survey, 2024

Jadval ma’lumotlari shuni ko‘rsatadiki, alternativ ma’lumotlardan foydalanish bashorat aniqligini o‘rtacha 25% ga oshiradi. Ayniqsa, “thin-file” (kredit tarixi yetarli bo‘lmagan) mijozlarni baholashda bu yondashuv muhim ahamiyatga ega bo‘lib, an’anaviy tizimda rad etilishi mumkin bo‘lgan qarz oluvchilarni aniqlash imkonini beradi. Shu orqali banklar yangi mijoz segmentlarini, jumladan yoshlar, muhojirlar va kredit tarixiga ega bo‘lmagan shaxslarni ham qamrab olish imkoniga ega bo‘ladi.
Bundan tashqari, alternativ ma’lumotlar (mobil to‘lovlar, ijtimoiy faoliyat, tranzaksiya xulq-atvori va boshqalar) asosida baholash kredit tasdiqlash jarayonini kengaytiradi va

moliyaviy inklyuziyani oshiradi. Diagrammada foydalanayotgan va foydalanmayotganlar o‘rtasidagi farq esa ushbu yo‘nalishda hali katta o‘sish salohiyati mavjudligini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, AI, FinTech va alternativ ma’lumotlar integratsiyasi KOBni moliyalashtirish tizimini yanada samarali, inkluziv va moslashuvchan qilishda muhim omil hisoblanadi. Shu bilan birga, 57% kreditor hali bu imkoniyatlardan foydalanmayotgani ushbu sohada kelgusida kengayish va rivojlanish uchun katta zaxira mavjudligini bildiradi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, bank sektorida sun’iy intellekt va FinTech texnologiyalarining joriy etilishi kichik va o‘rta biznesni moliyalashtirish tizimini sezilarli darajada takomillashtiradi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, AI asosidagi kredit skoring, alternativ ma’lumotlardan foydalanish va embedded finance modellari an’anaviy kreditlash tizimiga nisbatan tezkor, aniq va samaraliroq hisoblanadi. Bu esa moliyaviy inklyuziyani kengaytirish va tadbirkorlarning kredit resurslariga kirish imkoniyatini oshirishga xizmat qiladi.

Biroq raqamli infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi, yagona ma’lumotlar bazasining to‘liq shakllanmaganligi hamda kadrlar malakasining yetishmasligi kabi muammolar mavjud.

Shu asosda quyidagi takliflar ilgari suriladi:

- sun’iy intellekt asosidagi milliy kredit skoring tizimini joriy etish;
- alternativ ma’lumotlar bazasini kengaytirish va integratsiya qilish;
- embedded finance platformalarini rivojlantirish;
- FinTech startaplarni qo‘llab-quvvatlash va venchur moliyalashtirishni kengaytirish;
- bank xodimlarining raqamli va AI bo‘yicha malakasini oshirish dasturlarini yo‘lga qo‘yish.

Mazkur chora-tadbirlar bank sektorining raqamli transformatsiyasini tezlashtirib, kichik va o‘rta biznes rivojiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Arner, D.W., Barberis, J. and Buckley, R.P. (2020) *FinTech, RegTech and the Reform of Finance*. Oxford: Oxford University Press.
2. European Commission (2021) *Startup Ecosystems in Europe: Policies and Practices*. Brussels: European Commission.
3. KPMG (2022) *Global FinTech Report 2022*. Amsterdam: KPMG International.
4. McKinsey & Company (2023) *The State of AI in Banking: Unlocking Value at Scale*. New York: McKinsey Global Institute.
5. OECD (2022) *Financing SMEs and Entrepreneurs 2022: An OECD Scoreboard*. Paris: OECD Publishing.
6. World Bank (2023) *Fintech and the Future of Finance: Market Trends and Policy Challenges*. Washington, D.C.: World Bank Group.
7. Zokirov, F. (2020) *Raqamli moliya texnologiyalari va bank tizimi*. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti.

ТИЖОРАТ БАНКЛАРИ КРЕДИТ ҚЎЙИЛМАЛАРИ СИФАТИНИ ЯХШИЛАШ ВА КРЕДИТ РИСКЛАРИ МИКДОРИНИ КАМАЙТИРИШНИНГ АҲАМИЯТИ

Янгиев Ахтам Латиббоевич
“Ўзсаноатқурилишбанк” АТБ Бош менеджери,
Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги
Бизнес ва тадбиркорлик Олий мактаби тингловчиси
ORCID:0009-0003-9904-108X

Аннотация: Тезисда тижорат банклари кредит қўйилмалари миқдорини ошириш, кредит қўйилмалариини диверсификациялашнинг аҳамияти, юзага келадиган муаммолар ҳамда уларни бошқаришдаги рискларни минималлаштириш ва такомиллаштиришга қаратилган таклифлар келтирилган.

Калит сўзлар: тижорат банклари, кредит, кредит қўйилмалари, кредит риски, диверсификация, кредит сиёсати.

Кириш. Тижорат банкларининг кредит қўйилмалари ва сифати банкнинг молиявий ҳолати ва салоҳиятини белгиловчи муҳим омилдир. Мазкур кўрсаткични назорат қилишда банк кредит қўйилмаларини бошқариш стратегияси асосий вазифа ҳисобланади.

Кредит қўйилмаларини тўғри бошқарилиши банкларнинг самарали фаолияти учун асосий омил ҳисобланади. Жумладан, кредит ажратиш ва уни белгиланган муддатда қайтариш, муддати ўтган ёки узайтирилган кредитлар ҳисоби, муаммоли қарздорликлар бўйича захиралар шакллантирилиши, захира миқдори, банклараро кредитлар бўйича операциялари.

Тижорат банклари кредит қўйилмалари сифати таркибида муаммоли қарздорликлар улушининг ортиши банк даромадига салбий таъсир кўрсатади. “Тижорат банкларида активлар сифатини таснифлаш ва активлар бўйича эҳтимолий йўқотишларни қоплаш учун захиралар шакллантириш ҳамда улардан фойдаланиш тартиби тўғрисида” ги Низом талабларига кўра активлар таснифланиб, стандарт активларга 1 фоиз , субстандарт активларга 10 фоиз, қониқарсиз активларга 25 фоиз, шубҳали активларга 50 фоиз, умидсиз активларга 100 фоиз миқдорида банк даромади ҳисобидан захира шакллантирилади.

Мавзуга оид адабиётлар шарҳи. Австрия иқтисодиёт мактабининг етакчи вакили, испаниялик сиёсатчи профессор Jesus Huerta De Sota асарларига кўра, кредит портфели таркибида муаммоли қарздорликларнинг ортиши, мижозлар фаолиятидаги иқтисодий қийинчиликлар кредит ажратган банклар томонидан чиқарилган банкнот ва депозитлари қийматини йўқотишига ва банкларнинг банкротликка учрашига олиб келади. *[1]*

Плеханов номидаги Россия иқтисодиёт университети илмий тадқиқотчиси М.А. Гаджигаевнинг фикрича, кредит ажратишда қарор қабул қилиш жараёнларида реал баҳолашларнинг аниқлигини оптималлаштириш, бунда турли иқтисодий субъектлар кўрсаткичларини таққослаш мезонларни

нормаллаштириш лозим. *[2]*

Ўзбекистонлик иқтисодчи олим Ш.Абдуллаеванинг фикрига кўра, тижорат банкларининг кредит операциялари ва кредит қўйилмаларини бошқариш деганда, маълум шартлар асосида, яъни қайтаришлилик, муддатлилик, тўловлилик шартлари асосида маълум бир миқдордаги пулни (ёки товарни) қарзга бериш жараёнларини амалга ошириш тушунилади. Олима ўз таърифида шунингдек, кредит рискларига алоҳида тўхталиб ўтган. *[3]*

Сиёсий ва илмий арбоб Н.Обломуродовнинг илмий асарларида кредит сифатини аниқлаш билан бир қаторда кредитлаш жараёнини бошқариш сифатини баҳолаш, жумладан, тасдиқланган кредит сиёсатига ва кредит ҳужжатларини расмийлаштириш жараёнларига, гаровни расмийлаштириш ва баҳолаш, кредитлашга доир ваколатларни тақсимлаш, қонунчилик меъёрларига риоя қилишга мувофиқлигини таъминлашга эътибор қаратилиши келтириб ўтилган. *[4]*

Юқоридагилардан келиб чиқиб, кредит қўйилмаларини сифатини ошириш ва юзага келиши мумкин бўлган рискларни камайтириш юзасидан изланишлар ва амалий ҳаракатлар олиб борилишини долзарб деб ҳисоблаймиз.

Тадқиқот методологияси. Мақоланинг назарий ва услубий асоси сифатида умумиқтисодий адабиёт ҳамда илмий мақолалар, иқтисодчи олимларнинг тижорат банкларида кредит портфелини самарали бошқариш, рискларни бошқариш масалалари бўйича изланишлари, олимлар ва соҳа вакилларининг ёзма ва оғзаки фикрларини таҳлил қилиш, жараёнларни кузатиш, тизимли ёндашув, муаллиф тажрибалари билан қиёсий таҳлил ўтказиш орқали тегишли йўналишларда хулоса, таклиф ва тавсиялар берилган. Мавзуни ўрганиш жараёнида маълумотларни тизимлаш бўйича махсус ёндашувлар, таққослаш, назарий ва амалий материалларни жамлаш ҳамда тизимли таҳлил усуллари қўлланилган.

Таҳлил ва натижалар муҳокамаси. Муаммоли кредитлар юзага келишининг асосий сабаблари кредит рискларидир. Уларнинг баъзилари мижознинг ўз ҳаракатлари, баъзилари банк томонидан келиб чиқиши ва баъзилари ташқи муҳит омиллари туфайли юзага келиши мумкин. Кредит ресурслари қийматининг ошиши ажратиладиган банк кредитларининг ёмонлашувига олиб келувчи муҳим омиллардан ҳисобланади.

Кредит қўйилмалари таҳлилида тижорат банклари активлари, кредит қолдиқлари миқдори ва уларнинг таркибидаги муаммоли қарздорликлари (NPL) улуши ўрганилади.

1-жадвал

Тижорат банкларининг муаммоли кредитлари (NPL) тўғрисида 2026-йил 1-апрел ҳолатига маълумот*

№	Банк номи	Кредитлар	Муаммоли кредитлар (NPL)	Муаммоли кредитларнинг жами кредитлардаги улуши
Жами		**623 286**	**19 861**	**3,2%**
Давлат улуши мавжуд банклар		**415 581**	**14 296**	**3,4%**
1	Ўзмиллийбанк	108 018	3 089	2,9%

2	Агробанк	86 547	2 803	3,2%
3	Ўзсаноатқурилишбанк	63 307	2 346	3,7%
4	Асака банк	40 741	1 705	4,2%
5	Халқ банки	35 552	1 069	3,0%
6	Бизнесни ривожлантириш банки	24 915	1 095	4,4%
7	Микрокредитбанк	21 180	940	4,4%
8	Алоқа банк	20 703	709	3,4%
9	Турон банк	14 617	539	3,7%
Бошқа банклар		**207 705**	**5 566**	**2,7%**
10	Ипотека-банк	35 640	941	2,6%
11	Капитал банк	37 474	1 052	2,8%
12	Ҳамкорбанк	26 787	248	0,9%
13	Ипак йўли банк	16 919	238	1,4%
14	Ориент Финанс банк	12 852	24	0,2%
15	TBC банк	8 983	625	7,0%
16	Бошқа банклар	69 051	2 438	3,5%

-Ўзбекистон Республикаси Марказий банкининг расмий интернет сайти маълумоти.

2026 йил 1 апрель ҳолатига тижорат банклари кредит портфели қолдиғи 623,3 трлн. Сўмни ташкил қилган бўлса, шундан 19,86 трлн.сўм яъни 3,2 фоизи муаммоли қарздорликлар ҳиссасига тўғри келади. Шундан, давлат улуши мавжуд банклар кредит қолдиғи 415,6 трлн. сўмни, муаммоли қисми 14,3 трлн. сўм *(3,4 фоиз)*ни, бошқа банклар кредит қўйилмалари 207,7 трлн.сўмни, муаммоли қисми 5,56 трлн.сўм *(2,7%)* ни ташкил қилди.

Мазкур таҳлиллардан кўриш мумкинки, банк кредит қўйилмаларининг сифати ва миқдори, уларнинг тўғри бошқарилиши банк активларини баҳолашда муҳим кўрсаткич ҳисобланади.

2-жадвал

Банк тизимининг таққослама кўрсаткичлари тўғрисида маълумот*

млрд. сўм

Кўрсаткич номи	01.04.2025 й.			01.04.2026 й.			Фарқи
	Жами	*шундан:*		Жами	*шундан:*		
		Давлат улуши мавжуд банклар	Бошқа банклар		Давлат улуши мавжуд банклар	Бошқа банклар	
Активларнинг мажбуриятларга нисбати	**118%**	**116%**	**120%**	**117%**	**116%**	**120%**	
Активлар	800 652	523 943	276 708	959 442	604 461	354 981	120%
Мажбуриятлар	679 888	449 920	229 968	817 950	521 206	296 744	120%
Кредит қўйилмаларининг депозитларга нисбати	**169%**	**227%**	**109%**	**144%**	**187%**	**98%**	
Кредитлар	551 809	379 591	172 218	623 286	415 581	207 705	113%
Депозитлар	325 953	167 340	158 613	433 934	221 754	212 180	133%

****-Ўзбекистон Республикаси Марказий банкининг расмий интернет сайти маълумоти.***

Мазкур маълумотларга кўра, тижорат банклари кредит қўйилмалари 2026 йил 1 апрель ҳолатига 2025 йил 1 апрел ҳолатига нисбатан 113 фоизга, депозитлар қолдиғи 133 фоизга ортган. Мазкур ҳолат тижорат банклари томонидан кредит қўйилмаларининг, шунингдек депозитлар қолдиғини ошириш юзасидан етарлича амалий ишлар олиб борилаётганлигидан далолат беради.

Хулоса ва таклифлар. Тижорат банкларининг кредит қўйилмаларии сифатини назорат қилиш банклар самарали фаолиятининг гарови ҳисобланади.

Кредит қўйилмаларини тўғри бошқариш ва самарадорлигини ошириш ҳамда кредит рискларини камайтириш учун қуйидаги омилларни инобатга олиш мақсадга мувофиқ ҳисобланади:

- Кредитларнинг ликвидли гаров мулки билан таъминланганлиги;
- Кредитлар бўйича мақбул ресурсларни жалб қилиш шартлари;
- Ажратиладиган кредитларни диверсификациялаш;
- Молия бозоридаги кредит ва депозитларнинг фоиз ставкалари;
- Кредит ва фоизларнинг ўз вақтида қайтарилиши;
- ҳолатларни дастлабки босқичларда аниқлаш ва бартараф этиш
- механизмини жорий қилиш.

Хулоса сифатида, кредит операцияларини амалга оширишда ва кредит қўйилмаларини бошқаришда йўл қўйиладиган камчиликлар, рискларни етарли даражада баҳоланмаслиги банклар даромадига салбий таъсир кўрсатади.

Банк кредит қўйилмалари сифатига қуйидаги рисклар таъсир кўрсатади:

-Кредит риски: Қарз олувчининг асосий қарз ёки фоизларни ўз вақтида қайтара олмаслиги;

- Концентрация риски: Кредитларнинг бир соҳага, битта йирик мижозга ёки ҳудудга кўп берилиши;

-Ликвидлик риски: Кредитлар қайтмаслиги оқибатида банкнинг ўз мажбуриятларини бажариш учун ресурс етишмовчилигига дуч келиши;

-Фоиз риски: Бозордаги фоиз ставкаларининг ўзгариши натижасида кредит қўйилмалари даромадлилигининг пасайиши;

-Валюта риски: Хорижий валютада берилган кредитларнинг миллий валюта курси ўзгариши сабабли муаммога айланиши.

14.07.2015 йилда 2696-сон рақам билан рўйхатга олинган Низом талабларига кўра тижорат банклари томонидан активлар таснифланиб, улар бўйича етарлича миқдорда захиралар шакллантирилмаслиги Ўзбекистон Республикаси Марказий банки томонидан тижорат банкларига нисбатан жарима санкциялари қўлланилишига сабаб бўлади.

Шу билан бирга, тижорат банклар кредит портфелини бошқаришда банкнинг кредит қўйилмалари ва даромадлари ҳажмини, кредит қўйилмаларини сифатини яхшилаш мақсадида уни бошқаришни такомиллаштириш, субъектларнинг тармоққа оид хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда кредитлаш жараёнини амалга ошириш, лизинг ва факторинг операцияларидан кенгроқ фойдаланиш, кредит қўйилмаларини иқтисодиёт тармоқлари бўйича диверсификациялаш мақсадга мувофиқ деб ҳисоблаймиз.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикасининг 2019 йил 5 ноябрдаги “Банклар ва банк фаолияти тўғрисида” ги ЎРҚ-580-сонли Қонуни.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 12 майдаги “20202025 йилларга мўлжалланган Ўзбекистон Республикасининг банк тизимини ислоҳ қилиш стратегияси тўғрисида” ги ПФ-5992-сонли Фармони.
3. “Тижорат банкларида активлар сифатини таснифлаш ва активлар бўйича эҳтимолий йўқотишларни қоплаш учун захиралар шакллантириш ҳамда улардан фойдаланиш тартиби тўғрисида” ги Низом, 14.07.2015 йилда 2696- сон рақам билан рўйхатга олинган.
4. Jesus Huerta De Sota “Money Bank Kredit and Economic cycles”, Austrian school, 5th edition, Auburn Alabama, 2006.
5. М.А. Гаджигаев “Кредитный портфель и надежность коммерческого банка” Фундаментальные исследования. 2015. № 9-1, 116-119 стр.
6. Абдуллаева Ш.З. “Пул, кредит ва банклар” ўқув дарслик, Тошкент, Молия, 2000 йил.
7. Н.Н. Обломуродов “Тижорат банклари кредит портфели таҳлили ва сифатини ошириш имкониятлари”, “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнал, № 2, март-апрель, 2015 йил, 53-58 бет.
8. Ўзбекистон Республикаси Қонунчилиги электрон сайти- www. Lex.uz.
9. Ўзбекистон Республикаси Марказий банкнинг расмий интернет сайти

(https://cbu.uz)
10. “Money Bank Kredit and Economic cycles”, Austrian school, 5th edition, Auburn Alabama, 2006
11. “Кредитный портфель и надежность коммерческого банка” Фундаментальные исследования. 2015. № 9-1, 116-119 стр.
12. “Пул, кредит ва банклар” ўқув дарслик, Тошкент, Молия, 2000 йил
13. “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнал, № 2, март-апрель, 2015 йил, 53-58 бет

ПРОЕКТНОЕ ФИНАНСИРОВАНИЕ СТАРТАПОВ: ВЕНЧУРНЫЕ МЕХАНИЗМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ

Махмудов Сардор Козим угли
Probuild Generation LLC
ORCID: 0009-0007-9012-622X

Аннотация. В статье рассматриваются современные механизмы проектного финансирования стартапов через инструменты венчурного капитала. На основе данных IT Park Ventures, RISE Research и StartupBlink анализируется развитие венчурной экосистемы Узбекистана в 2024–2025 годах. Применены методы статистического, сравнительного и кейс-анализа. Установлено, что объём венчурных сделок вырос более чем в 4,7 раза за один год, а страна впервые вошла в топ-100 глобального рейтинга стартап-экосистем. Обоснована научная новизна — синтез проектно-управленческого подхода и венчурного финансирования применительно к развивающимся рынкам. Предложены рекомендации по интеграции методологий проектного управления в венчурный инвестиционный цикл.

Ключевые слова: проектное финансирование, венчурный капитал, стартап-экосистема, инновационное предпринимательство, проектное управление, Узбекистан, IT Park Ventures, UzVC, инвестиционный матчинг, ESG-финансирование.

Введение. Глобальная экономика всё активнее движется силами высокотехнологичных стартапов, для развития которых необходимы принципиально иные финансовые инструменты, чем традиционное банковское кредитование. Венчурное финансирование, основанное на принципах проектного подхода — поэтапного инвестирования с привязкой капитала к конкретным контрольным точкам (milestones), — стало ключевым драйвером инновационной экономики XXI века. Для Республики Узбекистан, провозгласившей курс на цифровую трансформацию и формирование стартап-экономики, развитие зрелой венчурной индустрии превратилось в стратегический приоритет. Принятие Постановления Президента №ПП-357 от 14 октября 2024 года «О мерах по дальнейшему развитию экосистемы стартап-проектов и венчурного финансирования» [1], а также Постановления №ПП-59 от 11 февраля 2026 года «О мерах по внедрению комплексной экосистемы поддержки стартапов» [2] заложили институциональную основу для качественного скачка отрасли. Цель настоящего исследования — выявить ключевые тенденции развития венчурного финансирования в Узбекистане и обосновать роль проектно-управленческого подхода в повышении эффективности стартап-инвестиций.

Обзор литературы по теме. Концептуальные основы проектного финансирования заложены в фундаментальных работах П. Невитта и Ф.

Фабоцци [4], рассматривающих его как механизм обособления рисков посредством создания специальных проектных компаний. Венчурный капитал как особая форма проектного финансирования инновационных предприятий описан в трудах У. Сальмана [5] и Дж. Лернера [3], акцентирующих внимание на структуре управления, проблеме принципала-агента и асимметрии информации. Особенности венчурного финансирования в развивающихся странах исследованы в публикациях Всемирного банка, ОЭСР и регионального исследования RISE Research [6]. Отечественные исследователи акцентируют внимание на институциональных аспектах формирования стартап-экосистем в Узбекистане, тогда как международные авторы делают упор на финансово-инструментальной стороне вопроса. В отличие от существующих работ, в данной статье предпринята попытка комплексно рассмотреть венчурное финансирование сквозь призму проектного управления — с фокусом на milestone-ориентированной модели распределения капитала и роли методологий PMBOK [8] и PRINCE2/Agile в де-рискинге венчурных инвестиций.

Методология исследования. Исследование основано на сочетании сравнительного, статистического и кейс-методов. Использовались первичные и вторичные данные IT Park Ventures [9], Национального венчурного фонда UzVC, отчётов RISE Research [6] и индекса StartupBlink Global Startup Ecosystem Index [7] за 2024–2025 годы. Применён метод бенчмаркинга — сопоставление венчурной интенсивности на душу населения с показателями Индии, Китая и Южной Кореи [10]. Кейс-анализ охватил три репрезентативных стартапа узбекской экосистемы: TASS Vision (международный раунд €1,5 млн), Humanola (выход на рынок США с раундом $2,5 млн в Кремниевой долине) и BILLZ (стратегический выход через продажу контрольного пакета TBC Bank за $9 млн+). Применение этих методов в комплексе позволило получить объёмную картину текущего состояния и потенциала отрасли.

Анализ и результаты. Период 2024–2025 годов стал переломным для венчурной индустрии Узбекистана. Если в 2023 году в стране насчитывалось всего три венчурных фонда, то к концу 2025 года их число превысило четырнадцать, включая UzVC, IT Park Ventures, AloqaVentures, Semurg.vc, UCVentures, Yoshlar Ventures, X-Togo, United Ventures, SQB Ventures, Imkon Ventures, Sarmo Ventures, Asaka Pharm Ventures и др. Динамика ключевых показателей развития венчурного рынка представлена в таблице 1.

Таблица 1. Динамика венчурного рынка Узбекистана, 2022–2025 гг.[173]

Показатель	**2022**	**2023**	**2024**	**2025**
Объём венчурных сделок, млн долл. США	≈3	≈12	69,5	329

[173] Составлено автором на основе данных IT Park Ventures, UzVC, RISE Research, StartupBlink (2025).
Примечание: данные за 2022–2023 гг. — оценки автора на основе RISE Research; данные за 2024–2025 гг. — по оценке IT Park Ventures.

Показатель	2022	2023	2024	2025
Количество стартапов	—	≈250	400	750
Количество венчурных сделок	≈10	≈25	38	140
Количество венчурных фондов	2	3	7	14+
Позиция в StartupBlink Global Index	—	>100	>100	Топ-100

Источник: составлено автором на основе данных IT Park Ventures, UzVC, RISE Research, StartupBlink (2025)

Анализ данных таблицы 1 показывает, что объём венчурных сделок увеличился с 69,5 млн долл. в 2024 году до 329 млн долл. в 2025 году по оценке IT Park Ventures — рост более чем на 522%. По более консервативной методологии RISE Research, объём составил 99,3 млн долл., из которых 65,5 млн долл. приходится на один крупный раунд Uzum; без него рынок вырос до 33,8 млн долл. — в 11 раз за три года. Количество стартапов почти удвоилось (с 400 до 750), а число инвестиционных сделок выросло в 3,7 раза (с 38 до 140). Узбекистан впервые вошёл в топ-100 глобального рейтинга StartupBlink, а общий рост стартап-экосистемы составил 132% год к году.

Сравнительный анализ венчурной интенсивности на душу населения свидетельствует о значительном потенциале догоняющего роста. По данным выступления Президента Республики Узбекистан, в 2024 году этот показатель составлял в Индии 30 долл., в Китае — 75 долл., в Южной Корее — 156 долл. В Узбекистане при населении свыше 37 млн человек и объёме рынка около 329 млн долл. показатель составляет порядка 9 долл. на душу населения, что в 3,3 раза ниже индийского и в 17 раз ниже корейского уровня. Государственная цель — довести объём венчурных и альтернативных инвестиций до 2 млрд долл. к 2030 году и увеличить число стартапов до 5 000.

С точки зрения проектного управления венчурный инвестиционный цикл представляет собой типичный stage-gate процесс: каждый раунд финансирования (Pre-Seed → Seed → Series A → Series B → Exit) выступает шлюзовой точкой с заранее определёнными контрольными показателями. Эффективность такого подхода существенно возрастает при применении методологий PMI [8]: системы Earned Value Management (EVM) для мониторинга освоения инвестиций, Risk Register для систематизации операционных и рыночных рисков, Stakeholder Engagement Matrix для управления отношениями с инвесторами и учредителями. Кейс TASS Vision наглядно демонстрирует образцовое применение проектного подхода: чёткое прохождение раундов Pre-Seed (UzVC, 100 тыс. долл., 2022 г.), Seed (€1,5 млн, синдикат из шести международных фондов, 2025 г.), последовательное масштабирование с открытием R&D-центров в трёх странах — Узбекистане, Южной Корее и Китае.

Институциональным новшеством стала программа инвестиционного матчинга: согласно постановлению ПП-357, фонд IT Park Ventures удваивает каждую иностранную инвестицию, привлечённую стартапом от международных

венчурных фондов или бизнес-ангелов, в пределах 100 тыс. долл. Дополнительно введён инструмент «R&D-ваучера» на сумму до 50 тыс. долл. для покрытия до 50% расходов на создание минимально жизнеспособного продукта (MVP). Преобразование UzVC в «Фонд фондов» соответствует лучшим международным практикам — модели Yozma в Израиле и Vækstfonden в Дании, что позволяет решать проблемы принципала-агента и асимметрии информации при распределении государственных ресурсов.

Выводы и предложения. Проведённое исследование позволяет сформулировать следующие основные выводы. Во-первых, венчурное финансирование стартапов в Узбекистане в 2024–2025 годах достигло критической массы для самоподдерживающегося роста: совокупная численность фондов, количество сделок и объём капитала превысили пороговые значения экосистемной устойчивости. Во-вторых, действующая институциональная архитектура (UzVC как «Фонд фондов», IT Park Ventures как прямой инвестор, программа matching-инвестиций и R&D-ваучеров) соответствует лучшим международным практикам и создаёт благоприятные условия для дальнейшего развития. В-третьих, слабым звеном остаётся качество проектного управления внутри портфельных компаний: большинство стартапов не имеют формализованных офисов управления проектами (PMO) и систематизированных KPI-систем, что снижает эффективность освоения венчурных инвестиций.

На основе полученных результатов предлагается ряд практических рекомендаций. Первое — интегрировать обязательные требования по проектному управлению в условия предоставления венчурного финансирования (наличие проектной документации, минимального PMO, формализованной KPI-системы и системы отчётности перед инвесторами). Второе — создать централизованную программу сертификации основателей стартапов и проектных менеджеров портфельных компаний по стандартам PMI/PRINCE2/Agile с целевым охватом не менее 1 000 человек к 2028 году. Третье — развивать институт профессиональных проектных менеджеров (Fractional CPO/PMO-as-a-Service) для портфельных компаний фондов на ранних стадиях. Четвёртое — гармонизировать систему отчётности стартапов перед инвесторами на основе адаптированных к стартап-специфике стандартов PMBOK 7. Пятое — рассмотреть возможность создания на базе Высшей школы бизнеса и предпринимательства при Кабинете Министров Республики Узбекистан Регионального центра компетенций по венчурному проектному финансированию для стран Центральной Азии.

Список использованной литературы

1. Постановление Президента Республики Узбекистан №ПП-357 от 14.10.2024 «О мерах по дальнейшему развитию экосистемы стартап-проектов и венчурного финансирования». — URL: https://lex.uz

2. Постановление Президента Республики Узбекистан №ПП-59 от 11.02.2026 «О мерах по внедрению комплексной экосистемы поддержки стартапов». — URL: https://lex.uz

3. Lerner, J., Leamon, A., Hardymon, F. (2012). Venture Capital, Private Equity, and the Financing of Entrepreneurship. — Hoboken: Wiley, 480 p.

4. Nevitt, P. K., Fabozzi, F. J. (2000). Project Financing. 7th Edition. — London: Euromoney Books, 530 p.

5. Sahlman, W. A. (1990). The structure and governance of venture-capital organizations. Journal of Financial Economics, 27 (2), 473–521.

6. RISE Research (2026). Central Asia Venture Capital Report 2025. — URL: https://riseresearch.com

7. StartupBlink (2025). Global Startup Ecosystem Index Report 2025. — URL: https://www.startupblink.com

8. Project Management Institute (2021). A Guide to the Project Management Body of Knowledge (PMBOK Guide). 7th Edition. — Newtown Square: PMI, 250 p.

9. IT Park Ventures (2026). Итоги деятельности Фонда за 2025 год и приоритеты на 2026 год. — URL: https://itpark.uz

10. Узбекистан планирует привлечь $2 млрд венчурных инвестиций к 2030 году // Газета.uz, 17.02.2026. — URL: https://www.gazeta.uz/ru/2026/02/17/startup/

TIJORAT BANKLARIDA CHAKANA XIZMATLARNI KO'RSATISH VA KREDITLASHDA BLOKCHEYN TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISHNING SAMARADORLIGI

Qo'chqarov Temurbek Po'latbek o'g'li
O'zbekiston Respublikasi Bank-Moliya akademiyasi magistranti
ORCID: 0009-0006-5606-1998

Annotatsiya: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992-sonli «2020-2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida»gi va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi PF-6079- son Raqamli "O'zbekiston - 2030" Strategiyasi" to'g'risidagi farmonlari ijrosini ta'minlash maqsadida kredit tizimi takomillashtiriladi.Tijorat banklarining chakana xizmatlari xususan kreditlash jarayonlarini avtomatlashtirish, mijozlar verifikatsiyasini (KYC) soddalashtirish, aktivlar sifatini yaxshilash va operatsion xarajatlarni kamaytirishda aqlli kontraktlar orqali mikrokreditlash, ipoteka va xalqaro o'tkazmalar (SWIFT) tizimiga tatbiq etishda operatsion xarajatlarni pasaytirishning iqtisodiy samaradorligi tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Blokcheyn, aqlli kontraktlar (smart contracts), SWIFT, skoring (scoring), raqamli transformatsiya, npl (non-performing loans), operatsion samaradorlik, kiberxavfsizlik, transchegaraviy o'tkazmalar.

Kirish. Raqamli iqtisodiyot sharoitida bank xizmatlari bozorida raqobat kuchayib bormoqda. An'anaviy bank tizimidagi chakana xizmatlar, ayniqsa kreditlash jarayoni ko'p vaqt talab qilishi va yuqori operatsion xarajatlar bilan tavsiflanadi. Blokcheyn texnologiyasini tatbiq etish, an'anaviy moliya institutlarini yuqori texnologiyali ekotizimlarga aylantirishning asosiy omilidir. Ayniqsa, chakana xizmatlar va kreditlash operatsiyalarida ochiqlik, xavfsizlik hamda tezkorlikni ta'minlash bankning raqobatbardoshligini belgilaydi. Zamonaviy bank tizimida aktivlar sifatini boshqarishda va xalqaro pul o'tkazmalari (SWIFT) yuqori operatsion xarajatlarni uzoq vaqt va inson omili bilan bog'liq risklar tufayli transformatsiyaga muhtoj. Blokcheyn — ma'lumotlarning markazlashmagan reyestri sifatida ushbu muammolarni tizimli hal etish imkonini beradi.

Chakana xizmatlarda blokcheyn texnologiyasidan foydalanishning afzalliklari: identifikatsiya (KYC) – mijoz ma'lumotlarining yagona blokcheyn bazasida saqlanishi banklarga mijozni qayta-qayta tekshirish xarajatlarini tejash imkonini beradi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Innovatsion texnologiyalarni bank - moliya sektoriga kiritishi natijasida raqamli to'lov hamda hisob-kitob tizimlarining ishlashini risk tahlili yuzasidan mavjud muammolari bo'yicha tadqiqot ma'lumotlarining yetishmasligi bugungi kundagi dolzarb masalalardan biridir. Natijalari bunday tadqiqotlar maqsadga muvofiq ekanligi va raqamli aktivlar muomalasini shakllantirishda turli xil yondashuvlardan foydalanishning afzalliklari va

kamchiliklarini aniqlashga imkon berdi. Fikrimizcha, yuqoridagi takliflarni amaliyotga joriy etilishi, nafaqat mamlakat iqtisodiyoti rivojiga balki aholi hamda tadbirkorlik subyektlarini qo'llab quvvatlashga, shuningdek tijorat banklarida raqamli aktivlar savdosini o'sishiga va bank daromadining oshishiga xizmat qiladi deb hisoblayman[174]. Xalqaro hisob-kitoblar banki 34 mamlakatning markaziy banklaridan iborat. Xalqaro hisob-kitoblar banki ularga kreditlar beradi va depozitlarini qabul qiladi hamda ularning hamkorligiga yordam beradi. Xalqaro hisob-kitoblar bankining muhim xususiyati bo‘lib, xalqaro hisob-kitoblarda valyuta kliringi bo‘yicha hamda a’zo mamlakatlarning boshqa hisob-kitoblarida bank-agent funksiyasini bajarishi hisoblanadi. XHKB valyuta va moliyaviy barqarorligini ta’minlashni ikki yo‘nalishda olib boradi: zarurat yuzaga kelganda favqulodda moliyaviy yordam ko‘rsatish, xalqaro moliyaviy tizimning barqarorligi va bank nazorati samaradorligini ta’minlashga qaratilgan standartlarni ishlab chiqish bo‘yicha mutaxassislarni jalb qilish[175].Tadqiqotlar blokcheynning tranzaksiya xarajatlarini kamaytirishi, shaffoflikni oshirishi va firibgarlikning oldini olishi mumkinligini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, huquqiy muammolar, tartibga solish masalalari va texnologiyaning keng qamrovli qo‘llanilishi bo‘yicha hali ham muayyan cheklovlar mavjud. Kelajakda blokcheynning rivojlanishi va integratsiyasi bo‘yicha yanada chuqur tadqiqotlar talab etiladi[176].Raqamli texnologiyalar zamonaviy jamiyatning ajralmas qismiga aylangan. Ular hayotimizni qulay va samarali qilmoqda. Ammo ulardan oqilona foydalanish, ularga bog‘lanib qolmaslik muhimdir. Har bir inson, ayniqsa yoshlar, bu texnologiyalarni o‘zini rivojlantirish yo‘lida ishlatishi zarur. So’nggi yillarda iqtisodiyotni rivojlantirishda ilg’or texnologiyalar va Innovatsiyalarning ahamiyati oshib bormoqda. Eng yangi texnologiyalar ishlab chiqarish va Biznes jarayonlarining samaradorligini oshirishi mumkin[177]. Blokcheyn texnologiyasidan foydalanish har bir kishiga ushbu muammoni vositachisiz hal qilish imkonini beradi. Blokcheyn texnologiyasi uch turga bo‘linadi: ommaviy (publichniy) blokcheynlar, xususiy blokcheynlar va konsorsium blokcheynlari. Ommaviy blokcheynlar markazlashmagan reyestrlarga ega bo‘lib, ular ruxsat talab qilmaydi.Ommaviy markazlashmagan reyestrlar barcha Internet foydalanuvchilari uchun ochiq bo‘lib, jamoatchilik zanjirga bloklar qo‘shish jarayonida (mayning) va blokcheynning joriy holatida so‘zsiz ishtirok etishi bilan ajralib turadi.


Tadqiqot metodologiyasi. Bank tomonidan raqamli texnologiyalar joriy etilishining tahlili quyidagi asosiy yo‘nalishlar bo‘yicha amalga oshiriladi: Retrospektiv tahlil. Tahlilning ushbu sohasi tijorat banklarining Markaziy bank tomonidan o‘rnatilgan

[174]Salayev, R. (2023) *Tijorat banklarida raqamli aktivlar muomalasini takomillashtirish.* Dissertatsiya. O’zbekiston Respublikasi Bank-Moliya akademiyasi.
[175] Ataniyazov, J. (2020) Xalqaro moliya institutlari. Toshkent.
[176]Qodirov, F. va Mardonov, Z. (2025) «Blokcheyn texnologiyasi va uning qo’llanilishi
[177] Pardayeva (2025) «Raqamli texnologiyaning hayotimizdagi O‘Rni», Journal of universal science research, 3(6), cc. 210–213.

iqtisodiy normativlarga muvofiqligi monitoringi asosida asosiy ko‘rsatkichlar va moliyaviy barqarorlik ko‘rsatkichlari tahlilini o‘z ichiga oladi. Moliyaviy barqarorlik tahlilining ushbu sohasi quyidagilardan iborat: likvidlik, foyda ko‘rish (rentabellik), aktivlar sifati, kapitalning yetarliligi va boshqaruv sifati tahlili. Istiqbolli (perspektiv) tahlil. Moliyaviy barqarorlikning istiqbolli tahlilidan maqsad — tijorat bankining samaradorligini prognoz qilishdir. Tijorat bankining moliyaviy barqarorligini baholash moliyaviy resurslarning shakllanishi, taqsimlanishi va ishlatilishida aks etadigan moliyaviy holatni tahlil qilishdan boshlanadi.Tadqiqot davomida sifat metodlaridan ham foydalaniladi. Nominal protseduralar buxgalteriya hisobi sohasidagi umumiy bilimlarga, ya’ni hisobvaraqlar va bog‘liqliklarning aniqligi, qonuniyligi va to‘liqligi haqida xulosa chiqarish qobiliyatiga asoslanadi

Tahlil va natijalar.

2020-2025 yillarda O’zbekistondagi tijorat banklarining xarajatlar tahlili[178]



Diagrammada 2020-2025 yillar mobayinida xarajatlarni keskin oshishini ko’rishimiz mumkinki, shu sababli tijorat banklari zamonaviy texnologiyalardan foydalanishi zarurligini bu esa o’z navbatida bank mahsulotlari narxi arzonlashishiga sifatli xizmat ko’rsatish va raqobatbardoshligini oshirishga ta’sir qiluvchi asosiy omil bo’lib hisoblanadi.

Kreditlash jarayonini optimallashtirishda blokcheynning samaradorligi ayniqsa aqlli kontraktlar (Smart Contracts) orqali avtomatlashtirish bunda kredit shartnomasi shartlari bajarilishi bilan (masalan, garov ta’minoti tasdiqlanishi) mablag‘larni avtomatik ravishda mijoz hisobiga o‘tkazish, mikrokreditlashda kichik hajmdagi kreditlar uchun operatsion xarajatlar yuqoriligi sababli, blokcheyn asosidagi skoring tizimlari jarayonni to‘liq avtomatlashtiradi. Bu bankka inson omilisiz, bir necha soniya

[178] Muallif tomonidan O’zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2020-2025 yillari bo’yicha hisobot ma’lumotlari asosida tayyorlandi

ichida qaror qabul qilish va mablag‘ni o‘tkazish imkonini beradi. Ipoteka kreditlarida esa ipoteka jarayonida mulk huquqini tekshirish, sug‘urta va notarial tasdiqlash kabi ko‘plab bosqichlar mavjud bo’lib, blokcheyn orqali "Garov reyestri" bilan integratsiyalashuvi hujjatlar almashinuvini tezlashtiradi va firibgarlik xavfini (masalan, bir mulkni ikki marta garovga qo‘yish) nolga tushiradi. Iste’mol kreditida mijozning raqamli identifikatori (Digital ID) orqali uning moliyaviy xulq-atvori tahlil qilinadi, bu esa garovsiz kreditlar berishda riskni minimallashtiradi.

2020-2025 yillarda O’zbekistondagi tijorat banklarining muammoli kreditlari (NPL)[179]


mlrd so’m

Yil	Kreditlar	Muammoli kreditlar (NPL)	Muammoli kreditlarning jami kreditlardagi ulushi, foizda
2020	2881356,54	66746,43	35,54
2021	3567195,86	166924,87	55,40
2022	4169178,61	204675,48	59,14
2023	5097149,82	186257,22	43,83
2024	5932302,30	251684,80	50,90
2025	7399119,30	288421,10	51,10

Yuqoridagi jadvaldan kelib chiqib muammoli kreditlar (NPL) ni jami kreditlardagi ulushi 2020-2025 yillar mobayinida o’sganini ko’rsatmoqda bu kredit ajratishda riskni kamaytirish uchun mijoz to‘g‘risidagi ma’lumotlarni ishonchli tarzda olish hamda kredit berish jarayonida har bir detalgacha ahamiyat berish kerakligini anglatadigani bunday amaliyotni bajarishi ko’p vaqt va xarajat talab qiladi.Blokcheyn texnologiyasida mijozning kredit tarixi haqidagi ma’lumotlar o‘zgartirib bo‘lmas tarzda saqlanadi, bu esa firibgarlik xavfini minimal darajaga tushiradi. Xarajatlar tahlilida qog‘ozbozlik va inson omilining kamayishi hisobiga kreditni rasmiylashtirish tannarxi pasayadi, bu esa bankka pastroq foiz stavkalarini taklif qilish imkonini beradi.

[179] Muallif tomonidan O’zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2020-2025 yillari bo’yicha hisobot ma’lumotlari asosida tayyorlandi

2020-2025 yillarda O’zbekiston respublikasi markaziy bankning hisob-kitob kliring tizimi orqali amalga tranzaksiyalar tahlili[180]



2020-2025 yillar mobayinida hisob-kitob kliring tizimiga talabning o’sishini ko’rishimiz mumki bugungi kunda markaziy bankning hisob-kitoblar kliring tizimi orqali tranzaksiyalar "Uzcard" va "HUMO" to'lov tizimlari bo‘yicha kliringni amalga oshirish - bank majburiyatlari miqdoridan 0,005% va to‘lov tizimida chakana to‘lovlar bo‘yicha bir elektron to‘lov hujjatini o‘tkazish narxi - 60 so‘m[181] ni tashkil qiladi bu o’z navbatida tranzaksiyalar bo’yicha operatsion xarajatning oshishiga olib keladi. Blokcheyn texnologiyasida bu tranzaksiyalar tezligi: milliy va xalqaro o‘tkazmalarni vositachilarsiz, real vaqt rejimida amalga oshirish hisobiga komissiya to‘lovlari 40-50% gacha qisqarishi mumkin masalan SWIFT tizimi va xalqaro o‘tkazmalarni transformatsiya qilishda an’anaviy SWIFT tizimi bir necha vositachi banklar orqali ishlashi sababli transchegaraviy o‘tkazmalar 3-5 kungacha vaqt olishi va yuqori komissiya talab qilishi mumkin. Blokcheyn texnologiyasini (masalan, Ripple yoki Stellar protokollari asosida) qo‘llash orqali real vaqt rejimi o’tkazmalar soniyalar ichida amalga oshiriladi. Shaffoflik mablag‘ning qayerda turganini real vaqtda kuzatish imkoniyati paydo bo‘ladi.

Xulosa va takliflar. Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, blokcheyn texnologiyasini joriy etish tijorat banklariga chakana xizmatlar segmentida operatsion samaradorlikni oshirish va mijozlar ishonchini mustahkamlash imkonini beradi. Biroq, bu jarayonda huquqiy bazani takomillashtirish va kiberxavfsizlik masalalariga alohida e’tibor qaratish lozim.Tijorat banklarida blokcheyn texnologiyasining joriy etilishi nafaqat chakana xizmatlar sifatini oshiradi, balki bank xarajatlarini keskin kamaytirib, rentabellikni ta'minlaydi.Banklararo ma’lumotlar almashinuvi uchun yagona blokcheyn platformasini yaratish. Kelgusida banklarda markazlashgan raqamli valyutalar (CBDC) bilan integratsiyalashgan blokcheyn tizimlarini yaratish maqsadga muvofiqdir.

[180] Muallif tomonidan O’zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2020-2025 yillari bo’yicha hisobot ma’lumotlari asosida tayyorlandi

[181] O’zbekiston Respublikasi Markaziy bankining to’lov xizmatlari tariflari

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992-son «2020 — 2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida» farmoni. Toshkent sh, 2020yil 12-may.

2. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079- son Raqamli "O’zbekiston - 2030" Strategiyasi” tog’risidagi farmoni.

3. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli «2022-2026 yillarga mo’ljallangan yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi» to’g’risidagi farmoni.

4. S.Berger, F.Gleisner. Elektron bozorlarda moliyaviy vositachilarning paydo bo'lishi: onlayn P2P kreditlash misolida. Business Research. 2009; 39–65-betlar

5. Geremiya, Patrik. "Siklik ortiqcha tekshiruv (CRC) hisob-kitobi: TMS320C54x protsessoridan foydalangan holda amalga oshirish". Texas Instruments. 6-bet, 2016-yil.

6. O.Abdullayev, K. Rakhimberdiev Raqamli iqtisodiyotda blokcheyn va sun’iy intellekt texnologiyalariga asoslangan masofaviy ta’lim tizimlarini shakllantirish usullari va algoritmlari. maqola.- Toshkent, 2022.

7. G.Juraev, K. Rakhimberdiev Blockchain texnologiyasiga asoslangan bank kreditlash platformalari uchun kalit generatorlarining matematik modellash.maqola.- Toshkent, 2023.

8. G.Juraev,K. Rakhimberdiev Blokcheyn texnologiyasiga asoslangan kredit beruvchilarning qaror qabul qilish jarayonini modellash.

9. Salayev, R. (2023) Tijorat banklarida raqamli aktivlar muomalasini takomillashtirish. Dissertatsiya. O’zbekiston Respublikasi Bank-Moliya akademiyasi.

10. Ataniyazov, J. (2020) Xalqaro moliya institutlari. Toshkent.

11. Qodirov, F. va Mardonov, Z. (2025) «Blokcheyn texnologiyasi va uning qo’llanilishi

12. Pardayeva (2025) «Raqamli texnologiyaning hayotimizdagi o’rni», Journal of universal science research, 3(6), cc. 210–213.